O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ALFRAGANUS UNIVERSITETI

IQTISODIY XAVFSIZLIK

Toshkent-2026

UO‘K:
KBK:

Iqtisodiy xavfsizlik: oliy ta’limning 60410100 - “Iqtisodiyot”, 60410800- “Menejment” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik / A. A.Abduvoxidov, M. A. Mamatov, Y.D.Jurayev, N.X. Bobonov/ T.: “Alfraganus university” nashriyoti, 2026 y. 495 b.

Darslikda milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi bo‘lgan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning dolzarb masalalari, shaxs, korxona (firma) va mamlakat iqtisodiy manfaatlariga ta’sir etuvchi tahdidlar hamda ularni bartaraf etish mexanizm, vosita va usullari bayon etilgan.

Darslik oliy ta’lim muassasalarining talabalari uchun mo‘ljallangan, darslik materiallaridan sohaga qiziquvchilar ham keng foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

A.F.Rasulev – TDIU “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi professori, i.f.d.
Sattorqulov O.T – GulDU “Iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.n.

Darslik Guliston davlat universiteti rektorining 2026 yil 03 apreldagi 79-O-sonli buyrug‘i bilan nashr etishga tavsiya etilgan (nashr ruxsatnomasi № 79-10).

ISBN 978-9910-12-523-2

O‘zbekistonning taniqli iqtisodchi olimlaridan biri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Hasan Pirnazarovich Abulqosimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlanadi

Professor Hasan Pirnazarovich Abulqosimov o‘zining yuksak ilmiy salohiyati, chuqur nazariy tafakkuri va hayotiy-amaliy tahlilga asoslangan tadqiqotlari bilan O‘zbekiston iqtisodiy fanining taraqqiyotida o‘ziga xos maktab yaratgan yetuk olimlardan biri edi. U kishining ilmiy merosi milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash, tizimli islohotlarni ilmiy jihatdan asoslash, iqtisodiy xatar va tahdidlarni oldindan aniqlash hamda ularga qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, bugungi kunda iqtisodiy xavfsizlik fanining muhim nazariy-metodologik poydevorini tashkil etadi.

Olimning konseptual qarashlarida iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy ko‘rsatkichlar majmuasi sifatidagina emas, balki ijtimoiy muvozanat, institutsional barqarorlik, milliy manfaatlarni himoya qilish va uzoq muddatli strategik rivojlanish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali tizim sifatida talqin etiladi. U kishining asarlarida iqtisodiy xavfsizlikka nisbatan tizimli, kompleks va dinamik yondashuv ustuvor bo‘lib, mazkur fanning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Professor Hasan Pirnazarovich Abulqosimov nafaqat yirik olim, balki yuksak ma’naviyat sohibi, haqiqiy ustoz sifatida ham ilm ahli va keng jamoatchilik orasida katta hurmat-e’tibor qozongan. Uning ilmiy maktabi, hayotbaxsh o‘gitlari va tarbiyalagan shogirdlari orqali qoldirgan ma’naviy va ilmiy merosi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda.

Mazkur **“Iqtisodiy xavfsizlik”** darsligini tayyorlash jarayonida professor Hasan Pirnazarovich Abulqosimovning ilmiy merosi, konseptual yondashuvlari va iqtisodiy xavfsizlikka oid ilg‘or g‘oyalari muhim g‘oyaviy va metodologik manba sifatida e’tiborga olindi. U kishining yorqin xotirasi, ilm-fanga fidoyilik bilan bag‘ishlangan hayot yo‘li va ma’naviy merosi avlodlar qalbida mangu yashaydi.

“...Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat’i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo‘lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir... Hammamiz bir haqiqatni yaxshi tushunamiz, ... belgilab olgan reja va dasturlarimizni amalga oshirish, albatta oson bo‘lmaydi. Hali faqat qog‘ozda bo‘lgan bu reja va dasturlarni amaliy ishlarga, real natijaga aylantirish uchun barchamiz birgalikda qattiq mehnat qilishimiz kerak. Bu yo‘lda bizga ishonch va ilhom, g‘ayrat va shijoat beradigan beqiyos bir kuch-qudrat borki, biz unga tayanib, o‘z maqsadlarimizga albatta etamiz. Bu – hayot sinovlarida toblangan, so‘zida qat’iy turadigan, ishning ko‘zini biladigan, mehnatkash, mard va matonatli xalqimizdir.”

Sh. Mirziyoyev.

KIRISH

Mamlakatimizda 2026 yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinishi yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning inson manfaatlari, jamiyat barqarorligi va hududlarni kompleks rivojlantirishga qaratilganini yaqqol namoyon etadi. Bu ayniqsa, yoshlarning mamlakatimiz ravnaqi va taraqqiyotidagi o‘rni va rolini yuksak baholash, ularning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi hamda mas’uliyatini oshirishga qaratilgan muhim siyosiy-ijtimoiy voqelik sifatida namoyon bo‘ladi.

Mahalla institutining rivojlanishi yoshlarning ma’naviy kamoloti, fuqarolik

pozitsiyasini shakllantirish, bandlikni ta’minlash va tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim o‘rin tutadi. Shu ma’noda, mazkur yil doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoshlarning mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirokini ta’minlash, fuqarolarning farovon turmush kechirishi, munosib hayot sharoitlariga ega bo‘lishi hamda O‘zbekistonning jahondagi ilg‘or jamiyatlar safidan munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning faol va bevosita

ishtirokchisi, jamiyatning haqiqiy tayanchi va suyanchiga aylantirish mamlakatimizning ustuvor va strategik vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda hayotga izchillik bilan tatbiq etilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning zamon talablari darajasida ta’lim olishi, o‘sib-ulg‘ayishi, o‘z bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, o‘zining qat’iy hayotiy e’tiqod va qarashlariga ega bo‘lgan, “halollik vaktsinasi” bilan emlangan, milliy mentalitetimizga yot zararli ta’sirlarga qarshi turishga qodir yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro ekspertlar yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligiga asosan yoshlarning umumiy ahvolidan kelib chiqib uch mezon asosida baho beradi. Yoshlar salomatligi darajasi, yoshlarga berilayotgan ta’lim darajasi va yoshlarning ijtimoiy ta’minlanganlik darajasi shular jumlasidandir.

Islohotlar silsilasida Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan O‘zbekistonda ilk bor ishsiz yoshlar bandligini ta’minlashga qaratilgan mutlaqo yangi tizim – “Yoshlar daftari”ning joriy etilishi yoshlarga oid siyosatni yangi sifat bosqichiga ko‘tardi. Natijada o‘tgan qisqa davr ichida respublikada yashayotgan 18-30 yoshdagi minglab ijtimoiy himoyaga, iqtisodiy va psixologik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj, ishsiz yoshlar “Yoshlar daftari”ga kiritilib, ularning muammolarini hal qilish uchun hududlarda “Yoshlar jamg‘armalari” orqali zarur mablag‘ ajratildi.

Mamlakatimiz rahbari 2018 yilning 28 -dekabr kuni mamlakatimiz Parlamentiga yo‘llagan Murojaatnomasida: “Biz har bir yilga ezgu niyat bilan nom beramiz va o‘z oldimizga ulkan marralarni qo‘yamiz. Buyuk Imom Buxoriy hazratlarining “Al-Jomi’ as-Sahih” asari “Barcha ezgu amallar niyatga bog‘liq, har bir kishiga faqat niyat qilgan narsasi beriladi” degan hadis bilan boshlanishida albatta juda chuqur ma’no bor.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni kelgusi yillarda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy

o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori innovatsion va texnologik iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish maqsadida “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risi izchillik bilan bajarilishi ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash muhim hisoblanadi.

Dunyo miqyosida manfaatlar kurashi, raqobat tobora avj olib, xalqaro vaziyat keskinlashib bormoqda. Mana shunday bir sharoitda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash va barqaror rivojlanishga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash har qanday mustaqil davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning dolzarbligi uning milliy iqtisodiyotning aholi uchun normal hayotiy faoliyat sharoitlarini, uni barqaror tarzda

resurslar bilan ta’minlash, milliy davlat manfaatlarini ruyobga chiqara olishga qodirligini ifodalash bilan ham tavsiflanadi.

Ayniqsa, yosh mustaqil davlatlar iqtisodiyotining biryoqlamaligi va qaramligi, aholining past turmush darajasi o‘zida ijtimoiy tahdidni ifodalab, xavfsizlikni ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Milliy iqtisodiyotning turli ichki va tashqi tahdidlarga bardoshliligini hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, uning jahon iqtisodiy tizimida raqobatbardoshligini oshirish masalalarini tahlil qilish mazkur darslikning maqsadi hisoblanadi.

Darslikning vazifasi talabalarda bugungi globallashuv sharoitida shaxs, korxona (firma) va milliy iqtisodiyot xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish asosida zaruriy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. “O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish asnosida mamlakatimizni barqaror rivojlantirish borasida milliy iqtisodiyotga, korxona (firma) va alohida shaxsga nisbatan xavf tug‘dirayotgan tahdidlarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar darslikning obyekti hisoblanadi.

Ayni bugungi kunda har bir fuqaro, shaxs iqtisodiy hayotda sodir bo‘layotgan jarayonlarning o‘zi, oilasi va mamlakat uchun qay darajada ta’sir etishi haqida mustaqil fikrlashni, iqtisodiy tahdidlarni aniqlash hamda xavfsizlikni mikro va makro darajada ta’minlashdagi muammolar yechimini izlab topish yul-yo‘riqlarini o‘rganishi lozim.

Shu asosda iqtisodiy tahdid va xavfsizlik, iqtisodiyotning raqobatbardoshliligini oshirish masalalariga ilmiy-nazariy jihatdan yondashib, uni hal etishda amaliy ko‘nikmalar hosil etishi maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham, mazkur darslikda shaxs, korxona (firma) va butun mamlakatning iqtisodiy manfaatlariga ta’sir etuvchi tahdidlar hamda ularning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari, vosita va usullari bayon etilgan.

Iqtisod- bu ishchi ot, siyosat esa-ishchi otga qo‘shiladigan arava. Bularning ikkisi ham o‘z o‘rniga ega bo‘lishi lozim. Iqtisod hamisha siyosatdan oldinda yurishi kerak, aksincha emas.

Muhammad ibn Rashid al- Maqtum.

I BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIK FANINING PREDMETI, METODI VA ASOSIY VAZIFALARI

1.1. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi: uning ta’rifi va mazmuni

1.2. “Iqtisodiy xavfsizlik” fanining predmeti, obyekti va maqsadlari

1.3. Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari (indikatorlari)

Tayanch tushuncha va iboralar: Iqtisodiy xavfsizlik, barqaror iqtisodiy o‘sish, davlatchilik, milliy xavfsizlik, iqtisodiy manfaatlar, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar.

Qisqacha sharh

Mazkur bobda iqtisodiy xavfsizlik fanining nazariy asoslari har tomonlama yoritilgan bo‘lib, u fanni o‘rganishning boshlang‘ich va muhim bosqichi hisoblanadi. Bob avvalo “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining mohiyatini ochib berishga bag‘ishlangan. Unda iqtisodiy xavfsizlik davlatning iqtisodiy mustaqilligi, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, aholi farovonligini ta’minlash hamda ichki va tashqi iqtisodiy tahdidlarga qarshi turish qobiliyati sifatida talqin etilgan. Shu orqali iqtisodiy xavfsizlikning mamlakat milliy xavfsizligi tizimidagi o‘rni asoslab berilgan.

Bobning keyingi qismlarida “iqtisodiy xavfsizlik” fanining predmeti, obyekti va asosiy maqsadlari keng yoritilgan. Fanning predmeti sifatida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar, obyekt sifatida esa milliy iqtisodiyot, uning tarmoqlari, hududlar, korxonalar va aholi iqtisodiy manfaatlari belgilangan. Fanning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy tahdidlarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olishdan iborat ekanligi ta’kidlangan.

Shuningdek, bobda iqtisodiy xavfsizlikni baholashda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar - indikatorlar mazmuniga alohida e’tibor qaratilgan. Makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy xavfsizlik, tashqi iqtisodiy faoliyat, investitsiya muhiti, ishsizlik darajasi, inflyatsiya sur’atlari, davlat qarzi kabi ko‘rsatkichlar iqtisodiy xavfsizlikni baholashda muhim mezonlar sifatida ko‘rib chiqilgan. Ushbu indikatorlar orqali iqtisodiyotdagi xavf-xatarlar darajasi aniqlanib, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi va aholi daromadlari

2025 yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston so‘nggi yillarda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha eng sezilarli sur’atlardan birini namoyon etdi. Bu esa, o‘z navbatida, aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni faol qo‘llab-quvvatlash, mahallalarda ehtiyojmand aholi qatlamlari bilan manzilli ishlashni tashkil etish hamda ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish natijasida yuzaga keldi.

Milliy statistika qo‘mitasi va Jahon banki hamkorligida o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalariga ko‘ra, 2025 yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 3,1 foiz punktga qisqarib, 5,8 foizni tashkil etdi. O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini hisoblash metodologiyasi Jahon banki tavsiyalariga muvofiq, 16 mingta uy xo‘jaligi byudjetini o‘rganish asosida amalga oshiriladi.

2023 yilda respublikada kambag‘allik darajasi 14 foizdan 11 foizga, 2024 yilda 8,9 foizga, 2025 yilda esa 5,8 foizgacha qisqardi. Natijada, joriy yilda ehtiyojmand 302 ming oila kambag‘allikdan chiqarildi. Kambag‘allik darajasining pasayishi respublikaning barcha hududlarida kuzatilmoqda.

Eng yuqori natijalar Jizzax viloyatida (11,8%dan 5,8%gacha), Xorazm viloyatida (11,9%dan 6,7%gacha), Sirdaryo viloyatida (11,3%dan 6,2%gacha), Qoraqalpog‘iston Respublikasida (10,8%dan 6,6%gacha) hamda Toshkent shahrida (7,3%dan 3,5%gacha) qayd etildi.

Kambag‘allik darajasi shaharlarda ko‘proq qisqarib, 2025 yilda 5,2 foizni (2024 yilda 8,6%) tashkil etgan bo‘lsa, qishloq hududlarida 6,4 foizni (2024 yilda 9,2%) tashkil etdi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, bugungi kunda respublikada kambag‘al aholi soni 2,2 million nafarni tashkil qiladi. Hududlar kesimida kambag‘allar soni eng ko‘p

Samarqand (265 ming nafar), Farg‘ona (239 ming nafar), Qashqadaryo (238 ming nafar) va Andijon (214 ming nafar) viloyatlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Mamlakatda aholi daromadlari tarkibi tahlili ijobiy o‘zgarishlarni namoyon etmoqda. Daromadlarning asosiy manbalari mehnat faoliyatidan olingan daromadlar, ijtimoiy to‘lovlar, pensiyalar hamda qishloq xo‘jaligidan olingan daromadlarga to‘g‘ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga o‘rtacha oylik daromadlar 2,6 mln so‘mni tashkil etib, uning tarkibida:

- mehnat faoliyatidan olingan daromadlar – 72,6% (2024 yilda – 67,7%),
- keksalik pensiyalari – 11,8% (12,2%),
- qishloq xo‘jaligidan olingan daromadlar – 10,1% (12,7%),
- ijtimoiy yordam – 1,6% (2,2%),
- boshqa daromadlar – 3,9% (5,2%) ni tashkil etdi.

Mamlakatda “Xitoy tajribasi” asosida yangi yondashuvlarning amaliyotga joriy etilishi yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirishda muhim omil bo‘ldi. Xususan, 2025 - yilda:

- eksportchi korxonalar ishtirokida “kompaniya – kooperativ – dehqon xo‘jaligi” tamoyili asosida 484 ta kooperativ tashkil etilib, ularga 15,7 ming nafar kambag‘al oila a’zolari jalb qilindi;
- o‘rmon fondi yerlaridan 8,7 mingta kambag‘al oilaga ko‘chatxona tashkil etish va dorivor o‘simliklar yetishtirish uchun 21 ming gektar yer maydoni ijara asosida ajratildi;
- 2,3 mingta kambag‘al oilalarga o‘zi yyetishtirgan mahsulotini sotish uchun dehqon bozorlari va supermarketlardan 7,5 ming kv.m maxsus savdo joylari ajratildi;
- 12 ta yangi “turizm mahallalari” tashkil etilib, 40 ta mahallada turizm xizmatlarini rivojlantirish orqali 1,3 ming nafar kambag‘al oila a’zolarining bandligi ta’minlandi.

Shuningdek, Sayxunobod tajribasi asosida mahallalarda qiymati 18 trln. so‘mlik 394 mingdan ortiq mikroloyihalar amalga oshirilib, buning natijasida respublika bo‘yicha jami 809 ming kishining bandligi ta’minlandi.

2025 yilning 11 oyida tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash uchun 127,1 trln. so‘m kredit ajratildi. Ushbu mablag‘larning 27,7 trln. so‘mi tadbirkorlik dasturlariga yo‘naltirildi. Jumladan:

- 4 trln. so‘m - “Oilaviy tadbirkorlik”,
- 6,6 trln. so‘m - “Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash”,
- 4,4 trln. so‘m - “Biznesga birinchi qadam”,
- 13 trln. so‘m - “Mahalla loyihasi” dasturlariga ajratildi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat natijasida aholi daromadlari o‘rtasidagi tengsizlik sezilarli darajada qisqarmoqda. Xususan, aholining eng yuqori daromadli (1-kvintil) va eng past daromadli (5-kvintil) guruhlari o‘rtasidagi tafovut 2024 yildagi 6,3 baravardan 2025 yilda 5,7 baravargacha kamaydi.

Ushbu ijobiy dinamika kam ta’minlangan qatlam daromadlarining yuqori sur’atlarda o‘sishi hisobiga erishildi. Tahlillarga ko‘ra, eng kam ta’minlangan aholi guruhi daromadlari 26 foizga oshgan bo‘lsa, yuqori daromadli qatlam daromadlari 13 foizga oshgan.

Daromadlar tengsizligini ifodalovchi Jini koeffitsiyenti 2024 yildagi 0,35 dan 2025 yilda 0,33 gacha pasaydi. Jini koeffitsiyentining kamayishi ayniqsa Toshkent shahri (0,26; 2024 yilda – 0,32), Sirdaryo viloyati (0,28; 0,32) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (0,28; 0,32) yaqqol namoyon bo‘ldi.

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini baholash 2020 yildan buyon doimiy asosda amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur baholash aholining turmush darajasi, yashash sharoiti va hayot sifati to‘g‘risidagi muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi hamda mamlakatda monetar kambag‘allik darajasini aniqlashning yagona rasmiy axborot manbasi hisoblanadi.

1.1. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi: uning ta’rifi va mazmuni

Iqtisodiy xavfsizlik – iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. U iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, oqilona boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarning himoyalanganlik holatini ifodalaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uning moddiy asosi bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy kategoriya sifatida davlatchilik shakllangan hamda jamiyat o‘z manfaatlarini anglab etgan davrlardan paydo bo‘la boshlagan.

Iqtisodiy xavfsizlik o‘zining obyekt va subyektlariga ega bo‘lib, uning obyekti deganda mamlakatning iqtisodiy tizimi hamda uni tashkil etuvchi unsurlari tushuniladi.

Iqtisodiy xavfsizlik obyektlariga quyidagilar kiradi: tabiiy boyliklar; inson resurslari, mehnatga layoqatli aholi; ishlab chiqarish fondlari; ko‘chmas mulk; moliyaviy resurslar; xo‘jalik tizimlari; mintaqalar; oila; inson.

Iqtisodiy xavfsizlik subyektlari quyidagilardan iborat:

- funksional va tarmoq vazirliklari hamda idoralari;
- soliq xizmatlari;
- bojxona xizmatlari;
- banklar;
- birjalar;
- sug‘urta kompaniyalari;
- qonun chiqaruvchi organlarning tegishli qo‘mita va komissiyalari;
- mahsulot ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar, ish va xizmatlar ko‘rsatuvchilar;
- iste’molchilar jamiyatlari.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi turlari mavjud:

- ishlab – chiqarish -texnologik sohalardagi xavfsizlik;

- sanoat sohasidagi xavfsizlik;
- oziq-ovqat xavfsizligi;
- demografik xavfsizlik;
- moliyaviy xavfsizlik;
- axborot xavfsizligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi xavfsizlik va h.k.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi indikatorlari ajratib ko‘rsatiladi:

- yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sishi;
- aholining turmush darajasi va sifati;
- inflyatsiya darajasi;
- ishsizlik darajasi;
- iqtisodiyot tarkibi;
- davlat qarzi;
- jamiyatning mulkiy tabaqalanishi;
- iqtisodiyot va jamiyatning kriminallashuvi;
- ishlab chiqarishning texnik va texnologik holati;
- raqobatbardoshlik;
- importga bog‘langanlik;
- xufyona iqtisodiy faoliyat miqyosi;
- oltin valyuta zaxiralari.

Iqtisodiy xavfsizlikni mezonlarga asoslangan holda o‘rganish deganda, iqtisodiyot holatini umumlashtirilgan holda, ya’ni resurs salohiyati va uning rivojlanish imkoniyatlari, resurslardan foydalanish samaradorligi darajasi, raqobatbardoshligi va hokazolarni baholash tushuniladi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lganligi bois ham uni ta’minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mamlakatning har sohada yuksalishining asosiy shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Mutaxassislarning fikricha, “ushbu dolzarb masalada yengil fikrlash yoki muqarrar



1.1-rasm. Milliy xavfsizlik turlari va milliy xavfsizlikning eng zaif sohalari[1]

xavfga bepisandlik bilan qarash, uni kamaytirib ko‘rsatish qanday oqibatlarga olib kelganligi haqida tarixdan istalgancha misollar keltirish mumkin”[2].Iqtisodiy xavfsizlik davlat xavfsizligi tizimidagi muhim yo‘nalish bo‘lib, mamlakat mudofaa qobiliyatini ta’minlash, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ekologik halokatlardan himoya qilish kabi yo‘nalishlar bilan bir qatorda turadi. Mana shu yo‘nalishlar bir-birini to‘ldirib turadi va bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki, mamlakat iqtisodiyoti baquvvat bo‘lmasa, u barqaror rivojlanmasa, ushbu mamlakatning mudofaa qobiliyatini ta’minlash mushkul bo‘lib qoladi. Ayni paytda,

[1] Abulqosimov H. Economic security.“ //Akademiya” Publishing House Tashkent–2006. – 2006.
[2] Экономическая безопасность: учебник для вузов/ под общей редакции Л.П. Гончаренко, Ф.П. Акулинина. М.: издательство-ЮРАЙТ. 2018. 478 стр. Серия: Специалист

mamlakatda ijtimoiy barqarorlik ta’minlanmas ekan, uning mudofaa qobiliyati ham mustahkam bo‘lmaydi va iqtisodiyoti samarali rivojlanmaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritib berishdan oldin milliy xavfsizlik tushunchasiga to‘xtalib o‘tish kerak bo‘ladi. Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish va farovonlikka intilish to‘g‘risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi. Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatlarini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g‘oyaviy va boshqa omillar ta’siri va tahdidlardan himoya qilishga yo‘naltiriladi. Shuning uchun ham milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo‘lib, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g‘oyaviy, mafkuraviy, axborot xavfsizligini o‘z ichiga oladi (1.1-rasm).

Iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil, barqaror rivojlanishiga qodirligini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Respublikamizda iqtisodiy xavfsizlik masalasi mamlakat milliy xavfsizligining bir qismi sifatida birinchi marta O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida ko‘rib chiqildi. Unda mamlakatning milliy xavfsizligi, uning ajralmas qismi bo‘lgan iqtisodiy xavfsizlik masalalari nazariy jihatdan chuqur tahlil qilingan.

Hozirgi paytda iqtisodiy xavfsizlik bu – mamlakat iqtisodiyotini doimiy barqaror rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning umummilliy majmuasi bo‘lib, u albatta davlatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi va mustaqilligini hamda tashqi va ichki tahdidlarga qarshi turish mexanizmini ko‘zda tutadi.

Ilmiy adabiyotlarda va darsliklarda “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining turlicha talqinlari berilgan. Bir guruh olimlar mazkur tushuncha mazmunini mamlakatning yetarli mudofaa salohiyatini, davlat siyosatining ijtimoiy

yo‘naltirilganligini, milliy manfaatlarni himoya qilishni kafolatlashga qodir bo‘lgan iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining ahvoli sifatida ta’riflaydi[3].

Boshqa bir guruh olimlar esa o‘rganilayotgan tushunchani hokimiyat institutlarining iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan, milliy manfaatlarni himoya qilish va ro‘yobga chiqarish hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minlash mexanizmlarini yaratishga qodirligi va tayyorligi, deb talqin qiladilar.

A. Isaxodjayev va A. Rasulevlarning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik bu faqat milliy manfaatlarni himoya qilishdan iborat bo‘lmay, davlat hokimiyati institutlari, ijtimoiy birlashmalar, xususiy sektorning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining milliy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish mexanizmini yaratish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minlashga tayyorligi va qobiliyatidir.

“Iqtisodiy xavfsizlik” deganda iqtisodiyotning mamlakat ijtimoiy, siyosiy va mudofaa qobiliyatining yetarli darajasini ta’minlash imkonini beradigan holati tushuniladi. “Iqtisodiy xavfsizlik” – bu xalqning (davlat orqali) mustaqil ravishda, tashqaridan bo‘ladigan aralashish va tazyiqlarsiz o‘z iqtisodiy taraqqiyot yo‘li hamda shakllarini belgilashidir. “Iqtisodiy xavfsizlik” – bu nafaqat milliy manfaatlarni himoyalanganligi, balki hokimiyat institutlarining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish borasidagi milliy manfaatlarni amalga oshirish va himoyalash mexanizmlarini yaratishga bo‘lgan tayyorligi va qobiliyati hamdir.

Rossiyalik mashhur olim, akademik L. Abalkin “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining uchta asosiy unsurini ajratib ko‘rsatgan. Bular: iqtisodiy mustaqillik, milliy iqtisodiyotning barqarorligi, mamlakatning rivojlanish va taraqqiy etishga qodirligi.[4]

L.Abalkinning fikricha, iqtisodiy mustaqillik mutloq tavsifga ega emas, chunki xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga bog‘liq qilib qo‘yadi. Bunday sharoitlarda iqtisodiy mustaqillik milliy resurslarni nazorat qilish imkoniyatini bildiradi. Ishlab chiqarish, samaradorlik va mahsulot sifatining

[3] Экономическая безопасность: учебное пособие/ М.В. Кунцман. – М.: МАДИ, 2016. – 152 с.

[4] Абалкин Л. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение.// Вопросы экономики. 1994, №12, с. 45

shunday darajasiga erishish kerakki, u mahsulot raqobatbardoshligini ta’minlasin va jahon savdosida, kooperatsiya aloqalarida va fan-texnika yutuqlarini ayirboshlashda teng ishtirok etish imkoniyatini bersin. Milliy iqtisodiyotning barqarorligi esa mulkchilikning barcha shakllarini himoya qilish, tadbirkorlik faolligi uchun sharoit va kafolatlarni yaratish, barqarorlikka putur yetkazishi mumkin bo‘lgan omillarga (masalan, iqtisodiyotda kriminal tuzilmalar bilan kurash, og‘ir ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan daromadlar taqsimlanishida katta tafovutlarga yo‘l qo‘ymaslik) to‘siq bo‘lish imkoniyatlarini bildiradi.



1.2-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik darajalari [5]

Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, mamlakatning o‘z-o‘zidan rivojlanish va taraqqiy etishga qodirligi ayniqsa hozirgi paytda o‘ta muhimdir. Investitsiya va innovatsiyalar uchun kerakli muhitni yaratish, ishlab chiqarishni muntazam modernizatsiya qilish, xodimlarining bilim, kasb-malaka, umumiy madaniy

[5] Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. – СПб.: Питер, 2007, с. 67

darajasini oshirish kabilar milliy iqtisodiyotning barqarorligining zarur va muhim shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi[6].

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining shunday holatidirki, bunday holatda mamlakat milliy manfaatlarining kafolatli himoyalangani, mamlakat iqtisodiy rivojining ijtimoiy yo‘naltirilganligi, ichki va tashqi jarayonlar rivojidagi eng noqulay sharoitda ham mudofaa salohiyatining yetarli darajada ta’minlanganligini ifoda etadi.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi darajalari mavjud:

xalqaro (global va mintaqa darajasida);

milliy, lokal (mamlakat ichidagi mintaqa yoki tarmoq darajasida);

xususiy (firma va shaxs darajasida).

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik - bu har bir davlat, ya’ni dunyo hamjamiyati a’zosining o‘z ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti strategiyasini erkin tanlash va amalga oshirish imkoniyatlarining ta’minlangandagi holatidir.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikni amalga oshirishda taraqqiyot modellarini zo‘rlab o‘tkazish, iqtisodiy va siyosiy jihatdan majburlashdan voz kechish, har qanday xalqning o‘z mustaqil yo‘lini tanlash huquqini tan olish, turli mulkchilik shakllari va manfaatlarning mavjudligini qonuniy ekanligini hurmatlash yo‘lidan boriladi.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining milliy manfaatlarni kafolatli himoyalanganligi, mamlakat rivojlanishining ijtimoiy yo‘naltirilganligi, yetarli iqtisodiy va mudofaa salohiyatining ta’minlangandagi holatini ifodalaydi.

Korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi - ma’muriyat va personal tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy- iqtisodiy va injener-texnik chora-tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarning ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatidir[7].

---

[6] Гордиенко, Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекции. Учебно-методическое пособие / Д.В. Гордиенко. – М.: Инфра-М, Финансы и статистика, 2013. - 625 с.

[7] Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.

Ko‘pchilik mutaxassislarning fikricha, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida chora-tadbirlarni ishlab chiqishda unga ta’sir etuvchi barcha omillarni va birinchi navbatda iqtisodiyotning samaradorligini oshirishni hisobga olish kerak bo‘ladi.

Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyotning izchil va samarali o‘sishini ta’minlay oladigan ichki va tashqi shart-sharoitlar yig‘indisini hamda uning jamiyat, davlat, shaxsning ehtiyojlarini qondira olish, tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta’minlay olish, turli tahdidlardan himoyasini kafolatlay olish qobiliyatini ifodalaydi.

Bundan kelib chiqadiki, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi birinchi navbatda iqtisodiyotning samaradorligi bilan ta’minlanishi kerak, ya’ni iqtisodiyot yuqori mehnat unumdorligini ta’minlash, mahsulot sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni ta’minlash asosida o‘zini o‘zi himoya qilishi zarur. Bu esa davlat organlari, iqtisodiyotning barcha bo‘g‘inlari va tashkiliy tuzilmalari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

1.2. “Iqtisodiy xavfsizlik” fanining predmeti, obyekti va maqsadi

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon iqtisodiyotida katta o‘zgarishlar amalga osha boshladi. Bu integratsiya jarayonlarida va xalqaro mehnat taqsimotida, globallashuv jarayonlarining tezlashuvida namoyon bo‘ldi. Jahon mamlakatlarining taraqqiyot darajasidagi tafovutlarning kuchayib borishi va rivojlangan davlatlar tomonidan teng bo‘lmagan iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirilishi, ya’ni bilvosita nazorat qilish (investitsiyalar kiritish, kredit va subsidiyalar berish yo‘li bilan) siyosatini amalga oshirish, ba’zi hollarda siyosiy tazyiq o‘tkazish kabi hodisalar ham hozirgi davrning xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda. Iqtisodiy jihatdan qaram mamlakatlarga savdo embargosi orqali siyosiy shartlar qo‘yish amaliyotini, buning oqibatlarini boshdan kechirgan Iroq, Eron, Liviya, Kuba kabi mamlakatlar misolida ko‘rish mumkin.

Ma’lum davrlarda jahon iqtisodiyotida, alohida olingan mintaqalarda, mamlakatlarda sodir bo‘ladigan turli inqirozlar milliy, shu jumladan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash muammolarining dolzarbligini oshiradi. Ma’lumki, AQSh

ipotekali kreditlash tizimidan boshlanib, keyinchalik jahon iqtisodiyotini qamrab olgan “moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog‘liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi”[8]. Bunday sharoitda milliy manfaatlarni himoya qilish, mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, aholini turmush darajasini pasayib ketishini oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada zaruriy chora-tadbirlarni belgilash uchun esa tahdidlarning tabiati, miqyosi, ularning oqibatlarini bilish kerak bo‘ladi.

Hozirga kelib O‘zbekiston integratsiyalashgan global iqtisodiy makonning, global moliyaviy- iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, “Hozirgi global iqtisodiyotda raqobatga chidamli bo‘lish uchun malakali kasb egalari va mutaxassislar, zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutmaslik lozim. Agar biz sanoatda – elektronika va elektrotexnika, biokimyo va polimerlar, farmatsevtika, mashinasozlik kabi yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan sohalarni rivojlantirish; xizmatlarda – IT, sun’iy intellekt, fintex, konsalting, transport-logistika kabi katta daromad keltiradigan servislarni ko‘paytirish; qishloq xo‘jaligida – unumdorlikni oshirish uchun bioinjeneriyadan keng foydalanish, ilg‘or agrotexnika va suv tejaydigan usullarni faol qo‘llash; iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun “yashil” energetika, chiqindisiz ishlab chiqarishga o‘tish; ta’lim va tibbiyotda – sifatni yangi bosqichga olib chiqadigan ilg‘or xorijiy tajribalarni keng joriy etish uchun yangi texnologiyalarni olib kirsak, kadrlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan

[8] I.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. Toshkent, O’zbekiston. 20094-б

zamonaviy kasblarga tayyorlasak, kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 milliard dollardan oshirishga barcha imkoniyatlarimiz bor”[9].

Bunday sharoitda mamlakat korxonalarini tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlash, dunyo bozorlari talabiga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportni rag‘batlantirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlash esa mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning muhim omili bo‘lib hisoblanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ham, milliy xavfsizlikni ham birdek ta’minlash davlatning eng asosiy funksiyalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Amerikalik mutaxassislarning fikriga ko‘ra, iqtisodiy xavfsizlik ta’minlanishi uchun kamida ikkita shart bajarilishi kerak:

- birinchisi, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini, xo‘jalikning taraqqiy etishiga tegishli bo‘lgan qarorlarni o‘z manfaatlaridan kelib chiqib qabul qilish qobiliyatini saqlab qolish;

- ikkinchisi, aholining erishilgan turmush darajasini saqlab qolish va uni yanada yuksaltirish imkoniyatlarining mavjud bo‘lishi[10].

Bundan ko‘rish mumkinki, iqtisodiy xavfsizlik – bu eng avvalo mamlakat milliy manfaatlarining himoyalanganligida yaqqol o‘z ifodasini topadi.

Har qanday fanning predmeti va obyekti mavjud bo‘lganidek, “Iqtisodiy xavfsizlik” fanining ham o‘z obyekti va predmeti mavjud.

Bir tomondan iqtisodiy tizimning obyektiv himoyalanish xususiyatlari, unga xavf soladigan kuch va omillarga qarshi turish mexanizmini, ikkinchi tomondan, davlatning himoyachi sifatidagi funksiyalari, shu maqsadda tashkil etiladigan institutlarni o‘rganish ushbu fanning predmeti bo‘lib hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot va unda amalga oshadigan jarayonlar “Iqtisodiy xavfsizlik” fanining obyektini tashkil etadi.

---

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, https://president.uz/oz/lists/view/8834

[10] Гордиенко, Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекции. Учебно-методическое пособие / Д.В. Гордиенко. – М.: Инфра-М, Финансы и статистика, 2013. - 625 с.

Davlat, jamiyat va shaxsning muhim hayotiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash borasida nazariy va amaliy bilimlar berish fanning maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

1.3. Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari (indikatorlari)

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi holati mezon va ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Makro va mikro darajada iqtisodiy xavfsizlikka bo‘ladigan tahdidlarni tahlil qilish va bashoratlashda iqtisodiy xavfsizlikning mingdan ziyod ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Lekin shularning ichida 19 ta indikatordan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Bu indikatorlar iqtisodiyotning real va moliyaviy sektorlarida va ijtimoiy sohada iqtisodiy xavfsizlikning muhim jihatlarini ifodalaydi. 19 ta indikatorning xususiyatlaridan biri ular orasidagi o‘zaro bog‘liqlikdir.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezon va ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy tizimning amal qilishidagi tahlikali chegaralar belgilanadi. Ko‘rsatkichlar tahlikali chegaralar sifatida qabul qilingan birliklardan chekingan holatlarda tizim izchil rivojlanishga bo‘lgan qobiliyatini, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini yo‘qotib boradi, transmilliy korporatsiyalarning ekspansiyasi obyektiga aylanib qoladi, milliy boyliklarning talon-taroj qilinishi, xufyona iqtisodiyot va korrupsiya miqyoslarining kengayishidan zarar ko‘radi.

Davlat siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiyotni nafaqat sifat, balki xavflardan holi bo‘lgan tarzda rivojlanish chegaralarini son jihatdan ham belgilashi talab etiladi.

Demak mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik holatining sustlashishiga ma’lum bir chegara doirasida yo‘l qo‘yilishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlik uchun ko‘rsatkichlarning o‘zi emas, ularning chegaraviy miqdori muhim ahamiyatga ega. Shu chegaralarga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarishning turli unsurlarini normal taraqqiy etishiga to‘sqinlik qiladi. Iqtisodiy xavfsizlikda negativ, buzuvchi jarayonlarning shakllanishiga olib keladi. Iqtisodiy xavfsizlikning miqdoriy ko‘rsatkichlari bo‘yicha milliy manfaatlarni ta’minlash maqsadida ko‘rsatkichlarning eng quyi yoki yuqori chegaralari aniqlanadi.

Hokimiyat institutlari tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy xavfsizlik siyosati ko‘rsatkichlarning barchasini me’yorida saqlab turishga qaratilishi kerak. Iqtisodiy xavfsizlikning bir chegaraviy ko‘rsatkichi boshqa shunday ko‘rsatkichning yomonlashuvi hisobiga ta’minlanishi mumkin emas. Davlat har bir aniq holatda xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikning uyg‘unlashuvini ta’minlashga harakat qilishi kerak bo‘ladi. Ayni paytda qisqa davr oralig‘ida foyda keltirishi mumkin bo‘lgan ish, strategik jihatdan umuman foydasiz bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezoni - iqtisodiy xavfsizlikning mohiyatini ifodalovchi muhim jarayonlar nuqtai nazaridan iqtisodiy holatni baholash hisoblanadi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- resurs salohiyati va uni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash;
- resurs, kapital, mehnatdan samarali foydalanish darajasini yetakchi mamlakatlar darajasiga va shuningdek, ichki va tashqi tavsifga ega bo‘lgan tahdidlar minimumni tashkil etgandagi darajasiga muvofiqligini baholash;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligini baholash;
- hududiy sarhadlarni va iqtisodiy makonni yaxlitligini baholash;
- suverenitet va mustaqillikni, tashqi tahdidlarga qarshi turish imkoniyatlarini baholash;
- ijtimoiy barqarorlikni va ijtimoiy ziddiyatlarni oldini olish va hal etish imkoniyatlarini baholash.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun uning indikatorlari monitoringini tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Monitoring iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, tahlil qilish va ularning o‘zgarish tendensiyalari va istiqbolini aniqlash imkonini beradi.

Mutaxassislarning fikricha, mezonlar biror-bir harakatni amalga oshirish uchun yo‘llanma sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Uni amalga oshirishda jamiyat bazisini qayta tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish salohiyatini qayta qurish, yangi bozor institutlarini, xo‘jalik yuritish dastaklarini, boshqarish tizimini yaratishga muvofiq bosqichma-bosqich harakat qilish zarur bo‘ladi.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi ko‘rsatkichlari mavjud:

- yalpi ichki mahsulot (hududiy yalpi mahsulot); inflyatsiya darajasi; davlat byudjeti kamomadi; ichki qarz darajasi; tashqi qarz darajasi; ishsizlik darajasi; turmush darajasi va sifati; oltin valyuta zaxiralari;
- xufyona iqtisodiyot faoliyati; ekologik holat.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlardan tashqari yana bir qator ko‘rsatkichlar ham mavjud. Masalan, aholi daromadlari, chakana narxlar miqdori, uy-joy bilan ta’minlanganlik, hududning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, hududning to‘lov balansi, eksport-import saldosi va boshqalar.

1.3-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining guruhlanishi[11]

Yuqorida ta’kidlanganidek, ko‘rsatkichlarning barcha majmuasi qabul qilingan chegaralar doirasida bo‘lgan va bir chegaraviy ko‘rsatkich boshqa bir chegaraviy ko‘rsatkichning yomonlashuvi hisobiga yaxshilanmagan taqdirdagina xavfsizlikning eng yuqori darajasiga erishiladi.

Xavfsizlik ko‘rsatkichlari bilan ularning tahlikali chegara miqdorlari o‘rtasidagi bog‘liqlik dinamikada o‘rganilishi zarur. Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlikning tahlikali chegarasiga oid indikatorlar 50 ta ko‘rsatkichni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular to‘rt guruhga ajratilib turkumlangan: iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar; moliyaviy tizim barqarorligini

[11] Abulqosimov H. Economic security.“ //Akademiya” Publishing House Tashkent–2006. – 2006.

ifodalovchi ko‘rsatkichlar; ijtimoiy soha ko‘rsatkichlari; tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari.

Birinchi guruh ko‘rsatkichlariga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarishi hajmi va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi kabi ko‘rsatkichlar kiradi.

Ikkinchi guruh ko‘rsatkichlariga esa davlat byudjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o‘zaro hisob-kitob va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlar kiradi.

1.1-jadval

Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlarning quyi chegarasi
YaIMga nisbatan investitsiyalar hajmi, foizda	25
Ilmiy-tadqiqot ishlanmalari uchun xarajatlar, YaIMga nisbatan foizda	2
Yashash minimumidan past daromad darajasiga ega bo‘lgan aholi ulushi, foizda	7
Aholining umr ko‘rish uzunligi	70
Detsil koeffitsiyenti	8
Jinoyatchilik darajasi har 100 ming kishiga	5000
Inflyatsiya darajasi	20
Tashqi qarz, YaIMga nisbatan foizda	25
Davlat byudjeti kamomadi	5
Pul massasi M2, YaIMga nisbatan foizda	50
Ichki iste’molda umumiy importning ulushi, shu jumladan oziq -ovqat mahsulotlari	30 25
Xalqaro mehnat tashkiloti uslubiyotiga ko‘ra, ishsizlik darajasi, foizda	7

Uchinchi guruh aholi daromadlari darajasi, aholining mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik kabilarni o‘z ichiga oladi.

To‘rtinchi guruh ko‘rsatkichlariga esa mamlakat ichki iste’molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi kabi indikatorlar kiradi.

Xo‘jalik yuritishning istalgan sohasida – ishlab chiqarish, tashqi savdo, ilmiy-texnikaviy hamkorlik va boshqalarda, barcha mamlakatlar uchun xavfsizlikning ma’lum chegaralari mavjud bo‘lib, ularni ilmiy asoslangan me’yorlar asosida aniqlash mumkin. Ayni paytda ayrim olingan mamlakatda mavjud bo‘lgan vaziyatga to‘liq baho beruvchi universal ko‘rsatkich mavjud ekanligi to‘g‘risida gapirish

unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki iqtisodiy xavfsizlik ko‘p omillar ta’sirida bo‘ladigan hodisa hisoblanib, u milliy ishlab chiqarishning uzluksiz o‘zgarib turuvchi ichki va tashqi sharoitlarining yig‘indisini aks ettiradi.

Akademik V.K Senchagovning umumiy tahriri ostida chop etilgan “Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii” nomli dasrlikda ta’kidlanishicha, “iqtisodiyot holati va uning xavfsizligi uchta indikator, ya’ni iste’mol narxlari, milliy valyuta kursi va aholining pul daromadlari bilan belgilanadi. Mana shu uchta indikator iqtisodiy xavfsizlikning boshqa indikatorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ular iqtisodiy xavfsizlik vositasi sifatida xizmat qiladi”[12]. Bunday ko‘rsatkichlar davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasidagi vazifalarini amalga oshirish vositalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Chegara ko‘rsatkichlari – iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarning miqdor jihatdan ifodalanishidir. Mazkur ko‘rsatkichlar tizimli tahlil, prognoz va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishning muhim vositasi bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasida asosiy ustuvorlik aholining turmush darajasini yuksaltirish bo‘lganligi bois YaIM hajmi va u bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning quyi chegaraviy miqdorlarini belgilashda aynan shu ko‘rsatkichlar asos sifatida olinishi kerak.

Jahon tajribasidan ma’lumki, ijtimoiy sohada tahdidlar minimal darajada bo‘lishi uchun yashash minimumidan past daromadga ega bo‘lgan aholi ulushi 7-10 foizni tashkil etishi, boy va kambag‘allar daromadlari o‘rtasidagi tafovut esa sakkiz martadan oshmasligi kerak.

Bir guruh olimlar “iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlarini belgilashda BMT tomonidan 1990 yilda qabul qilingan insoniy rivojlanish indeksini taklif etadilar. Mazkur indeks ijtimoiy taraqqiyotning eng aniq umumlashgan ko‘rsatkichi (mezoni) bo‘lib hisoblanadi”[13]. Inson taraqqiyoti indeksi (ITI / Human Development Index (HDI) - bu dunyoning turli mintaqalari va mamlakatlarida insonning jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida taraqqiy etishini tavsiflovchi yig‘ma ko‘rsatkich hisoblanadi. Inson taraqqiyoti indeksi har yili BMTning Taraqqiyot

[12]Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. – СПб. Питер 2007, с. 12
[13]Shu manba 73 bet.

dasturi ekspertlari va mustaqil xalqaro ekspertlar guruhi bilan birgalikda xalqaro tashkilotlar va milliy institutlarning statistik ma’lumotlaridan foydalangan holda hisoblab chiqiladi. Inson salohiyatining rivojlanish kontseptsiyasi BMT Taraqqiyot dasturining o‘ziga xos intellektual mahsuloti hisoblanadi. 1990 yilda BMTning Taraqqiyot dasturi dunyo mamlakatlarining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga baho bergan holda birinchi ma’ruzasini e’lon qildi. Mazkur ma’ruzada inson taraqqiyoti tushunchasiga ta’rif beriladi. Unga ko‘ra, inson taraqqiyoti – bu tanlash imkoniyatlarining kengayib borish jarayoni hisoblanadi. Tanlovning eng muhim unsurlari bo‘lib, uzoq va sog‘lom hayot kechirish, zaruriy ta’lim darajasiga ega bo‘lish va moddiy jihatdan to‘liq ta’minlanganlik hisoblanadi. Siyosiy erkinlik, inson huquqlarining yetarlicha kafolatlanganligi, o‘z-o‘zini namoyon qilish va shu kabilar tanlovning qo‘shimcha unsurlari hisoblanadi.

2010 yilda e’lon qilingan inson taraqqiyoti to‘g‘risidagi ma’ruzada “inson taraqqiyoti” tushunchasi bir muncha to‘ldiriladi. Mutaxassislar inson taraqqiyotida ijtimoiy adolat, inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish tamoyillari muhim o‘rin tutadi, deb hisoblaydilar. Ularning ta’rifiga ko‘ra, inson taraqqiyoti – bu insonlarning uzoq, sog‘lom va mazmunli hayot kechirishlari borasida tanlov imkoniyatlarining kengayib borishi va shu asnoda insonlarning globallashib borayotgan jamiyatda barqaror rivojlanish va ijtimoiy adolat mezonlarini ta’minlashda faol ishtiroklari hamdir.

Mazkur ta’rifga ko‘ra, inson taraqqiyoti uch tashkil etuvchini o‘z ichiga oladi. Bularning birinchisi farovonlik, ikkinchisi huquq va imkoniyatlarning kengayishi va uchinchisi ijtimoiy adolatlilikdir.

Inson taraqqiyoti kontseptsiyasining asosiy strategik instrumenti bo‘lib, 1990 yilda pokistonlik iqtisodchi Mahbub ul-Haq tomonidan ishlab chiqilgan “inson taraqqiyoti indeksi”[14] hisoblanadi.

Inson taraqqiyoti indeksi - bu u yoki bu mamlakatdagi fuqarolarning hayot kechirish darajasini ko‘rsatuvchi umumlashgan ko‘rsatkich hisoblanadi. Shu sababli

[14] Snchez, Oscar Arias. "The legacy of human development: a tribute to Mahbub ul Haq." (2000): 9-16.

ham mazkur indeksning “turmush darajasi”, “hayot sifati” kabi sinonimlari ham mavjud. Inson taraqqiyoti indeksi mamlakatning rivojlanishiga mamlakat fuqarolarining sog‘lig‘i, ta’lim olish imkoniyatlari va daromadlari darajasidan kelib chiqib baho beradi: Kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi indeksi; Savodxonlik darajasi indeksi; Yalpi milliy daromad indeksi.

Inson taraqqiyoti indeksi bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik jihatidan qayta hisoblangan inson taraqqiyoti indeksi, gender tengsizligi indeksi va ko‘p qirrali qashshoqlik indeksidan ham foydalaniladi. Adabiyotlarda “iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlari uchta guruhga ajratib ko‘rsatiladi:

birinchi guruhga ishlab chiqarish sohasi, uning tashqi dunyoga minimal darajada bog‘liqlik sharoitida faoliyat yuritish qobiliyatini kiritadilar. Ushbu guruhga quyidagi chegaraviy miqdorlar kiritilgan:

- YaIM umumiy hajmi – “katta yettilik” bo‘yicha o‘rtacha indikatorning 75 foiz miqdorida;

- aholi jon boshiga YaIM hajmi – “katta yettilik” bo‘yicha o‘rtacha indikatorning 50 foiz miqdorida;

- dunyo bo‘yicha o‘rtacha indikatorning 100 foiz miqdorida;

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarishi umumiy hajmida qayta ishlash sanoati ulushi – 70 foiz;

- YaIMda investitsiyalar ulushi – 25 foiz;

- sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlik ulushi – 20 foiz;

- aholining ichki iste’molida import ulushi – 30 foiz, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari – 25 foiz;

- mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida yangi mahsulotlar ulushi – 6 foiz.

Ikkinchi guruh ko‘rsatkichlari tarkibiga aholi turmush darajasi va sifati bilan bog‘liq chegaraviy miqdorlar kiritilgan: aholining umumiy sonida yashash minimumidan past daromadga ega bo‘lgan fuqarolar ulushi – 7 foiz; umr ko‘rish uzunligi – 70 yosh; boy va kambag‘allar daromadlari o‘rtasidagi tafovut – 8 marta; ishsizlik darajasi – 7 foiz.

Uchinchi guruh ko‘rsatkichlari moliyaviy holat bilan bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: YaIMga nisbatan ichki qarz miqdori – 30 foiz; YaIMga nisbatan tashqi qarz miqdori – 25 foiz; YaIMga nisbatan byudjet defitsiti – 5 foizgacha; naqd xorijiy valyuta hajmining naqd milliy valyuta hajmiga nisbati 25 foiz; YaIMga nisbatan pul massasi (M2) – 50 foiz”[15].

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, chegaraviy ko‘rsatkichlarning bir xil miqdorini belgilab qo‘yish uslubiy jihatdan uncha to‘g‘ri bo‘lmaydi. Masalan, birinchi guruh ko‘rsatkichlarida keltirilganidek, investitsiyalar ulushi YaIMga nisbatan hisoblaganda 25 foizdan kam bo‘lgan holatda iqtisodiyotga tahdid yuzaga keladi. Lekin, ayni paytda investitsiyalar ulushi 40 foiz bo‘lganida ham tahdid yuzaga kelishi mumkin. Farq shundaki, birinchi holatda mehnat qurollarining moddiy va ma’naviy jihatdan eskirishi natijasi sifatida tahdid yuzaga kelsa, ikkinchi holat aholi turmush darajasi va sifatining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy xavfsizlikning ayrim chegaraviy miqdorlarini qat’iy qilib emas, balki ma’lum doira chegarasida belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Qisqacha xulosalar

1. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va O‘zbekistonning integratsiyalashgan global iqtisodiy makonning, global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismiga aylanganligi sharoitida mamlakat milliy xavfsizligining muhim unsuri bo‘lgan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy xavfsizlik esa eng avvalo mamlakatning milliy manfaatlarini himoyalanganligini aks ettiradi.

2. Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uning moddiy asosi bo‘lib, iqtisodiy kategoriya sifatida davlatchilik shakllangan hamda jamiyat o‘z manfaatlarini anglab etgan davrlardan paydo bo‘la boshlagan. Iqtisodiy xavfsizlik mamlakat milliy manfaatlarining kafolatli himoyalangani, mamlakat iqtisodiy rivojining ijtimoiy yo‘naltirilgani, ichki va tashqi jarayonlar rivojidagi eng

[15] Shu manba, 74-75 betlar.

noqulay sharoitda ham mudofaa salohiyatining yetarli darajada ta’minlanganligini ifoda etadi.

3. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi holati mezon va ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Mana shu mezon va ko‘rsatkichlar asosida iqtisodiy tizimning amal qilishidagi tahlikali chegaralar belgilanadi. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik holatining sustlashishiga ma’lum bir chegara doirasida yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritib bering?
2. Iqtisodiy xavfsizlikning obyekti va subyektlari to‘g‘risida tushuncha bering?
3. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari va mezonlari nimalardan tashkil topadi?
4. Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko‘rsatkichlari haqida batafsil tushuncha bering?
5. Iqtisodiy xavfsizlik fanining obyekti va predmetini nimalar tashkil etadi?

Aql-idrokdan yiroq iqtisodiyot hammadan avval inqirozga yuz tutadi.

Benjamin Franklin.

II BOB. MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SHAKL VA USULLARI

2.1. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmining mazmuni, tamoyillari va o'ziga xos jihatlari

2.2. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning shakllari

2.3. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ichki iqtisodiy mexanizmlari

2.4. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmlari

Tayanch tushuncha va iboralar: iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi, institut, iqtisodiy agent, iqtisodiy salohiyat, innovatsion va investitsion faollik, iqtisodiy kooperatsiya, raqobatbardosh iqtisodiyot

Qisqacha sharh

Mazkur bob mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning shakl va usullarini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash jarayonining tashkiliy, institutsional va mexanizmlari tizimli tarzda bayon etilgan. Bob iqtisodiy xavfsizlikni davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishi sifatida ko'rib chiqadi hamda uni amalga oshirishda qo'llaniladigan asosiy vositalarni ochib beradi.

Bobning birinchi bo'limida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmi mazmuni va mohiyati yoritilgan. Unda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, moliya-kredit institutlari, nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi tuzilmalar, shuningdek, nodavlat institutlarning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi roli va vazifalari ko'rsatib berilgan. Institutsional mexanizmning asosiy tamoyillari - qonuniylik, tizimlilik, uzluksizlik, muvofiqlashtirilganlik va samaradorlik tamoyillari darslik talablariga mos ravishda izohlangan. Shu bilan birga, mazkur mexanizmning milliy iqtisodiyot sharoitlariga moslashuvchanligi va o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Bobning ikkinchi bo'limida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning shakllari yoritilgan. Jumladan, strategik rejalashtirish va prognozlash, davlat tomonidan tartibga solish, iqtisodiy monitoring, xavflarni baholash va boshqarish, shuningdek, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish kabi shakllar iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlari sifatida bayon etilgan. Ushbu shakllar orqali iqtisodiyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi tahdidlarning oldini olishga qaratilgan choralar ko'riladi.

Bobning uchinchi bo‘limida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ichki iqtisodiy mexanizmlari yoritilgan. Unga makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, byudjet-soliq va pul-kredit siyosati, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, investitsiya va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, bandlikni oshirish hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish kiradi. Mazkur mexanizmlar milliy iqtisodiyotning ichki barqarorligini mustahkamlab, iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bobning to‘rtinchi bo‘limida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Unda tashqi savdo siyosati, eksport salohiyatini oshirish va diversifikatsiya qilish, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, valyuta xavfsizligini ta’minlash, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikda milliy manfaatlarni himoya qilish masalalari bayon etilgan. Tashqi iqtisodiy mexanizmlar global iqtisodiy xatarlarning milliy iqtisodiyotga salbiy ta’sirini kamaytirishga qaratilgan muhim vositalar sifatida talqin etilgan.

O‘zbekistonda eksport hajmining oshishi va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri

2025 yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston eksport hajmining 23 foizga o‘sib, 33,4 mlrd AQSh dollariga yetishi mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Eksport milliy iqtisodiyot uchun barqaror valyuta tushumlari manbai bo‘lib, to‘lov balansining muvozanatini saqlash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda tashqi iqtisodiy xatarlarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tashqi savdo geografiyasining kengayib, O‘zbekiston mahsulot va xizmatlarining 131 ta davlatga eksport qilinishi tashqi iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Eksport bozorlarining diversifikatsiyalanishi ayrim davlatlar yoki mintaqalarga haddan tashqari bog‘lanib qolish xavfini kamaytiradi hamda global iqtisodiy beqarorlik sharoitida milliy iqtisodiyotning moslashuvchanligini oshiradi.

Eksport tarkibida IT-xizmatlar ulushining 940 mln AQSh dollariga yetishi iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega sohalarning rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Raqamli va bilimga asoslangan xizmatlar eksportining o‘sishi xomashyo yo‘naltirilgan iqtisodiyotdan voz kechib, innovatsion rivojlanishga o‘tish imkonini beradi. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Xizmatlar sohasida, ayniqsa turizm eksportining 5,0 mlrd AQSh dollariga yetishi tashqi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari va qurilish materiallari eksportining har biri 1,1 mlrd dollardan oshgani milliy ishlab chiqarish salohiyati kengayib borayotganini va eksport tuzilmasi diversifikatsiyalanayotganini ko‘rsatadi. Bu holat tashqi bozorlardagi narx tebranishlari va talab o‘zgarishlariga nisbatan iqtisodiy xavfsizlikni oshiradi.

2026 yil uchun eksport hajmini 40 mlrd AQSh dollariga yetkazish bo‘yicha belgilangan prognoz davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan strategik siyosatini aks ettiradi. Mazkur maqsadga erishish an’anaviy eksport tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, yangi tez rivojlanayotgan sohalarni qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish va mahsulot sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishni talab etadi.

Umuman olganda, eksport hajmining barqaror o‘sishi, uning tarkibiy va geografik diversifikatsiyasi O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlab, milliy iqtisodiyotning global xatarlar oldidagi barqarorligini oshiradi. Shu sababli eksportni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning eng muhim tashqi iqtisodiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

2.1. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmining mazmuni, tamoyillari va o‘ziga xos jihatlari

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash - barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaat nuqtai nazaridan muttasil tarzda o‘zaro aloqada bo‘lishini,

shuningdek katta mablag‘ talab etuvchi va doimiy ravishda amalga oshiriluvchi ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmini shakllantirish borasida tizimli yondashuv iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Mazkur yondashuvga muvofiq iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmining barcha tarkibiy unsurlari yaxlitlikda, o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganiladi. Ayni paytda tizimning har bir unsuri iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning ishonchlilik darajasini oshishiga xizmat qiluvchi o‘ziga xos funksiyalarning eltuvchisi ekanligi bilan ajralib turadi.

Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishning turli bosqichlarida barpo qilinuvchi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning **institutsional mexanizmi** bunday mexanizmning muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning institutsional mexanizmini qarab chiqishdan avval, xavfsizlik institutlari tushunchasiga aniqlik kiritib olishimiz talab etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda “institut” tushunchasining quyidagi ta’riflarini uchratishimiz mumkin:

- Institutlar-bu har qanday jamiyatda o‘zaro aloqalarning amalga oshirilishini belgilab beruvchi rasmiy va norasmiy qoidalar va me’yorlar tizimi;
- Institutlar- har qanday jamiyatdagi o‘ziga xos “o‘yin qoidalari” (D.Nort);
- Institutlar- bu insonlar o‘zlarining kundalik hayotlarida amal qilib yashaydigan fikrlash tarzi;
- Institutlar- bu o‘tmishda sodir bo‘lgan jarayonlarning natijasi.

Individga ta’sir ko‘rsatishi nuqtai nazaridan barcha institutlarni rasmiy va norasmiy institutlarga ajratish mumkin. Norasmiy institutlar insonlarning jamiyatda o‘zlarini tutishlari va xatti-harakatlariga nisbatan qat’iy cheklovlar o‘rnatmaydi,

aksincha insonlarning jamiyatda yashashlarini imkon darajasida engillashtirishga xizmat qiladi. Norasmiy qoidalaga amal qilmaslik qat'iy jazolanmasada, aksariyat hollarda bunday norasmiy qoidalarga amal qilmaslik jamiyat a'zolari tomonidan ma'qullanmaydi. O‘z navbatida ularning buzilishi yetarlicha qattiq jazolanishiga sabab bo‘luvchi qoidalarni rasmiy institutlar sifatida qabul qilishimiz mumkin bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarda rasmiy institut norasmiy institutning o‘ziga xos davomi sifatida qaraladi. Jamiyatda mavjud o‘zini tutishning yozilmagan qonun-qoidalari, tarkib topgan urf-odatlar va an'analardan tobora murakkab jarayonlarga o‘tib borganimiz sari jamiyatda qat'iy qonun-qoidalar shakllanib, individlarning xatti-harakatlari va qonun-qoidalar rasmiy ko‘rinish ola boshlaydi. Bunda ko‘pincha rasmiy institutlar norasmiy qoidalar asosida vujudga keladi.

Rasmiy institut - bu shunday institutki, unga ko‘ra jamiyat hayotini tartibga solish borasidagi barcha xatti-harakatlar va qoidalar qonunlar va me'yoriy hujjatlar, rasman tasdiqlangan ko‘rsatmalar, yo‘riqnomalar, qoidalar, reglament, nizomlar va shu kabilar asosida tartibga solinadi. Davlat, armiya, sud, oila, maktab va boshqalar rasmiy ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Rasman qat'iy belgilangan salbiy va ijobiy sanktsiyalar asosida mazkur institutlar o‘zlarining boshqaruv va nazorat funksiyalarini amalga oshiradilar.

Shunday qilib, iqtisodiy rivojlanishning institutsional tuzilmasi- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmini tashkil etuvchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan institutlar (rasmiy va norasmiy munosabatlar)ning yig‘in-disidan iboratdir.

Mazkur qoidalarning yaxlitligi iyerarxik ko‘rinishda ifodalangan bo‘lib, bunda qoidalarning eng boshida mamlakat konstitutsiyasi, so‘ngra qonun hujjatlari va qonunlar to‘plami, davlat organlari va mahalliy hokimiyat idoralarining qaror va ko‘rsatmalari turadi, iyerarxik munosabatlarning asosini esa individual bitimlar tashkil etadi. Mazkur iyerarxiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, rasmiy qoidalarni o‘zgartirish shunchalik katta xarajatlarni talab etadi.

Institutsional mexanizm iqtisodiyotda yuz berayotgan o‘zgarishlarning o‘ziga xos in'ikosi hisoblangani holda, rasmiy va norasmiy institutlarni harakatga keltiradi,

xo‘jalik yurituvchi subyektlar va agentlarning xatti-harakatlarini tartibga soladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmini avvaldan shakllangan institutlar harakatga keltiradi va mazkur institutlar jamiyatda belgilangan tartib va qoidalarga amal qilinishi ustidan nazorat o‘rnatadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro ta’sirlashuvi jarayonida qabul qilingan tartib va qoidalardan ma’lum darajada chetga chiqish holatlari kuzatiladi. Mazkur og‘ishlar institutsional mexanizmning samarasizligi va shuningdek, mavjud tartib va qoidalar doirasida samaradorligi yuqori bo‘lgan norasmiy institutlarning mavjudligi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli institutsional mexanizmni qayta ko‘rib chiqish va moslashtirish talab etiladi. Ushbu jarayonda mazkur mexanizmning xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro xatti-harakatlariga qay tarzda ta’sir ko‘rsatishi baholanadi. Tahlil davomida o‘rnatilgan institutsional mexanizm doirasida legitim (rasmiy) va norasmiy tartib va qoidalar birdek o‘rganiladi va tahlil natijasida eng samarali institutlar saralab olinadi. So‘ngra, eng samarali deb topilgan norasmiy institutlar rasmiylashtiriladi, og‘ishlar bartaraf etiladi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro munosabatlari doirasiga rasmiy institutlarni joriy etish amaliyoti sifatida **interiorizatsiya**[16] jarayonlari amalga oshiriladi.

Institutsional mexanizm o‘zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi:

- Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va agentlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirishda muhim o‘rin tutadi;
- Xo‘jalik yuritish mexanizmi doirasida rivojlanadi va uning o‘zgarishi xo‘jalik yuritish mexanizmining transformatsiyasi tufayli yuz beradi;
- Xo‘jalik aloqalari doirasida iqtisodiy subyektlar va agentlarning o‘zaro munosabatlarini tartibga solishga va belgilashga yo‘naltirilgan;
- Uning yordamida xo‘jalik yuritish mexanizmining barqarorligini ta’minlash va uning samaradorligini oshirishga erishiladi;

[16] Iqtisodiy xavfsizlik sohasida interiorizatsiya — bu iqtisodiy xavfsizlikka oid qoidalar, qadriyatlar, talablar va xatti-harakatlarning jamiyat, tashkilot yoki shaxs ongiga ichki ehtiyoj va norma sifatida singib ketishi jarayonidir.

- Xo‘jalik yuritish mexanizmining boshqa tarkibiy tashkil etuvchilariga nisbatan o‘zining bir muncha konservativligi bilan ajralib turadi;
- Xo‘jalik yuritish mexanizmi doirasida umumiy maqsadlarga erishish uchun subyektlarning individual manfaatlarini tizimlashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi;
- Mazkur mexanizm orqali subyektlarning umum qabul qilingan me’yorlar va qoidalardan chetga chiqishlari tartibga solinadi va mo‘’tadillashtiriladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmini iqtisodiy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy tavsifga ega bo‘lgan chora-tadbirlar tizimi sifatida ifodalash mumkin. Bunday chora-tadbirlar sirasiga quyidagilar kiradi:

✓ Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash, ularni bashoratlash va kelgusida mazkur xatarlarning oldini olish maqsadida o‘tkaziluvchi iqtisodiy vaziyatning har tomonlama va haqqoniy monitoringi;

✓ Bunday chegaraviy ko‘rsatkichlarga amal qilmaslik kelgusida turli xil nizolar va beqaror vaziyatni keltirib chiqarishi mumkinligini e’tibordan chetda qoldirmagan holda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning chegaraviy qiymatlarini aniqlashtirish. Chegaraviy qiymatlar (ko‘rsatkichlar)- bu iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan xo‘jalik faoliyatida yo‘lqo‘yilishi mumkin bo‘lgan chegaraviy nisbatlarning raqamlarda ifodalanuvchi miqdoriy indikatorlari hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlarga amal qilmaslik takror ishlab chiqarish jarayoni turli ishtirokchilarining iqtisodiy jihatdan bir tekis rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgani holda, kelgusida mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi;

✓ Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida ichki va tashqi tahdidlarni aniqlashtirish va ularni bartaraf etish borasidagi faoliyati.

V.K.Senchagov iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan sxemani tavsiya etadi:

1. Milliy manfaatlar; iqtisodiy siyosatning (strategik, uzoq muddatli, qisqa muddatli) ustuvorliklari, maqsad va vazifalari.

2. Tahdid va xavf-xatarlar (ichki, tashqi).

3. Indikatorlar (ko‘rsatkichlardan farqli o‘laroq, ular signal (xabar) berish funksiyasini bajaradi).

4. Chegaraviy qiymatlar (iqtisodiyotning xavfsiz holatini xavfli holatdan ajratib turadi).

5. Chegaraviy qiymatlar bilan indikatorlarning amaldagi va istiqbolli ko‘rsatkichlarini taqqoslash asosida xavfsizlikni baholash.

6. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash strategiya va kontseptsiyasi.

7. Tashkiliy- boshqaruv bloki.

Mamlakatimizda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning Davlat strategiyasiga muvofiq, chegaraviy qiymatlar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Iqtisodiyotning tashqi omillarning ta’siridan qat’iy nazar kengaytirilgan takror ishlab jarayonlarini ta’min eta olish, bu o‘z navbatida kundalik hayotda va shuningdek ekstremal vaziyatlarda ham davlatning mavjud bo‘lishi uchun mamlakatda ishlab chiqarishning muhim hayotiy tarmoq va sohalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ko‘zda tutadi. Strategik resurslar ustidan samarali davlat nazoratini o‘rnatish, ularning mamlakat hududidan ortiqcha miqdorlarda olib chiqib ketishining oldini olish, mamlakatning milliy manfaatlarini har qanday vaziyatda ham faol himoya qila olish mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

2. Aholi turmush darajasini yaxshilash va uni bir maromda ushlab turish. Davlatning ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqarorligini ta’minlash nuqtai nazaridan qashshoqlik, aholi daromadlarining tabaqalanishi va ishsizlik ko‘rsatkichlari qiymatining belgilangan chegaralardan oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik.

3. Investitsion faollikni oshirish maqsadida tegishli moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish, milliy valyuta, moliya va bank tizimining barqarorligini ta’minlash.

4. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga chiqishiga keng imkoniyatlar yaratib beruvchi tashqi savdoning maqbul tuzilmasini yaratish.

Qo‘shni va yaqin xorij davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratish.

5. Mamlakatning ilmiy salohiyatini saqlab qolish va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning strategik yo‘nalishlarida mamlakat xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan ilg‘or milliy ilmiy-tadqiqlot muassasalari va oliy o‘quv yurtlarining har tomonlama rivojlanishiga ko‘mak ko‘rsatish.

6. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvini hisobga olgan holda umummilliy bozorlarning amalda bo‘lishi va turli xil separastik tendensiyalarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi va umumdavlat manfaatlariga rioya etilishini ta’min etuvchi yagona iqtisodiy makonni saqlab qolish va xalqaro doirada keng ko‘lamli iqtisodiy aloqalarni amalga oshishiga keng imkoniyatlar yaratib berish.

7. Jamiyat hayotining turli jabhalari va shuningdek, xo‘jalik va moliyaviy faoliyat yuritish soha va tarmoqlarining kriminallashuvini oldini olish maqsadida qulay iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratish.

8. Turli iqtisodiy vaziyatlarda bozor iqtisodiyotining me’yorda amal qilishini kafolatlash maqsadida davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvining zaruriy chegaralarini aniqlashtirish va ta’minlash.

Umuman olganda yuqorida sanab o‘tilgan ko‘rsatkichlar “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi mohiyatini aniqlashtirishda bir muncha qo‘l keladi va mazkur tushunchani har bir jihatini inobatga olgan holda o‘rganish imkonini beradi. Chegaraviy qiymatlar iqtisodiyot sohalari bo‘yicha mamlakatning milliy manfaatlari doirasidan kelib chiqqan holda tasniflanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash institutsional mexanizmining mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo‘ladi. O.V.Inshakov va N.N. Lebedevalar fikricha, institutsional mexanizm quyidagi funksiyalarni bajaradi va o‘z navbatida mazkur funksiyalarni iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmiga to‘laligicha mansub deyishga asoslar mavjud:

1) hamkorlikda faoliyatni yo‘lga qo‘yish maqsadida umumiy normalar va statuslar ko‘magida agentlarni bitta subyektga integratsiyalashuvini ta’minlash;

2) qoida va me’yorlarni va shuningdek, subyektlar va turli institutlarning agentlarini tabaqalashtirish;

3) belgilangan talablar asosida institut subyektlari va uning agentlarining o‘zaro aloqalarini tartibga solish;

4) yangi talablarning kundalik real voqelikka aylanishini amalga oshirish;

5) kundalik odatga aylangan innovatsiyalarning takror ishlab chiqarilishini ta’minlash;

6) turli institutlarga mansub bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish va ular o‘rtasida subordinatsiyani ta’minlash;

7) subyekt va agentlarni qabul qilingan qoidalar va shuningdek ularning opportunistik xulq-atvorlari to‘g‘risida xabardor qilish;

8) institut tomonidan belgilangan talablarga rioya etuvchi va uni inkor etuvchi subyektlar faoliyatini tartibga solish;

9) me’yor, qoida, kelishuv va shakllangan tartiblarga rioya qilinishini nazorat qilish.

Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni dinamik modellashtirish asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmini ishlab chiqish borasida Rossiyalik olim V.V.Vodyanova tomonidan o‘ziga xos yondashuv taklif qilingan. Mazkur yondashuvga muvofiq, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmi xavf-xatarlar va xavf-xatarga uchrashi mumkin bo‘lgan obyektlarni aniqlashtirish va mazkur tahdidlardan himoyalanishning kompleks tadbirlarini ishlab chiqish imkonini beruvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar va iqtisodiy omillar bilan shartlanuvchi unsurlarning umumiyligini ifoda etadi.

Institutsional mexanizm amalda bo‘lishining asosiy qoidalari tamoyillar deb yuritiladi va bunday tamoyillar sirasiga quyidagilar kiritiladi:

- mamlakat qonunchiligi normalari va tizimning amalda bo‘lishini belgilab beruvchi qoidalarga rioya qilish;
- turli sohalarda faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlari iqtisodiy manfaatlarining muvozanatini ta’minlash;

- iqtisodiy xavfsizlikka tahdid va unga qarshi kurashish borasidagi tadbirlarga ustuvorlik berish;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning resurs asosini yaratish va uni mustahkamlash;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmini boshqarishda markazlashgan va nomarkazlashgan yondashuvlardan foydalanish va ularning qo‘llanilishi borasida ular ustidan nazorat o‘rnatish;
- ijtimoiy xo‘jalikning boshqa sohalarida xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlari bilan institutsional mexanizmning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash;
- iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va shu kabi turli tavsifga ega bo‘lgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda tizimli yondashuvga asoslanish.

Yuqorida tilga olib o‘tilgan mexanizmning tarkibiy jihatlarini aniqlashtirgan holda, birinchi navbatda iqtisodiy xavfsizlikning obyektlari bo‘lgan individlar (shaxslar);yaxlit holda jamiyat, uni tashkil etuvchi ijtimoiy guruhlar va aholi qatlamlari, jamoat birlashmalari; yuridik va jismoniy shaxslar va shuningdek, tegishli davlat idoralari va tashkilotlari sifatida davlatga e’tibor qaratish talab etiladi. Ma’lumki, umumiy holatda jamiyat va har bir shaxs manfaatlari bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liqdir, shu sababli ham huquqiy himoya obyekti sanaluvchi asosiy ijtimoiy manfaatlar va ijtimoiy munosabatlar har bir ishtirokchisining hayotiy manfaatlari yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Bunda xususiy va ommaviy manfaatlarning turlichaligi nafaqat mazkur manfaatlar o‘rtasida, balki ularning alohida turlari o‘rtasida ham bir qator ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmini tashkil etuvchi barcha unsurlarning o‘zaro hamkorlikda bo‘lishi lozimligini inkor etmagan holda, shuni alohida ta’kidlash lozimki, aynan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmidagi tarkibiy beqarorlik mazkur mexanizmning samarali faoliyat ko‘rsatishi borasida jiddiy kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli ham, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish

iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash institutsional mexanizmining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashda eng birinchi vazifa hisoblanadi.

Davlat iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmida asosiy muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajarganligi bois, yuqorida tilga olib o‘tilgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda davlatning o‘rniga alohida e’tibor qaratiladi. O‘z manfaatlari yo‘lida harakatlanuvchi davlatga qarashli bo‘lmagan nodavlat subyektlari institutsional mexanizmning yuqori darajadagi funksiyalari (masalan, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasini ishlab chiqish)ni uddalay olmaydilar, mazkur institutsional mexanizmning bir qator funksiyalarini tor doiralardagina amalga oshira oladilar xolos.

Bugungi kunda mamlakatda bozor munosabatlarini erkinlashtirish, davlatning boshqaruvchilik funksiyalarini qayta ko‘rib chiqishga qaratilgan keng ko‘lamli ma’muriy islohotlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash sohasida davlat va nodavlat tuzilmalarining uzviy hamkorligi talab etiladi. Aynan shu maqsadda keyingi paytda Ma’muriy islohotlarni amalga oshirish kontseptsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasining Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining davlat-xususiy sherikchlik to‘g‘risida”gi Qonunlari va qator Prezident Farmon va Qarorlari qabul qilindi.

2.2. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning shakllari

Dunyoning ilg‘or mamlakatlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasidagi bugungi kundagi vaziyatni tahlil qilish asosida namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra ularni ikkita katta guruhga ajratish mumkin bo‘lgan jarayonlarni ilg‘ash imkonini beradi:

1) shakl va ko‘rinishlarning rivojlanish tendensiyalari;

2) mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash usullarining rivojlanishi borasidagi tendensiyalar.

Birinchi guruhga boshqa faoliyat turlariga nisbatan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida davlat boshqaruv organlarining xatti-harakatlari va chora-tadbirlariga ustuvor ahamiyat berilishi bilan bog‘liq bo‘lgan tendensiyalar (o‘zgarishlar) kiradi. Ular o‘z navbatida iqtisodiyotning samarali faoliyat

ko‘rsatishiga milliy loyihalarni amalga oshirish samaradorligining tobora bog‘liq bo‘lib qolayotganligi; iqtisodiyotning raqobatchilarning xatti-harakatlariga bog‘liq holda raqobatbardoshlik darajasining ortishi yoki zaiflashishi va milliy xo‘jalikning hayotiy muhim sohalarini qo‘llab-quvvatlashning zarurligi; dunyoning turli mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiya aloqalarining kuchayishi kabilarda o‘z aksini topuvchi ikkinchi guruh bilan ham o‘zaro aloqada bo‘ladi.

Murakkab ochiq iqtisodiy tizimlar rivojlanishining qonun va qonuniyatlari amal qilishi mexanizmi asosida mazkur tendensiyalarni o‘rganish mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning quyidagi qonuniyatlarini aniqlashtirish imkonini berdi:

- iqtisodiyotning samarali amal qilishi birinchi navbatda uning resurs ta’minotiga bog‘liqdir. Milliy iqtisodiyot infratuzilmasining rivojlanishi, uning milliy iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari va jahon xo‘jaligining boshqa milliy xo‘jalik sektorlari bilan o‘zaro aloqalarining kuchayib borishi asnosida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning mavjud shakllarining tadrijiy taraqqiy etishi bilan bir qatorda, uni ta’minlashning yangi shakllari ham vujudga kela boshlaydi;
- mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning samaradorligi ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning natijaviyligiga va maxsus ajratilgan resurslardan qay tariqa foydalanilishiga bog‘liqdir. Raqobatchilarning milliy iqtisodiyotga ko‘rsatayotgan ta’siri, milliy xo‘jalikning boshqa milliy iqtisodiyotlar bilan o‘zaro aloqalarga kirishishi, davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida amalga oshirayotgan maqsadli o‘zgartirishlari, bularning barchasi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning mavjud shakl va yondashuvlarining takomillashuviga, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning istiqbolli usullarining paydo bo‘lishiga turtki beradi. Xatti-harakatlarning ushbu tizimi maxsus ajratilgan kuch va resurslardan amalda samarali foydalanilishi, maxsus chora-tadbir-larning yuqori saviyada tashkil etilishi bilan ajralib turadi;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi va bu borada ajratilayotgan kuch va resurslardan maqsadli foydalanilishi ko‘p jihatdan maxsus tashkiliy tuzilma faoliyatining yo‘lga

qo‘yilganligiga bog‘liqdir. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash shakl va usullarini takomillashtirish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning bunday shakl va usullarini hayotga to‘laqonli joriy eta olish imkonini beruvchi maxsus tashkiliy tuzilma barpo etilishini ko‘zda tutadi;

- mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash samaradorligi qarshi tomonning iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatishiga bog‘liqdir. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqishda qarshi tomonning milliy iqtisodiyot soha va tarmoqlariga, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar darajasiga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ta’siri atroflicha tahlil qilinadi va bu borada tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi;
- iqtisodiy ko‘rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotining boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti bilan o‘zaro aloqalari ko‘lami va tavsifiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida milliy xo‘jalikning makroiqtisodiy muhit bilan o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishi ta’min etiladi. Bu esa iqtisodiyotning amalda bo‘lishi uchun qulay shart-sharoit-larning mavjud bo‘lishini taqozo qiladi. Mazkur shart-sharoitlar quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

✓ iyerarxik bo‘ysunish tartibida iqtisodiy tizimlar bilan o‘zaro aloqalarga kirishish chog‘ida ichki iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash;

✓ bir-biriga bo‘ynsunmaydigan iqtisodiy tizimlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikdagi xatti-harakatlarni amalga oshirishda ikkala tomon uchun ham manfaatli bo‘lgan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish;

✓ raqobatchi davlatlar iqtisodiy tizimi amal qilishining izdan chiqishi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan qonuniyatlar mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiy shakllarini aniqlashtirish imkonini beradi:

- iqtisodiy patronat;
- iqtisodiy kooperatsiya;
- iqtisodiy qarama-qarshilik.

Iqtisodiy patronat (lotincha, patronus-homiy, qadimgi Rimda huquq va erkinliklari o‘z qo‘lida bo‘lmagan yoki kambag‘al fuqarolarning boy odamlarga mutloq qaramligini ifoda etuvchi homiylikning alohida ko‘rinishi amalda bo‘lgan)-

agar alohida tizimlar yaxlit bir butun tizim sifatida qaralsa, mamlakat iqtisodiyotida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiy tizimlarning ichki xavfsizligini ta’min etadi. Iqtisodiy patronat doirasida global boshqarish tizimiga kiruvchi har bir boshqarish, ishlab chiqarish va shu kabi tizimlarning iqtisodiy nuqtai nazardan xavfsiz amal qilishi ta’min etiladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning mazkur shaklini qo‘llab-quvvatlashning asosiy sababi shundaki, milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish har bir davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda davlat eng avvalo faoliyatining buzilishi yoki to‘xtab qolishi mamlakat taqdiriga, uning iqtisodiyotiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan milliy iqtisodiyotning eng muhim va hayotiy tarmoq va sohalarini qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratadi.

Milliy xo‘jalikning favqulodda muhim tarmoqlari iqtisodiyotini tashkil etish va boshqarish bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishning o‘ziga xosliklarini belgilab beradi. Iqtisodiyotning mazkur sektorlarini davlat tomonidan boshqarishning shakl va usullari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1) buyurtmachi monopoliyasining mavjudligi (aksariyat hollarda davlatning o‘zi buyurtmachi hisoblanadi);

2) mahsulotlarning sifat va texnik tavsiflariga alohida talablar qo‘yiladi. Mahsulotlar uchun fan sig‘imlilik, texnologiya darajasining yuksakligi kabi jihatlar muhim sanalsa, mazkur sohalarda amalga oshiriluvchi investitson loyihalar uchun esa uzoq muddatlilik va kapital sig‘imlilik kabilar muhim sanaladi;

3) strategik ahamiyatga ega bo‘lgan xomashyo va materiallar zaxirasini yaratish, safarbar etiluvchi quvvatlarni bir maromda ushlab turishga doimiy ehtiyoj mavjud;

4) texnologiyalarni uzatishni cheklash, ishlab chiqarishlarni va olib borilayotgan ilmiy- tadqiqotlarni takrorlash, ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida piramidal aloqalarning vujudga kelishiga olib keluvchi ish tartibi, kooperatsiya va ixtisoslashuv jarayonlarining o‘ziga xos jihatlari;

5) bunday tarmoq korxonalarining jahon bozoriga chiqish borasida ma’lum cheklov va qiyinchiliklarga duch kelishi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning navbatdagi shakli iqtisodiy kooperatsiya hisoblanadi. Iqtisodiy kooperatsiya bir-biriga buysunmaydigan turli iqtisodiy tizimlarning o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish orqali mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Iqtisodiy kooperatsiya jarayonida milliy xo‘jaliklar bilan turli mamlakatlarning iqtisodiy tizimlari, xorijiy va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida iqtisodiy resurslarni o‘zaro ayriboshlash borasida hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yiladi.

Iqtisodiy kooperatsiya - bu faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida turli milliy xo‘jaliklarning hamkorlikdagi tuzilmalarga uyushishlarini taqozo etuvchi obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning mazkur shaklini yanada takomillashtirish va rivojlantirish milliy iqtisodiyot doirasida tovar va xizmatlar ishlab chiqarish milliy iqtisodiyotning samaradorligini ta’minlash nuqta nazaridan har doim ham yetarli bo‘lmasligi bilan izohlanadi. Iqtisodiy kooperatsiya quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

1) fuqarolik va harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalarining xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan savdo qilish. Quyidagilar savdo aloqalarining asosiy maqsadi hisoblanadi: tovar ishlab chiqaruvchilar va eksportchi korxonalarning foydasini oshirish; eksportchi-mamlakat tashqi savdo balansini yaxshilash; ommaviy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish va import qiluvchi mamlakat ishlab chiqaruvchilari va xaridorlari tomonidan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari uchun sarflangan xarajatlarni qisman yoki to‘lig‘icha qoplash; xo‘jalik yurituvchi subyektlarning safarbarlik tayyorgarligini oshirish;

2) eng avvalo rivojlanayotgan mamlakatlarga ularning iqtisodiyot-larini mustahkamlash maqsadida moliyaviy va moddiy ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy ko‘mak ko‘rsatish. Iqtisodiy yordam alohida mamlakatlar hukumatlari yoki xususiy institutlar (tijorat banklari) o‘rtasidagi o‘zaro ikki tomonlama kelishuvlar va shu bilan bir qatorda jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida ko‘rsatiladi. Iqtisodiy yordam ko‘mak qabul qiluvchi mamlakatlarga xorijiy

valyutalar oqimining ko‘payishini va mamlakat ichki jamg‘armalar hajmining ortishini ta’min etishi bilan bir qatorda ko‘mak qabul qiluvchi mamlakatlarga yangi texnika-texnologiyalar, bilimlar va boshqaruv usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Quyidagilar iqtisodiy ko‘mak ko‘rsatishning asosiy maqsadlari hisoblanadi:

- ittifoqchi yoki sheriklarning iqtisodiy yoki harbiy salohiyatini oshirish;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy yoki siyosiy jihatdan qaramligining ortishi;
- davlat va uning hokimiyat tuzilmalarida o‘z ta’sir doirasini kengaytirish va chuqurlashtirish;
- mintaqada muhim strategik joylashuv o‘rniga ega bo‘lgan davlatlarning harbiy-siyosiy xatti-harakatlarini moddiy yoki moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishning turli sohalarida mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotiga asoslanuvchi iqtisodiy integratsiya iqtisodiy kooperatsiyaning oliy ko‘rinishi hisoblanadi. Iqtisodiy integratsiya quyidagi ko‘rinishlarda amalga oshadi:

- mahsulot ishlab chiqarish, standartlashtirish va ishlanmalar, mehnat vositalarini modernizatsiyalash va ta’mirlash sohasida o‘zaro hamkorlik qilish va uyushmalar tuzish;
- hamkorlikda iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish;
- birgalikda kadrlar tayyorlash va shu kabilar.

Bir-biriga qarama-qarshi tomonlarning o‘zaro raqobat kurashida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiy shakli bo‘lib, qarshi iqtisodiy kurash hisoblanadi. Bunda qarshi kurashuvchi tomonlar harbiy kuch va salohiyatdan foydalanmagan holda, zarur iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiy faoliyat olib borishning resurs bazasini kengaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hisobiga mahsulotlar bozorida va ishlab chiqarish sohasida ustunlikni qo‘lga kiritishga harakat qiladilar. Qarshi kurashuvchi tomonlar o‘zaro kurashda ustunlikka intilar ekanlar, bunda ular turli usul va vositalardan foydalanadilar. Bu usul va

vositalar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: sanoat va texnologik shpionaj; eksport-import tashkilotlari, ishlab chiqarish obyektlarida josuslik va razvedka ishlarini amalga oshirish; strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlar, xomashyo resurslari, tovar va xizmatlar bozorida ekspansiyani amalga oshirish; strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlar, strategik xomashyo, oziq-ovqat, valyuta va shu kabilarga nisbatan eksport yoki import borasida embargo joriy qilish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash shakli sifatida iqtisodiy qarama-qarshilik- bu milliy xo‘jalikni himoya qilish va qarama-qarshi kurashuvchi tomonlarning iqtisodiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatishning turli usul va vositalaridan foydalangan holda davlatlar, ularning bloklari va koalitsiyalari yoki boshqa raqobatchilar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir.

Bu borada iqtisodiy qarama-qarshilik davlatlararo (davlatlar ichidagi yoki koalitsiyalar o‘rtasida) kurashning quyidagi o‘ziga xos sohalarini qamrab oladi:

1) qarama-qarshi tomonlarning xo‘jalik faoliyati sohasi;

2) qarama-qarshi kurashuvchi tomonlarning siyosiy maqsadlariga buysundirilgan iqtisodiy kurash usullari va yo‘nalishlari;

3) transport, sanoat, moliya va boshqa shu kabi xo‘jalik tizimlari va obyektlari va ularning himoyasiga ta’sir ko‘rsatish.

Agar tomonlarning o‘zaro iqtisodiy qarama-qarshiligi urushga tayyorgarlik ko‘rish yoki urush olib borish maqsadida amalga oshirilsa, u holda mazkur qarama-qarshilik harbiy-iqtisodiy sohada qarama-qarshilik ko‘rinishini oladi. Iqtisodiy-harbiy qarama-qarshilik uchun quyidagi jihatlar xos:

- mustaqil bo‘lsada, qarama-qarshi tomonlar qarshi tomonning xo‘jalik faoliyati sohalariga turli yo‘llar va vositalar bilan aralashadi;
- harbiy sohada ta’sirni kuchaytirish, harbiy tayyorgarlikni oshirish va harbiy mashg‘ulotlar yo‘nalishini qarshi tomonga yo‘naltirish;
- harbiy va “fuqarolik” ishlab chiqarishlari o‘rtasidagi nisbatlarni harbiy soha tomonga ko‘proq burish. Harbiy harakatlar aniq bo‘lib qolgan paytda, butun mamlakat iqtisodiyoti harbiy ishlab chiqarishga yo‘naltirilishi mumkin;

- harbiy-iqtisodiy qarama-qarshilik harbiy kurashlar dinamikasi bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi; harbiy harakatlarni olib borish uchun sarflanuvchi resurslar iste’molining ortishi qarshi kurashuvchi tomonlar iqtisodiyotining “harbiy yo‘l”ga tushirilganligini va uning qanchalik chuqurlashganligini ko‘rsatadi, harbiy ishlab chiqarish tuzilmasi va hajmini belgilab beradi.

Quyidagilar iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan qarama-qarshi kurashuvchi tomonlarning asosiy maqsadlari hisoblanadi:

- qarama-qarshi tomonning xo‘jalik faoliyati sohalarini qisqartirish (ishlab chiqarish va mahsulot sotib olish hajmini oshirish yoki kamaytirish, iqtisodiyotning mobilizatsion tayyorgarlik darajasini oshirish va shu kabilar);
- sanoat hududlari, ishlab chiqarish obyektlari, transport va boshqa xo‘jalik maydonlarini yo‘q qilish (egallab olish, buzib tashlash) yoki himoya qilish.

Iqtisodiy qarama-qarshilik borasida o‘zaro kurashuvchi tomonlarning kurash strategiyalari odatda quyidagi maqsadlarga buysundirilgan bo‘ladi:

1) strategik xomashyo, oziq-ovqat, qurol-yarog‘ va harbiy texnika eskporti (importi) hajmlarini oshirish yoki kamaytirish;
2) qarz va kreditlar berish yoki olish;
3) xomashyo va boshqa resurslarning strategik zaxiralarini yaratish;
4) qarama-qarshi tomonlarning iqtisodiyotini beqarorlashtirish;
5) asosiy ishlab chiqarishlar, transport kommunikatsiyalarini rezervlash;
6) ittifoqchi davlatlar va neytral mamlakatlarning ishlab chiqarish quvvatlari, xomashyo va boshqa resurslaridan keng foydalanish.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini har tomonlama taraqqiy ettirish, uning jahon xo‘jaligidagi raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash maqsadida yuqorida tilga olib o‘tilgan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning turli usul va vositalaridan keng foydalanish talab etiladi.

2.3. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ichki iqtisodiy mexanizmlari

Xalqaro maydondagi vaziyat, tashqi iqtisodiy ayriboshlash aloqalarining samaradorligi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va uning natijalaridan iqtisodiyot soha va

tarmoqlarida foydalanish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar holati va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi mamlakat iqtisodiy xavfsizligini belgilab beradi. Har qanday mamlakat iqtisodiy xavfsizliginining moddiy asosini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’min eta oluvchi rivojlangan ishlab chiqarish kuchlari tashkil etadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning mos mexanizmi va uni amalga oshirish borasida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Zamonaviy iqtisodiyot umum siyosiy, iqtisodiy, madaniy va qadriyatlarni ishlab chiqishda ifodalanuvchi dunyo mamlakatlari va xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning va o‘zaro bog‘liqlikning tobora kuchayib borishi bilan tavsiflanadi. Shu bois globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmini iqtisodiy tahdidlarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Mazkur mexanizm quyidagi unsurlardan tashkil topadi:

- mamlakat ichki va tashqi xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash va bashoratlash maqsadida iqtisodiyot va jamiyat hayotini har tomonlama obyektiv monitoring qilish;
- ularga rioya qilmaslik beqarorlik va ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan qiymatlarini belgilash;
- iqtisodiyotning ichki va tashqi tahdidlarini aniqlash va ularni bartaraf etish borasida davlatning faoliyati.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari orasida ichki iqtisodiy va tashqi iqtisodiy mexanizmlarni ajratib olishimiz mumkin. Ichki iqtisodiy mexanizmlarga quyidagilar kiradi:

1) mamlakat iqtisodiyotida bozor o‘zgarishlarini amalga oshirish;
2) iqtisodiyotni boshqarishda markaziy muassasalar bilan bozor instrumentlarining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash;
3) strategik zaxira va zapaslarni jamg‘arish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ichki iqtisodiy mexanizmining samarali amal qilishi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish va iste’mol hajmlarini ham sifat va ham miqdor jihatidan oshirish borasidagi imkoniyatlari;
- mamlakat ichida muhim mahsulot turlarini ishlab chiqarish darajasi. Mazkur ko‘rsatkich mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini tavsiflaydi va mamlakatning asosiy mahsulot turlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish imkoniyatlari to‘g‘risida xulosa qilish imkonini beradi;
- davlat strategiyalarini yetarlicha ko‘lam va sifatda amalga oshirilishini ta’min etuvchi asosiy iqtisodiy resurslar ustidan davlat nazoratining o‘rnatilganligi;
- turli indikatorlar va mezonlar orqali baholanuvchi moliya tizimining barqarorligi. Moliya tizimi barqarorligini baholash borasidagi mavjud indikatorlar nuqtai nazaridan mamlakat moliya tizimi bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarning moliya tizimiga nisbatan bir muncha barqaror hisoblanadi. Moliya tizimi barqarorligining asosiy muammolari mezo va makrodarajada mavjud bo‘lgani holda, moliya institutlarining rivojlanganlik darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir;
- ilmiy va innovatsion potensialni qo‘llab-quvvatlash. Ilmiy salohiyatni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: YaIMning fan sig‘imliligi; fan sohasi xodimlarining o‘rtacha yillik soni; iqtisodiyotda band bo‘lganlarning umumiy sonida ilmiy xodimlarning ulushi; ilmiy muassasalar soni;
- mamlakatda yagona iqtisodiy makonni barpo etish va uni talab darajasida ushlab turish;
- bozor iqtisodiyotining me’yorda faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni zarur darajada tartibga solish darajasi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash vositalari- bu mamlakat iqtisodiyotining turli tahdidlardan ko‘rishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarini bartaraf qilish maqsadida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy va etik xulq-atvor, mafkuraviy, diniy, diplomatik, huquqiy va shu kabi normalar va shuningdek, iqtisodiyotni boshqarishning turli: xalqaro, mintaqaviy, jamiyat va davlat

boshqaruvi kabi darajalaridagi boshqaruv idoralari va tuzilmalarining umumiyligidir.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni aniqlashtirish imkonini beruvchi omillarni monitoring qilish va bashoratlash mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmining muhim unsuri hisoblanadi. Monitoring iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari dinamikasini kuzatib borishning tezkor axborot-tahliliy tizimini ifoda etadi. U iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining aniq miqdoriy ko‘rsatkichlari asosida amalga oshirilishi lozim bo‘lgani holda, ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarning beqarorligi va tez o‘zgaruvchanligi, tarmoqlar o‘rtasida nomutanosibliklarning mavjudligi va birinchi navbatda moliyaviy resurslarning yetishasligi sharoitida iqtisodiyotning ayni damdagi holatini baholashda katta ahamiyat kasb etadi. 2.1-jadvalda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va ularning tavsifi keltirilgan.

O‘zbekistonda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash borasida amalga oshiriluvchi davlat siyosatining asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Tuzilmaviy siyosat sohasida:

- makroiqtisodiy darajada:

1) yalpi talabni oshirish;

2) jamg‘armalar normasini oshirish va jamg‘armalarning investitsiyalarga aylanishiga imkon beruvchi qulay investitsion iqlim yaratish;

3) eksport ko‘lami va geografiyasini kengaytirish;

4) mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash maqsadida import operatsiyalarini tartibga solish;

-mikroiqtisodiy darajada:

1) iqtisodiy jihatdan samarali korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va ularni rag‘batlantirish borasida zaruriy me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularning ijrosini ta’minlash. Bunday faoliyat turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: hududlarda xalq iste’moli tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, aholiga uy-joy va kommunal xizmatlar ko‘rsatish, iqtisodiyotning ustuvor soha va tarmoqlarida innovatsion faoliyatni jadallashtirish, dori-darmon va tibbiyot

asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va uni qayta ishlash, atrof-muhit muhofazasi borasida turli faoliyatlarni amalga oshirish;

2.1-jadval

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va ularning tavsifi

Yo‘nalishlar	Tavsifi
iqtisodiy xavfsizlikning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chegaraviy ko‘rsatkichlaridan iqtisodiy rivojlanishning amaldagi yoki bashorat qilinayotgan qiymatlarining chetga chiqishini aniqlash	Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va ilmiy asoslangan bashoratlar asosida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbir va mexanizmlar ishlab chiqish. O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish dasturlari, uning yo‘riqnoma, mezon va ko‘rsatkichlari
Milliy iqtisodiyotga tahdidlar sohasidan mamlakatni olib chiqish borasida davlat tomonidan amalga oshiriluvchi kompleks dasturlarni ishlab chiqish	
Asosiy faoliyati iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning vujudga kelishiga to‘sqinlik qilish yoki ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan boshqaruv organlari faoliyatini tashkil qilish	Xavfsizlik kengashi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash nuqtai nazaridan davlat byudjeti kontseptsiyasini muhokama qiladi. O‘zbekiston Respublikasi hukumati iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha davlat idoralari va muassasalarining ish faoliyatini muvofiqlashtiradi
Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash nuqtai-nazaridan moliya va xo‘jalik masalalari bo‘yicha qabul qilinayotgan qarorlarni ekspertli o‘rganish	Mamlakat iqtisodiyotiga xavf soluvchi tahdidlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va ularning ijrosini ta’minlash yuzasidan samarali nazorat o‘rnatish

2) samarasiz iqtisodiy tuzilmalarni tugatish yoki qaytadan tashkil qilish;

3) narxlarning o‘sishini cheklash maqsadida kelishuv jarayonlarini tashkil qilish;

4) iqtisodiy subyektlarning xulq-atvorlariga bozor qoidalarini singdirib borish.

2. Ijtimoiy siyosat sohasida:

1) kelgusi avlodlarning ehtiyoj va istaklarining qondirilishini shubha ostiga qo‘ymagan holda, jamiyat a’zolarining bugungi kundagi ehtiyojlarining to‘laqonli qondirilishiga imkon beruvchi mamlakatni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish asosida jamiyatda birdamlikni kuchaytirish;

2) transfert to‘lovlari ko‘rinishida aholiga ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatishni kengaytirish hisobiga aholi daromadlari o‘rtasidagi farqni qisqartirish. Bugungi kunda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 5,8 foizni tashkil etmoqda, kelgusi yilda esa bu ko‘rsatkichni 4,5 foizga pasaytirish rejalashtirilgan.

3. Ilmiy-texnik siyosat sohasida:

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini innovatsion jihatdan rivojlantirish kontseptsiyasida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish maqsadida mamlakat ilmiy-texnik salohiyatini dunyoning ilg‘or mamlakatlari darajasiga olib chiqish ko‘zda tutilgan. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

1) mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
2) mamlakatning texnologik jihatdan mustaqilligi va uning harbiy sohada xavfsizligini ta’min etuvchi turli hayot faoliyati sohalarida ilmiy-texnik ishlanmalar bazasini yaratish;
3) ilmiy-texnik mahsulotlar va texnologiyalarning dunyo bozorlariga chiqish.

4. Investitsion siyosat sohasida:

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi davrida ma’lum bir obyektiv shart-sharoitlar ta’siri ostida milliy iqtisodiyotni tubdan modernizatsiya qilish asoslarini ta’min etuvchi mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning investitsion omillari oldingi o‘ringa chiqadi. Milliy xo‘jalikning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash nuqtai nazaridan xususiy investitsiyalarning jalb qilinishiga, investitsion faollikning oshishiga zamin yaratuvchi, qulay investitsion muhit yaratishni ko‘zda tutuvchi investitsion jarayonlarni boshqarishning aniq mexanizmini ishlab chiqish talab etiladi.

5. Hududiy siyosat sohasida:

1) sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga katta ustuvorlik bergan holda, hududlar iqtisodiyotini qayta tashkil etish;

2) hududlarning mavjud imkoniyat va salohiyatlaridan to‘la qonli foydalanish maqsadida hududiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

3) noqulay shart-sharoitlarga ega bo‘lgan (Orolbo‘yi mintaqasi) hududlarni iqtisodiy qoloqlikdan olib chiqish;

4) hududlararo infratuzilma tizimlarini (transport, aloqa) rivojlantirish.

6. Moliya tizimi sohasida:

1) soliq tizimi samaradorligini oshirish;

2) byudjet tanqisligini moliyalashtirishning noinflyatsion usullaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

3) umum davlat manfaatlari va ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda moliyaviy resurslarni samarali qayta taqsimlash;

4) dotatsiya va subsidiyalarni qisqartirish, byudjetda eng zarur bo‘lgan dotatsiyalarni saqlab qolish;

5) milliy mudofaa xarajatlarini maqbullashtirish.

7. Pul-kredit munosabatlari sohasida:

1) milliy valyuta-so‘mning barqarorligini ta’minlash;

2) kassa xizmatlari ko‘rsatish va o‘zaro hisob-kitoblarning ishonchli tizimini yo‘lga qo‘yish;

3) bank omonatchilarining manfaatlarini o‘z vaqtida va samarali himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

4) joriy valyuta va kapital operatsiyalarini davlat nazorat organlari tomonidan nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

5) mamlakat oltin-valyuta zaxiralarining kamayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik.

8. Xomashyo resurslari bilan ta’minlash sohasida: milliy manfaatlarga ustuvorlik bergan holda, foydali qazilma konlarini sanoat usulida o‘zlashtirish va foydali qazilma konlarini razvedka qilish uchun investitsiyalarni ko‘paytirish.

9. Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida: iqtisodiy faoliyat sohasida inson huquq va erkinliklarining buzilishida namoyon bo‘luvchi, uyushgan va iqtisodiy jinoyatchilikka faol qarshi kurashish.

2.2-jadval

Iqtisodiy xavfsizlikni boshqaruvchi davlat organlari

Boshqaruv organlari	**Boshqaruv organlarining funksiyalari**
O‘zbekiston Respublikasi Xavfsizlik kengashi (xavfsizlik kengashi apparati, idoralararo komissiyalar va Xavfsizlik kengashi huzuridagi ilmiy kengash)	-davlat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash, davlat hokimiyati idoralarining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirishga ko‘maklashish, davlatning yaxlitligini va uning suverinitetini asrash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsion vakolatlarini ta’minlash bo‘yicha zaruriy shart-sharoitlar yaratish; -milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy obyektlari sifatida davlat va jamiyat, shaxslarning hayotiy muhim manfaatlarini belgilash; -mamlakat raqobatbardoshligi va milliy xavfsizlikni ta’minlash, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish; -milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasida mamlakatning ichki va tashqi siyosati masalalari bo‘yicha davlat rahbari tomonidan qarorlar qabul qilish uchun Prezidentga takliflar tayyorlash; -davlat va jamiyat, shaxsga tahdid soluvchi ichki va tashqi xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha qarorlar tayyorlash; -favqulodda holatlarning oqibatlarini bartaraf qilishni tashkil etish bo‘yicha qarorlar qabul qilish, ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va boshqa salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan favqulodda holatlarning oldini olish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish; -milliy xavfsizlikni ta’minlash va bu boradagi tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida ijro etuvchi hokimiyat idora va tashkilotlari faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish; -davlat rahbariga milliy xavfsizlikni ta’minlash borasida mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish yoki yangi organlar tashkil etish; -milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasida boshqa masalalarni hal etish
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	-dunyo bozorlari kon’yunkturasi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, xorijiy davlatlarning iqtisodiy va savdo siyosatlarini monitoring qilish va bashoratlash, mamlakatning jamlanma moliyaviy balansini ishlab chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil va monitoring qilish; -milliy hisoblar tizimining umumiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlarini hisob-kitob qilish, qisqa, o‘rta va uzoq muddatli istiqbol uchun iqtisodiyot tarmoq va sektorlari, hududiy tuzilmalar va yaxlit mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini bashoratlash; -savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik sohalarda mamlakatning boshqa xorijiy davlatlar bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish va uning samaradorligini oshirish; -iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish borasida xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning mintaqaviy tuzilmalari bilan hamkorlik qilish bo‘yicha ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

	- O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonunida ko‘zda tutilgan tartib va qoidalar asosida alohida iqtisodiy hududlarni boshqarish;
Ijro etuvchi hokimiyat organlari (IIV, Prokuratura, Davlat soliq qo‘mitasi)	-Iqtisodiyot va moliya vazirligining bevosita uslubiy rahbarligida iqtisodiyot sohasida milliy manfaatlarni himoya qilish va tegishli soha va tarmoqlar bo‘yicha iqtisodiy xavfsizlik bo‘yicha tahdidlarni baholash; mahalliy davlat hokimiyati organlari ishtirokida hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning ichki iqtisodiy mexanizmlari o‘z ichiga uni tashxislash va monitoring qilishning tashkiliy jihatlarini qamrab oladi. Monitoringni tashkil qilish uchun birinchi navbatda, ijro etuvchi hokimiyat organlarining funksiya va majburiyatlarini aniqlashtirish; ijro etuvchi hokimiyat idoralarining o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish mexanizmlarini ishlab chiqish; ma’lumotlarni jamlash, kuzatish, qayd qilish, tahlil qilish va ularni saqlash bilan shug‘ullanuvchi idoralar ro‘yxatini shakllantirish; iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida iqtisodiy xavfsizlik borasidagi tahdidlarga qarshi kurashish va monitoring qilish borasida hokimiyat idora va tashkilotlarining funksiyalarini va ularni amalga oshirish borasidagi majburiyatlarini aniqlashtirish talab etiladi.

2.4. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmlari

O‘zbekistonning milliy manfaatlarini himoya qilish va strategik milliy ustuvorliklarni amalga oshirish barcha bo‘g‘indagi davlat boshqaruvi idora va tashkilotlari, shu jumladan Markaziy bank, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini muvofiqlashtirishni talab etadi. Davlat siyosati mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmining muhim unsuri hisoblanadi. Mazkur siyosatning asosiy maqsadlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1) mamlakat iqtisodiy suverenitetini mustahkamlash;

2) tashqi va ichki muhitning tahdid va xavf-xatarlariga nisbatan iqtisodiyotning barqarorligini oshirish;

3) barqaror iqtisodiy o‘sish;

4) mamlakat raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish va uni taraqqiy etgan dunyo mamlakatlari darajasida bo‘lishini ta’minlash;

5) mamlakat mudofaa qobiliyatini ta’min etuvchi mudofaa sanoati kompleksini rivojlantirish va uning salohiyatini mustahkamlash;

6) aholi turmush farovonligi darajasi va sifatini yaxshilash.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni baholash borasida quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

1) dunyo iqtisodiyoti yalpi ichki mahsulotida O‘zbekiston YaIMining ulushi;

2) davlatning tashqi qarzi;

3) kapitalning sof olib kirilishi yoki olib chiqib ketilishi;

4) mamlakat hududlarining iqtisodiy integratsiyalashuv darajasi;

5) import operatsiyalariga nisbatan mamlakat oltin-valyuta zaxiralarining nisbati;

6) eksport va importning fizik hajmi indeksi;

7) savdo balansi saldosi;

8) iste’mol tovarlarining importdagi ulushi va shu kabilar.

Nafaqat dunyo miqyosida, balki mamlakat ichida ham oqilona davlat siyosatini amalga oshiribgina, mazkur ko‘rsatkichlarning ijobiy natijalarini ta’min etish mumkin. Shu sababli ham mazkur ko‘rsatkichlar mamlakat ichida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida erishilgan ko‘rsatkichlarga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Iqtisodiy xavfsizlik holatini baholash mamlakat iqtisodiyoti ichki va tashqi muhitini monitoring qilish, rasmiy statistik kuzatish ma’lumotlari va shu bilan bir qatorda iqtisodiy xavfsizlikka tahdid va xavf-xatarlarni baholash borasida ekspertlarning xulosalarini hisobga olgan holda, turli davlat va nodavlat tashkilot-idoralari tomonidan o‘zlarining vakolatlari doirasida taqdim etilgan ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni bashoratlash va tahlil qilish borasida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va davlat siyosatini amalga oshirish

borasida ma’lum bir funksiyalarni amalga oshiruvchi ijro hokimiyati organlari iqtisodiy xavfsizlik holatini baholash va monitoring qilishni amalga oshiradilar.

Iqtisodiy xavfsizlik holatini tahlil va monitoring qilishning axborot-tahliliy ta’minoti o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, davlat tashkilotlarining axborot resurslari, mamlakat milliy xavfsizligi holati ko‘rsatkichlarini monitoring qilishning axborot-tahlil tizimi, davlat miqyosida strategik rejalashtirishning axborot tizimi resurslari bazasi orqali ta’min etiladi.

O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash va boshqarish organlari va rahbar shaxslari bo‘lib quyidagilar hisoblanadilar:

- O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti;
- O‘zbekiston Respublikasining xavfsizlik kengashi;
- O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senati);
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi;
- Viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmi asosiy e’tiborni global iqlim o‘zgarishlari, jahon iqtisodiyoti, global raqobat, global moliya, jahon tovar va moliya bozorlaridagi kon’yunkturaviy tebranishlarning kuchayishi, axborot xavfsizligi kabi sohalarda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarga qaratadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash ko‘p jihatdan tashqi bozorlarda milliy manfaatlarni himoya qilishga qodir bo‘lgan vositalarning samaradorligiga bog‘liq. Monopolistlarga qarshi kurashish, soliq imtiyozlari, qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari eksportini imtiyozli kreditlash; ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash; resurs tejamkor

texnologiyalarni izchil joriy etish kabilarni ko‘zda tutuvchi va ham tashqi, ham ichki bozorlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning milliy manfaatlarini himoya qiluvchi oqilona protektsionistik siyosatni amalga oshirish bu boradagi samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, “… jahon miqyosida raqobat tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda faqat yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaradigan davlatlargina dunyo bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Shuning uchun iqtisodiyotning barcha sohalarida yuqori samaradorlikka erishish – kelgusida islohotlarimizning bosh mezoni bo‘lishi shart... 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollardan oshirish uchun eng to‘g‘ri yo‘l – barcha sohalarni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazishdir. Bu – kelgusi yillarda iqtisodiy taraqqiyot strategiyamizning asosiy yo‘nalishi bo‘ladi”[17].

Xalqaro savdoning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni quyidagilarda ko‘rinadi:

- milliy resurs bazasining cheklanganlik darajasi qisqaradi, mamlakatda ichki bozorning kengayishi yuz beradi;
- milliy xo‘jalikda barcha takror ishlab chiqarish jarayonlarining intensivligi ortadi;
- milliy sanoatning texnik darajasi yaxshilanadi va jamg‘arish imkoniyatlari kengayadi, iqtisodiyotning rivojlanish sur’atlari o‘sadi, turli tabiiy resurslar, shu jumladan ishchi kuchidan oqilona foydalanish ta’min etiladi;
- eksport hajmining ortishi evaziga mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratiladi;
- mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashuv darajasi ortadi.

[17] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, https://president.uz/oz/lists/view/8834

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, arzon importga tayanib qolish, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda xalqaro savdoning o‘rni quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- xalqaro savdo yordamida barcha xo‘jalik aloqalarining natijalari ro‘yobga chiqadi, bu o‘z navbatida kapital va ishchi kuchini olib kirish yoki olib chiqish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, ilmiy-texnik hamkorlik aloqalarining kengayishida aks etadi;

- jahon bozorida savdo operatsiyalarini amalga oshirishning faollashuvi mamlakat iqtisodiyoti o‘sish sur’atlarini belgilab beradi;

- xalqaro savdoning rivojlanishi mintaqaviy integratsiyani ta’min etishning muhim asosi bo‘lib hisoblanadi, bu esa kelgusida xalqaro mehant taqsimotining yanada chuqurlashishiga zamin yaratib beradi;

- xorijiy kredit va qarz mablag‘larini jalb qilgan holda, milliy iqtisodiyotda investitsiyalash jarayonlari faol amalga oshiriladi.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida Tariflar bo‘yicha bosh kelishuv, Jahon savdo tashkiloti, turli xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh Kelishuv kabi institutlar doirasida amal qiluvchi ko‘p tomonlama kelishuvlar xalqaro savdoni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotni innovatsion jihatdan yangilash, ijtimoiy muammolarni hal etish, umuman olganda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda tashqi savdo siyosatining o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bularning barchasi umumiy tarzda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Mamlakat eksporti va uni diversifikatsiyalash darajasining yil sayin o‘sib borishi, importning intellektuallashuvi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro kapital harakatining turli jarayon va ko‘rinishlarida ishtirok etishlari asnosida tashqi savdo siyosati yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoniga tobora singib bormoqda. Aytish joizki, bugungi kunda mamlakat iqtisodiy xavfsizligining ham ichki va ham tashqi xatarlari o‘zaro chirmashib, bir butunlikni tashkil etmoqda, shu bois iqtisodiy

xavfsizlikni ta’minlash mexanizmida ichki va tashqi xatarlarni birdek baholash talab etiladi.

Qisqacha xulosalar

1. Institutsional mexanizm iqtisodiyotda yuz berayotgan o‘zgarishlarning o‘ziga xos in’ikosi hisoblangani holda, rasmiy va norasmiy institutlarni harakatga keltiradi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va agentlarning xatti-harakatlarini tartibga soladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmini avvaldan shakllangan institutlar harakatga keltiradi va mazkur institutlar jamiyatda belgilangan tartib va qoidalarga amal qilinishi ustidan nazorat o‘rnatadi.

2. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning mos mexanizmi va uni amalga oshirish borasida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Zamonaviy iqtisodiyot umum siyosiy, iqtisodiy, madaniy va qadriyatlarni ishlab chiqishda ifodalanuvchi dunyo mamlakatlari va xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning va o‘zaro bog‘liqlikning tobora kuchayib borishi bilan tavsiflanadi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni aniqlashtirish imkonini beruvchi omillarni monitoring qilish va bashoratlash mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmining muhim unsuri hisoblanadi. Monitoring iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari dinamikasini kuzatib borishning tezkor axborot-tahliliy tizimini ifoda etadi.

Nazorat savollari

1. “Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmi” va “iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmi” kategoriyalari o‘rtasida qanday o‘xshashlik va tafovutlar mavjud?
2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmining mazmunini tushuntirib bering?
3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmi tuzilmasi qanday?

4. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmi qanday tamoyillarga asoslanadi?

5. O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmi qanday o‘ziga xosliklarga ega?

6. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini tushuntirib bering?

7. Globallashuv jarayonlari mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga qay tariqa ta’sir ko‘rsatadi?

8. Bugungi kunda O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy xavf-xatarlar nimalardan iborat?

Har qanday davlatning ikkita chegarasi mavjud. Ulardan biri davlatning hududiy chegarasi bo‘lsa, ikkinchisi esa uning manfaatlar chegarasi hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida davlatning manfaatlar chegarasini mustahkamlash uzoqni ko‘zlagan har qanday hukumatning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Konochi Ono.

III BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA’SIR ETUVCHI TAHDIDLAR VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH ZARURIYATI

3.1. Iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar

3.2. Globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta’siri

3.3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari va “O‘zbekiston-2030” strategiyasining mushtarakligi

Tayanch tushuncha va iboralar: tahdid, ichki va tashqi tahdidlar, milliy iqtisodiyot, infratuzilma, investitsion faollik, iqtisodiyot tuzilmasi, globallashuv.

Qisqacha sharh

Iqtisodiy xavfsizlik – bu davlatning iqtisodiy barqarorligi, ichki bozorning samarali ishlashi, aholi turmush darajasi va milliy iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Har bir mamlakat uchun iqtisodiy xavfsizlik nafaqat ichki siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, balki tashqi tahdidlarga qarshi turish imkoniyatini ham ta’minlaydi.

Hozirgi zamon globalashuv davri hisoblanadi. Bu jarayonlar iqtisodiy, moliyaviy va texnologik sohalarning bir-biriga bog‘lanishini, davlatlar o‘rtasida hamkorlik va raqobatni oshirishni anglatadi. Globalashuv mamlakatlar iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratadi: investitsiyalarni jalb qilish, texnologiyalarni olish, eksport salohiyatini rivojlantirish va bilim almashinuvini oshirish. Shu bilan birga, u mamlakat iqtisodiyotini tashqi iqtisodiy tahdidlarga – moliyaviy inqirozlar, resurslar va tovarlar narxlarining o‘zgarishi, xalqaro bozorlar raqobatining kuchayishi – sezgir qiladi.

Shu bois, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda davlatning strategiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu strategiya ichki iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, strategik sohalarni himoya qilish va tashqi tahdidlarga tayyor bo‘lish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu bobda iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar, globalashuv jarayonlari va ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri, shuningdek BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va “O‘zbekiston-2030” strategiyasi bilan mushtaraklik masalalari tahlil qilinadi. Bu esa davlat iqtisodiyotini barqaror

rivojlantirish va aholi farovonligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi.

O‘zbekiston va Yevropa ittifoqi: hamkorlikning yangi bosqichi sari

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosatida an’anaviy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni yanada rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga faol qo‘shilishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, milliy manfaatlarni ilgari surish va himoya qilishda iqtisodiy diplomatiyaning samaradorligini oshirish hamda uni faollashtirish orqali Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni chuqurlashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida so‘nggi yillarda O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi, xususan, Germaniya**,** Frantsiya**,** Italiya**,** Ispaniya kabi yuqori iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar bilan munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi. 2017–2024 yillar davomida O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi umumiy savdo hajmi 2,4 barobarga o‘sgan bo‘lsa, 2025 yilning birinchi to‘qqiz oyi mobaynida YeI mamlakatlari bilan tovar ayriboshlash hajmi **5** milliard AQSh dollariga yetdi.

Bu o‘sishning asosiy omillaridan biri - O‘zbekistonning GSP+ maxsus preferentsiyalar tizimiga kiritilishi bo‘ldi. Ushbu tizim milliy eksportchi korxonalarga Yevropa bozorlariga 6200 turdagi mahsulotni bojxona to‘lovlarisiz olib kirish imkonini berdi.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik salohiyatidan to‘liq foydalanilmayapti, ishga solinmagan imkoniyatlar hanuz katta.

Yetmish yilcha oldin ikkinchi jahon urushini boshidan kechirgan Yevropa o‘ta horg‘in va xarob, oilalar parokanda, millionlab insonlar shunchaki kun kechirish manbalaridan mahrum edilar. Hukumatlar go‘yoki yengib bo‘lmas qarz sirtmog‘i bilan muttasil kurashib kelar, bir mamlakatning ikkinchi mamlakat bilan

munosabatlari o‘ta ziddiyatli edi. Bularning barchasi nafaqat qit’ani, balki butun dunyoni qamrab olgan inqiroz natijasi ekanligini ta’kidlash lozim. 1950 yil 9 mayda Frantsiya tashqi ishlar vaziri Rober Shuman Germaniya Federativ Respublikasi va Frantsiyani o‘zlarining metallurgiya, temir va ko‘mir sanoatlarini birlashtirishga chaqirgan holda, tarixiy nutq so‘zladi.

Robert Shuman Yevropani birdamlikka etaklovchi, aniq natijalarga tayanuvchi, mamlakatlar o‘rtasida hech qanday nizolarga o‘rin qoldirmaydigan Yevropani tasavvur qilgan edi. Uning fikricha, bo‘lg‘usi Yevropa hamjamiyati o‘z fuqarolarining turmush farovonligini oshirish va o‘z chegaralaridan tashqarida ham tinchlik va o‘zaro hamkorlikni targ‘ib qiluvchi hamjamiyatga aylanishi lozim edi.

Dastlab, metallurgiya, temir va ko‘mir sanoati birlashmasi sifatida tashkil topgan va a’zolari atigi Belgiya, G‘arbiy Germaniya, Frantsiya, Italiya, Lyuksemburg va Niderlandiyadan iborat bo‘lgan Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tib, bugun barchamizga ma’lum bo‘lgan Yevropa Ittifoqiga aylandi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqining a’zolari soni 27 tani tashkil qilgani holda, 8 ta davlat Yevropa Ittifoqiga kirish uchun intilayotganligi mazkur Ittifoqning kelgusida kengayish istiqbollarini ko‘rsatadi. 2024 yilda Yevropa Ittifoqi iqtisodiyoti 0,8 foizga o‘sgani holda, Yalpi ichki mahsulot qariyb 19,5 trln. AQSh dollarini, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YaIM hajmi esa salkam 35 ming AQSh dollarini tashkil qiladi. Jahonda kuzatilayotgan murakkab geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy noaniqliklarga qaramasdan, Yevropa Ittifoqi iqtisodiyoti barqaror rivojlanishda davom etmoqda. Bugungi kunda dunyo yalpi ichki mahsulotining taxminan 16 foizi Yevropa ittifoqi ulushiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlar mustaqillikning ilk yillarida, ya’ni 1992 yil 15 aprel kuni imzolangan O‘zaro anglashuv Memorandumi bilan boshlangan bo‘lib, bu hujjat ikki tomonlama

hamkorlikning huquqiy asosini yaratdi. Keyinchalik, 1996 yil iyun oyida Florentsiya shahrida imzolangan **“**Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim**”** munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tardi. Mazkur bitim doirasida “O‘zbekiston–YeI” formatida 6 ta qo‘shma organ tashkil etildi. Ular qatoriga Hamkorlik kengashi**,** Hamkorlik qo‘mitasi**,** Parlament hamkorlik qo‘mitasi, shuningdek Savdo va investitsiyalar, Adliya**,** ichki ishlar va inson huquqlari, hamda Taraqqiyot maqsadlarida hamkorlik bo‘yicha quyi qo‘mitalar kiradi.

Shu bilan birga, 1995 yilda Bryusselda O‘zbekiston elchixonasining ochilishi, keyinchalik esa 2011 yildan boshlab Toshkentda Yevropa Ittifoqining diplomatik vakolatxonasi faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi ikki tomonlama munosabatlarni institutsional jihatdan mustahkamladi.

Munosabatlarning yangi bosqichi sifatida 2022 yil iyul oyida “Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim” (KShHTB) ning tasdiqlanishi ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu hujjat ikki tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, faoliyatning yangi sohalariga tarqatish va strategik sheriklik darajasiga ko‘tarishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, 2022 yil 18 noyabr kuni Samarqand shahrida Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi**:** Global darvoza” mavzusidagi ilk konferentsiyaning o‘tkazilishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi va tashabbuskorlik salohiyatini yana bir bor namoyon etdi.

Ushbu tadbir g‘oyasi ilk bor 2021 yilda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, konferentsiya Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlaridan 500 dan ortiq ishtirokchi, xususiy sektor vakillari, xalqaro moliya institutlari hamda hukumat vakillarini bir maydonga jamladi. Konferentsiyaning asosiy maqsadi - YeI va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi mavjud salohiyatni to‘liq ro‘yobga

chiqarish, transport, suv-energetika va raqamli sohalardagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlashdan iborat edi.

Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo‘yicha Oliy vakili, Yevropa Komissiyasi vitse-prezidenti Jozep Borrel o‘z nutqida shunday ta’kidlagan edi: “Umumiy maqsadimiz aniq - mintaqalarimiz o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirar ekanmiz, biz odamlarni birlashtiramiz va ularning kelajagiga sarmoya yo‘naltiramiz.”

2025 yilning 3–4 aprel kunlari Samarqand shahrida tarixiy ahamiyatga ega voqea - Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi ilk sammit bo‘lib o‘tdi. Mazkur uchrashuv mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichiga qadam qo‘yganini, Yevropa va Markaziy Osiyo munosabatlarining strategik mazmun kasb etayotganini namoyon etdi.

Sammit ishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raislik qildi. Tadbirda Qozog‘iston**,** Qirg‘iziston**,** Tojikiston va Turkmaniston yetakchilari, shuningdek, Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta**,** Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Prezidenti Odil Reno-Basso hamda Yevropa investitsiya banki rahbariyati ishtirok etdi.

Sammit davomida Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalardagi munosabatlarni yangi darajaga olib chiqish, transport va energetika infratuzilmasini integratsiyalash, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari muhokama etildi. Shuningdek, tomonlar o‘zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirish, mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash, “yashil iqtisodiyot” va inklyuziv rivojlanish yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator kelishuvlarga erishdilar.

Ushbu sammit nafaqat Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo munosabatlarida yangi sahifani ochdi, balki Samarqandning xalqaro muloqot va hamjihatlik markazi sifatidagi nufuzini yanada oshirdi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan 2025 yil oktyabr oyida qabul qilingan 19-sanktsiyalar paketi doirasida Rossiya, Belarus, Xitoy, Qirg‘iziston va Tojikistonning qator bank va moliyaviy institutlari, kriptovalyuta birjalari hamda ayrim iqtisodiy zonalar qamrab olingan bo‘lsa-da, O‘zbekistonning biror banki yoki kompaniyasi ushbu ro‘yxatga kiritilmadi. Bu holat mamlakatimiz tomonidan olib borilayotgan muvozanatli, pragmatik va milliy manfaatlarga asoslangan tashqi siyosatning amaliy samarasi sifatida baholanadi. O‘zbekiston YeI bilan munosabatlarda o‘zaro manfaatli sheriklik, iqtisodiy barqarorlik va xalqaro huquq normalariga rioya qilish tamoyillariga sodiq qolgan holda, ikki tomonlama ishonch va hamkorlik muhitini mustahkamlashga erishdi. Shuning natijasida mamlakatimiz sanktsion xavflardan chetda qolishga, Yevropa Ittifoqi bilan barqaror va uzoq muddatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga muvaffaq bo‘ldi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2017–2024 yillar davomida ikki tomonlama tovar va xizmatlar ayirboshlash hajmi 2,4 barobarga oshgan, 2025 yilning dastlabki to‘qqiz oyida esa bu ko‘rsatkich 5 milliard AQSh dollariga yetgan. Bu raqam mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatida YeIning strategik ahamiyati tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Eksport tarkibida kimyoviy mahsulotlar 54%, to‘qimachilik mahsulotlari 8,4%, qora va rangli metallar 8,2%, xizmatlar esa 15% ulushni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyalanib, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar hissasi oshib borayotganini ko‘rsatadi. 2024 yilda YeIga eksport hajmi 1,7 milliard dollarga yetgan bo‘lib, bu 2017 yilga nisbatan 3,6 barobar ko‘pdir. Shu bilan birga, YeIdan import hajmi ham 2,2 barobarga oshib, 4,7 milliard dollarni tashkil qildi. Importda asosiy o‘rinni mashinalar va transport vositalari (49%), kimyoviy mahsulotlar (25%), hamda oziq-ovqat mahsulotlari (9%) egallagan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida O‘zbekiston tashqi savdosida Germaniya (19,1%), Italiya (17,8%), Frantsiya (9,6%), hamda Polsha (8,6%)

yetakchi sheriklar sifatida ajralib turibdi. Bu davlatlar nafaqat savdo, balki investitsiya va texnologiyalar sohasida ham muhim hamkorlar hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va YeI munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi. 2021 yilda mamlakat YeIning GSP+ benefitsiar davlatlaridan biriga aylandi, bu esa 6000 dan ortiq mahsulot turini Yevropa bozoriga bojxona imtiyozlari bilan eksport qilish imkonini yaratdi.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi investitsiyaviy hamkorlik izchil rivojlanib, mamlakat iqtisodiyotida yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. 2024 yil holatiga ko‘ra, YeI mamlakatlarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga yo‘naltirgan investitsiyalari hajmi 4,1 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Bu raqam mamlakatning ochiq iqtisodiy siyosat olib borishi va YeIning O‘zbekistonga bo‘lgan ishonchi tobora ortayotganini anglatadi.

Mazkur mablag‘lardan 1,4 milliard dollar – sanoat loyihalariga, 859 million dollar – xizmatlar sohasiga, 138 million dollar – qishloq xo‘jaligiga, 100 million dollar – turizm va infratuzilmaga, 98 million dollar esa energetika va yashil iqtisodiyot loyihalariga yo‘naltirilgan.

2017–2024 yillar davomida mamlakatimizga YeI davlatlaridan kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 12,4 milliard dollarga yetdi. Bugungi kunda O‘zbekistonda YeI kapitali ishtirokidagi 1000 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda. Ular sanoat, turizm, transport va raqamli iqtisodiyot kabi ustuvor sohalarni qamrab olgan. Shu bilan birga, YeI fuqarolari uchun vizasiz kirish tizimining joriy etilishi investitsiya muhitining yanada jozibador bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Investitsiyaviy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari YeIning “Global Gateway” dasturi, raqamlashtirish, transport va energetika sohalari orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, Trans-Kaspiy xalqaro transport yo‘lagini rivojlantirish**,** YeI kompaniyalarining turizm infratuzilmasini yangilashdagi ishtiroki, hamda GSP+ tizimi doirasidagi savdo imkoniyatlaridan foydalanish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga katta turtki bermoqda.

Bundan tashqari, YeIning “2021–2027 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirishga moliyaviy ko‘magi” dasturi mamlakatda barqaror iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan.

Shu tariqa, YeI bilan investitsiyaviy munosabatlar nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va texnologik sheriklikning ham yangi bosqichini boshlab bermoqda. Bu hamkorlik O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash bilan birga, mamlakatni Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish markaziga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida global noaniqlik va siyosiy beqarorlik tendensiyalari saqlanib qolmoqda. Dunyo siyosiy-iqtisodiy tizimidagi yetakchi davlatlar ko‘p qutbli dunyo tartibini shakllantirish va unda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun turli shakllarda raqobat olib bormoqda. Bunday sharoitda Markaziy Osiyo mintaqasi barqaror rivojlanayotgan, barcha tomonlama hamkorlikka ochiq va dunyo iqtisodiyoti uchun muhim geostrategik makon sifatida ajralib turibdi.

So‘nggi yillardagi jarayonlar shuni ko‘rsatmoqdaki, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekiston ham tashqi iqtisodiy va siyosiy bosimlarga nisbatan barqarorligini namoyon qildi. Bugun mintaqa xalqaro investorlar nigohida ijtimoiy jihatdan barqaror**,** iqtisodiy jihatdan jozibador va geografik jihatdan strategik ahamiyatga ega hudud sifatida tan olinmoqda. Mintaqada 80 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi, u sharq va g‘arbni bog‘lovchi muhim iqtisodiy ko‘prik vazifasini bajaradi. Tabiiy va mineral boyliklar zahiralarining ko‘pligi esa uning investitsion salohiyatini yanada oshiradi.

Yirik xalqaro institutlar, jumladan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki **(**YYeTTB**)** Markaziy Osiyoning iqtisodiy istiqbollarini ijobiy baholamoqda. YYeTTB ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda mintaqa iqtisodiyoti o‘rtacha 5,7 foizga o‘sgan**,** bu esa ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, mehnat migrantlari pul o‘tkazmalarining ko‘payishi hamda mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi bilan izohlanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti ham shunday ijobiy tendensiyalarni namoyon etmoqda. Bank hisobotlariga ko‘ra, 2025 yil va undan keyingi davrda mamlakat iqtisodiyotining o‘sish sur’ati 6,7–6,8 foiz atrofida bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa amalga oshirilayotgan islohotlar va xorijiy hamkorlik siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlar ham izchil rivojlanmoqda. Hamkorlik yo‘nalishlari demokratik institutlarni qo‘llab-quvvatlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, “yashil o‘sish”ni ta’minlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, fan va ta’lim sohasida innovatsiyalarni rivojlantirish, savdo siyosatini erkinlashtirish hamda iqlim o‘zgarishiga qarshi birgalikda kurashish kabi ustuvor sohalarni qamrab olmoqda.

2025 yil 24 oktyabr kuni Bryussel shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen ishtirokida “Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim” imzolandi.

Mazkur hujjat 1996 yilgi bitim asosida shakllangan O‘zbekiston–Yevropa hamkorligining huquqiy bazasini yangilab, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar sohalarni qamrab olgan keng ko‘lamli hamkorlik uchun mustahkam asos yaratadi. Bitim 9 bo‘lim, 356 ta modda va 14 ta ilovadan iborat bo‘lib, savdo, investitsiya, innovatsiya, fan-ta’lim, energetika hamda ekologiya yo‘nalishlarida sheriklikni chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

Bryusseldagi uchrashuv davomida tomonlar bu hujjatni strategik hamkorlikning yangi davrini boshlab beruvchi tarixiy qadam sifatida baholadilar. Bitim O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan savdo, energetika, transport, “yashil iqtisodiyot” va raqamli texnologiyalar sohalaridagi aloqalarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Yevropaning yirik kompaniya va moliya institutlari rahbarlari bilan uchrashuvda investitsiyalarni kengaytirish**,** muhim minerallarni chuqur qayta ishlash**,** qayta tiklanadigan energetika va **IT** sohalarida qo‘shma loyihalarni ilgari surdi. Uchrashuv natijasida umumiy qiymati

10 milliard evroni tashkil etuvchi yangi loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

Prezident O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”, energetika tizimini modernizatsiya qilish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda raqamli transformatsiya va inson kapitaliga sarmoya kiritish yo‘nalishlarida Yevropa bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidladi. Mazkur bitim O‘zbekiston–Yevropa munosabatlarida yangi sahifani ochib, o‘zaro ishonch, barqaror rivojlanish va uzoq muddatli sheriklik yo‘lida muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi.

3.1. Iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar

Jahonda bo‘layotgan geosiyosiy o‘zgarishlar, xalqaro munosabatlar tizimidagi beqarorlik, mintaqaviy qarama-qarshiliklar va global iqtisodiy transformatsiyalar har bir davlatdan tashqi siyosatni doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqishni, uni milliy manfaatlar va zamon talablariga moslashtirib borishni taqozo qilmoqda. So‘nggi yillardagi ochiq, pragmatik va muvozanatli tashqi siyosatimiz natijasida O‘zbekistonning xalqaro maydondagi o‘rni va nufuzi oshib bormoqda. Shu bilan birga, global xavfsizlik arxitekturasidagi o‘zgarishlar, yangi iqtisodiy ittifoqlar, savdo yo‘nalishlari, texnologiyalar va energiya bozorlaridagi transformatsiyalar tashqi siyosatimizdan yanada faol, aniq maqsadli va natijaga yo‘naltirilgan yondashuvni talab etmoqda.

Tahdid jamiyat, davlat va ularning subyektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiladigan, ziyon-zahmat keltiradigan, xavf-xatar tug‘diradigan omillar va shart-sharoitlarni anglatadi.

Iqtisodiy xavfsizlikka bo‘ladigan tahdidlar – mamlakatdagi iqtisodiy holatga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, shaxs, jamiyat, davlatning iqtisodiy manfaatlarini cheklab qo‘yadigan, milliy qadriyatlar va hayot tarziga xavf soladigan hodisa va jarayonlardir[18].

[18] Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. – СПб. Питер 2007, с.67

Odatda iqtisodiy tahdidlar umumlashtirilgan holda ichki va tashqi tahdidlarga ajratilib o‘rganiladi. Iqtisodiy tahdidlar mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, jamiyat, davlat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita xavf tug‘diradi. Bu tahdidlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishni izdan chiqarib, aholining turmush darajasini pasayib ketishiga olib keladi, jamiyat hayotida tanglik holatlarini keltirib chiqaradi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi.

3.1-rasm. Milliy xavfsizlikka tahdidlarning tasniflanishi[19]

Ichki tahdidlar jumlasiga mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishga qodir emasligi, taraqqiyotda innovatsion asoslarning zaifligi, qarama-qarshiliklar va ijtimoiy ziddiyatlarni hal etishda manfaatlar balansiga erisha olmaslik kabilar kiritiladi.

[19] Abulqosimov H. Economic security.“ //Akademiya” Publishing House Tashkent–2006. – 2006.

Jahon narxlari va tashqi savdodagi o‘zgarishlar, kirib kelayotgan kapital (xorijiy investitsiyalar) hajmidan mamlakatdan chiqib ketayotgan kapital hajmining ortib ketishi, tashqi qarz miqdorining kattalashib ketishi, importga bog‘lanib qolish, eksport tarkibida xomashyo mahsulotlari ulushining oshib ketishi tashqi tahdidlar qatoriga kiradi.

Agar mamlakat ichidagi tahdidlarni oldi olinmasa, ular bartaraf etilmasa, ichki tahdidlar iqtisodiyotni tashqi tahdidlarga sezuvchan qilib qo‘yadi. Ichki tahdidlar davlatni iqtisodiy va moliyaviy jihatdan zaiflashtirib, harbiy sohada tahdidlarni kuchayishiga olib keladi. Davlatning iqtisodiy jihatdan zaif bo‘lishi millatni xalqaro moliyaviy tashkilotlarga qaram bo‘lib qolishiga olib keladi. Bunda davlatning byudjet mablag‘lari ijtimoiy majburiyatlarni bajarishga, masalan, byudjet sohasi xodimlariga ish haqi to‘lash, pensiya, nafaqalar berishga ham etmay qolishi mumkin. Ichki tahdidlar milliy tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan ichki talabni qondira olmaslik natijasida iqtisodiyotni importga, tashqi bozor kon’yunkturasiga bog‘liqligini kuchaytirib qo‘yadi. Davlatning ichki tahdidlarga qarshi turish qobiliyatining sust bo‘lishligi uni samarali tashqi siyosat olib borishdan mahrum qilib qo‘yadi, u milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlay olmaydi, raqobatbardosh mahsulotlar eksportini rag‘batlantirib, yangi tovar bozorlarini egallay olmaydi.

Adabiyotlarda “iqtisodiy xavfsizlikka ichki tahdidlar sifatida quyidagilar keltiriladi:

- mamlakat iqtisodiyotining biryoqlama rivojlanganligi va tarkibiy deformatsiyaning kuchayishi;
- milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining pastligi;
- iqtisodiyotning yuqori darajada monopollashuvi;
- yuqori darajadagi inflyatsiya;

- mineral – xomashyo bazalarining kam o‘rganilganligi;
- mamlakat ilmiy-texnika salohiyatining yomonlashuvi, fan-texnika rivojlanishining ayrim yo‘nalishlarida ilg‘or o‘rinlarning boy berilishi, boshqa faoliyat sohalarida intellektual mehnat nufuzi va obro‘- e’tiborining tushib ketishi;
- infratuzilmaning rivojlanmaganligi;
- ichki bozorlardan milliy tovarlarning chet el tovarlari tomonidan siqib chiqarilishi;
- hududiy separatizm va lobbizmning yuqoriligi;
- investitsion faollikning pasayishi;
- ijtimoiy ziddiyatlar kelib chiqish xavfining mavjudligi;
- qonunchilikning rivojlanmaganligi, huquqiy intizomning sustligi;
- moliyaviy va shartnomaviy intizomning pastligi;
- iqtisodiyotning kriminallashuvi, boshqaruvda korrupsiyaning kuchayishi;
- daromadlarni yashirish, soliq to‘lashdan qochish hollarining ko‘payishi;
- moliyaviy mablag‘larning chet ellarga noqonuniy tarzda o‘tkazilishi” [20].

Tashqi tahdidlar jumlasiga esa quyidagilar kiritiladi:

- eksport tarkibida xomashyo mahsulotlarining ustuvorligi;
- mamlakatning import mahsulotlariga qaramligi, bog‘liqligi;
- import tarkibining ratsional emasligi;
- tashqi qarzlarning o‘sib borishi;
- eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- bojxona chegaralarining yetarli darajada belgilanmaganligi;
- eksport-import operatsiyalariga xizmat ko‘rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivojlanmaganligi.

Yuqorida keltirilgan ichki tahdidlar orasida iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuvining kuchayishi iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan tahdidlardan bo‘lib hisoblanadi. Mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun birinchi navbatda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Bunday

[20] Экономическая безопасность: учебное пособие/ М.В. Кунцман. – М.: МАДИ, 2016. – 152 с

o‘zgarishlarning mazmuni ishlab chiqarish bilan talab tarkibi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashda ifodalanadi.

Mamlakatda investitsion va innovatsion faollikning susayishi ham jiddiy tahdidlardan bo‘lib hisoblanadi. Respublikada iqtisodiyotga bo‘ladigan bunday tahdidni oldini olish maqsadida faol investitsiya siyosati olib borildi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha Dastur ishlab chiqildi. Bu loyihalar yoqilg‘i-energetika, kimyo, neft-gazni qayta ishlash, metallurgiya tarmoqlariga, yyengil va to‘qimachilik sanoati, qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va boshqa sohalarga tegishlidir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, amalda faoliyat yuritayotgan texnika va texnologiyalarni yangilash, ularni qo‘llab-quvvatlash investitsion jarayonlarni nechog‘liq to‘g‘ri va samarali amalga oshirishga bog‘liq. Shu boisdan ham, O‘zbekiston Respublikasi davlat rahbari tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun markazlashgan, markazlashmagan jamg‘armalar mablag‘lari, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o‘zlashtirishga hamda ulardan samarali foydalanish masalalariga urg‘u berilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o‘zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e’tiborga loyiq.

Asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichidir, chunki ular yangi ish o‘rinlarini yaratish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda shakllangan qulay biznes muhiti, barqaror demografik o‘sish hamda inson kapitaliga berilayotgan yuksak e’tibor O‘zbekistonni xorijiy investorlar uchun eng jozibador mamlakatlardan biriga aylantirmoqda. So‘nggi to‘qqiz yil davomida iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga jami 130 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb etildi. 2025 yilning o‘zida esa chet ellik hamkorlar bilan 140 milliard dollarlik yangi investitsiyaviy kelishuvlarga erishildi.

2026-yilda 50 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni jalb qilish rejalashtirilgan. Endilikda jalb qilinayotgan har bir dollar investitsiya, avvalo, ilg‘or texnologiyalar va ularning transferiga, tashqi bozorlarga yo‘naltirilgan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga, tabiiy resurslardan samarali foydalanishga, mahalliy kadrlarni zamonaviy texnologiyalar asosida tayyorlashga va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Shu bois yuqori texnologiyalarni olib kiradigan va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni tashkil etadigan investorlar ishonchli strategik hamkor sifatida qaraladi.

Strategik investorlar uchun loyiha yer maydonlari bozor qiymatida to‘g‘ridan to‘g‘ri ajratiladi. Yer toifasi o‘zgarganda nobudgarchilik uchun to‘lovlarni 10 yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati yaratiladi. Investorlar uchun yer ajratish, hujjatlashtirish, qurilish va infratuzilmaga ulanish jarayonlari “yagona darcha” tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bu maqsadda “invest.gov.uz” elektron platformasi ishga tushiriladi.

Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalarga dunyoning yetakchi brendlari jalb qilinadi. Ushbu zonalarda faoliyat yurituvchi korxonalar xalqaro texnik reglamentlar, ekologik va mehnat standartlarini qo‘llash huquqiga ega bo‘ladi. Ular uchun imtiyozli investitsiyaviy, soliq, bojxona va huquqiy rejimlar joriy etiladi hamda xalqaro arbitraj mexanizmlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida kelgusi besh yil davomida 180 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb etilib, 1 millionta yuqori daromadli ish o‘rni yaratilishi ko‘zda tutilmoqda. Investitsiyalar oqimini ko‘paytirish va ularning samaradorligini ta’minlash maqsadida faqat investitsiya bilan shug‘ullanuvchi yangi

institutsional tizim shakllantiriladi. Xuddi shunday yondashuv mahalliy sanoat va kooperatsiyani rivojlantirishda ham qo‘llaniladi.

Iqtisodiyotni raqobatbardosh qilish, investitsiyalar samaradorligini oshirish va sanoat tarmoqlarini texnologik jihatdan yangilash mutlaqo yangi yondashuvlarni talab etadi.

Sanoatni rivojlantirish va qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish bo‘yicha yangi dastur amalga oshiriladi. Unga ko‘ra, kelgusi besh yilda sanoatda yaratiladigan qo‘shilgan qiymat hajmini 36,5 milliard dollardan kamida 60 milliard dollarga yetkazish, yuqori va o‘rtadan yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2,5 barobar oshirish rejalashtirilgan. 2026-yilda umumiy qiymati 52 milliard dollarga teng bo‘lgan 782 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihasiga start beriladi.

2026 yilning o‘zida 14 milliard dollarlik 228 ta yirik ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushiriladi. Jumladan, Navoiy viloyatidagi oltin konlarida 320 million dollarlik loyiha doirasida qo‘shimcha 2 million tonna ma’dan qayta ishlanadi. “Muruntov” koni va kumush konlari bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirilib, 2030-yilgacha oltin ishlab chiqarish hajmi 175 tonnaga yetkaziladi.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida qiymati 2,7 milliard dollar bo‘lgan, yiliga 300 ming tonna mis katodi ishlab chiqarish quvvatiga ega yangi metallurgiya majmuasi barpo etiladi. “Samarqand kimyo” zavodida esa yiliga 370 ming tonna fosforli va 540 ming tonna murakkab o‘g‘itlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Qashqadaryoda yangi kimyo zavodi qurilishi boshlanadi.

2026-yilda kimyo sanoatida 4,5 milliard dollarlik, tog‘-kon metallurgiya, neft-gaz, avtomobilsozlik, to‘qimachilik va qurilish materiallari tarmoqlarining har birida 3 milliard dollarlik, elektrotexnika sohasida 2 milliard dollarlik va farmatsevtika sanoatida 800 million dollarlik yangi loyihalar amalga oshiriladi. Natijada eksport hajmi 40 milliard dollarga yetkazilib, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushi 55 foizdan oshiriladi.

2026i yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 167 milliard dollarga yetkazish va iqtisodiy o‘sishni 6,6 foiz darajasida ta’minlash prognoz qilinmoqda. Mehnat

unumdorligi va energiya samaradorligini oshirish orqali bu ko‘rsatkichni yanada yaxshilash imkoniyatlari mavjud.

Shu maqsadda “Unumdorlik va samaradorlikni ikki karra oshirish” dasturi amalga oshiriladi. Dastur doirasida xalqaro moliya institutlaridan 200 million dollarlik kredit va grantlar jalb qilinib, sanoat korxonalariga yuqori malakali xorijiy mutaxassislar jalb etiladi, biznes jarayonlar raqamlashtiriladi va ilg‘or texnologiyalar joriy etiladi.

Mazkur jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash uchun “To‘rtinchi sanoat inqilobi markazi” tashkil etilib, robototexnika, “aqlli” fabrikalar va “Industriya 4.0” yechimlarini joriy etish bo‘yicha tartibga solish mexanizmi yaratiladi.

Sanoat siyosatidagi asosiy ustuvor ahamiyat institutsional islohotlarning sifatini oshirish va tadbirkorlik faoliyatiga keng yo‘l ochib berish, sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotining real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, o‘rta va uzoq muddatda sanoatni rivojlantirish bo‘yicha dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida yuqori texnologiyalarga asoslangan qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish zarurati alohida ta’kidlandi.

Davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilishi bilan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mustaqil va teng huquqli ishtirokchisiga aylandi. Mamlakatimizda bozor munosabatlarini qaror toptirish borasida amalga oshirilgan tezkor chora-tadbirlar respublikaning iqtisodiy sherik va hamkorlari doirasini kengaytirishga yordam berdi. Bunda, tashqi savdoni erkinlashtirish va milliy iqtisodiyotdagi tanqisliklarning bartaraf etilishi mamlakatimizning tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida erishgan muhim ijobiy natijalari hisoblanadi. Shunga qaramay, respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyati o‘z rivojlanishining boshlang‘ich bosqichida bo‘lganligi sababli, xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlarida

mamlakatimiz faol ishtirok etayotgan bo‘lsada, mavjud tabiiy-iqtisodiy resurslar, ishchi kuchi zaxirasidan to‘laqonli foydalanish imkonini beruvchi iqtisodiy salohiyatdan yetarlicha foydalana olayotgani yo‘q.

Bozor islohotlarini amalga oshirishda O‘zbekiston o‘tish davri iqtisodiyotiga xos bo‘lgan iqtisodiy muammolarga duch keldi. Bunday muammolar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: o‘tish davri iqtisodiyotidagi pasayishning haddan ziyod cho‘zilib ketishi; iqtisodiyotning deindustrilizatsiyasi; milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshlik darajasining pastligi va shu kabilar Ushbu muammolar bilan bir qatorda, tashqi savdo sharoitining yomonlashishiga olib kelgan import xaridlarining doimiy va sezilarli o‘sishi iqtisodiy sohada ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda.

3.2. Globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta’siri

XX asrning oxirgi choragida jahon hamjamiyatining iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi rivojlanishi globallashuv jarayonlari ta’sirida amalga oshdi. Globallashuvning iqtisodiy mazmuni va mohiyati birinchi navbatda xo‘jalik taraqqiyotining manbalari, omillari va shakllari bilan bog‘liqdir. Bu yerda gap sarmoyalar, texnologiyalar, ishchi kuchi, intellektual va moliyaviy resurslar, boshqaruv va boshqalar to‘g‘risida ketmoqda. Ushbu jarayonlar xalqaro savdo va investitsiya hajmlarining o‘sishi, jahon moliya bozorlari va ishchi kuchi bozorlarining misli ko‘rilmagan tarzdagi diversifikatsiyasi, jahon xo‘jalik aloqalarida transmilliy korporatsiyalar rolining oshishi, global raqobatning keskinlashuvida namoyon bo‘lmoqda.

Globallashuv iqtisodiy taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o‘tish davrining mahsuli bo‘lib hisoblanadi. Demak, globallashuv jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichini ifodalovchi jarayondir. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 1995-yildayoq dunyo aholisining 90 foizi globallashuv jarayonlariga tortilgan.

“Globallashuv” iborasi birinchi marta 1983-yilda T. Levitt tomonidan qo‘llangan. U “ko‘pmillatli yirik korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan

alohida mahsulotlar bozorlarining qo‘shilib ketish hodisasini” globallashuv iborasi bilan ifodalagan[21].

Globallashuv – baynalmilallashuvning eng yangi bosqichi bo‘lib, unda dunyo xo‘jaligi yagona iqtisodiy organizmga aylana boshladi. Mamlakatlararo tovar va xizmatlar, kapital va axborot oqimlarining, xalqaro miqyosda mehnat resurslari harakatchanligining keskin o‘sib borishi globallashuvning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

3.2-rasm. Dunyo iqtisodiyotida kuzatilayotgan tendensiyalar

Keyingi davrlarda ishlab chiqarishning milliy bozorlarga emas, ko‘proq dunyo bozorlariga yo‘naltirilganligi dunyo iqtisodiyoti globallashuvining hozirgi bosqichini harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib hisoblana[22]. Globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta’siri masalalarini o‘rganishda “iqtisodiy globallashuv” muammosiga ko‘proq ahamiyat berish kerak bo‘ladi. Transmilliy korporatsiyalarning o‘sib borishi, ya’ni ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, xalqaro miqyoslarda pul ko‘rinishidagi kapitalning turli shakllarda harakat qilishi “iqtisodiy globallashuv” tushunchasiga sifat jihatdan yangi mazmun baxsh etdi.

Ayni paytda “Jahon bozori, xalqaro xo‘jalik munosabatlari va institutlari milliy xo‘jalik tizimlarining oddiy davomi, ularning yig‘indisi emas, balki ulardan tubdan farq qiluvchi tashkiliy tuzilma bo‘lib hisoblanadi”[23].

[21] Г.Ф.Фейгин. Развитие национальных экономик в условиях глобализации: историко-экономический аспект. / Известия Санкт-Петербургского университета. №2, 2009, с.14
[22] Международня экономика: теория и практика. Учебник для вузов. – СПб. Питер, 2008. с. 15
[23] Богомолов О.Т. Анатомия глобальной экономики. –М.: 2004-с

Iqtisodiy globallashuv bir qator xususiyatlarga ega:

birinchidan, keyingi yillarda dunyoda sodir bo‘lgan siyosiy o‘zgarishlar natijasida jahon xo‘jaligining universallashuvi, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan iqtisodiy makonning kengayishi.

Iqtisodiy globallashuvning **ikkinchi xususiyati** - kapital harakatining erkinlashuvi hamda moliya tizimlari va valyuta nazoratini tartibga solishning qiyinlashuvi. Ushbu jarayonlarning ta’siri natijasida xalqaro savdo hajmlari, mamlakatlar o‘rtasida moliyaviy va sarmoya oqimlari bir necha barobar oshib bormoqda.

Globallashuv jarayonining **uchinchi** o‘ziga xos xususiyati – milliy xo‘jaliklarning iqtisodiy jihatdan ochiqligining ortib borishi. Bunday holat dunyoda iste’mol qilinayotgan tovar va xizmatlarning o‘rta hisobda deyarli yarmi to‘la yoki qisman ular iste’mol qilinayotgan mamlakatlardan tashqarida ishlab chiqarilishini ko‘rsatadi.

Globallashuvning to‘rtinchi xususiyati uning ishsizlikka va mamlakatlarning ish bilan bandlikning barqaror yuqori darajasini ta’minlash qobiliyatiga ta’siri bilan bog‘liqdir. Hozirgi kunda ilm talab qiladigan va yuqori texnologiyali tarmoqlar yuqori malakali, lekin kam miqdorda ishchi kuchi talab etadi. Keyingi yillarda mehnat, material va energiya talab etadigan tarmoqlarda band bo‘lgan past va o‘rtacha malakaga ega bo‘lgan xodimlar soni qisqarib bormoqda. Ularning bir qismi xizmat ko‘rsatish sektorlariga o‘tmoqda, lekin katta qismi ishsizlar qatoridan joy olmoqda.

Beshinchi xususiyati – iqtisodiy jarayonlarning global muammolar, jumladan, resurslarning cheklanganligi, demografik vaziyatning va oziq-ovqat muammolarining keskinlashuvi, rivojlangan mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar orasidagi texnologik va intellektual salohiyatdagi tafovutning chuqurlashuvi, daromadlar bo‘yicha tabaqalashuvning kuchayishi, ekologik muammolarning keskinlashuvi bilan bog‘liqligidir.

Globallashuv tarafdorlari ushbu jarayonda ishtirok etadigan barcha mamlakatlar undan foyda ko‘radi, degan fikrni bildiradilar. Lekin real hayotda

global munosabatlarning ustunliklaridan asosan rivojlangan mamlakatlar manfaat ko‘rmoqdalar, degan fikrlar ham mavjud.

3.3-rasm. Dunyo iqtisodiyotining globallashuvi

Globallashuv ma’lum ma’noda iqtisodiyotning qutblashuvini kuchaytiradi. Mashhur venger iqtisodchisi M.Shimaining hisob-kitoblariga ko‘ra, 1995 yilda jahon YaIMning 80 foizi dunyo aholisining 14,5 foizi yashaydigan 24 mamlakat tomonidan, 15 foizi dunyo aholisining 31,5 foizi to‘g‘ri keladigan 63 mamlakat tomonidan o‘zlashtirilgan.

Jahon YaIMning bor yo‘g‘i 5 foizi dunyo aholisining yarmidan ko‘pi, ya’ni 55,5 foizi istiqomat qiladigan 45 mamlakat tomonidan o‘zlashtirilgan[24]. 2005-yilda

[24] Internet ma’lumotlari

dunyo bo‘yicha olingan daromadning bor yo‘g‘i 39 foizi dunyo aholisining 84 foizi yashaydigan jon boshiga eng past va o‘rtacha daromadli mamlakatlar ulushiga to‘g‘ri kelgan. MDH hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotning bor-yo‘g‘i 4,1% to‘g‘ri keladi, YeI mamlakatlarining ulushi esa 24%ni tashkil etadi[25].

Globallashuv sharoitida mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligi – ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, hozircha uning yagona talqini qabul qilinmagan. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalar jadallik bilan chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallashuvi kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash nafaqat mamlakat darajasida, balki mintaqa darajasida ham eng muhim masalalardan biriga aylanib boradi.

Globallashuv dunyo hamjamiyati ishtirokchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan bir vaqtda, milliy iqtisodiyotlar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan xavf-xatar va tahdidlarni ham vujudga keltiradi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borgan sari bunday tahdidlar miqyosi kengayib, ularni bashorat qilish va bartaraf etish qiyinlashib boradi. Bir paytning o‘zida ham dunyo hamjamiyatiga, ham alohida olingan konkret mamlakatga tahdid soladigan yangi global xavf-xatarlar vujudga keladi.

Globallashuv ziddiyatli kechishi tabiiy, bunday ziddiyatlar globallashuv jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar bo‘lib, u bir tomondan xalqaro savdo, investitsiyalar, texnologiyalar va axborot almashinuvi orqali iqtisodiy o‘sish va taraqqiyot imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan milliy suverenitetning cheklanishi, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi tafovutning chuqurlashuvi, ijtimoiy tengsizlikning ortishi, madaniy bir xillashuv, ekologik muammolarning kuchayishi hamda bandlik bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi bilan namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini keng xalqaro hamkorliksiz ta’minlash mumkin emas. Chunki yuzaga kelayotgan muammolarni faqat milliy vosita va mexanizmlar yordamida hal etib bo‘lmaydi. Shu bois “milliy

[25] Иванов Ю. О глобальном международном сопоставлении ВВП по 146 странам мира. / Вопросы экономики, №5, 2008, с. 29

iqtisodiy xavfsizlik” va “xalqaro iqtisodiy xavfsizlik” kabi tushunchalar o‘rtasida aloqadorlik kuchayib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti sifatida qaraladi.

Globallashuv mamlakatlar iqtisodiyotini tashqi omillar ta’siriga ochiq qilib qo‘yadi. Masalan, XX asr 70- yillarining o‘rtalarida OPEK a’zolarining xatti-harakatlari natijasida neft mahsulotlariga jahon narxlari oshib ketdi. Jahon miqyosida energiya iste’molining muntazam o‘sib borganligi va energiya resurslarining cheklanganligi sharoitida ko‘p mamlakatlar oldida energetika xavfsizligini ta’minlash muammosi dolzarb bo‘lib qoldi.

XX asr 70 – yillarining boshlarida Bretton – Vud xalqaro valyuta tizimining parokandalikka yuz tutganligi va 1976-yilda Yamayka kelishuvlari asosida “suzuvchi” valyuta kurslariga o‘tilganligi, rivojlangan mamlakatlar tomonidan kapital harakatlari ustidan nazoratni sekin-asta susaytirilganligidan dalolat beradi.

Keyinchalik o‘tgan asrning 80–90 yillarida Lotin Amerikasi va Janubi-sharqiy Osiyoning bir qator mamlakatlarida sodir bo‘lgan va jahon moliya bozorlarida halokatga olib kelgan inqirozlar natijasida moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash zaruriyati paydo bo‘ldi.

Yer yuzi aholisi sonining ko‘payib borishi, buning natijasida xomashyo va mahsulotlarga bo‘lgan talabning oshishi va oqibatda chiqindilarning katta miqdorda to‘planib borishi atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Bu jarayonlar global tavsifga ega bo‘lganligi bois, dunyo miqyosida tahdidga aylanib, ekologik xavfsizlikni ta’minlash zaruriyatini keltirib chiqardi.

“Immunitet” nemischa so‘z bo‘lib, XVIII asrning birinchi yarmida ma’lum bir shaxslarning jamiyatda umum qabul qilingan qoida va qonunlarga buynsumaslik huquqini anglatgan. Davlatda alohida maqomga ega bo‘lgan dpilomatlar, deputatlar va sudyalar mazkur huquqqa ega bo‘lganlar. Vaqt o‘tishi bilan immunitet so‘zining qo‘llanilish sohasi ham kengaya bordi. U tibbiyot va biologiya sohasiga ham kirib bordi. XIX asrning ikkinchi yarmida immunitet – inson organizmining turli xil infektsiya va zaharlanishlarga qarshi kurasha olish qobiliyati sifatida talqin qilingan bo‘lsa, XX asrning birinchi yarmidan boshlab mazkur so‘z, jamiyat hayotining turli

jabhalarida turlicha ma’noda qo‘llanila boshlandi. Immunitet – tashqi ta’sirlarga qarshi tura olish, jamiyatda kechayotgan voqea va hodisalarga xotirjamlik va sovuqqonlik bilan munosabatda bo‘lishdir.

Immunitet so‘zining kelib chiqishi asli lotin tiliga bog‘liq bo‘lib, turli majburiyatlardan holilik, mutlaqo erkinlik ma’nosini bildiradi.

Iqtisodiy ta’limotlar tarixida immunitet- mulkdorning mol-mulki va yeriga davlat hokimiyatining turli mansabdor shaxslarining dahl qilishini cheklovchi qirollik yorlig‘i sifatida talqin qilingan.

Iqtisodiy rivojlanishning bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiy immunitet tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishni o‘rinli: “Iqtisodiy immunitet- bu alohida olingan mamlakat iqtisodiyotining real voqelikda favqulodda yuz berishi mumkin bo‘lgan har qanday moliyaviy- iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy, tabiiy-ekologik kabi xavf-xatarlarga qarshi kurasha olish, ularning iqtisodiyotga salbiy ta’sirini tezda bartaraf etgan holda barqaror rivojlanishni ta’min eta olish qobiliyatidir”.

Iqtisodiy immunitet haqida so‘z borar ekan, albatta barqaror rivojlanish haqida fikr yuritishimiz o‘rinli bo‘ladi, zero hozirda koronavirus inqirozi sharoitida dunyo mamlakatlari darajasida “barqaror rivojlanish” to‘g‘risida ko‘p gapirilmoqda. Bu borada dunyo mamlakatlari qator hujjatlar va dasturlar qabul qilishayapti va o‘zlarining barcha sa’yi harakatlarini mazkur yo‘nalishga safarbar qilishayapti.

Barqaror rivojlanish tushunchasining zamirida nima yotadi? Quyida mazkur savolga javob berishga harakat qilib ko‘ramiz:

- Barqaror rivojlanish kelajak avlodlarning ehtiyojlarining qondirilishini shubha ostiga qo‘ymagan holda, bugungi ehtiyojlarning samarali tarzda qondirilishini ifoda etadi.
- Barqaror rivojlanish insonlar va umuman olganda sayyoramizning kelajagiga tahdid soluvchi xavf-xatarlarga qarshi xatti –harakatlarning muvofiqlashtirilishini ko‘zda tutadi.
- Barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun uch asosiy tashkil etuvchi: iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy integratsiya va atrof –muhitni muhofaza qilish masalalarini

o‘zaro uyg‘unlikda hal etish talab etiladi. Mazkur komponentlar bir –birlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani holda, alohida insonlar va yaxlit holda jamiyat farovonligini ta’min etishda favqulodda muhim sanaladi.

●Barqaror taraqqiyotni ta’minlashning zaruriy talablaridan biri qashshoqlik va uning barcha ko‘rinishlariga barham berish hisoblanadi. Buning uchun, barchaga birdek qo‘shimcha imkoniyatlarni taqdim etish, aholi daromadlari darajasi o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, ijtimoiy taraqqiyot va integratsiyalashuvga ko‘maklashish, aholining bazaviy turmush darajasini oshirish, tabiiy resurslar va ekotizimlardan barqaror foydalanish va ularni oqilona o‘zlashtirish imkonini beruvchi keng qamrovli va barqaror iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish talab etiladi.

Turli xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy silkinishlar davrida jamiyat va mamlakat iqtisodiyoti immunitetini ko‘tarishga xizmat qiluvchi barcha mamlakatlar uchun birdek qo‘l kelishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar dasturi bo‘lmasada, Jahon banki quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi:

1. Kuchli institutlar va ijtimoiy hamjihatlik- bu mamlakatning har qanday xatarlarga qarshi tura olishini ta’min etuvchi o‘ziga xos qalqon hisoblanadi. Dunyoda barcha mamlakatlar iqtisodiy tushkunlik, jamiyatda tabaqalanishning keskinlashishi, uyushgan jinoyatchilikning o‘sishi kabi salbiy holatlarga duch kelishlari tabiiy holdir. Mazkur tahdidlarga qarshi kurasha borib, institutlar xuddi inson organizmining immun tizimi kabi o‘zini tutadi. Shu bois, mamlakatlar kuchli institutlarni shakllantirishga va jamiyatda ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirishga intilishlari talab etiladi.

2. Milliy va xalqaro darajadagi yirik institutsional tuzilmalar mamlakat va dunyo hamjamiyatining barqaror rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi har qanday xavf-xatarlarga qarshi kurashish borasida o‘z imkoniyat va salohiyatlarini birlashtirishlari talab etiladi. Yevropa Ittifoqining Italiya hukumatiga yordamning kechiktirishi oqibatida Italiyada bugungi kunda vaziyat qanchalik salbiy tus olganligini bunga yaqqol misol tariqasida keltirib o‘tishimiz mumkin.

3. Eng avvalo, aholining kambag‘al va iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlariga yordam ko‘rsatish. Beqaror va ichki ziddiyatlarga boy mamlakatlarda inqirozli vaziyatlarga qarshi kurashishdan olingan asosiy xulosa shundan iboratki, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash dasturlari eng avvalo turli xil salbiy shoklarga nisbatan eng zaif insonlarga yo‘naltirilmas ekan, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar o‘zining ijobiy samarasini bermaydi. Samarali va manzilli ijtimoiy himoya tizimi beqarorlik va mojarolar ta’siriga qarshi kurashish borasida o‘ziga xos birinchi himoya chizig‘i hisoblanadi.

4. Barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida mamlakatlar va xalqar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya aloqalarini yanada kuchaytirish. Mintaqaviy yoki xalqaro miqyosda o‘zaro integratsion aloqalarni kengaytirish mavjud xavf-xatarlarga qarshi kurashishda eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

5. Xavf-xatarlarning ta’sirini kamaytirish, ularga qarshi samarali kurashishda mahalliy davlat hokimiyati idoralari va keng jamoatchilikning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga mamlakatda qabul qilingan qonun va me’yorlar doirasida mustaqil harakatlanish huquqini taqdim etish.

Dunyo mamlakatlarining barqaror rivojlanishni ta’minlash, shu jumldan koronavirus pandemiyasi oqibatida kelib chiqqan global inqirozga qarshi kurashish borasida amalga oshirayotgan chora-tadbirlarini tahlil qilish asnosida mamlakatimizda global iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish chora-tadbirlarini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- Bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirish asosida iqtisodiyot tarmoq va sohalarida fan sig‘imli ishlab chiqarishlarni tashkil etish;

- Inson kapitali sifatini yaxshilashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni yanada jadallashtirish;

- Iqtisodiyot soha va tarmoqlarini, ayniqsa qishloq xo‘jaligini resurs tejamkor texnologiyalar asosida rivojlantirish va bunda asosiy e’tiborni yashil iqtisodiyotga qaratish;

- Dunyo iqtisodiyotining bundan buyon taraqqiy etishi ko‘p jihatdan raqamli texnologiyalarga bog‘liq ekanligini hisobga olgan holda, axborot xavfsizligini

ta’minlash va kiberjinoyatchilikning oldini olish kabi masalalarni hal etish asosida raqamli iqtisodiyotni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

- Iqtisodiyot tarmoq va sohalarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash ishlarini izchil davom ettirish, sanoat ishlab chiqarishining texnologik tuzilmasini takomillashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlarni mahalliylashtirish imkonini beruvchi sanoatlashtirish siyosatini izchil davom ettirish;

- Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro ixtisoslashuvning qonun va qoidalariga amal qilgan holda, xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy integratsion jarayonlarda faol ishtirok etish;

- Ekologik va turli pandemik xavf-xatarlar darajasining tobora ortib borishi sharoitida hozir javob tibbiy va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish;

- Aholining tibbiy madaniyatini oshirish, iqtisodiy savodxonlik darajasini yaxshilashga qaratilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va shu asosda ta’lim dasturlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish;

- Millatlaro totuvlik va diniy bag‘rikenglik asosida milliy urf-odatlar va azaliy qadriyatlarimizni keng targ‘ib qilish;

- Fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va shu kabilar.

Yuqorida tilga olib o‘tilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi mamlakatimizning turli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy xavf-xatarlarga qarshi kurashish borasidagi immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3.3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari va “O‘zbekiston-2030” strategiyasining mushtarakligi

Barqaror rivojlanish kelajak avlodlarning ehtiyojlarining qondirilishini shubha ostiga qo‘ymagan holda, bugungi ehtiyojlarning samarali tarzda qondirilishini ifoda etadi.

Barqaror rivojlanish insonlar va umuman olganda sayyoramizning kelajagiga tahdid soluvchi xavf-xatarlarga qarshi xatti -harakatlarning muvofiqlashtirilishini ko‘zda tutadi.

Barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun uch asosiy tashkil etuvchi: iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy integratsiya va atrof -muhitni muhofaza qilish masalalarini o‘zaro uyg‘unlikda hal etish talab etiladi. Mazkur komponentlar bir -birlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani holda, alohida insonlar va yaxlit holda jamiyat farovonligini ta’min etishda favqulodda muhim sanaladi.

Barqaror taraqqiyotni ta’minlashning zaruriy talablaridan biri qashshoqlik va uning barcha ko‘rinishlariga barham berish hisoblanadi. Buning uchun, barchaga birdek qo‘shimcha imkoniyatlarni taqdim etish, aholi daromadlari darajasi o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, ijtimoiy taraqqiyot va integratsiyalashuvga ko‘maklashish, aholining bazaviy turmush darajasini oshirish, tabiiy resurslar va ekotizimlardan barqaror foydalanish va ularni oqilona o‘zlashtirish imkonini beruvchi keng qamrovli va barqaror iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish talab etiladi.

Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar nimalardan iborat?

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 193 a’zo -davlatlari barqaror rivojlanish sohasida yangi kun tartibiga ega bo‘lgan: ”Dunyo qiyofasini o‘zgartirish: 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanishning kun tartibi” deb, nomlanuvchi yakuniy hujjat borasida bir to‘xtamga kelishdi. Mazkur hujjat 17 maqsad va 169ta vazifadan tashkil topgan.

Dunyo davlatlari rahbarlari 2016 yilning sentyabr oyida mazkur universal hujjatni qabul qilishdi. Mazkur hujjatning qabul qilinishi keyingi 15 yil ichida, ya’ni 2030 yilgacha bo‘lgan muddatda dunyoda barqaror iqtisodiyotni qurish va qashshoqlikka barham berish imkonini beradi.

Mazkur hujjatning kun tartibida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2000 yilda qabul qilingan Rivojlanishning ming yillik maqsadlari deklaratsiyasini amalga oshirish natijasida erishilgan natijalar yotadi. Rivojlanishning ming yillik maqsadlari deklaratsiyasining amaliyotga joriy etilishi dunyoda millionlab insonlarning ochlik va qashshoqlik girdobidan qutulishlariga imkon berdi.

O‘zbekistonning ming yillik maqsadlarning ijrosini ta’min etgan dunyoning sanoqli mamlakatlardan biri sifatida tan olinishi, mamlakatimizda qabul qilingan Harakatlar strategiyasi asosida barqaror rivojlanish maqsadlarini ham O‘zbekistonning og‘ishmay amalga oshirishiga ishonch uyg‘otadi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari barcha manfaatdor tomonlar va insonlarning keng ishtiroki va ularning bu boradagi qarashlarining imkon darajasida hisobga olinishini nazarda tutadi. Barqaror rivojlanish maqsadlari 193 ta a’zo -davlatlarning barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida bir to‘xtamga kelishlari natijasida paydo bo‘lgan hujjatdir. Mazkur barqaror rivojlanish maqsadlarini shakllantirishda butun dunyo bo‘yicha yetti milliondan ortiq insonlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari, fuqarolik jamiyati vakillari, parlamentlar a’zolari, ishbilarmonlik doiralarining fikrlari jamlangan. Barqaror rivojlanish maqsadlari kompleksini ishlab chiqishga 2012 yilning iyun oyida Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida barqaror rivojlanish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan (“Rio+20”) konferentsiyasida dastlabki qadam qo‘yilgan.

Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar asosida nima yotadi?

Maqsad va vazifalar keyingi 15 yil ichida insonlar, sayyoramiz, taraqqiyot, tinchlik va hamkorlik borasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni qamrab oladi.

- qashshoqlik va ochlikka barham berish, barcha insonlarning birdek hayot kechirishlariga imkon berish asosiy vazifa sanaladi.
- sayyoramizni degradatsiyadan saqlab qolish, uning mavjud tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, iqlim o‘zgarishlarining oldini olish, kelajakka avlodga sayyoramizning boy va maftunkor tabiatidan va imkoniyatlaridan foydalana olish imkoniyatini berish.
- iqtisodiy, ijtimoiy va texnik taraqqiyotning tabiat bilan uyg‘unlikda kechishi uchun mamlakatlar va insonlarning ravnaqi haqida qayg‘urish lozim.
- barqaror rivojlanish tinchlik va barqarorliksiz amalga oshmaydi. Qo‘rquv va zo‘ravonlikdan holi bo‘lgan tinchliksevarlik va adolatga asoslangan jamiyat barpo etishga butun dunyo har qachongidan ham muhtoj.

➢ barqaror rivojlanish maqsadlari kun tartibiga kiritilgan maqsad va vazifalarni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hamkorliksiz amalga oshirib bo‘lmasligi bugungi kunda tobora oydinlashib bormoqda.

3.4-rasm. Barqaror rivojlanish maqsadlari[26]

Barqaror rivojlanish maqsadlari keng qamrovli bo‘lib, barqaror rivojlanishning quyidagi komponentlarini qamrab oladi: iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy integratsiya va atrof -muhitni muhofaza qilish. Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ijtimoiy masalalarga alohida urg‘u berilgan.

Bugungi kunda qanday muammolar o‘z yechimini kutmoqda?

● 800 mln.dan ortiq inson o‘ta qashshoq kun kechirmoqda, 795 million kishi ochlikdan aziyat chekadi.

● 2000-2015 yillar ichida maktabga qatnamaydigan bolalar soni teng yarimga qisqargan bo‘lsa-da, bugungi kunda dunyoda 57 mln. bola boshlang‘ich maktabga borish huquqidan mahrum.

● Gender tengsizligi hanuz saqlanib qolayotganligi katta tashvish uyg‘otadi.

● Iqtisodiy farovonlik borasida boy va kambag‘al uy xo‘jaliklari o‘rtasida tafovut kattaligicha qolmoqda. Daromadi past uy xo‘jaliklari iqtisodiy ne’matlardan foydalanishda katta qiyinchilikka duch keladilar.

● Bolalar va onalar o‘limi ham butun dunyoda katta tashvish uyg‘otadi.

[26] https://www.undp.org/uz/uzbekistan/sustainable-development-goals

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining samaradorligini oshirishda bu borada to‘plangan xorij tajribasi, xususan rivojlangan mamlakatlar amaliyotini o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi. Biz bu borada Yevropa Ittifoqi, Germaniya Federativ Respublikasi, Frantsiya tajribasi bilan qisqacha tanishib chiqamiz. Dastlab Yevropa Ittifoqi to‘g‘risida to‘xtalamiz. YeIning iqtisodiy rivojlanishini boshqarish va strategik rejalashtirish ikkita yaqqol ko‘zga tashlanuvchi unsur bilan ajralib turadi. Birinchidan- bu YeI ishtirokchi-mamlakatlarining moliyaviy va tuzilmaviy siyosatlarining muhim ko‘rsatkichlari, maqsad va yo‘nalishlarini belgilab beruvchi strategik boshqaruvning umumevropa tizimi, YeI organlari tomonidan byudjet va iqtisodiy siyosat monitoriningini amalga oshirish tizimi bo‘lsa, ikkinchidan -bu boshqaruvning turli darajalarini qamrab oluvchi milliy qonunchilik va rejalashtirish hujjatlari tizimidir. Umumevropa strategik boshqaruv va rejalashtirish tizimining asosiy hujjati bo‘lib, 10 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy rivojlanish strategiyasi “Yevropa 2020” hisoblanadi. Mazkur hujjat YeI tomonidan 2010 yilda qabul qilingan. Uning asosiy maqsadi- YeIning barqaror rivojlanishi va inklyuziv iqtisodiy o‘sish uchun yetarlicha sharoitlar yaratib berishdan iboratdir. Inklyuziv iqtisodiy o‘sish deyilganda, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasidagi jarayonlarga barcha ishtirokchilarning jalb etilishi tushuniladi. “Yevropa 2020” strategiyasida beshta asosiy maqsad shakllantirilgan bo‘lib, mazkur maqsadlar butun YeIga yoyilgan bo‘lib quyidagi sohalarni qamrab oladi:

1. Bandlik: 20 yoshdan 64 yoshgacha bo‘lgan aholining 75%ining bandligi ta’minlangan bo‘lishi lozim;

2. YeIning 3% YaIMi tadqiqot va ishlanmalarga investitsiya qilinishi lozim;

3. Iqlim o‘zgarishlari va energetik barqarorlik:iqlim o‘zgarishi va energetika siyosati sohasidagi maqsadlarga erishish (atrof-muhitning ifloslanishi 30%ga qisqartirilishi zarur);

4. Ta’lim: maktabda o‘qishni tashlagan o‘quvchilar ulushi 10%dan oshmasligi kerak, oliy ma’lumotli yoshlar soni umumiy yoshlar sonining kamida 40%ini tashkil etishi lozim;

5. Ijtimoiy biqiqlik va kambag‘allik bilan kurashish: qashshoqlik chegarasiga o‘tib qolishi mumkin bo‘lganlar sonini qisqartirish, kambag‘allik ostonasida bo‘lganlarni 20 million kishiga qisqartirish.

Qo‘yilgan maqsadlarga erishish maqsadida quyidagi ustuvor faoliyat yo‘nalishlari ilgari suriladi:

- “Innovatsion ittifoq”. Innovatsiyalarni yaratish va joriy etish uchun xatti -harakatlarni birlashtirish tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda innovatsion g‘oyalardan foydalanishga imkon bergani holda, iqtisodiy o‘sishni va yangi ish o‘rinlari yaratilishini ta’min etishi lozim.
- “Yoshlar harakati”. Ta’lim sifatini oshirish. Yoshlarni mehnat bozoriga jalb qilish.
- “Yevropada raqamli texnologiyalarni rivojlantirish”. Iqtisodiyot sohalarida raqamli va tezkor internet texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshirish.
- “Yevropada resurslardan maqsadga muvofiq foydalanish”. Uglevodorod xomashyosi kam talab etiluvchi iqtisodiyotga o‘tish. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini izlab topish va ulardan keng foydalanish. Transport sektorini modernizatsiya qilish. Iqtisodiyotning resurs sig‘imliligini kamaytirish.
- Globallashuvga yo‘naltirilgan “Industrial iqtisodiyot”. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab -quvvatlash. Iqtisodiyotning sanoat bazasini kengaytirish.
- “Qashshoqlikka qarshi Yevropa siyosati”. O‘zaro imkoniyatlarni birlashtirish evaziga butun YeI hududida kambag‘allik darajasini qisqartirish.

Mazkur bayon qilingan asosiy faoliyat yo‘nalishlari butun YeI mamlakatlari uchun ham birdek taaluqli sanaladi.

So‘nggi 20 yilda Germaniya Federativ Respublikasida boshqaruvning federal, regional va munitsipal darajalarini qamrab oluvchi rivojlanish va rejalashtirishning milliy tizimi tarkib topdi. Germaniya federal hukumat tomonidan 2002 yilda qabul qilingan barqaror rivojlanishning milliy strategiyasi (Perspectives for Germany. Our

Strategy for Sustainable Development) ga tayanib ish ko‘rib keladi. Mazkur strategiya hukumatning bir necha bor o‘zgarishiga qaramasdan mazmunan o‘zgarmasdan kelmoqda, strategiyaga oxirgi marta o‘zgartirish 2012 yilning fevral oyida kiritilgan. Germaniyada Strategiyani ishlab chiqish va unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarning amaliy ijrosini nazorat qilib borish maqsadida barqaror rivojlanish bo‘yicha Davlat qo‘mitasi tashkil etilgan. Mazkur qo‘mitaga to‘qqizta davlat vazirliklari quyidagi departamentlarga kiritilgan: xalqaro munosabatlar, moliya, ijtimoiy siyosat va sog‘liqni saqlash sohasidagi siyosat, ta’lim, fan va ilmiy tadqiqotlar, iste’molchilarni himoya qilish va qishloq xo‘jaligi, atrof -muhit, transport, iqtisodiy hamkorlik, iqtisodiy kooperatsiya va rivojlanish.

Milliy taraqqiyot strategiyasi yettita rejali asosnomalar va loyihalar blokidan tashkil topgan: I. G‘oyadan strategiyagacha;II. Barqaror o‘sish modeli; III. Strategiya ijtimoiy jarayon sifatida; IV. Maqsad va ko‘rsatkichlar; V. Barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy vazifalari; VI. Global javobgarlik; VII. o‘zgarishlar va o‘lchovlar natijasi. Strategiyani rivojlantirish va monitoring qilish.

Frantsiya ham milliy strategik rejalashtirish sohasida yetarlicha boy tajribaga ega sanaladi. Dastlab, 1946 yilda ustuvor iqtisodiyot sohalaridan investitsion faollikni oshirishga qaratilgan besh yillik indikativ reja ishlab chiqilgan bo‘lsa, milliy xavfsizlikni ta’minlash borasida qator hududiy va milliy rejalar ishlab chiqila boshlandi. Xususan, 1972 yilda Frantsiyada mudofaa masalalariga bag‘ishlangan “Oq kitob” (Le Livre blanc sur la défense de 1972) e’lon qilinadi. Ayni shu davrdan boshlab strategik mustaqillikni ta’minlashga qaratilgan turli reja va dasturlar qabul qilish davri boshlanadi. 1981 yilda Frantsiya rejalashtirishning raqamli ko‘rsatkichlaridan voz kechib, iqtisodiyotni rivojlantirishning stsenariyli va tavsiyali ko‘rsatkichlari tizimiga o‘tadi.1998 yildan boshlab Frantsiyada milliy rejalar qabul qilinmaydi. Bu borada asosiy urg‘u “dasturiy muvofiqlashtirish”ga qaratiladi.

Strategik rivojlanish yo‘nalishlari maqsadli davlat dasturlari ko‘rinishida ishlab chiqiladi va ularning amalga oshirilishini rag‘batlantirish maqsadida turli moliyaviy imtiyozlar va preferentsiyalar beriladi. Bunday yondashuvga misol tariqasida globallashuv sharoitida Frantsiyaning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini

mustahkamlash va raqobatbardoshliligini oshirishga yo‘naltirilogan yangi iqtisodiy strategiyaning ishlab chiqilishini keltirishimiz mumkin. Mazkur strategiyada bir yoki bir nechta faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ma’lum bir innovatsion loyiha doirasida birgalikda rivojlanishga erishish uchun hamkorlik majburiyatlarini o‘z zimmasiga olgan korxonalar, tadqiqot markazi, ta’lim muassasalarining birlashmalarini ifoda etuvchi raqobatbardoshlik qutblari belgilab berilgan. Bunda to‘rtta asosiy jihatga e’tibor qaratilgan: ma’lum bir hududni rivojlantirishning global strategiyasiga bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi; innovatsion loyihalar doirasida keng qamrovli hamkorlik qilish; iqtisodiy o‘sish salohiyati yuqori bo‘lgan bozorlar uchun mo‘ljallangan texnologiyalarga barcha e’tiborni qaratish; xalqaro bozorga chiqish uchun kapital qo‘yilmalarini jamlash va rentabellikni oshirish. Frantsiyada strategik rejalashtirishning asosiy unsuri bu - Byudjet to‘g‘risidagi Qonun (LOLF) hisoblanadi. Mazkur qonunni amalga kiritish jarayoni 2001 yildan 2006 yilgacha bo‘lgan muddatni qamrab olgan. Mazkur Qonunga muvofiq, davlat byudjeti mablag‘lari davlat siyosatining yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlanishi joriy etilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardan boshlab to 1980 yillarning so‘nggiga qadar Yaponiya dunyo mamlakatlari orasida eng yuqori o‘sish sur’atlarini ta’min eta olgan sanoqli dunyo mamlakatlaridan biri sanaladi. Biroq, ko‘chmas mulk bozoridagi “ko‘pik”ning yorilishi va 1990 yillar davomidagi navbatdagi “yo‘qotilgan o‘n yillik” mamlakat iqtisodiyotida og‘riqli nuqtalar borligini ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda “Abenomika”deb nom olgan makro va mikro darajadagi chora - tadbirlar natijasida mamlakat iqtisodiyotida ijobiy siljishlar ko‘zga tashlanmoqda. Yaponiya Vazirlar Mahkamasining hisob-kitoblariga ko‘ra, mamlakatda YaIMning o‘sishi 2013 moliya yilida 2,8%ni tashkil etgani holda, ishsizlik darajasi o‘rtacha 4,0%ni tashkil etmoqda. Sindzo Abe kabineti tomonidan amalga oshirilayotgan ijobiy makroiqtisodiy siljishlarga qaramasdan hududlarni barqaror rivojlantirish masalasi Yaponiya hukumati oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mintaqalarni rivojlantirish muammolari sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- milliy iqtisodiyotning bir qutbli va bir o‘qlilikka asoslangan tuzilmasi, bunda sanoat va inson resurslari bir nechta yirik megapolislar atrofida joylashgan bo‘ladi. Bunday tuzilma atrof qishloq hududlari iqtisodiy faoliyatining depopulyatsiyasi va degradatsiyasiga olib keladi, shaharlarda yashovchi aholi turmush darajasining yomonlashishiga va insonlar hayotining tabiiy va texnogen kataklizmlarga bog‘liqligini oshishini keltirib chiqaradi.
- umr ko‘rish uzunligining ortib borishi bilan bog‘liq bo‘lgan aholi o‘rtasida demografik inqirozning paydo bo‘lishi, buning natijasida farzand ko‘rish yoshidagi aholining reproduktivlik ko‘rsatikichining pasayishi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, mamlakatda 2020 yilga borib keksa yoshdagi aholi soni 30%ni, 2050 yilga borib esa- qariyb 40%ni tashkil etadi. Bundan tashqari, 2020 yilda Yaponiya aholisi 122,74 mln. kishi, 2030 yilda 115,22 mln. kishi, 2050 yilda esa 95,15 mln. kishini tashkil etishi bashorat qilinmoqda. Hududlarni rivojlantirish muammolarini bartaraf etish maqsadida Yaponiya hukumati tomonidan uzoq muddatli va kompleksli rivojlantirish rejalari ishlab chiqilgan bo‘lib, strategik vazifalarni quyidagicha guruhlashimiz mumkin:
- Sharqiy Osiyoning rivojlanib borayotgan iqtisodiyotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- Hududlardagi ijtimoiy guruhlarni qo‘llab-quvvatlash;
- Jamiyat a’zolarining tabiiy va texnogen kataklizmlarga qat’iy qarshi tura olish immunitetini shakllantirish;
- Tabiiy resurslardan samarali foydalanish va boshqarishni tashkil etish;
- Davlat va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

Misol tariqasida oladigan bo‘lsak, Yaponiya hukumati tomonidan 2008 yilda tasdiqlangan hududlarni rivojlantirishning Milliy strategiyasi mamlakatni (Okinava va Xokkaydoni hisobga olmagan holda) 8 ta makrohududga bo‘ladi: Kanto, Toxoku, Tokay, Kinki, Sikoku, Xokuriku, Chugoku va Kyusyu. Makrohududlarda regional rejalashtirish kengashlari hududlarning rivojlanishiga bevosita javobgar bo‘ladilar. 2009 yilda mazkur makrohududlarning har birida 8 ta regional strategiyalar ishlab chiqilib tasdiqlangan. Yaponiya hukumatida funksiyalar quyidagicha taqsimlangan.

Yer, infratuzilma, transport va turizm masalalari bo‘yicha vazirlik shahar va hudiy siyosatni amalga oshirish, hududlarni makon nuqtai nazaridan rivojlantirish va rejalashtirishga javobgar hisoblanadi. “Milliy va hududiy rejalashtirish byurosi” vazirliklar o‘rtasidagi va shuningdek markaziy va mahalliy hukumatlar o‘rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtiradi. Yer, infratuzilma, transport va turizm masalalari bo‘yicha vazirlik o‘z faoliyatini amalga oshirishda “Oziq-ovqat bazasini, qishloq xo‘jaligini va qishloq hududlarini rivojlantirish bo‘yicha bosh reja”ga amal qiladi. Mazkur reja qishloq hududlarida tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etish, hudud salohiyatidan unumli foydalangan holda qishloq hududlari iqtisodiyotini ko‘tarish, qishloq va shahar o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish, qishloq hududlari aholisi turmush darajasini yaxshilashga yo‘naltirilgan.

Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi kichik va o‘rta biznesni qo‘llab - quvvatlash va klasterlarni yaratishga javob beradi. Ichki aloqalar va kommunikatsiyalar vazirligi mahalliy hukumatlar ishini boshqarish va ular faoliyatini moliyalashtirish masalalariga mas’ul hisoblanadi. Regional rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirish uchun qator me’yoriy-huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan. Bu birinchidan, 2005 yilda qabul qilingan “Milliy hududlarni rejalashtirish akti”ga asoslangan holda ishlab chiqilgan va qabul qilingan milliy va regional rejalar hisoblanadi. Ular yer resurslarini, qirg‘oq bo‘yi, shahar va qishloq hududlarini rivojlantirish, borasidagi uzoq muddatli va kompleks vositalar hisoblanadi, turizm va madaniyatni rivojlantirish, ekologik vaziyatni yaxshilash, sanoat korxonalari va infratuzilmani joylashtirish masalalarini muvofiqlashtiradi. Bundan tashqari mazkur rejalarda tabiiy kataklizmlarga qarshi tura olish masalalari ham o‘rin olgan. Regional rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirish borasida qator institutsional yangiliklar joriy etilgan. Masalan, 2001 yilda “Shaharlar taraqqiyotini tiklash byurosi”, 2002 yilda “Maxsus hududlarni tuzilmaviy isloh qilish byurosi”, 2003 yilda “Hududlarni jonlantirish byurosi”, 2006 yilda shahar ichi hududlarini rivojlantirish maqsadida “Shahar ichi hududlarini rivojlantirish bo‘yicha byuro” tashkil etilgan. 2007 yilda mazkur to‘rtta byuro yagona organ -“Hududiy taraqqiyot bo‘yicha integratsiyalashgan byuro”ga birlashtirilib, uni boshqarish

bevosita Vazirlar Mahkamasiga berilgan. Yaponiyada urbanizatsiya darajasining favqulodda yuqori ekanligi va sanoatning bir nechta yirik shahar aglomeratsiyalarida mujassamlashganligi hukumat uchun eng muhim muammo hisoblanadi. Bu muammoni hal etish maqsadida “Shaharlarni taraqqiy ettirish Dasturi” ishlab chiqilgan. Yaponiyada regional rivojlantirish strategiyalari innovatsion taraqqiyotga asoslanadi. Innovatsion taraqqiyotni ta’minlash maqsadida Yaponiya hukumati tomonidan doimiy ravishda grantlar berib boriladi.

Qisqacha xulosalar

1. Tahdid jamiyat, davlat va ularning subyektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiladigan, ziyon-zahmat keltiradigan, xavf- xatar tug‘diradigan omillar va shart-sharoitlarni anglatadi. Iqtisodiy tahdidlar mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, jamiyat, davlat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita xavf tug‘diradi. Bu tahdidlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishni izdan chiqarib, aholining turmush darajasini pasayib ketishiga olib keladi, jamiyat hayotida tanglik holatlarini keltirib chiqaradi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi.

2. Globallashuv iqtisodiy taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o‘tish davrining mahsuli bo‘lib hisoblanadi. Globallashuv jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichini ifodalovchi jarayondir.

3. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalar jadallik bilan chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallashuvi kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash nafaqat mamlakat darajasida, balki mintaqa darajasida ham eng muhim masalalardan biriga aylanib boradi.

4. Globallashuv dunyo hamjamiyati ishtirokchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan bir vaqtda, milliy iqtisodiyotlar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan xavf-xatar va tahdidlarni ham vujudga keltiradi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borgan sari bunday tahdidlar miqyosi kengayib, ularni bartaraf etish va prognozlash qiyinlashib boradi. Bir paytning o‘zida ham dunyo hamjamiyatiga, ham alohida

olingan konkret mamlakatga tahdid soladigan yangi global xavf- xatarlar vujudga keladi.

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar nimalardan iborat?
2. Globallashuvning namoyon bo‘lish xususiyatlari haqida tushuncha bering?
3. So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotining rivojlanishida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda?
4. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash va sanoat tarmoqlarining raqobatdoshligini oshirish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida o‘z fikringizni bildiring?.
5. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining mushtarakligi nimalarda ko‘rinadi.
6. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishda dunyoning yetakchi davlatlari tajribasini o‘rganishning ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz?

Terrorizmning oqibatlari bilan emas, balki aslida terrorizmni keltirib chiqaruvchi sabablarga qarshi kurashishimiz va bu masalaga butun dunyo hamjamiyatining e'tiborini qaratishimiz lozim

Sh. Mirziyoyev.

IV BOB. TERRORIZM, EKSTREMIZM, XALQARO UYUSHGAN JINOYATCHILIKNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHDA REGIONAL TASHKILOTLARNING ROLI

4.1. Terrorizm va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri

4.2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda regional tashkilotlarning o'rni va roli

Tayanch tushunchalar va iboralar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom Konferentsiyasi tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, terrorizm, ekstremizm.

Qisqacha sharh

Bugungi kunda global dunyoda iqtisodiy xavfsizlik nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlik, balki xalqaro tahdidlarga qarshi chidamlilik bilan ham bog'liq. Terrorizm, ekstremizm va xalqaro uyushgan jinoyatchilik kabi tahdidlar davlatlar iqtisodiyotiga jiddiy zarar yetkazadi. Ular nafaqat moliyaviy resurslarni kamaytiradi, balki investitsiya oqimlarini susaytiradi, turizm va savdo sohalariga zarar yetkazadi, ijtimoiy barqarorlikni zaiflashtiradi va ishbilarmonlik muhitini buzadi.

Shu bois, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda mamlakatlar nafaqat ichki choralar ko'rishi, balki regional va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishi zarur. Regional tashkilotlar – masalan, MDH, SHHT va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoq – mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida hamkorlikni mustahkamlash, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ushbu bobda terrorizm va ekstremizmning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri, shuningdek, regional tashkilotlarning bu sohada tutgan roli va ularning mamlakat iqtisodiyotini himoya qilishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shu orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning nafaqat milliy, balki mintaqaviy va global muhim jihatlari ko'rib chiqiladi.

O‘zbekistonning xavfsizligiga tahdidlar va unga qarshi choralar

2026 yilning 15 yanvarida O‘zbekiston Davlat xavfsizlik xizmati (DXX) raisi Bahodir Qurbonov Prezident Shavkat Mirziyoyevga mamlakatdagi xavfsizlik vaziyati bo‘yicha hisobot berdi. Hisobotda ichki va tashqi tahdidlar, shuningdek, 2025 yil yakunlari tahlil qilinib, 2026 yil uchun ustuvor vazifalar belgilangan.

Qurbonov ta’kidlaganidek, jahon miqyosidagi harbiy-siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar fonida O‘zbekiston va mintaqa uchun terrorchilik hujumlari asosiy tahdid bo‘lib qolmoqda. Virtual makon va ijtimoiy tarmoqlar destruktiv g‘oyalarni tarqatish va diniy vaziyatga salbiy ta’sir ko‘rsatishning asosiy manbalariga aylangan. Shu maqsadda O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston chegaralari tutashgan hududga “Do‘stlik” stellasi o‘rnatilgan va bu mintaqaviy barqarorlik uchun muhim qadam sifatida baholangan.

2025 yilda chegara xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi: Tojikiston va Turkmaniston bilan jami 1482 km chegara demarkatsiyasi va 790 ta chegara belgilari o‘rnatildi; 453 km xavfsizlik to‘siqlari, 44 ta elektron signalizatsiya majmuasi va 287 km chegara yo‘llari barpo qilindi. Natijada chegara buzuvchilar soni 1,5 barobar kamaygan, tovar-moddiy boyliklarni ushlab qolish ko‘rsatkichi esa 20% ga oshgan. Shuningdek, transport oqimining har yili o‘rtacha 15% ga ortishi sababli 9 ta chegara punktini modernizatsiya qilish zarurati yuzaga kelgan.

Narkotrafik bilan bog‘liq vaziyat og‘irlashgan. 2025 yilda giyohvand moddalar hajmi 1,7 tonnadan 3,6 tonnagacha oshgan (2 barobar), qo‘lga olingan jinoyatchilar soni 2 600 nafardan 4 500 nafarga ko‘paygan (+73%), fosh etilgan narkolaboratoriyalar soni 8 tadan 15 taga yetgan. Ayniqsa, 14–25 yoshdagi shaxslar o‘rtasida sintetik giyohvand moddalar tarqalishi xavotirli darajaga yetgan. Shu yil davomida 180 kg dan ortiq sintetik vositalar va 1 million donadan ortiq psixotrop moddalar muomaladan olingan.

Terrorchilik bilan kurash natijasida 2026 yilda O‘zbekistonda va xorijda amalga oshirilishi rejalashtirilgan 11 ta terrorchilik hujumi oldi olindi. Shu bilan birga, 11 nafar Markaziy Osiyolik shaxsning destruktiv faoliyatiga chek qo‘yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha 2025 yilda davlat idoralarining 1 083 nafar xodimi tizimdan chetlatilgan, ulardan 661 nafari sudlangan. 2026 yil mamlakatda korrupsiyaga qarshi “favqulodda holat” yili deb e’lon qilindi. Asosiy e’tibor quyidagi yo‘nalishlarga qaratiladi: davlat funksiyalarini to‘liq raqamlashtirish, huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish va aholida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

Hisobot yakunida Bahodir Qurbonov shaxsiy tarkib O‘zbekiston suvereniteti va konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilishga, barcha ichki va tashqi tahdidlarni bartaraf etishga doimo tayyor ekanini ta’kidladi.

Manba: https://www.gazeta.uz/uz/2026/01/15/qurbonov/

4.1. Terrorizm va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri

Xalqaro miqyosda barqarorlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid soladigan hodisa sifatida terrorizm o‘tgan asrning oxirlaridan boshlab jahon hamjamiyatining e’tiborini torta boshladi. Lekin, faqat 2001-yil sentabr voqealaridan keyin siyosatchi va ekspertlar ushbu muammoga jiddiy qaray boshladilar.

Terrorizmning tarixiga nazar solinadigan bo‘lsa, u o‘rta asrlardan boshlab dunyoning barcha mintaqa va mamlakatlarida uchrab turgan. Ayni paytda uning ko‘rinishlari va amalga oshirish usullari turlicha bo‘lgan.

Terrorizm qanday shaklda namoyon bo‘lishidan qat’iy nazar miqyoslari va oqibatlari nuqtai nazaridan eng xavfli ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy muammolardan biriga aylanib qoldi. Terrorizm va ekstremizm dunyoning deyarli barcha mamlakatlari va ularning fuqarolari xavfsizligiga tahdid solmoqda va juda katta siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy yo‘qotishlarga olib kelmoqda.

Terrorizmni jamiyat hayot faoliyatiga tahdid sifatida o‘rganishda, birinchi navbatda, uning eng tuban, eng qabih maqsadlarga xizmat qiladigan hodisa ekanligini ko‘zda tutish kerak bo‘ladi.

“Terror” va “terrorizm” iboralarining yuzga yaqin talqini bo‘lib, ularning hammasi ham mukammal emas. Lotincha “terror” degan so‘z “qo‘rqinch”, “daxshat” ma’nosini anglatadi. “Terrorizm” esa terrorni amalga oshirishdir. Ushbu iboraning kengroq ma’noda siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo‘qotish yoki

qo‘rqitish, aholi o‘rtasida vahima va tartibsizliklarni keltirib chiqarish maqsadida zo‘ravonlik harakatlarini amalga oshirish, deb talqin qilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi

Qonunida terrorizmga: “Terrorizm - siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rlik, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar”[27]”- sifatida ta’rif beriladi.

Mazkur Qonunning 2-moddasida terrorchilik harakatiga - garovda ushlab turish uchun shaxslarni qo‘lga olish yoki ushlab turish, davlat yoki jamoat arbobining, aholining milliy, etnik, diniy, boshqa guruhlari, chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar vakillarining hayotiga tajovuz qilish, davlat yoki jamoat ahamiyatiga molik obyektlarni shu jumladan kontinental shelfda joylashgan statsionar platformalarni bosib olish, shikastlantirish, yo‘q qilish, portlatishlar, o‘t qo‘yishlar, portlatish qurilmalarini, radioaktiv, biologik, portlovchi, kimyoviy, boshqa zaharlovchi moddalarni ishlatish yoki ishlatish bilan qo‘rqitish, yer usti, suv va havo transporti vositalarini qo‘lga olish, olib qochish, shikastlantirish, yo‘q qilish,

[27] O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, https://lex.uz/docs/-29526

aholi gavjum joylarda va ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotganda vahima ko‘tarish va tartibsizliklar keltirib chiqarish, aholi hayotiga, sog‘lig‘iga, jismoniy yoki yuridik shaxslar mol-mulkiga avariyalar, texnogen xususiyatli halokatlar sodir etish yo‘li bilan zarar yetkazish yoki xavf tug‘dirish, tahdidni har qanday vositalar va usullar bilan yoyish tarzida terrorchilik tusidagi jinoyatlarni, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan normalarida belgilangan terrorchilik tusidagi boshqa harakatlarni sodir etish -deb ta’rif beriladi.



4.1-rasm. Terrorizmning turlari

Terroristik harakatlar turlicha bo‘lib, ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- ta’qib qilish;
- buzg‘unchilik qilish;
- garovga olish;
- qotillik;
- qo‘rqitish;
- portlatish va b.

Terrorchilarning xatti-harakatlari har doim ham qotillik bilan bog‘liq bo‘lmasa-da, doimo zo‘ravonlik, majburlash va tahdidni ko‘zda tutadi. Ayni paytda

ko‘zlangan maqsadlar turlicha bo‘lishi mumkin: siyosiy, iqtisodiy, qasd olish va boshqalar.

Terrorizm va undan aholini himoya qilishga bag‘ishlangan Amerika qit’asi davlatlarining Inson huquqlari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan konferentsiyasida (1970-y.) terrorizmning uchta – ijtimoiy, siyosiy va g‘oyaviy turi aytib o‘tilgan.

Terrorizm ikki xil toifada namoyon bo‘lishi mumkin. Birinchisi yakka tartibda amalga oshiriladigan, ikkinchisi esa guruh bo‘lib amalga oshiriladigan terrorizm. Siyosatshunoslikda davlat terrorizmi tushunchasi ham qo‘llaniladi. Bunga diktatorlik va totalitar rejimlarning repressiyalari misol bo‘la oladi.

Terrorizm davlat xavfsizligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu hodisa ijtimoiy, etnik, diniy radikalizm va ekstremizmni ifodalashning eng yomon usuli bo‘lib, bunday harakatni amalga oshiradigan kishilar guruhi o‘z maqsadlariga erishish uchun hech narsadan qaytmaydilar.

Xalqaro miqyosda terrorizm dahshatli epidemiya sifatida tarqalib bormoqda. Terrorizm ayniqsa XX asrning 60-yillaridan kuchayib boshladi. Bu davrda dunyoning bir qancha mintaqalarida turli terroristik tashkilotlar va guruhlar faolligi oshib bordi. Ba’zi manbalarga ko‘ra, dunyoda 500 dan ortiq yashirin terroristik tashkilotlar mavjud. 1968–1980 yillar davomida ular tomonidan 7000 mingga yaqin terroristik harakatlar amalga oshirilgan. Terrorizm miqyoslari butun dunyoda kengayib bormoqda: agar 80-yillarda 500 dan 800 tagacha katta terroristik harakatlar amalga oshirilgan bo‘lsa, 90 – yillarda 900 va undan ortiq harakatlar amalga oshirildi. Rossiyalik siyosatchi D.V. Olshanskiy[28] terrorizmning to‘rtta turini ajratib ko‘rsatadi.

Siyosiy terrorizm – siyosiy arboblarga, ular o‘tkazayotgan siyosatga, hukumatlarga ta’sir o‘tkazish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar.

Axborot sohasida terrorizm – jamiyat a’zolarining ruhiyatiga, xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatish.

[28] Internet ma’lumoti

Iqtisodiy sohadagi terrorizm – terroristlarning iqtisodiy manfaatga erishish maqsadida raqiblariga, aholining turli qatlamlari va guruhlariga, davlatlar va ularning boshliqlariga ta’sir o‘tkazishi.

Ijtimoiy terrorizm – jinoyatchilik miqyoslarining kengayishi, kriminal vaziyatning keskinlashuvi, umumiy ijtimoiy beqarorlikning vujudga kelishi.

Xalqaro tashkilotlar va olimlar terrorizmning kelib chiqish sabablariga alohida e’tibor qaratib keladilar. Bunday sabablarni aniqlash terrorizmga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish va takomillashtirishda asosiy e’tibor qaratiladigan muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi.



4.2-rasm. Terrorizmning tasniflanishi

BMTning 1990-yilda Gavanada bo‘lib o‘tgan jinoyatchilikni oldini olish va ularga nisbatan munosabat masalalariga bag‘ishlangan Xalqaro kongressda terrorizmning quyidagi asosiy sabablari ko‘rsatib o‘tilgan: qashshoqlik, ishsizlik, savodsizlik, uy-joyning yetishmasligi, ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining takomillashmaganligi, kelajakka ishonchning yo‘qligi, aholining marjinallashuvi

(lot. Marginalis so‘zidan – ijtimoiy hayotning eng past qatlamidagilar – daydilar, qashshoqlar), ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, oilaviy va ijtimoiy aloqalarning susayishi, tarbiyadagi nuqsonlar, migratsiyaning salbiy oqibatlari, madaniy o‘ziga xoslikni yo‘qotish, madaniy-ma’naviy hordiq chiqaradigan maskanlarning yetishasligi, ommaviy axborot vositalari tomonidan zo‘ravonlik, tengsizlikni kuchayishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan g‘oya va qarashlarni tarqatish.

Globallashuv davrida terrorizm shunday bir hodisaga aylandiki, unga qarshi kurashishda butun jahon hamjamiyati ishtirok etishi kerak. Faqat shundagina kurashning samaradorligiga erishish mumkin. Terrorizmga qarshi kuchlarni birlashtirish zaruriyati uning transmilliy tavsifga ega ekanligi kabi xususiyati bilan belgilanadi. Shu bilan birga xalqaro terrorizm bilan kurash bo‘yicha davlatlarning o‘zaro hamkorligini tartibga solish bir qator universal va mintaqaviy xalqaro konvensiyalarning predmeti sifatida belgilangan. Terrorizmga qarshilik ko‘rsatish bo‘yicha Jeneva Konvensiyasi (1937-y), Terroristik aktlarni oldini olish va jazolash to‘g‘risidagi Vashington Konventsiyasi (1971-y.), Terrorizmga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha Yevropa Konvensiyasi (1977-y) shular jumlasidandir.

Hozirga kelib dunyo hamjamiyatida terrorizmga qarshi kurash borasida ma’lum tajriba orttirilgan:

- XX asrning 70 – yillari o‘rtalaridan boshlab, BMTning jinoyatchilikni oldini olish va u bilan kurash bo‘yicha Qo‘mitasining har bir sessiyasida u yoki bu darajada umuman terrorizm va shu jumladan xalqaro terrorizm masalalari ko‘rib chiqilgan;

- 1970 – yillardan boshlab, BMT o‘ndan ortiq antiterroristik hujjatlar qabul qildi;

- funksiyalari to‘liq yoki qisman terrorizmga qarshi kurash bo‘lgan xalqaro tuzilmalar tashkil etilgan va ular faoliyat olib bormoqda (masalan, INTERPOL, EVROPOL, MDHning Antiterrorga qarshi markazi va boshq.);

- arab davlatlari Ligasining ichki ishlar vazirlari Kengashining 13 – sessiyasida terrorizmga qarshi kurashda “Xulq-atvor Kodeksi” loyihasi qabul qilindi. Unga ko‘ra terrorchilik harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish uchun

mamlakat hududidan joy berish, terroristik tashkilotlarga moliyaviy, moddiy va boshqa yordam berish ta’qiqlanadi.

Terrorizm haqida gapirganimizda uni keltirib chiqaruvchi sabablar to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda yuridik adabiyotlarda terrorizmning quyidagi sabablarini ajratib ko‘rsatishadi:

1)ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi bilan birgalikda aholi turmush darajasining sezilarli darajada pasayishi, bu esa o‘z navbatida hasad qilish, boshqalarni ko‘rolmaslik, nafratlanish, o‘tmishni qo‘msash kabi salbiy ijtimoiy-ruhiy omillarni keltirib chiqaradi;

2) iqtisodiy va energetik inqiroz, narxlarning o‘sishi, inflyatsiya;

3) bir qator ijtimoiy guruhlar va kasb egalari, ayniqsa harbiy tajribaga ega bo‘lgan, qurol-yarog‘ ishlatish ko‘nikmasiga ega shaxslar ijtimoy ahvolining yomonlashishi;

4) ishsizlikning o‘sishi, bu esa o‘z navbatida bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarning kasbiy va ruhiy degradatsiyasini keltirib chiqargani holda, migratsiya muammolarini yanada chigallashtiradi;

5) keng aholi qatlamlarining qurol – yarog‘dan erkin foydalana olish imkoniyatlarining mavjudligi. Ilgari harbiy va kuch tizimlarida xizmat qilgan shaxslarga yetarlicha yashash sharoitlari yaratib berilmasligi oqibatida ularning jinoyatchi to‘dalar qarmohiga tushib qolishi;

6) amaldagi o‘z hukumatiga qarshi chiqish yoki uni ag‘darishga urinish (masalan, Italiyadagi “Qizil brigadalar” va G‘arbiy Germaniyadagi “Qizil armiya fraksiyasi” faoliyati);

7) ommaviy axborot vositalarida zo‘ravonlik, tengsizlik va adolatsizlikning o‘sishini keltirib chiqaruvchi g‘oya va qarashlarning keng yoritilishi va shu kabilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017 yilning sentyabr oyida BMTning 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida: ”Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng

muhim vazifadir”[29]-deb, ta’kidlaydi. Ma’rifat – insoniyatning taqdirini belgilovchi muhim omil. Agar jamiyat ma’rifatli bo‘lsa, bu jamiyatning istiqboli, kelajagi yorug‘ligini anglatadi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasida: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, sahovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi”[30]-deb, alohida ta’kidlaydi.

Har bir organizm o‘ziga tahdid soladigan viruslar va boshqa ofatlarga qarshi kurashuvchi immunitet hosil qilgani kabi, har bir jamiyat va davlat o‘z xavfsizligiga tahdid soladigan omillar bilan kurashishi – hayotiy qonuniyat. Avvalo, yuksak ma’rifatli jamiyatlar bunday tahdidlardan himoyalanish darajasi yuqori bo‘lsa-da, atrofdagi ijtimoiy muhitdan chiqadigan tahdidlarni bartaraf etishga tayyor turish lozim. Bu hol esa, jamiyatning mafkuraviy tizimini mustahkamlashni taqozo etadi. Shunday zaruriyatdan kelib chiqib, mamlakatimizda mafkuraviy barqaror muhitni yaratish va dolzarbligini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarga doimiy ravishda e’tibor qaratib kelinmoqda.

Bu masala xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMTning yuksak minbaridan turib aytgan quyidagi so‘zlari ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi: “Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O‘zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib

[29] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72 sessiyasidagi ma’ruzasidan.
[30] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-avgust

borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat - BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konventsiyasini ishlab chiqishni taklif etadi”[31].

Bundan tashqari mamlakatimiz rahbari tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida muqaddas Islom dinimizni noto‘g‘ri talqin qilish, uni niqob qilgan holda turli buzg‘unchi kuchlar ayniqsa yoshlar ongu -shuuridan foydalanishga urinayotganliklari alohida ta’kidlab o‘tildi. O‘zbekiston bugungi kunda ulug‘ ajdodlarimizning ma’rifat sohasidagi an’analarini izchil davom ettirmoqda, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishning asosiy tashabbuskorlaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Bu esa mamlakatimizning bilim-ma’rifat g‘oyalariga naqadar sodiq bo‘lib, shu borada boshqalarga o‘rnak bo‘layotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bizning muqaddas islom dinimiz haqida hozirgi kunda dunyoning turli burchaklarida noto‘g‘ri tasavvurlar uyg‘otish harakatlari ko‘zga tashlanib turgan bir sharoitda “Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi” [32] degan so‘zlar BMT minbaridan yangragani muqaddas dinimiz haqidagi soxta va bo‘hton gaplarga munosib javob bo‘ldi. Prezidentimiz jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishda buyuk ma’rifatparvar bobolarimizning boy merosi, ezgu an’analariga tayanishimizni alohida uqtirib o‘tdi. Ayniqsa, buyuk ajdodimiz, o‘z ahamiyatiga ko‘ra islom dinida Qur’oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan “Saxixi Buxoriy” asarining muallifi bo‘lgan Imom Buxoriyning g‘oyat boy merosini asrab-avaylash va o‘rganish, ma’rifiy islom to‘g‘risidagi ta’limotini keng yoyish maqsadida Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqot markazi, Toshkent shahrida esa O‘zbekistondagi islom tsivilizatsiyasi markazi tashkil etilayotgani Vatanimizning bugungi ma’rifiy qiyofasini ko‘rsatadigan buyuk ishlardir.

[31] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72 sessiyasidagi ma’ruzasidan.
[32] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72 sessiyasidagi ma’ruzasidan.

Xalqaro miqyosdagi va davlat ichida sodir bo‘lish ehtimoli mavjud bo‘lgan terrorizmda siyosiy terrorizmning o‘rni bir muncha katta. Siyosiy terrorizmning sabablari turli - tuman bo‘lib, ularning ayrimlarini keltirib o‘tamiz:

1) hukmron elitaning muxolifat siyosiy partiyalarga nisbatan repressiv harakatlarni amalga oshirishi;

2) hukmron elita tomonidan jamiyatga yot bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy yangiliklarni joriy etishga intilish;

3) davlat ichida ichki siyosiy nizolarning keskinlashishi;

4) u yoki bu mintaqada ikki davlat manfaatlarining to‘qnash kelishi;

5) milliy davlatchilik siyosatini amalga oshirishda hukumat tomonidan yo‘l qo‘yiluvchi xatoliklar;

6) alohida insonlar, guruhlar va partiyalar tomonidan qasddan millatlararo nizolarni keltirib chiqarish;

7) bir davlatning ikkinchi bir davlatga nisbatan agressiya qo‘llashi va ko‘pchilik hollarda hududiy yaxlitligining buzilishi tinch aholi tomonidan qurolli qarshiliklarni keltirib chiqaradi (muhim obyektlarni portlatish, o‘t qo‘yish va hokazo);

8) terrorizmni davlat siyosati darajasida qo‘llab -quvvatlash;

9) xorijiy davlatlarning hukumatlari faoliyatidan norozilik oqibatida mazkur davlatlarning muassasalari va vakillariga nisbatan terroristik aktlar sodir etiladi.

Terrorizmni olishga qaratilgan chora -tadbirlarni ikki taraflama qarab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchidan, terrorizmning oldini olish va unga qarshi chora -tadbirlar samaradorligini oshirish har qanday davlatning birlamchi vazifasi hisoblansa, ikkinchidan- terrorizmga qarshi kurashish va uning oldini olish- bu davlatning siyosiy, iqtisodiy va xalqaro manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash maqsadida terrorizmning vujudga kelishini bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tavsifga ega bo‘lgan chora - tadbirlar majmuidir. Terrorizmning bugungi kunda namoyon bo‘lish holatlari o‘ziga xos ko‘lam va jihatlarni kasb etayotganligini e’tiborga olmaslik, terrorizmga qarshi kurash ishlarining samaradorligini pasaytirib yuboradi. Rossiyalik professor V.V.

Luneev terrorizmning ijtimoiy xavflilik darajasi tobora ortib borayotganligini bugungi kundagi eng katta xavf sifatida baholaydi. Uning fikricha terrorizm hozirda o‘zining quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- o‘sish sur’atlari bo‘yicha (keyingi o‘ttiz yil ichida jahon miqyosida OAVda e’lon qilingan va barchaga ma’lum bo‘lgan 10 mingdan ortiq terroristik aktlar sodir etilgan);

- tashkillashtirish darajasi bo‘yicha (o‘tgan yuz yillik mobaynida terrorizm yakka holdagi terrorchilardan yirik terrorchilik guruhlari va tashkilotlarigacha, siyosiy terroristik tuzilmalardan “Al-Qoida” singari transmilliy terroristik uyushmalargacha qadar o‘sib rivojlandi);

- moddiy -texnik va moliyaviy ta’minlanish darajasiga ko‘ra (dastlab terrorchilik hujumlarida oddiy pichoq va o‘qotar qurollar ishlatilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib terrorchilik hujumlari terrorchilarni qo‘llab -quvvatlashning yirik moliyaviy markazlari tomonidan moliyalashtirilib, terrorchilar hatto ommaviy qirg‘in qurollaridan foydalanish bilan ham tahdid solmoqdalar);

- terroristik faoliyatning milliy va transmilliy ko‘lamlariga ko‘ra (terrorizm bugungi kunda nafaqat ma’lum bir kichik hududni, balki butun bir shaharlar, mamlakatlar va mintaqalarni ham qamrab olmoqda);

- jinoyat oqibatlari va qurbonlar sonining o‘sib borishiga ko‘ra (terrorchilarning xatti -harakatlari natijasida qurbon bo‘layotgan begunoh insonlar, ayniqsa yosh bolalar soni muttasil o‘sib bormoqda);

- qo‘yilgan maqsadlarning tavsifi va ko‘lami bo‘yicha (bunda terrorchilar amaldagi hukumatni ag‘darishdan tortib, butun boshli xalqlarni yo‘q qilishgacha bo‘lgan maqsadlarni ko‘zlab harakat qiladilar);

- terrorizm ijtimoiy bazasining kengayib borishiga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda asosan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning terrorizm ta’siriga tushib qolayotganligini mamlakatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida alohida ta’kidlab o‘tdi.

“Tinchlik va iqtisodiyot instituti” har yili e’lon qilinadigan “Terrorizmning global indeksi -2017 yil” ma’ruzasini nashr qildi. Ma’ruza mualliflari mamlakat

ichidagi terroristik faollikni quyidagi asosiy mezonlar bo‘yicha baholashadi: terroristik harakatlar soni, halok bo‘lgan va jabr ko‘rganlar soni, yetkazilgan moddiy zarar miqdori. 2024 yil uchun e’lon qilingan ma’ruzada O‘zbekiston 138-o‘rinni egalladi. Tadqiqot natijalariga dunyoning faqatgina 38 ta mamlakati bugungi kunda terrorizmning ijtimoiy va iqtisodiy hayotga ta’sirini sezishmaydi. Bunday mamlakatlar qatoriga O‘zbekiston, Yaponiya, Mongoliya, Ruminiya, Slovakiya, Janubiy Koreya, Shimoliy Koreya, Finlyandiya, Ummon, Vetnam, Polsha, Latviya, Kuba, Panama, Urugvay, Singapur, Turkmaniston va Papua-Yangi Gvineya davlatlarini kiritishimiz mumkin. Ta’kidlash lozimki, mazkur reytingning dastlabki o‘rinlarini terrorchilik xavfi yuqori bo‘lgan mamlakatlar egallashadi.

Institute for Economics and Peace tomonidan tayyorlangan Global Terrorism Index (GTI) 2025 hisobotiga ko‘ra, terrorizm tahdidi asosan qurolli mojarolar kuzatilayotgan hududlarda yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Xususan, Sahel mintaqasi, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo davlatlari xavf darajasi eng yuqori bo‘lgan hududlar sifatida qayd etilgan. Tahlillar terrorizm bilan bog‘liq o‘limlarning 98 foizi mojaro zonalari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi.

Hisobotda keltirilishicha, 2025 yilda terrorchilik hujumlari qayd etilgan davlatlar soni 66 taga yetgan bo‘lib, bu so‘nggi yillardagi eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Ayniqsa, G‘arb mamlakatlarida hujumlar soni oshgani qayd etilgan. Shu bilan birga, ayrim Yevropa davlatlarida uzoq tanaffusdan so‘ng teraktlar qayta sodir etilgani global xavfsizlik muhitining murakkablashayotganini anglatadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi esa nisbatan barqaror hudud sifatida baholanadi. Jumladan, Uzbekistan 2025 yilda mazkur reytingda 0,233 ball bilan 90-o‘rinda qayd etilgan. Bu ko‘rsatkich mamlakatda terrorizm xavfi past darajada ekanini va umumiy xavfsizlik muhiti barqaror saqlanayotganini ifodalaydi.

4.2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda regional tashkilotlarning o‘rni va roli

Ma’lumki, dunyodagi har qanday suveren davlat jahon hamjamiyatiga o‘zining tashqi siyosiy qarashlari, umumbashariy muammolarga munosabatlari

hamda azaliy munozara va muzokaralar obyekti bo‘lgan urush va tinchlik masalalariga yondashuvlari bilan kirib boradi. Bu borada O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq aniq siyosiy pozitsiyasini va tashqi siyosat borasidagi kontseptsiyasini bayon etdi. Jumladan, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O‘zbekistonning tashqi siyosatini qonuniy asosida kafolatlab berdi. Uning 17-moddasida O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan boshqa qoidava normalariga asoslanishi belgilab qo‘yildi. Davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida turli ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi, zarur bo‘lganda ulardan ajralib chiqishi mumkinligi Asosiy qonunda belgilab berildi.

Mustaqillik davrida O‘zbekiston chindan ham jahon hamjamiyatining eng siyosiy faol, xalqaro munosabatlarda o‘zini asosli, qat’iy va o‘zgarmas pozitsiyasiga ega bo‘lgan davlat sifatida namoyon qildi. Bu O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi siyosiy mavqei va imijini belgilab beradigan muhim omil sifatida o‘z kuch-qudratini ko‘rsatdi.

Vaqt o‘tgan sari umumdunyoviy siyosiy jarayonlar tobora faollashmoqda, yangidan – yangi muammolar davlatlararo, mintaqalararo va umumbashariy miqyosda butunlay yangicha yondashuvlarni, siyosiy qarashlarni taqozo etmoqda. O‘zbekiston ana shu jarayonlarda, xalqaro munosabatlar va tashqi siyosatda o‘zining zamonaviy qarashlari va muammolar yechimini topishdagi o‘ziga xos yondashuvlari bilan o‘zining keng imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Bu haqdagi haqqoniy fikrlarni Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali yig‘ilishdagi ma’ruzasida yaqqol ko‘rish mumkin. Ushbu ma’ruzada Prezident O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining hozirgi zamon talablari va zamonaviy tsivilizatsiya ehtiyojlari nuqtai nazaridan aniq belgilab berdi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki,

O‘zbekiston davlatining ichki va tashqi siyosatida mustahkam izchillikning mavjudligi, birinchi Prezidentimiz, I.A. Karimov boshlab bergan mustaqil taraqqiyot yo‘li, ichki va tashqi siyosat davom etayotgani davlatimiz qudratining va siyosiy barqarorligining yorqin misolidir. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov tamal toshini qo‘ygan va jahon mehvarida butun salohiyatiyu salobati va qudratini ko‘rsatayotgan O‘zbekiston davlatining tashqi siyosati zamonaviy talablar, bugungi ehtiyojlar va dunyoviy qarashlarning eng ilg‘or namunalari bilan boyitib borilmoqda.

O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o‘z vaqtida va adekvat javob choralari ko‘rib, ularni oqilona echishni talab etadigan XXI asrning o‘ta shiddat bilan o‘zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda.

Mamlakatimizning xalqaro munosabatlarini to‘laqonli subyekti sifatidagi o‘rni va rolini yanada kuchaytirish hamda milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, yurtimiz iqtisodiyotining barqaror va tez sur’atlar bilan o‘sishi, uning ochiq, demokratik davlat qurish yo‘lida jadal siyosat olib borishi va rivojlangan davlatlar safidan munosib o‘rin egallashi bugungi kunda tashqi siyosat sohasidagi asosiy maqsaddir.

O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatida quyidagi tamoyillarga sodiq bo‘lib qolmoqda:

o‘zining milliy manfaatlariga asoslangan ochiq, pragmatik va puxta o‘ylangan tashqi siyosat olib borish;

teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni hurmat qilish, chegaralarning daxlsizligi va davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, munozarali masalalarni tinch yo‘l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik;

tashqi siyosiy faoliyat kontseptsiyasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlariga, uning farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlariga, amaldagi milliy

qonunchilik hamda qabul qilingan xalqaro majburiyatlarga amal qilgan holda ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish, shuningdek ulardan chiqish huquqini o‘zida saqlab qoladi;

O‘zbekiston tinchliksevar siyosat yuritadi va harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda ulardan chiqish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

Aslini olganda, tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, davlatning siyoiy qarashlari va jahon hamjamiyatidagi xalqaro munosabatlarda uzviylikning mavjudligi uning jahon hamjamiyatidagi mavqeini belgilash bilan birga, ichki siyosatda barqaror taraqqiyotning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda ichki va tashqi siyosatning ana shunday sog‘lom, qat’iyatli va ishonchli rivojlanishi bevosita uning ham dunyoviy, ham ichki mavqeini belgilamoqda. Hozirgacha mavjud siyosiy qarashlar XXI asrda inson va insoniyat taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlar tizimini qamrab olmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev bugungi kunda va olis istiqbolda O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy vazifalarini aniq belgilab berdi. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi qo‘shni davlatlar hududlari qurolli mojarolar va keskinlik o‘choqlariga aylanishining oldini olish yuzasidan siyosiy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni ko‘radi, shuningdek, o‘z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va obyektlari joylashtirilishiga yo‘l quymaydi;

siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda xalqaro hamkorlikni izchillik bilan rivojlantirish;

mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyatni va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;

Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot zonasiga aylantirish, Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishga ko‘maklashish;

jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko‘pqirrali tizimini shakllantirish, mintaqada geosiyosiy

muvozanatni saqlab turish, O‘zbekistonning savdo, iqtisodiy, texnologik, transport va boshqa aloqalarini keng diversifikatsiya qilish;

mavjud yoki yuzaga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida hal etish uchun siyosiy diplomatik hamda xalqaro huquqiy mexanizmlardan, jumladan, preventiv diplomatiya chora-tadbirlaridan foydalanish;

O‘zbekistonning siyosiy va savdo-iqtisodiy sohadagi ishonchli, mas’uliyatli sherik sifatidagi xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatimizning tashqi dunyo uchun investitsion, sayyohlik, madaniy-tarixiy jozibadorligini kuchaytirish;

milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari va ilg‘or texnologiyalarini jalb etish jarayonlarini kuchaytirish uchun ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish;

O‘zbekistonning dunyoning yirik bozorlariga kafolatli chiqishini ta’minlaydigan ko‘p muqobilli transport-kommunikatsiya yo‘laklarining tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

xorijdagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlari har tomonlama himoya qilinishini ta’minlash.

Yuqoridagi vazifalar, aytish mumkinki, O‘zbekistonnning jahon hamjamiyatiga tobora chuqurroq kirib borishini ta’minlaydi. Shu asosda har tomonlama o‘zaro manfaatli hamkorlik chuqurlashib boradi. Ayni paytda bu vazifalarning samarali hal etilishi O‘zbekistoning jahon hamjamiyatidagi mavqeini, siyosiy va iqtisodiy salohiyatini namoyon qiladi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning davlatlararo va mintaqaviy masalalarni hal qilishda yaqin qo‘shni mamlakatlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarish borasidagi sa’yi harakatlari O‘zbekiston davlatining tashqi siyosatidagi muhim tamoyil sifatida ko‘zga tashlanayotgani ayniqsa e’tiborlidir.

O‘zbekiston bugungi kunda mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash borasida Shanxay hamkorlik tashkilotining faol a’zosi sifatida tashkilotga a’zo bo‘lgan davlatlar bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqish

uchun astoydil intilmoqda. Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) - mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti. Xitoyning Shanxay shahrida 6 mamlakat – Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va O‘zbekiston davlat rahbarlari uchrashuvida tuzilgan (2001 yil 15 iyun). ShHTning vujudga kelish tarixi „Shanxay beshligi“ deb atalgan uyushma faoliyati bilan bog‘liqdir. Dastlab Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston davlatlari rahbarlari ishtirokida („Shanxay beshligi“) uchrashuvi bo‘lib o‘tgan. Unda chegaradosh mamlakatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash (1996 yil) va qo‘shma chegarada qurolli kuchlar va qurol-yarog‘larni qisqartirish (1997 yil) to‘g‘risida 2 ta bitim imzolangan edi. 1998 yildan „beshlik“ mamlakatlarining o‘zaro hamkorligi sobiq Sovet Ittifoqi - Xitoy chegarasi bo‘ylab harbiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish masalalaridan mintaqaviy xavfsizlik va ko‘p tomonlama iqtisodiy hamkorlikni ta’minlash choralariga o‘tishga qaratildi. ShHTning Dushanbe (2000 yil) sammitida O‘zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Ana shu sammitda ”beshlik“ negizida ko‘p tarmoqli tashkilot tuzish to‘g‘risida taklif ilgari surildi. ShHT ta’sischilaridan biri sifatida ishtirok etish haqidagi qarorni O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy-siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda qabul qildi. Shanxay sammitida (2001 yil iyun) yangi tashkilotning maqsad va tamoyillarini e’lon qilgan Deklaratsiya, shuningdek, terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi konventsiya qabul qilindi. Tashkilotning Sankt-Peterburgda bo‘lgan 2-sammitida (2002 yil iyun) ustav hujjati - ShHT Xartiyasiga imzo chekildi. ShHT ning oliy organi Davlat boshliqlari kengashidir. Tashkilot strukturasi Hukumat boshliqlari (bosh vazirlar) kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Tarmoq vazirliklari va idoralari rahbarlari kengashi, Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashi va doimiy ishlovchi Kotibiyat (Lekin shahrida joylashgan) hamda Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT Toshkent shahrida joylashgan)dan iborat. Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi 2004 yil 1 yanvardan faoliyat ko‘rsatadi. Mazkur tuzilma zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo‘mitalarining, maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orqali terrorchilikning oldini olish vazifasi

yuklangan. Shu maqsadda tuzilma tarkibida kengash va ijroiya qo‘mitasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Kengashga 6 davlat maxsus xizmatlari rahbarlari-ning vakillari kiritilgan. Ijroiya qo‘mitasida esa o‘zaro tasdiqlangan lavozim o‘rinlariga muvofiq ShHTga a’zo davlatlardan vakillar ishlaydi. ShHTga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining 2004 yil 17 iyunda Toshkentda bo‘lgan majlisida Tashkilotning shakllanish davri yakunlanganligi qayd etildi. Majlis yakunlari bo‘yicha Toshkent deklaratsiyasi, ShHTning vakolatlari va immunitetlari to‘g‘risidagi konventsiya, narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to‘g‘risidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir hujjatlar imzolandi. O‘zbekiston Respublikasining Tashkilotga a’zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblarining tegishli milliy mahkamalarning yangi tahdid va xurujlarga qarshi turishdagi hamkorligini mustahkamlash maqsadiga qaratilgan doimiy uchrashuvlarini o‘tkazib turish haqidagi tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi. ShHT a’zo mamlakatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir. Iqtisodiy hamkorlik borasida tashkilotga a’zo davlatlar oldida transport infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy, mineral xomashyo zaxiralarini o‘zlashtirish, suv energetika zaxiralaridan unumli foydalanish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish kabi masalalar mavjud. ShHTning boshqa Sobiq SSSR hududida joylashgan regional tashkilotlardan farqi ushbu tashkilotga MDH davlatlaridan tashqari unga Xitoy, Hindiston va Pokiston ham qo‘shilgan.

ShHT harbiy blok hisoblanmaydi, biroq tashkilot a’zolari xavfsizlik va terrorizm bilan kurashga doir masalalarni ko‘rib chiqishadi. 2002 yildan buyon tashkilot a’zolari muntazam ravishda aksilterror mashqlarini o‘tkazishadi. 2011 yilning 15 iyunida ShHTning o‘n yillik sammitida mamlakatlar rahbarlari Giyohvandlikka qarshi strategiya va uni amalga oshirish dasturini tasdiqlashdi. Aksilterror tuzilmasining bevosita sa’yi harakatlari natijasida o‘tgan yillar ichida mintaqada sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan 550 dan ortiq terrorchilik harakatlarining oldi olib qilindi.

Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) zamonaviy dunyoda o‘zaro ishonch va do‘stlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. 170 milliondan ortiq aholini

qamrab oluvchi tashkilot, savdo, investitsiya va mintaqada tinchlikni ta’minlashda faoliyat yuritmoqda. O‘zbekistonning TDTga a’zo bo‘lishi, mamlakatning tashqi siyosatini yangi yo‘nalishlarga olib boradi va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Turkiy tilli davlatlar orasida o‘zaro ishonch, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirish, mintaqada tinchlikni ta’minlash, savdo va investitsiyalar uchun qulay sharoitlarni yaratish hamda barcha sohalarda hamkorlik qilish sharoitini yaratadi.

Turkiy davlatlar tashkiloti bugungi kunda shakllanayotgan yangi dunyo tartiboti va xalqaro institutlar tizimida o‘ziga xos muhim o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. 170 mln.dan ortiq aholini qamrab olgan tashkilotning hududi barcha davlatlar uchun katta iqtisodiy imkoniyatlar makoni hamdir.

O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti *(TDT)* ga a’zo bo‘lishi mamlakatning tashqi siyosatdagi yangi yo‘nalishlarini belgilab, mintaqaviy hamkorlik va integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Bu raqamlarda ham ko‘rinadi – O‘zbekistonning TDTga a’zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2017 yilga nisbatan hozirda qariyb 3 barobar oshib, 10 milliard dollarga etdi.

Tashkilot doirasidagi hamkorlikda Muhtaram Prezidentimiz global logistika zanjirlari va transport yo‘laklarini rivojlantirish, yagona tranzit tarmog‘ini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratmoqdalar.

Hamkorlikning savdo-iqtisodiy poydevorini mustahkamlash, global logistika zanjirlari va transport yo‘laklarini rivojlantirish, yagona tranzit tarmog‘ini shakllantirishda bojxona idoralarining o‘zaro hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bu borada 2022 yilda bo‘lib o‘tgan Samarqand sammitida muhim qadam tashlandi – Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar hukumatlari o‘rtasida Soddalashtirilgan bojxona yo‘lagini joriy etish to‘g‘risida Bitim hamda Xalqaro qo‘shma yuk tashish to‘g‘risidagi bitimlar imzolandi.

TDT hududida yagona tranzit tarmog‘ini shakllantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga eng avvalo dunyo miqyosida TIR Konventsiyasining 2021 yil maydan kuchga kirgan elektron tartiboti – eTIR xalqaro tizimiga barcha mamlakatlar ulangan taqdirdagina erishish mumkin.

Shu yo‘l bilan tashkilotga a’zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro tovar aylamanmasi hajmini oshirish, ushbu jarayonda sarflanadigan vaqt va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish mumkin.

“eTIR” tartiboti bojxona rasmiylashtiruvi vaqtini qisqartirishdan transport xarajatlarini kamaytirishgacha bo‘lgan bir qator afzalliklarga ega.

Ushbu xalqaro tizimga Ozarbayjon, O‘zbekiston va Gruziya qo‘shilgan bo‘lib, 2022 yil dekabr oyida dunyoda ilk bor Ozarbayjon va O‘zbekiston birinchi eTIR tashuvini amalga oshirgan.

Mazkur yangilik jahon biznes hamjamiyati tomonidan qizg‘in qarshi olingan va nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan keng e’tirof etilgan.

Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi va Turkiy davlatlar tashkiloti rasmiy saytlarida mazkur loyiha Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari o‘rtasida yuk tashish sharoitlarini yaxshilash g‘oyasining haqiqiy timsoli deya baholangan.

“eTIR” tartiboti Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlarni to‘liq qamrab olsa, yuklar to‘g‘risida oldindan ma’lumot olish va o‘zaro almashishni, bojxona tartibotlari va davlat chegaralarini kesib o‘tishni tezlashtirishga, mamlakatlarning eksport va tranzit salohiyatini oshirish, ishonchli va xavfsiz transport koridorlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirga qadar tashkilot doirasida soddalashtirilgan bojxona yo‘lagi to‘g‘risida bitim imzolanishidan tashqari, ruxsatnoma tusidagi hujjatlarni raqamlashtirish, xavflarni boshqarish va vakolatli iqtisodiy operatorlarni o‘zaro tan olish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yildi.

Ammo, globallashuv va jadal texnologik taraqqiyot davrida deyarli har kuni sodir bo‘layotgan turli o‘zgarishlar hamkorlikni barcha yo‘nalishlarda qamrab olish va izchillik bilan davom ettirishni talab etadi.

Masalan, xalqaro savdoda elektron tijoratning ulushi tobora oshib bormoqda. Xaridorlar turli elektron platformalar orqali boshqa davlatlardagi ishlab chiqaruvchilardan tovarlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri xarid qilishmoqda, zamonaviy logistika esa mazkur tovarlarni iste’molchining eshigiga qadar yetkazib bermoqda.

Shu boisdan, istiqbolda elektron tijoratning bozori yanada o‘sishini inobatga olib, O‘zbekiston bojxonasi TDT doirasidagi tadbirlarda xavfsizlikni ta’minlaydigan va qo‘shimcha to‘siqlar yaratmaydigan samarali nazoratni yo‘lga qo‘yish hamda ushbu sohada hamkorlikni kuchaytirish takliflarini ilgari surmoqda.

Yana bir jihat – O‘zbekistonda bojxona sohasini raqamlashtirish va bunda sun’iy intellektdan keng foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bojxona sohasida to‘plangan katta hajmdagi ma’lumotlarni qo‘lda boshqarish va tahlil qilish tobora qiyinlashib borishini inobatga olsak, sun’iy intellektni keng qo‘llashga va tabiiyki bu borada yuqori salohiyatli kadrlarga zarurat ortaveradi.

Shu boisdan O‘zbekiston bojxonasi TDT doirasida mazkur yo‘nalishda ham hamkorlikka alohida e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston tomoni Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar bojxona xizmati xodimlari o‘rtasida sport musobaqalarini tashkil etish taklifini ham ilgari surgan. Ushbu format tashkilot doirasida bojxona xizmati xodimlari o‘rtasidagi do‘stona muhitni yanada kuchaytiradi va hamkorlikning samaradorligi oshishiga hissa qo‘shadi.

Qisqacha xulosalar

1.Terrorizm jahondagi barcha mamlakatlar barqarorligi va milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid bo‘lib hisoblanadi. Terrorizm va ekstremizm dunyoning deyarli barcha mamlakatlari va ularning fuqarolari xavfsizligiga tahdid solmoqda va juda katta siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy yo‘qotishlarga olib kelmoqda. Terrorizmni jamiyat hayot faoliyatiga tahdid bo‘lib, u eng tuban, eng qabih maqsadlarga xizmat qiladigan hodisadir.

2.Globallashuv davrida terrorizm qarshi kurashishda butun jahon hamjamiyati ishtirok etishi kerak. Faqat shundagina kurashning samaradorligiga erishish mumkin.

3.O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida tashqi siyosatini olib borishda respublikaning manfaatlaridan kelib chiqadi. XXI asrning boshlarida Markaziy Osiyo faol geosiyosiy raqobat mintaqasiga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining mintaqa markazida joylashganligi uning geostrategik jihatdan o‘rnini belgilaydi. Shuning uchun ham Markaziy Osiyo hududida sodir bo‘ladigan voqealar u yoki bu darajada O‘zbekistondagi vaziyatga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekiston Osiyo qit’asidagi eng nufuzli tashkilotga aylangan ShHTda muhim o‘rinni egallaydi va uning maqsadlarini amalga oshirishda, mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash va ta’minlash borasidagi faoliyatida faol ishtirok etadi.

Nazorat savollari

1. O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyatini ochib bering?
2. O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor vazifalari nimalardan iborat?
3. Terrorizm turlari to‘g‘risida gapirib bering?
4. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda regional tashkilotlarning o‘rni nimalarda ko‘rinadi.
5. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va uning mintaqada xavfsizlik va hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni haqida qisqacha gapirib bering?
6. O‘zbekistonning Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishga ko‘maklashish borasidagi sa’yi harakatlarini qanday baholaysiz?

Iqtisodiy jihatdan zaif davlat sanoat ishlab chiqarishi yo‘qligi uchun ham qashshoqdir va u ayni vaqtda qashshoq bo‘lganligi sababli ham sanoat ishlab chiqarishi yo‘q.

Xans Volfgang Zinger.

V BOB. MAMLAKAT IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIYOT REAL SEKTORINI RIVOJLANTIRISHNING O‘RNI VA IQTISODIY XAVFSIZLIK

5.1. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim omili

5.2. Iqtisodiyotning real sektorida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi

Tayanch tushuncha va iboralar: Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, raqobat, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, ichki iqtisodiy salohiyat, tashqi iqtisodiy aloqalar, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, moliya-kredit tizimi.

Qisqacha sharh

Zamonaviy globallashuv sharoitida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jahon bozorlarida raqobatning keskinlashuvi, texnologik taraqqiyotning jadal sur’atlarda rivojlanishi hamda global iqtisodiy inqirozlar xavfining ortib borishi davlatlardan puxta, tizimli va uzoq muddatli iqtisodiy siyosat yuritishni talab etadi. Shu jihatdan, iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning nafaqat bugungi iqtisodiy barqarorligini, balki uning istiqboldagi barqaror rivojlanish salohiyatini ham belgilab beradi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda iqtisodiyotning real sektori yetakchi o‘rin tutadi. Real sektor sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, energetika va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarini qamrab olib, milliy iqtisodiyotning moddiy-texnik asosini tashkil etadi. Ushbu tarmoqlarning barqaror va mutanosib rivojlanishi ishlab chiqarish hajmlarining oshishi, eksport salohiyatining kengayishi, importga qaramlikning kamayishi hamda yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, real sektorning rivojlanishi innovatsiyalarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni qo‘llash va mehnat unumdorligini oshirish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Natijada milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy tahdidlarga nisbatan bardoshliligi ortadi va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun mustahkam zamin yaratiladi. Raqobatbardosh iqtisodiyot ichki va tashqi bozorlarda samarali ishtirok etish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hamda investitsiyalarni faol jalb qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, real sektor rivoji bandlik darajasini oshirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash orqali iqtisodiy xavfsizlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarishning kengayishi ichki bozorni mustahkamlab, iqtisodiy o‘sishning barqaror va uzoq muddatli manbalarini shakllantiradi. Shu sababli, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va real sektorni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lida

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror va yuqori sur’atlar bilan rivojlanib, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda muhim natijalarga erishildi. Xususan, bundan to‘qqiz yil avval iqtisodiyot hajmini 100 milliard AQSH dollariga yetkazish katta marralardan biri hisoblangan bo‘lsa, hozirgi kunda yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 145 milliard dollardan oshdi. Bu ko‘rsatkichlar amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini hamda milliy iqtisodiyotning yuqori o‘sish salohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Global savdo tizimida raqobat sharoitlari o‘zgarib borayotgan bir paytda mamlakat eksport salohiyati ham sezilarli darajada oshdi. Jumladan, eksport hajmi 23 foizga ko‘payib, 33,4 milliard dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga, oltin-valyuta zaxiralari ilk bor 60 milliard dollardan oshib, iqtisodiy islohotlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun mustahkam baza yaratildi. Xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetib, jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etdi. Bu holat kelgusi yillarda ham iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va ishonchliligi tobora mustahkamlanmoqda. Yetakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan mamlakatning suveren kredit reytingi “BB-” darajasidan “BB” pog‘onasiga ko‘tarildi. Mazkur o‘zgarish tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish shartlarining yaxshilanishiga olib kelib, tashqi qarz bo‘yicha xarajatlarni yiliga kamida 300 million dollar miqdorida kamaytirish imkonini berdi. Shuningdek, Jahon banki e’lon qiladigan Davlatlarning texnologik yetuklik indeksida O‘zbekiston 71 pog‘onaga ko‘tarilib, dunyoning yetakchi 10 ta mamlakati qatoriga kirdi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda infratuzilmaning rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Energetika sohasida amalga oshirilgan tub islohotlar natijasida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 85 milliard kilovatt-soatga yetkazildi. Bu ishlab chiqarish hajmining oshishi va aholining energiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim omil bo‘ldi. Shu bilan birga, ichimlik suvi ta’minoti yaxshilanib,

yuz minglab xonadonlarga ilk bor toza ichimlik suvi yetkazildi, qishloq va mahallalarda sug‘orish infratuzilmasi kengaytirildi.

Uy-joy qurilishi va shaharsozlik sohasida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Joriy yilda 135 ming xonadondan iborat ko‘p qavatli uylar foydalanishga topshirildi. Umuman olganda, so‘nggi to‘qqiz yilda 210 million kvadrat metr turar-joy va ishlab chiqarish obyektlari barpo etildi. Bu esa iqtisodiy faollik va bandlik darajasining oshishiga xizmat qildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash yo‘lida bandlik va kambag‘allikni qisqartirish borasida ham muhim natijalarga erishildi. Joriy yilda 5 million aholi daromadli bo‘lib, ishsizlik darajasi 4,9 foizgacha pasaydi. Qariyb 1,5 million aholi kambag‘allikdan chiqdi, mingdan ortiq mahallalar kambag‘allikdan xoli hududga aylandi. Natijada mamlakatda kambag‘allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizgacha kamaydi.

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida mamlakatning raqobatbardoshligi, avvalo, malakali kadrlar, zamonaviy kasb egalari va ilg‘or texnologiyalar rivoji bilan belgilanadi. Jahon bozorlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun inson kapitaliga sarmoya kiritish hamda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Sanoat sohasida elektronika va elektrotexnika, biokimyo va polimerlar, farmatsevtika, mashinasozlik kabi yuqori texnologiyali va yuqori qo‘shilgan qiymat

yaratuvchi tarmoqlarni rivojlantirish iqtisodiyot tarkibini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Bu esa eksport salohiyatini oshirish, importga qaramlikni kamaytirish va sanoatning barqaror o‘sishini ta’minlash imkonini beradi.

Xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, fintex, konsalting hamda transport-logistika kabi yuqori daromad keltiruvchi xizmat turlarini kengaytirish iqtisodiy o‘sishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlar yangi ish o‘rinlari yaratish bilan birga mamlakatning global xizmatlar bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Qishloq xo‘jaligida bioinjeneriya yutuqlaridan foydalanish, ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy etish va suv tejovchi usullarni keng qo‘llash orqali unumdorlikni oshirish mumkin. Bu oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish va qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash maqsadida “yashil” energetika manbalarini rivojlantirish, chiqindisiz va ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalariga o‘tish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalish iqtisodiy xavfsizlik bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni ham mustahkamlaydi.

Ta’lim va tibbiyot sohalarida ilg‘or xorijiy tajribalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Kadrlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga tayyorlash esa iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, iqtisodiyotni texnologik modernizatsiya qilish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, sanoat va xizmatlar sohalarida innovatsion rivojlanishga o‘tish O‘zbekistonning raqobatbardoshligini kuchaytirish, iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash va uzoq muddatli barqaror taraqqiyotini ta’minlashning muhim strategik asosini tashkil etadi.

5.1. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim omili

Dunyoning barcha mamlakatlari iqtisodiyotini qamrab olgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash, uni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish mamlakat iqtisodiyotini uning tahdidlaridan himoya qiluvchi muhim omillardan bo‘lib hisoblanadi.

Raqobat bozor xo‘jaligining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasida raqobat yangi raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish yo‘li bilan o‘z salohiyati va imkoniyatlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratadi.

Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitlarda esa xalqaro raqobat muammolari birinchi o‘ringa chiqib boradi. Jahonning ko‘pgina mamlakatlari, shu jumladan, o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda ham raqobat to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilingan va ushbu muammolar bilan shug‘ullanadigan idoralar tashkil etilgan. Bu esa o‘z navbatida bozor xo‘jaligining muvaffaqiyatli amal qilishida raqobatning yetakchi rolini tan olinganligidan dalolat beradi.

Kapital va mehnat harakatchanligining oshganligi, dunyo iqtisodiyotining yoppasiga axborotlashuvi, erkin savdo va bozorlar integratsiyalashuvida namoyon bo‘layotgan globallashuv jarayonlari, dunyoning barcha mamlakatlari uchun

ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda keng imkoniyatlar ochmoqda. Lekin, shu bilan birga, mamlakatlar ushbu jarayonlarga xos bo‘lgan ayrim qiyinchiliklarga ham duch kelmoqdalar. Ayni paytda dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, globallashuv jarayonlaridan asosan dunyo bozoriga tayyor raqobatbardosh tovarlar bilan chiqayotgan mamlakatlar ko‘proq naf olmoqdalar.

Dunyo miqyosida manfaatlar kurashi, raqobat tobora avj olib, xalqaro vaziyat keskinlashib bormoqda. Mana shunday bir sharoitda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash va barqaror rivojlanishga erishish muhim ahamiyat kasb

etadi. Bundan tashqari har qanday mamlakat iste’mol tovarlarini ma’lum qismini tashqi bozorlardan xarid qilishga majbur bo‘ladi. Mana shunday sharoitda mamlakat eksport salohiyatini oshirish importni ta’minlash uchun valyuta tushumlarini kafolatlaydi. Demak, raqobatbardoshlik iqtisodiy xavfsizlik muammosi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ma’lumki, bir necha yillardan beri mamlakatlarning jahon xo‘jalik tizimida raqobatbardoshligini aniqlash hamda ularni raqobatbardoshlik reytingini tuzish bo‘yicha tadqiqotlar olib boriladi. Har yili Butun jahon iqtisodiy forumi Global raqobatbardoshlik darajasi to‘g‘risida hisobot e’lon qiladi. Bu borada dastlabki ma’ruza 1979 yilda chop etilgan bo‘lib, 2004 yildan boshlab mamlakatlar raqobatbardoshlikning global indeksi asosida ketma -ketlik tartibida ro‘yxatga kiritiladi. Raqobatbardoshlik indeksi mamlakatning o‘z fuqarolari uchun munosib hayot kechirish imkoniyatini ta’min etishga qay darajada qodir ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa, birinchi navbatda mavjud resurslardan nechog‘li samarali foydalanilayotganligiga bog‘liqdir. Erkin bozor sharoitida fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta’min etish uchun odatda, muttasil tarzda mehnat unumdorligini oshirib borish, tovar va xizmatlar sifatini yaxshilash talab etiladi. Butun jahon iqtisodiy forumi ekspertlarining fikricha, global raqobatbardoshlik indeksidan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyot va raqobatbardoshlikni ta’minlash borasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Butun jahon iqtisodiy forumi vakillarining ta’kidlashlaricha, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligiga turli-tuman omillar ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, davlat moliyasini samarasiz boshqarish, yuqori inflyatsiya darajasi iqtisodiy vaziyatga salbiy ta’sir ko‘rsatsa, intellektal mulk muhofazasi, rivojlangan sud - huquq tizimi kabilar ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Institutsional omillar bilan bir qatorda ta’lim va ishchi kuchi malakasini oshirish, doimiy ravishda yangi bilim va texnologiyalarga egalik qilishga intilish ham raqobatbar-doshlikka ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan sanaladi.

Bugungi kunda mamlakatlar raqobatbardoshligini baholashning umumlashgan ko‘rinishi bo‘lib, Kolumbiya universiteti professori Ksave Sala-i-Martin (Xavier Sala-i-Martin, Columbia University) tomonidan Butun jahon iqtisodiy forumi uchun maxsus ishlab chiqilgan va 2004 yilda birinchi marotaba nashr qilingan Global raqobatbardoshlik indeksi hisoblanadi.

Global raqobatbardoshlik indeksi iqtisodiy taraqqiyotning turli darajasida bo‘lgan mamlakatlarning raqobatbardoshlik darajasini sinchkovlik bilan tahlil etish va tavsiflash imkonini beruvchi 113 ta o‘zgaruvchidan tashkil topgan. Barcha o‘zgaruvchilar milliy raqobatbardoshlikni aniqlab beruvchi 12 ta nazorat ko‘rsatkichlariga birlashtirilgan:

1. Institutlar sifati.
2. Infratuzilma.
3. Makroiqtisodiy barqarorlik.
4. Sog‘liqni saqlash va boshlang‘ich ta’lim.
5. Oliy ta’lim va kasbiy tayyorgarlik.
6. Tovar va xizmatlar bozori samaradorligi.
7. Mehnat bozori samaradorligi.
8. Moliya bozorining rivojlanganligi.
9. Texnologik taraqqiyot darajasi.
10. Ichki bozor ko‘lami.
11. Korxonalarning raqobatbardoshligi.
12. Innovatsion salohiyat.

Yuqorida sanab o‘tilgan omil va ko‘rsatkichlarning hech biri o‘zi alohida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’min etishga qodir emas. Masalan, ta’limga sarflanayotgan xarajatlardan kutilayotgan samara mehnat bozorining samarasizligi tufayli sezilarli darajada pasayib ketishi mumkin yoki makroiqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan moliyaviy mablag‘larni boshqarish samaradorligiga qachonki

davlat moliyasini boshqarish tizimi shaffof bo‘lganda, iqtisodiyotda korrupsiya alomatlari sezilarli darajada past bo‘lgandagina erishish mumkin[33].

Mamlakatlar raqobatbardoshligining mezonlari tarkibini shakllantirishda iqtisodiyot, ta’lim, fan, huquqiy tizim, informatika, infratuzilma, moliya, soliq tizimi, tashqi iqtisodiy faoliyat, boshqaruv tizimi, ijtimoiy sohalarning rivojlanganlik darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga alohida ahamiyat berilgan.

Raqobatbardoshlik – iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning eng muhim mexanizmi bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik va raqobatbardoshlik doimo o‘zaro munosabatda bo‘lib turadi. Iqtisodiy xavfsizlik ham, raqobatbardoshlik ham milliy xo‘jalik majmuasi va uning tarkibiy qismlarini tavsiflovchilaridir. Shu bilan birga raqobatbardoshlik bir paytning o‘zida ham maqsad, ham milliy xo‘jalik majmuasi va uning tarkibiy qismlarini rivojlanish darajasini indikatori bo‘lsa, iqtisodiy xavfsizlik uning mavjudligi va rivojlanish sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Mamlakatda raqobatni qo‘llab-quvvatlash, uni rivojlantirish, raqobat muhitini yaratish makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, yuksak iqtisodiy o‘sishga erishish, iqtisodiyotning samarali tarkibini shakllantirishda va milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri davlatni ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy sohalardagi o‘zgarishlarni amalga oshirishda bosh islohotchi ekanligini belgilovchi tamoyildir. O‘tish davrida aynan davlat milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda islohotlar jarayonini tartibga solib turishi, iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadi va ustuvor vazifalarini belgilashi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub o‘zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va izchil amalga oshirishi zarur ekanligini O‘zbekiston tajribasi yaqqol namoyon qildi.

O‘tgan chorak asrdan ko‘proq mustaqil taraqqiyot davrda iqtisodiyotda ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyot-ning yuqori sur’atlar

[33] http://reports.weforum.org/global-competitiveness-index/

bilan o‘sishini, inflyatsiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta’minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hamda valyuta bozori holati ustidan tizimli monitoringni amalga oshirish, zaruriyat tug‘ilganda, milliy valyuta va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini oshirish, makroiqtisodiy muvozanatni saqlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan qonunchilikni takomillashtirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi ko‘p jihatdan milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligiga bog‘liqdir. Buning uchun tovar va xizmatlarning iste’mol narxlari (tariflari) o‘zgarishini kuzatish metodikasini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Hech kimga sir emaski, ichki va xalqaro savdoni amalga oshirishda valyuta kursi asosiy ta’sir ko‘rsatadigan omil sifatida qaraladi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida O‘zbekiston Respublikasi valyuta tizimida valyuta munosabatlarini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish borasida qator muammolarning mavjudligi namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, valyutaviy nazorat jarayoniga aslida nazorat funksiyasiga ega bo‘lmagan tijorat banklarining faol tarzda jalb etilganligi valyutaviy nazoratning ta’sirchanligi va samaradorligiga, joriy valyuta bozori likvidlilik darajasining past darajada ekanligi esa, milliy valyutaning nominal almashuv kursini talab va taklif asosida shakllantirish jarayoniga salbiy ta’sir qilmoqda.

Chunonchi, valyuta kursi va pariteti o‘rtasida uzviy aloqadorlik mavjud bo‘lib, valyuta kursi naqd va naqdsiz pul aylanmalariga bevosita va bilvosita ta’sir

ko‘rsatadi. Ammo pul tizimining ayrim unsurlari rivojlanishda davom etib, tizimning o‘ziga, iqtisodiyotning holatiga, ayrim davriy oraliqlarda, bevosita va kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, pullar taklifining keskin oshishi inflyatsiya darajasining o‘sishiga va shuning asosida pul qiymatining pasayishiga olib keladi. Yoki milliy valyutaning real almashuv kursining oshishi mamlakat eksport salohiyatining pasayishiga va shu tariqa xorijiy valyutalar taklifining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Byudjet mablag‘lari mamlakatning makroiqtisodiy barqarorlikka erishish yo‘lida Hukumat tomonidan yaqin va uzoq davrlarga mo‘ljallangan davlat dasturlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati u bajarayotgan funksiyalarda namoyon bo‘ladi. Uning asosan ikkita funksiyasi mavjud: taqsimlash; nazorat. Davlat aynan byudjetning taqsimlash funksiyasiga tayanib, ixtiyoridagi markazlashgan moliya resurslarini shakllantiradi va ularning yordamida umumdavlat iste’mollarini pul resurslari bilan ta’minlaydi.

Moliyaviy nazorat tizimi subyektlar (nazorat kiluvchilar), obyektlar (nazorat kilinuvchilar), nazoratning usul va vositalarini birgalikda jamlab, o‘z ichiga oladi. Moliyaviy nazoratning muhim shakllaridan biri bu – davlat byudjet-moliya nazorati hisoblanadi. Byudjet nazorati orqali davlat va mahalliy hokimiyat organlari uchun muntazam ravishda tasdiqlangan byudjetning daromad va xarajatlar rejalarining to‘liq va sifatli bajarilishini nazoratga olish, ularning bajarilishiga ta’sir qiluvchi turli salbiy omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun zudlik bilan zarur chora-tadbirlarni belgilash imkoniyati yaratiladi.

Davlat mablag‘lari haqidagi ma’lumotlarning shaffofligini ta’minlash, pul-kredit siyosati vositalarini yanada takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirish, naqd pul muomalasi mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish bugungi voqelik nuqtai nazaridan dolzarb bo‘lib qolmoqda. Buning uchun davlat mablag‘lari haqidagi ma’lumotlarni davlat sektorida hisobga olishning xalqaro standartlariga moslashtirish orqali ularning shaffofligini ta’minlash hamda pul-kredit siyosati

vositalarini yanada takomillashtirish, shu jumladan, iqtisodiyotning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan qayta moliyalashtirish stavkasini tartibga solish mexanizmlarining samaradorligini oshirishni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xalqaro globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borayotgani mamlakatlarning valyuta siyosatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda va qator davlatlarda “golland kasali”ning yuzaga kelishiga turtki bermoqda. “Golland kasalligi” tabiiy resurs manbalarining kashf etilishi natijasida mamlakat sanoatlashuv darajasining pasayib ketishi, davlat milliy valyutasining kuchli revalvatsiyalanishi va natijada mamlakat eksport tovarlari raqobatdoshligining sezilarli darajada pasayishini anglatadi. “Golland kasalligi”ga uchragan davlatda asosiy eksport tovarlarini ishlab chiqarishga asoslangan mamlakat qayta ishlash sanoatida keskin pasayish yuz beradi va mamlakatning an’anaviy eksport tushumlari manbai bo‘lgan qayta ishlash sanoatiga nisbatan kuchli salbiy ta’sir vujudga keladi. Tabiiy resurslar uchun qulay baholar sharoiti yo‘qolgach, mamlakatning kuchsizlangan an’anaviy sanoati orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashi ancha og‘ir kechadi.

Yuqorida ta’kidlangan **tizimli muammolarning oldini olish va bank sektorining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash** maqsadida O‘zbekistonda bank faoliyatini tartibga solish va prudensial nazoratning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish, banklarning samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni kamaytirish hamda moliyaviy xizmatlar bozorida raqobat muhitini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Amaldagi yondashuvlarda banklarning kapital va likvidlilik barqarorligini ta’minlash, risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish va mijozlar manfaatlarini himoya qilish ustuvor yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, quyidagi vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi:

- **banklarning kapital yetarliligi va likvidliligini ta’minlash**, prudensial me’yorlarni xalqaro standartlar, jumladan, Bazel tamoyillari asosida takomillashtirish hamda tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferlaridan foydalanish;

- **banklarda korporativ boshqaruv va risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish**, kredit, likvidlilik, bozor, operatsion va boshqa risklarni muntazam baholash, stress-test va ssenariy tahlillaridan foydalanish hamda erta ogohlantirish indikatorlarini joriy etish;
- **bank faoliyatining institutsional mustaqilligi va bozor tamoyillarini mustahkamlash**, banklarning kredit siyosati va operatsion faoliyatiga asossiz ma’muriy aralashuvlarning oldini olish, korporativ boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligini oshirish;
- **banklarning kapitallashuvini oshirish va kredit portfeli sifatini yaxshilash**, iqtisodiyotning real sektorini, investitsiyaviy loyihalarni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish bilan birga kredit risklarini nazorat qilish;
- **banklarning likvidligini samarali boshqarish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash**, likvidlilikni qoplash (LCR), sof barqaror moliyalashtirish (NSFR) kabi ko‘rsatkichlar asosida banklarning qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarini bajarish qobiliyatini mustahkamlash;
- **raqamli bank xizmatlari va moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish**, innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish, raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda kiberxavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish va iste’molchilar manfaatlarini ta’minlash mexanizmlarini kuchaytirish;
- **bank tizimida raqobat muhitini rivojlantirish va moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirish**, xususiy banklar faoliyatini kengaytirish, bank xizmatlari bozorida yangi biznes modellarini shakllantirish va moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish;
- **banklarga xos bo‘lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich qisqartirish**, bank resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va ularning asosiy faoliyatini moliyaviy vositachilik, kreditlash, hisob-kitob va boshqa bank xizmatlariga yo‘naltirish.

Navbatdagi o‘zgarishlar sifatida kreditorlarning huquqlarini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan yangi tartiblarni ishlab chiqish belgilangan. Ushbu tartiblarda qarzdorning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi axborotni har qanday kreditorga uning yozma so‘rovi olingan vaqtdan boshlab 10 kun ichida taqdim etish hamda kreditorga qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi qarorga e’tiroz bildirish huquqini berish masalasi kiritilmoqda.

Banklarning umumiy kapitali va depozit bazasining yanada mustahkamlanishi ularning iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investitsion faollikni rag‘batlantirishni ichki manbalar hisobidan amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirib, bank tizimi aktivlarining sifat hamda miqdor jihatdan oshishiga olib keladi. Mijozlarga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, xususan, omonatlarning yangi va mijozlar talablariga mos jozibador turlarini joriy etish tijorat banklarini moliyaviy resurslar bilan ta’minlashning eng qulay vositasi hisoblanadi.

Shularni hisobga olib, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin mablag‘larini joylashtirishning muqobil manbai sifatida moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorini o‘rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Moliya bozorini rivojlantirish kontseptsiyasini yaratishda quyidagilar aks ettirilgan:

mustahkam moliyaviy institutlar (banklar, sug‘urta kompaniyalari, yirik davlat kompaniyalari, aksiyadorlik jamiyatlari)ga qimmatli qog‘ozlar (obligatsiyalar, veksellar va boshqalar) chiqarishga ruxsat berish;

qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish bo‘yicha vakolatli organning moliya bozorining zamonaviy vositalarini joriy qilinishdagi rolini kuchaytirish, ya’ni mazkur organni nazorat organi sifatida emas, balki qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi organ sifatidagi faoliyati samaradorligini oshirish;

qimmatli qog‘ozlarni dastlabki va qo‘shimcha emissiya qilishni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini soddalashtirish;

sug‘urta va boshqa moliyaviy xizmatlarning yangi shakllarini joriy qilish, sug‘urta va boshqa turdagi moliyaviy xizmatlarning hajmini kengaytirish;

alohida milliy korxonalar aksiyalarining xorijiy nufuzli fond birjalarida dastlabki tarzda joylashtirilishiga erishish (IPO), ularning xorijiy kapital bozoriga chiqishini ta’minlash.

Mamlakatimizning hozirgi qimmatli qog‘ozlar bozorida birlamchi emissiyalar ustunlik qilmoqda. Ikkilamchi fond bozorining rivojlanishi, eng avvalo, qimmatli qog‘ozlar likvidligini oshirish uchun bozorning tashkil etilishini takomillashtirish, qimmatli qog‘ozlarning muomala qilishi va ularga xizmat ko‘rsatish tizimida chiqimlar va xarajatlarni kamaytirishga yordam berish, bozorning axborot jihatdan ochiqligini kuchaytirish kerak bo‘ladi.

Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishidagi muammolarning hal qilinishi qimmatli qog‘ozlar bozorining yanada rivojlanishiga va investorlar ishonchining mustahkamlanishiga olib keladi.

Tarmoqlar va mintaqalarni barqaror rivojlantirish hisobidan ijtimoiy muammolarning hal etilishini ta’minlovchi mahalliy byudjetlarning daromad manbaini kengaytirish, o‘z-o‘zidan mahalliy hokimiyatning turli xildagi ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Ammo shuni esdan chiqarmaslik kerakki, mahalliy byudjetning cheklanganligi undan xo‘jasizlarcha foydalanish mumkin, degani emas. Shuning uchun yaqin istiqbolda byudjet xarajatlarini yanada optimallashtirish, shahar va tumanlarning subventsiyalanishini kamaytirish, fiskal nomarkazlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish taqozo etiladi.

Ushbu hujjatlarning kuchga kirishi oqibatida byudjet xarajatlarini yanada optimallashtirish, mahalliy byudjetlar tasarrufida qoladigan soliqlar va majburiy to‘lovlarning ro‘yxati va miqdorini qayta ko‘rib chiqish orqali shahar va tumanlarning subventsiyalanishini kamaytirish hamda mahalliy davlat hokimiyati

organlarining mintaqalar mablag‘larini boshqarish bo‘yicha mustaqilligini oshirgan holda, fiskal nomarkazlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish imkoni yaratiladi.

Strategik hujjatlarda ko‘tarilgan yana bir muhim masala bu – soliq ma’muriyatchiligi sifati va samaradorligini yaxshilashdan iboratdir. Ushbu masalani hal etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1) soliq qonunchiligini tanqidiy o‘rganish va tahlil qilish, huquqni qo‘llashda ortiqcha va murakkab normalarni bartaraf etish, soliqqa tortish bazasini hisoblash jarayonini soddalashtirish, yagona bazadan undiriladigan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni unifikatsiya qilish, shuningdek, soliq qonunchiligi barqarorligini ta’minlashga qaratilgan takliflar tayyorlash;

2) soliq yukini, xususan: yakka tartibdagi tadbirkorlardan undiriladigan qat’iy belgilangan soliq miqdorini, shu jumladan, faoliyat ko‘rsatish (masalan, uzoq va borish qiyin bo‘lgan) joylarini hisobga olgan holda, qayta ko‘rib chiqish; yirik korxonalar uchun soliq yukini maqbullashtirish hisobidan uni izchil pasaytirish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlariga nisbatan amalda qo‘llanilayotgan soliqqa tortish tartiblari ular faoliyatiga bevosita ta’sir etib, kelgusi moliya yiliga nisbatan tegishli qarorlarni qabul qilishlarida katta ahamiyat kasb etmoqda. Aynan davlat soliq siyosati instrumentlari orqali ularning iqtisodiy faollik darajasini oshirishga erishilmoqda. Chunki kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligini belgilovchi omillarga korxona to‘laydigan soliqlar va yig‘imlarning ta’sir doirasi yuqoridir.

Bundan tashqari, soliqqa tortish tizimida mazkur subyektlar zimmasidagi soliq yukining optimal darajasini aniqlash masalasi dolzarb muammolardan bo‘lib, soliqlar orqali davlat ular faoliyatini cheklashi yoki maqsadli tarzda rag‘batlantirishi mumkin. Davlat mazkur subyektlar faoliyatiga investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish hamda jamg‘armalarni kengaytirishda soliq dastagidan unumli foydalanishi kelgusida iqtisodiy o‘sishni ta’minlash omili ekanligi, soliq stavkalarining pasaytirilishi, iqtisodiyotda yalpi taklifga ijobiy ta’sir etib, aholi va tadbirkorlar daromadlarining ko‘payishiga, natijada esa jamg‘armalarning oshishiga

hamda kapitalning jamlanishiga, aksincha, soliq stavkalarining me’yordan oshishi iqtisodiyotda mehnat va iqtisodiy faollikning pasayishiga, jamg‘armalarning iqtisodiyotdan chetlanishiga, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi[34].

Iqtisodiyotda optimal soliq yuki darajasini amalda ushlab turish orqali soliq to‘lovchilarning iqtisodiy faolligini oshirishga, ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishga, bu orqali esa mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga erishish mumkin. Soliq imtiyozlaridan foydalangan holda, kichik korxona o‘z faoliyatini kengaytirishga, ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga hamda oxir-oqibat o‘zining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini ko‘tarishga erishmas ekan, taqdim etilgan soliq imtiyozlari faqatgina ular sonini ko‘paytirishga xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun kichik tadbirkorlik subyektlariga nisbatan amalda bo‘lgan soliq imtiyozlarining soni, hajmidan tashqari, ularning mazkur subyektlar faoliyati davomidagi samaradorlik ko‘rsatkichini ham tahlil qilib borish zarur.

Imtiyozlarning individual tartibda berilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ularni maqbullashtirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish lozimdir.

Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashayotgan sharoitda mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur’atlarda o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadigan sohalardan yana biri – bu xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, xalqaro moliya bozori institutlari bilan aloqalarni kengaytirishni talab etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat raqobatbardoshlikni boshqarmaydi, balki tartibga solishning turli usul va vositalari yordamida unga ta’sir ko‘rsatadi. Bular qatoriga turli qonunlar, qonuniy hujjatlar, hukumat qarorlari va iqtisodiy dastaklarni kiritish mumkin.

Davlatning vazifasi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

[34] Sanaqulova B.R. Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o’sishni ta’minlash. Monografiya.TMI-T.: “Iqtisod-moliya”. 2014.

Raqobatbardoshlikni boshqarish esa bevosita ishlab chiqaruvchilar darajasida amalga oshiriladi. Ayni paytda, ishlab chiqaruvchilar tegishli huquqlarga, tadbirkorlik tashabbuskorligiga, kadrlarga ega bo‘lishlari kerak. M.Porterning fikricha, davlat raqobatbardoshlikning o‘ziga xos katalizatori rolini o‘ynashi lozim. Lekin, shu o‘rinda davlat siyosatining ustuvorlik-larini aniq belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislarning fikricha, raqobatni va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hukumat chora-tadbirlari majmuasiga quyidagilar kirishi kerak:

- infratuzilma, malakali ishchi kuchi, ilmiy-konstruktorlik ishlanmalarini yaratish;
- samarali soliq va pul siyosatini o‘tkazish, energiyatashuvchilar bozorini tartibga solish;
- talabni, ichki raqobat va innovatsiyalarni rag‘batlantirish;
- bozordan sifatsiz mahsulotlarni siqib chiqarish uchun texnik va texnologik standartlarning aniq tizimini yaratish;
- xaridorlarga to‘liq va sifatli axborotlarni yetkazish;
- qoloq hududlarni rivojlanishini rag‘batlantiruvchi mintaqaviy siyosatni amalga oshirish;
- eksportni rag‘batlantirish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

Iqtisodiyotda monopollashuv tamoyillari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o‘z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya’ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va tabiatiga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo‘lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi.

Shu o‘rinda yetarli darajada mukammal bozor iqtisodiyoti shakllantirilgan davlatlarning raqobatni qo‘llab-quvvatlash va mamlakat raqobatbardoshligini

ta’minlash borasida to‘plagan tajribalari to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tish joizdir. Rivojlangan davlatlarda shakllantirilgan mustahkam qonuniy asoslar, me’yoriy-uslubiy va resurslar bazasi, turli obyektlarning raqobatbardoshligini ta’minlash bilan shug‘ullanuvchi tegishli davlat va jamoat tashkilotlarining mavjudligi va ularning samarali ishlashi ularda raqobatni qo‘llab-quvvatlash va mamlakat raqobatbardosh-ligini yuqori darajada saqlab turish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ko‘pchilik rivojlangan davlatlarning hukumatlari raqobatni qo‘llab-quvvatlash, raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar. Buning uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani rivojlantiradilar va uni takomillashtiradilar.

Shu o‘rinda ikkinchi jahon urushida vayron bo‘lgan iqtisodiyotni 15 yil ichida tiklab, 25 yil davomida rivojlangan mamlakatlar qatoridan eng yuqori o‘rin olishga erishgan Yaponiyaning mamlakatda raqobat muhitini shakllantirish borasidagi tajribasi e’tiborga loyiq. Urushdan so‘ng bu mamlakat oldida turgan birinchi o‘rindagi vazifa vayron bo‘lgan sanoat ishlab chiqarishini tiklab olish bo‘ldi. Bu vazifani amalga oshirish uchun Yaponiya hukumati davlat tomonidan iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish muammosini hal etishga bo‘lgan turli yondashuvlarni o‘rganib chiqdi va eng asosiy e’tiborni sanoat siyosatiga qaratdi. Mana shu siyosatning amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi raqobat muhitini shakllanishi uchun zamin yaratdi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishni ta’min-ladi. Bu esa, hozirda ham global bozorlarda ushbu mamlakatning raqobat mavqeining saqlanib qolishiga imkoniyat yaratmoqda.

Samarali va ilmiy jihatdan puxta asoslangan sanoat siyosati Yaponiya iqtisodiyotining tez sur’atlar bilan o‘sishini ta’minladi.

1960-yillarning oxiriga kelib, Yaponiya ichki bozorining barcha zarur tovarlar bilan to‘yintirilganligi yapon kompaniyalarini eksport strategiya-sini rivojlantirishga undadi. Ichki bozorda tovarlari yetarli bo‘lgan har bir tarmoqda eksport salohiyati orta bordi. Bu esa o‘z navbatida tashqi bozorlarda sotish kanallari tarmog‘ini tashkil etish va rivojlantirishni taqozo etdi. Ayni paytda, yuqorida ta’kidlangan o‘zgarishlar ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish,

mahsulot tannarxini pasaytirish, sifatini yaxshilash va assortimentini kengaytirish bilan birgalikda amalga oshirildi. Shu bilan birga investitsiya jarayonlariga davlatning aralashuvi kamayib bordi. Xususiy sektor mamlakatda va undan tashqarida kapital qo‘yish va tijorat faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlarini mustaqil ravishda belgilay boshladi. Hukumat esa o‘z faoliyatini raqobat muhitini rivojlantirishga va raqobatni qo‘llab-quvvatlashga qarata boshladi. Davlat kichik va o‘rta biznesni yirik monopoliyalar tazyiqidan himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirdi.

Mamlakatdagi o‘zgarishlar aholi daromadlarini oshishiga olib keldi. Bundan tashqari aholining ma’lumot darajasini oshganligi, farovon yashashga intilish iste’mol talabini kengayishiga va oshishiga turtki bo‘ldi. Buning natijasida xaridor uchun kurash, ichki raqobat kuchaydi va yangi-yangi tovarlar ishlab chiqarila boshlandi. Natijada yapon kompaniyalarining daromadlari oshdi va bu o‘z navbatida ishlab chiqarishni kengaytirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Raqobat muhitini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash hamda soliq imtiyozlari berish yo‘li bilan xususiy sektor tomonidan ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari uchun investitsiyalar yo‘naltiri-lishini rag‘batlantirilganligi Yaponiya sanoat siyosatining ustuvor vazifasi bo‘lib kelmoqda.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko‘rinadiki, Yaponiyada raqobatni qo‘llab-quvvatlash va raqobat muhitini shakllantirishda asosan sanoat siyosatini amalga oshirishga va shu orqali mamlakat iqtisodiyoti tarkibini takomillashtirishga alohida urg‘u berilgan. Ayni paytda, mamlakatda iqtisodiyotga davlat aralashuvi ma’muriy nazoratga emas, balki iqtisodiy dastaklarga asoslangan bo‘lib, bu erkin raqobat uchun keng maydon shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Mana shunday tajribalarni o‘rganish hamda ulardan respublikaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish, mamlakatimizda raqobat muhitini yanada kengaytirish uchun imkonini beradi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojining bugungi bosqichida «monopolizm ko‘rinishlariga qarshi kurash va amalda raqobat muhitini shakllantirish» masalalari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularni hal etish mamlakatda ishlab chiqarish

hajmlarini o‘sishiga, mahsulot sifati va raqobatbardoshligining ortishiga, narxlarni pasayishiga zamin yaratadi.

5.2. Iqtisodiyotning real sektorida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi

Jahonda integratsiya va globallashuv jarayonlarini chuqurlashib borishi milliy iqtisodiyot oldida bir qator yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Milliy iqtisodiyotning dunyo bozorida o‘z o‘rnini topishi, ya’ni ma’lum “darchani” egallashi uchun uning raqobatdoshlik darajasi doimiy ravishda o‘sib borishi lozim. Ushbu maqsadlarga erishish uchun milliy iqtisodiyotni barcha sohalarida texnik va texnologik yangilanish amalga oshirilishi kerak. Bu borada fan va texnika yutuqlari, ishlab chiqarishni boshqaruvning (menejment) yangi usullarini doimiy ravishda joriy etish orqaligina erishish mumkin. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keyingi yillarda fan va texnika yutuqlarini va ishlab chiqarish boshqaruvini yangi usullarini joriy etish bilan birga. inson kapitali rivojiga juda katta e’tibor berilmoqda. Informatsion texnologiya, robotlar, bio-, nanotexnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga keng joriy etilishi munosabati bilan mehnat resurslarining kasbiy malakasini oshirish katta ahamiyat kasb etib, ularning sifati mamlakat iqtisodiyot raqobatdoshligini va barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Mamlakat iqtisodiyotining jahon xo‘jaligidagi o‘rnini real sektorning rivojlanish darajasi va raqobatdoshligi belgilaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotning real sektoriga turlicha ta’rif berilgan bo‘lib, ulardan ba’zi birlarini keltirib o‘tamiz:

1. Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiy va qonuniy belgilanmagan iqtisodiy atama hisoblanadi va ma’lum hududdagi faoliyati mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan kichik, o‘rta va yirik (industrial) korxonalarni birlashtiradigan iqtisodiyot sohasidir.

2. Iqtisodiyotning real sektori – bu iqtisodiyotning yirik tarkibiy qismi bo‘lib, u turli ishlab chiqarish sohalarini o‘xshash tavsiflar. iqtisodiy maqsadlar, funksiyalari orqali birlashtiradi va nazariy hamda amaliy jihatdan iqtisodiyotning boshqa qismlaridan farq qiladi.

3. Iqtisodiyotning real sektori – bu iqtisodiyotni material-buyum mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, nomoddiy boylikni yaratuvchi va xizmat ko‘rsatish sohalarini o‘z ichiga oladigan soha.

4. Iqtisodiyotning real sektori kapitalni spekulyativ harakatini istisno qilgan holda iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurish va iqtisodiy o‘sish jarayonlarini birlashtiradigan soha.

5. Iqtisodiyotning real sektori – bu iqtisodiyotning muhim sektori bo‘lib, to‘g‘ridan to‘g‘ri mahsulot ishlab chiqarish, daromad olish va byudjet daromadlari tushumini ta’minlaydi.

6. Iqtisodiyotning real sektori – tijoratga asoslangan seriyali va yirik miqdorda mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchi. jumladan, bino va inshootlarni qurish, aloqa, telekommunikatsiya, transport xizmatini amalga oshiruvchi kichik. o‘rta va yirik korxonalar yig‘indisidir.

Iqtisodiyotning real sektorida xavfsizlikni ta’minlash mamlakat milliy xavfsizligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki barqarorlik va taraqqiyot aynan real ishlab chiqarish, samarali faoliyatni ta’minlash, aholi bandligi, uning ehtiyojlarini to‘liq qondirish bilan bevosita bog‘liqdir. Iqtisodiyot real sektorining iqtisodiy xavfsizligi energetika, oziq-ovqat va axborot sohalarida xavfsizlikni ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir.

Real sektorining eng yirik, yetakchi tarmog‘i – sanoat tarmog‘i hisoblanadi. Unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste’mol tovarlarining ko‘pchilik qismi yaratiladi; mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv unsurlari ishlab chiqariladi; yer osti boyliklari qazib olish amalga oshiriladi; mineral, o‘simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi, keng iste’mol mollari tayyorlanadi va h.k.lar.

Sanoat tarmog‘i iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta’minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog‘liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog‘liq. Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va

samaradorligi qanchalik yuqori bo‘lsa, davlatning mavqei shunchalik kuchli bo‘ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi. Sanoat tarmog‘ining rivoji tufayli unda band bo‘lgan xodimlarning soni ko‘payadi, ularning bilimi va mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko‘tariladi.



5.1-rasm. Iqtisodiyot real sektorining iqtisodiy xavfsizligi [35]

Faqat yirik mashina industriyasigina fan va texnika hamda innovatsiyaning barcha yutuqlarini mujassamlashtirib, mehnatni texnika bilan qurollantirib mehnat unumdorligini yuqori darajaga ko‘tara oladi. Sanoat va ayniqsa, uning eng muhim sohasi bo‘lgan og‘ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U moddiy-texnika vositalarini o‘zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy-ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib ham boradi.

Sanoat uchun fan-texnikaning uzluksiz taraqqiyoti va ishlab chiqarishning yutuqlari bilan qurollanishi darajasining o‘sishi xosdir. Unda elektrlashtirish, kompyuterlashtirish va kimyolashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish

[35] Экономическая безопасность: учебное пособие/ М.В. Кунцман. – М.: МАДИ, 2016. – 152 с

texnik va texnologik jihatdan qayta qurish sohasidagi ilg‘or yutuqlardan keng foydalaniladi.

5.1-jadval

Real sektor iqtisodiy xavfsizligining uslubiy jihatlari

Real sektor iqtisodiy xavfsizligining uslubiy jihatlari	Uslubiyotning asosiy tushunchalari. Maqsad va vazifalar. Maqsadlarga erishishning mexanizm va vositalari
Muammoni hal etishning asosiy usullari	Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash strategiyasi modelini shakllantirish. Xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etish usullarini tizimlashtirish
Iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan real sektorning holati	Real sektor tarmoqlarining holatli-tizimli tahlili. Yaxlit holda real sektor rivojlanishi dinamikasini ekpertli -tahliliy baholash
Indikatorlar -xavfsizlikning chegaraviy ko‘rsatkichlarini tanlab olish	Umumiy tasniflash. Asosiy ko‘rsatkichlarni tanlab olish. Ko‘rsatkichlarni uslubiy jihatdan hisob -kitob qilish
Tizimni davlat tomonidan boshqarish	Davlatning o‘rnini asoslash. Mazkur yo‘nalishda davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan vazifalarning ko‘lamlarini aniqlashtirish. Huquqiy ta’minot.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog‘i, iqtisodiyotning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir bo‘lgan yirik mashinalashgan sanoatgina iqtisodiy mustaqillikning birdan-bir moddiy negizi bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning asosida albatta tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatdoshligini oshirish masalasi turadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyot uchun rivojlangan sanoat tarmog‘i katta ahamiyatga ega. Sanoat ishlab chiqarishining o‘sish sur’atlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, iqtisodiyotda o‘sish shunchalik yuqori bo‘ladi, mamlakat xilma xil va murakkab sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga qodir bo‘lsa, uning farovonlik darajasi va mamlakat iqtisodiyotining istiqboldagi rivojlanishi shunchalik yuqori bo‘ladi. Agarda rivojlangan mamlakatlarda sanoat tarmog‘i innovatsiyalarning joriy etilishini, mehnat unumdorligi va diversifikatsiyalangan eksportni oshishini ta’minlab bersa,

rivojlanayotgan mamlakatlarda – turmush darajasining oshishiga yo‘l ochib berilishini ta’minlaydi. Zero, nemis sanoatchisi Xans Volfgang Zinger aytganidek: “Iqtisodiy jihatdan zaif davlat sanoat ishlab chiqarishi yo‘qligi uchun ham qashshoqdir va u ayni vaqtda qashshoq bo‘lganligi sababli ham sanoat ishlab chiqarishi yo‘q”.

Sanoat ishlab chiqarishiga robotlarni joriy qilish har qachongidan ham arzon tushayotgan bir paytda, yirik sanoat ishlab chiqaruvchilari o‘z ishlab chiqarishlarini milliy chegaralarga ko‘chirishga shunchalik katta ishtiyoq bilan yondashadilar. Bu yerda mantiq juda ham oddiy. Aytaylik, AQSh yoki Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida joylashgan kompaniya o‘zbekistonlik ishchiga nisbatan o‘z mamlakati fuqarolariga yetarlicha katta haq to‘lashi talab etiladi. Lekin robot tibbiy sug‘urta, kasallik varaqasi u yoqda tursin, ish haqini ham talab qilmaydi.

Sanoat robotlariga investitsiya kiritish bu aslida yangilik emas. Robotlar joriy etish bo‘yicha jahonda yetakchi bo‘lgan Germaniyada 2017-yilda qayta ishlab chiqarish sanoatida 10000 ishchiga to‘g‘ri keluvchi robotlar soni 322 tani tashkil etgani holda, Janubiy Koreyada 10000 nafar ishchiga 710 ta, Singapurda esa 10000 nafar ishchiga to‘g‘ri keluvchi robotlar soni 658 ta, Amerika Qo‘shma Shtatlarida esa bu ko‘rsatkich 10000/200ni tashkil qiladi. 2008 yilda boshlangan inqiroz davridayoq, Germaniya kabi davlatlar ishlab chiqarishda ishchi kuchi xarajatlarini eng past darajaga tushurish imkonini beruvchi yetarlicha miqdordagi robotlarga ega edilar. Iqtisodiyoti taraqqiy etgan boshqa davlatlar esa robotlarni sanoatga joriy qilishni jadallashtirgan holda, xorijda joylashtirilgan ishlab chiqarishlarni o‘z hudud-lariga qaytarishga harakat qildilar. Bugungi kunda ham xuddi shu vaziyat takrorlanmoqda.

Bugungi kunda markaziy banklar foiz stavkalarini pasaytirib bormoqdalar. Dunyo mamlakatlarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mazkur holat sanoatni robotlashtirishning 75,7%ga o‘sishiga olib kelishi mumkin. Lekin robotlashtirish haddan ziyod jadallashadi deb, ayta olmaymiz, chunki bugungi kunda tobora o‘sib borayotgan noaniqlik investitsiyalar oqimining ham cheklanishiga olib keladi.

Ushbu tendensiya global qo‘shilgan qiymat zanjirlari katta ta’sir ko‘rsatadigan iqtisodiyot sektorlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan Germaniyada bunday sektorlarga o‘z ishlab chiqarishida foydalaniluvchi resurslarning 12 foizini ishchi kuchi arzon bo‘lgan mamlakatlardan import qiluvchi avtomobilsozlik va transport asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, elektronika va to‘qimachilik sanoati kiradi. Umuman olganda, nemis iqtisodiyoti ishlab chiqarishda foydalaniluvchi resurslarning 6,5 foizini import qiladi.

Kimyo sanoati, metallga ishlov berish, elektr jihozlar ishlab chiqarish va elektronika sanoati vakillari bugungi kunda o‘z ishlab chiqarishlarini jadallik bilan “uy”ga qaytarishga harakat qilmoqdalar. Xususan, AQSh, Frantsiya, Italiya, Germaniya kimyo sanoati ishlab chiqarishlarini o‘z hudud-lariga qaytarishga katta ahamiyat qaratishmoqda.

Bunday jarayonlarning davom etishi o‘tish iqtisodiyotida bo‘lgan, asosan oraliq mahsulotlarni eksport qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyoti va sanoati uchun katta xavf tug‘diradi.

Hozirda dunyo mamlakatlari o‘z ishlab chiqarishlarini protektsionistik choralar bilan qo‘llab-quvvatlashga harakat qilmoqdalarki, bu holat taraqqiy etgan mamlakatlarning sanoat ishlab chiqarishni yangidan qayta tashkil etishga bo‘lgan urinishlarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shu bois, dunyoda tarkib topgan vaziyatdan kelib chiqqan holda, mamlakatlar sanoat borasidagi siyosatlarini amalga oshirishlari talab etiladi.

Koronavirus pandemiyasi oqibatida kelib chiqqan global iqtisodiy inqiroz sharoitida dunyo mamlakatlari tomonidan amalga oshirilayotgan sanoat siyosatini tahlil qilish asosida quyidagi birlamchi xulosalarga kelishimiz mumkin bo‘ladi:

1. global qo‘shilgan qiymat zanjirlaridagi uzilishlar tufayli mamlakatlar o‘rtasidagi eksport va import aloqalarining cheklanishi;
2. protektsionistik chora-tadbirlarning kuchayishi;
3. sanoat ishlab chiqarishini mahalliylashtirishga alohida e’tibor qaratilishi;

4. yirik sanoat ishlab chiqaruvchilari tomonidan xorijda joylashgan ishlab chiqarishlarni o‘z “uy”lariga qaytarishga intilish;

5. sanoatni robotlashtirish va raqamli texnologiyalarni izchil joriy qilish;

6. noaniqlik indeksining o‘sib borishi sharoitida sanoat ishlab chiqarishiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar oqimining kamayishi;

7. ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo‘naltirilayotgan mablag‘lar ulushining ko‘payishi, innovatsiyalarni har tomonlama rag‘batlantirishning kuchayishi;

8. bozorning yirik ishtirokchilari opportunistik xulq-atvor ko‘rinishlarini namoyon qilishlari va shu kabilar.

Istiqbolda sanoatni rivojlantirishning asosiy maqsadi ilg‘or sanoat texnologiyalarini joriy etish uchun butun jahon texnologik muhitiga integratsiyalashish orqali sanoat ishlab chiqarishining barqarorligi va tuzilmaviy jihatdan muvozanatlashganligini ta’minlash asnosida sanoat ishlab chiqarishining jahon xo‘jaligida raqobatbardoshligiga erishishdan iboratdir.

Aytish lozimki, mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, bugungi kunda mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish darajasi talab darajasida emas.

Innovatsion jihatdan rivojlangan davlatlarda korrupsiyani nazorat qilish indeksi 80 dan yuqori bo‘lgani holda, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 21 ni tashkil etadi. Yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportida ham katta farqlanishlar mavjud. Xususan, O‘zbekistonda yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportining sanoat mahsulotlari umumiy eksportidagi ulushi 4 foiz atrofida bo‘lgani holda, bu ko‘rsatkich innovatsion jihatdan yetakchi davlatlarda o‘rtacha 23-24 foizni tashkil etadi.

2024 yil uchun eksport va import tarkibini tahlil qilish ham quvonarli natijalarni bermaydi. Xususan, 2024 yilda mamlakatimiz eksportining asosiy qismi rangli metallar (28,5%), uglevodorodlar (14,1%) rangli metallar (5,3%) hissasiga to‘g‘ri kelgani holda, import tarkibida mashina va asbob-uskunalarning ulushi (39,4%) tobora ortib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda

sanoatning 69 foizi asosan xomashyo yoki birlamchi qayta ishlashga to‘g‘ri kelmoqda. Mashina va asbob-uskunalarning importini bir tomondan ijobiy baholash mumkin bo‘lgani holda, masalaning ikkinchi tomonini e’tiborga olish lozim. Bunday holatning muttasil o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lishi, uzoq muddatli davrda mamlakatning “iqtisodiy qotillik” qurboniga aylanishiga zamin yaratib beradi. Shu sababli ham mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni barcha chora-tadbirlar bilan qo‘llab-quvvatlash dolzarb vazifaga aylanmog‘i zarur.

Quyidagilar sanoatni rivojlantirishning ustivorliklari hisoblanadi: sanoat korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirish va ularning tashkiliy shakllarini takomillashtirish; ishlab chiqarishni texnologik jihatdan yangilash va modernizatsiyalash jarayonlarini chuqurlashtirish; mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va energiya sig‘imini pasaytirish hisobiga mahsulot tannarxini kamaytirish; raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiya unsurlarini izchil joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish va uning dunyo andozalariga mosligini ta’minlash; ichki infratuzilmaviy cheklovlarni olib tashlash; ijtimoiy muammolarni hal etish; maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyatini takomillashtirish.

Sanoatni rivojlantirish borasida bugungi kungacha erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda o‘rta muddatli istiqbolda sanoatni rivojlantirish ma’lum bir muammolarning saqlanib qolayotganligi bilan izohlanadi.

Ayni paytda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi bir qator omillar va muammolar mavjud:

Asosiy fondlar eskirish darajasining yuqoriligi, xomashyo resurslar narxining qimmatligi, ayrim holatlarda esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ichki va tashqi talab darajasini pastligi natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ayrim turlari bo‘yicha ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining pastligi kuzatilmoqda. Xususan, so‘nggi bir necha yillar davomida aksariyat mahsulotlar bo‘yicha ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish 50 %dan past ko‘rsatkichni, alohida tovar pozitsiyalari bo‘yicha esa-undan ham pastroq darajani

tashkil etmoqda.

Xomashyo resurslarini qayta ishlash darajasining pastligi. Mamlakatimizda qazib olinayotgan misning atigi 25 %i qayta ishlanadi, ruxning 80%, molibdenning 99%, pillaning 88%, xom terining 60%i qayta ishlov berilmasdan eksport qilinadi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida ham mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish darajasi talab darajasida emas.

Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish borasida innovatsiyalardan yetarlicha foydalanilmayotganligi. So‘nggi uch yil davomida ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilgan innovatsion mahsulotlarning ulushi realizatsiya qilingan umumiy sanoat mahsulotlari tarkibida 10 foizni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

2017-2024 yillarda sanoatning o‘sishi ishlab chiqarish tuzilmalariga ta’sir ko‘rsatadigan keng ko‘lamli islohotlar tufayli yuzaga keldi. Sanoat ishlab chiqarishining o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 6,2 foizni tashkil etdi va yetti yil ichida umumiy o‘sish 1,5 barobardan ortiqni tashkil etdi. Bu sanoatning iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri sifatidagi rolini kuchaytirdi, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2017 yildagi 22,2 foizdan 2024 yilda 26,4 foizgacha oshdi.

Asosiy yutuqlardan biri ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga e’tibor qaratgan holda resurslarga yo‘naltirilgan iqtisodiyotdan ko‘proq diversifikatsiyalangan sanoat tuzilmasiga o‘tish bo‘ldi. Qayta ishlash sanoatida ishlab chiqarish hajmi 2017 yilga nisbatan 1,6 barobarga o‘sdi va uning umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85 foizdan oshdi, bu Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir.

Sanoat siyosati qayta ishlovchi tarmoqlarning rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu tarmoqning yangi yetakchilari paydo bo‘lishiga olib keldi. Avtomobilsozlik va elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarish 2,9 barobar, to‘qimachilik va tikuvchilikda 2 barobar, oziq-ovqat sanoatida 1,5 barobar oshdi. Metallurgiyada xomashyoni chuqur qayta

ishlashga o‘tish hisobiga 1,5 barobar, qurilish materiallari tarmog‘ida 1,7 barobar o‘sishga erishildi.

IMRI, shuningdek, sanoat mahsulotlari eksporti diversifikatsiyasi indeksini (DI) ishlab chiqdi, u Xerfindal-Xirshman indeksining (HHI) teskari qiymati sifatida hisoblanadi: DI = 10 000 – HHI. DI darajalari quyidagicha talqin qilinadi: 8000-10000 – yuqori (optimal) diversifikatsiya; 5000-7999 – o‘rtacha; 2000-4999 – past; 2000 dan past – juda past.

So‘nggi yillarda yetakchi tarmoqlarda DI indeksi optimal qiymatlarga erishdi:

To‘qimachilik va tikuvchilik – 8 149,5 (+571,5);

Kimyoviy moddalar – 8 245,2 (+1 044,8);

Metallurgiya – 8657,6 (+443,3), ishlov berilgan mis mahsulotlari, shu jumladan sim va quvurlar eksportini oshirish hisobiga;

Avtomobil sanoati – 6335 (+4420,2), modellar qatorini kengaytirish hisobiga;

Elektrotexnika – 8922,4 (+589,8), murakkab va yuqori texnologiyali mahsulotlar hajmining o‘sishi hisobiga.

Sanoat tarkibi va eksport bazasi yanada diversifikatsiya qilingani tufayli O‘zbekiston jahon iqtisodiy murakkablik indeksidagi o‘rnini yaxshilab, 145 mamlakat orasida 80-o‘rinni egalladi.

O‘rta va uzoq muddatli istiqbolda sanoat siyosati texnologik jihatdan ilg‘or mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish orqali barqaror ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish va muvozanatli eksport savatini shakllantirishga qaratiladi. Bu maqsadlar “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga hamohang bo‘lib, eksport hajmini ikki barobar oshirish, texnologik sanoat mahsulotlari ulushini 32 foizga yetkazish, mahalliy sanoatning global raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

Ko‘pchilik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda sifatni ta’minlash muammosi. Bu eng avvalo, aksariyat mahsulot turlari bo‘yicha sifatni ta’minlash borasida qat’iy talablar va milliy sifat andozalarining mavjud emasligi bilan

izohlanadi. Respublikamiz hududida ishlab chiqarilayotgan tovarlarning aksariyat qismi korxonalarning o‘zlari tomonidan ishlab chiqilgan texnik shartlar va talablar asosida ishlab chiqariladi. Texnik shartlarning me’yorlari har doim ham barcha texnologik jarayonlarga rioya qilish va mahsulot sifatining yuqori darajada bo‘lishini kafolatlamaydi. Mahalliy sanoat tovarlarining jahon bozorlari tomonidan qo‘yiluvchi sifat talablariga javob bera olmasligi mahalliy tovarlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgani holda, ularning eksport imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelmoqda.

Amalda sanoatning barcha tarmoqlarida tayyor mahsulot sifatini baholash, marketing sxemalarini ishlab chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksportni yo‘lga qo‘yish sohalarida malakali mutaxassislarning tanqisligi kuzatilmoqda, mazkur muammo yuqori malakali ishchi kadrlarning yetishmasligi bilan yanada chigallashadi.

Baholashlarga ko‘ra, samarali bandlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi qayta ishlash sanoati, industrial kichik biznes, yuqori texnologiyali xizmat turlari va infratuzilma tarmoqlarini jadal rivojlantirish, resurs tejamkorlik yo‘nalishida iqtisodiy siyosat ustivorliklarini o‘zgartirish va islohotlarni jadallashtirish sharoitida qisqa muddatli istiqbolda sanoatni rivojlantirish barqaror o‘sish sur’atlari bilan tavsiflanadi.

Istiqbolda sanoat rivojlanishining prognoz ko‘rsatkichlariga erishish uchun quyidagi ustuvor strategik yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish zarur:

Sanoat korxonalarini boshqarishning tashkiliy shakllarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish. Bu yo‘nalishda ayrim davlat korxonalarini asta-sekin xususiy investorlarga, shuningdek davlat korxonalarining ayrim funktsiyalarini xususiy operatorlarga o‘tkazib borish orqali davlat korxonalarini institutsional o‘zgartirish va isloh qilishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish talab etiladi. Sanoat korxona va tashkilotlarining yirik tuzilmalarini klaster tipidagi xo‘jalik jamiyatlariga (xoldinglar, qo‘shma korxonalar, boshqa sanoat va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari) aylantirish muhim yo‘nalish hisoblanadi. Korporativ

boshqaruv va strategik rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish ham alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarish obyektlarini modernizatsiyalash va texnologik yangilash jarayonlarini chuqurlashtirish. Shu munosabat bilan sanoat korxonalarining muntazam texnik va texnologik auditlarini o‘tkazish hamda uskunalar parkini kengaytirish va yangilash uchun resurs, investitsiya va boshqa imkoniyatlarni izlab topish zarur. Bu muammoning yechimlaridan biri mashina va uskunalarni uzoq muddatli ijaraga berishni ko‘zda tutuvchi lizing munosabatlarini joriy etishni kengaytirish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarishning energiya sig‘imi mahsulot tannarxini pasaytirish. Sanoatning energiya va resurs sig‘imi-ning yuqori ekanligini hisobga olib, energiya va resurs tejamkor ilg‘or texnologiyalarni, xalqaro sifat standartlari va texnik qoidalarini izchil amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli iqtisodiyot unsurlarini izchil joriy etish. Shu munosabat bilan raqamli texnologiyalar va sanoat ishlab chiqarish korxonalarining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash asnosida Janubiy Koreya va shu kabi mamlakatlarning tajribasidan kelib chiqqan holda “aqlli sanoat korxonasi”ni yaratish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘rta muddatli istiqbolda avtomobilsozlik, elektronika va farmatsevtika kabi tarmoqlarda “aqlli zavodlar” yaratish, shu maqsadda tajriba almashish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha pilot loyihalarni amalga oshirish orqali mazkur yo‘nalishdagi ishlarni amalga oshirishimiz mumkin.

Mahsulot sifatini yaxshilash va ularning xalqaro standartlarga mosligini ta’minlash. Bu yo‘nalishda sanoat tovarlarini standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish zarur. Shu munosabat bilan xalqaro sifat standartlari bilan maksimal unifikatsiyalashni hisobga olgan holda sanoat mahsulotlarining ko‘pchilik turlari uchun yagona milliy davlat standartlari tizimini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, bu yo‘nalishda sanoat korxonalarida texnik nazorat bo‘limlarini tashkil etishni qonunan tartibga solish zarur.

Ichki infratuzilmaviy cheklovlarni olib tashlash muhim ahamiyatga ega. Respublika sanoatining mavjud salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish uchun

markazlashgan mablag‘larni jalb qilish va davlat-xususiy sherikchiligini yo‘lga qo‘yish orqali ishlab chiqarish infratuzilmasini (elektr va gaz ta’minoti tizimlari, yo‘llar va temir yo‘llar, telekommunikatsiyalar va boshqalarni) rivojlantirish talab etiladi. Mazkur yo‘nalishni sanoatni taraqqiy ettirish borasidagi davlat siyosatining muhim ustuvorliklaridan biri sifatida e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Sanab o‘tilgan yo‘nalishlar doirasida chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sanoat tarkibiy tuzilmasini maqbullashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish birligiga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga sanoatning barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlarini shakllantirishning sifat jihatidan yangi – erkin iqtisodiy tizimni barpo etish jarayonlari ro‘y bermoqda. Bu tartibni amalga oshirishda iqtisodiy ochiqlik, milliy va xorijiy iqtisodiy subyektlarning teng huquqliligiga hamda sog‘lom raqobat muhitiga alohida urg‘u beriladi. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Bilamizki, iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan islohotlarning bosh maqsadi O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lishiga yo‘naltirilgan. Buning uchun esa tashkilot tomonidan belgilab berilgan kontsensus shartlar amalga oshirilishi kerak. Bu talablar orasida ochiq savdo rejimini vujudga keltirish, import tariflari va boshqa savdo cheklovlarining kamaytirishga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur holat o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun, ayniqsa, salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Tarkibiy o‘zgarishlar va yangilanishlarni boshdan kechirayotgan milliy iqtisodiyot tarmoqlari va subyektlarining raqobatbardoshligi ochiq savdo rejimi sharoitida jiddiy xavf ostida qoladi. Shuning uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida davlatning rolini aniq belgilab olish zarurati tug‘iladi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu boradagi davlat siyosati jamiyatning barcha a’zolari tomonidan qabul qilingan va asoslangan strategiyaga tayanishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning globallashuv va jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuv jarayonlariga moslashuvini ko‘zda tutuvchi samarali huquqiy va

qonunchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish borasidagi faol davlat siyosatini amalga oshirish talab etiladi.

Bizningcha, iqtisodiy o‘sishga erishmay turib investitsion faollikni jonlantirishni kutish mumkin emas. Shu bilan birga korxonalarning daromadlari va aholi mablag‘larini faol investitsion manbaga aylantirish ham talab etiladi. Hatto investitsiyalar hajmining oshishi ham normal takror ishlab chiqarish tsiklini shakllantirishdagi muammolar hal etildi, degani emas. Bunga Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari tajribasi ham guvohlik bermoqda. Bunga sabab qilib, qariyb o‘n-o‘n besh yil davomida yetarli investitsion resurslarga ega bo‘lmagan milliy iqtisodiyotdagi salbiy tarkibiy o‘zgarishlarni ko‘rsatish mumkin. Iqtisodiyotning birdan erkin qo‘yib yuborilish, rivojlangan milliy iqtisodiyotlar bilan raqobatga kirishish va investitsion iqlimning yomonlashuvi murakkab texnik va texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zamonaviy tarmoqlarga jiddiy zarba bo‘ldi. Aynan mana shu yerda, yuqori texnologiyalar va zamonaviy sanoat tarmoqlarida G‘arb mamlakatlaridan yaqqol ortda qolish kuzatildi. Ularni modernizatsiyalash va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash uchun yetarli investitsion mablag‘larning yetishasligi tanazzulning asosiy sababi bo‘ldi. Bundan tashqari, fantalab tarmoqlarning asosiy bazasi – ilmiy tadqiqot va ishlanmalar sohasi izdan chiqdi. Hozirgi globallashuv jarayonida sanoatning qator muhim sohalari barqaror va bardavom o‘sish yo‘nalishiga ega bo‘lib bormoqda. Ammo bu o‘zgarishlar to‘la ma’noda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning yetarli garovi bo‘la olmaydi. Umumiy xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida quyidagi ustuvor jihatlarga ahamiyat berish zarur:

Birinchidan, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda davlat va biznesning o‘zaro samarali hamkorligini ta’minlash. Yevropa va Amerikaning yetakchi mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, na davlatning iqtisodiyotdan butunlay chiqib ketishi, na iqtisodiy jarayonlarni to‘laligicha davlat nazoratiga olishi hech qanday ijobiy samara bermaydi. Davlatning iqtisodiy faoliyati bozor mexanizmlarini inkor etmasligi kerak. Davlat biznes bilan yaqin hamkorlik qilishi lozim. Davlat bilan biznesning

manfaatlari mos keluvchi sohalar ko‘p: investitsion va innovatsion faoliyatni jonlashtirish borasida yetarli shart-sharoitlarni yaratish, zaruriy infrastrukturani shakllantirish.

Ikkinchidan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ishlab chiqarishda tarkibiy siljishlarni ta’minlashga, milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida innovatsion jarayonlarni jonlantirishga, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va o‘zlashtirishga imkon beradi.

Uchinchidan, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan yana biri – turli shakldagi korxonalarning innovatsion faoliyatidir. Bu faoliyat samarali bo‘lishi uchun yagona davlat innovatsiya siyosatini shakllantirish, innovatsion sohaning ustuvor rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash, qonunchilik, me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish, korxonalarni yuqori texnologik sohalarga yo‘naltirish va bu uchun yetarli iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlarni barpo etish talab etiladi.

To‘rtinchidan, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlovchi yo‘nalishlardan yana biri – bu texnik potensialning qimmatli unsurlarini saqlab qolishga qaratilgan tarkibiy siyosatni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishdir. Bu siyosat quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi kerak:

- korxonalarning ITTKIga qilgan sarf-xarajatlarini soliqdan ozod etish;

- davlat ko‘magida ITTKI natijalarini tijoratlashuvini ta’minlovchi infratuzilmani barpo etish;

- milliy korxonalarning texnologiyalarni, asbob-uskunalarni (asosiy vositalarni) import qilishga ketgan xarajatlarini subsidiyalash.

Buning uchun davlat quyidagi dastaklardan foydalanishi maqsadga muvofiq: indikativ rejalashtirish; davlat investitsiyasi; bojxona bojlari; ta’lim siyosati; yuqori samarali texnologiyalar; nou-xaularni sotib olishga kvota belgilash va hokazo.

O‘tish iqtisodiyoti mamlakati hisoblanuvchi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda innovatsion yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda korxonalarning daromad (foyda)

solig‘i muntazam ravishda pasaytirilib, bundan bo‘shagan pul mablag‘lari ish haqi fondiga o‘tkazib borilmoqda. Fikrimizcha, ana shu hosil bo‘lgan bo‘sh pul mablag‘larining ma’lum qismini markazlashgan innovatsiya fondiga yo‘naltirish kerak. Yangi shakllanadigan innovatsiya fondi orqali (kredit, ssuda, lizing, subsidiya shaklida) korxonalarning innovatsion yangiliklarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish yoki firmalarning innovatsiya ishlariga ko‘maklashish lozim.

Qisqacha xulosalar

1. Raqobat bozor xo‘jaligining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasida raqobat yangi raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish yo‘li bilan o‘z salohiyati va imkoniyatlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratadi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitlarda esa xalqaro raqobat muammolari birinchi o‘ringa chiqib boradi.

2. Raqobatdoshlik – iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning eng muhim mexanizmi bo‘lib, iqtisodiy xavfsizlik va raqobatdoshlik doimo o‘zaro munosabatda bo‘lib turadi. Iqtisodiy xavfsizlik ham, raqobatdoshlik ham milliy xo‘jalik majmuasi va uning tarkibiy qismlarini tavsiflovchilaridir. Raqobatdoshlik ham maqsad, ham milliy xo‘jalik majmuasi va uning tarkibiy qismlarini rivojlanish darajasini indikatori bo‘lsa, iqtisodiy xavfsizlik uning mavjudligi va rivojlanish sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash, uni diversifikatsiya qilish va raqobatdoshligini oshirish mamlakat iqtisodiyotini uning tahdidlaridan himoya qiluvchi muhim omillardan bo‘lib hisoblanadi.

3. Mamlakat iqtisodiyotida real sektori asosiy o‘rinni egallaydi, Shuning uchun ham ushbu sektorda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mamlakat milliy xavfsizligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiyotning barqarorligi va taraqqiyoti aynan real ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liqdir.

4. O‘zbekistonda real sektor korxonalarini rivojlantirish borasidagi islohotlar mustaqillikning ilk davrlaridan amalga oshirib boshlandi. Iqtisodiyotning o‘zak

tarmoqlarni rivojlantirish respublika iqtisodiy mustaqilligining eng asosiy sharti ekanligidan kelib chiqib, ularni taraqqiy ettirishga alohida e’tibor qaratildi. Amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida respublika va aholi ehtiyojini, birinchi navbatda yoqilg‘i-energetika resurslari, iste’mol va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni ishonchli tarzda qondirishga erishildi. Bu esa mamlakatda energetik va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun asos yaratdi.

Nazorat savollari

1. Raqobatbardoshlik indeksi to‘g‘risida tushuncha bering?
2. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo‘llari nimalardan iborat deb o‘ylaysiz?
3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash to‘g‘risida tushuncha bering?
4. Innovatsion rivojlanish deganda nimani tushunasiz?
5. Iqtisodiyotning real sektorida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash zarurati va uning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

Iqtisodiy jihatdan xavfsiz va mustaqil bo‘lmagan insonning mutloq shaxsiy erkinligi to‘g‘risida gapirish mushkul. Och va ishsiz insonlar – bu diktatura uchun tayyor kadrlardir.

Franklin Ruzvelt.

VI BOB. MAMLAKATDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH – IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH OMILI

6.1. Aholi bandligini ta’minlash va ishsizlik iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikatori sifatida

6.2. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash zaruriyati

Tayanch tushuncha va iboralar: ijtimoiy soha, aholi turmush farovonligi, ishsizlik, ishsizlik turlari, davlatning ijtimoiy siyosati, yoshlar siyosati, iste’mol savatchasi.

Qisqacha sharh

Aholi turmush darajasining barqaror oshib borishi mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik faqat makroiqtisodiy barqarorlik yoki ishlab chiqarish hajmlarining o‘sishi bilan cheklanmay, aholining bandligi, daromadlari, iste’mol imkoniyatlari hamda hayot sifati bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois aholi farovonligini oshirishga qaratilgan siyosat iqtisodiy xavfsizlik tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda bandlik darajasi va ishsizlik ko‘rsatkichlari iqtisodiy xavfsizlikning muhim ijtimoiy indikatorlari sifatida namoyon bo‘ladi. Aholining barqaror ish bilan ta’minlanishi daromad manbalarining uzluksizligini ta’minlab, ijtimoiy keskinlikning oldini oladi hamda ichki iste’mol bozorining rivojlanishiga xizmat qiladi. Aksincha, ishsizlik darajasining ortishi kambag‘allik, norasmiy bandlik va ijtimoiy tengsizlik kabi salbiy holatlarni kuchaytirib, iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soladi. Shu sababli davlat tomonidan faol bandlik siyosatini yuritish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mehnat bozorini modernizatsiya qilish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Aholi turmush darajasini belgilovchi muhim omillardan yana biri oziq-ovqat xavfsizligidir. Oziq-ovqat mahsulotlarining yetarli miqdorda, barqaror va sifatli ta’minlanishi aholi salomatligi, mehnat unumdorligi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Oziq-ovqat xavfsizligi ichki ishlab chiqarish salohiyati, qishloq xo‘jaligi samaradorligi, logistika infratuzilmasi va narxlar barqarorligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida tashqi bozorlar kon’yunkturasining o‘zgarishi, iqlim omillari va geosiyosiy xatarlar oziq-ovqat ta’minotiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois milliy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, importga qaramlikni

kamaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va strategik zaxiralarni shakllantirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishiga aylanmoqda.

Mazkur bobda aholi bandligini ta’minlash va ishsizlik darajasining iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va uni mustahkamlash yo‘llari tizimli ravishda yoritiladi. Bob materiallari aholi turmush darajasini oshirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda aholi daromadlari

O‘zbekiston Respublikasida uy xo‘jaliklari daromadlarining shakllanish manbalari yillar davomida sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Asosiy daromad manbai mehnat faoliyatidan olingan tushumlar (ish haqi va tadbirkorlik daromadlari) bo‘lib, ulushi 2010-yillarning boshida juda yuqori edi. Masalan, 2010-yilda uy xo‘jaliklari umumiy daromadlarining 71,6% mehnat faoliyatidan olingan daromadlar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, transfertlar (pensiya, nafaqa, pul o‘tkazmalari va h.k.) ulushi 24,3% ni, qolgan qismi mol-mulkdan daromadlar va shaxsiy iste’mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar ulushiga (jami 4%) to‘g‘ri kelgan. Keyingi yillarda mehnat daromadlarining nisbiy ulushi pasayib, transfertlar ulushi oshdi. 2017-yilga kelib mehnat faoliyatidan daromadlar ulushi 68,5% gacha tushdi, transfertlar ulushi esa 25,2% ga yetdi; shuningdek, mol-mulkdan va o‘zi ishlab chiqarib iste’mol qilingan xizmatlardan olinadigan daromadlar ulushi jami 6,3% ni tashkil etdi. Bu o‘zgarishlar, bir tomondan, rasmiy ish o‘rinlari va bandlikning ko‘payishi ta’sirida mehnat daromadlari oshgani holda, ikkinchi tomondan, pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorining oshishi hamda mehnat migratsiyasidan keladigan pul o‘tkazmalari (remittanslar) hajmining o‘sishi bilan izohlanadi. Darhaqiqat, hukumat tomonidan yangi ish o‘rinlari yaratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida mehnat daromadlarining ulushi oshib borayotgani 2010–2016-yillarda kuzatildi. Biroq 2017-yilda iqtisodiyotda ro‘y bergan o‘zgarishlar (valyuta kursining liberallashtirilishi va boshqalar) oqibatida mehnat daromadlari ulushi biroz pasaydi va transfertlar hissasi ortdi.

Uy xo‘jaliklari daromadlarining manbalari tarkibini yanada batafsil ko‘rib chiqilganda, mehnat daromadlarining o‘zini ham ikki asosiy qismga ajratish mumkin: yollanma mehnat (ish haqi) va mustaqil mehnat (tadbirkorlik) daromadlari. Rasmiy statistikada bu ikkalasi umumiy “mehnat faoliyatidan daromadlar” sifatida beriladi. Mustaqil tadbirkorlik va kichik biznesdan olingan daromadlar O‘zbekiston aholi daromadlarida muhim o‘rin tutadi – 2017-yilda ular ulushi 55,7% ga yetdi. Bu ko‘rsatkich 2010-yilda 52% atrofida bo‘lib, o‘tgan davrda kichik biznesning rolini oshirishga qaratilgan islohotlar tufayli sezilarli ravishda yuqoriladi. Demak, uy xo‘jaliklari mehnat daromadlarining taxminan yarmidan ko‘prog‘i xususiy tadbirkorlik (fermerlik, hunarmandchilik, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari) hisobidan shakllanmoqda. Qolgan qismi korxona va tashkilotlardagi yollanma ish haqlardir.

Transfert daromadlari tarkibida esa asosiy o‘rinni davlat byudjetidan to‘lanadigan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar egallaydi. So‘nggi o‘n yillikda pensiyalarning o‘rtacha miqdori sezilarli darajada oshdi va bu uy xo‘jaliklari daromadlarida pensiya ulushining ko‘payishiga olib keldi. Masalan, 2010-yillarning oxiriga kelib pensiyalar umumiy daromadlarning chorak qismini tashkil eta boshladi. Shuningdek, chet elda mehnat qilayotgan fuqarolarning pul o‘tkazmalari (asosan Rossiyadan) ham uy xo‘jaliklari daromadlarining muhim qismi bo‘lib kelgan. 2020–2021-yillarda pandemiya sabab bu pul o‘tkazmalar bir muncha qisqargan bo‘lsa-da, 2022-yildan boshlab iqtisodiy tiklanish bilan yana o‘sishga xizmat qildi. 2024-yilda umumiy daromadlarda pul o‘tkazmalar (remittanslar) ulushi atigi 2% ga tushgani qayd etilgan bo‘lib, bu mahalliy mehnat va tadbirkorlik daromadlarining jadal o‘sishi fonida ro‘y bermoqda. Ya’ni, aholi daromadlarining tuzilmasi tobora ichki iqtisodiy faollik hisobiga shakllanmoqda.

Umuman olganda, 2000–2023-yillar mobaynida O‘zbekiston aholisining real daromadlari 13–14 baravar oshdi. Bunda ayniqsa so‘nggi yillarda mehnatga haq to‘lash darajasi va tadbirkorlikdan tushadigan daromadlarning o‘sishi yuqori bo‘ldi. Masalan, 2024-yil yakunida aholi real daromadlari 10,7% ga o‘sib, o‘rtacha jon boshiga 2,1 million so‘m oylik daromadni tashkil etdi. Aholi bandligini oshirish (rasman ish bilan ta’minlanganlar soni 5 mln kishiga yetdi) mehnat daromadlarini ko‘paytirgan bo‘lsa, boshqa tomondan davlat tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va yer resurslaridan samarali foydalanish hisobiga ham uy xo‘jaliklari daromadlari ko‘tarildi.

So‘nggi 2010–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekistonda uy xo‘jaliklari umumiy daromadlarining manbalar bo‘yicha tarkibida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. 2010-yilda mehnat daromadlari 80,4% bo‘lib, asosiy manba sifatida ajralib turgan.

Bu ko‘rsatkich 2015-yilda 84,2% ga yetgan, biroq keyingi yillarda kamayish tendensiyasi kuzatilgan va 2022-yilda 71,1% ga tushgan. Biroq 2023–2024-yillarda mehnat daromadlari ulushi biroz tiklanib, 74% ga yetgan. Bu holat bandlikdagi ijobiy o‘zgarishlar yoki ish haqi ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Transfer daromadlari (asosan xorijdan pul o‘tkazmalari) 2010-yilda 19,3% bo‘lgan. Ularning ulushi 2015-yilda 15,8% gacha kamaygan bo‘lsa-da, 2020-yildan boshlab ko‘tarilib, 2022-yilda 28,9% ni tashkil etgan. So‘nggi yillarda esa biroz kamayib, 2024-yilda 26% ga tushgan. Bu global iqtisodiy sharoitlar, migratsiya oqimlari va valyuta bozoridagi o‘zgarishlar bilan izohlanadi.

Boshqa daromadlar ulushi davr mobaynida nisbatan kichik bo‘lib qolgan. 2010-yilda 3,2% bo‘lgan bu ulush 2024-yilda 2,4% ga tushgan. Bu turdagi daromadlarning ahamiyati kamaygan yoki boshqa manbalarga nisbatan sustroq o‘sgan bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, tahlil uy xo‘jaliklari daromadlarida mehnat daromadlarining yetakchilik qilayotganini, ammo transfer daromadlarining o‘sishi evaziga tarkibda muvozanat o‘zgarayotganini ko‘rsatadi. Boshqa daromadlarning nisbatan past ulushi diversifikatsiyalash zaruriyatini ko‘rsatadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, uy xo‘jaliklari daromadlari tarkibida hududiy tafovutlar ham mavjud. Masalan, Hududiy tafovutlar uy xo‘jaliklari daromadlari tarkibida jiddiy ko‘rinadi. 2024-yilda aholi jon boshiga o‘rtacha daromad eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida qayd etildi - taxminan 60.6 million so‘m, bu milliy o‘rtachadan sezilarli darajada yuqoridir. Navoiy viloyati - 38.1 million so‘m, Buxoro - 27.5 million, Toshkent viloyati - 25.1 million so‘m bilan orqada qoldi. Eng past daromadlar Qashqadaryo (3.8 mln), Surxondaryo (3.81 mln) va Namangan (3.869 mln) viloyatlarida ro‘y berdi. Ushbu tafovutlar mehnat migratsiyasi, sanoat infratuzilmasi, ijtimoiy xizmatlar rivojlanganlik darajasi va demografik yuklama bilan bog‘liq. Umuman olganda, 2024-yil davomida tushgan inflatsiyaga qaramay, barcha hududlarda real daromadlar o‘sishi va ayniqsa poytaxtda sezilarli progress kuzatildi[36].

6.1. Aholi bandligini ta’minlash va ishsizlik iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikatori sifatida

Ijtimoiy sohadagi manfaatlar milliy manfaatlarning eng asosiylaridan bo‘lib hisoblanadi. Ijtimoiy sohadagi manfaatlar xalqning yuqori turmush darajasini ta’minlash borasidagi davlat siyosatida aks etadi. Aynan ijtimoiy sohadagi manfaatlar amalga oshganda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatga erishiladi.

Aholining yuqori turmush darajasi uning pul daromadlari dinamikasida, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlar iste’moli, aholining mulkiy tabaqalashuvi darajasida, bandlik darajasida, aholining barcha qatlamlari uchun sog‘liqni saqlash, ta’lim xizmatlaridan bahramand bo‘lish imkoniyatlari mavjudligida namoyon bo‘ladi.

[36] Gazeta.uz. O‘zbekistonda real daromadlar i. 2025, 5-fevral.

Aholi turmush darajasi milliy va shuningdek iqtisodiy xavfsizlikning eng asosiy ijtimoiy indikatorlaridan bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikaning mustaqil taraqqiyoti davrida aholini turmush darajasini oshirish borasida islohotlarni amalga oshirishga katta e’tibor qaratildi.

Respublika aholisini ijtimoiy muhofaza qilish quyidagilarni o‘z ichiga olgan mexanizm asosida amalga oshirildi:

- nogironlar, etim qolgan bolalar, yolg‘iz qariyalarni ijtimoiy ta’minlashni o‘z ichiga olgan tizim;

- kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy yordam tizimi;

- aholining alohida guruhlari uchun ijtimoiy imtiyozlar tizimi;

- pensiya ta’minoti tizimi;

- pensiya tizimi orqali qamrab olinmagan keksa kishilarga nafaqa to‘lash tizimi;

- ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi.

Mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlarning birinchi bosqichida inson va oila hayotining barcha sohalarini ta’minlashga, umuman, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan va bir-birini to‘ldiruvchi chora-tadbirlarning butun bir tizimi shakllandi. Bu davrda narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o‘rtacha darajasini muntazam oshirish ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib keldi. Islohotlarning ushbu bosqichida daromadlar nisbatini o‘zgartirish ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg‘arma banklaridagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorlarini bir vaqtning o‘zida markazlashtirilgan tarzda qayta ko‘rib chiqish yo‘li bilan amalga oshirildi. 90-

yillarning birinchi yarmida ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdori bir necha bor oshirildi.

Respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish chora-tadbirlari ko‘rilganligi aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash va ularning turmush darajasini oshirishning ikkinchi eng muhim yo‘nalishi bo‘ldi.

Islohotlar chuqurlasha borgan sari respublika aholisi manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi tizimiga o‘tish boshlandi. Bunda ichki narxlarni jahon narxlari darajasiga tez tenglashtirib olish va aholi daromadlarini shunga muvofiq ravishda oshirish yo‘li bilan himoyalash chora-tadbirlari ko‘rildi.

Respublika aholisini turmush darajasini oshirish va shu orqali mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda faol ijtimoiy siyosatning uchinchi yo‘nalishi katta o‘rin tutdi. Bunda aholini kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o‘tkazildi. Bunday siyosat aholining ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari – pensionerlar, nogironlar, ko‘p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o‘quvchi yoshlar va aholining shunga o‘xshash boshqa guruhlarini himoya qilish davlatning asosiy vazifasi, degan qoidadan kelib chiqib amalga oshirildi.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar tufayli iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida aholining eng muhtoj, ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari manfaatlarini himoya qilish mumkin bo‘ldi, bu esa aholining muayyan bir qismi qashshoqlashuvining oldini olish, fuqarolar tinchligi va ahilligini ta'minlash imkonini berdi.

Islohotlar chuqurlasha borgan sari aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan ijtimoiy himoya tizimiga o‘tildi. Bunday tizimning eng muhim xususiyati, aholining turli qatlamlariga qat'iy tabaqalashtirilgan tarzda yondashuvdan iborat bo‘ldi.

Ijtimoiy ko‘maklashuvning ta'sirchan tizimini tashkil etish yo‘llarini izlash natijasida ko‘maklashishning eng sodda, ammo samarali va ochiq vositasi bo‘lgan mahalla orqali muhtojlarga yordam berishga o‘tildi. Muhtoj oilalarni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash uchun o‘zini o‘zi boshqarish organlariga tayinli resurslar ajratib

berish maqsadida mahallalarda respublika va mahalliy byudjet mablag‘lari, shuningdek, korxona va tashkilotlarning, tadbirkorlik tuzilmalari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy ravishda o‘tkazgan mablag‘lari hisobidan maxsus jamg‘armalar hosil qilindi.

Bozor munosabatlari vujudga kelayotgan davrda jamiyatdagi ma’naviy, ahloqiy muhit, odamlarning ruhiy va jismoniy holati maorif, sog‘liqni saqlash hamda madaniyat va san’at sohalarining rivojlanganligiga bog‘liq ekanligini hisobga olgan holda ushbu sohalar alohida qo‘llab-quvvatlandi.

Mamlakatni va jamiyatni isloh qilishning eng murakkab o‘tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat olib borilganligi va aholini himoya qilishning o‘xshashi bo‘lmagan, samarali mexanizmini ishlab chiqilganligi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamladi va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qildi.

Ta’kidlash joizki, keyingi yillarda aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi sezilarli ravishda ortdi.

Mustaqillik yillarida respublikada aholi turmush darajasini oshirish bo‘yicha olib borilgan siyosat to‘la-to‘kis o‘zini oqladi. Bunday siyosat o‘rtacha umr ko‘rish darajasini uzayishi, aholi daromadlarini oshishi, turmush darajasini ko‘tarilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikka erishish, turli tahdidlarni oldini olish va oxir-oqibatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun zamin yaratdi.

Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta’lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet tashkilotlarida ham, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ham o‘rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko‘paytirish maqsadga muvofiq.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining joylarda amalga oshirilishi natijalari tanqidiy o‘rganishni, aholi o‘rtasida strategiyani amalga oshirish natijalari keng muhokama qilinishi, strategiyada belgilangan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilayotgan tizimli omillarni aniqlash va “O‘zbekiston - 2030”

strategiyasini amalga oshirish doirasida ularning oldini olish bo‘yicha aniq choralar ko‘rilishini ta’minlash vazifalari rivojlantirish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarurligi ko‘rsatib berildi:

Birinchidan, aholi o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlar va oilalarning daromadini oshirish;

Ikkinchidan, pensiya va nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibini qayta ko‘rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloh qilish;

Uchinchidan, ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish;

To‘rtinchidan, xalqimiz genofondini mustahkamlash maqsadida tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ko‘lamini kengaytirish;

Beshinchidan, xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish;

Oltinchidan, aholi turmush sharoitini yaxshilash, uni munosib turar-joy bilan ta’minlash, xalqimiz farovonligini oshirish;

Yettinchidan, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish;

Sakkizinchidan, turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rish;

To‘qqizinchidan, oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirish.

Yaqin kelajakda kasb-hunar kollejlari va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta’minlash sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- bitiruvchilarni biriktirish ishlarini puxta tashkil etish;
- bitiruvchilar bandligini ta’minlashda yangi samarali shakllar va uslublarni davom ettirish;
- bitiruvchilar bandligini ta’minlashda belgilangan imtiyozlardan kengroq foydalanish;

- bitiruvchilarga o‘z binesini tashkil etishlari uchun mikrokreditlar ajratish amaliyotini davom ettirish.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida mehnat bozori talablariga asosan, professional kadrlarni qayta tayyorlash yuzasidan qisqa muddatli trening va o‘quv kurslarini o‘tkazish bo‘yicha nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini rag‘batlantirish, nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash tartibini soddalashtirish, davlat akkreditatsiyasiga ega bo‘lgan nodavlat ta’lim muassasalari uchun davlat namunasidagi hujjatlarni berish bo‘yicha mavjud cheklovlarni bartaraf etish nazarda tutilgan.

Shuningdek, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalarida kerakli talabdan ortiq hajmda tayyorlanayotgan gumanitar ta’lim yo‘nalishlarini qisqartirishni va mos ravishda agrar sektor, qurilish va ishlab chiqarish sohasi, uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasi mutaxassislari tayyorlashni kengaytirishni ko‘zda tutuvchi o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’lim mutaxassislik yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish rejalashtirilgan. Joriy va istiqboldagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda mutaxassislarni tayyorlash, agrar sektor, qurilish va ishlab chiqarish sohasi, uy-joy kommunal xo‘jaligini malakali mutaxassislar bilan hamda bitiruvchilarni kafolatlangan ish bilan ta’minlash imkonini beradi.

Hududlarda aholi bandligini ta’minlash hamda qo‘shimcha daromad manbaini yaratish maqsadida tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar ajratish hajmini yanada oshirish quyidagi sohalarda nazarda tutilgan:

– fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish;

– qoramol, qo‘y, echki, quyon boqish va go‘sht yetishtirish;

– parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish;

– ixcham issiqxonalar tashkil etish;

– urug‘ va ko‘chatlar yetishtirish.

Buning natijasida aholi tomorqasidan foydalanish samaradorligi oshadi, ishlab chiqariladigan sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi ko‘payadi.

Insonning iqtisodiy xavfsizligi borasidagi davlat strategiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ichki va tashqi tahdidlarni tavsiflash;

- insonning iqtisodiy xavfsizligi shart-sharoitlariga muvofiq keladigan mezon va iqtisodiyotning holati;

- iqtisodiy, huquqiy va ma’muriy choralar asosida insonning muhim manfaatlarini himoyalash;

- insonning iqtisodiy xavfsizligi borasidagi davlat strategiyasini bajarilishini nazorat qilish.

Insonning iqtisodiy xavfsizligi fuqarolarning hayot faoliyatini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishni ko‘zda tutadi: oziq-ovqat bilan ta’minlash; ish bilan bandlikni ta’minlash; ta’lim olish uchun sharoit yaratish; axborot bilan ta’minlash; tibbiy xizmat ko‘rsatish; pensiya ta’minoti; shaxsiy jamg‘armalarini himoyalash; uy-joy kommunal xizmatlari ko‘rsatish; ekologik xavfsizlikni ta’minlash.

Insonning iqtisodiy xavfsizligi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan bog‘liq bo‘lib, ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli bo‘lgan daromad darajasini ta’minlashni ko‘zda tutadi.

Insonning ijtimoiy xavfsizligi mamlakat iqtisodiyoti, shu jumladan sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini individning yetarli hajmda va sifatli ne’matlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradigan darajada taraqqiyotga erishishni bildiradi.

Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kelib chiqishining bosh sabablaridan biri ishsizlik bo‘lib, u iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim indikatori sifatida alohida e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan muammolar qatorida turadi. Ishsizlik mamlakatda mavjud tabiiy, mehnat, moddiy, iqtisodiy va moliyaviy resurslardan samarali hamda yetarlicha foydalanmaslik holatini anglatadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan ishsizlik deganda ishchi kuchining ish joyi bilan ta’minlanmaganligi, natijada uning biror-bir qonuniy daromad manbaiga ega bo‘lmasligining muayyan holati tushuniladi. Boshqacha aytganda, ishsizlik – ishlashni istaydigan mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta’minlanmagan qismi[37]. Ishchi kuchi taklifining unga bo‘lgan talabdan oshib ketishi natijasida ishsizlik vujudga keladi.

Makroiqtisodiy jihatdan ishsizlik jamiyat mehnat salohiyatidan, ishchi kuchi majmuasidan ishlab chiqarish omili sifatida to‘la foydalanmaganlikdir. Shu ma’noda, ishsizlik ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlariga yoki foydalanilmayotgan tabiiy va moddiy resurslarga teng, ammo ishlab chiqarishning boshqa omillari ortiqchaligidan farq qilib, “ortiqcha” ishchi kuchi bozori iqtisodiyotidagi doimiy voqelikdir.

Ijtimoiy jihatdan ishsizlik daromadlarning pasayishiga olib kelganligi bois nafaqat ishsiz kishining o‘zi uchun, balki uning oilasi uchun ham jiddiy muammolarni tug‘diradi. Bunday holat oxir oqibatda jamiyatdagi holatga ta’sir ko‘rsatadi. Ishsizlik miqyoslarining kengayib borishi noroziliklarni va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqaradi.

Ishsizlikning keskin ko‘payishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar (davlat sektorining kamayishi), inflyatsiya hamda xo‘jalik yuritishning muqobil shakllari (xususiy korxonalar, hissadorlik jamiyatlari) tez o‘smaganligi sababli ko‘pgina korxonalarda moliyaviy ahvol yomonlashuvi natijasida yuzaga keladi. Bularning hammasi, tabiiyki, umumiy talab hajmida salbiy aks etadi: davlat ta’siri qisqaradi, investitsiya faoliyati sustlashadi, iste’mol xarajatlari esa inflyatsiya ta’sirida turmush darajasining yomonlashuvi tufayli birmuncha kamayadi.

Amalda ishsizlik tabiiy darajasining eng maqbul miqdori yo‘q. Hali hech kim iqtisodiyot uchun ma’lum ishchining ishlab chiqarish bilan shug‘ullangandan ko‘ra, ishsiz bo‘lgani afzal ekanligini isbotlashga erishgani yo‘q. Aksincha, yalpi milliy mahsulotni yuqori darajada ishlab chiqarish natijasida ishsizlikning tabiiy darajasi

[37] Abduraxmonov Q.X, Imomov V. O‘zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. –Toshkent 2008. 141 b.

pasayadi. Ammo u maqbul miqdordan yuqori bo‘lib qolaveradi. Chunki yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish o‘z imkoniyat darajasiga yetmagan bo‘ladi.

6.2. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash zaruriyati

Oziq-ovqat xavfsizligi va uni ta’minlash masalasi bevosita milliy xavfsizlikni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi paytda oziq-ovqat xavfsizligi muammolari kishilar hayot faoliyatining muhim tizimi sifatida jiddiy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Ushbu muammo o‘zining dolzarbligi jihatidan harbiy va umumiqtisodiy xavfsizlik bilan bir qatorda turadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash mamlakat suverinitetini, iqtisodiy xavfsizligini va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda. O‘z-o‘zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlamasdan turib, milliy xavfsizlikning boshqa komponentlari to‘g‘risida so‘z yuritib bo‘lmaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligi – murakkab tizimli va ko‘p pog‘onali muammo bo‘lib, mamlakatning juda ko‘p iqtisodiy va ijtimoiy jihatlariga tegishli bo‘ladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammosini uchta darajada ko‘rib chiqish mumkin:

- xalqaro darajada;
- ichki iqtisodiy;
- alohida inson, oila, aholining ijtimoiy guruhlari darajasida.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammosini xalqaro jihatidan ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa, birinchi navbatda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti tomonidan xavfsizlikni yetarli darajasini belgilash yoki aniqlash bo‘yicha ishlab chiqilgan mezonlarini aytib o‘tish kerak bo‘ladi. Ushbu Tashkilotning ta’kidlashicha, alohida mintaqalarda ishlab chiqarish hajmlaridagi qisqarishlarni o‘rnini bosish uchun oziq-ovqat mahsulotlarining ma’lum darajadagi zaxiralariga ega bo‘lish kerak bo‘ladi. Mana shunday zaxiralar darajasi jahon ehtiyojlarining 20 foizi darajasida bo‘lishi kerak. Mutaxassislarning fikricha, ushbu daraja bir necha yillar davomida kritik nuqtadan pastda bo‘lgan.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlanishi bozor baholarini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy usullaridan foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Bundan tashqari oziq-ovqat xavfsizligi davlatning mamlakat va uni mintaqalarini oziq-ovqat bilan ta’minlash tizimida turli tabiiy ofatlar va favqulotda holatlar natijasida yuzaga keladigan buzilishlarni oldini olishga bo‘lgan qodirligini ham ko‘zda tutadi. Buning uchun esa doimo yangilanib va o‘rni to‘ldirib turiladigan strategik oziq-ovqat zaxiralarini va ularni taqsimlash hamda ulardan foydalanish tizimini yaratish zarur bo‘ladi.

Demak, oziq-ovqat xavfsizligi ichki imkoniyatlardan foydalangan holda mamlakat aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta’minlanishini, import mahsulotlarga bog‘liqlikni kamaytirishga erishishni ifodalaydi.

Bugungi kunda yer yuzida 8,0 milliarddan ziyod aholi istiqomat qilmoqda. Har sohada kechayotgan globallashuv jarayoni taraqqiyot sari tashlangan dadil qadam sifatida talqin etilayotgan bo‘lsa-da, qishloq xo‘jaligi, energetika, ekologiya kabi ayrim masalalarda muammo keltirib chiqarayotgani hech kimga sir emas. Bunday holat tabiiyki, jahon hamjamiyati muammolarga jiddiy munosabat bildirishi va ularning yechimini topishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi lozimligini taqozo etadi. So‘nggi paytlarda jahon miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshib borishi nafaqat kambag‘al mamlakatlar, balki rivojlanayotgan, hatto dunyoning yetakchi davlatlarini ham tashvishga solmoqda.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, yaqin vaqtlar ichida dunyodagi qator mamlakatlar oziq-ovqat mahsulotlari ta’minotida jiddiy muammolarga duch kelishi mumkin. Oziq-ovqat taqchilligi ayrim mamlakatlarda tartibsizliklar, g‘alayonlar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Butunjahon oziq-ovqat dasturining ekspertlari oziq-ovqat mahsulotlari taqchilligi ayrim mamlakatlarda ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkinligidan tashvishlanmoqdalar. BMT ma’lumotlarida keltirilishicha, bugungi kunda dunyo miqyosida 895 millionga yaqin kishi

ocharchilikni boshdan kechiryapti. Tabiiyki, shu o‘rinda oziq-ovqat taqchilligining sabablari nimada degan savol tug‘iladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat iste’mol qilish hajmi ortib boryapti. Don mahsulotlaridan yoqilg‘i ishlab chiqarishda foydalanilmoqda. Qolaversa, dunyo oziq-ovqat zaxiralari so‘nggi 25 yilda eng past darajaga tushib ketgan, dunyo birjalarida olib-sotarlik bilan bog‘liq firibgarliklar borligi, sobiq mustamlakalarda iqtisodiyotning bir yoqlama rivojlanishi ham oziq-ovqat taqchilligini keltirib chiqarmoqda.

Iqlimning global isishi yer yuzi aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Agar sayyoramizda havo harorati faqat bir darajaga ko‘tarilsa, don ekinlaridan olinadigan hosil miqdori 10 foizga pasayib ketar ekan. Oziq-ovqat taqchilligi xavf solayotgan mamlakatlar vaziyatdan chiqish uchun, avvalo, ichki imkoniyatlarni ishga solmoqdalar. Jumladan, dunyoda guruch eksport qilish bo‘yicha birinchi bo‘lgan Tailand, Hindiston, Vetnam va Braziliya mamlakatlaridan farqli o‘laroq guruch eksportini kamaytirmaslikka qaror qildi. Hozirda Tailandda guruchdan bir yilda ikki marta hosil olinayotgan bo‘lsa, endi bu ekindan hatto uch marta hosil olish choralari ko‘rilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan asosiy ehtiyojlarni o‘z hisobiga qondirish mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Mana shunday hayotiy muhim vazifani mamlakat iqtisodiyotining yirik tarmog‘i bo‘lgan agrosanoat majmuasi amalga oshiradi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat qishloq xo‘jaligini isloh qilishga ustunlik berildi.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyasi shundan guvohlik beradiki, kishilik jamiyatining barcha soha va jabhalarida, ayniqsa global iqlim o‘zgarishi ta’sirida sayyoramizning ko‘plab mintaqalarida tobora avj olayotgan qashshoqlik va ocharchilikka barham berishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yyetishtiruvchi, shuningdek ularga turli yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarning xo‘jalik yuritish faoliyatlarini innovatsiyalar asosida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etib, ushbu jarayonni uzluksiz takomillashtirish davr talabiga aylanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi sohasining taraqqiyoti

iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Xitoy, Hindiston, Braziliya, Chili va Vetnamdagi iqtisodiy o‘sishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligining jadal o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lgani holda, ayrim Afrika mamlakatlarining rivojlanishdan ortda qolishi, mazkur mamlakatlarning qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligining yetarli darajada ta’minlay olmayotganliklari bilan izohlanadi

Bu, birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligi sektorining bandlik va YaIMda ulushi yuqori bo‘lgan iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalarini rivojlantirishda qishloq xo‘jaligining muhim o‘rin tutishi bilan izohlanadi. Ushbu holatda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish omillarini (xomashyo, mehnat, kapital jamg‘arish, xorijiy valyutani jalb qilish) taklif etish orqali iqtisodiyotning boshqa sohalari o‘sishiga yordam beradi.

Shu tariqa, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘sishi sanoat ishlab chiqarishi o‘sishini rag‘batlantirishda katta multiplikativ ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning 1 dollarga o‘sishi, iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarida ham mahsulot ishlab chiqarishning 1 dollarga o‘sishiga olib keladi, ayni paytda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishning 1 dollarga o‘sishi qishloq xo‘jaligida 0,18 dollarlik o‘sishni ta’minlaydi. Qishloq xo‘jaligi o‘sishining mazkur multiplikatorlari odatda, daromadi past mamlakatlarda yuqori bo‘lishi kuzatiladi, chunki mazkur mamlakatlarda sanoat sektorining asosiy ulushi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash) va xizmatlar sohasi qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkchilariga ko‘p jihatdan bog‘liq hisoblanadi.

Boshqa bir tomondan, qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligining o‘sishi qishloq xo‘jaligidan tashqari faoliyat bilan shug‘ullanuvchi aholining ortib borayotgan ulushini oziq-ovqat bilan ta’minlash imkonini beradi va shu bilan birgalikda shahar aholisining o‘sishiga yordam beradi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida unmdorlikning oshishi oziq-ovqat mahsulotlari narxini pasaytirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida shaharlarda nominal ish haqini kamaytirish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligi va sanoat o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikning mavjudligi evaziga qishloq xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan uzluksiz ta’min etadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligining moliyaviy saldosi deb ataluvchi, ya’ni qishloq xo‘jaligidan keladigan pul oqimlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining o‘sishini qo‘llab-quvvatlagan holda, investitsiya sifatida yo‘naltirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun iqtisodiyotning boshqa sektorlari mahsulotlari, xususan sanoat mahsulotlari (o‘g‘itlar, asboblar va mashinalar)ga talab paydo bo‘ladi, qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan va qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholi daromadlarining o‘sishi asnosida zaruriy iste’mol tovarlariga talab ortib boradi. Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi daromadlarning o‘sishi sanoatlashtirishni rag‘batlantiradi. Mazkur omil o‘z paytida Hindiston va Xitoyda yer islohoti siyosatining asosini tashkil qilgan edi. Xususan, Xitoy yerdan foydalanuvchilarga yerga egalik huquqini berish orqali 800 million qishloq uy xo‘jaliklari o‘rtasida sanoat mahsulotlarining ichki bozorini rivojlantirishga erisha oldi. Ta’kidlash lozimki, Xitoy yerdan foydalanish munosabatlarini tartibga solish orqali kambag‘allik o‘lchamlarini keskin qisqartirish imkoniga ega bo‘ldi. O‘zbekistonda ham kambag‘allikka qarshi kurashish dasturlarini ishlab chiqishda Xitoy tajribasidan foydalanish ijobiy samara beradi. Xitoy bugungi kunda kambag‘allikni tugatish borasida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoyda bugungi kunga kelib 850 million kishi qashshoqlik chegarasidan chiqarildi. Xitoyda kambag‘allik darajasi 1981 yilda 88 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilda bu ko‘rsatkich 0,7 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlardagi kambag‘allik darajasi bilan to‘la mos tushadi, xususan kambag‘allik darajasi AQShda (1%), Shvetsiyada (0,61%), Germaniyada (0,19%), Italiyada (1,5%)ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, daromadi past mamlakatlar aynan qishloq xo‘jaligida taqqoslanma afzalliklariga ega bo‘lganliklari bois, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ochiq iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha tadqiqot olib boruvchi yetakchi mutaxassis olimlarning

ta’kidlashicha, qishloq xo‘jaligi qisqa muddatda qiyosiy afzalliklar taqdim etadi, agrosanoat majmuasini rivojlantirish esa uzoq muddatli istiqbolda sanoatlashtirishga katta yo‘l ochib beradi. Mazkur mamlakatlar uchun qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar sanoatlashtirish va muvaffaqiyatli tarkibiy o‘zgarishlar borasida iqtisodiy jihatdan samarali o‘sish strategiyasi bo‘lib xizmat qiladi. Osiyo mamlakatlarida qashshoqlik darajasini qisqartirishda qishloq xo‘jaligi sektorini rivojlantirish muhim asos bo‘lib xizmat qilganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligida bugun talablaridan kelib chiqqan holda, ustuvorliklarni aniqlashtirish borasida muayyan bir qiyinchiliklar mavjud, xususan bu borada quyidagi masalalarga oydinlik kiritish talab etiladi:

- ochlik darajasini kamaytirish va aholining real daromadini oshirish maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxini pasaytirish yoki fermerlarni qishloq xo‘jaligiga ko‘proq sarmoya kiritishga undash maqsadida mazkur narxlarning oshishishni rag‘batlantirish;

-byudjet mablag‘laridan qisqa muddatli oziq-ovqat muammosini yumshatish uchun foydalanish (masalan, oziq-ovqat yordam dasturlari orqali) yoki mazkur mablag‘larni qishloq xo‘jaligiga investitsiya qilish va uzoq muddatli mahsuldorlik muammosini hal qilishga yo‘naltirish;

- o‘zini –o‘zi ta’minlash hisobiga oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal qilishga katta e’tibor qaratish yoki qiyosiy ustunliklardan foydalangan holda oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosini kengaytirish;

- qashshoqlikni kamaytirishda samarali bo‘lgan mayda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish yoki hosildorlikni oshirish va qiymat yaratishning integratsiyalashgan zanjirlari orqali murakkab bozorlarga chiqish borasida samarali hisoblanuvchi yirik xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish.

Shu tariqa, iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish borasida qishloq xo‘jaligining mavjud salohiyatidan foydalanish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida ushbu salohiyatdan foydalanish borasida samarali yondashuvlarni tanlab olish va qishloq xo‘jaligi resurslaridan samarali

foydalanishning zamonaviy usul va vositalarini o‘zlashtirish daromad darajasi past mamlakatlar, shu jumladan O‘zbekiston uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.



6.1-rasm. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi[38]

2019 yilning oktyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida farmoni qabul qilindi. Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilab berilgan:

oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash va iste’mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag‘batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo‘shilgan qiymatli qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;

[38] https://strategy.uz/index.php?news=1767

qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;

yer va suv resurslari, o‘rmon fondidan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

qishloq xo‘jaligida davlat boshqaruvi tuzilmasini restrukturizatsiya qilish va yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;

fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash;

qishloq xo‘jaligida ilmiy-tadqiqot, ta’lim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma’lumotlarni tarqatishning samarali shakllarini qo‘llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;

qishloq joylarini muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga ko‘maklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish;

zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali statistik ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va tarqatishning ishonchli uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi tarmoq statistikasining shaffof tizimini yaratish.

Jahon tajribasini o‘rganish asosida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillari sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin bo‘ladi:

Narx orqali rag‘batlantirish. Jahonning ilg‘or tajribasi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari narx rag‘batlariga ta’sirchan ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari “to‘g‘ri” narxlarni belgilash qishloq xo‘jaligi o‘sishini ta’minlovchi muhim omillardan biri sanaladi.

Qo‘shilgan qiymat yaratishning integral zanjirlarini tashkil etish. Oziq-ovqat

bozorlari tobora supermarketlar kabi rivojlangan integral qiymat zanjirlariga aylantirilmoqda. Ular fermerlar, mahsulotni qayta ishlovchilar, chakana savdo bilan shug‘ullanuvchilar va iste’molchilarni o‘zaro birlashtirgani holda, qimmatli ma’lumotlarni almashish, zarur bo‘lganda mablag‘ bilan ta’minlash, sanitariya va fitosanitariya standartlarini aniqlashtirish va ularga rioya etilishni ta’minlash, xavf-xatarlarni taqsimlashni rag‘batlantirish va tadqiqot va innovatsiyalarni moliyalashtirish imkonini beradi. Moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiya, transport va energetika kabi qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham o‘z navbatida yengil ko‘chadi. Ko‘lam samarasiga va iste’molchiga yetkazib berilayotgan mahsulotlar sifatining sezilarli darajada oshishiga erishiladi. Boshqa bir tomondan, supermarketlar an’anaviy chakana do‘konlarning yo‘qolishiga va ko‘plab ish o‘rinlarining yo‘qolishiga olib kelsada, jarayon ishtirokchilari narxlarning pasayishidan birdek manfaatdor bo‘ladilar.

To‘g‘ri texnologiyalarni tanlash. Yer resurslarining cheklanganligi tufayli qishloq xo‘jaligining istiqbolda taraqqiy etishi mazkur resurslardan foydalanish samaradorligiga bog‘liq. Bu borada texnologiya katta rol o‘ynaydi. Mehnat tejovchi, er va suv tejovchi, xatarlarni kamaytiruvchi, mahsulot sifatini oshirishga imkon beruvchi va ekologik sof texnologiyalar farqlanadi. Moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda texnologiyalarni tanlashda ustuvorlik ishlab chiqarish resurslarining nisbiy narxlariga bog‘liq sanaladi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida favqulodda choralar ko‘rilmasa, millionlab bolalar va kattalar uchun uzoq muddatli oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan

favqulodda global tusga ega bo‘lgan oziq-ovqat xavfsizligi muammosiga duch kelishimiz tabiiydir.

Bu asosan oziq – ovqat mahsulotlarining taqchilligi bilan bog‘liq-daromadlar tushmoqda, pul o‘tkazmalari qisqarmoqda va ma’lum bir holatlarda oziq-ovqat narxlari ko‘tarilib bormoqda. Oziq-ovqat xavfsizligi jiddiy tus olgan mamlakatlarda, bugungi kunga kelib oziq-ovqat mahsulotlarining taqchilligi bilan bir qatorda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish inqirozi katta xavf tug‘dirmoqda.

Qisqacha xulosalar

1. Aholi turmush darajasi milliy va shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikning eng asosiy ijtimoiy indikatorlaridan bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikaning mustaqil taraqqiyoti davrida aholini turmush darajasini oshirish borasida islohotlarni amalga oshirishga katta e’tibor qaratildi. Mamlakatni va jamiyatni isloh qilishning eng murakkab o‘tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat olib borilganligi va aholini himoya qilishning o‘xshashi bo‘lmagan, samarali mexanizmini ishlab chiqilganligi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamladi va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qildi.

2. Mustaqillik yillarida respublikada aholi turmush darajasini oshirish bo‘yicha olib borilgan siyosat to‘la-to‘kis o‘zini oqladi. Bunday siyosat o‘rtacha umr ko‘rish darajasini uzayishi, aholi daromadlarini oshishi, turmush darajasini ko‘tarilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikka erishish, turli tahdidlarni oldini olish va oxir-oqibatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun zamin yaratdi.

3. Insonning iqtisodiy xavfsizligi bu insonning muhim hayotiy manfaatlarining himoyalanishi uchun shart-sharoitlarning kafolatlan-ganligi, ijtimoiy taraqqiyot hamda inson va jamiyat himoyasi tizimi ta’minlangandagi holatdir.

4. Insonning ijtimoiy xavfsizligi mamlakat iqtisodiyoti, shu jumladan, sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini individning yetarli hajmda va sifatli ne’matlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradigan darajada taraqqiyotga erishishni bildiradi.

5. Ishsizlik jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kelib chiqishining bosh sabablaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham ishsizlik iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim indikatori sifatida alohida e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan muammolar qatorida turadi. Ishsizlik mamlakatda mavjud tabiiy, mehnat, moddiy, iqtisodiy va moliyaviy resurslardan samarali hamda yetarlicha foydalanmaslik holatini anglatadi.

6. Oziq-ovqat xavfsizligi va uni ta’minlash masalasi bevosita milliy xavfsizlikni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi paytda oziq-ovqat xavfsizligi muammolari kishilar hayot faoliyatining muhim tizimi sifatida jiddiy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Ushbu muammo o‘zining dolzarbligi jihatidan harbiy va umumiqtisodiy xavfsizlik bilan bir qatorda turadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash mamlakat suverenitetini, iqtisodiy xavfsizligini va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda.

Nazorat savollari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”-degan fikrining mazmun-mohiyatini ochib bering?
2. Mamlakatimizda aholini ish bilan ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga qanday baho berasiz?
3. Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash qanchalik dolzarb ahamiyat kasb etadi, deb o‘ylaysiz?
4. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasida qanday muammolar mavjud va ularning yechimi qanday?

Avvalo iqtisodiy erkinlikni ta’minlash zarur. Iqtisodiy erkinlik bo‘lmas ekan, erkinlik haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

Margaret Tetcher.

VII BOB. KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGI

7.1. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi

7.2. Korxonaning moliyaviy xavfsizligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimi

7.3. Korxonaning texnik-texnologik xavfsizligi

7.4. Korxonaning axborot xavfsizligini ta’minlash

7.5. Korxonalarning barqarorligini oshirish

Tayanch tushuncha va iboralar: korxona, iqtisodiy xavfsizlik, xavfsizlik tizimi, ilmiy-texnik taraqqiyot, innovatsiyalar.

Qisqacha sharh

Mazkur bob bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona faoliyatining barqarorligini ta’minlash, uning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda tashqi va ichki tahdidlarning salbiy ta’sirini cheklash bilan bog‘liq masalalarga bag‘ishlanadi. Ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik korxonaning moliyaviy, ishlab chiqarish, kadrlar va innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish orqali uning barqaror rivojlanishini ta’minlash holati sifatida talqin etiladi.

Iqtisodiy xavfsizlik korxonaning resurslardan oqilona foydalanishi, to‘lovga qobiliyligi, rentabelligi va raqobatbardoshligini saqlab qolish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u korxona faoliyatiga tahdid soluvchi ichki va tashqi xavf-xatarlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni minimallashtirish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonda boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligi va tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobning birinchi qismida korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi, uning asosiy tarkibiy elementlari hamda ta’minlash usullari nazariy jihatdan yoritiladi. Ikkinchi qismida esa korxonalarning barqarorligini oshirish yo‘llari, iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytirish omillari va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining roli tahlil qilinadi. Bob materiallari iqtisodiy xavfsizlik sohasida nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda xorijiy korxonalar faoliyati

2026 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni 18 164 tani tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich mamlakatda amalga oshirilayotgan ochiq va faol investitsiya

siyosatining natijasi sifatida baholanib, iqtisodiyotga xorijiy kapitalni jalb etish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini aks ettiradi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu korxonalarning 4 247 tasi qo‘shma korxona, 13 917 tasi esa xorijiy korxona hisoblanadi. Bu holat xorijiy investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib kelayotganini ko‘rsatib, investitsiya muhitining institutsional va huquqiy jihatdan barqarorlashib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, xorijiy korxonalar ulushining yuqoriligi iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan strategik tarmoqlar, milliy manfaatlar va iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash bo‘yicha davlat tomonidan tizimli yondashuvni talab etadi.

So‘nggi besh yil davomida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining 1,9 barobar oshishi mamlakat iqtisodiyotida raqobat muhitining kuchayishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismlari hisoblangan bandlik darajasi, soliq tushumlari va eksport salohiyatining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi

korxonalar soni bo‘yicha yetakchi davlatlar qatoriga Xitoy, Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Afg‘oniston, BAA, Tojikiston, Hindiston va AQSH kiradi. Investitsiya manbalarining geografik jihatdan diversifikatsiyalashuvi iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotining alohida davlat yoki mintaqalarga haddan tashqari bog‘lanib qolish xavfini kamaytiradi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini iqtisodiy xavfsizlik bilan uyg‘un holda rivojlantirish davlat investitsiya siyosatining

ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, investitsiyalarni yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarga yo‘naltirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiyani kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalar transferini ta’minlash hamda milliy kadrlar salohiyatini oshirish orqali investitsiya faoliyatining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan 18 mingdan ortiq xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar mamlakat investitsiya siyosatining samaradorligini ifodalash bilan birga, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kelgusida ushbu korxonalar faoliyatini milliy iqtisodiy manfaatlar, barqaror rivojlanish va iqtisodiy xavfsizlik talablari asosida takomillashtirish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

7.1. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi

Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash ishlab chiqarishni tashkil etishning butunlay yangi tizimi bo‘lib hisoblanadi.

Iqtisodiyot subyektlari orasida milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim dastagi bo‘lgan korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash alohida ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi deganda uning ilmiy – texnikaviy, ishlab chiqarish salohiyatini hamda kadrlarini faol va nofaol iqtisodiy tahdidlardan, masalan, davlatning samarasiz ilmiy – sanoat siyosatidan yoki tashqi muhitda yuzaga kelgan tahdidlardan himoyalanganligi tushuniladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlik buzilganda, ayniqsa, dolzarb bo‘ladi. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uzluksiz jarayon bo‘lib, unda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni oldini olish vazifasi qo‘yiladi. Buni amalga oshirish uchun korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasi bo‘lishi talab etiladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasi deganda, korxona ish faoliyatini amalga oshirishda uning xavfsizligini yetarli darajasida ta’minlashga qaratilgan eng muhim qaror va chora – tadbirlar yig‘indisi tushuniladi[39].

Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasining uchta asosiy turi ajratib ko‘rsatiladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizlik borasidagi strategiyasini puxta ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish milliy iqtisodiyotning eng muhim dastagi bo‘lgan korxonalarning barqaror o‘sishi va rivojlanishi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Korxona (firma) faoliyatining asosiy maqsadi foyda (daromad) olish hisoblanadi. Shuningdek, korxona o‘z oldiga ishlab chiqarishni kengaytirish, personalning kasbiy mahoratini oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida mehnatni tashkil etishni takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan va taklif etilayotgan mahsulotning iste’molchilarini, mijozlarini va insofli sherik, hamkorlarning sonini ko‘paytirishni ham maqsad qilib oladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda - xo‘jalik subyektining moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

- korxonaning o‘z mablag‘lari bilan ta’minlanish koeffitsiyenti, korxona aylanma aktivlarining umumiy aktivlar summasiga nisbati;
- joriy likvidlik ko‘rsatkichi;
- o‘z kapitalining rentabelligi;
- umumiy to‘lovga qodirlik ko‘rsatkichi, aktivlar bozor qiymatining xo‘jalik subyektining barcha majburiyatlariga nisbati;
- kapitallashtirish koeffitsiyenti, bozor qiymatidagi o‘z kapitalining qarz mablag‘larining balans qiymatiga nisbati;
- menejment koeffitsiyenti, sotishdan olingan pul tushumining joriy majburiyatlar miqdoriga nisbati.

[39] Z. Aminov. Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy xavsizligini taminlash yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi... dissertatsiya avtoreferati. Samarqand 2009. 10 b.



7.1-rasm. Korxona iqtisodiy xavfsizligining asosiy maqsadi

Korxonaning iqtisodiy manfaatlari, turli ehtiyojlar mavjud sharoitda talabni qondirish, yashash va rivojlanish uchun raqobat kurashi kuchaygan sharoitda himoya qilinadi.



7.2-rasm. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash maqsad va vazifalari

Xavfsizlik tizimi o‘z ichiga quyidagilarni oladi: korxona obyektlarini, boshqaruvchi rahbarlarning shaxsiy daxlsizligini hamda pul mablag‘larini saqlash uchun qo‘riqchi-qorovullik xizmatini tashkil etish;korxonaning informatsion jihatdan himoyalanishini ta’minlaydigan analitik xizmatni tashkil etish. Uning

vazifalari ichida razvedka va kontrrazvedka bilan shug‘ullanishni tashkil etish uchun strategik muhim subyektlar bilan ishlash.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun uning xavfsizligiga tahdid soladigan xavf-xatarlarni bilish kerak bo‘ladi. Buning uchun korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ifodalaydigan parametrlarni o‘rganish va ularni tahlil qilish kerak bo‘ladi. Lekin shuni ta’kidlash kerakki, respublikada korxonalar iqtisodiy xavfsizligini baholash bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimining ishlab chiqilmaganligi bu boradagi amaliy muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi[40].

G.S. Vechkanovning “Ekonomicheskaya bezopasnost” nomli darsligida korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash beshta unsurni o‘z ichiga olishi aytib o‘tilgan:

- birinchi – iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning tarkibi va tabiati hamda ularning ta’sir yo‘nalishini aniqlash;

- ikkinchi – iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning ta’siri natijasida yuzaga keladigan zararlarni baholash;

- uchinchi – iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatadigan tahdidlarni muhimligi va vujudga kelish vaqti bo‘yicha guruhlarga ajratish;

- to‘rtinchi – u yoki bu tahdidlarga nisbatan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash strategiya variantini shakllantirish va tanlash;

- beshinchi – iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha aniq belgilangan chora – tadbirlarni aniqlash va amalga oshirish.

Yuqorida nomi keltirilgan darslikda iqtisodiy xavfsizlikni keskinlashuviga olib keladigan omillar sifatida quyidagilar keltirilgan:

- korxonaning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichining pastligi;

- korxona uchun investitsiya muhitining yaxshi emasligi;

- korxonaning moliyaviy faoliyatini barqaror emasligi;

[40] Г.С. Вечканов. Экономическая безопасность. Учебник. –СПб.: Питер, 2007, с.227-228

- davlatning o‘z ehtiyojlari uchun kerak bo‘ladigan mahsulotlarning haqini to‘lash borasida qobiliyatsizligi.



7.3-rasm. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasi turlari

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini son va sifat jihatdan tavsiflaydigan indikatorlarga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish dinamikasi;

- ishlab chiqarish korxonasining tarmoq va mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmidagi ulushi;

- ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushurishning amaldagi darajasi;

- ishlab chiqarish jarayonining barqarorligi;

- ishlab chiqarishning rentabellik darajasi;

- aylanma mablag‘larni moliyalashtirish uchun o‘z manbalari bilan ta’minlanganlik;

- muddati o‘tgan qarzdorlik (debitorlik, kreditorlik);

- ishlab chiqarishning fond (kapital) qaytimi;

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining yangilanish sur’atlari;

- innovatsion faollikning darajasi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadigan xavf -xatarlar kelib chiqish manbalariga ko‘ra ichki va tashqi tahdidlarga ajratiladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadigan ichki tahdidlar asosan ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladi:

- asosiy kapitalni eskirgan unsurlarining ommaviy tarzda ishdan chiqishi, ular o‘rnining to‘ldirilmasligi va buning natijasida ishlab chiqarish salohiyatining yo‘qotilishi;

- texnik va texnologik jihatdan qurollanishning orqada qolishi;

- ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi;

- korxona ichida o‘g‘rilik va boshqa noxush hodisalarning mavjud bo‘lishi;

- korxona personalining xatolari (“inson omili”);

- raqobatchilarning axborot olish uchun korxona personalidan foydalanishi;

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadigan tashqi tahdidlarga quyidagilar kiradi:

- tovarlar bozorida o‘z o‘rnini yo‘qotish, ya’ni o‘z tovarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlaydigan foyda bilan sotish imkoniyatining yo‘qligi;

- mamlakatda moliyaviy holatning salbiy tomonga o‘zgarishi;

- fond bozorida korxona aksiyalari narxlarining pasayib ketishi, ya’ni korxonaning kapitallashuv darajasining pasayishi;

- xaridorlar va buyurtmachilar tomonidan to‘lov intizomiga rioya qilinmasligi;

- nohalol raqobatchilar va kontragentlar;

- kriminal raqobat;

- sanoat shpionaji;

- davlatning jinoyatchilikni oldini olish, odil sudlovni amalga oshirish va shuningdek iqtisodiy siyosatni amalga oshirish borasidagi chora -tadbirlarining zaif jihatlari;

- kompyuter texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi jinoyatlar;

- yangi mahsulot ishlab chiqarish va uni ishlab chiqarishga joriy etish[41].

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadigan tahdidlarni bartaraf etish uchun bir qator vazifalarni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Korxona xodimlarining yuqori malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlash, xodimlarning yuqori intellektual salohiyatga ega bo‘lishlariga erishish, korxonaning texnik va texnologik jihatdan mustaqilligini ta’minlash, yuqori raqobatbardoshligiga erishish, korxonani boshqarishda yuqori samaradorlikka erishish, korxona faoliyatining yetarli ekologik darajasini ta’minlash, korxonaning huquqiy himoyalanganligini, korxonaning axborot muhiti himoyasini ta’minlash, korxona xodimlarining xavfsizligini ta’minlash kabilar shular jumlasidandir.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning quyidagi asosiy yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- korxonaning ekologik xavfsizligini umumstrategik rejalashtirish va prognozlash;
- korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini strategik rejalashtirish;
- korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini taktik jihatdan rejalashtirish;
- korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini operativ boshqarish.

7.2. Korxonaning moliyaviy xavfsizligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimi

Globallashuv jarayonlari, iqtisodiyotda yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, raqobatning tobora kuchayib borishi hamda makromuhitdagi yuqori darajadagi noaniqlik sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash masalasi nafaqat davlat miqyosida, balki alohida korxonalar darajasida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida barqaror rivojlanish va uzoq muddatli istiqbolni ta’minlash uchun har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z iqtisodiy manfaatlarini himoya qila olishi zarur.

[41] 5. Вечканов Г.С.. Экономическая безопасность. Учебник. –СПб.: Питер, 2007, с.227-228

Iqtisodiy xavfsizlikning muhim funksional tarkibiy qismlaridan biri bu moliyaviy xavfsizlik hisoblanadi. Moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash muammosi bugungi kunda zamonaviy moliyaviy menejment nazariyasi va amaliyotida, ham mikro darajada (ya’ni korxona miqyosida), ham makro darajada (ya’ni davlat va milliy iqtisodiyot miqyosida) alohida e’tiborni talab etadi. Chunki moliyaviy barqarorlik va likvidlik darajasi korxonaning umumiy faoliyati samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Moliyaviy xavfsizlik korxona iqtisodiy xavfsizligining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Buning sababi shundaki, moliyaviy resurslar korxona faoliyatini amalga oshirishda yetakchi o‘rin egallaydi. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, mehnatga haq to‘lash, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash kabi barcha jarayonlar bevosita moliyaviy resurslarga bog‘liqdir. Shu bois moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash korxonaning uzluksiz va samarali faoliyat yuritishining asosi hisoblanadi.

Dastlab, o‘tgan asrning 90-yillari boshlarida moliyaviy xavfsizlik tushunchasi asosan korxonaning tijorat sirlarini, maxfiy ma’lumotlarini va boshqa muhim axborotlarini himoya qilish bilan bog‘liq holda talqin etilgan. Ya’ni, moliyaviy xavfsizlik ko‘proq axborot xavfsizligi va sir saqlash masalalari bilan uyg‘un holda ko‘rib chiqilgan. Biroq bozor munosabatlarining rivojlanishi, iqtisodiy aloqalarning kengayishi va tashqi muhitning murakkablashuvi natijasida “korxonaning moliyaviy xavfsizligi” tushunchasiga nisbatan yondashuv tubdan o‘zgardi va kengaydi.

Keyinchalik moliyaviy xavfsizlik deganda korxonaning shunday holati tushunila boshlandiki, u noqulay tashqi ta’sirlarga qarshi tura olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, turli moliyaviy xatar va tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlashi hamda ularning salbiy oqibatlarini minimallashtira olishi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy xavfsizlik endilikda faqatgina sir saqlash yoki ma’lumotlarni himoya qilish bilan cheklanmay, balki korxonaning umumiy moliyaviy barqarorligi, to‘lovga qobiliyatliligi, likvidligi va rentabelligini ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi.

Hozirgi talqinga ko‘ra, korxonaning moliyaviy xavfsizligi ancha keng ma’noda qaraladi - bu uning tashqi muhitda yuzaga keladigan turli, jumladan noqulay sharoitlarda ham o‘z barqarorligini saqlab qolish imkoniyati demakdir. Tashqi muhitdagi o‘zgarishlar (iqtisodiy inqirozlar, valyuta kursining tebranishi, inflyatsiya darajasining oshishi, soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, raqobatning kuchayishi va boshqalar) hamda ichki omillar (boshqaruvdagi xatolar, resurslardan samarasiz foydalanish, qarzdorlikning ortishi) korxona faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Moliyaviy xavfsizlik esa ana shunday tahdidlar sharoitida ham korxonaning barqaror ishlashini ta’minlashni anglatadi.

Shunday qilib, korxonaning moliyaviy xavfsizligi - bu uning faoliyatining tashqi muhitdagi salbiy ta’sirlardan himoyalanganligi, shuningdek yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli tahdidlarni tezkorlik bilan bartaraf eta olish yoki mavjud sharoitlarga moslasha olish qobiliyatidir. Bunda moslashuv jarayoni korxona faoliyatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim. Aynan mana shu jihatlar moliyaviy xavfsizlikni korxona iqtisodiy xavfsizligining eng muhim va ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon etadi.

Korxonaning moliyaviy xavfsizligini ta’minlashning asosiy maqsadi - moliyaviy risklar yig‘indisini samarali boshqarish, ularni imkon qadar neytrallashtirish hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni minimallashtirishdan iboratdir. Bunda risklarni aniqlash, baholash, oldini olish va kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash tizimi korxonaning umumiy strategiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u barqaror rivojlanishni kafolatlashga xizmat qiladi.

Korxonaning moliyaviy xavfsizligini baholashda quyidagi eng muhim mezonlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. **Korxonaning moliyaviy resurslari hajmi.** Moliyaviy resurslarning yetarliligi korxonaning ishlab chiqarish, investitsion va boshqa faoliyat yo‘nalishlarini uzluksiz amalga oshirish imkonini belgilaydi.

2. **Moliyaviy resurslarni shakllantirish manbalari.** Mablag‘larning qayerdan va qanday shartlarda jalb qilinayotgani moliyaviy barqarorlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi.

3. **Moliyaviy resurslardan foydalanish yo‘nalishlari va hajmi.** Mablag‘larning oqilona va maqsadli sarflanishi korxonaning samaradorligi hamda rentabelligini ta’minlaydi.

4. **Korxona daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi nisbat.** Daromadlarning xarajatlardan ustunligi moliyaviy barqarorlikning asosiy shartlaridan biridir.

5. **Moliyaviy resurslarni shakllantirishda ichki va tashqi manbalar nisbatlari.** Ichki manbalarning (foyda, amortizatsiya ajratmalari va boshqalar) ulushi yuqori bo‘lishi odatda moliyaviy mustaqillikni oshiradi.

6. **Korxona aktivlarini moliyalashtirishning tanlangan strategik va operativ-taktik modeli.** Qisqa va uzoq muddatli manbalar o‘rtasidagi muvozanat, konservativ yoki agressiv moliyalashtirish siyosati moliyaviy xavfsizlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

7. **Moliyaviy risk darajasi va shakllanayotgan foyda hajmi.** Risk va daromad o‘rtasidagi muvozanat to‘g‘ri tanlanishi zarur, chunki yuqori risk yuqori foyda bilan birga katta yo‘qotish ehtimolini ham anglatadi.

8. **Shakllanayotgan foydaning sifati va korxonani o‘z-o‘zini moliyalashtirish uchun yetarliligi.** Barqaror va real foyda korxonaning tashqi manbalarga haddan tashqari bog‘lanib qolishining oldini oladi.

9. **Moliyaviy resurslar tarkibida qarz mablag‘larining ulushi va sifati.** Qarz yukining ortib ketishi moliyaviy mustaqillikni kamaytiradi va to‘lov qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

10. **Zaxiralarning mavjudligi hamda moliyaviy resurslarni, ayniqsa ichki manbalar hisobidan, tez safarbar eta olish qobiliyati.** Favqulodda vaziyatlarda tezkor moliyaviy choralar ko‘rish imkoniyati muhim ahamiyatga ega.

11. **Korxonaning moliyaviy rejalashtirish tizimi moslashuvchanligi.** Rejalarning real sharoitga mosligi va zarur hollarda tezkor tuzatishlar kiritish imkoniyati moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlaydi.

12. **Korxona moliyaviy tizimining tashqi va ichki muhit ta’sirida zarur o‘zgarishlarni amalga oshira olish qobiliyati.** Moslashuvchanlik va tezkorlik bozor sharoitida muhim ustunlik hisoblanadi.

7.1-jadval

Korxonaning moliyaviy xavfsizligi mezonlari qiymatlari

Mezonlar	**Qiymatlar**		
	Ijobiy	**Neytral**	**Salbiy**
1. Korxonaning moliyaviy resurslari hajmi	katta	o‘rta	cheklangan
2. Korxona moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalari	turli manbalar	bir nechta manba	bitta manba
3. Moliyaviy resurslardan foydalanish yo‘nalishlari va hajmi	ishlab chiqarishni (biznesni) rivojlantirishga	ishlab chiqarish = iste’mol	iste’molga
4. Korxona daromadlari va xarajatlari nisbatlari	>1	=1	<1
5. Moliyaviy resurslarni shakllantirishda ichki va tashqi manbalar nisbatlari	>1	=1	<1
6. Aktivlarni moliyalashtirishning tanlangan strategik va operativ-taktik modeli	aralash (muvozanatli)	kompromissli	agressiv
7. Moliyaviy risk darajasi va shakllanayotgan foyda hajmi	foyda riskdan ustun	foyda va risk muvozanatda	risk foydadan ustun
8. Shakllanayotgan foydaning sifati va o‘z-o‘zini moliyalashtirish uchun yetarliligi	asosiy faoliyatdan olingan foyda o‘zini-o‘zi moliyalashtirish uchun yetarli	turli faoliyat turlaridan olingan foyda o‘zini-o‘zi moliyalashtirish uchun yetarli emas	zararlar ustun, o‘zini-o‘zi moliyalashtirish imkonsiz
9. Moliyaviy resurslar tarkibida qarz mablag‘larining ulushi va sifati	qarz mablag‘lar tarkibida uzoq muddatli qarzlar ustun (60% va undan ortiq)	qisqa va uzoq muddatli qarzlar nisbati taxminan teng (50/50)	qarz mablag‘lar tarkibida qisqa muddatli qarzlar ustun (60% va undan ortiq)
10. Zaxiralarning mavjudligi va moliyaviy resurslarni tez safarbar eta olish qobiliyati	yetarli zaxiralar mavjud, mablag‘larni tez safarbar qilish imkoniyati bor	zaxiralar mavjud, ammo safarbar qilish imkoniyati cheklangan	mablag‘larni safarbar qilish imkoniyati mavjud emas

11. Korxona moliyaviy rejalashtirish tizimining moslashuvchanligi	yuqori moslashuvchanlik	o‘rtacha moslashuvchanlik	qat’iy (qattiq) rejalar
12. Korxona moliyaviy tizimining tashqi va ichki muhit ta’sirida zarur o‘zgarishlarga moslasha olish qobiliyati	yuqori	o‘rtacha	mavjud emas

Ajratib ko‘rsatilgan ushbu mezon tavsiflari korxona uchun ijobiy, neytral yoki salbiy holatda namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli har bir ko‘rsatkichning aniq holatini to‘g‘ri baholash nihoyatda muhimdir. Chunki qaysi omil ijobiy, qaysi biri neytral yoki salbiy ekanligini aniqlash orqali korxona o‘zining moliyaviy xavfsizlik darajasini baholaydi va zarur boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Bu esa uzoq muddatli barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qiladi (7.1-jadval).

Korxonada moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash uchun, avvalo, uning joriy va istiqboldagi moliyaviy holatini baholash imkonini beruvchi miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari tizimini aniqlash zarur. Har bir moliyaviy holat turiga muayyan miqdoriy ko‘rsatkichlarning me’yoriy (normal) chegaralari hamda tashqi va ichki xususiyatga ega aniqlangan real va potensial tahdidlardan moliyaviy manfaatlarning barqaror himoyalanganligini ta’minlovchi sifat ko‘rsatkichlari majmui mos keladi.

Miqdoriy ko‘rsatkichlarni o‘rganilayotgan obyektning xususiyatlariga mos keluvchi hamda korxona moliyaviy xavfsizligini diagnostika qilish va tahlil etish imkonini beruvchi indikatorlar (mezonlar) ko‘rinishida ifodalash maqsadga muvofiqdir. Bunday indikatorlar yordamida moliyaviy barqarorlik darajasi, to‘lovga qobiliyatlilik, likvidlik, rentabellik, moliyaviy mustaqillik kabi muhim jihatlar kompleks ravishda baholanadi.

Aniqlangan og‘ishlar va ularga ta’sir ko‘rsatgan omillar tahlili korxona moliyaviy faoliyatining yakuniy natijalariga ta’sir darajasini baholash imkonini beradi. O‘tkazilgan tahlil yakunlariga ko‘ra, korxonaning moliyaviy xavfsizlik darajasi hamda olingan ko‘rsatkichlarning inqirozli moliyaviy holatga yaqinlik darajasi aniqlanadi.

Moliyaviy xavfsizlikning maksimal darajasi barcha ko‘rsatkichlar ruxsat etilgan chegaralar doirasida bo‘lganda va bir ko‘rsatkichning me’yoriy qiymatiga

boshqa bir ko‘rsatkichning yomonlashuvi hisobiga erishilmaganda ta’minlanadi. Ya’ni, moliyaviy muvozanat kompleks ravishda saqlanishi lozim.

Korxona moliyaviy xavfsizlikni saqlab turishga qaratilgan harakatlar algoritmini ishlab chiqadi. Ushbu algoritm korxonaga inqirozli moliyaviy vaziyat yuzaga kelishining oldini oladigan zarur chora-tadbirlar va amaliy qadamlarni o‘z vaqtida qabul qilish imkonini beradi. Moliyaviy xavfsizlikni rejalashtirish bir nechta muqobil rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish va amalga oshirilgan hisob-kitoblarga asoslanib eng maqbul variantni tanlash orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy xavfsizlikni boshqarish vaqt omiliga ko‘ra ikki asosiy yo‘nalishga bo‘linadi:

1. Joriy muammolarga tezkor javob berish uchun mumkin bo‘lgan qarorlar majmui.

2. Uch-besh yillik rejalashtirish ufqiga ega bo‘lgan moliyaviy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish.

Moliyaviy xavfsizlik shartlariga doimiy rioya etish korxonaga barqaror faoliyat yuritish, raqobatbardoshligini saqlab qolish hamda kelgusida belgilangan strategik maqsadlarga erishish imkonini beradi.

Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish tashkilotni boshqarishning muhim va ajralmas unsuri, moliyaviy tahlil tizimining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlarining umumiy xususiyatlarini aniqlash, hisobot davri uchun ularning dinamikasi va og‘ishlarni ko‘rsatib berish uchun mo‘ljallangan (7.4-rasm).



7.4-rasm. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati iqtisodiy tahlili

Korxonaning moliyaviy holati xo‘jalik faoliyatining eng muhim tavsifi hisoblanadi, u korxonaning moliyaviy resurslari va kapitalini shakllantirish, foydalanish jarayoni, shuningdek pul oqimlari holatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimi bilan ifodalanadi (7.5-rasm).

Korxonaning moliyaviy holati – bu ancha murakkab iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u keng ma’noda tashkilotning o‘z faoliyatini ma’lum bir vaqtda moliyalashtirish qobiliyatini anglatadi va “tuzilmalarning aktivlari va passivlari nisbati, ya’ni korxona mablag‘lari va ularning manbalari bilan ifodalanadi”.



7.5-rasm. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarish

Har qanday tashkilotning moliyaviy holati uning iqtisodiy faoliyati jarayonida shakllanadi va ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyat natijalariga bog‘liq sanaladi. Agar ishlab chiqarish va moliyaviy rejalar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, bu korxonaning moliyaviy holatiga ijobiy ta’sir qiladi. Va aksincha, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining pasayishi natijasida tannarxi oshishi, tushum va foyda summasi kamayishi kuzatiladi va buning natijasida korxonaning moliyaviy ahvoli, uning to‘lov qobiliyati yomonlashadi.

Korxonaning moliyaviy holati ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularni ichki (korxona faoliyatiga qarab) va tashqi (uning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan) omillarga ajratishimiz mumkin.

Tashkilotning barqaror moliyaviy holatiga ta’sir qiluvchi ichki omillarga quyidagilar kiradi:

– kapitalning moslashuvchan tuzilishining mavjudligi;

– kapital harakatini tashkil etish, to‘lov qobiliyatini saqlab qolish va rivojlanish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida daromadlarning xarajatlardan doimiy ortiqcha bo‘lishini ta’minlash;

– bozorda xaridorgir bo‘lgan arzon, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish;

– xo‘jalik va moliyaviy operatsiyalar samaradorligini ta’minlash va shu kabilar.

Korxonaning moliyaviy holatiga ta’sir qiluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

– davlatning soliq, foiz, amortizatsiya siyosati;

– korxonaning bozordagi, shu jumladan moliyaviy mavqeini tushuntirish;

– mamlakatdagi ishsizlik va inflyatsiya darajasi;

– mijozlarning moliyaviy holati va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining eng muhim belgilari korxonaning to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligi bo‘lib, bu, birinchidan, uning uzoq muddatli istiqboldagi faoliyati barqarorligini aks ettirsa, ikkinchidan, tashkilotning qarz muddatini to‘lash vaqti kelish bilan o‘z majburiyatlarini to‘liq to‘lash uchun moliyaviy imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Agar korxonaning to‘lov qobiliyati uning moliyaviy holatining tashqi ko‘rinishi bo‘lsa, moliyaviy barqarorlik uning ichki tomoni bo‘lib, u uzoq muddatli istiqbolda barqaror to‘lov qobiliyatini ta’minlaydi, bu aktivlar va passivlar, daromadlar va xarajatlar balansiga, ijobiy va salbiy pul oqimlari ko‘rsatkichlariga asoslanadi.

Tashkilotning moliyaviy holatini tahlil qilishning asosiy vazifalari:

- uning moliyaviy holati sifatini aniqlash;
- hisobot davrida moliyaviy holatning yaxshilanishi yoki yomonlashishi sabablarini o‘rganish;
- korxonaning moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash.

Ko‘rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish uchun ma’lumot manbalari bo‘lib, korxonaning yillik va choraklik buxgalterlik moliyaviy hisobotlari, shuningdek, buxgalteriya hisobi ma’lumotlari va sintetik hisobvaraqlar bo‘yicha muomalalar va qoldiqlarning zarur analitik ma’lumotlari hisoblanadi.

Moliyaviy holatni tahlil qilishning asosiy usullari bo‘lib, gorizontal, vertikal, trend, koeffitsiyent va faktorial usullar hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilishning asosiy unsurlari quyidagilardan iborat:

- aktivlarning tarkibi va tuzilishi (tashkilotning ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyati resurslari bo‘lgan mulkiy, moddiy va nomoddiy qimmatliklar), ularning holati va dinamikasi;
- passivlarning (o‘z va ssuda kapitali) tarkibi va tuzilmasi, ularning holati va dinamikasi;
- korxona moliyaviy barqarorligining mutloq va nisbiy ko‘rsatkichlari va ulardagi o‘zgarishlarni baholash;
- tashkilotning to‘lov qobiliyati va balans aktivlarining likvidligi.

7.3. Korxonaning texnik-texnologik xavfsizligi

Iqtisodiyotning texnik-texnologik darajasi ikki asosiy omil - investitsiyalar va innovatsiyalarga bevosita bog‘liqdir. Aynan ushbu omillar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi mahsulot turlarini yaratish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Investitsiya jarayoni ijtimoiy takror ishlab chiqarishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Investitsiyalar - bu kapitalning uzoq muddatli asosda ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan qo‘yilmalari bo‘lib, ular korxona faoliyatini kengaytirish,

modernizatsiya qilish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash va kengaytirishni ta’minlaydi.

Investitsiya manbalari o‘z mablag‘lari va qarz kapitaliga bo‘linadi. O‘z mablag‘lariga foyda, amortizatsiya ajratmalari va boshqa ichki manbalar kiradi. Qarz kapitali esa bank kreditlari, obligatsiyalar, tashqi investorlar mablag‘lari va boshqa jalb qilingan resurslarni o‘z ichiga oladi. Investitsiyalar o‘z navbatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalariga ajratiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar - bu mablag‘larning bevosita biznesni rivojlantirishga, uskunalar xarid qilishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga yoki xodimlar malakasini oshirishga yo‘naltirilishidir. Portfel investitsiyalar esa fond bozorida qimmatli qog‘ozlarni sotib olish orqali amalga oshiriladi va investor uchun daromad olish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda investitsion omillarni qo‘llab-quvvatlash muhim shartlardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiyalarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj ularning to‘lovga qodir talab shaklida namoyon bo‘lishi bilan ifodalanadi. Ya’ni, innovatsiya real iqtisodiy samaradorlik keltirgandagina bozorda o‘z o‘rnini topadi.

Ishlab chiqarish investitsiyalarining ahamiyati shundaki, ular mehnat unumdorligini oshiradi hamda yanada sifatli mahsulot yaratish orqali korxonaga raqobat kurashida yetakchilikni saqlab qolish imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatni oshirish va yangi bozor segmentlariga chiqish imkonini yaratadi.

Korxonaning ilmiy-texnologik salohiyati - bu yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, mehnat predmetlarini takomillashtirish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning yangi shakl va usullarini qo‘llash bo‘yicha mavjud vositalar va imkoniyatlar yig‘indisidir. Ushbu salohiyat korxona samaradorligini oshirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Texnologik yangiliklar, ayniqsa avtomatlashtirishning zamonaviy shakllari va axborot texnologiyalarini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligi darajasi va dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Zanjirli reaksiya tamoyili asosida ular texnik daraja, uskunalar unumdorligi, mehnatni tashkil etish shakllari va usullarida, shuningdek kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan asosiy fondlardan yanada samarali foydalanishga bog‘liqdir.

O‘zbekistonda esa ko‘plab korxonalarda innovatsion rivojlanish uchun mablag‘lar yetarli emas. Buning asosiy sababi - ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga talabning hali yetarli darajada shakllanmaganligidir. Shu bilan birga, yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish zarur, bu esa katta hajmdagi moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi. Shunday ekan, investitsion faollikni oshirish va innovatsion muhitni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Innovatsiyalarga yo‘naltiriladigan investitsiyalarning asosiy manbalaridan biri - korxonalarning o‘z jamg‘armalaridir. Ushbu jamg‘armalar foydaning bir qismi hamda amortizatsiya ajratmalaridan shakllanadi. Biroq ishlab chiqarishni texnologik jihatdan yangilash uchun ko‘pincha korxonaning ichki mablag‘lari yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli tashqi moliyaviy manbalarni jalb etish zarurati yuzaga keladi.

Korxonaning texnik-texnologik xavfsizligi mohiyati shundan iboratki, unda qo‘llanilayotgan texnologiyalar darajasi dunyoning eng ilg‘or analoglariga qanchalik mos kelishini belgilaydi. Bu yerda muhim jihatlardan biri - mavjud texnologiyalarning rivojlanish salohiyati hamda kelajakda ularning o‘rnini bosuvchi texnologiyalar bilan raqobatbardoshligi masalasidir. Chunki zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion va alternativ texnologiyalarning ta’siri tobora ortib bormoqda.

Moddiy ishlab chiqarish sohasidagi korxonalar uchun texnik-texnologik xavfsizlikni ta’minlash quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Korxona faoliyat yo‘nalishiga mos mahsulot ishlab chiqarish texnologiyalari bozorini tahlil qilish.

2. Korxonaning o‘z texnologik jarayonlarini tahlil qilish hamda qo‘llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha ichki resurslarni aniqlash.

3. Korxonaning texnologik rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, jumladan:

- istiqbolli mahsulot turlarini aniqlash;
- ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur texnologiyalar majmuasini rejalashtirish;
- korxonaning texnologik rivojlanishi uchun byudjetni shakllantirish;
- texnologik rivojlanishning umumiy rejasini ishlab chiqish.

4. Xo‘jalik faoliyati jarayonida texnik rivojlanish rejalarini operativ amalga oshirish.

5. Korxona iqtisodiy xavfsizligining texnik-texnologik tarkibiy qismini ta’minlash bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijalarini tahlil qilish.

Iqtisodiy xavfsizlik strategiyasining birinchi turi eng radikal bo‘lib, eng yaxshi natijalarni beradi. Biroq, uni amalga oshirish faqat korxonalar tahdidni bartaraf etish yoki oldini olishga qodir bo‘lgan hollardagina mumkin bo‘ladi. Bu, xususan, asosan iqtisodiy xavfsizlikka ichki tahdidlarga nisbatan bo‘lishi mumkin, lekin har doim ham emas. Iqtisodiy xavfsizlikka tashqi tahdidlar, odatda, korxonaga bog‘liq bo‘lmaydi, ular tashqi sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olishi lozim:

- iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning tarkibi va xususiyatlarini hamda ularning ta’sir yo‘nalishini aniqlash;
- iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararni baholash;
- iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni muhimligi, sodir bo‘lish vaqti va boshqa mezonlar bo‘yicha darajalash;

- turli tahdidlarga qarshi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash strategiyasining variantlarini ishlab chiqish va maqbul variantni tanlash;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun aniq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish.

Yuqorida mavjud yoki kutilayotgan iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari haqida so‘z yuritildi. Bunday tahdidlardan himoyalanishni korxona oldindan rejalashtirishi mumkin. Biroq, shunday iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari ham vujudga kelishi mumkinki, ularni oldindan asosli ravishda bashorat qilish imkonsiz bo‘ladi. Asosli bashorat qilish imkoniyati bo‘lmagan iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari – xatarlar hisoblanadi.

7.3-jadval

Korxona faoliyatida duch kelishi mumkin bo‘lgan risklar

RISK TURI	MOHIYATI	BARTARAF ETISH YO‘LLARI
Moliyaviy risklar	Valyuta kursi o‘zgarishi, inflyatsiya, qarzlarning qaytarilmasligi.	Valyuta risklarini xedj qilish, qarzlarni nazorat qilish, moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish.
Huquqiy risklar	Qonunchilikdagi o‘zgarishlar, noto‘g‘ri tuzilgan shartnomalar.	Huquqiy ekspertiza, yurist maslahati, qonunchilikni kuzatib borish.
Texnik va axborot xavfsizligi risklari	Kiberhujumlar, ma’lumotlar yo‘qolishi yoki o‘g‘irlanishi.	Zaxira nusxalari, antivirus tizimlari, ma’lumotlarga kirishni cheklash.
Kadrlar bilan bog‘liq risklar	Malakali kadrlarning ketishi, ichki firibgarliklar.	Motivatsiya tizimi, tekshiruvlar, ichki audit va monitoring.
Ishlab chiqarish va ta’minot risklari	Xomashyo ta’minotining uzilishi, ishlab chiqarishdagi texnik muammolar.	Zahira yaratish, ta’minotchilarni diversifikatsiya qilish, ISO standartlari.
Makroiqtisodiy va siyosiy risklar	Geosiyosiy tangliklar, eksport/ importdagi to‘siqlar, global inqirozlar.	Diversifikatsiya, ichki bozorni rivojlantirish, ssenariy asosida rejalashtirish.

Quyidagi xatar guruhlari yuzaga kelishi ehtimoli mavjud:

- korporatsiya atrofidagi muhitning kutilmagan o‘zgarishlari (ijtimoiy-siyosiy siljishlar va talabning o‘zgarishi, inflyatsiya, devalvatsiya, fond bozorlaridagi pasayish, soliqlarning o‘zgarishi, xo‘jalik hamkorlarining insofsizligi va h.k.);
- korporatsiya uchun yanada foydaliroq takliflarning paydo bo‘lishi (yangi xaridorlar yoki yetkazib beruvchilar), qo‘shimcha foydalarni yo‘qotish xavfi;

- yangi texnik va tashkiliy yechimlarning paydo bo‘lishi, ayniqsa korporatsiyadan tashqarida paydo bo‘lgan, mahsulotning raqobatbardoshligiga tahdid soluvchi;
- texnogen halokatlar, avariyalar, to‘xtashlar va boshqalar;
- xaridorlar va yetkazib beruvchilar bilan o‘zaro munosabatlarning transport, moliyaviy va boshqa shartlarini o‘zgartirish.

Risk muammosi yirik korxonalarning barqarorligi tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. Aynan riskning yuzaga kelishi, odatda, korxonaning haqiqiy rivojlanishining strategik rejada belgilanganidan salbiy chetga chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu esa yuqorida keltirilgan “iqtisodiy xavfsizlik” va “barqarorlik” tushunchalarining ta’rifidan kelib chiqadigan tahdid hisoblanadi. Shunday qilib, risk - bu korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va faoliyat barqarorligiga oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan tahdiddir.

Korxona iqtisodiy xavfsizligi – bu tashqi va ichki tahdidlardan moliyaviy, huquqiy, texnologik, axborot va kadrlar yo‘nalishida barqaror faoliyat yuritish imkoniyatidir. Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan risklarni aniqlash, baholash va ularni bartaraf etish choralari bilan bog‘liq (1-jadval).

Korxonada risklarni aniqlash va ularni tizimli tarzda boshqarish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlaydi. Har bir risk turi bo‘yicha aniq strategiya va doimiy monitoring zarur. Raqobatbardosh va barqaror faoliyat yuritish uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida xavfsizlik tizimini rivojlantirish lozim.

Qisqacha xulosalar

1. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi uning ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish salohiyatini hamda kadrlarini faol va nofaol iqtisodiy tahdidlardan, masalan, davlatning samarasiz ilmiy-sanoat siyosatidan yoki tashqi muhitda yuzaga kelgan tahdidlardan himoyalanganligidir.

2. Korxonaning iqtisodiy xavfsizlik borasidagi strategiyasini puxta ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish milliy iqtisodiyotning eng muhim dastagi

bo‘lgan korxonalarning barqaror o‘sishi va rivojlanishi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun uning xavfsizligiga tahdid soladigan xavf-xatarlarni bilish kerak bo‘ladi. Buning uchun korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ifodalaydigan parametrlarni o‘rganish va ularni tahlil qilish kerak bo‘ladi.

4. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadigan xavf-xatarlar kelib chiqish manbalariga ko‘ra ichki va tashqi tahdidlarga ajratiladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadigan ichki tahdidlar asosan ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladi.

Nazorat savollari

1. Korxona iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka katta e’tibor qaratilayotganligining sabablarini ko‘rsating?
3. Mamlakatimizda biznes muhitini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida gapirib bering?
4. Iqtisodiyotda davlatning ulushini qisqartirishning asosiy yo‘llari va vositalarini sharhlab bering?
5. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsating?

Iqtisodiyot ham xuddi insonlar kabi og‘rishi mumkin. Insonda bo‘lgani kabi bunday holatlarda tezroq sog‘ayib ketish uchun zarur bo‘lgan ichki ishtiyoq va harakatning mavjudligi katta ahamiyat kasb etadi.

Margaret Tetcher.

VIII BOB. XUFYONA IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA’SIRI

8.1. Xufyona iqtisodiyot global muammo sifatida

8.2. Xufyona iqtisodiyot mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid sifatida

Tayanch tushuncha va iboralar: iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektori, xufyona iqtisodiyot, korrupsiya, transmilliy jinoyatchilik**.**

Qisqacha sharh

Darslikning ushbu qismi zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat va jamiyat barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid soluvchi xufyona iqtisodiyot hodisasini tizimli o‘rganishga bag‘ishlanadi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi, shuningdek, moliyaviy va axborot oqimlarining kengayishi sharoitida xufyona iqtisodiyot ko‘plab mamlakatlar uchun umumiy va dolzarb global muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda xufyona iqtisodiyot rasmiy statistik hisobdan chetda qoladigan, soliq va moliyaviy nazorat mexanizmlaridan yashirilgan hamda amaldagi qonunchilikka zid yoki qisman zid tarzda amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatlar majmui sifatida talqin etiladi. Bunday faoliyat turlari davlat byudjeti daromadlarining kamayishi, raqobat muhitining buzilishi, korrupsiya va noqonuniy daromadlar ulushining ortishi orqali iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur bobning birinchi qismida xufyona iqtisodiyot global muammo sifatida tahlil qilinib, uning yuzaga kelish omillari, asosiy shakllari hamda rivojlanish tendensiyalari yoritiladi. Xususan, turli mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot ulushining farqlanish sabablari va ularni baholashga doir nazariy yondashuvlarga e’tibor qaratiladi.

Bobning ikkinchi qismida esa xufyona iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid sifatidagi roli ochib beriladi. Unda fiskal barqarorlik, moliyaviy tizimning ishonchliligi, bandlik darajasi, ijtimoiy tenglik va institutsional muhitga ko‘rsatiladigan salbiy ta’sirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, xufyona iqtisodiyotning kengayishi milliy iqtisodiy manfaatlarga putur yetkazishi hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanish imkoniyatlarini cheklashi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

O‘zbekiston 2030 yilga qadar iqtisodiy shaffoflikni oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni boshladi

O‘zbekiston 2030 yilga qadar iqtisodiy shaffoflikni oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishni boshladi. Bu islohotlar orqali xufyona iqtisodiyot ulushini kamaytirish, naqd pulsiz to‘lovlarni kengaytirish va rasmiy bandlikni oshirish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 10 dekabrdagi PF-246-son “Naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish va xufyona iqtisodiyot ulushini kamaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni iqtisodiy faollikni oshirish, raqobat muhitini kuchaytirish, shuningdek, biznesni xufyona aylanishdan chiqarib, to‘liq rasmiy faoliyatga o‘tkazishga qaratilgan.

Hisoblarga ko‘ra, 2024 yilda yalpi ichki mahsulotdagi kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi “34,8%”ni (505 trln. so‘m) tashkil etdi. Shundan:

- xufyona iqtisodiyot – 24,1% (122 trln. so‘m),
- norasmiy iqtisodiyot – 75,9% (384 trln. so‘m).

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotga organlar tomonidan rasmiy ro‘yxatga olinmagan va statistik hisoblarda aks etmagan turli iqtisodiy faoliyat turlari kiradi. Bu faoliyatga yashirin, norasmiy va noqonuniy iqtisodiy faoliyat kiradi.

Xufyona iqtisodiyotga rasmiy qonuniy faoliyat turlari, lekin deklaratsiya qilinmaydigan faoliyatlar kiradi. Masalan, mehnat munosabatlari rasmiylashtirilmagan holda ishlash. Bu amaliyot soliq tushumlarini kamaytiradi va raqobatni buzadi.

Norasmiy iqtisodiyotga ro‘yxatga olinmagan tadbirkorlik va ishlab chiqarish (xizmatlar) kiradi, u rasmiy mehnat bozoriga barqaror kirish imkoniga ega bo‘lmagan aholi guruhlari uchun bandlikni ta’minlaydi.

Noqonuniy iqtisodiyotga esa qonunchilikka zid barcha faoliyat turlari kiradi.

Kuzatilmaydigan bandlik darajasi sohalar bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan: qishloq xo‘jaligi – 63%, qurilish – 41%, xizmatlar – 40%, sanoat – 9%. Bu ma’lumotlar sohalarning ochiqligi darajasi va norasmiy mehnat amaliyotlari qo‘llanilishining farqlarini aks ettiradi.

Farmonda yalpi ichki mahsulotdagi kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini kamaytirish bo‘yicha asosiy vazifalar belgilangan. Agar 2024 yilda bu ko‘rsatkich **34,8%** bo‘lgan bo‘lsa, 2030 yilda uni “23%”ga tushirish rejalashtirilgan. Bu xufyona iqtisodiyotning taxminan **1,3 barobar kamayishini** anglatadi va iqtisodiy faoliyat shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Naqd pulsiz to‘lovlar o‘sishi bo‘yicha ham aniq maqsadlar belgilangan. Savdo va xizmatlar sohasida 2024 yilda naqd pulsiz to‘lov ulushi “66%”ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2030 yilda u “75%”ga yetkazilishi kutilmoqda. Bu naqd pulsiz to‘lov hajmini **1,2 barobar oshirish**, shaffoflikni kuchaytirish va xizmatlar sektorida hisobdorlikni yaxshilash imkonini beradi.

Asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri rasmiy bandlikni oshirish hamdir. 2024 yilda rasmiy sektorda ishlovchi aholi ulushi jami iqtisodiy faol aholi sonining “49%”ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2030 yilda bu ko‘rsatkich “64%”ga yetkazilishi rejalashtirilgan, ya’ni **1,3 barobar oshadi**. Bu o‘sish mehnat bozorini rasmiylashtirish jarayonini tezlashtiradi va aholi daromadlarining shaffofligini ta’minlaydi.

Farmonda mamlakatning xalqaro reytinglardagi pozitsiyasini yaxshilash choralari ham belgilangan. Iqtisodiy erkinlik indeksida O‘zbekiston 2024 yilda **103-o‘rinni** egallagan bo‘lsa, 2030 yilda **73-o‘ringa** ko‘tarilishi rejalashtirilgan. Bu 30 pog‘ona o‘sish biznes muhitini yaxshilash, iqtisodiy erkinlikni kengaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Korrupsiyani qabul qilish indeksi bo‘yicha 2024 yilda O‘zbekiston **121-o‘rinni** egallagan bo‘lsa, 2030 yilda **91-o‘ringa** chiqishi rejalashtirilgan. 30 pozitsiyaga o‘sish antikorrupsiya islohotlari samaradorligini ko‘rsatadi.

Qabul qilingan farmon iqtisodiy shaffoflikni oshirish, raqamli to‘lovlarni keng joriy etish va rasmiy bandlikni kuchaytirishga qaratilgan muhim yo‘nalishlarni belgilab, mamlakatda barqaror va ochiq iqtisodiy muhitni shakllantirish asosini yaratadi.

8.1. Xufyona iqtisodiyot global muammo sifatida

Xufyona iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchlari bir nechta omillardan iborat bo‘lib, ular mamlakat iqtisodiyotining rasmiy tizimi bilan to‘liq integratsiyalashmaganligi natijasida yuzaga keladi. Eng avvalo, hukumatning past samaradorligi va davlat boshqaruvi tizimidagi muammolar korxona va fuqarolarga rasmiy soliqlar va tartib-qoidalarni chetlab o‘tishga imkon yaratadi. Shuningdek, huquqiy tizimning to‘liq ishlamasligi, qonun ustuvorligi va sud-huquq tizimidagi nuqsonlar tadbirkorlik faoliyatini yashirin yo‘llar bilan olib borishga undaydi. Yuqori soliq stavkalari va ishsizlik darajasi esa aholiga rasmiy iqtisodiy faoliyatdan

ko‘ra, qora bozor va yashirin iqtisodiyot orqali daromad topishni ma’qul ko‘rsatadi. Bundan tashqari, oilaviy mehnatning roli ham katta bo‘lib, ko‘plab oilalar farzandlari va qarindoshlarini ishga jalb qilgan holda, rasmiy tizimdan chetda ishlab, yashirin iqtisodiyotning kengayishiga hissa qo‘shadi. Shu tarzda, yuqoridagi omillar birgalikda xufyona iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishiga asosiy harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Samarasiz boshqaruv va tanlab olingan taraqqiyot modelining real hayotiylikka ko‘p holatlarda mos kelmasligi bilan izohlanuvchi va dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida kuzatilayotgan murakkab iqtisodiy vaziyat norasmiy iqtisodiyot ko‘lamlarining tobora kengayishiga olib keldi.

Mehnatkashlar uchun norasmiy iqtisodiyot eng avvalo, samarali bandlik uchun yetarlicha shart-sharoitlar, tegishlicha ijtimoiy ta’minotning mavjud emasligi, mehnat qonunchiligiga rioya etilmasligi, mehnat unumdorligining pastligi, ish beruvchilar va xodimlar o‘rtasida ijtimoiy murosaning yo‘q ekanligini anglatadi. Ushbu omillarning barchasi “yaxshi ish o‘rinlari”ga ega bo‘lgan barqaror korxonalarning yaratilishiga to‘sqinlik qiladi.

Norasmiy iqtisodiyot – mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga favqulodda salbiy ta’sir ko‘rsatgani holda, mamlakat milliy xavfsizligini ham jiddiy xavf ostiga qo‘yadi.

Norasmiy iqtisodiyotning o‘sishi birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy sohani tubdan izdan chiqishiga olib keladi, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini pasaytirib yuboradi, aholining ijtimoiy faolligini pasaytirib yuborgani holda davlat byudjetiga pul tushumlarining qisqarishini va hayotiy jihatdan muhim ijtimoiy loyihalarning yetarlicha moliyalashtirmasdan qolishini keltirib chiqaradi. Aynan shu sababli ham bugungi kunda norasmiy iqtisodiyot ko‘lamlarini qisqartirishga yo‘naltirilgan chora -tadbirlar dolzarb muammolardan sanaladi.

Ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi insoniyatning yanada taraqqiy etishi uchun yangi imkoniyatlar ochish bilan birga, bir qator sifat jihatdan yangi bo‘lgan global tahdidlarni ham keltirib chiqardi. Bugungi kunga kelib xufyona iqtisodiyot transmilliy tavsifga ega bo‘lib bormoqda.

Ko‘pincha iqtisodiy adabiyotlarda “xufyona iqtisodiyot”, “yashirin iqtisodiyot”, “noqonuniy ishlab chiqarish”, “norasmiy iqtisodiyot”, “nolegal iqtisodiyot” tushunchalari sinonimlar sifatida keltirilsada, ammo Milliy Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan qo‘llanmada bu tushunchalarga har xil ta’riflar beriladi. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida Hisobga olinmaydigan iqtisodiyot tushunchasidan foydalaniladi. Xalqaro standartlarga muvofiq, hisobga olinmaydigan iqtisodiyotning asosiy unsurlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- yashirin ishlab chiqarish. Bu xil ishlab chiqarish aslida iqtisodiy jihatdan asosli va qonuniy bo‘lsa-da, ishlab chiqaruvchilar soliqlar to‘lashdan qochish,

ma’lum bir me’yor va standartlarga rioya qilmaslik maqsadida ongli ravishda chshirin ko‘rinishda faoliyat yuritishni ma’qul ko‘radilar;

- noqonuniy ishlab chiqarish quyidagilar bilan tavsiflanadi: (1) egalik qilish, sotish va ishlab chiqarish qonun yo‘li bilan ta’qiqlangan faoliyat turlari (masalan, giyohvand moddalar ishlab chiqarish va sotish, fohishabozlik, kontrabanda, o‘g‘irlangan tovarlar oldi-sotdisi va boshqalar) va (2) qonunchilikda shug‘ullanishga amalda ruxsat berilgan bo‘lsa-da, ammo tegishli tartibda ruxsatnomasiz shug‘ullanilganda bunday faoliyat turlari ham noqonuniy faoliyat sifatida talqin etiladi;

- norasmiy sektorda ishlab chiqarish, bunday faoliyat turi ro‘yxatdan o‘tmagan yoki a’zolari soni ro‘yxatdan o‘tish uchun belgilangan chegaradan kam bo‘lgan va ma’lum bir darajada bozor yo‘sinidagi ishlab chiqarishga ega bo‘lgan uy xo‘jaligi sektorida faoliyat ko‘rsatuvchi nokorporativ korxonalar tomonidan amalga oshiriluvchi faoliyat turlarini qamrab oladi, bunda ishlab chiqaruvchilar oila a’zolarining mehnatidan foydalangan holda, ma’lum bir turdagi mahsulotlarni bozorga olib chiqadilar;

- uy xo‘jaligi ishlab chiqarishi;

- statistik kuzatishni tashkil etishdagi xatoliklar tufayli hisobga olish qiyin bo‘lgan ishlab chiqarishlar. Bunda faoliyat turi qasddan yashirib ko‘rsatilmasa-da, statistik kuzatish imkoniyatlarining pastligi sabab faoliyat natijalarini iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida baholab bo‘lmaydi.

Hisobga olish qiyin bo‘lgan iqtisodiyotning yuqorida keltirilgan ta’rifi bir muncha tor sanaladi, chunki u korrupsiya, poraxo‘rlik, kapitalni noqonuniy olib chiqib ketish, tovlamachilik kabilarni qamrab ololmagan.

2015 yilda Xalqaro Mehnat Tashkiloti №204 sonli Yo‘riqnoma qabul qilgan. Mazkur yo‘riqnomaga ko‘ra “norasmiy iqtisodiyot”[44]: qonunchilik asosida yoki amaliyotda rasmiy munosabatlar bilan iqtisodiy birliklar va xodimlarning to‘liq yohud to‘liq qamrab olinmaydigan iqtisodiy faoliyati qamrab olsada, qonun yo‘li

[44] Рекомендация МОТ №204 о переходе от неформальной к формальной экономике, 2015г.

bilan ta’qiqlangan faoliyat turlari, xususan giyohvand moddalarni ishlab chiqarish va ularning noqonuniy muomalasi, noqonuniy qurol-yarog‘ ishlab chiqarish va ular bilan savdo qilish, odam savdosi va shu kabilarni o‘z ichiga olmaydi.

Xufyona va noqonuniy iqtisodiyot italyan mafiyasi 1930 -yillarda amerika iqtisodiyotiga hujum uyushtirgan paytlarda o‘zini bor bo‘yi basti bilan namoyon qildi. Ayni o‘sha paytdan boshlab xufyona iqtisodiyot nafaqat huquq-tartibot organlarining muammosiga, balki umumiqtisodiy va umumdavlat miqyosidagi muammoga aylandi.

2023-yil yakunlariga ko‘ra, xufyona iqtisodiyotning ulushi global yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning taxminan 11,8% ini tashkil etdi. Taqqoslash uchun, 2000-yilda bu ko‘rsatkich 17,7% ni tashkil qilgan. Ushbu ma’lumotlar xalqaro audit va konsalting kompaniyasi Ernst & Young tomonidan olib borilgan tadqiqotda aks etgan.

Tahlilchilar ta’kidlaganidek, ko‘pchilik mamlakatlarda qora iqtisodiyotning hajmi kamayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda, biroq u baribir ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jamiyat va davlatdan yashirilgan, davlat nazorati va hisobidan tashqarida qolgan faoliyat har yili trillionlab dollar ishlab chiqaradi.

Davlatlar xufyona iqtisodiyotga qarshi turli chora-tadbirlar ko‘rmoqda va bu sezilarli natija bermoqda: Ernst & Young baholashicha, 2000–2023 yillar davomida tadqiqot qilingan 131 mamlakatdan 119 tasida qora iqtisodiyot hajmi kamaygan. Eng sezilarli kamayish daromadi past mamlakatlarda kuzatilgan, daromadi yuqori bo‘lgan davlatlarda esa o‘zgarish nisbatan kamroq bo‘lgan, bu esa asosan boshlang‘ich hajmning kichikligidan kelib chiqqan.

2023-yilda xufyona iqtisodiyot ulushi eng yuqori bo‘lgan mamlakatlar: Syerra-Leone - YaIMning 64,5%; Niger - 56,3%; Nepal - 51%. Eng past ko‘rsatkich BAAda qayd etilgan - 2,1%.

Rossiya ushbu reytingda 79-o‘rinda, xufyona iqtisodiyot ulushi YaIMning 13,1% ini tashkil etadi. Belarusda ko‘rsatkich 18,3%**,** bu esa 64-o‘ringa to‘g‘ri keladi. Tadqiqotga ko‘ra, AQShda xufyona iqtisodiyot hajmi 2023-yilda YaIMning

taxminan 5% ini, Buyuk Britaniyada 5,3%, Germaniyada 6,8%, Xitoyda 20,3%, Yaponiya esa 6,7% ni tashkil qilgan.

Xufyona iqtisodiyot muammosini tadqiq qilishda mutaxassislar quyidagi qonuniyatga alohida e'tibor qaratadilar. Qaysi mamlakatda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar yuqori bo‘lsa, shu mamlakatda xufyona iqtisodiyot miqyoslari kam bo‘ladi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad miqdori yiliga 30 ming doll.dan kam bo‘lmagan mamlakatlarda jamiyatning ijtimoiy tarkibida aholining 60–70 foizni tashkil etuvchi o‘rta qatlamlar yetakchi rol o‘ynaydi. Bular asosan qonunlarga itoat etadigan mas'uliyatli soliq to‘lovchilardir. Albatta, bu mamlakatlarda kam ta'minlanganlar ham mavjud, lekin rivojlangan ijtimoiy yordam dasturlari ularni xufyona iqtisodiyotga tortilishlariga to‘siq bo‘ladi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot yo‘lida to‘siq rolini o‘ynaydigan samarali institutsional mexanizm shakllangan. Bunda davlat markaziy bo‘g‘in bo‘lib hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlardagi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy barqarorlik bozor xo‘jaligining samarali ishlashini ta'minlovchi va xufyona iqtisodiyotni faollashuvini birmuncha cheklab turuvchi muhim shartlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Mana shu muvozanatning buzilishi iqtisodiy jinoyatchilikni kuchayishiga olib keladi. Bunga AQShda 1930 – yillarda sodir bo‘lgan buyuk depressiya davrida jinoyatchilikni avj olib ketganligi misol bo‘ladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot miqyoslari rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, buning sabablari tubdan farq qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot majburiy tavsifga ega bo‘lib, aholining o‘ta kambag‘al qatlamlarini qanday qilib bo‘lsa ham kun ko‘rish masalasini hal etish bilan belgilanadi.

Ta'kidlanganidek, rivojlanayotgan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot ulushi juda katta bo‘lib, Nigeriyada rasmiy YaIMning 76 foizni tashkil etadi. Mana shunday yuqori ko‘rsatkichlar Tailand (71%), Misr (68%), Boliviya (66%) va Panama (62%) kabi mamlakatlarda kuzatiladi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa 60–65 foiz atrofida qayd qilinadi.

8.2. Xufyona iqtisodiyot mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid sifatida

Xufyona iqtisodiyot bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar o‘tgan asrning 70 – yillaridan boshlab tadqiqotchilarning e’tiborlarini tortib boshlagan.

Akademik G.Senchagov tahriri ostida nashr etilgan “Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii”, deb nomlangan darslikda yozilishicha, xufyona iqtisodiyot muammolarini o‘rganish borasidagi salmoqli ishlardan biri P. Gutmanning (AQSh) “Yashirin iqtisodiyot” deb nomlangan maqolasi bo‘ldi. Unda hisobga olinmagan yoki yashirin faoliyatni pisand qilmaslik mumkin emasligi ta’kidlangan[45].

«Xufyona iqtisodiyot» – bu jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan tovar moddiy boyliklar va xizmatlarning xarajati. Boshqa so‘z bilan aytganda, alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi davlat boshqaruv organlaridan yashirinadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi. Bu munosabatlar iqtisodiy faoliyatning hisobga olinmagan va reglamentlanmagan munosabatlarini o‘z ichiga oladi.

Rossiyalik mutaxassis D. V. Gordienko xufyona iqtisodiyotni nafaqat iqtisodiy – ijtimoiy tuzilmalar, jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy – iqtisodiy voqelik sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, “Xufyona iqtisodiyot – bu jamiyat tomonidan nazorat qilib bo‘lmaydigan, mamlakat aholisining bir qismini tashkil qiluvchilarning shaxsiy va guruhiy manfaatlarini qondirish, ya’ni katta miqdorda qo‘shimcha daromad (foyda) olishni ko‘zlab davlat organlari boshqaruvi va nazoratidan yashirgan holda, davlat va nodavlat mulkidan hamda iqtisodiy boylik, tadbirkorlik qobiliyatidan jinoiy yo‘l bilan foydalanishdir”[46]. Xufyona iqtisodiyot oshkor rasmiy iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, uning tarkibiy qismidir. Xufyona iqtisodiyot tadbirkorlari o‘z faoliyatlarida iqtisodiy munosabatlar, xo‘jalik yuritish subyekti bo‘lmasdan turib, davlatning “xizmati”dan, moddiy – ashyoviy omillari, ishchi kuchidan foydalanadilar.

---

[45] Экономическая безопасность России. Под общ. ред. акад. Г.Сенчагова. Москва. «ДЕЛО». 2005, с.764

[46] Гордиенко, Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекции. Учебно-методическое пособие / Д.В. Гордиенко. – М.: Инфра-М, Финансы и статистика, 2013. - 625 с..

Iqtisodiy adabiyotlarda “xufyona iqtisodiyot” kriminal, soxta, norasmiy, nolegal (ikkilamchi iqtisodiyot)larga bo‘lib o‘rganiladi.

8.1-jadval

Xufyona iqtisodiy faoliyat shakllari

Faoliyat shakli	**Mazmuni**	**Asosiy belgilar**	**Keng tarqalgan sohalar**	**Iqtisodiyotga ta’siri**
Norasmiy iqtisodiyot	Davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshiriladigan, o‘zi qonuniy bo‘lgan xo‘jalik faoliyati	Ro‘yxatdan o‘tmaslik, soliq to‘lamaslik, rasmiy hisobot yuritmaslik	Maishiy xizmatlar, chakana savdo, qurilish, qishloq xo‘jaligi	Bandlikni ta’minlaydi, ammo byudjet tushumlarini kamaytiradi
Yashirin (soya) iqtisodiyot	Qonuniy faoliyat daromadlarini ataylab yashirish orqali soliqlardan bo‘yin tovlash	Ikki xil buxgalteriya, daromadni kamaytirib ko‘rsatish, naqd pul aylanmasini yashirish	Savdo, umumiy ovqatlanish, xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish	Raqobat muhitiga putur yetkazadi, soliq bazasini qisqartiradi
Noqonuniy iqtisodiyot	Amaldagi qonunchilik bilan taqiqlangan faoliyat turlari	Litsenziyasiz ishlab chiqarish, noqonuniy savdo, yashirin operatsiyalar	Kontrabanda, qalbaki mahsulot ishlab chiqarish, noqonuniy kon qazish	Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soladi, rasmiy sektorni zaiflashtiradi
Kriminal iqtisodiyot	To‘liq jinoiy faoliyatga asoslangan va jinoyat kodeksi bilan jazolanadigan iqtisodiy operatsiyalar	Uyushgan jinoiy guruhlar, yashirin moliyaviy oqimlar, xalqaro jinoiy tarmoqlar	Giyohvand moddalar savdosi, odam savdosi, noqonuniy qurol savdosi	Jamiyat barqarorligiga va milliy xavfsizlikka jiddiy zarar yetkazadi
Korrupsion iqtisodiyot	Mansab va xizmat vakolatidan shaxsiy manfaat uchun foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar	Pora olish-berish, manfaatlar to‘qnashuvi, davlat mablag‘larini talon-toroj qilish	Davlat xaridlari, qurilish, bojxona, litsenziyalash tizimi	Davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiradi, ishonchni kamaytiradi
Parallel (ikki sektorli) iqtisodiyot	Rasmiy iqtisodiyot bilan bir vaqtda yashirin faoliyat yurituvchi xo‘jalik tizimi	Qisman rasmiy, qisman yashirin operatsiyalar	Savdo, ishlab chiqarish, import-eksport	Bozor mexanizmlarining buzilishiga olib keladi

Maishiy xufyona faoliyat	Uy xo‘jaliklari doirasida norasmiy daromad olish faoliyati	Shartnomasiz mehnat, og‘zaki kelishuv	Repetitorlik, uyda tikuvchilik, xizmat ko‘rsatish	Aholi daromadini oshiradi, lekin ijtimoiy himoya tizimidan tashqarida qoladi

Norasmiy iqtisodiyot asosan davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshiriladigan, biroq mazmunan qonuniy bo‘lgan xo‘jalik faoliyatini qamrab oladi. U ko‘pincha kichik savdo, maishiy xizmatlar, qurilish va qishloq xo‘jaligida uchraydi. Mazkur shakl aholi bandligini ta’minlashga xizmat qilsa-da, rasmiy statistikada aks etmagani sababli davlat byudjeti tushumlarining kamayishiga olib keladi.

Yashirin (soya) iqtisodiyot esa rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan faoliyat doirasida daromadlarni ataylab kamaytirib ko‘rsatish yoki soliqlardan bo‘yin tovlash bilan tavsiflanadi. Ikki xil buxgalteriya yuritish va naqd pul aylanmasini yashirish uning asosiy belgilaridir. Bu holat sog‘lom raqobat muhitiga putur yetkazadi hamda soliq bazasini qisqartiradi.

Noqonuniy iqtisodiyot amaldagi qonunchilik bilan taqiqlangan faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Litsenziyasiz ishlab chiqarish, kontrabanda yoki noqonuniy kon qazish kabi jarayonlar bunga misol bo‘la oladi. Bunday faoliyat iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soladi va rasmiy sektorning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Kriminal iqtisodiyot to‘liq jinoiy faoliyatga asoslangan bo‘lib, odatda uyushgan jinoiy guruhlar orqali amalga oshiriladi. Giyohvand moddalar, odam savdosi yoki noqonuniy qurol savdosi kabi faoliyat turlari uning asosiy ko‘rinishlaridir. Bu shakl jamiyat barqarorligiga, ijtimoiy tartibga va milliy xavfsizlikka jiddiy zarar yetkazadi.

Korrupsion iqtisodiyot mansab yoki xizmat vakolatidan shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanish bilan bog‘liqdir. Pora olish-berish, davlat mablag‘larini talon-toroj qilish va manfaatlar to‘qnashuvi uning asosiy belgilaridir. Natijada davlat boshqaruvi samaradorligi pasayadi va fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchi susayadi.

Parallel (ikki sektorli) iqtisodiyot rasmiy va yashirin faoliyatning bir vaqtning o‘zida olib borilishi bilan tavsiflanadi. Korxona yoki tadbirkor o‘z faoliyatining bir qismini rasmiy, boshqa qismini esa yashirin tarzda amalga oshiradi. Bu esa bozor mexanizmlarining buzilishiga, statistik ma’lumotlarning noto‘g‘ri shakllanishiga olib keladi.

Maishiy xufyona faoliyat uy xo‘jaliklari doirasida shartnomasiz yoki og‘zaki kelishuv asosida bajariladigan ishlarni anglatadi. Repetitorlik, uyda tikuvchilik yoki turli xizmat ko‘rsatish ishlari bunga misol bo‘ladi. Ushbu shakl aholining qo‘shimcha daromad topishiga yordam beradi, biroq ijtimoiy himoya va mehnat kafolatlaridan chetda qolish xavfini yuzaga keltiradi.

Xufyona iqtisodiyotga bo‘lgan kompleks yondashuv uni quyidagicha ta’riflash imkonini beradi. Xufyona iqtisodiyot bozor xo‘jaligining obyektiv va doimo mavjud bo‘luvchi tizimi bo‘lib, uning doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar nohalol raqobat usullari orqali iqtisodiy manfaat olishga harakat qiladilar, ya’ni, o‘z tashabbuslari yoki tashqi shart-sharoitlar ta’sirida qonunga, ish yuritish etikasiga, biznes bilan hokimiyat o‘rtasidagi o‘yin qoidalariga, jamiyatning ma’naviy – ahloqiy me’yorlariga zid bo‘lgan xatti – harakatlarni amalga oshiradilar[47].

Bundan kelib chiqadiki, xufyona va norasmiy faoliyat olib borishdan oxir-oqibat tadbirkor o‘ziga ham, davlatga ham zarar keltiradi. Birinchidan, «xufyona iqtisodiyotda» faoliyat ko‘rsatayotgan korxona (firma) bozorni qo‘llab-quvvatlovchi institutlardan foydalana olmaydi. Ikkinchidan, korxona o‘z faoliyatini fosh bo‘lib qolish va jazo olishning doimiy xavfi ostida olib boradi va bu uning xo‘jalik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘z resurslarini yashirib korxona ulardan samarali foydalana olmaydi. Uchinchidan, norasmiy tarzda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona ishlab chiqarishga katta kapital sarflay olmaydi, ya’ni fosh bo‘lib qolishdan cho‘chib faoliyatni kengaytira olmaydi. Va nihoyat, to‘rtinchidan, davlat olishi mumkin bo‘lgan soliq tushumlarini ololmaydi.

[47] Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. «ДЕЛО», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.50

“Xufyona” iqtisodiyotning sobiq Ittifoqda shakllanish shart-sharoitlarini kuzatish shuni ko‘rsatdiki, u 80-yillarning o‘rtalariga kelib, keng quloch yozdi (yashirin xizmat sohasi, tovarlarni davlat chakana tarmoqini chetlab sotib olish, davlat moddiy texnik ta’minoti tizimini chetlab, korxonalarni ta’minlash) xufyona sektor ishlab chiqarishda ham shakllana boshladi.

Xuddi shunga o‘xshash xufyona iqtisodiyot Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham mavjud edi. Lekin ularda ochiq mayda tadbirkorlik (cheklangan darajada bo‘lsa ham) kanallari mavjudligi tufayli, “xufyona” iqtisodiyotning ko‘lami juda ham katta emas edi.

Sobiq Ittifoqda kooperatsiya to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi va nodavlat tadbirkorligining shakllanishi uchun huquqiy asosning yaratilishi tadbirkorlikni ochiq-oydin olib borish uchun sharoit yaratdi. Biroq bu jarayon Sharqiy Yevropadagiga nisbatan boshqacharoq kechdi. Asosiy farq shundan iborat ediki, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida davlat va nodavlat sektorlari orasida ozmi-ko‘pmi aniq chegaralar bo‘lgan bo‘lsa, sobiq Ittifoqda esa bu chegaralar “yuvilib” ketgan edi va bu davlat korxonalari uchun o‘z mablag‘lari bilan kooperativlarni va boshqa nodavlat korxonalarini (kichik korxonalar, tijorat banklari, birjalar) tashkil etish imkonini berdi. Shu sababli, davlat korxonalarining mulki va pul mablag‘lari nodavlat korxonalarning kapitaliga aylandi va bu korxonalar davlat rejali xo‘jalik tizimida foydalanish uchun mo‘ljallangan resurslaridan katta-katta daromadlar oldilar. Biroq bu yo‘lda davlat sektoridan nodavlat sektoriga resurslarni erkin oqib o‘tishiga ma’lum tashkiliy-huquqiy to‘siqlar bo‘lganligini ham ta’kidlab o‘tish haqiqatga yaqinroq bo‘lar edi. Ushbu to‘siqlar mavjud bo‘lganligi sababli, ularni chetlab o‘tish yo‘llarini izlab topish zarur edi va korrupsiya bunday uslub bo‘lib xizmat qildi. Bunday ishlar kooperativ va davlat korxonalarining ishlab chiqarish – savdo faoliyatlarida davlat korxonalarining xomashyo va materiallari, moliyaviy resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishdan iborat bo‘lmadi. Davlat mulki nafaqat kichik kooperativ va kichik korxonalarning, balki katta-katta birja va banklarning ustav kapitallarini shakllantirish uchun foydalanila boshlandi. Davlat

kapitalini dabdurustdan, tartibsiz xususiylashtirish boshlandi. Shu bilan birga, tijoratning kriminallashuvi tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi[48].

Aksariyat hollarda insonga kam kuch sarflab, ko'proq manfaat olishga intilish xosdir. Yu.N.Popov, M.E Tarasovlarning fikricha, bunday ratsionalizm ichki to'siqlarning yetarli emasligi va ba'zida ularning umuman yo'qligi sharoitida insonni xufyona faoliyat olib borishga undaydi. Inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, lekin insonning xulq-atvorini u yashayotgan muhit, tarbiyasi, madaniyati va ma'naviyati belgilaydi. Inson tabiatidagi ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi ziddiyat mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimiga, ya'ni tarixiy an'analar, qonunchilik, jamiyatning ma'naviy-ahloqiy me'yorlariga bog'liq ravishda hal etiladi. Umuman, xufyona faoliyat insonning xo'jalik faoliyati davomida u yoki bu darajada doimo mavjud bo'ladi.

Xufyona faoliyatning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan omillar orasida bozor xo'jaligiga xos bo'lgan iqtisodiy omillar alohida o'rin tutadi.

Institutsionalizm tarafdorlarining qarashlaricha, xo'jalik subyektlarining faoliyatlari qonun doirasida olib borilgan taqdirda transaktsion xarajatlarining yuqoriligi yashirin iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga undaydi. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- qonun doirasida faoliyat olib borish uchun qilinadigan xarajatlar (yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tish, litsenziya olish, yuridik adres olish va boshqa rasmiyatchiliklarni amalga oshirish uchun qilinadigan sarf-xarajatlar);

- qonun doirasida faoliyatni davom ettirish (soliqlar to'lash, mehnat munosabatlari sohasida qonuniy talablarni bajarish, zarur bo'lganda nizolarni sud orqali hal etish uchun sarflanadigan xarajatlar).

Umumiy qabul qilingan transaksiya xarajatlari nuqtai nazaridan xufyona iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishi huquqiy bazaning takomillashmaganligi, davlat tomonidan o'ziga xos funksiyalarning samarasiz bajarilishi, xo'jalik faoliyatida ikki

[48] Колганов М. Особенности предпринимательства в переходной экономике. №1, 1999, 77-78-б.

xil standartlarning keng tarqalishi kabi tovlamachiliklarning o‘sishi bilan bog‘liq katta miqdordagi transaksiya xarajatlari bilan kuzatiladi.



8.1-rasm. Xufyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablarining guruhlanishi[49]

Transaksiya xarajatlari o‘sishining sababi xufyona sektori iqtisodiyoti emas, balki rasmiy iqtisodiyotda yuqori transaksiya xarajatlarining mavjudligi xufyona sektor faoliyat ko‘rsatishining sabablaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xufyona biznes ishtirokchilari o‘zini soliqlardan, litsenziyalashdan, shartnomalar tuzishdan, qonunlarga amal qilishdan ozod qiladi va “o‘yin qoidalariga” ko‘ra mulkchilik huquqini mustaqil ravishda muhofaza qiladi hamda uni buzgan xatti-harakat uchun jazolaydi va bu bilan rasmiy faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga qaraganda raqobat jihatdan ustunlikka ega.

8.2-jadvalda iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektorlarida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish yuzasidan transaksiya xarajatlari taqqoslanadi. Mazkur jadval shuni yaqqol ko‘rsatib turibdiki, iqtisodiyotning xufyona sektorida aksariyat pozitsiyalar bo‘yicha faqat tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda transaksiya xarajatlari rasmiy iqtisodiyotga qaraganda ancha past(6+/2+). Masalan, yerga egalik qilish yoki uni ijaraga olish huquqlarining noqonuniy qo‘lga kiritilishi imorat soluvchilar uchun bepulga tushmaydi, lekin barcha rasmiy tartib-qoidalar va ushbu transaksiyani amalga oshiruvchi instantsiyalar, sarflangan vaqt va boshqa sarf-xarajatlarni hisobga olgan holda nolegitim yo‘l ayrim subyektlar uchun ancha oson va foydali bo‘lib chiqadi.

[49] Абулқосимов Х.П. *Иқтисодий хавфсизлик*. – Т.: Академия, 2006.

8.2-jadval

Transaksiya xarajatlari: iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha qiyosiy tahlil

Transaksiya xarajatlari turi	Rasmiy sektor	Xufyona sektor	Izoh
1. Tadbirkorlik faoliyati uchun litsenziya olish	+	-	Norasmiy ishlab chiqarish
2. Yerga egalik qilish yoki uni ijaraga olish huquqini qo‘lga kiritish	+	-	Noqonuniy qurilish
3. Tegishli qonunlar va normativlarni bilish va ularga amal qilish	+	-	Xufyona iqtisodiyotning o‘yin qoidalariga amal qilish
4. Soliqlarni to‘lash	+	-	
5. Kredit olish	+	+	Kredit imtiyozli shartlarda beriladi
6. Shartnomalar shartlarining bajarilishini nazorat qilish tizimi	+	+	Bitimlarni noiqtisodiy nazorat qilish
Jami	**6+**	**2+**	

Chunki xufyona iqtisodiyot rasmiy iqtisodiyotdan o‘tib bo‘linmas to‘siq bilan ajralmagan, ko‘pchilik xo‘jalik yurituvchi subyektlar transaksiyalarni xufyona sektor yordamida amalga oshirish mumkin.

Shularni inobatga olganda norasmiy sektor faoliyatini cheklash nafaqat qonunchilikni takomillashtirish, balki tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun sarflanadigan transaksiya xarajatlarini ham qisqartirib berish muhim ahamiyatga ega.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, qonunlarga itoat etish “bahosi” to‘g‘ridan-to‘g‘ri pul xarajatlarinigina emas, balki u yoki bu protseduralarni amalga oshirish uchun ketadigan vaqtni ham o‘z ichiga oladi. Aynan shu holat ko‘p hollarda xufyona faoliyat yuritish uchun asosiy sabab bo‘ladi. Bu yerda muqobil qarorni izlash natijasida iqtisodiyot subyektlari davlat ishtirokisiz, ya’ni xufyona faoliyat olib borish yo‘lini tanlaydilar.

Demak, olimlarning fikricha, qonunga itoat etishning yuqori bahosi bilan xufyona iqtisodiyot o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. Lekin yashirin tarzda faoliyat olib borish ham katta sarf-xarajatlar bilan bog‘liq. Xufyona faoliyat olib boradigan xo‘jalik subyektlari xarajatlar-ning ba’zi turlarini tejagan hollarida, boshqa, ba’zi holatlarda ko‘proq xarajatlarni qilishga majbur bo‘ladilar. Jumladan:

- huquqiy sanktsiyalardan bosh tortish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar (soliq va boshqa moliyaviy sohalarda maslahatchilar xizmatiga haq to‘lash, reklama qilish imkoniyatlari chegaralanganligi natijasida yo‘qotilgan foyda, “ikki xil” buxgalteriya hisobini yuritish bilan bog‘liq xarajatlar);

- soliq va ish haqiga qo‘shimchalar to‘lashdan qochish. Daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va pensiya fondlariga majburiy to‘lovlardan qochish korxonaga ish haqiga sarflanadigan mablag‘larni tejab qolish imkonini beradi, lekin mehnatni kapital bilan qoplash, texnik jihatdan qayta qurish, mehnat unumdorligini oshirishga bo‘lgan rag‘batni pasaytiradi.

- qonun tomonidan mustahkamlangan mulk huquqining yo‘qligi bilan bog‘liq xarajatlar. Odatda mulkka egalik qilish huquqi an’anaviy ijtimoiy kelishuv asosida belgilanadi va mustahkamlanadi. Xufyona faoliyatda esa kelishuvlar, odatda, og‘zaki tuziladi. Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, davlat iqtisodiyotning ochiq sektorida transaksion xarajatlarni pasaytirish orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarning manfaatlarini amalga oshirgan taqdirda, ularda qonunga bo‘ysunishga rag‘bat uyg‘onadi.

Iqtisodchilar xufyona iqtisodiyot kelib chiqishining iqtisodiy sabablarini bozor xo‘jaligi doirasida raqobat muammosi bilan bog‘lash mumkin, degan fikrni bildiradilar. Ular xufyona iqtisodiyotni nomukammal raqobatning bir shakli sifatida ko‘rish kerak, deb hisoblaydilar. Mukammal bozor munosabatlari shakllanib va rivojlanib borgani sari sog‘lom raqobat xufyona iqtisodiyotni siqib chiqaradi. Buning isbotini rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ko‘rish mumkin. Ularda xufyona iqtisodiyotning ulushi rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlardagiga qaraganda ancha past.

Davlat iqtisodiyotni samarali boshqara olmas ekan, tadbirkorlikni amalga oshirish uchun yetarli sharoitlar yaratmas ekan, xufyona iqtisodiyot xunuk ko‘rinishlarga ega bo‘lib, miqyoslari kengayib boraveradi. Xufyona iqtisodiyot miqyoslari, ayniqsa, inqirozlar davrida, yuqori inflyatsiya va valyuta kurslarining keskin o‘zgarib turishi, bozor xo‘jaligida muvozanat buzilgan sharoitda shiddat bilan kengayib boradi.

Xufyona iqtisodiyotni kelib chiqish sabablarining keyingi guruhiga ijtimoiy omillar kiradi. Hozirgi kundagi jamiyatda bir qator ijtimoiy muammolar mavjud bo‘lib, ulardan biri jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishidir. Bu bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan jarayon bo‘lib, muammoni hal etishga bo‘lgan urinishlar aksariyat jamiyatlarda muvaffaqiyatsiz bo‘lmoqda. Jamiyatning tarkibiy tuzilishi xufyona iqtisodiyot ishtirokchilarining potensial sonini belgilaydi. Chunki, aholining kam ta’minlangan va boshqa guruhlari xufyona sektor doirasiga ko‘proq tortiladi.

Xufyona iqtisodiyotni kelib chiqish sabablarining yana bir guruhiga huquqiy omillar kiradi. Bu tadbirkorlikning huquqiy bazasini takomillashmaganligi bilan bog‘liqdir. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham tadbirkorlikning huquqiy bazasini rivojlanishi iqtisodiy jarayonlardan orqada qoladi. Bozor xo‘jaligidagi o‘zgarishlar bilan mavjud huquqiy baza o‘rtasidagi ziddiyatlar xufyona iqtisodiyot subyektlari uchun huquqiy sohadagi kamchiliklardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Uy xo‘jaliklari muhim sektor sifatida huquqiy me’yorlar bilan emas, asosan amaliyotda shakllangan urf-odatlar va an’analar bilan tartibga solinadi. Davlat ushbu sektorda amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlarni nazorat qilishi imkoniyatiga ega bo‘la olmaydi.

Qonunlar ham xufyona faoliyat turlariga nisbatan turlicha bo‘lishi mumkin. Ba’zi holatlarda yirik korporatsiyalar o‘zlarining moliyaviy imkoniyatlaridan foydalangan holda qonun chiqaruvchilarga tazyiq o‘tkazishlari va ma’lum ijtimoiy guruhlar manfaatlariga mos keladigan qonunlarni qabul qilinishiga harakat qilishlari mumkin.

Tadbirkorlikning ma’naviy asosi keng bo‘lib, ko‘p hollarda xo‘jalik huquqidan ham muhimroqdir. Yuqorida nomi keltirilgan darslik mualliflari misol tariqasida Ikkinchi jahon urushi davrida Germaniyaning natsistlar rejimi bilan xufyona operatsiyalar o‘tkazgan shveytsar banklari faoliyatini keltiradilar. Rasmiy tomondan olib qaraganda bunday faoliyat qonunga zid bo‘lmagan, lekin jahon hamjamiyati oldida bu banklar oddiy ma’naviy-ahloqiy tamoyillarni oyoq osti qilganlar. Mana shunday bahoni Germaniyaning yirik korporatsiyalari faoliyatiga

ham berish mumkin. Ular ham Ikkinchi jahon urushi davrida natsistlar tomonidan bosib olingan hududlardagi minglab kishilarning mehnatidan foydalanganlar. Ayni paytda, deb yozadilar darslik mualliflari, hozirga kelib mana shu korporatsiyalar, bir paytda jamiyatning ma'naviy – ahloqiy tamoyillarni buzganliklarini tan olgan holda, insonlarga turli ko'rinishda tovon to'lamoqdalar[50].

Bozor xo'jaligi tizimining murakkablashuvi natijasida davlatning bir o'zi xufyona iqtisodiyotga qarshi kurasha olmaydi. Ommaviy axborot vositalari tomonidan iqtisodiy jinoyatlarni tekshirish va fosh etish davlatga xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashda katta yordam bo'lishi mumkin.

Aynan fuqarolik jamiyati institutlari davlat hokimiyatini ochiq va shaffof faoliyat olib borishga undaydilar. Fuqarolik jamiyati institutlari rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, davlatning ijtimoiy – iqtisodiy siyosatining ochiqligi Korrupsiya hamda hukumat organlari bilan biznes o'rtasidagi xufyona operatsiyalarni oldini olishning muhim kafolati bo'lib hisoblanadi.

Va nihoyat, xufyona iqtisodiyotni kelib chiqish sabablarining oxirgi guruhiga siyosiy omillar kiritiladi. Ushbu omillar siyosiy tizimdagi ziddiyatlar oqibatida yuzaga keladi. Bunda eng muhim, prinsipial masalalardan biri hokimiyat bilan yirik kapital o'rtasidagi munosabatlar masalasidir. Ma'lumki, ularning birlashishi har narsaga qodir bo'lgan oligarxiyani shakllantiradi. Bu xufyona iqtisodiyotga sifat jihatdan yangi belgilar beradi[51].

Iqtisodiyot rivojlanishining obyektiv ehtiyojlari bilan olib borilayotgan davlat siyosati o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ham Xufyona iqtisodiyotning shakllanish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'tgan asrning 20-yillarida AQShda spirtli ichimliklarni iste'mol qilish qonun yo'li bilan ta'qiqlab qo'yilganligi natijasida xufyona alkogol biznesi rivojlanib ketgan. 80-yillarda shunday holat SSSRda ham takrorlangan. 1960-yillarda Hindistonda hukumat qarori bilan past probali tilla bilaguzuklar ishlab chiqarish ta'qiqlanganligi bois, qisqa vaqt ichida xufyona

[50] Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. «ДЕЛО», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.24

[51]Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. «ДЕЛО», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.24

iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60 foizga yetgan. Hindiston hukumati o‘ylamasdan qabul qilingan qarorni bekor qilganidan so‘ng iqtisodiyot normal holatiga qayta boshlagan.

Yuqoridagilarga xulosa qilib, ta’kidlash kerakki, xufyona iqtisodiyot tovar-pul munosabatlari paydo bo‘lgan davrdan boshlab shakllanib va rivojlanib, ochiq iqtisodiyot bilan parallel faoliyat ko‘rsatib kelgan. Ayni paytda uning miqyoslari turlicha bo‘lgan. Shundan kelib chiqib uni o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlar ham xilma-xil bo‘lgan.



8.2-rasm. Xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo‘lgan huquqiy yondashuv[52]

Tadqiqotchilarning katta bir qismi xufyona faoliyat va xufyona iqtisodiyotni o‘rganishga huquqiy jihatdan yondashadilar. Ushbu yondashuv tarafdorlari xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishda qonunning buzilishini asosiy mezon qilib oladilar.

[52] Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. «ДЕЛО», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.28

Xufyona iqtisodiyotni ikkiga ajratadilar: kriminal (“qora”) va nokriminal (“kul rang”). Bunda biror bir faoliyatni davlatdan yashirish faktini ikki turdagi motiv bilan bog‘liq, deb hisoblaydilar. Birinchisi, xo‘jalik subyektlarining o‘z xarajatlarini kamaytirish (birinchi navbatda soliq to‘lashdan bosh tortish hisobiga) bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi faoliyatning noqonuniy ekanligi bois uni to‘xtatib qo‘yilishidan hadiksirash bilan bog‘liq.

Shunday qilib nokriminal (“kul rang”) iqtisodiyotda daromadlar (yoki xarajatlar) yashiriladi, kriminal (“qora”) iqtisodiyotda faoliyatning o‘zi yashiriladi. O‘z navbatida kriminal iqtisodiyot doirasida ikkita tarkibiy qism ajratiladi: noqonuniy (yashirin) ishlab chiqarish faoliyati va iqtisodiy jinoyatchilik.

Noqonuniy (yashirin) ishlab chiqarish faoliyatiga biznes ko‘rinishida tashkil etilgan, qonun yo‘li bilan taqiqlangan faoliyat turlarini kiritish mumkin. Noqonuniy (yashirin) ishlab chiqarish faoliyatiga quyidagilarni kiritish mumkin: qurol ishlab chiqarish va sotish; narkobiznes; qimor o‘yinlari; kontrabanda; fohishabozlik va boshq.



8.3-rasm. Xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo‘lgan statistik yondashuv[53]

[53] Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. «ДЕЛО», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.28

Iqtisodiy jinoyatlar iqtisodiy sohadagi jinoyatlar bo‘lib, ular ishlab chiqarishga bevosita aloqasi bo‘lmagan va g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab qilingan iqtisodiy jinoyatlardir (ular yaratilgan qiymatni qayta taqsimlash sohasida amalga oshadi): g‘arazli maqsadlarda xizmat mansabini suiste’mol qilish (poraxo‘rlik); firibgarlik; o‘g‘irlik; ta’magirlik (reket) va b.

Yu.N.Popov va M.E.Tarasovlarning yozishicha, kriminal iqtisodiyotning ushbu turi iqtisodiyotga bevosita tegishli bo‘lmay, jinoyatchilikning bir turi hisoblanadi. Lekin shu bilan birga iqtisodiy jinoyatchilik katta iqtisodiy zarar keltiradi va aynan shuning uchun ham kriminal iqtisodiyotning bir qismi sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, xufyona iqtisodiyot sohasi o‘zining yuqori daromadliligi va subyektlarining huquqni himoya qilish organlariga murojaat qila olmasliklari bois, iqtisodiy jinoyatchilik uchun yaxshi muhit bo‘lib hisoblanadi. Xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishga bo‘lgan statistik yondashuv xufyona iqtisodiyotni rasmiy statistikadan yashirilgan faoliyat sifatida tavsiflaydi. Rasmiy iqtisodiyot – bu davlat tomonidan kuzatiladigan va nazorat qilinishi mumkin bo‘lgan iqtisodiyot bo‘lsa, yashirin yoki norasmiy iqtisodiyot – rasmiy hisobotlarda va rasmiy shartnomalarda aks ettirilmaydigan xo‘jalik munosabatlari yig‘indisi bo‘lib hisoblanadi.

Real xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar davlat organlaridan ongli ravishda, ataylab yashirilishi yoki milliy statistika tizimida qamrab olinmasligi mumkin. Bundan tashqari soxta iqtisodiyot ham mavjud bo‘lib, unda faoliyat faqat qog‘ozda amalga oshiriladi.

Statistik hisob-kitoblardan tadbirkorlik faoliyatining turli unsurlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yashirilishi yoki ongli ravishda ma’lumotlarni buzib ko‘rsatilishi mumkin:

-korxonani yashirish (ro‘yxatdan o‘tkazmasdan yoki litsenziya olmasdan xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish);

- xo‘jalik operatsiyalarini yashirish (ularni shartnoma va hisobotlar-da aks ettirmaslik);

- ishchi kuchini yashirin ravishda yollash (ishchi kuchini mehnat shartnomalarini rasmiylashtirmasdan yollash); mehnat sharoitlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni (ish haqi, pensiya va sug‘urta to‘lovlari, texnika xavfsizligi, ish vaqti va boshq.) buzib ko‘rsatish;

- daromadlarni yashirish (soliq to‘lashdan qochish).

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarni muhim ekanligini tan olgan holda, “Tenevaya ekonomika v sisteme ro‘nochnogo xozyaystva” darsligining mualliflari xufyona iqtisodiyotni turlarga ajratishda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvdan foydalanish zarur, degan fikrni bildiradilar.



8.4-rasm. Xufyona iqtisodiyotning iqtisodiy faoliyat sohalari bo‘yicha tasniflanishi

Mana shunday yondashuv zarurligini asoslagan holda, darslik mualliflari rasmiy-huquqiy yondashuv xufyona iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini ochib bera olmaydi va bu o‘z navbatida davlat va jamiyatning unga ta’sir ko‘rsatishda qo‘llaniladigan vositalarini chegaralanishiga olib keladi, degan fikrni

bildiradilar. Ularning fikricha, bunday yondashuv, yuqorida keltirilgan yondashuvlarga xos bo‘lgan belgilarga ega bo‘lish bilan birga, ulardan muhim xususiyatlari bilan ham farq qiladi. Ushbu yondashuv quyidagi mezonlar guruhini o‘z ichiga oladi: huquqiy; statistik; iqtisodiy; ijtimoiy; ma’naviy.

Xufyona iqtisodiyotni tasniflash uchun yana bir nechta aniq mezonlar taklif etadilar. Xufyona iqtisodiyotning subyektlari bo‘yicha, faoliyatning maqsad va motivlari bo‘yicha, oqibatlari va zarar miqyoslari bo‘yicha, davlatning javobgarlik darajasi bo‘yicha, aholining munosabati bo‘yicha mezonlar orqali tasniflashni taklif etadilar.

Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, tadbirkorlikning tarkibidan, mulk shakllaridan, keltiradigan zarar miqyoslaridan kelib chiqqan holda xufyona iqtisodiyotni tasniflash ham ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi.

Ularning fikricha, xufyona iqtisodiyot agentlari (qatnashchilari) orasida eng ko‘p sonligi kichik biznes bo‘lsa, ijtimoiy va iqtisodiy zarar keltirishi bo‘yicha shubhasiz yirik kapital (oligarxlar) birinchi o‘ringa chiqadi.

Demak, xufyona faoliyatni oldini olish va uni ochiq faoliyatga aylantirish mamlakat iqtisodiyotining xavfsizligini ta’minlaydi, barqaror iqtisodiy o‘sish uchun imkoniyat yaratadi.

Qisqacha xulosalar

1.Jahon xo‘jaligi rivojlanishining hozirgi bosqichida xufyona iqtisodiyot global muammoga aylanib bormoqda. Xufyona iqtisodiyot bozor xo‘jaligining obyektiv va doimo mavjud bo‘luvchi tizimi bo‘lib hisoblanadi. Bunday tizim doirasida faoliyat olib boruvchi xo‘jalik subyektlari raqobatning umumqabul qilingan qoidalaridan tashqarida o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda qonunga, ish yuritish etikasiga, biznes va hokimiyat o‘rtasidagi o‘yin qoidalariga, jamiyatning ma’naviy-ahloqiy me’yorlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni amalga oshiradilar.

2. Xufyona iqtisodiyot turli, jumladan, antropologik, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ma’naviy siyosiy omillar ta’sirida vujudga keladi. Xufyona iqtisodiyot miqyoslarini baholashga bo‘lgan turli yondashuvlar mavjud.

3.Xufyona iqtisodiyot rivojlangan va rivojlanish bosqichida bo‘lgan mamlakatlar uchun xos bo‘lib, o‘zining miqyoslari jihatdan farq qiladi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot yo‘lida to‘siq rolini o‘ynaydigan samarali institutsional mexanizm shakllangan. Bunda davlat markaziy bo‘g‘in bo‘lib hisoblanadi. Dunyo tajribasidan ma’lumki, qaysi mamlakatda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar yuqori bo‘lsa, shu mamlakatda xufyona iqtisodiyot miqyoslari kam bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Xufyona iqtisodiyot tushunchasiga ta’rif bering?
2. Xufyona iqtisodiyot ko‘lamlarining ortib borishiga turtki bo‘luvchi asosiy omillarni sanab bering?
3. Xufyona iqtisodiyot ko‘lamlarini qisqartirishning yo‘llari nimada deb o‘ylaysiz?
4. Hisobga olinmaydigan iqtisodiyot tushunchasi nimani anglatadi?
5. Transaksiya xarajatlari va ularni pasaytirish yo‘llari nimalardan iborat?

“...Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaktsinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak...”

Sh.Mirziyoyev.

IX BOB. IQTISODIYOTNING KRIMINALLASHUVI SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH ZARURIYATI VA UNDA DAVLATNING ROLI

9.1. Korrupsiya va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri

9.2. Korrupsiyaga qarshi kurashishning jahon tajribasi va bu borada davlatning roli

9.3. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy va me’yoriy asoslari

9.4. Raqamli iqtisodiyot jamiyatda korrupsion holatlarning kamaytirishning muhim asosi sifatida

Tayanch tushuncha va iboralar: korrupsiya, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar, korrupsiyaga qarshi kurashishning me’yoriy va huquqiy asoslari, lobbizm.

Qisqacha sharh

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy faoliyatning kriminallashuvi, ya’ni iqtisodiy jarayonlarda noqonuniy va korrupsiyaviy holatlarning ortishi, mamlakatning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga jiddiy tahdid soladi. Kriminallashuv jarayonlari nafaqat davlat byudjeti tushumlariga salbiy ta’sir qiladi, balki raqobat muhitini buzadi, investor ishonchini kamaytiradi va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi. Shu sababli, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash va davlat rolini samarali amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu bobda korrupsiya va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri, jahon tajribasi hamda davlatning korrupsiyaga qarshi kurashdagi roli, shuningdek, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy va me’yoriy asoslari tahlil qilinadi. Bobning yakuniy qismida raqamli iqtisodiyotning korrupsiyaga qarshi kurashdagi ahamiyati, ya’ni davlat va jamiyatning ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni oshirishdagi roli ko‘rib chiqiladi.

Korrupsiya – davlat, biznes va jamiyat resurslaridan shaxsiy yoki guruh manfaatlari yo‘lida noqonuniy foydalanishdir. U iqtisodiy xavfsizlikka turli yo‘llar bilan salbiy ta’sir ko‘rsatadi: soliq tushumlarini kamaytiradi, davlat xarajatlarini

oshiradi, raqobatni buzadi va investor ishonchini pasaytiradi. Shu bilan birga, korrupsiyaviy muhit jamiyatdagi ijtimoiy adolatni buzadi va norasmiy iqtisodiyotning o‘sishiga turtki beradi.

Dunyoda ko‘plab mamlakatlar korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlar yaratgan. Bular qatoriga shaffof davlat xaridlari, mustaqil auditorlik, ochiq ma’lumotlar portallari, raqamli hukumat xizmatlari va maxsus antikorrupsiyaviy agentliklar kiradi. Davlatning roli shundaki, u korrupsiyaga qarshi qonuniy me’yorlar joriy qilishi, monitoring tizimlarini tashkil etishi va javobgarlik mexanizmlarini mustahkamlashi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash bir qator qonun va normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ular orasida: “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun, davlat xizmatini tartibga soluvchi me’yorlar, moliyaviy nazorat va deklaratsiya talablarini belgilovchi hujjatlar mavjud. Ushbu qonuniy bazalar davlat idoralari faoliyatini shaffoflashtirish, korrupsion xavflarni kamaytirish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot va elektron xizmatlar korrupsiyaga qarshi samarali vosita hisoblanadi. Elektron hukumat, onlayn to‘lovlar, raqamli tender va shaffof monitoring tizimlari davlat xizmatlarini shaffoflashtiradi, inson omilini kamaytiradi va hisobdorlikni oshiradi. Shu orqali iqtisodiy faoliyatdagi noqonuniy holatlar kamayadi, raqobat muhitining barqarorligi oshadi va iqtisodiy xavfsizlik mustahkamlanadi.

Ushbu bobning mazmuni shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotning kriminallashuvi sharoitida davlatning faol roli, qonuniy tartibga solish va raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yangi bosqich

Mamlakatda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini mustahkamlash hamda jamoatchilik ishqini oshirish jarayonlarida korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi davom etmoqda. Bu jarayon korrupsiyaga qarshi kurashni faqat huquqiy choralarga cheklamasdan, unga davlat boshqaruvi tizimining ajralmas institutsional elementi sifatida qarashni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025 yil 30 dekabrdagi PF-270-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” Farmoni** korrupsiyaga qarshi davlat siyosatini sifat jihatdan yangi, institutsional rivojlanish bosqichiga olib chiqqan strategik hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega.

Mazkur Farmonning konseptual ahamiyati shundaki, u korrupsiyaga qarshi kurashni alohida chora-tadbirlar majmuasi sifatida emas, balki davlat boshqaruvining samaradorligini ta’minlovchi kompleks boshqaruv tizimi sifatida talqin etadi. Ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaga qarshi faoliyat asosan nazorat, tekshiruv va huquqbuzarlik sodir etilgandan keyingi javobgarlik mexanizmlariga tayanib shakllantirilgan edi. Bu esa korrupsiyaning ildiz sabablarini emas, balki uning oqibatlarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan reaktiv yondashuv ustuvor bo‘lganini ko‘rsatadi.

Yangi Farmon esa profilaktika, institutsional barqarorlik, ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash va boshqaruv madaniyatini shakllantirishga asoslangan proaktiv modelni joriy etishni ko‘zda tutadi. Bunday yondashuv korrupsiyaviy xavflarni barvaqt aniqlash, ularni tizimli boshqarish va davlat organlari faoliyatida halollik standartlarini joriy etishga xizmat qiladi.

Farmon bilan davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari faoliyatining **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** bilan uzviy va majburiy hamkorlikda tashkil etilishi belgilab qo‘yildi. Bu holat korrupsiyaga qarshi siyosatda muhim institutsional burilish sifatida baholanadi. Amalda ushbu norma avvalgi davrda mavjud bo‘lgan muvofiqlashtirilmagan, fragmentar va ko‘p hollarda samarasiz yondashuvlarga barham berib, yagona metodologiya, standartlashtirilgan baholash mezonlari hamda markazlashgan mas’uliyat tizimini shakllantirishga zamin yaratadi. Aynan shu jihat Farmonni avvalgi huquqiy hujjatlardan prinsipial ravishda farqlovchi muhim omil sifatida ko‘rsatadi.

Farmonning eng muhim strategik yangiliklaridan biri sifatida **2026–2030 yillarda korrupsiyaga qarshi Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimi**ning

joriy etilishi ko‘rsatish mumkin. Tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, ilgari korrupsiyaga qarshi faoliyat samaradorligi ko‘p hollarda formal hisobotlar va statistik ko‘rsatkichlar orqali baholangan, ular esa real boshqaruv amaliyotini to‘liq aks ettira olmagan.

Yangi sertifikatlashtirish tizimi esa korrupsiyaga qarshi mexanizmlarning nominal mavjudligini emas, balki ularning davlat organlari boshqaruv jarayonlariga qanchalik chuqur integratsiya qilinganini, ichki nazorat tizimlarining amaliy samaradorligini hamda korrupsiyaviy xavflarni boshqarish salohiyatini kompleks baholashga qaratilgan. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashni formal hisobot doirasidan chiqarib, uni strategik boshqaruv masalasiga aylantiradi.

Ayniqsa, ushbu tizimning birinchi navbatda korrupsiyaga qarshi ishlar samaradorligi reytingida “qoniqarsiz” deb baholangan davlat organlarida joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu islohotlarni umumiy emas, balki yuqori xavf darajasiga ega sohalardan boshlash, resurslarni maqsadli yo‘naltirish va manzilli institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Farmonning amaliy samaradorligini ta’minlovchi muhim mexanizmlardan yana biri – davlat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishdir. Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimi belgilangan muddatlarda joriy etilmagan taqdirda, davlat organi yoki tashkiloti rahbari hamda uning o‘rinbosarlariga nisbatan rag‘batlantirish to‘lovlarining to‘xtatilishi korrupsiyaga qarshi siyosatni rasmiy vazifa emas, balki shaxsiy mas’uliyat bilan bog‘liq boshqaruv majburiyati sifatida qabul qilishni talab qiladi. Bu esa rahbarlik darajasida javobgarlikni kuchaytirish orqali tizimning amalda ishlashini ta’minlaydi.

Shuningdek, Farmon doirasida korrupsiyaga qarshi faoliyatni to‘liq raqamlashtirishga qaratilgan **“Raqamli Compliance” axborot-dasturiy kompleksi**ning joriy etilishi ham strategik ahamiyatga ega. Ushbu raqamli platforma ichki nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlar almashinuvini tezlashtirish va inson omili bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish imkonini beradi. Natijada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, monitoring qilish va boshqarish sifat jihatdan yangi bosqichga chiqadi.

Farmonning ijtimoiy ahamiyatga ega muhim jihatlaridan biri sifatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish instituti joriy etilishi ta’kidlanadi. Himoya orderi mexanizmi bunday shaxslarni mehnat munosabatlarida tazyiq, ta’qib va kamsitish holatlaridan asrab, fuqarolarning korrupsiyani fosh etishda faoliyatini oshiradi. Bu esa jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasis munosabatni shakllantirish va “jimlik madaniyati”ni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashishda munosib hissa qo‘shgan shaxslarni rag‘batlantirish maqsadida maxsus ko‘krak nishoni tashkil etilishi halollik, fidoyilik va kasbiy mas’uliyatni ijtimoiy e’tirof etish orqali sog‘lom boshqaruv madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan samarali ijtimoiy mexanizm hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur Farmon korrupsiyaga qarshi kurashda jazoga asoslangan reaktiv yondashuvdan tizimli, profilaktikaga yo‘naltirilgan va davlat boshqaruviga integratsiyalashgan institutsional modelga o‘tishni ta’minlaydi. U korrupsiyaga qarshi siyosatni davlat boshqaruvi tizimining ajralmas qismiga aylantirib, halollik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini mustahkamlash orqali davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishqinni oshirishga xizmat qiladi.

Farmonning to‘liq va samarali ijrosi uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanish, kuchli institutlar va sog‘lom boshqaruv muhitini shakllantirish uchun mustahkam institutsional asos yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Manba: https://yuz.uz/oz/news/korruptsiyaga-qarshi-kurashda-yangi-bosqich

9.1. Korrupsiya va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri

“Korrupsiya” lotincha (corruptcio) so‘zidan olingan bo‘lib, buzilish degan ma’noni anglatadi. Korrupsiya faqat bir ko‘rinishda namoyon bo‘ladigan hodisa bo‘lmay, u jamiyat hayotining turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi. O‘z tabiatiga ko‘ra turlicha bo‘lgan yuzaga kelish va qayta tiklanish mexanizmlari bilan tavsiflanadi.

Korrupsiya hodisasini tadqiq qilgan barcha tadqiqotchi hamda siyosatchilar uning ahloqsizlik ekanligi va har qanday mamlakatning iqtisodiy va demokratik taraqqiyotiga ziyon yetkazishini tan oladilar. Lekin, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda ushbu hodisa jamiyat va iqtisodiyot institutlari tizimidan tashqaridagi “ma’naviy jinoyat” sifatida o‘rganiladi. Uning tabiati, funksiyalari, jamiyat va iqtisodiyotga yetkazadigan zararlari to‘g‘risidagi tasavvurlar va fikrlar cheklanib qolmoqda degan fikrlar mavjud.

“Tenevaya ekonomika v sisteme rinochnogo xozyaystva”, deb nomlangan darslikning korrupsiya masalasiga bag‘ishlangan qismida mualliflar N. Makiavellining korrupsiyaga bergan ta’rifini keltiradilar, ya’ni, korrupsiya “ommaviy imkoniyatlardan shaxsiy manfaatlar yo‘lida foydalanish”ni anglatadi[54]. Hozirgi davr xalqaro me’yoriy hujjatlarida korrupsiyaning turlicha talqinlari keltirilgan. BMTning korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash to‘g‘risidagi hujjatlarida, korrupsiyaga shaxsiy manfaat uchun davlat hokimiyatini suiste’mol qilish, deb ta’rif beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida korrupsiyaga:” Shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi[55]-deb, ta’rif beriladi.

[54] Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. «ДЕЛО», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.76

[55] O‘zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi Qonuni, https://lex.uz/docs/-3088008

Korrupsiya tushunchasi poraxo‘rlik tushunchasidan kengroq ma’noni anglatadi. Ushbu tushuncha poraxo‘rlikni (biror-bir shaxsning kasbi taqozo qiladigan majburiyatidan chekinganligi uchun mukofot berish) va nepotizm (shaxsiy munosabatlar asosida homiylik qilish) hamda shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish maqsadida jamoat mablag‘larini noqonuniy o‘zlashtirishni anglatadi.

Shulardan kelib chiqib, yuqorida nomi keltirilgan darslik mualliflari Korrupsiyaga quyidagicha ta’rif beradilar: o‘zi yoki shaxsiy munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan boshqa shaxslar uchun qandaydir ustunliklarga ega bo‘lish maqsadida tomonlarning mustaqillik tamoyillariga atayin rioya qilmaslik. Bunday ta’rif korrupsiya xufyona iqtisodiyotning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi, degan fikrni tasdiqlaydi.

Bir qator mutaxassislarning fikricha, korrupsiya – xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisa va xufyona iqtisodiyotning ko‘rinishidir. Shuning uchun korrupsiyani iqtisodiy hodisa sifatida talqin etishda deyarli bahs-munozaralar yo‘q. Uning davlat amaldorlarining poraxo‘rlik faoliyatidan iboratligi va jamiyatga katta zarar yetkazishini ko‘pchilik tadqiqotchilar e’tirof etadilar.



9.1 – rasm. Korrupsiyaning sabablari

Mutaxassislar poraxo‘rlikni uch subyektli munosabatlar, deb aytadilar va ularga pora oluvchilar, pora beruvchilar va ular o‘rtasidagi vositachilar kiradi, degan fikrni bildiradilar. Pora oluvchilar davlat amaldorlari bo‘lsa, uni beruvchilar

amaldorlar marhamatiga muhtojlardir. Vositachilik vazifasini esa ayrim shaxslar va yashirin tashkilotlar amalga oshiradilar.

Korrupsiyaning iqtisodiy mohiyati va huquqiy baholanishida farqlar mavjud bo‘lib, iqtisodiy jihatdan, bu erkin bozor qonun-qoidalariga mos kelmaganidan yashirincha yuz beradi. Bu munosabatda barcha korrupsiyalashgan guruhning manfaati uyg‘unlashadi. Amaldor xizmatiga talab bo‘lganidan, u sotadi. Bu yerda pora yashirin xizmat haqi shakliga kiradi. Poraxo‘rlikda ham bozor munosabati bor, lekin bu tor egoistik manfaatga bo‘ysunuvchi munosabat bo‘lganligi sababli uni jamiyat tan olmaydi, chunki bu yerda ayrim shaxslar yohud guruhlar manfaatining amalga oshishi boshqalar manfaati hisobidan bo‘ladi. Shuning uchun buni jamiyat qabul qilmaydi va natijada u yashirin tus oladi.

Yuridik qonunlarda aks etgan qoidalarnigina jamiyat qabul qiladi. Shuni nazarda tutib, korrupsiyani huquqiy jihatdan g‘ayriqonuniy, qonunlar man etadigan iqtisodiy faoliyat deb aytish mumkin. Korrupsiya – global hodisa, undan zarar ko‘rmagan mamlakat yo‘q, lekin bu mamlakatlarda korrupsiyalashuv darajasi turlicha bo‘lib, bunday holat uning ildizlari chuqurligidan dalolat beradi.

O‘rganilayotgan muammoga bag‘ishlangan adabiyotlarda korrupsiyaning sabablari turlicha talqin etiladi.

Ularning obyektiv va subyektiv bo‘lishiga e’tibor berilib, ular orasida qonunchilikning nomukammalligi, demokratik tamoyillar va institutlarning rivojlanmaganligi, davlatning kuchsizligi ajratiladi. Mutaxassislarning fikricha, korrupsiyaning mavjudligini iqtisodiy tizimning o‘zidan qidirish kerak. Korrupsiya iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo‘lar ekan, demak uning iqtisodiy ildizlarini topish kerak bo‘ladi. Bu ildizlar pul munosabatlarining o‘zidadir. Pul universal to‘lov vositasi, uni hamma operatsiyalar uchun qabul qilinadi, pul boylikning timsoli, boylik to‘plashning eng qulay shakli. Pulni saqlash xavfsiz, uni xohlagancha jamg‘arish mumkin. Pul likvidligi eng yuqori bo‘lgan aktivdir. Likvidlikni esa pulning qadr-qimmati ta’minlaydi. U ko‘zga ko‘rinmas moliyaviy aloqalar o‘rnatish imkonini beradi. Pulning likvidligi muhim bo‘lganidan, pora berishda qattiq valyutalar ishlatiladi, chunki ularning qadri barqaror bo‘lgani uchun

jamg‘arish vositasi bo‘la oladi. Pul – bozor munosabatlarining mahsuli, shu sababli pul munosabatlarining rivojlanishi korrupsiyani oziqlantiradi.

Natural ishlab chiqarish sharoitida poraxo‘rlik moddiy shaklda bo‘lishi mumkin, uni ko‘zdan yashirib bo‘lmaydi. Pul munosabatlari esa yashirin munosabat o‘rnatish imkonini beradi. Shunday qilib, korrupsiyaning obyektiv sababi pulning yuksak likvidlik xususiyatidadir. Bunday xususiyat pul fetishizmini, ya’ni uni ilohiylashtirishni, unga sig‘inishni yuzaga keltiradi, pul hamma narsani hal qiluvchi kuchga ega, degan tasavvurni paydo qiladi. Bu esa ochko‘zlikni keltirib chiqaradi, uni g‘ayriqonuniy yo‘l bilan topa olish imkoniyati bor kishilarni korrupsiyalashgan kishilarga aylantiradi.

Bozor tizimining mukammal emasligi, uning mexanizmlarida uzilish-lar bo‘lib turishi korrupsiyaning keng yoyilishi uchun qulay sharoit hozirlaydi. Demak, bozor munosabatlarining takomillashtirilishi korrupsiyaga qarshi kurashning eng ma’qul yo‘li bo‘lib hisoblanadi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda korrupsiyalashish darajasining boshqa guruh mamlakatlaridagiga nisbatan ancha pastligi mana shu tezisning to‘g‘riligidan dalolat beradi.

Korrupsiyaning obyektiv sabablaridan biri davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va shunga bog‘liq holda biznesni rivojlantirish muammolarini hal qilish davlat amaldorlariga bog‘liq bo‘lishidir. Davlatning iqtisodiyotga ta’siri iqtisodiy, huquqiy va ma’muriy usullar orqali yuz beradi. Bu usullarning qo‘llanilishi amaldorlar faoliyatiga bog‘liq.

Davlatning ruxsat berish funksiyasi haddan tashqari keng doirada saqlanib qolishi ham korrupsiyaning ildizlaridan biridir. Davlat qo‘lidagi subsidiyalar, soliqlar, imtiyozli litsenziyalar, kvotalar, preferentsiyalar va buyurtmalar kabi vositalar biznesni tartibga solib turishda qo‘llaniladi. Ulardan kimning bahramand bo‘lishi amaldorlarning munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiy faoliyatdan yaxshi natijaga erishish uchun tadbirkorlar pora berish yo‘li bilan amaldorlarni sotib olish va shu orqali imtiyozlarga ega bo‘lishga intiladilar. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarur ekanligi va ayni vaqtda korrupsiyani yuzaga keltirishi iqtisodiyotdagi ziddiyatli holatdir.

Korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini aniqlashda ko‘pchilik tadqiqotchilar davlat qonunlarining nomukammalligiga urg‘u beradilar. Qonunlar odatda real hayotdagi o‘zgarishlardan orqada qoladi, shu sababli ular tez-tez o‘zgartirilib, to‘ldirilib turiladi. Mukammal hisoblangan qonunlar vaqt o‘tishi bilan nomukammal bo‘lib qoladi, chunki real hayot ilgarilab ketadi. Nomukammal qonun real hayot talabidan ortda qolgan va kelajakni to‘liq aks ettirmaydigan qonundir. Bunday qonunlar yaxshi ishlamaydi, natijada korrupsiyaga yo‘l ochiladi.

Korrupsiyani lobbizm ham keltirib chiqaradi, biroq, har qanday lobbizm ham bunga olib kelmaydi. Ruxsat berilgan, jamiyat tan oladigan lobbizm borki, u ochiq bozor aloqalariga tayanadi. Bunda u yoki bu guruh shaxslar yohud firmalar manfaatiga mos keladigan, jamiyat uchun zararsiz bo‘lgan qarorlarni davlat idoralari tomonidan qabul qilish zarurligini asoslash va bunga ko‘maklashish bilan bog‘liq lobbizm korrupsiyani keltirib chiqarmaydi. Ammo, shu bilan birga, xufyona lobbistik xizmatlar borki, ular individual va korporativ manfaatlarni himoya qilgan holda boshqalar manfaatiga zid ishlarning amalga oshirilishini bildiradi. Shunday bo‘lganda g‘ayriqonuniy lobbizm paydo bo‘ladi.

Yuqori likvidli aktivlarning mavjudligi va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, demokratiya darajasining pastligi korrupsiyaning obyektiv sabablari bo‘lsa, aholi ma’naviyatining darajasi va axloq-odobi, demokratiya qoidalariga sodiqligidagi nuqsonlar korrupsiyaning subyektiv sabablariga kiradi. Subyektiv munosabat korrupsiyani kuchaytirishi yoki zaiflashtirishi mumkin, biroq korrupsiyani tag-tomiri bilan yo‘qota olmaydi. Chunki uning ildizlari iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darajasiga borib taqaladi.

Korrupsiyaning salbiy hodisa sifatida xavfsizlikka tahdid solishi hech kimda shubha tug‘dirmaydi, shu sababli davlat idoralari va jamoatchilik tashkilotlari unga qarshi kurashib keladi. Biroq dunyoning hech bir mamlakatida, hatto har tomonlama yuksak rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya tugatilmagan. Jamiyat korrupsiyani cheklab turishi, katta xavf tug‘dirmaydigan darajaga keltirishi mumkin. Unga qarshi kurashish tadbirlarini ishlab chiqish va qo‘llash uchun qaysi soha qay darajada korrupsiyalanganini bilish talab qilinadi.

Korrupsiya shunisi bilan xavfliki, u ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi, biznes yuritish xarajatlarini oshiradi, demak milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini pasaytiradi, muayyan darajada siyosiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, o‘tgan asrning 80 – yillari boshida korrupsiya, iqtisodiyotni uquvsiz boshqarish bilan qo‘shilib, Venesueladek neftga boy mamlakatning to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lishiga olib keldi.

Korrupsiya va jinoyatchilikning xavfsizlikka soladigan tahdidlar quyidagilardan iborat:

- amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko‘rsatish;
- davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemirish;
- jamiyatning ma’naviy-axloqiy asoslarini yyemirish;
- jamiyat a’zolarining fuqarolik mavqeini yo‘qqa chiqarish, islohotlar g‘oyasini obro‘sizlantirish;
- pul orqali hokimiyatni qo‘lga olishga intilish;
- nopok yo‘llar bilan boylik orttirish. Bunday kimsalar adolatli jazodan qo‘rqib, hamma ishni qilishga, hatto vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turadilar;
- jinoiy usullar bilan boylik orttirgan kimsalarni “demokratiya” uchun jafo chekkan kurashchilar deb ko‘rsatish. Bunday shaxslar avvaliga o‘z xalqini aldab, kapital to‘playdi, keyin demokratiya va adolatni ro‘kach qilgan holda siyosiy obro‘ orttiradi. Sir emaski, bunday shaxslar o‘z manfaatlari yo‘lida respublikadagi vaziyatga ta’sir ko‘rsatishga urinayotgan tashqi kuchlarga xizmat qilishga hamisha tayyor turadilar.

Jahon xo‘jalik aloqalariga faol integratsiyalashuv, chet el investitsiyalari va tadbirkorlarini iqtisodiy o‘zgarishlar jarayoniga tortishga qarshilik ko‘rsatish. Bu holat chet ellik sheriklarda ishonchsizlik uyg‘otishi natijasida mamlakat g‘oyat muhim kapital mablag‘lar manbaidan, texnologiyalar va tajribalardan, jahon iqtisodiy tizimining sog‘lom, “sof” qismiga qo‘shilish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

O‘zbekistonda korrupsiyaning kuchayib ketishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish davlatning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilanmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik, huquq-tartibot, davlatimiz chegaralari daxlsizligi, jamiyatda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor yaratdi. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun asos bo‘lmoqda

Bosib o‘tilgan taraqqiyot yo‘li, dunyoda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, tobora jadallashib borayotgan iqtisodiy munosabatlar xalq farovonligi sohasidagi yangi davr qo‘yayotgan talablar asosida moslashuv hamda takomillashuvni talab qilmoqda. Globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizning yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlanishi uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, qulay ishbilarmonlik muhiti yaratishning huquqiy asoslarini muntazam takomillashtirib borish yuzasidan salmoqli ishlar olib borilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar o‘zining ijobiy samarasini beryapti.

2025 yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti sezilarli darajada o‘sdi: yalpi ichki mahsulot (YaIM) ikki barobar ko‘payib, $145 milliardga yetdi, eksport esa 23 foizga o‘sib, $33,4 milliardni tashkil qildi. Oltin-valyuta zaxiralari ham yil boshidagi $40,5 milliarddan $60 milliardga oshdi, bu mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘ldi. Xorijiy investitsiyalar hajmi $43,1 milliardga yetib, jami investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 31,9 foizni tashkil qilmoqda, bu O‘zbekistonga bo‘lgan ishonchning oshganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, chetdan jalb qilingan resurslarning foiz stavkalari 1–1,5 punktga pasayib, tashqi qarz xarajatlari yiliga $250–300 millionga kamaydi. O‘zbekiston texnologik yetuklik indeksida 71 pog‘ona yuqorilab, dunyoning eng rivojlangan 10

mamlakatidan biri (9-o‘rin)ga aylandi. Bu yutuqlar mamlakatning iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik va innovatsion rivojlanishga katta e’tibor qaratayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan keng imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanayotgan tadbirkorlik subyektlarining hududiy ichki mahsulot ishlab chiqarishdagi hissasi ham tobora yuksalmoqda. Xorijiy sarmoyadorlar ishtirokida yangi korxonalar tashkil etilib, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish o‘zlashtirilmoqda. Jahon tajribasidan ma’lumki, davlat organlarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga huda-behuda aralashishlariga chek qo‘yilishi, ularning davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanishi, doimiy rag‘bat soha rivojini ta’minlaydigan asosiy omillardan hisoblanadi. Chet el tajribasi tadbirkorlik subektlarini huquqiy himoya qilishni ta’minlashda hamda davlat tuzilmalari bilan munosabatlarda ularning manfaatlarini ifodalash uchun vakil instituti joriy etish muhimligini ko‘rsatadi. Bunday institut tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida qonunlar ijrosi ustidan parlament nazorati shakllarini kuchaytirish vazifasini amalga oshiradi.

Korrupsiyaning global muammoga aylana boshlaganligi jahon hamjamiyatini unga qarshi kurashda hamkorlik qilishga undadi. 2003-yilning 31- dekabrida Avstriyaning Vena shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasi tomonidan BMTning Korrupsiyaga qarshi Xalqaro konvensiyasi ma’qullandi. Shu yilning dekabr oyining boshlarida Meksikaning Merida shahrida jahonning 100 dan ortiq mamlakatlari ushbu konvensiyani imzoladilar. Ushbu hujjatning muqaddimasida aytilganidek, “Korrupsiya endilikda cheklangan doiradagi (lokal) muammo emas, balki barcha mamlakatlar jamiyati va iqtisodiyotiga daxldor bo‘lgan transmilliy muammoga aylandi. Bu esa Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash sohasida xalqaro hamkorlikning nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi”[56].

[56]Ахмеджонов А. Коррупция и ее влияние на экономику.// Экономическое обозрение. №7. 2004. с. 32

Jahon banki va Xalqaro valyuta fondining hujjatlarida Korrupsiyaning ikkita turi ko‘rsatib o‘tilgan: “ma’muriy” va “davlatni egallab olish”.

Korrupsionerlar guruhi “davlatni egallab olganda” milliy xavfsizlikka ichki tahdid kuchayadi, chunki bunda davlat siyosatini tor doiradagi xudbin manfaatlarga bo‘ysundirish kelib chiqadi.

“Davlatni egallab olish” deganda, davlat yoki xususiy sektor vakillari bo‘lgan ayrim shaxslar, guruhlar yoki kompaniyalarning o‘z manfaatlari yo‘lida qonunlar, nizomlar, farmonlar hamda davlat siyosatining boshqa vositalari shakllanishiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida amalga oshiradigan harakatlaridir.

Bunday xatti-harakatlarning o‘lchovi sifatida “davlatning sotilish indeksi” qo‘llaniladi. Mazkur ko‘rsatkich parlament qabul qilgan qonunlar, hukumat qarorlari, davlat rahbarining farmonlari, hukumat tuzgan dasturlarning ayrim shaxslar va ijtimoiy guruhlarning xudbin korporativ manfaatiga qanchalik qaratganligini bildiradi. Bu ko‘rsatkich qanchalik past bo‘lsa, davlat shunchalik “toza” hisoblanadi.

Korrupsiya shakllari xilma-xil bo‘lib, ularga pora olishdan tortib amaldor xizmat vazifasini suiiste’mol qilib, jamiyat mablag‘larini noqonuniy o‘zlashtirishigacha kiradi. Biznesda eng ko‘p uchraydigan va eng ko‘p tarqalgan Korrupsiya shakli import va eksport litsenziyalari, valyuta nazorati, soliqlarni baholash, imtiyozlar berish, kreditlar olish bilan bog‘liq ravishda g‘ayriqonuniy to‘lovlar va pora talab qilishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “Korrupsiyaga jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarash kerakligini ta’kidlaydi[57].

Jinoiy tuzilmalarning davlat organlari amaldorlari bilan chatishib ketishi, ularning turli hokimiyat tarmoqlariga kirib olishi jamoatchilik nazdida fuqarolarning himoyasizligi hissini kuchaytiradi. Davlatning o‘zini obro‘sizlantiradi. Nopok yo‘l bilan boylik orttirganlar jazodan qutilib qolish va o‘zlarining jinoiy sarmoyalarini

[57] Shavkat Mirziyoyevning Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashida so‘zlagan ma’ruzasidan, https://president.uz/uz/lists/view/7924

himoya qilish uchun hamma ishni qilishga, hatto vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turadilar.

Jinoiy usullar bilan boylik va mo‘may pul orttirgan kimsalar o‘z xalqlari va mamlakatlarining taqdiriga, ozodlik va mustaqillik ideallariga mutlaqo befarq qaraydilar.

Jahon xo‘jalik aloqalariga faol integratsiyalashuv, chet el investitsiyalari va tadbirkorlarini iqtisodiy o‘zgarishlar jarayoniga tortish sharoitida korrupsiyachilarining xatti-harakatlari nafaqat mamlakatdagi halol fuqarolarni tadbirkorlikdan chetlatadi, balki chet ellik sheriklarda ishonchsizlik uyg‘otadi.

9.2. Korrupsiyaga qarshi kurashishning jahon tajribasi va bu borada davlatning roli

Korrupsiyaning tarixiy ildizlari, aftidan, biron kishida moyillik uyg‘otish uchun sovg‘a berish odatiga borib taqaladi. Qimmatbaho sovg‘a odamni boshqa iltimoschilar orasida ajratib ko‘rsatgan va uning iltimosi bajarilishiga xizmat qilgan. Shu sababli ibtidoiy jamiyatlarda kohin yoki qabila boshlig‘iga to‘lov odat bo‘lib qolgan. Davlat apparatining murakkablashuvi va markaziy hukumatning kuchayishi bilan professional amaldorlar paydo bo‘lgan bo‘lib, ular, hukmdorlarning fikriga ko‘ra, faqat qat’iy belgilangan maosh bilan kifoyalanishi lozim bo‘lgan. Amalda esa bu amaldorlar o‘z mavqeidan daromadlarni yashirish oshirish maqsadida foydalanishga harakat qilganlar. U haqida korrupsiyaga qarshi kurashgan hukmdor sifatida xotira qolgan shaxs Uruinimgina – eramizdan avvalgi XXIV asrning ikkinchi yarmida Lagash shahar-davlatining shumerlar podshosi hisoblanadi. Korrupsiya uchun boshqalarga namuna bo‘ladigan va ko‘pincha shafqatsiz jazolar qo‘llanishiga qaramay, unga qarshi kurash kutilgan natijalarga olib bkelmagan. Eng yaxshi holatda xavfli jinoyatlarning oldini olishga erishilgan, lekin mayda kamomad va poraxo‘rlik darajasida korrupsiya ommaviy tabiatga ega bo‘lgan. Korrupsiya muhokama qilingan dastlabki asar - “Artxa-shastra” - eramizdan avvalgi IV asrda Bxarat (Hindiston) vazirlaridan biri tomonidan Kautilya taxallusi ostida chop etilgan. Unda muallif “podshohning mulki, hatto kichik miqdorda bo‘lsa ham, bu

mulkni idora qiladiganlar tomonidan o‘zlashtirib olinishi mumkin emas” degan xulosa chiqargan.

Xuddi shu kabi muammolarga Qadimgi Misr fir’avnlari ham duch kelgan bo‘lib, bu yerda erkin dehqonlar, hunarmandlar va hatto harbiy a’yonlarga nisbatan ham o‘zboshimchlik va zo‘ravonlik ishlatgan hamda qonunbuzarliklarni o‘ziga kasb qilib olgan amaldorlar byurokratik apparati yuzaga kelgandi. Bizning kunlargacha etib kelgan Itaxotel degan shaxs o‘z pand-nasihatlarida quyidagicha tavsiya beradi: “Boshliq oldida belingni bukib ta’zim qil, shunda sening uyingda tartib bo‘ladi, sening maoshing joyida bo‘ladi, kim boshliqqa qarshilik ko‘rsatadign bo‘lsa, uning hayoti oson kechmaydi, lekin u iltifot ko‘rsatganda esa yashash ham oson bo‘ladi”[58].

XX asrning ikkinchi yarmida korrupsiya yanada dolzarb xalqaro muammoga aylana boshladi. Korporatsiyalar tomonidan chet eldagi yuqori mansabdor shaxslarni pora berib sotib olish ommaviy tusga ega bo‘ldi. Globallashuv shunga olib keldiki, bir mamlakatdagi korrupsiya ko‘plab mamlakatlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Bunda korrupsiya darajasi eng yuqori bo‘lgan mamlakatlar uchinchi dunyo bilan chegaralanib qolmaydi: 1990-yillarda sobiq sotsialistik mamlakatlardagi erkinlashtirish o‘taketgan mansab suiiste’mollari bilan birgalikda kuzatildi. 1995 yil 31 dekabr sonida “Financial Times” gazetasi 1995 yilni “korrupsiya yili” deb atadi. Korrupsiya haqida bilimlarni targ‘ib qilish uchun BMT Korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro kuni (9 dekabr) ta’sis qildi.

Amalda korrupsiyaning quyidagi turlarini uchratishimiz mumkin:

Maishiy korrupsiya oddiy fuqarolar va amaldorlarning o‘zaro aloqalari natijasida vujudga keladi. Uning tarkibiga fuqarolardan mansabdor shaxs va uning oila a’zolariga turli sovg‘alar va xizmatlar kiradi. Ushbu toifaga oshna-og‘aynigarchiliklr (nepotizm) ham kiradi.

Ishbilarmonlik korrupsiyasi hukumat va biznesning o‘zaro aloqalari natijasida vujudga keladi. Masalan, xo‘jalik nizosi ro‘y bergan holatlarda tomonlar

[58] Хрестоматия государства и права зарубежных стран. Древность и Средние века / сост. В. А. Томсинов. — М.: Зеркало, 1999; 2004. — С. 56.

o‘z foydasiga qaror chiqarish maqsadida sudya ko‘magini qo‘lga kiritishga harakat qiladi.

Oliy hukumat korrupsiyasi demokratik tizimlarda oliy sudlar va siyosiy rahbariyatga daxldor. U vijdonsiz xulq-atvori o‘z manfaatlari yo‘lida va saylovchilar manfaatlariga ziyon yetkazgan holda siyosatni amalga oshirishdan iborat bo‘lgan hukumat tepasida turgan shaxslar bilan bog‘liqdir.

Korrupsiya borasida eng foydali bo‘lgan sohalar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- Soliq imtiyozlari;
- Xomashyo tovarlarini bozor narxlaridan arzonga sotish;
- Rayonlashtirish, chunki bu erning bahosiga ta’sir etadi;
- Tabiiy resurslar qazib chiqarish;
- Davlat aktivlarini sotish, ayniqsa, davlat korxonalarini xususiylashtirish;
- Tijorat faoliyatining ma’lum bir turiga (ayniqsa, eksport-import sohasida) monopol hokimlik taqdim etish;
- Xufyona iqtisodiyot va noqonuniy biznes ustidan nazorat (ta’magirlik, taqib qilishdan himoya, raqobatchilarni yo‘q qilish va h.k.);
- Hukumat organlarida mas’ul lavozimlarga tayinlash.

T.Gilvasonning ta’kidlashicha, fuqarolarda davlat boshqaruvi haqida axborotga erkin ega bo‘lish yo‘qligi (ya’ni uning shaffof emasligi) korrupsiyaga xizmat qiladi va iqtisodiy inqirozlarga olib kelishi muqarrar bo‘ladi[59].

Quyidagi keltirilgan korrupsiya shakllari birinchi navbatda, sudyalarga daxldor, lekin ma’muriy huquqbuzarliklar holatida mos keluvchi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatlariga ega bo‘lgan mansador shaxslarga (ichki ishlar organlari, yong‘inga qarshi nazorat organlari, soliq organlari, bojxona organlari va b.) ham daxldor bo‘lishi mumkin.

[59] Владимир Снегирев: Нам надо перенять опыт Исландии в борьбе с кризисом — Владимир Снегирев — Российская газета

Qonunchilikdagi “sanchqi”lar. Ko‘plab me’yorlar ayb darajasini, huquqbuzarliklar og‘irligi va boshqa holatlarni maksimal hisobga olish mumkin bo‘lishi uchun sudyaga yumshoq va qattiq jazo turlari o‘rtasida tanlashga imkon beradi. Bunda sudyada huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan ta’sir etish vositasi paydo bo‘ladi. Jazoning yuqori va quyi chegaralari o‘rtasida farq qanchalik katta bo‘lsa, fuqaro shunchalik katta pora berishga tayyor bo‘ladi.

Muqobil ma’muriy jazolash. Muqobil ma’muriy jazo berish, masalan, jarima tayinlash yoki hibsga olish bilan bog‘liq huquq me’yorlari mavjud. Ko‘pchilik “sanchqi”-me’yorlardan ularni nafaqat jazolar doirasining kengligi (shunday ekan, fuqaroning pora berish motivatsiyasi kuchliroq ekanligi), balki odil sudni sud hukumati emas, ijroiya hukumati amalga oshirishi ham farqlab turadi. Ko‘plab huquqshunoslarning fikriga ko‘ra, bu turdagi jarimalardan foydalanish faqat jinoiy sud jarayonlarida o‘zini oqlaydi, lekin ma’muriy jarayonda ko‘p asoslarga ega emas: “Birinchidan, sud jarayoni ochiqlik (oshkoralik), sudda ishni ko‘rishning tortishuvlilik, og‘zakilik va bevositalik tamoyillariga asosan tashkil qilinadi. Ma’muriy ishlarni ko‘rishda esa aksariyat hollarda fuqaro hukumat vakillari bilan yuzma-yuz qoladi. Ikkinchidan, ma’muriy huquqbuzarlik uchun hatto eng qattiq jazo ham uni differensiatsiya qilish ma’noga ega bo‘lishi uchun jinoiy huquqdagi kabi og‘ir bo‘lmaydi”[60].

Huquqbuzarlik tarkibini qayta baholash. “Sanchqi” turlarining yana biri huquqbuzarlik tarkibining turli kodekslarda takrorlanishi hisoblanadi. Bu sodir etilgan huquqbuzarlikni yumshoqroq toifaga (masalan, jinoiydan ma’muriy yoki fuqarolik toifasiga), yoki aksincha, kattiqroq toifaga qayta baholash uchun imkoniyalar ochib beradi. Jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarni bir-biridan ajratish ko‘pincha qonunchilikdagi ifodalarning mavhum ekanligi sababli qiyin bo‘ladi yoki bunday holatlarda sudya (yoki mansabdor shaxs) o‘z ixtiyori bo‘yicha qaror qabul qiladi, bu esa pora va tamagirlik uchun imkoniyatlar ochib beradi.

[60] Jain A. K. Corruption: a review // Journal of Economic Surveys. — 2001. — Vol 15, No. 1. — P. 71.

Fuqarolarning pul bilan bog‘liq bo‘lmagan yo‘qotishlar. Ayrim huquq me’yorlari, agar shaxsga nisbatan huquq me’yoriga bo‘ysunish bilan bog‘liq yo‘qotishlar qo‘llanadigan bo‘lsa, korrupsiyaga olib kelishi mumkin. Hattoki jarima miqdori va jinoyat uchun jarima miqdori nominal ravishda teng bo‘lgan holatlarda ham, ta’kidlash joizki, jarima to‘lash bankda to‘lovni amalga oshirish va to‘lovni amalga oshirganlik haqida to‘lov qog‘ozini mos keluvchi idoraga taqdim etish bilan bog‘liq pulsiz, vaqt xarajatlari bilan birgalikda kuzatiladi. Huquq me’yorlari tufayli vujudga keladigan pul bilan bog‘liq bo‘lmagan yo‘qotishlar xilma-xil bo‘lib, fuqarolar uchun turli darajada yoqimsiz bo‘ladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, sudda o‘z haqligini himoya qilishga hamma fuqarolar ham tayyor bo‘lmaydi. Empirik ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, korrupsiya quyidagilarga sababchi bo‘ladi:

- davlat mablag‘lari va resurslarini samarasiz taqsimlash va sarflash;
- mamlakat iqtisodiyoti nuqtai nazaridan korrupsion moliyaviy yo‘qotishlar samarasizligi;
- soliq organlari soliqlarning bir qismini o‘zlashtirib olgan hollarda soliqlarning yo‘qotilishi;
- qo‘yiladigan to‘siqlar tufayli vaqt yo‘qotilishi, davlat apparatida ish samaradorligining pasayishi;
- xususiy tadbirkorlarning xonavayron bo‘lishi;
- malakali kadrlarning boshqa mamlakatlarga ketib qolishi;
- ishlab chiqarishga investitsiyalar pasayishi, iqtisodiy o‘sishning pasayishi;
- ijtimoiy servis sifatining pasayishi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga xalqaro yordamdan maqsadli yo‘nalishda foydalanmaslik, bu uning samaradorligini keskin tushirib yuboradi;
- shaxslar qobiliyatlaridan samarasiz foydalanish: moddiy ne’matlar ishlab chiqarish o‘rniga odamlar unumsiz renta izlashga vaqt ketkazadilar;
- ijtimoiy tengsizlikningo‘sishi;
- uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi – “banda”lar “mafiya”ga aylanadi;

- hukumatning siyosiy qonuniy huquqlariga putur etishi;
- jamiyatda odob-axloq pasayib ketishi va shu kabilar[61].

Ko‘pchilik mutaxassislar korrupsiya darajasi yuqori ekanligining asosiy sababi ichki va tashqi tiyib turish mexanizmlarini ta’minlaydigan siyosiy institutlar mukammal emasligida, deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, ayrim obyektiv holatlarning mavjudligi ham korrupsiya darajasining yuqori bo‘lishiga olib keladi, deb ta’kidlaydilar:

- ikki ma’noda tushunish mumkin bo‘lgan qonunlar;
- aholining qonunlarni bilmasligi yoki tushunmasligi, bu mansabdor shaxslarga tegishli to‘lovlarni oshirish yoki byurokratik jarayonlarni amalga oshirishg to‘sqinlik qilish imkonini beradi;
- mamlakatdagi siyosiy vaziyat beqarorligi;
- hukumat institutlari o‘zaro aloqa qilishi uchun shakllangan mexanizmlar yo‘qligi;
- byurokratik apparat faoliyatining negizida yotadigan standart-lar va tamoyillarning boshqaruvchi elita siyosatiga bog‘liqligi;
- byurokratiyaning professional chuqur bilimlarga ega emasligi;
- korrupsiya ustidan nazorat mexanizmlarini zaiflashtira-digan maxfiy bitimlar shakllantirishga olib keladigan oshna-og‘aynigarchilik va siyosiy homiylik;
- ijroiya hukumati tizimida hamjihatlik yo‘qligi, ya’ni bir xil faoliyatning turli instantsiyalar tomonidan tartibga solinishi;
- davlat ustidan nazoratda fuqarolarning ishtirok etish darajasi pastligi.

Korrupsiya darajasi yuqoriligi sabablari bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlarga nisbatan boshqa taxminlar ham ko‘rib chiqiladi:

- davlat sektorida ish haqi darajasining xususiy sektor bilan taqqoslaganda pastligi;
- iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;

[61] Jain A. K. Corruption: a review // Journal of Economic Surveys. — 2001. — Vol 15, No. 1. — P. 71

- fuqarolarning amaldorlarga bog‘liqligi, ma’lum bir xizmat-larga davlat monopoliyasi;
- byurokratiya elitasining xalqdan ajralib qolganligi;
- iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya;
- aholining etnik jihatdan xilma-xilligi;
- iqtisodiy rivojlanish darajasi pastligi (aholi jon boshiga YaIM);
- diniy an’analar;
- mamlakat madaniyati.

Korrupsiyaga qarshi kurashning singapurcha strategiyasi qattiqqo‘llik va izchillik bilan ajralib turadi va “korrupsiya ustidan nazorat mantig‘i”ga asoslanadi: “korrupsiyani tag tomiri bilan yo‘q qilishga qaratilgan harakatlar shaxsning poraxo‘rlik bilan bog‘liq harakatlar amalga oshirishga moyillik imkoniyatini ham, stimulini ham yaratadigan shart-sharoitlarni minimal qilish yoki istisno qilishga intilishiga asoslangan bo‘lishi lozim”.

Mustaqillikni qo‘lga kiritgan 1965 yilda Singapur korrupsiya darajasi juda yuqori bo‘lgan mamlakat hisoblanardi. Korrupsiyani pasaytirish taktikasi bir qator vertikal chora-tadbirlarga: amaldorlar harakatlarini tartibga solishga, byurokratik jarayonlarni soddalashtirishga, yuqori odob-axloq standartlariga rioya qilinishi ustidan qattiq nazoratga asoslangan. Uning markaziy bo‘g‘iniga aylangan korrupsiya holatlarini tergov qilish bo‘yicha mustaqil Byuroga fuqarolar davlat xizmatchilari ustidan arz qilish va yetkazilgan ziyonni qoplashni talab qilib murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan. Shu bilan bir paytda qonunchilik talablari kuchaytirildi, sud tizimi mustaqilligi oshirildi (yuqori ish haqi va imtiyozli maqom berilgan holda), pora berganlik yoki korrupsiyaga qarshi tergov ishlarida ishtirok etishdan bosh tortganlik uchun iqtisodiy jarima choralari joriy qilindi, shuningdek, bojxona xodimlari va boshqa davlat xizmatchilariga nisbatan yoppasiga ishdan bo‘shatishga qadar bo‘lgan qattiq choralar ko‘rildi. Bu iqtisodiyotni qayta tartibga solish, amaldorlar ish haqini oshirish va yuqori malakali ma’muriyat kadrlari tayyorlash bilan uyg‘unlashdi. Hozirgi paytda Singapur korrupsiya yo‘qligi, iqtisodiy erkinlik va taraqqiyot borasida dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning fincha strategiyasiga xos bo‘lgan xususiyat korporatsiya haqida maxsus qonun yo‘qligi hisoblanadi. Korrupsiya qattiq jinoyat turlaridan biri sifatida ko‘rib chiqilgan va qonunchilik, me’yorlar va boshqa nazorat tizimlarining barcha darajalarida tartibga solingan. Amaldorlarning pora olganlik uchun nisbatan yumshoq – jarima to‘lashdan to‘rt yil qamoq jazosiga hukm qilinishigacha jazo belgilanishi Finlyandiyaga xos bo‘lgan xususiyat hisoblanadi. Urushdan keyingi davrda ilgari juda yuqori bo‘lgan poraxo‘rlik darajasining keskin pasayishi ro‘y berdi – 1945-1954 yillarda pora olganlik uchun 549 kishi jazolangan bo‘lsa, 1980-1989 yillarda chiqarilgan bunday hukmlar soni 81 tani, 1990-yillarda esa 38 tani tashkil qildi. 1990-yillardan boshlab Finlyandiyada xalqaro vositalar foydalanila boshladi – 1997 yilgi Korrupsiyaga qarshi kurash YeI Konventsiyasi, 1998 yilgi poraxo‘rlikka qarshi kurash IHTT Konventsiyasi, Yevropa Kengashining korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lgan jinoiy va fuqarolik huquqi bo‘yicha konventsiyasi, 2003 yil dekabrda Mexikoda qabul qilingan korrupsiyaga qarshi BMT Konventsiyasi ratifikatsiya qilindi[62].

XIX asr o‘rtalariga qadar Shvetsiyada korrupsiya gullab-yashnagan. Merkantilizmni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui mamlakatni modernizatsiya qilishning oqibatlaridan biri bo‘ldi. Shu paytdan boshlab davlat tomonidan tartibga solish firmalardan ko‘ra ko‘proq uy xo‘jaliklari bilan bog‘liq bo‘lgan hamda taqiqlash va ruxsat berishdan ko‘ra stimullarga asoslangan (soliqlar, imtiyozlar va subsidiyalar orqali). Ichki davlat hujjatlariga ulanish imkoniyati ochilgan hamda mustaqil va samarali odil sud tizimi barpo etilgan. Shu bilan bir paytda Shvetsiya parlamenti va hukumati ma’muriyat xodimlari uchun yuqori axloqiy standartlar o‘rnatdi va ularni ijro qilishga erishishga intila boshladi. atigi bir necha yildan so‘ng halollik byurokratiya orasida ijtimoiy me’yorga aylandi. Yuqori mansabdagi amaldorlar maoshi dastlab oddiy ishchilarning ish haqidan 12-15 baravar katta bo‘lgan, lekin vaqt o‘tishi bilan bu farq ikki baravargacha pasaygan.

[62] http://www.ieras.ru/pub/monografii/seu.pdf

Hozirgi kunda Shvetsiya avvalgidek, dunyo bo‘yicha korrupsiya ko‘rsatkichi eng past bo‘lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Tarixiy tajribalardan ma’lumki xufyona iqtisodiyot xo‘jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi. Lekin, uning miqyoslarini haddan tashqari kengayib ketishini oldini olish vazifasi aynan davlatning zimmasiga tushadi. Xufyona faoliyatga davlat tomonidan ta’sir etish masalasi, ayniqsa, jamiyatning bir formatsiyadan boshqasiga o‘tish davrlarida, inqirozlar paytida dolzarb bo‘lib boradi.

Chunki aynan shunday davrlarda uning miqyoslarini kengayib ketishiga sabab bo‘ladigan omillar ta’siri kuchayib boradi. Masalan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida amalga oshiriladigan iqtisodiy islohotlar natijasida katta korxonalar bozorda o‘z o‘rnini topa olmay yopilib ketishi yoki mayda korxonalarga bo‘linib ketishi mumkin. Bulardan tashqari yangi korxonalar ham vujudga kelishi mumkin.

O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan, ochiq bozor munosabatlariga o‘tishning mashhur besh tamoyilining biri bo‘lgan davlatning bosh islohotchi ekanligi to‘g‘risidagi tamoyilga asoslanilganligi respublikada xufyona iqtisodiyot miqyoslarini haddan tashqari kengayib ketishini oldini olishda muhim omil bo‘ldi.

Xufyona faoliyatga davlat tomonidan ta’sir etish usullari turlicha bo‘lib, adabiyotlarda quyidagi usullar ajratib ko‘rsatiladi:

- monetar usul. Bunda xufyona hisob-kitoblarda faqat naqd pul mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi gipotezaga asoslaniladi (naqd pul massasining harakati dinamikasi xufyona iqtisodiyot hajmlari to‘g‘risida fikr yuritishga imkon beradi);

- daromad va xarajatlar balansi usuli. Bunda deklaratsiya qilinadigan daromadlar xarajatlar summasi hamda tovar va xizmatlar iste’molining real hajmlari bilan taqqoslanadi;

- ish bilan bandlikning tahlili. hisobga olinmagan ishsizlik darajasining uzoq vaqt saqlanib qolishi xufyona sektorda band bo‘lish imkoniyatlarining mavjudligidan dalolat beradi. (ro‘yxatga olinmagan ishsizlarning soni xufyona iqtisodiyot hajmlaridan dalolat beradi);

- texnologik koeffitsiyentlar usuli. Bu usul xarajatlarning texnologik koeffitsiyentlari asosida mahsulot ishlab chiqarishning real hajmlari to‘g‘risida ma’lumotlar olish imkonini beradi;

- uy xo‘jaliklari va korxonalar rahbarlari orasida so‘rovlar o‘tkazish. Bu xufyona sektor hajmini ekspert baholash imkonini beradi[63].

Adabiyotlarda xufyona faoliyatga davlat tomonidan ta’sir etishning bir nechta yo‘nalishlari mavjudligi ta’kidlanadi. Bulardan birinchisi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat strategiyasi bo‘lib, u milliy xo‘jalik modelining asosiy parametrlarini belgilaydi. Xufyona iqtisodiyot miqyoslarini kengayib ketishini oldini olish borasidagi strategiyaning muhim unsurlari quyidagilardan iborat:

- xufyona iqtisodiyotni minimumga yetkazish – eng asosiy strategik maqsad;

- halol raqobat asosida milliy iqtisodiyotni asosiy makroiqtisodiy parametrlarini shakllantirish;

- monopoliyaga qarshi samarali siyosat olib borish;

- xufyona iqtisodiyotning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan miqyoslarini belgilash.

Mukammal xo‘jalik huquqini shakllantirish halol faoliyat olib borish uchun ma’lum rag‘batlarni yaratadi.

Mamlakatda aholi turmush darajasini oshirishga va kam ta’minlanganlarni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy siyosat olib borish.

Biznes bilan bo‘ladigan munosabatlar. Bunda davlat hokimiyatini xususiy biznes bilan o‘zaro munosabatlarida asosiy tamoyillarga rioya qilish ko‘zda tutiladi.

Davlatning jazolash funksiyalaridan foydalanish. Bunday funksiya davlatning kriminal iqtisodiyotga qarshi kurashi bilan bog‘liq.

Davlatning tarbiyaviy funksiyasini qo‘llash. Bu ta’lim tizimi va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. Uning muhim unsurlariga quyidagilar kiradi: qonunlarga itoat etish madaniyatini shakllantirish, zo‘ravonlik, narkobiznes,

[63] Попов Ю.Н., Тарасов М.Е. Теневая экономика в системе рыночного хозяйства. «ДЕЛО», «ЭКОНОМИКА». М., 2005, с.45

fohishabozlik, pornografiyani qoralash, jamiyatning ma’naviy-ahloqiy tamoyillari asosida milliy g‘oyani shakllantirish.

Fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni amalga oshirish. Bunda oila, diniy tashkilotlar, o‘z-o‘zini boshqarish organlari, mehnat jamoalari, turli ijtimoiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, ijodiy uyushmalar kabi ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash ko‘zda tutiladi.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham xufyona iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatishning bir yo‘nalishi hisoblanadi.

9.3. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy va me’yoriy asoslari

Xalqaro standartlarni hisobga olgan holda, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha huquqiy va institutsional asoslarning kelgusida takomillashtirish maqsadida 2017 yilning 4 yanvar sanasida O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, vakolatli davlat organlari tizimi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolar va ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi, shuningdek, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalari aks etgan.

Qonun bilan qamrab olingan chora-tadbirlar doirasi O‘zbekistonning siyosiy xohish-irodasi va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining jiddiyligini tasdiqlaydi. Qonun yagona bir butunligicha barcha korrupsiyaga qarshi kurashish unsurlarini o‘zida qamrab olgan.

Qonunga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarligi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etiladi. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi.

Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta’minlash;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta’minlash;

korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalarining amalga oshirilishiga erishish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tashkiliy-amaliy va normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirishda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini doimiy va samarali ta’minlash;

uning zaruriy mustaqilligini ta’minlash;

uni tegishli moddiy resurslar bilan ta’minlash.

Shunday qilib, O‘zbekiston antikorrupsion siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish uchun institutsional bazani mustahkamlash maqsadida muhim qadamlarni tashlagan, desak, adashmaymiz.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida:

qonuniylik va huquqtartibotni ta’minlash;

davlat xizmati organlarining faoliyatida oshkoralik va shaffoflikni ta’minlash;

jamiyatda korrupsiyaga nisbatan mutlaq murosasizlik madaniyatiga erishish;

xalqning davlat hokimiyati oganlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga erishiladi.

Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

Jamiyatda aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi – demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Mamlakatimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aholining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liqdir. Shaxsning siyosiy-huquqiy faolligi, uning chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik

islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi davlatimiz o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadlarga erishishining muhim omilidir.

Huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir.

Bunda g‘oyat muhim jihat – jamoatchilikka davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari faoliyati haqida ma’lumot berish, davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlardan, birinchi navbatda, inson huquq va erkinliklari, fuqarolarning qonuniy manfaatlariga doir qarorlardan aholini keng xabardor qilib borish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq.

Bugungi globallashuv zamonida jahon jamoatchiligini, xalqimizni hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangilik va o‘zgarishlardan o‘z vaqtida xabardor qilish, ayniqsa, fuqarolarning huquqiy axborotlar olishini keng ta’minlash, shu yo‘l bilan davlat va jamiyatga bo‘lgan o‘zaro munosabatlarini xolis va haqqoniy aks ettirish talab etiladi.

Ayniqsa, yoshlarning huquqiy axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda zamonaviy axborot vositalari imkoniyatidan keng foydalanish zarurligini inobatga olgan holda, huquqiy yo‘nalishdagi axborot tizimlari soni va sifatini oshirish, ularning foydalanish uchun qulayligi masalalari muhim ahamiyatga ega. Ta’lim va tarbiya tizimi, ma’naviyat va ma’rifat bilan bog‘liq barcha muassasalar o‘z faoliyatlarini sof axloqiy, yuksak ma’naviy qadriyatlarni qaror toptirish va omma ongiga singdirish va eng muhimi fuqarolarning jamiyat hayotining barcha sohalari, xususan, huquqiy masalalar doirasida ham faolligini oshirish vazifasiga safarbar etishlari lozim.

9.4. Raqamli iqtisodiyot jamiyatda korrupsion holatlarning kamaytirishning muhim asosi sifatida

Ilmiy va texnologik taraqqiyotni jadallashtirish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, yangi texnologiyalarni izchil joriy etish hisobiga ishlab chiqarish

tuzilmasining o‘zgarishi bilan bog‘liq holda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan o‘zgarishlar asnosida iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida ijobiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda (bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning ulushi dunyo YaIMining 10 foizini tashkil etadi). Shu asnoda innovatsion taraqqiyotning turli vazifa va muammolarini hal etish borasidagi qarashlar va yondashuvlar ham o‘zgarib bormoqda. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish global iqtisodiyot asoslarini o‘zgartirish va qayta ko‘rib chiqishga olib keladi, chunki zamonaviy iqtisodiyot ma’lumotlar bazasini boshqarishga asoslangan iqtisodiyot hisoblanadi. Bu borada jahonning eng nufuzi iqtisodiy nashrlaridan biri The Economist jurnali axborotni – “Fuel of the future” kelajak yoqilg‘isi, deb ataydi.

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida – “raqamli iqtisodiyot” kontseptsiyasi vujudga keldi, mazkur kontseptsiyaning asosini katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish sohasini (onlayn xizmatlar, elektron to‘lovlar va boshqalar) rivojlantirish imkonini beruvchi raqamli va kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish va ularni jamiyat hayotining barcha sohalariga izchil joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatini tashkil etishning o‘ziga shakl va usullari tashkil etadi. Zamonaviy, intellektual iqtisodiyot sari rivojlanish, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, ko‘plab omillarga bog‘liq va ularning ekonometrik tahlili raqamli iqtisodiyotni oqilona boshqarish hamda tartibga solish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga “raqamli texnologiyalar”ni joriy etish bugungi kunda o‘zining potensial imkoniyatlarini kengaytirish jarayonida bo‘lgani holda, texnik baza, dasturiy ta’minotning nomukammalligi, aholi kompyuter savodxonlik darajasining pastligi, raqamli texnologiyalar sohasini tartibga solish borasida qonunchilik bazasining bugungi kun talablariga javob bera olmasligi kabi omillar kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish va biznes muhitiga yangi “raqamli texnologiyalar”ni integratsiyalashuviga to‘sqinlik qilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda davlatning qo‘llab-quvvatlovchi siyosati alohida ahamiyat kasb

etadi. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Mamlakatimiz rahbari joriy 2020 yilning 24 yanvarida mamlakat Parlamentiga yo‘llagan Murojaatnomasida: ”Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda... aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq... Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi”-deb ta’kidlab o‘tdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan “Raqamli O‘zbekiston-2030” kontseptsiyasida O‘zbekistonda bilimlar jamiyatini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni barpo etish, ilg‘or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda raqamli iqtisodiyot sektori tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlardan uy xo‘jaliklarining foydalana olishlari uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratish va ularning turmush farovonligini oshirish, uy xo‘jaliklari a’zolarining xabardorlik va raqamli savodxonlik darajasini oshirish, fuqarolar uchun sifatli va arzon davlat xizmatlarini ko‘rsatish, mamlakatning barcha hududlarini sifatli va tezkor Internet aloqasi bilan ta’minlanishini yo‘lga qo‘yish, uy xo‘jaliklari va davlat miqyosida axborot xavfsizligini ta’minlash kabi masalalar ko‘zda tuilishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Ta’kidlash lozimki, raqamli texnologiyalar sohasi mutaxassis-larining fikricha, bugungi kunda jahonda Internetdan foydalanuvchilar soni dunyo aholisining 52 foizini tashkil etadi. Qashshoq uy xo‘jaliklarining 20 foizida a’zolarning har o‘ntasidan yettitasida uyali telefon mavjud.

Mobil telefonga ega bo‘lgan qashshoq uy xo‘jaliklarining soni oddiy hojatxona yoki toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniga ega bo‘lganlardan anchagina ko‘pchilikni tashkil etadi.

Jahon banki ekspertlarining fikricha, bugungi kunda butun dunyo mamlakatlari “raqamli inqilob”ni boshidan kechirmoqdalar. Ular bu borada bir qator xulosalarni ilgari suradilar:

1. Internet, uyali aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng taraqqiy etishi raqamli iqtisodiyotning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi;

2. Raqamli iqtisodiyot dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida jadal taraqqiy etmoqda;

3. Raqamli iqtisodiyot dunyo qiyofasining tubdan ijobiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi.

Shu tufayli mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi va sohani jadal rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilandi. Bugungi kunda butun dunyo mamlakatlarida bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham fuqarolar raqamli iqtisodiyotning avfzalliklaridan kengroq foydalanishni istaydilar. Shu sababli ham raqamli inqilob mamlakatimizda barcha fuqarolarni birdek qamrab olishi uchun sohaga investitsiyalar kirib kelishini faollashtirish, texnologiyalar va innovatsion biznes g‘oyalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash

Raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarning izchil joriy etilishi asnosida milliy iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sish sifati yaxshilanadi, yangi ish o‘rinlarini yaratish jarayonlari jadallashadi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda mamlakatimizda internet tarmog‘idan foydalanuvchilar 32,7 milliondan oshiqroqni tashkil etadi

2025-yil boshida jami 5,56 milliard kishi internetdan foydalanadi, buning natijasida qamrov darajasi 67,9 foizni tashkil etdi. 2024-yil davomida internet

foydalanuvchilari 136 millionga oshdi, biroq 2025-yil boshida 2,63 milliard kishi ta’minotsiz qolmoqda. 2020 yilda The Economist Intelligence Unit tomonidan 2017 yildan buyon o‘tkazilib kelinuvchi inklyuziv internet indeksi reytingida O‘zbekiston 100 ta mamlakat ichida 47-o‘rinni egallagan. Xalqaro ekspertlar internet va raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida O‘zbekistonda gender tengligiga erishish lozimligini ta’kidlaydilar.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki beruvchi texnologiyalarni jadal joriy etish nuqtai –nazaridan mamlakatlarni quyidagi to‘rtta guruhga bo‘lishimiz mumkin: yetakchi mamlakatlar; istiqbolli mamlakatlar, o‘sish darajasi pasayayotgan va muammoli mamlakatlar.

Yetakchi mamlakatlar yuqori darajada rivojlangan raqamli iqtisod va kuchli rivojlanish dinamikasiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Ular o‘z mavqelaridan samarali foydalanib, innovatsiyalarni rag‘batlantiradilar. Biroq, vaqt o‘tishi bilan yuqori o‘sish sur’atlarini saqlab qolish katta qiyinchilik tug‘diradi va ko‘pincha innovatsiyalar iqtisodiy ta’sirni kengaytirish uchun ishonchli asos bo‘lib xizmat qila olmaydi. O‘z mavqelarini yo‘qotmaslik uchun bu mamlakatlar yangi talabni yaratishlari va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishni yanada avj oldirishlari talab etiladi. Aks holda, ularning o‘sish sur’atlari sekinlashayotgan mamlakatlar toifasiga tushib qolish xavfi yuqorilab boraveradi.

O‘sish sur’atlari pasayayotgan mamlakatlar raqamli iqtisodiyotning taraqqiy etganligi bilan ajralib tursada, lekin raqamli iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari sekinlashishi bilan ajralib turadi. Mazkur mamlakatlar yetakchi mamlakatlardan innovatsion rivojlanishni qo‘llab – quvvatlash borasida ular to‘plagan boy tajribani o‘zlashtirishlari asnosida yetakchi mamlakatlar qatoriga o‘tishlari mumkin, aksincha ular muammoli mamlakatlar qatoriga o‘tib qolishlari ehtimoldan holi emas.

Istiqbolli mamlakatlar hozirgi kunda raqamlashtirish darajasi past bo‘lsada, lekin jadal rivojlanayotganligi bilan alohida ajralib turadi. Barqaror rivojlanish dinamikasi va raqamli texnologiyalarni joriy etish borasidagi mavjud katta salohiyat investorlarda katta qiziqish uyg‘otadi. Mazkur mamlakatlar raqamli texnologiyalarning taraqqiyotiga cheklovchi ta’sir ko‘rsatuvchi infratuzilma va

institutsional muhitning yomon sifati bilan ajralib turadi. Istiqbolli mamlakatlar eng yaxshi innovatsion yechimlarni rag‘batlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion infratuzilma obyektlari va institutlarini barpo qilishga harakat qilishlari lozim.

Muammoli mamlakatlar raqamlashtirishning past darajasi bilan farqlanadi. Raqamlashtirishning past darajasi iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida qator muammolarni vujudga keltirgani holda, iqtisodiyotning innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga imkon bermaydi. Ba’zi muammoli mamlakatlar infratuzilma tanqisligi, institutsional cheklovlar va iste’molchilarning uquvsizligi kabi muammolarni hal etishda o‘ziga xos tarzda yondashishga harakat qiladilar. Ular uchun rivojlanish dinamikasini yaxshilashning eng ishonchli yo‘li internetdan foydalanishdagi bo‘shliqni kamaytirish orqali aholining internetdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashdan iboratdir.

Alohida ta’kidlash lozimki, davlatning qo‘llab-quvvatlovchi siyosati raqamli iqtisodiyotning jadal taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy taraqqiyot “oqsoqlanishi”ning oldini olish maqsadida: raqamli innovatsiyalar sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish; iqtisodiyotda yangi texnologiya va axborot oqimlaridan foydalanishni rag‘batlantirish; uy xo‘jaliklari a’zolarining raqamli makonda faoliyat ko‘rsata olishlarini ta’minlash maqsadida o‘quvchi va talabalarning yangicha fikrlashlariga xizmat qiluvchi o‘quv dasturlarini joriy etish, raqamli texnologiyalar sohasi uchun malakali mutaxassis va kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish talab etiladi.

Raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot vositalarini iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlariga keng joriy etishda tijorat banklarining o‘rni va ahamiyati juda ham katta. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda banklar faoliyatida ham raqamli transformatsiyalashni amalga oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Banklar faoliyatida raqamlashtirishdan foydalanish – bu eng avvalo yangi bank xizmatlarini ko‘rsatish, yangi bozor imkoniyatlariga ega bo‘lish maqsadida raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ko‘zda tutadi. Bugungi kunda butun jahonda bank amaliyotida amalda mavjud biznes-modellar o‘rniga raqamli valyutalar, R2R-servislar, mobil va kontaktsiz to‘lovlar tizimidan keng

foydalanilmoqda. Aynan shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ham bank tizimini raqamli transformatsiyalash va bu borada jahon amaliyotida keng qo‘llaniluvchi raqamli texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish birinchi navbatda iqtisodiyotning samaradorligi va raqobatbardoshliligini oshirishni ko‘zda tutadi. Jahon bankining “Raqamli dividendlar” nomli tadqiqoti natijalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarb va muhim masala ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, internet tezligining 10 foizga o‘sishi, mamlakat YaIMni o‘sishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich, 1,21 foizni tashkil etsa, rivojlanayotgan davlatlarda 1,38 foizni tashkil etadi. Demak, internet tezligi 2 barobarga oshadigan bo‘lsa, YaIM hajmi ham qariyb 15 foizga oshishiga erishish mumkin. Bundan tashqari, ekspertlarning hisoblashlaricha raqamlashtirish evaziga mahsulot ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish xarajatlari 10-40 foizgacha pasayadi, asbob-uskunalarning bo‘sh turib qolishi 30-50 foizgacha, mahsulot va xizmatlarni bozorga olib chiqish xarajatlari 20-50 foizgacha, mahsulot sifatini yaxshilash va reklama xarajatlari 10-20 foizgacha, ishlab chiqarish zaxiralarini saqlash xarajatlari esa 20-50 foizgacha qisqaradi. Raqamli texnologiyalarning izchil joriy qilinishi natijasida Sharqiy Afrikada istiqomat qiluvchilarning 40 foizi bugungi kunda kommunal to‘lovlarni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirmoqdalar, Xitoyda 8 milliondan oshiq tadbirkorlar (ularning uchdan biri ayollar) elektron tijorat platformasidan foydalangan holda, dunyoning 120 dan ortiq mamlakatlariga o‘z mahsulotlarini eksport qilmoqdalar. Aholisi 1 milliard 300 million kishidan oshiq bo‘lgan Hindiston aynan raqamli texnologiyalarni amalda izchil qo‘llash orqali mamlakatda korrupsiya darajasini sezilarli darajada kamaytirishga erishdi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi darajasi kam mehnat, moliyaviy va moddiy resurslarni sarflagan holda yuqori iqtisodiy samaraga erishish imkoniyatini beradi. Xo‘jalik yurituvchi iqtisodiy subyektlarining zaruriy axborotlarga egalik qilishi raqobat ustunligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ularga o‘z

faoliyatlarini bashoratlash aniqligini ta’minlashga va pirovardida moliyaviy savodxonligini yaxshilashga zamin yaratadi.

Qisqacha xulosalar

1. Korrupsiya faqat bir ko‘rinishda namoyon bo‘ladigan hodisa bo‘lmay, u jamiyat hayotining turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi. Korrupsiya shakllari xilma-xil bo‘lib, ularga pora olishdan tortib amaldor xizmat vazifasini suiiste’mol qilib, jamiyat mablag‘larini noqonuniy o‘zlashtirishigacha kiradi.

2. Korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko‘rsatish ifodasi bo‘lib, uning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishiga olib keladi, jamiyatning ma’naviy-ahloqiy asoslarini yemiradi.

3. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Respublikada qisqa davr ichida Korrupsiyani oldini olish, unga qarshi kurash uchun qonuniy va me’yoriy asoslar yaratildi. Qonun va me’yoriy hujjatlar xalqaro me’yorlardan kelib chiqib ishlandi.

Nazorat savollari

1. Mamlakatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev “Korrupsiya jamiyat rivojiga g‘ov bo‘layotgan illat -bu korrupsiya balosidir”-deb ta’kidlaydi. Davlatimiz rahbarining ushbu so‘zlari zamirida nimalar yotibdi deb o‘ylaysiz. Jamiyatda korrupsiyani butunlay yo‘qotish mumkinmi?
2. Jamiyatda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar nimalardan iborat?
3. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy va me’yoriy asoslari to‘g‘risida qisqacha so‘zlab bering?
4. Korrupsiyaga qarshi kurashishning dunyo mamlakatlari tajribasi haqida gapirib bering?

Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo‘lidan chetda qolib ketishi muqarrar.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov.

X BOB. MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA INTELLEKTUAL MULK VA UNI HIMOYA QILISH YO‘LLARI

10.1. Intellektual mulk tushunchasi va uning mohiyati

10.2. Intellektual huquqlar

10.3. Intellektual mulk va uni muhofaza qilishning ahamiyati

Tayanch tushuncha va iboralar:

Intellektual mulk, intellektual huquq, intellektual faoliyat, mulk huquqi, intellektual faoliyat natijalari, intellektual mulk obyektlari, tovar belgisi, litsenziya, patent, mualliflik huquqi, patent huquqi, turdosh huquqlar, sanoat namunasi, ixtiro, foydali model, litsenziya turlari, royalti, intellektual mulkni boshqarish.

Qisqacha sharh

Zamonaviy iqtisodiyotda intellektual mulk - bu innovatsion rivojlanish, texnologik taraqqiyot va raqobatbardosh mahsulot yaratishda muhim resurs hisoblanadi. Davlat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash jarayonida intellektual mulkni himoya qilish nafaqat yaratuvchilar va tadbirkorlarning huquqlarini himoya qiladi, balki milliy iqtisodiyotning barqarorligini mustahkamlash, investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Intellektual mulkga mualliflik huquqi, patentlar, sanoat namunalari, savdo belgilarini himoya qilish va tijorat sirlarini saqlash kiradi. Ularning qonuniy himoyasi innovatsion mahsulot va texnologiyalarni noqonuniy ko‘chirishdan, piratlik va suiiste’moldan himoya qiladi. Shu bilan birga, intellektual mulkning himoyasi investorlar ishonchini oshiradi, raqobatni shaffoflashtiradi va milliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ushbu bobda intellektual mulkning mohiyati, unga doir huquqlar tizimi, ularni muhofaza qilish usullari va ularning iqtisodiy xavfsizlikdagi roli o‘rganiladi. Natijada talabalar intellektual mulkni himoya qilish va davlat iqtisodiy xavfsizligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tushunib, innovatsion va raqobatbardosh iqtisodiy muhit yaratishda ushbu himoyaning strategik ahamiyatini tushunib yetadilar.

Global innovatsiyalar indeksi–2025: O‘zbekiston 79-o‘rin bilan Markaziy Osiyoda peshqadam

Jahon Intellektual Mulki Tashkiloti (WIPO) tomonidan nashr etilgan 2025 yilgi Global innovatsiyalar indeksi (GII) hisobotida 139 davlatning innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari hamda dunyo miqyosidagi 100 ta yirik innovatsiya klasterining faoliyati chuqur tahlil qilindi.

GII 7 ta yo‘nalish va 78 ta ko‘rsatkichdan iborat va ular iqtisodiy rivojlanishning turli darajalarida bo‘lgan mamlakatlarning innovatsion rivojlanishini tavsiflaydi. Mazkur indeks ikki subindeksning ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymatlaridan kelib chiqib hisoblanadi.

Birinchi subindeks - innovatsiyalarni joriy etish uchun mavjud resurslar va sharoitlar *(Innovation Input)*. Unga institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infratuzilma, ichki bozor hamda biznesning rivojlanish darajasi kiradi.

Ikkinchi subindeks esa - innovatsiyalarni joriy etishda erishilgan amaliy natijalar *(Innovation Output)*. U iqtisodiyotda texnologiyalar va bilimlarning rivojlanishi, shuningdek, ijodiy faoliyat natijalarini o‘z ichiga oladi.

GIIda Shveysariya yuqori daromadli mamlakatlar orasida ketma-ket 15 yildan buyon birinchi o‘rinni egallab kelmoqda. Shveysariya **“inson kapitali va tadqiqotlar”** yo‘nalishidan tashqari *(6-o‘rin)* boshqa barcha yo‘nalishlar bo‘yicha top 5-o‘rinni egallagan.

Shvetsiya va AQSh uch yildan beri mos ravishda 2- va 3-o‘rinlarni saqlab qolmoqda.

Shvetsiya **“Biznes rivojlanishi”** va **“Ijodiy faoliyat natijalar”** yo‘nalishida 2-o‘rin, **“inson kapitali va tadqiqotlar”** 3-o‘rin, **“Bilim va texnologiya**

natijalari” va **“Infrastruktura”** yo‘nalishida 4-o‘rinni egallagan. Shuningdek, Shvetsiya **“Olimlar soni”** indikatori bo‘yicha 1-o‘rinni egallagan.

AQSh **“Bozor rivojlanishi”** va **“Biznes rivojlanishi”** yo‘nalishi bo‘yicha 139 ta mamlakat ichida 1-o‘rinni egallagan. Mamlakat “Jahon korporativ R&D investorlari” *(1-o‘rin)*, nomoddiy aktivlar intensivligi *(1-o‘rin),* mahalliy bozor hajmi *(2-o‘rin)*, davlat ilmiy sanoat hamkorligidagi nashrlar ulushi *(2-o‘rin)*, “YaIMda ilmiy tadqiqot xarajatlari ulushi” *(4-o‘rin)* va xususiy sektorga ajratilgan kreditlar (4-o‘rin) indikatorlari bo‘yicha yuqori o‘rinni egallagan. Bu xususiy sektorning innovatsiyalarni rivojlantirishdagi markaziy rolini namoyon qiladi.

Biroq, “Infratuzilma” yo‘nalishi bo‘yicha (32-o‘rin) AQShning natijalari pastroq. Shuningdek, AQShda 22 ta innovatsiya klasteri mavjud bo‘lib, ular kuchli venchur kapitali faoliyati, jonli startap ekotizimlari va universitetlar hamda sanoat o‘rtasidagi yaqin aloqalar bilan ajralib turadi.

Masalan, San-Xose – San-Fransisko klasteri dunyoda 3-o‘rinda va innovatsiya intensivligi bo‘yicha 1-o‘rinda turadi. Bu Silikon vodiysidagi yirik texnogigantlar, patent va venchur kapitalidagi yuqori ko‘rsatkichlar bilan ta’minlangan.

Koreya, Singapur, Buyuk Britaniya, Finlandiya, Niderlandiya, Daniya va Xitoy keyingi o‘rinlardan joy olib top 10 talikka kirdi.

Koreya Respublikasi 2025 yilda 4-o‘ringa ko‘tarildi. Mamlakat **“Inson kapitali va tadqiqotlar”** yo‘nalishi bo‘yicha 1-o‘rinni egalladi. Shuningdek, “Olimlar soni” (2-o‘rin), “YaIMda ilmiy tadqiqot xarajatlari ulushi” (2-o‘rin), “Biznesda olimlar ulushi” (1-o‘rin) kabi qator indikatorlar bo‘yicha yuqori pog‘onani egallagan.

Singapur 2025 yilda bir o‘rin pastlab, 5-o‘rinni egalladi. Shunga qaramay, u 139 ta davlat ichida 78 ta GII indikatorlarining 10 tasida 1-o‘rinni egallagan.

Finlandiya (7-o‘rin) va Niderlandiya (8-o‘rin) TOP-10 talikda mustahkam o‘ringa ega. Finlandiya "Infratuzilma" yo‘nalishida (3-o‘rin), Niderlandiya "Ijodiy natijalar" yo‘nalishida (6-o‘rin) ilg‘or ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan. Bu ularning muvozanatli innovatsiya ekotizimini aks ettiradi. Xitoy ilk bor TOP-10 talik

qatoridan joy olib “Bilim va texnologiya natijalari” yo‘nalishi bo‘yicha dunyoda yetakchiga aylandi.

Markaziy Osiyo davlatlari bo‘yicha GIIda O‘zbekiston 79-o‘rin (2020 yilga nisbatan 14 pog‘ona yuqori) bilan liderlikni egallagan. Undan keyin Qozog‘iston (81-o‘rin), Qirg‘iziston (96-o‘rin) va Tojikiston (108-o‘rin) ketma-ketlikdan joy olgan.

O‘zbekiston “Tadbirkorlik siyosati va madaniyati” (3-o‘rin) “Mehnat unumdorligi o‘sishi” (6-o‘rin), startaplarni moliyalashtirish (6-o‘rin), **“Fan va muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha bitiruvchilar”** soni (13-o‘rin) va **“YaIMning ta’limga xarajatlar ulushi”** (24-o‘rin) indikatorlari bo‘yicha 139 ta mamlakat ichida ijobiy natijani qayd etgan. Bu iqtisodiy samaradorlikning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Biroq, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga sarmoyalar ulushi (98-o‘rin), adabiyot, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha PISA shkalasi (84-o‘rin), kam uglerodli energiyadan foydalanish (118-o‘rin) kabi indikatorlar pastligicha qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston 2030 yilga qadar Global innovatsiya indeksi da Top-50 talik mamlakatlar ro‘yxatiga kirishi belgilangan.

Manba: https://review.uz/uz/post/global-innovaciyalar-indeksi-2025

10.1. Intellektual mulk tushunchasi va uning mohiyati

Intellektual faoliyat natijalarining yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarda aks etuvchi qiymatga transformatsiyalanishi asosida innovatsion iqtisodiyot va bilimlar iqtisodiyotining taraqqiyoti jadallashadi va uning ko‘lamlari tobora kengayib boradi. Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda intellektual resurslar ahamiyatining ortib borishi mahsulot ishlab chiqarish usullarining o‘zgarishiga, bilimlarning yangi qiymat yaratilishida eng muhim omilga aylanishiga olib keladi. Innovatsion biznes muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri intellektual faoliyat natijalariga egalik qilish hisoblanadi, shu sababli ham, zamonaviy

kompaniyalarning raqobatbardoshligi va foydalilik darajasi ko‘p jihatdan, intellektual mulk sifatidagi resurslarning mavjudligi bilan belgilanadi.

“Intellektual mulk” tushunchasi dastlab, 1967 yil 14 iyuldagi “Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ni tashkil etish to‘g‘risida”gi Stokgolm konventsiyasida ilgari surilgan. Mazkur konventsiya intellektual mulkning huquqiy maqomini belgilash bilan birga, uning tarkibi, ya’ni obyektlarini ham aniqladi hamda BIMT faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini ko‘rsatib berdi. Hozir 180 dan ortiq davlat BIMT a’zosi hisoblanadi. Mazkur tashkilot BMT tizimida bo‘lib, 1970 yildan faoliyat yuritmoqda. 1974 yilda u hukumatlararo xalqaro tashkilot nomini olgan. Ayni vaqtda BIMT butun dunyoda intellektual mulk obyektlarini bir xil himoya qilish, sohaga oid qonunchilik tizimini yaratish va takomillashtirishga ko‘maklashish, davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, himoyaga olingan obyektlarni xalqaro ayirboshlashni qo‘llab-quvvatlash, boshqa tashkilotlar bilan aloqalar o‘rnatish orqali himoya tizimini mustahkamlash, sohaga oid turli xalqaro shartnomalarning ma’muriy boshqaruvini ta’minlashga xizmat qilib kelmoqda.

Konventsiyaning 2-moddasiga ko‘ra, intellektual mulk intellektual

faoliyatning aniq bir natijasi sifatida maydonga chiquvchi, ya’ni ishlab chiqarish, ilmiy, adabiyot va san’at sohalaridagi ma’lum bir obyektlarga bo‘lgan huquqni ifoda etadi. Intellektual mulk insonning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan adabiy, badiiy, san’at asarlari va sanoat namunasidir. Ijodiy faoliyat, o‘z navbatida, inson tafakkuri mahsuli hisoblanadi. Shu bois intellektual faoliyat ishtirokchilari – mualliflar fuqarolik-huquqiy munosabatlarning eng faol subyektlaridir.

Mamlakatimiz qonunchiligiga binoan, intellektual faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan, ayni paytda huquqiy himoya ta’min etiluvchi tovarlar, xizmatlar, shaxsiylashtirish vositalari kabilar intellektual mulk sifatida tushuniladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 97 -moddasida intellektual faoliyat natijalariga quyidagicha ta’rif berilgan: “Ushbu Kodeks va boshqa qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda intellektual faoliyatning aniq ifoda etilgan natijalari hamda yuridik shaxsning bu natijalarga tenglashtirilgan o‘ziga xos vositalari, ana shu ishlar yoki xizmatlarni ado etayotgan jismoniy yoki yuridik shaxsning mahsulotlari (firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va h.k.)ga nisbatan fuqaroning yoki yuridik shaxsning mutlaq huquqi e’tirof etiladi.

Mutlaq huquq obyekti bo‘lgan intellektual faoliyat natijalari va o‘ziga xos vositalaridan uchinchi shaxslar huquq egasining ruxsati bilangina foydalanishlari mumkin”[64].

Boshqacha aytganda, intellektual mulk – tegishli huquqiy mexanizmlar bilan himoyalangan intellektual aktivlar hisoblanadi. Intellektual mulk muhofazasining mustahkam tizimiga ega bo‘lishi lozim. Intellektual mulk muhofazasi ixtirochilar va ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning yangiliklaridan foydalanish uchun sohaga investitsiyalarni jalb qilishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1031 -moddasiga ko‘ra, intellektual mulk obyektlari uch guruhga bo‘linadi:

1. Intellektual faoliyat natijalari:

- Fan, adabiyot va san’at asarlari;
- Ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yohud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari;
- Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari;
- Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari;
- Selektsiya yutuqlari;

[64] Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси. www.lex.uz

- Oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);

2. Fuqarolik muoamalasi ishtirokchilarining tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar:

- Firma nomlari;
- Tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari);
- Tovarlar chiqarilgan joy nomi.

3. Intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muoamalasi ishtirokchilarining tovarlar va xizmatlarning xususiy alomat-larini aks ettiruvchi vositalar.

Bugungi kunda butun dunyoda intellektual mulk obyektlarini tarkib-larga ajratish, obyektlarga huquqiy rejim berish, huquq egalari manfaatlarini himoya qilish tizimini soddalashtirish orqali kodifikatsiya jarayoni olib borilayotgani ko‘zga tashlanmoqda. Bizningcha, respublikamizda intellektual mulk huquqi bilan bog‘liq barcha qonunlarni jamlab, alohida kodeksga kiritish vaqti keldi. Qonunlar sonining ko‘pligi ayrim normalarning boshqa qonunlarda takrorlanishi yoki umumiy havola yo‘sinidagi normalarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shuningdek, sohaga oid qonunlar ilmiy kontseptsiyasi ixchamlashib, kodeksda yaxlit ilmiylikka asoslangan, nazariy jihatdan asoslash mumkin bo‘lgan normalar jamlanishi mumkin. Eng asosiysi, huquqni qo‘llash amaliyoti yanada jadallashib, normalarni sharhlash va hujjatlarda aks ettirish imkoniyati yanada kengayadi.

Shunday ekan, intellektual mulkning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, davlat organlari va manfaatdor tashkilotlarning birgalikdagi faoliyatini ta’minlash, eng asosiysi jamiyatning turli qatlamlari, ayniqsa, yosh avlod orasida sohaga oid nazariy, huquqiy bilimlarni tizimli targ‘ib qilish dolzarb vazifalardan biridir.

Mamlakatimizning asosiy qonuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Bizning intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofazalash sohasida amaldagi qonunchiligimiz bevosita mulkka egalik va ilmiy-texnik ijodiyot

erkinligi huquqlari aks etgan Konstitutsiyaning IX bo‘limi 36 – va 42 – moddalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Intellektual mulk obyektlarini yaratish, muhofazalash va foydalanish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar fuqarolik huquqi sohasi hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

O‘zbekistonda intellektual mulk huquqlarini muhofazalash bilan bog‘liq masalalarni tartibga soluvchi quyidagi qonunlar amal qiladi:

1996 yil 30 avgustda qabul qilingan “Mualliflik huquqlari va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonun;

1994 yil 6 mayda qabul qilingan va 1997 yil 26 dekabrda o‘zgartirilgan “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonun;

1993 yil 7 mayda qabul qilingan va 1997 yil 26 dekabrda o‘zgartirilgan “Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilari to‘g‘risida”gi qonun;

1994 yil 6 mayda qabul qilingan “EHM va ma’lumotlar bazalari uchun dasturlarni huquqiy muhofazalash to‘g‘risida”gi qonun;

1996 yil 30 avgustda qabul qilingan “Selektsiya yutuqlari to‘g‘risida”gi qonun;

2001 yil 12 mayda qabul qilingan “Integral mikrochizmalar topologiya-sini huquqiy muhofazalash to‘g‘risida”gi qonunlardir. Mamlakatimizda xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda, huquqiy muhofaza qilinuvchi intellektual mulk obyektlariga quyidagilar kiritilgan:

1), ilm-fan, adabiyot va san’at asarlari; 2) elektron hisoblasha mashinalari uchun dasturlar; 3) ma’lumotlar bazalari; 4) ijro; 5) fonogramma; 6) efir orqali xabarlar yuborish yoki kabel orqali radio eshittirish va teleko‘rsatuvlar uzatish; 7) ixtirolar; 8) foydali modellar; 9) sanoat namunalari; 10) selektsiya yutuqlari, 11) integral mikrosxemalar, 12) tijorat sirlari (nou-xau); 13) firma nomlari, 14) tovar va xizmat ko‘rsatish belgilari, 15) tovarlarning kelib chiqishi bo‘yicha joy nomlari; 16) tijorat-savdo belgilari.

Intellektual mulk obyektlarining bu yopiq ro‘yxati intellektual faoliyatning barcha natijalari muhofaza qilinishini anglatmaydi, o‘z navbatida barcha bilimlarni

ikki katta guruhga bo‘lishimiz mumkin bo‘ladi: 1) amaldagi huquqiy mexanizmlar orqali muhofaza qilish imkoni mavjud bo‘lmagan bilimlar (g‘oyalar, nazriyalar, kashfiyotlar); 2) muhofazalanadigan bilimlar. Muhofazalanadigan bilimlar o‘z navbatida qandaydir sabablar bilan muhofazalanmasdan qolgan va huquqiy jihatdan himoyalangan intellektual mulkka bo‘linadi.

Amaldagi qonunchilik intellektual faoliyat natijalarini himoyalash borasida turli intellektual mulk obyektlarini tasarruf etish, foydalanish va ularga egalik qilish tartibini belgilab beruvchi turli huquqlar (mualliflik huquqi, patent huquqi va hokazo) larni ko‘zda tutadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2006 yil 23 martda qabul qilingan va Senat tomonidan 2006 yil 9 iyunda ma’qullangan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasida mualliflik huquqi obyekti haqida gap boradi. Xususan, mazkur 5-moddaga ko‘ra: “Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo‘lmish fan, adabiyot va san’at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek ifodalanish usulidan qat’i nazar, tatbiq etiladi.

Mualliflik huquqi quyidagi biron-bir obyektiv shaklda bo‘lgan oshkor qilingan asarlarga ham, oshkor qilinmagan asarlarga ham tatbiq etiladi:

yozma (qo‘lyozma, mashinkalangan yozuv, notali yozuv va hokazo);

og‘zaki (omma oldida so‘zlash, omma oldida ijro etish va hokazo);

ovozli yoki video yozuv (mexanik, magnitli, raqamli, optik va hokazo);

tasvir (rasm, eskiz, manzara, tarh, chizma, kino-, tele-, video- yoki fotokadr va hokazo);

hajmli-fazoviy (haykal, model, maket, inshoot va hokazo);

boshqa shakllardagi.

Mualliflik huquqi g‘oyalar, tamoyillar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki kontseptsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi”[65].

[65] “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, https://lex.uz/ru/docs/-1022944

Intellektual mulk obyektlarini boshqarishda, vujudga kelgan muammolarga huquqiy jihatdan yondashuv borasida huquqiy kategoriyalarning o‘rni katta. Moddiy mol-mulkka egalik qilishda bo‘lgani kabi intellektual mulk ham egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqi mavjudligini belgilaydi. Biroq, himoya obyektlarining nomoddiyligi intellektual mulkning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatadi, ya’ni intellektual mulk qancha iste’mol qilinmasin, u tugamaslik tavsifiga ega bo‘lib qolaveradi. Agar siz biror bir mulkdordan moddiy buyum yoki ashyo olar ekansiz, ushbu vaziyatda u o‘z moddiy mulkidan ayriladi va mulk huquqi bevosita sizga o‘tadi. Mobodo siz o‘zgalarning intellektual faoliyati natijalariga egalik qiladigan bo‘lsangiz, siz o‘zingizga tegishli bo‘lmagan bilimlarga ega bo‘lasiz, bundan mavjud bilimlar kamaymaydi, tugamaydi va hatto o‘zining dastlabki egasini o‘zgartirmaydi ham. Yana shuni ham ko‘zda tutish kerakki, intellektual mulk intellektual faoliyat natijalari mujassamlashgan moddiy obyektlarga mulk huquqini ko‘zda tutmaydi, masalan, elektron hisoblash mashinalari uchun dastur muallifi, ushbu dastur yozilgan axborot tashuvchilarning mulkdori sanalmaydi, yangi ishlab chiqarish texnologik jarayonining yaratuvchisi esa, mazkur jarayonni joriy etish natijasida olingan barcha mahsulotlarga da’vo qila olmaydi. Intellektual mulk masalalarini qarab chiqar ekanmiz, ko‘pincha intellektual mulkning bir qismi sifatida sanoat mulki tushunchasidan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Intellektual mulk huquqiga oid qonunchilik tarixan ikki yo‘nalishda rivojlanib kelgan: 1) mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunchilik va 2) sanoat mulki to‘g‘risidagi qonunchilik. Sanoat mulkini muhofazalash bo‘yicha Parij konventsiyasiga muvofiq, sanoat mulki tushunchasi nafaqat sanoat yoki savdoga nisbatan qo‘llaniladi, balki keng ma’noda qishloq xo‘jaligi, unidiruvchi sanoat va kelib chiqishi tabiiy yoki sanoat ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan: sharob, g‘alla, meva, qoramol, foydali qazilmalar, mineral suvlar, gullar, un kabi barcha mahsulotlarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Shunday qilib, “sanoat mulki” atamasi yetarlicha shartli hisoblanadi va intellektual mulkning ishlab chiqarishda (faqat sanoatda emas) foydalanilayotgan bir qismini ifoda etadi. Bular ixtiro patentlari, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari,

firma nomlari va tovarlarning kelib chiqish joy nomlari kabilar bo‘lishi mumkin. 1970-yillardan boshlab sanoat mulkining zamonaviy kontseptsiyasi “nou-xau” ni o‘z ichiga qamrab ola boshladi, so‘nggi paytlarda selektsiya yutuqlari va integral mikrosxemalar topologiyasini ham ular tarkibiga kiritish holati kuzatilmoqda. Ta’kidlash joizki, sanoat mulki obyektlari va mualliflik huquqi obyektlari innovatsion faoliyat mahsulotlariga bevosita bog‘liqdir.

10.2. Intellektual huquqlar

Iqtisodiyotni innovatsion tarzda rivojlantirishda intellektual salohiyatdan samarali foydalanish bo‘yicha harakatlar rejasiga muvofiq, “Intellektual mulk to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgarishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu qonun loyihasini tayyorlashning zaruriyati bir necha sabablarga asoslangan. Birinchidan, foydali modellar sifatida muhofaza qilinadigan patentga layoqatli obyektlar doirasini kengaytirish. Ikkinchidan, muallifning patent olish uchun talabnoma topshirish hamda sanoat mulki obyektidan foydalanish tartibini aniqlashtirish. Uchinchidan, talabnoma beruvchiga uning istagi bo‘yicha talabnomani ko‘rib chiqish muddatlarini qisqartirish imkoniyatini berish. To‘rtinchidan, talabnoma beruvchining selektsiya yutug‘iga patent berish jarayonini tezlashtirish hamda patent berish muddatlarini qisqartirish. Beshinchidan, talabnoma beruvchiga selektsiya yutug‘iga patent amal qilish muddatini tiklash imkoniyatini berish hamda intellektual mulk muhofazasini ta’minlash. Oltinchidan, “tovar belgisi”ga doir guvohnomani berish muddatlarini aniqlashtirish.

Loyihada amaldagi bir qator qonunlarga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalarni kiritish taklif etilmoqda. Chunonchi, “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonunda foydali modellar sifatida muhofaza qilinadigan patentga layoqatli obyektlar doirasini kengaytirish maqsadidagi o‘zgartish aks ettirilmoqda. Qonunning 7-moddasi har qanday sohada, ya’ni mahsulotga (xususan, qurilma, modda, mikroorganizm shtamp, o‘simliklar yoki hayvonlar hujayralarining turlariga) va usulga (moddiy vositalar yordamida moddiy

obyekt ustida xatti-harakatlarni amalga oshirish jarayoniga) taalluqli bo‘lgan texnik yechim foydali model sifatida e’tirof etilishi haqidagi qo‘shimcha bilan to‘ldirilmoqda. Bu sohada boshqa davlatlar tajribasi o‘rganilganda, misol uchun Ukraina va Gruziya patent qonunchiligida foydali model obyekti sifatida mahsulot (xususan, qurilmalar, moddalar, mikroorganizmlar shtammlari, o‘simlik va hayvon hujayralarining turlari) va usul bo‘lishi mumkinligi ma’lum bo‘ldi. Germaniyaning “Foydali modelni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq foydali modellar obyekti sifatida moddalar (kompozitsiyalar, kimyoviy moddalar) muhofaza qilinar ekan. Bundan tashqari, mazkur qonunning tegishli moddasi sanoat mulki obyektini yaratishda ijodiy mehnati bilan sanoat mulki obyektini yaratgan muallifning patent olish uchun huquqlarini hamda muallif o‘z nomiga patent olishi mumkin bo‘lgan holatlarni aniqlashtirishga qaratilgan qoidalar bilan to‘ldirilmoqda. Ya’ni agar ish beruvchi bilan muallif (hammualliflar) o‘rtasidagi shartnomada ushbu moddaning ikkinchi qismidagi qoidalar nazarda tutilgan bo‘lsa va muallif (hammualliflar) tomonidan sanoat mulki obyekti yaratilganligi to‘g‘risidagi yozma ravishda ish beruvchiga bildirgan sanadan e’tiboran to‘rt oy mobaynida ish beruvchi Intellektual mulk agentligiga patent olish uchun talabnoma topshirmasa, boshqa shaxsga patent berish uchun talabnomani topshirish huquqini o‘tkazmasa yoki tegishli obyektni sir tutish to‘g‘risida muallifga (hammualliflarga) xabar bermasa, u holda muallif (hammualliflar) talabnomani topshirish va o‘z nomiga patent olish huquqiga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, “Selektsiya yutuqlari to‘g‘risida”gi qonunga talabnoma beruvchiga patent amal qilish muddatini tiklash imkoniyatini berish maqsadida yangi modda kiritilmoqda. Unda ifodalanayotganidek, patentni o‘z kuchida saqlab turganlik uchun patent boji belgilangan muddatda to‘lanmaganligi sababli amal qilishi tugatilgan selektsiya yutug‘i patentining amal qilishi patent egasining iltimosnomasiga ko‘ra tiklanishi mumkin. Bunday iltimosnoma patentning amal qilishi tugatilgan sanadan e’tiboran uch yil ichida, biroq patentning ushbu qonunda nazarda tutilgan amal qilish muddati tugaguniga qadar agentlikka topshirilishi mumkin. Patent egasining iltimosnomasiga patentning amal qilishini tiklash uchun

belgilangan miqdordagi patent boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi kerak. Selektsiya yutug‘i patentining amal qilishi tiklanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar agentlikning rasmiy axborotnomasida e’lon qilinadi. Selektsiya yutug‘i patentining amal qilish muddati tugatilgan sana bilan patentning amal qilishi tiklanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilingan sana oralig‘idagi davrda selektsiya yutug‘idan foydalanishni boshlagan yoki buning uchun zarur tayyorgarlik ko‘rgan shaxs ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirmagan holda undan bepul foydalanish huquqini saqlab qoladi.

O‘simliklarning yangi navlarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Xalqaro konventsiyaning 12-moddasiga asosan, talabnoma beruvchiga Intellektual mulk agentligiga yetishayotgan yoki tahrir qilingan hujjatlarni taqdim etish imkonini berish uchun to‘ldirilmoqda. Unga ko‘ra, agar rasmiy ekspertiza jarayonida talabnoma qonunchilikda belgilangan talablarni buzgan holda rasmiylashtirilganligi aniqlansa, talabnoma beruvchiga tegishli bildirishnoma jo‘natilgan sanadan uch oy muddat ichida yetishayotgan yoki to‘g‘rilangan hujjatlarni taqdim etish zarurligi to‘g‘risidagi bildirishnoma yuboriladi.

“Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi qonunga esa tovar belgisiga doir va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomalarni berish muddatlarini aniqlashtirish uchun tuzatishlar kiritilmoqda. Bunday hujjatni berish o‘rnatilgan tartibda o‘n kun ichida emas, o‘n ish kuni ichida amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Intellektual mulk instituti mazkur mulk obyektlariga intellektual mulk huquqlarining mavjudligini nazarda tutadi. Ushbu huquqlar qonunchilik tomonidan kafolatlanadi va quyidagilar:

- uchinchi shaxslarga nisbatan mutloq tavsifga ega bo‘lishi;
- u muhofaza qilinuvchi mamlakat chegaralari bilan cheklanishi;
- amal qilish muddatlarining cheklanganligi bilan tavsiflanadi.

Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqning mutlaq tabiati shu bilan izohlanadiki, unga ko‘ra intellektual mulk egalari intellektual mulk borasida qonunchilikda ko‘zda tutilgan barcha xatti -harakatlarni amalga oshiradilar va bir

paytning o‘zida mulkdorlarning roziligiz bunday xatti -harakatlarning uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilishiga chek qo‘yayadilar, ya’ni intellektual mulk obyektlaridan foydalanish borasida qonuniy monopoliyaga ega bo‘ladilar.

Intellektual mulk huquqining mutloq tavsifga ega bo‘lishi shunda ko‘rinadiki, u mulkdorning roziligisiz o‘zgalarning intellektual mulk obyektlaridan foydalanishga yo‘l qo‘yib bergan har qanday shaxsning harakatlariga nisbatan qarshi chiqadi. Intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan intellektual huquqlar mutloq (mulk) huquqi, shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa huquqlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Moddiy naf olish imkonini beruvchi mutloq huquq:

• eng avval intellektual faoliyat natijalarining muallifida vujudga keladi;

• qonunga muvofiq shu huquqni qo‘lga kirituvchida paydo bo‘ladi;

• davlat ro‘yxatiga olingan taqdirda u himoyalanadi;

• Fuqarolik Kodeksida ko‘zda tutilgan hollardan tashqari ma’lum bir muddat davomida amalda bo‘ladi;

• huquq egasiga intellektual faoliyat natijalaridan qonunga zid bo‘lmagan tarzda va o‘z xohishiga ko‘ra foydalanish, boshqa shaxslar tomonidan intellektual faoliyat natijalaridan foydalanilishiga ruxsat berish yoki foydalanishni taqiqlash imkoniyatini beradi;

• huquq egasiga litsenziya shartnomasi asosida intellektual faoliyat natijalaridan boshqa shaxsning foydalanishi uchun ruxsat berish huquqini beradi;

• intellektual faoliyat natijalari ifodalangan moddiy tashuvchilarga mulk huquqi bilan bog‘liq emas.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar doimo muallif bilan qoladi, ular ko‘chirilmaydi, meros qoldirilmaydi va abadiy himoyalanadi. Shaxsiy nomulkiy huquqlar qatoriga mualliflik huquqi, nomga mualliflik huquqi, asarning daxlsizlik huquqi va boshqalar kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 99-moddasida shaxsiy nomulkiy huquqlar to‘g‘risida quyidagilar keltirib o‘tiladi: “Shaxsning hayoti va sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro‘si, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo‘lgan huquqi, tasvirga bo‘lgan huquqi, mualliflik huquqi, boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda

tug‘ilganidan boshlab yoki qonunga muvofiq fuqaroga tegishli bo‘lgan boshqa nomoddiy ne’matlar tortib olinmaydi va o‘zga usul bilan boshqa shaxsga berilmaydi. Vafot etgan kishiga tegishli bo‘lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlar qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda boshqa shaxslar, shu jumladan huquq egasining vorislari tomonidan amalga oshirilishi va himoya etilishi mumkin.”[66]



10.1-rasm. Intellektual huquqlar

Intellektual mulk to‘g‘risida gapirar ekanmiz, muallif va huquq egasi institutlarini farqlab olishimiz talab etiladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2006 yil 23 martda qabul qilingan va Senat tomonidan 2006 yil 9 iyunda ma’qullangan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida muallifga – ijodiy mehnati bilan asar yaratgan shas, deb ta’rif berilgan. Huquq egasiga esa-mualliflik huquqiga nisbatan muallif yoki uning merosxo‘rlari, turdosh huquqlarga nisbatan ijrochi yoki uning merosxo‘rlari, fonogrammani tayyorlovchi, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot, shuningdek shartnomada yoki ushbu Qonunda nazarda

[66] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, https://lex.uz/docs/-111189

tutilgan boshqa asos bo‘yicha asarlardan yoxud turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish huquqini olgan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar sifatida tushuntirish berilgan. Yuqorida tilga olib o‘tilgan Qonunning 12-moddasida hammualliflar tushunchasiga aniqlik kiritilgan bo‘lib, unga ko‘ra ikki yoki undan ortiq jismoniy shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati natijasida yaratilgan asarga bo‘lgan mualliflik huquqi, mazkur asar bo‘linmas bir butun yoki har biri ham mustaqil mazmunga ega qismlardan iborat ekanligidan qat’i nazar, hammualliflarga birgalikda tegishli bo‘ladi.

Agar asarning muayyan qismidan uning boshqa qismlariga bog‘liq bo‘lmagan holda foydalanish mumkin bo‘lsa, bu mustaqil mazmunga ega bo‘lgan qism deb e’tirof etiladi.

Hammualliflarning har biri, agar ular o‘rtasidagi kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, asarning o‘zi yaratgan, mustaqil mazmunga ega bo‘lgan qismidan o‘z xohishiga ko‘ra foydalanishga haqlidir.

Hammualliflar o‘rtasidagi munosabatlar, qoida tariqasida, kelishuv asosida belgilanadi. Bunday kelishuv bo‘lmagan taqdirda, asarga bo‘lgan mualliflik huquqi barcha mualliflar tomonidan birgalikda amalga oshiriladi, mualliflik haqi esa ular o‘rtasida teng taqsimlanadi.

Agar hammualliflarning asari bo‘linmas bir butunni tashkil etsa, asardan foydalanishni yetarli asoslar bo‘lmay turib taqiqlab qo‘yishga hammualliflardan hech biri haqli emas.

Amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko‘ra, mutlaq mualliflik huquqlari egasi o‘z huquqlaridan xabardor qilish uchun mualliflik huquqining muhofaza belgisidan foydalanishi mumkin bo‘lib, bu belgi asarning har bir nusxasida aks ettiriladi va quyidagi uch unsurdan iborat bo‘ladi:

aylana ichidagi lotincha “C” harfi;

mutlaq mualliflik huquqlari egasining ismi-sharifi (nomi);

asar birinchi marta chop etilgan yil.

Mualliflik huquqining muhofaza belgisida ko‘rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlangan bo‘lmasa, mutlaq mualliflik huquqlari egasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda intellektual mulk sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida o‘zbekiston respublikasi intellektual mulk agentligi tashkil etilgan bo‘lib, mazkur agentlikning Nizomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 noyabrdagi 394-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Mazkur nizomga ko‘ra quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlash, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish;

ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini ekspertizadan, ro‘yxatdan o‘tkazish hamda hisobga olishni tashkil etish va amalga oshirish;

Davlat patent fondini va intellektual mulkning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish, ularning saqlanishini hamda iqtisodiyot real sektorining xo‘jalik yurituvchi subyektlari, ilmiy tashkilotlar, olimlar va mutaxassislar tomonidan samarali foydalanilishi uchun qulayligini ta’minlash;

intellektual mulk sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, tadbirkorlik subyektlariga va aholiga «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha davlat interaktiv xizmatlari ko‘rsatish;

korxonalar va tashkilotlarga chet eldagi milliy intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilishni ta’minlash bo‘yicha konsultativ va amaliy ko‘maklashish, shuningdek intellektual mulk sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish;

intellektual mulk sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Agentlik o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

intellektual mulk sohasida davlat siyosati va qonunchilikni takomillashtirish masalalari bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi hamda ularni ko‘rib chiqish uchun belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi;

ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, selektsiya yutuqlari, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, tovarlarning kelib chiqish joylari nomi, elektron hisoblash mashinalari (keyingi o‘rinlarda EHM deb ataladi), ma’lumotlar bazalari va integral mikrosxemalar topologiyasi uchun muhofaza qilish hujjatlari berish yuzasidan buyurtmanomalarni ko‘rib chiqishga qabul qiladi;

ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, tovarlarning kelib chiqish joylari nomlarini davlat ekspertizasidan o‘tkazadi, ko‘rsatilgan obyektlarning ustuvorligini belgilaydi, selektsiya yutuqlari, EHM uchun dasturlar, ma’lumotlar bazalari va integral mikrosxemalar topologiyalarining rasmiy ekspertizasini o‘tkazadi;

ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni, selektsiya yutuqlari, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, tovarlarning kelib chiqish joylari nomlarini ro‘yxatdan o‘tkazishni, EHM uchun dasturlarni, ma’lumotlar bazalarini rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazishni hamda integral mikrosxemalar topologiyalarini ro‘yxatdan o‘tkazishni amalga oshiradi, muhofaza qilish hujjatlarini beradi, O‘zbekiston Respublikasida umumiy ma’lum bo‘lgan tovar belgilarining tegishli reestrlarini va Ro‘yxatini yuritadi;

ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi, tovarlarning kelib chiqish joylari nomi, EHM uchun dasturlar, ma’lumotlar bazalari va integral mikrosxemalar topologiyalariga, berilgan buyurtmanomalarning belgilangan tovarlarga muvofiqligini tekshirish natijalari bo‘yicha, muhofaza qilish hujjatlarini berish yoki berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

ko‘rsatilgan selektsiya yutuqlarining patentga loyiqlik shartlariga muvofiqligini belgilash natijalari bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining ixtisoslashtirilgan tashkilotlari xulosalari asosida muhofaza qilish hujjatlarini berish yoki berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

muhofaza qilish hujjatlarining va boshqa zarur hujjatlarning yagona shakllarini belgilaydi;

intellektual mulk obyektlaridan foydalanishga huquqlar berish to‘g‘risidagi litsenziya shartnomalarini, shuningdek ularni to‘liq yoki qisman o‘zgaga berish to‘g‘risidagi shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazadi va tegishli reestrlarni yuritadi;

intellektual mulkning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantiradi, ularning saqlanishi va foydalanilishi uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydi;

Davlat patent fondini butlash ishlarini tashkil etadi va o‘tkazadi, undan iqtisodiyotning real sektoridagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ilmiy tashkilotlar, olimlar va mutaxassislar tomonidan samarali foydalanish uchun uning saqlanishi va qulayligini ta’minlaydi;

Agentlikning byulletenlarini va boshqa rasmiy nashrlarini, shuningdek intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish masalalari bo‘yicha boshqa ma’lumotlar va materiallarni chop etishni tashkil qiladi va amalga oshiradi;

patent bo‘yicha vakolatli vakillarni attestatsiyadan va ro‘yxatdan o‘tkazadi, patent bo‘yicha vakolatli vakillarning davlat reestrini yuritadi;

intellektual mulk sohasidagi qonun buzilishlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha huquqni muhofaza qilish, soliq va boshqa davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;

mualliflik huquqi va aralash huquqlar to‘g‘risidagi qonun buzilishlari to‘g‘risida belgilangan tartibda xulosa beradi;

tuzilgan shartnomalarning mualliflik huquqi va aralash huquqlar to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiqligi haqida xulosa beradi;

audiovizual asarlarni, fonogrammalarni va EHM uchun dasturlarni tiklash, realizatsiya qilish, prokatga berish, fonogrammalarni tayyorlashga litsenziyalar beradi, shuningdek litsenziatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

patent-axborot va boshqa xizmatlar ko‘rsatganlik uchun to‘lov miqdorlarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish sohasida manfaatdor shaxslarga metodik yordam ko‘rsatadi;

intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish sohasida xalqaro kooperatsiyani va o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi;

intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish bo‘yicha idoralararo axborot hamkorligini amalga oshiradi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, tadbirkorlik subyektlari uchun intellektual mulk sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi, intellektual mulk sohasida kadrlar tayyorlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

intellektual mulk sohasida faoliyatni rivojlantirish va takomillashtirish muammolari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qiladi va ularda qatnashadi;

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirish uchun intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni muhofaza va himoya qilishning maqsadi va ahamiyatini keng tushuntirish tadbirlarini amalga oshiradi;

qonunchilikka muvofiq intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish masalalari bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqadi;

intellektual mulk masalalari bo‘yicha xalqaro va milliy ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, konferentsiyalar, seminarlar hamda boshqa tadbirlarni tashkil qiladi va ularda qatnashadi;

intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish va ulardan qonuniy foydalanish to‘g‘risidagi masalalarda aholi keng qatlamlarining huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish tadbirlarini o‘tkazadi;

intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish sohasida xalqaro shartnomalar tuzish to‘g‘risidagi takliflarni belgilangan tartibda kiritadi, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro

shartnomalari loyihalarini tayyorlashda qatnashadi hamda Vazirlar Mahkamasi topshirig‘iga binoan mazkur shartnomalarni imzolaydi;

intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish sohasida tegishli xalqaro, mintaqaviy va xorijiy tashkilotlar bilan muzokaralar olib boradi, belgilangan tartibda idoralararo shartnomalar tuzadi;

intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish sohasida xorijiy patent idoralari, xalqaro mintaqaviy va xorijiy tashkilotlar bilan patent hujjatlarini va patent-huquqiy adabiyotlarni xalqaro almashishni amalga oshiradi, xorijiy tajribani o‘rganish va undan foydalanishni tashkil etadi;

intellektual mulk sohasida xalqaro hamkorlikni belgilangan tartibda amalga oshiradi hamda ushbu hamkorlik doirasida intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish masalalari bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar ishlarida qatnashadi;

O‘zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini o‘z vakolatlari doirasida ta’minlaydi.

10.3. Intellektual mulk va uni muhofaza qilishning ahamiyati

Intellektual faoliyatning natijasi-ilmiy-texnologik mahsulotning yuqori iste’mol xususiyatlariga ega bo‘lgan bozorbop tovarga aylanishi amalga oshadigan innovatsion soha yangi bilimlar va texnologiyalarga asoslangan zamonaviy iqtisodiyotning taraqqiy etishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aynan, intellektual mulk obyektlari yangi tovarlar va yangi texnologiyalarning asosini tashkil etadi. Innovatsion iqtisodiyotda intellektual mulkning o‘rni va ahamiyati uning ko‘p funksionalligi bilan belgilanadi.

Intellektual mulk:

- qiymat yaratishning hal qiluvchi omillaridan biri sanaladi;
- egalariga va foydalanuvchilariga sezilarli iqtisodiy foyda keltiradi;
- kompaniyaning uzoq muddatli raqobat afzalliklarini shakllantiradi;

• kompaniya kapitallashuv darajasining oshishiga xizmat qiladi (bugungi kunda kompaniyalar bozor qiymatining qariyb 80 foizi nomoddiy aktivlar ulushiga to‘g‘ri keladi);

• biznesni raqiblardan himoya qiladi;

• litsenzion daromad olish imkoniyatini beradi;

• ishlab chiqarish va sotishni nazorat qilish imkonini beradi;

• standartlarni yaratishga yordam beradi.

Biroq, ushbu funksiyalar, agar intellektual samarali himoya qilingan bo‘lsagina, o‘z natijasini ko‘rsatishi mumkin. Tadbirkorlarning intellektual mulkka bo‘lgan qiziqishi asosan yangi texnik yechimlardan foydalanish yoki patentlar va litsenziyalarni sotishdan daromad olish imkoniyatlari bilan ko‘p jihatdan bog‘liq. Odatiy mahsulotlardan farqli o‘laroq, intellektual faoliyat mahsulotlari, davlat tomonidan maxsus huquqiy himoya bilan ta’minlanmagan bo‘lsa, ularning egalariga kafolatli daromad keltira olmaydi. Intellektual mulkni himoya qilishning ishonchli mexanizmlarining mavjudligi: • raqobat ustunligini saqlab qolishni ta’min etadi;

• investitsion iqlimni sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi;

• qaroqchilik va kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashishda samarali vosita hisoblanadi;

• texnologiyalar transferi jarayonlarini jadallashtirishadi;

• korxonaning nomoddiy aktivlaridan ruxsatsiz foydalanishning oldini oladi.

Raqobat ustunligini saqlab qolish. Tashkilot innovatsion faoliyatni amalga oshirish natijasida innovatsiyalarni intellektual mulk obyektlari sifatida himoya qilish jarayonida belgilab qo‘yilgan raqobat ustunligiga ega bo‘ladi. Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish innovatsion mahsulotni ishlab chiqish va joriy etish uchun zarur xarajatlarga ega bo‘lmasdan raqobatchilarga ulardan foydalanish orqali foyda olish imkoniyatini bermaydi, aksincha, agar imitatorlar nusxa-mahsulot bilan bozorga kira olsalar, innovatsion mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqish, takomillashtirish, yaxshilash, shuningdek, ularning reklamasi va bozorga olib kirish uchun sarflangan xarajatlar shunchaki havoga sovurilishi ham mumkin. taqlidchilar nusxa ko‘chirish mahsuloti bilan bozorga kirsa, reklama taratishi mumkin. Bundan

tashqari, ular mahsulotni kontseptsiyadan ommaviy ishlab chiqarishga olib chiqish uchun zarur bo‘lgan startap bosqichida xarajatlarga yo‘l qo‘ymaganliklari bois mahsulotlarga pastroq narx belgilashlari ham mumkin.

Investitsion iqlimning sezilarli darajada yaxshilanishi. Innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan investitsiyalar oqimi ko‘p jihatdan intellektual mulkning samarali huquqiy himoyasi mavjudligiga bog‘liq. Investorlar xatarlilik darajasi yuqori bo‘lgan korxonalarga sarmoya kiritmaydilar. Zero, bunday korxonalarning menejerlari hali uzoq muddat raqobatchilar kirib bora olmaydigan bozorda korxona ulushining barqaror bo‘lishini ta’minlash uchun zarur darajada himoyalanishi lozim bo‘lgan intellektual mehnat natijalarini himoya qila olmaydilar. Intellektual mulkni muhofaza qilishning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan tizimi **qaroqchilik va kontrafakt mahsulotlarga samarali qarshi kurashish vositasi sifatida xizmat qiladi.** Intellektual faoliyatning himoyalangan natijalaridan noqonuniy foydalanish nafaqat mamlakatimiz uchun, balki butun dunyo mamlakatlari uchun ham jiddiy muammoga aylanib ulgurdi. Iste’mol bozorida soxta va kontrafakt mahsulotlar miqdorining sezilarli darajada oshib ketishi iste’molchilarga jiddiy zarar yetkazadi, davlat ham katta yo‘qotishlarga uchraydi, mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar ham bundan aziyat chekadilar. Intellektual mulkni samarali huquqiy himoya qilishning mavjudligi har qanday mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi, chunki bu sohada amalga oshirilayotgan va to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan davlat siyosati xo‘jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish va innovatsion mahsulotlar yaratuvchilarining ijodiy faolligini oshirish omili hisoblanadi.

Asosiy maqsadi u yoki bu masalalarni hal etish uchun yangi bilimlarning uzatilishi bo‘lgan **texnologiyalar transferiga** intellektual mulkni himoya qilish mexanizmining samaradorligi to‘g‘ridan – to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, innovatsiyalarni himoya qilish innovatsion jarayonlarni boshqarishning muhim vazifasidir. Ushbu muammoning hal etilishi texnologiyalarni uzatish jarayoni, innovatsiyalar diffuziyasi, xuddi boshqa tovar va xizmatlar kabi ularning sotilishi va sotib olinishi jarayonlarini jadallashtirish imkonini beradi.

Intellektual faoliyat mahsulotlarini almashish natijasida yaratilgan texnologiyalar bozorining ahamiyati bugungi kunda har qachongidan ham o‘sib borayotganligini kuzatishimiz qiyin emas. Intellektual mulk – bu katta foyda keltirishi mumkin bo‘lgan tashkilotning muhim nomoddiy aktivi hisoblanishi bois, tegishli himoyani ta’min etish asosida raqobatchilar tomonidan ruxsatsiz foydalanishning oldini olish juda muhimdir.

Qisqacha xulosalar

1. Innovatsion biznes muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri intellektual faoliyat natijalariga egalik qilish hisoblanadi, shu sababli ham, zamonaviy kompaniyalarning raqobatbardoshligi va foydalilik darajasi ko‘p jihatdan, intellektual mulk sifatidagi resurslarning mavjudligi bilan belgilanadi.

2. Mamlakatimiz qonunchiligiga binoan, intellektual faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan, ayni paytda huquqiy himoya ta’min etiluvchi tovarlar, xizmatlar, shaxsiylashtirish vositalari kabilar intellektual mulk sifatida tushuniladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 97 -moddasida intellektual faoliyat natijalariga quyidagicha ta’rif berilgan: “Ushbu Kodeks va boshqa qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda intellektual faoliyatning aniq ifoda etilgan natijalari hamda yuridik shaxsning bu natijalarga tenglashtirilgan o‘ziga xos vositalari, ana shu ishlar yoki xizmatlarni ado etayotgan jismoniy yoki yuridik shaxsning mahsulotlari (firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va h.k.)ga nisbatan fuqaroning yoki yuridik shaxsning mutlaq huquqi e’tirof etiladi.

3. Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqning mutlaq tabiati shu bilan izohlanadiki, unga ko‘ra intellektual mulk egalari intellektual mulk borasida qonunchilikda ko‘zda tutilgan barcha xatti -harakatlarni amalga oshiradilar va bir paytning o‘zida mulkdorlarning roziligiz bunday xatti -harakatlarning uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilishiga chek qo‘yayadilar, ya’ni intellektual mulk obyektlaridan foydalanish borasida qonuniy monopoliyaga ega bo‘ladilar.

4. Intellektual mulkni samarali huquqiy himoya qilishning mavjudligi har qanday mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi, chunki bu sohada amalga oshirilayotgan va to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan davlat siyosati

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish va innovatsion mahsulotlar yaratuvchilarining ijodiy faolligini oshirish omili hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Intellektual mulk deganda nimani tushunasiz. O‘z fikrlaringizni misollar yordamida tushuntirib bering?

2.Intellektual huquq nima? Uning asosiy xususiyatlarini sanab bering?

3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi va “Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida intellektual mulk huquqining qanday obyektlari ko‘rsatib o‘tilgan.

4. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

5. Innovatsion iqtisodiyotda intellektual mulkning o‘rni va ahamiyati nimalardan iborat?

6. Intellektual mulk obyekti qiymatini hisoblashning qanday usullari mavjud?

7. Innovatsion kompaniyaning intellektual mulkini boshqarish deyilganda nima tushuniladi?

8. Litsenziyalash va patentlash to‘g‘risida batafsil tushuncha bering?

Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo‘lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo‘lmaydi. Bu sohadagi o‘zgarishlarni xalqimizga keng targ‘ib qilmasak, odamlarda ko‘nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo‘lolmaymiz.

Sh. Mirziyoyev.

XI BOB. INNOVATSION FAOLIYAT SOHASIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK VA UNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH

11.1. Bozor sharoitida innovatsiyalar va korxonalar taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari

11.2. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida innovatsion faoliyatni boshqarish tajribasi

11.3. Davlatning innovatsion siyosati korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida

11.4. Innovatsion salohiyatning iqtisodiy mazmuni va tarkibiy qismlari

11.5. Xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning o‘rnini mustahkamlash yo‘llari

Tayanch tushuncha va iboralar:

Innovatsion faoliyatni boshqarish, davlatning innovatsion siyosati, davlatning fan va ilmiy faoliyat borasidagi siyosati, innovatsion muhit, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish, ilmiy-texnik mahsulot, innovatsion klaster, innovatsion tavakkalchilik, innovatsion fond, texnologiyalarni tijoratlashtirish, milliy innovatsion tizim, innovatsion faoliyat subyektlari, barqaror rivojlanish.

Qisqacha sharh

Zamonaviy global iqtisodiyotda innovatsiyalar - milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Innovatsion faoliyat nafaqat texnologik taraqqiyot va yangi mahsulotlarni yaratishga xizmat qiladi, balki iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli davlat innovatsion siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishga mas’uldir.

Ushbu bobda quyidagi masalalar o‘rganiladi: bozor sharoitida innovatsiyalar va korxonalar taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari, rivojlangan mamlakatlarda innovatsion faoliyatni boshqarish tajribasi, davlat siyosatining raqobatbardoshlikni oshirishdagi o‘rni, innovatsion salohiyatning iqtisodiy

mazmuni va tarkibiy qismlari, hamda O‘zbekistonning xalqaro reytinglarda o‘rnini mustahkamlash yo‘llari.

Shu bilan, talabalar innovatsion faoliyat va iqtisodiy xavfsizlikning o‘zaro bog‘liqligini tushunib, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining iqtisodiy barqarorlik va milliy raqobatbardoshlikka ta’sirini baholay olish ko‘nikmalarini egallaydilar.

O‘zbekiston innovatsion taraqqiyot yo‘lida

2025 yilda Innovatsion rivojlanish agentligi O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan va innovatsion faoliyatni boshqarish, ularni amalga oshirishni muvofiqlashtirish hamda mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirish yo‘nalishida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirdi. Shu yil davomida davlat ilmiy dasturlari doirasida jami 323 ta ilmiy loyiha moliyalashtirilib, umumiy qiymati 577,1 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Agentlik tomonidan qo‘llab-quvvatlangan tijoratlashtirish loyihalari natijasida 51,83 mlrd so‘m qiymatdagi innovatsion mahsulot va xizmatlar sotilib, davlat byudjetiga 6,2 mlrd so‘m soliq tushdi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot natijalari asosida yangi innovatsion (spin-off) korxonalar soni 30 taga yetkazildi. Ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirilgan yangi ishlanmalar soni 300 ta, ilm-fan va innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan yangi texnologiyalar soni esa 250 taga yetdi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlari soni 249 taga yetkazilib, qabul kvotalari 2019 yilga nisbatan 5 barobar oshirildi va 5300 taga yetdi. Stajyor-tadqiqotchilar va doktorantlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borayotganlar soni 32 078 nafarga yetdi. Yosh olimlar uchun tashkil etilgan “Akademik harakatlilik” dasturi doirasida 64 ta loyiha moliyalashtirilib, jami 4,43 mlrd so‘m ajratildi va tanlov to‘liq raqamlashtirildi.

Startaplar va innovatsion korxonalarni rivojlantirish bo‘yicha 121 ta startap loyihasi uchun jami 69 mlrd so‘m moliyaviy resurs ajratildi. Natijada 106 ta yangi innovatsion korxona tashkil etildi, 1100 ta yangi ish o‘rni yaratildi, shuningdek, 2,3 mln AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiya jalb qilindi. Yoshlar uchun texnoparklar va akselerator dasturlari orqali 50 mingdan ortiq yoshlar innovatsion

faoliyatga jalb qilindi, 3 675 ta startap loyiha ishlab chiqildi va ulardan 621 tasi turli grant tanlovlariga yo‘naltirildi.

Innovatsion infratuzilma subyektlari soni 2025 yilda 67 taga yetkazildi,

jumladan 4 ta texnopark, 3 ta venchur fondi, 2 ta biznes-inkubator va akselerator, 3 ta innovatsion markaz faoliyat yuritdi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiya jalb qilindi: 12 mln AQSh dollari, tashqi begharaz ko‘mak (grantlar) – 6,8 mln AQSh dollari.

Global innovatsiya reytinglari bo‘yicha WIPO tomonidan e’lon qilingan Global innovatsiya indeksi 2025 reytingida O‘zbekiston 139 ta davlat orasida 79-o‘rinni egalladi. Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida O‘zbekiston yetakchi to‘rtlikdan joy oldi. Shu yilning oktyabr oyida “InnoWeek-2025” xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligi o‘tkazilib, 815 turdagi mahsulot va ishlar namoyish qilindi, 30 ta ilmiy-amaliy tadbir bo‘lib o‘tdi va 200 dan ortiq xorijiy mehmon ishtirok etdi.

Natijada, 2025 yilda amalga oshirilgan ishlar innovatsion faoliyat sohasida iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha muhim platforma yaratdi. Shu bilan birga, davlatning innovatsion siyosati korxona va ilmiy-tadqiqot muassasalarini tizimli boshqarish va ularni global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashga xizmat qilmoqda.

Manba: https://gov.uz/uz/innovation/news/view/114162

11.1. Bozor sharoitida innovatsiyalar va korxonalar taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari

Jahon tajribasi barcha sohalarda sifatli o‘sishni ta’minlovchi yangiliklarni uzluksiz tarzda amaliyotga joriy etish jamiyat va iqtisodiy rivojlanishning

harakatlantiruvchi kuchiga aylanganligini ko‘rsatmoqda. Bugun rivojlanishning innovatsion modellari va “aqlli” texnologiyalar amalga oshirilayotgan mamlakatlar eng muvaffaqiyatli va barqaror hisoblanadi. Bunday mamlakatlarning barqaror taraqqiyoti, ularning jahon bozorlarida raqobatbardoshligi tabiiy resurslarni eksport qilish va jismoniy mehnatdan foydalanishga emas, balki innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarga asoslanadi. Ushbu mamlakatlarda innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha davlat strategiyasining ijrosi shartli ravishda “kelajak vazirliklari” deb nomlanuvchi maxsus idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Innovatsion rivojlanish uchun mas’ul idoralarning asosiy vazifasi innovatsiya va fan yutuqlarini keng joriy etish hisobiga mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta’minlash hamda iqtisodiyotda intellektual ulushning ko‘payishi hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiyoti va xo‘jalik subyektlarining tadbirkorlik faoliyatiga

ta’sir etishning asosiy vositalaridan biri-bu davlat iqtisodiy siyosatining bo‘g‘inlaridan hisoblanuvchi innovatsion siyosatdir. Davlat innovatsion siyosat yordamida bevosita ishlab chiqarish hajmi sur’atlarining oshishiga, fan-texnika taraqqiyoti tezlashishiga, ijtimoiy ishlab chiqarish strukturasining o‘zgarishi, sotsial muammolarni hal qilishga ta’sir o‘tkaza oladi.

Innovatsion siyosat deganda davlatning iqtisodiyotni ko‘tarish va iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilish maqsadida mamlakat innovatsion mohiyatini samarali qo‘llash, innovatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni ta’minlashga xizmat qiluvchi maqsadli faoliyati tushuniladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiy holati uchun mos keladigan “innovatsion muhit” iborasi bo‘lg‘usi innovatsiyalar uchun korxonalar jozibadorligini tavsiflaydi. Innovatsion muhitni baholashda odatda bir qator parametr yoki belgilar

qo‘llaniladi. Mazkur o‘lchamlar davlatning innovatsiyalarni joriy etish salohiyati va ularni amalga oshirish tavakkalini tavsiflovchi belgilardir. Ularning eng asosiylari quyidagilardir: siyosiy barqarorlik; makroiqtisodiy holat; innovatsion faoliyat huquqiy asoslari; soliq tizimi sifati va soliqqa tortish darajasi; bank tizimi va boshqa moliyaviy institutlar holati va ishonchliligi; infrastrukturaning rivojlanish darajasi; hamkorlar tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilishi; davlat boshqaruv tizimi. Iqtisodiy sohada innovatsion muhit yaxshilanishiga quyidagilar uz ta’sirini o‘tkazadi deb hisoblaymiz:

– milliy korxonalarda samarali boshqaruv tizimini yaratish;

– davlat buyurtmasi bo‘yicha bajarilgan ishlar bo‘yicha sanoat majmuasi tashkilotlari va korxonalarining qarzlarini qoplash;

– davlat buyurtmasi bo‘yicha sanoat majmuasi korxona va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan innovatsion faoliyatlarni moliyalashtirish. Fikrimizcha, bu faoliyat ajratiladigan mablag‘larning yanadi samarali ishlatilishiga ularning kelajakdagi texnologik loyihalarni bajarishga yo‘naltirishga yordam beradi, shuningdek, moliyaviy resurslarni maqsadsiz ishlatilishining oldini oladi;

– byudjet tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan xarajatlar hissasining oshirilishi;

– tashkilot va korxonalarda foydaning innovatsion ishlanmalar uchun yo‘naltiriladigan qismini soliqdan ozod qilish.

Ishlab chiqarish sohasida innovatsion institutlar faoliyatini mukammallashtirish davlat innovatsion siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Davlat innovatsion siyosatining amalga oshirilishida sanoat majmuasi korxonalarining innovatsion jozibadorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda iqtisodiyot ning real sektorida innovatsiya holati ko‘ngildagiday deb bo‘lmaydi. Ko‘pgina sanoat korxonalari raqobatbardosh emas, ularning asosiy fondlari ma’naviy va jismoniy jihatdan eski. Bunday sharoitlarda davlatning sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishga, alohida xo‘jalik subyektlarining innovatsion jozibadorligini oshirishga yo‘naltirilgan innovatsion siyosati muhim rol o‘ynaydi. Sanoat majmuasi korxonalarining innovatsion jozibadorligi innovatsion

loyihalarga mablag‘larni samarali joylashtirish uchun xizmat qiluvchi obyektiv jihatlar majmuasidir. U korxonalarning eksport va ilmiy-texnik potensiali, moliyaviy barqarorlik darajasi, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash darajasi, innovatsion dasturlar sifati kabilar bilan belgilanadi.

Sanoat majmui korxonalarining innovatsion jozibadorligini ta’minlash-bu milliy iqtisodiyot samaradorligining muhim yo‘nalishidir. Uni amalga oshirish uchun kompleksli hukumat dasturini ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz. Sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini atroflicha baholash va innovatsion faollikka ta’sir etuvchi ichki omillar sifatini yaxshilash kabilar mazkur dasturning asosiy yo‘nalishlari sifatida xizmat qilishi lozim.

Sanoat majmuasi korxonalarining innovatsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha qo‘llaniladigan chora-tadbirlar doirasida samolyotsozlik, raketa-kosmik ishlab chiqarish, atom sanoati, biotexnologiya kabi yuqori texnologik, ilmtalab tarmoqlarni rivojlantirish kuzda tutilmog‘i lozim. Bu xalq xo‘jaligining texnik-texnologik qayta qurollantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sanoat majmui subyektlarining innovatsion jozibadorligi davlat tomonidan korxona va tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liqdir. Buni quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirish mumkin: to‘lov va qaytarilish asosida markazlashtirilgan moliyaviy qo‘yilmalarni tashkil etish; real innovatsion loyihalarni amalga oshirish va tanlov asosida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish; innovatsion loyihalarni davlat va tijorat tashkilotlari qo‘shma moliyalashtirish amaliyotini kengaytirishni targ‘ib qilish. Bunda innovatsion loyihalar bozorini ularning sifatiy ekspertizasi, yuqori samaradorligi va qoplanishi kabilarni inobatga olgan holda rivojlantirishga katta e’tibor qaratish lozim.

Past samarali va zarar bilan ishlovchi korxonalarni tugatish, ularni qayta ixtisoslashtirish hisobidan sanoat tarmog‘ini moliyaviy sog‘lomlashtirish davlat faoliyatining muhim natijasidir. Buning juda zarur bosqichi-sanoat majmuini tarkiban qayta tuzish bo‘lishi lozim.

Yuqorida bildirilgan takliflar asosida O‘zbekiston iqtisodiyoti moddiy bazasini mustahkamlashning yaqqol omili hisoblanuvchi zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, tovar va xizmatlarning ilg‘or dasturlarini yaratish va ishlab chiqarish maqsadida innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratish mumkin. Shunday qilib, O‘zbekistonda ilm-fanni rivojlantirishning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash borasida yangi tizim shakllantirildi. U barqaror iqtisodiy taraqqiyotning ancha zarur masalalarini hal qilishga qaratilgan kuch va vositalar konsentratsiyasini ta’minlashga qaratilgan. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun faol innovatsion, sanoat, tarkibiy, ilmiy-texnik siyosatni yuritish zarur. Bu esa o‘z navbatida davlat iqtisodiy quvvatining qayta tiklanishning boshlanishi uchun butun jamiyatga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida innovatsiyalar va korxonalar hamda butun iqtisodiyotning moliyaviy-iqtisodiy holatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sir masalalari zarur hajmda va sistemali tarzda to‘liq o‘rganilmagan. Mazkur tahlilning zarurligi respublikada yurgizilayotgan tarkibiy qayta tuzishning moliyaviy ta’minoti bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi kabi munosabatlarga borib taqaladi.

Innovatsion faoliyat jamiyatning barcha bo‘g‘inlariga ta’sir o‘tkazib, iqtisodiy jarayonlar taraqqiyotining tizimli oqimiga aylandi. Tizimli yondashuv innovatsion jarayonlarning evolyutsiyasi va amal qilishini o‘zaro bog‘liq bir butunlik sifatida qarash lozim. U jamiyat iqtisodiy salohiyatini tavsiflovchi sanoat korxonalarining moliyaviy holati va innovatsiyalar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama bog‘liqliklarni, asos bo‘lib xizmat qiluvchi mexanizmlarni aniqlashga yordam beradi. Davlat iqtisodiy salohiyati holatining muhim belgilovchi omili-turli tarmoq yo‘nalishlariga ega bo‘lgan iqtisodiyot ning real sektori korxonalarining faoliyatidir.

Ishlab chiqarish sohasi samaradorligini shuningdek, ishlab chiqarishda band mehnat resurslari hajmi va hissasi, iqtisodiyot ning turli tarmoqlarida band bo‘lgan ishlab chiqarish fondlari hissasi va hajmi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining qiymat va natural ko‘rsatkichlari, moliyaviy ko‘rsatkichlar ham tavsiflaydi.

O‘zbekiston iqtisodiy holatining innovatsiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligini quyidagi asosiy jihatlarda ko‘rish mumkin:

– birinchidan, innovatsion faoliyatning milliy iqtisodiyotga ta’sirini tadqiq etish nuqtai-nazaridan davlatning moddiy asosi sifatida butunligicha ko‘rish;

– ikkinchidan, innovatsiyalarning alohida korxona faoliyatiga ta’sirini tahlil qilishda alohida bozor subyekti sifatida qarash;

– uchinchidan, innovatsion siyosatni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o‘rganish.

Ushbu faoliyatni innovatsiyalar bajaradigan funksiyalardan kelib chiqqan holda amalga oshirgan ma’qul. Ma’lumki, innovatsiyalar kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun, fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish, milliy ishlab chiqarish sifati va raqobatbardoshligini oshirish uchun, ijtimoiy ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish va xalq xo‘jaligi barcha tarmoqlarining taraqqiyoti uchun, sanoat uchun zarur xomashyo bazasini yaratish, ishsizlik muammosini hal etish, shuningdek, boshqa ko‘pgina muammolarni hal etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bularning hammasi birgalikda mamlakat iqtisodiyotini sog‘lomlashtirishga yordam beradi.

O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitlarida innovatsiyalar avvalambor uning barqaror o‘sishi uchun zarurdir. Yangi texnologiyalarga investitsiyalar raqobatbardosh, yuqori talab bilan iste’mol etiladigan tovarlar ishlab chiqarishga yordam beradi.

Iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining innovatsion faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlar ini tadqiq etish, mazkur jarayonlarga makro muhit omillarining ta’siri, innovatorlarning xatti-harakatini tahlil etish, innovatsiyalarning daromadliligi va xatarliligini baholash nazariyaning rivojiga o‘z hissalarini qo‘shadi.

D.M. Keyns (1883 – 1946) tadqiqotlari alohida qiziqish kasb etib, uning nazariyasi “Bandlik, foiz va pul umumiy nazariyasi” ilmiy ishida o‘z aksini topadi. Uning fikricha, yalpi talabning rag‘batlantirilishi va faollashuvi tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va taklif qilishga ta’sir etishga qodirdir. Bunda innovatsiyalar muhim

ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalar hajmi, daromadliligi va foydasidan ishlab chiqarish ko‘lami va sur’ati bog‘liq bo‘ladi.

Keyns nazariyasida multiplikator tamoyilining o‘rni katta. Multiplikatorning lug’aviy ma’nosi “ko‘paytiruvchi”dir. Mazkur tushunchani iqtisodiyot sohasiga angliyalik iqtisodchi R.F. Kan birinchi bo‘lib tatbiq etdi. Multiplikator nazariyasida milliy daromad va bandlikning oshishida investitsiyalarning rolini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. D. Keyns fikricha, investitsiyalarning ko‘payishi ishlab chiqarishga qo‘shimcha ishchilarni jalb etishga, ya’ni bandlikning oshishiga, natijada esa-daromad va iste’molning ko‘payishiga olib keladi. D.Keyns multiplikator investitsiyalar hajmining o‘sishi daromadning investitsiyalar o‘sishi ko‘rsatkichlariga nisbatan K martaga katta bo‘lishini anglatadi, deb uqtiradi. Shunisi ma’lumki, mazkur konda avvalambor natijasi fan va texnika -yutuqlarini ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarga joriy etish bo‘lgan investitsiyalash yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan innovatsiyalarga taalluqlidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, akseleratsiya tamoyili deganda, innovatsiyaga talab savdo va daromadning oshishi bilan yuzaga keluvchi holat sifatida izohlaydigan jarayon tushuniladi.

Akseleratorning oddiy formulasi quyidagicha: $\mathrm{It} = \mathrm{a}(\mathrm{Yt} - \mathrm{Yt} - \mathrm{l})$

Bunda, It-yangi investitsiyalar o‘sishi; a-akseleratsiya koeffitsiyent i; Yt-Tt-1-daromad o‘sishi; Yt-daromadning so‘nggi yildagi hajmi; Yt-1-o‘tgan yilgi daromad hajmi.

Bundan kelib chiqadiki, innovatsiyalar o‘sishida izohlangan daromad o‘sishi va unda o‘z ifodasini topgan samara akseleratsiya koeffitsiyent i bilan to‘g‘ri bog‘liqlikka ega. Shu sababli, daromadning oshishi yangi innovatsiyalar ko‘payishiga olib keladi.

Multiplikator va akselerator harakatining muvozanati daromadlar oshishi va ish faoliyatining kengayishi jarayoni bilan izohlanadi.

Shunday qilib, iste’mol, jamg‘armalar, investitsiyalar va milliy daromad o‘rtasidagi o‘zaro munosabat tamoyillarining qo‘llanilishi iqtisodiyotning

barqarorligi va o‘sishini ta’minlash imkonini beradi. O‘zbekiston iqtisodiyotida ham mazkur tamoyillar ahamiyatga egadir.

Oqilona tarkibiy soliq, moliya siyosatini yurgizish, statistik bazani qo‘llab, mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun harakatlantiruvchi kuch hisoblanishi mumkin bo‘lgan multiplikatorni ham, akseleratorni ham hisoblash mumkin.

Mamlakatdagi innovatsion faoliyat holati, innovatsiyalar va iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagi ko‘rsatkichlar dinamikasi bilan tavsiflanishi mumkin:

– innovatsion mahsulotlar umumiy hajmi;

– innovatsion mahsulotning, umuman, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidagi hissasi;

– innovatsion-faol korxonalar miqdori va boshqalar.

So‘nggi yillarda innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlarining ijobiy tomonga o‘zgarishiga qaramay, O‘zbekiston Respublikasida innovatsion soha taraqqiyoti sur’atlari zamonaviy tendensiyalarga mos kelmaydi. Bu, avvalambor, bizning respublikamiz hali ilmiy-texnik tovarlar bozori to‘la shakllanmagan bozor munosabatlariga o‘tishi bilan izohlanadi. Bir tomondan, bu innovatsion taraqqiyot uchun zarur resurs bazasining sustligi va yetarli bo‘lmagan moliyaviy asos, soliqlar va byudjet hamda nobyudjet yig‘imlari uchun yuqori stavkalar belgilanishi hisoblanadi. Shu bilan birga innovatsion tadbirkorlik bo‘yicha huquqiy va normativ bazaning hali tugallanmaganligi, innovatsion tadbirkorlik subyektlarining umumiy statusi yo‘qligini ham ta’kidlash zarur. Ikkinchi tomondan esa, bu – innovatsion korxonalar va tashkilotlarning tashqi muhit o‘zgarishlariga tez moslasha olmasligi, innovatsion korxonalarda tarkibiy qayta tuzish ishlarining cho‘zilishi yoki undan voz kechilishi, korxonalarda malakali ilmiy va boshqaruv kadrlarning kamayishi, strategik boshqaruv madaniyatining va biznes-rejalashtirishning talab darajasida emasligi kabilarni ham alohida ko‘rsatish mumkin.

Bunday holatning obyektiv sababi – innovatsion tadbirkorlik taraqqiyoti va innovatsiyalarni boshqarish muammolarining metodologik jihatdan o‘rganib chiqilmaganligidir. Bundan tashqari, korxonalar innovatsion faolligining susayishi

ma’lum darajada innovatsiyalarning yetarli darajada samarador emasligini ham ko‘rsatadi.

Innovatsion jarayonlarni tadqiq etishda navbatdagi asosiy tamoyillarni inobatga olish zarur:

– davlat subsidiyalarini olishga da’vogar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat;

– “sinergetik samara”ga erishadigan korxonalarni moliyalashtirish. Bunda barcha kapital qo‘yilmalardan keladigan natija uning barcha alohida unsurlari hisobidan keladigan natija uning barcha alohida unsurlari hisobidan keladigan ko‘rsatkichlardan yuqori bo‘ladi. Bunga qat’iy belgilanadigan vazifalarni bajarish uchun resurslarni aniq yo‘naltirish, vositalar aylanishini tezlashtirish, shuningdek, innovatsion faoliyat hisobidan erishish mumkin.

Davlat xarajatlarini ta’minlash uchun ketadigan sarflarga kelsak, ular yillik iste’mol sikliga kiruvchi aylanma fondlarga ajratmalarni o‘zida ifodalaydi va ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

Innovatsiyalar va byudjet siyosati o‘zaro bog‘liq bo‘lib, nafaqat innovatsion faoliyatga, balki davlat iqtisodiyoti holati va uning taraqqiyoti darajasiga ta’sir etadi. Davlat iqtisodiyotining holati, uning rivojlanish dinamikasi-bu aholi turmush darajasini ta’minlash bo‘yicha davlatning moliyaviy imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omildir.

Innovatsiyalar va davlat iqtisodiy taraqqiyoti o‘zaro bog‘liqligining asosiy yo‘nalishlaridan biri ilmiy-texnik siyosatni amalga oshirish orqali yuz beradi. Bunda sanoat majmui yuqori malakali kadrlar potensialini saqlagan holda sanoatni tarkiban qayta qurish maqsadli dasturini amalga oshirish zarurligini, milliy iqtisodiyotning ilmiy-texnik bazasini mukammallashtirish va rivojlantirish, ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish, iqtisodiy resurslarini oqilona foydalanish zarurligini inobatga olish kerak.

Innovatsiyalar ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish, asosiy fondlarning ma’naviy va jismoniy eskirishini kamaytirish, ishlab chiqarish texnik darajasini oshirish, alohida korxonalar yaratadigan mahsulotlar sifatini oshirish

va raqobatbardoshligini ta’minlash kabi maqsadlarga erishish uchun ham zarurdir. Pirovard natijada ular korxonalarning kelajakda normal darajada faoliyat yuritishni, barqaror moliyaviy holati va maksimal foydani ta’minlash uchun zarurdir.

Ilmiy-texnik va iqtisodiy taraqqiyotning o‘zaro bog‘liqligining chuqurlashuvi, ilmiy-texnik taraqqiyotning iqtisodiy o‘sish asosiy manbaiga aylanishi o‘z navbatida harbiy va fuqarolik texnologiyalari o‘zaro munosabatlariga katta ta’sir o‘tkazadi. Masalan, AQShda kritik muhim texnologiyalar dasturini shakllantirishda eng yangi texnologik yechimlarning ikkilamchi foydalanilishiga katta e’tibor qaratiladi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ikkilamchi foydalanish omilining roli nafaqat AQShda, balki dunyoning barcha yetakchi rivojlangan davlatlarida ham o‘smoqda. Bu bir tomondan, zamonaviy qurollanish tizimining informatsion texnologiyalarga bog‘liqligining o‘sishiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u ilmiy-texnik yangiliklarning yaratilishiga qo‘shiladigan hissaning oshishiga va yangi texnologik jarayonlarning iqtisodiyotning potensial imkoniyatlarini oshirishga joriy etishga yordam beradi. Texnologik innovatsiyalarga xarajatlar investitsiyalar hajmi bilan belgilanadi. Unga faoliyat yuritayotgan korxonalarni rekonstruksiya qilish, mavjud sexlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari asosida uning texnik-iqtisodiy darajasini ko‘tarish bilan bog‘liq obyektlarni qayta qurish uchun mo‘ljallangan kapital qo‘yilmalar ancha yaqin hisoblanadi. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan korxonalarni rekonstruksiyalash va texnik qayta qurollantirishga, ishlab chiqarishga mo‘ljallangan barcha kapital qo‘yilmalarning yarmidan ko‘pi sarflanadi.

Innovatsiyalarga intilishni hosil qiluvchi asosiy omil – bu tovarlarning ilmiy-texnik ko‘rsatkichlar bo‘yicha rentabellik va raqobatbardoshlik darajasining pastligi hisoblanadi. Yangiliklarni birinchilardan bo‘lib joriy etgan tadbirkorlar bozorlarga ancha yuqori sifatli mahsulotlar chiqaradilar yoki ancha kam sarf qilib tovarlar ishlab chiqaradilar. Texnik taraqqiyotdan orqada

qoladigan, eskirgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki eski texnologiyani ishlatuvchi tadbirkorlar bozordagi o‘z hissalarini yo‘qotadilar. Innovatsion faoliyatni boshqarish davlat iqtisodiy siyosati strategiyasi doirasida amalga oshiriladi va bunda boshqaruvning asosiy vositasi davlat, uning alohida tarmoqlari va hududlarining iqtisodiy taraqqiyotining yetakchi yo‘nalishlariga mo‘ljallangan investitsion dasturlar va loyihalar bo‘lishi zarur.

Investitsion jarayondagi innovatsiyalar muammosi sanoat majmui korxonalari uchun ancha dolzarb masaladir. Real ishlab chiqarish sohasi taraqqiyotining yutuqlari joriy innovatsion qarorlarga bog‘liq bo‘ladi. Bu qarorlarning asosiy jihatlari quyidagilar: yangi mahsulot ishlab chiqarish, bozorni kengaytirish, uskunalar rekonstruksiyasi va yangilanishi bilan bog‘liq takliflarni asosiylashtirish, bu takliflarni amalga oshirish uchun zarur pul mablag‘lari manbalarini hisoblash, pul manbalarini baholash, innovatsion loyihalarni baholash va tanlash. Shunday qilib, iqtisodiy islohotlar davrida muhim masala bu – ishlab chiqarishda eskirgan texnologiyalarni ilg‘or, zamonaviy talablarga javob beruvchi texnologiyaga almashtirishni ta’minlaydigan faol amalga oshiriladigan ilmiy-texnik va innovatsion siyosatning yuritilishidir. Iqtisodiyot tarkibiy o‘zgarishlarining asosi sifatida innovatsion muhit qatnashadi va uning taraqqiyot darajasi milliy iqtisodiyot da yuz beradigan o‘zgarishlar tezligi va sifatini belgilaydi.

Ishlab chiqarish sohasida texnologiyalarni yangilash jarayoni-bu turli manbalardan intellektual, moddiy resurslarni jalb qilish jarayonidir. Markazlashgan kapital qo‘yilmalar hajmining keskin qisqarishi bilan bog‘liq holda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan, davlat tomonidan boshqariladigan kompleks tizim ishlab chiqilishi lozim. Yangiliklar potensialini qayta tiklash muammosi nafaqat pul mablag‘lari hajmini oshirish, balki iqtisodiyot ning yangi sektori ilmiy-texnika mahsulotlari bozorining shakllanishiga borib taqalishi lozim. Davlatning kelajagi innovatsion potensial shakllanishi va taraqqiyotining asosiy masalasi bo‘lgan muammolar bilan bog‘liq

bo‘lib, uning amalga oshirilishi barcha iqtisodiy islohotlarning asosi sifatida samarali innovatsion siyosatning ishlab chiqilishini talab qiladi.

Innovatsiyalarning respublika iqtisodiyoti va korxonalarning zamonaviy holati bilan bog‘liqliklari zamonaviy sharoitlarda quyidagi jihatlar asosida yuz beradi:

1) innovatsiyalar milliy iqtisodiyotga to‘la ta’sir o‘tkazadi, uning barqaror taraqqiyotini byudjet va ilmiy-texnika siyosati orqali ta’minlaydi, aholi turmush darajasini ko‘tarish bo‘yicha konkret vazifalarni bajarish uchun juda zarur ijtimoiy-iqtisodiy ta’minot bo‘yicha iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi;

2) innovatsion muhit iqtisodiyotning sanoat holatiga ta’sir etadi, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish moddiy bazasini yaratish va uning amal qilishini ta’minlaydi, ishlab chiqarishni samarali sanoat uskunalari namunalari bilan jihozlaydi;

3) innovatsion siyosatni amalga oshirish muhim sotsial-iqtisodiy ahamiyatga ega, u davlat ijtimoiy dasturlarini amalga oshirishga yordam beradi.

Fikrimizcha, davlat iqtisodiy siyosati va innovatsiyalarning o‘zaro bog‘liqligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

– innovatsiyalarning jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy sharoitlari bilan to‘g‘ri mutanosiblikda o‘zgarishi davlat iqtisodiy asoslarining mustahkamlanishining muhim sharti ekanligi – bu uning birinchi tomoni bo‘lsa, ikkinchi tomondan davlat hayotining iqtisodiy asoslarini mustahkamlash zarurligi innovatsiyalardan foydalanish yo‘nalishlari va vositalariga ta’sir ko‘rsatadi;

– iqtisodiyot va innovatsiyalarning o‘zaro aloqasi bu aloqaning miqdoriy va sifatiy tavsifini belgilovchi siyosat orqali amalga oshiriladi.

Miqdoriy ko‘rsatkichlar innovatsiyalarni davlat taraqqiyoti uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar qilishning asosiy omili sifatida tavsiflaydi. Sifatiy ko‘rsatkichlar iqtisodiyotning samarali amal qilishi uchun zarur innovatsiyalarning samaradorligini belgilovchi ko‘rsatkichlarni tavsiflaydi. Shunday qilib, innovatsiyalar va mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti

munosabatlarining tavsifi va o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Innovatsiyalar iqtisodiyot bilan bog‘liq bo‘lib, ular iqtisodiy ko‘rsatkichlar yaxshilanishiga ta’sir ko‘rsatib, iqtisodiyotning barqarorlashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga yordam beradi. Innovatsiyalar juda muhim iqtisodiy kategoriyalardan hisoblanadi. Har qanday davlatda belgilangan chegaradan past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan innovatsion faollik va uning yanada susayishi milliy xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi. Aynan shu sababli O‘zbekiston Respublikasida islohotlar o‘tkazish sharoitlarida innovatsion faoliyat xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslash zarurati seziladi. Innovatsiyalar va mamlakat iqtisodiy holatining o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, u faol va samarali innovatsion siyosatni ishlab chiqish, innovatsion faoliyat va innovatsiyalar samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini beradi.

11.2. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida innovatsion faoliyatni boshqarish tajribasi

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida davlatning ilmiy-texnik siyosatining asosi – respublikada tovar va xizmatlarga bo‘lgan ichki iste’molni tezroq qondirish va jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish maqsadida iqtisodiyot tarmoqlarining tubdan yangilanishiga yordam beruvchi ilmiy va texnologik ishlanmalarni yaratishga xizmat ko‘rsatishdir.

AQShda “yangiliklarni joriy etish tushunchasi”ni “ilmiy-texnik taraqqiyot” tushunchasi bilan almashtirishadi va bunda ilmiy-texnik sohadagi og‘irlik markazi jarayondan natijaga, ya’ni mazkur joriy etiladigan yangiliklar ta’siri ostida iqtisodiyot, ijtimoiy sohadagi pirovard natijalarga o‘tadi. Og‘irlik markazi olimlar qiziqishini qondirishdan odamlarning ma’lum turdagi mahsulotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga kuchayadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, texnik yangiliklarning harakatlantiruvchilari – bu o‘z faoliyatida davlat yordamiga tayanuvchi kichik ilmiy-texnik va innovatsion firmalar hisoblanadi. Masalan, AQShda texnologik yangiliklarni joriy etish 80-yillardan boshlab iqtisodiy jarayonlarni davlat

tomonidan boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlaridan va nufuzli jihatlaridan biriga aylandi.

Innovatsion muhitda kichik korxonalar faoliyatini boshqarishning sof bozor mexanizmlari samarasizligi sanoat rivojlangan davlatlar hukumatini kichik innovatsion biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishga majbur qiladi. AQSh da bunday dasturlar 1982-yilda “Kichik biznesda novatorlik tadqiqotlarini rivojlantirish to‘g‘risidagi Qonun” qabul qilingandan so‘ng keng qo‘llanila boshladi. 1992-yilda Small Business Technology Transfer – STTR dasturi boshlanib, u kichik biznes korxonalari uchun davlat tadqiqot tashkilotlarining shartnomaviy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanadi. Dasturning asosiy maqsadi-kichik kompaniyalarning yangi texnologiyalar asosida raqobatbardosh tovarlar yaratish uchun zarur moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish, shuningdek, davlat tadqiqotchilik tashkilotlarini qo‘shimcha mablag‘ va vositalar bilan ta’minlashdan iboratdir. Bundan tashqari, dasturning yana bir maqsadi – universitet va federal ilmiy markazlar uchun ular tomonidan ishlab chiqiladigan yuqori texnologik mahsulotlarni kichik biznes korxonalarining tijorat borasidagi tajribasidan foydalangan holda bozorga chiqarish borasida zarur imkoniyatlarni yaratish hisoblanadi.

Innovatsion loyihalarning hayot sikli turli bosqichlaridagi seleksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega: birinchi bosqich tugallangandan so‘ng 35 foiz loyihalar davom ettirish uchun mablag‘ va vositalar bilan ta’minlanadilar; ikkinchi bosqich tugagandan so‘ng 50 foiz loyihalar qo‘llab-quvvatlanadilar. Ikkinchi bosqichda 23 foiz moliyalashtiriladigan loyihalar “yuqori novatorlik loyihalari” sifatida tavsiflanadilar. O‘tkazilgan so‘rovlar natijasiga ko‘ra shu narsa aniqlandiki, bunday dasturlar amal qilmasa, kichik firmalar tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan loyihalarning faqat 16 foizigina amalga oshirilishi mumkin ekan. Ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-konstruktorlik ishlari (ITTKI) ga federal fondlarni birlamchi taqsimlash bo‘g‘in turi bo‘yicha amalga oshiriladi. Har bir bo‘g‘in o‘z rasmiy vazifalariga mos bo‘lgan ITTKI ni bajarish bilan shug‘ullanadi. Har bir bo‘g‘in rahbariyati ilmiy-tadqiqot byudjetlarining qanday qismini shu bo‘g‘in ijrochilari tomonidan sarflash,

qanday qismini tashqi bo‘g‘inlarga taqdim etishni o‘zi belgilab oladi. Masalan, AQSh Mudofaa Vazirligi o‘z ITTKI byudjetining 75 foizini universitet va sanoat firmalari hisoblangan tashqi ijrochilar orqali sarflaydi.

Davlat tomonidan ilmiy siyosatning amalga oshirilishida asosiy e’tibor Amerika fanining moddiy-texnik bazasining sifatiga, avvalambor universitetlar faoliyati sifatiga qaratiladi. AQShda Mudofaa Vazirligi 80-yillarda universitetlar va kollejlarning tadqiqot bazasini rivojlantirish dasturini amalga oshirdi. Bunday dasturlarni boshqa bo‘g‘inlar ham amalga oshirganlar, jumladan, Milliy ilmiy fond universitetlar tadqiqotchilari davlat laboratoriyalarida o‘rnatilgan superkompyuterlarni ma’lum vaqtga ijaraga olishlari uchun mablag‘lar ajratdi.

Hukumat maqsadli subsidiyalar, dotatsiyalar tadqiqot stipendiya-larini fundamental fanlar va sanoat o‘rtasida uzoq muddatli aloqalar o‘rnatilganligi uchun ajratadi, universitet olimlari sanoat kompaniyalari uchun qiziqarli bo‘lgan muammolar bilan shug‘ullanadigan injenerlik markazlarini tuzadi. Bunday markazlarning umumiy soni 100 taga etdi. Milliy ilmiy fond bunday markazlar uchun infratuzilma bazasini yaratadi.

Davlat idoralari tadqiqotchilik loyihalarida teng huquqli moliyaviy hamkor sifatida qatnashadilar. Sanoatda fundamental fanlar natijalarini taqsimlash kanali rolini ITTKIni amalga oshiruvchi federal laboratoriyalar va universitetlarda, xususiy firmalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislarni o‘qitish maxsus kurslari bajaradilar. Bunday kurslar qator vazirliklar, tashkilotlar (jumladan, NASA, Standartlar milliy byurosi, Milliy ilmiy fond va boshqalar) va yetakchi texnik oliy o‘quv yurtlari huzurida tashkil etilgan.

Ilmiy siyosatni amalga oshirishda, AQSh hukumati fundamental ilmiy g‘oyalar zaxirasini yaratadi va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun zarur mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi;

– ilmiy-texnik loyihalar moliyaviy xatarini kamaytiradi;

– akademik va amaliy fanlar o‘zaro munosabatlarini tashkil etishda vositachilik funksiyasini amalga oshiradi;

– ilmiy sohada muvozanatsizlikni to‘g‘rilaydi, ilm-fan moddiy-texnik bazasi qoloqligini bartaraf etadi, ilmiy tadqiqotlarning axborot bazasini rivojlantiradi.

Ilm-fan sohasidagi siyosatdan tashqari, turli davlat mahkamalari doirasida ijtimoiy tavsifdagi tadbirlar ham amalga oshiriladi. Ular bevosita moliyaviy ko‘makni ko‘zda tutuvchi biznesning innovatsion faolligiga qaratilgan bo‘ladi, (masalan, kichik firmalarda yangiliklarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash dasturlari bo‘yicha faoliyat). Amaliy tadqiqotlarni yuritish uchun Milliy ilmiy fondi mablag‘laridan foydalanilib, ular yangiliklarni joriy etish markazlarini shakllantirishga yordam beradi va davlat mablag‘lari hisobidan innovatsion firmalariga venchur kapitalini ajratadilar.

AQSh uchun davlatning innovatsion faolligiga ta’sir etishining o‘ziga xos kanali tovarlar va xizmatlarni o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan shartnoma tizimi hisoblanadi. Davlat xaridlari-yangiliklarni joriy etish “talabi”ning muhim unsuridir, Ancha katta savdo hajmiga ega bo‘lgan kafolatli bozorning mavjudligi ishlab chiqaruvchi firmalarga ishlab chiqarish ko‘lami va tajriba bo‘yicha tejamkorlik asosida sarflarni keskin qisqartirishga imkon beradi. Yangiliklarning texnik ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilash bilan bir qatorda xarajatlarni qisqartirish uning bozorga chiqishi va taqsimlanishida yetarli darajadagi samaradorligini baholash imkonini yaratadi.

Federal mahkamalarga qarashli ko‘pgina shartnomalarning raqobatlilik xususiyatiga egaligi shartnomalarda kelishilgan majburiyatlarni qondirishga xizmat qiluvchi bir nechta turli yangiliklarni birdaniga yaratishga yordam beradi. Bunda hukumat faqat bitta ta’minotchiga tayanib qolmaslikka harakat qiladi va yangi mahsulotlar xarid qilish bo‘yicha birdaniga bir necha ishlab chiqaruvchilar bilan shartnomalar tuzadi. Mahkama o‘z asosiy ta’minotchisidan boshqa firmalarga shunday mahsulotlar ishlab chiqarish uchun litsenziyalar berishni talab qiladi, bu esa yangiliklarni ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobatning yanada kuchayishiga olib keladi.

Davlat yangiliklarni ishlab chiqaruvchi xorijiy subyektlar uchun to‘siq qo‘yib, milliy ishlab chiqaruvchilar uchun tajriba to‘plashga imkon beradi.

Jumladan, yangiliklar asosida turuvchi ko‘pgina kashfiyotlar hukumat buyurtmasi va mablag‘lariga ko‘ra yaratilgan. Avvalo, mutlaq davlat bozori uchun mo‘ljallangan mahsulotlar bo‘lgan yangiliklar asta-sekinlik bilan fuqarolik tarmoqlari uchun ishlab chiqarila boshlandi. Masalan, EHMlar va yo‘ldoshli aloqa kabilar.

AQShda taxminan o‘n besh ming atrofida kichik innovatsion firmalar hisobga olingan. Hisob-kitob qilinishicha kichik firmalar yiriklarga nisbatan ikki marta ko‘p yangiliklar yaratadilar, eng yangi mahsulotlar esa bunday firmalarda 2,5 marta ko‘p yaratiladi. Kichik firmalar yangiliklarni joriy etish borasida yirik firmalarni ortda qoldiradilar.

Mahsulotni ishlab chiqarishdan boshlab uni tijoratlashtirish va yangi mahsulot bilan bozorga chiqishgacha bo‘lgan vaqt davriyligi kichik firmalarda 2,2 yilga teng bo‘lsa, yirik firmalarda bundan 1,5 marta ko‘p vaqtni talab etadi.

AQSh Milliy ilmiy fondining hisob-kitoblariga ko‘ra, bu mamlakatda yaratiladigan yangi mahsulotlarning 98 foizi kichik tadbirkorlik hisobidan shakllanadi. ITTKI ga qilinadigan 1 dollarlik xarajat hisobiga kichik tadbirkorlik yirik korporativ tadbirkorlikka nisbatan 24 marta ko‘p yangiliklar yaratar ekan.

Dastur doirasida arizalarni baholash va loyihalarning kelgusida bajarilishini nazorat qilish bilan shug‘ullanuvchi yettita qo‘mita tuzilgan, qo‘mita tarkibiga olimlar, tadbirkorlar, shuningdek, hukumat boshliqlari kiritilgan. Zarur bo‘lganda xorijdan ekspertlar jalb qilinadi.

Singapurda davlat venchur investitsiyalar tavakkalchiligini Texnologik Investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash Dasturi orqali qisman moliyalashtiradi. (Technopreneur Investment Incentive Scheme – TP). Bu dastur endi ish boshlagan kompaniyalarga investitsiyalardan kutiladigan zararlarni sug‘urtalash imkoniyatini beradi. TP Statusiga ega kompaniya o‘z investorlari uchun 3 mln. Singapur dollaridan oshuvchi qiymatdagi investitsiya uchun sertifikat chiqarish huquqiga ega. Bunday sertifikatlarga ega bo‘lgan investorlar qimmatbaho qog‘ozlar ishlatilishi mumkin bo‘lgan muddat ichida investitsiyalardan keladigan har qanday yo‘qotishlarni soliqqa tortiladigan o‘z daromadlari hisobidan ajratishlari mumkin.

Koreya Respublikasida kichik biznesni moliyalashtirish tizimida Kafolatli kredit Fondi muhim rol o‘ynaydi. U hukumat va ixtisoslashtirilgan moliya idoralari mablag‘lari hisobidan tashkil etilgan. Fond kreditli kafolatlarni qarz evaziga hatto xalq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlarida faoliyat yurituvchi kichik va o‘rta korxonalar uchun beradi. Agar qarz bank tashkiloti tomonidan kichik va o‘rta korxonalarning asosiy fondlarini investitsiyalash uchun taqdim etilsa, bunda 150 mln. vongacha bo‘lgan qiymatdagi qarz avtomatik tarzda 70 foiz sug‘urtalanadi. Komission to‘lov hajmi-yillik 1 foiz (yirik korxonalar uchun – 1,5 foiz).

Shu tariqa, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlatning innovatsion faollikka ta’siri quyidagi yo‘nalishlarda o‘z aksini topadi:

– birinchidan, davlat ilmiy-texnik g‘oyalar taklifini va ishlanmalarni amalga oshirish uchun zarur infrastrukturani shakllantirishning omili sifatida maydonga chiqadi;

– ikkinchidan, davlat innovatsion korxonalar o‘z faoliyatini amalga oshiradigan iqtisodiy muhitni shakllantirishning muhim omili sanaladi;

– uchinchidan, davlat mahkamalari keyinchalik xo‘jalik amaliyotida keng tarqaladigan va qo‘llaniladigan ko‘pgina yangiliklarni joriy etish borasida boshlang‘ich talabni shakllantiruvchi omil sifatida qatnashadilar.

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida lizing faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni texnologik qayta qurollantirish va yangidan barpo etilayotgan korxonalarni esa ilg‘or texnika va texnologiyalar bilan jihozlashning muhim dastaklaridan biri hisoblanadi. Aynan shu sababli ham, lizingning iqtisodiy mohiyatini qarab chiqish va milliy iqtisodiyot doirasida mazkur iqtisodiy vosita (instrument)ning rivojlanishini tahlil etishni zarur, deb hisoblaymiz. Mavjud ishlar asosida lizingning asosiy afzalliklari va kamchiliklari o‘rganib chiqildi. O‘zbekistonda, shu jumladan MDH mamlakatlarida lizing bozorini shakllantirish va rivojlantirishning dolzarbligi birinchi navbatda, asbob-uskunalar parkining nochor holati (jismoniy va ma’naviy eskirgan asbob-uskunalarning yetarlicha katta ulushi, ulardan foydalanish samaradorligining pastligi, ehtiyot qismlar bilan ta’minlanmaganlik va hokazo) va ilmiy-texnik taraqqiyot mahsulot-

larini joriy etish hamda asosiy fondlarni yangilash uchun aylanma mablag‘larning sezilarli darajada yetishmasligi bilan izohlanadi. Moliyalashtirishning lizing shakli modernizatsiyalash uchun mablag‘ muammosiga duch kelgan korxona va qo‘yilgan mablag‘larning qaytarilishining yetarlicha kafolati bo‘lmaganligi sababli ushbu korxonaga xohlar-xohlamas kredit taqdim etuvchi bank o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etadi. Lizing operatsiyalari barcha ishtirokchilar uchun birdek foydalidir: bir tomon bosqichma-bosqich to‘lab boriluvchi kredit va kerakli asbob-uskunaga ega bo‘lsa, boshqa bir tomon esa kreditning qaytarilish kafolatiga ega bo‘ladi, chunki oxirgi to‘lov amalga oshirilgunga qadar lizing obyekti lizing operatsiyasini moliyalashtirgan bank yoki lizing beruvchining mulki hisoblanadi.

Venchur kapitalini iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash va investitsion iqlimni barpo etishning innovatsion shakllaridan biri sifatida e’tirof etish mumkin. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, venchurli moliyalashtirish milliy xo‘jalikni iqtisodiy rivojlantirishning muhim manbalaridan biriga aylanib bormoqda. Mazkur tadqiqot doirasida venchurli moliyalashtirishni amalda qo‘llashning mahalliy va xorij tajribasi keng o‘rganildi. AQSh, Yevropa mamlakatlari, Yaponiya va Hindistonda venchur kapitaldan foydalanish borasida to‘plangan boy ijobiy tajribalar venchurli biznes bugungi kunga kelib, kuchli jahon industriyasiga aylanganligini amalda ko‘rsatdi va u iqtisodiyotning istiqbolli sohalarini qo‘llab-quvvatlashda muhim vositalardan biri sifatida o‘zini namoyon eta oldi. Venchurli biznes investitsion resurslarning tanqisligi va qimmatligini bartaraf etishga ko‘maklashgani holda, iqtisodiy o‘sish sifatini tubdan o‘zgartirishi mumkin. Xususan, Hindistonda dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasida investitsiyalarni va venchurli biznesni qo‘llab-quvvatlash natijasida 1990 yillarning boshida juda katta iqtisodiy samaraga erishildi. Informatsion texnologiyalar eksportidan daromad 1999-yilda 2,7 milliard dollarni tashkil etgani holda, bu ko‘rsatkich 2000-yilga kelib 4 milliard dollardan oshib ketdi.

Venchurli tadbirkorlikka investitsiyalar, xususan, yuqori malakali mutaxassislar bandligining o‘sishiga, aholi turli qatlamlari turmush darajasining yaxshilanishiga olib keladi. Venchur kapitalining dunyo bozori hajmi 1990-yillarning o‘rtalariga kelib 100 milliard dollarlik chegaradan oshib ketdi. Venchurli tadbirkorlik fan sig‘imli tarmoqlarda yangi ishlanmalarni joriy etishda muhim o‘rin tutadi. Moliyalashtirish manbalari tuzilmasi va mablag‘larni taqdim etish shartlari nuqtai nazaridan u investitsiyalarning jalb qilishning an’anaviy usullaridan bir muncha farq qiladi. Venchurli biznes innovatsion faoliyatning investitsion mexanizmining yangi tipini yaratgani holda, iqtisodiyotning yaxlit holda faoliyat ko‘rsatish samaradorligini oshiradi. Bizning fikrimizcha, venchurli tadbirkorlikning barcha afzalliklaridan milliy iqtisodiyotning barcha bo‘g‘inlarida birdek foydalanilishi lozim.

11.3. Davlatning innovatsion siyosati korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida davlatning ilmiy-texnologik taraqqiyot sohasida innovatsion va investitsion faoliyat uchun zarur iqtisodiy imkoniyatlar yaratish o‘z tarkibiga soliq, moliyaviy, amortizatsion, kredit va bojxona siyosati kabilarni qamrab oluvchi bilvosita tartibga solishni amalga oshirish davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rag‘batlantirish zarurati fan va innovatsion jarayonlarning iqtisodiy o‘sish va milliy sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili ekanligi, hamda yangi ishchi o‘rinlari yaratish manbai ekanligi bilan izohlanadi.

Tadbirkorlik faoliyati uchun iqtisodiy sharoitlar shakllanishi bilan bog‘liq innovatsion faollikni rag‘batlantirishning bilvosita tadbirlaridan biri-bu tadbirkorlarga mablag‘ va resurslarning sezilarli qismini innovatsion jarayonlarga yo‘naltirishga imkon beruvchi soliq va amortizatsiya siyosatini yurgizish hisoblanadi.

Davlat tomonidan innovatsion jarayonlarni tartibga solishning zarurati avvalo ularning iqtisodiyot va umuman jamiyat uchun ahamiyati oshayotganligi

bilan bog‘liqdir. Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti ekstensiv va intensiv omillar mosligiga tayanadi. Zamonaviy davrda ishlab chiqarishga yangi birlamchi resurslarni jalb etish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish imkoniyati cheklangandir. Shu sababli iqtisodiy taraqqiyotda intensiv omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demak, innovatsiyalarning umum ijtimoiy mohiyatining asosiy jihati ularning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga hal qiluvchi ta’siri hisoblanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasiga, institutsional iqtisodiy mexanizmlarga, ijtimoiy barqarorlikka, atrof-muhitga, milliy xavfsizlik darajasiga va eng asosiysi jahon xo‘jaligi tizimidagi milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligiga ta’sir etadi.

Demak, davlat innovatsion jarayonlarni bugungi kunda aynan ular mamlakat taraqqiyoti istiqbolini belgilab berishi tufayli ham tartibga solishi lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash mumkinki, davlat innovatsion siyosati uch asosiy yo‘nalishga ajratiladi:

– innovatsion faoliyatni faollashtirishni ta’minlash.

U o‘z navbatida quyidagilarga bo‘linadi: fundamental tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, mamlakatda korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan tijorat innovatsiyalari uchun zarur iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

– ta’lim, madaniyat, ekologiya, ijtimoiy himoya, mudofaa kabi sohalarda davlat mas’uliyati talablariga javob beruvchi innovatsiyalarni yaratish va tarqatish borasidagi maqsadli dasturlar bo‘yicha davlat buyurtmalarini moliyalashtirish;

– alohida korxonalar uchun manfaatdor, ammo zarur darajada yuqori daromad keltirmaydigan ishlanmalar va yangiliklarni qo‘llab-quvvatlash va tanlab rag‘batlantirishni amalga oshirish.

Yuqorida belgilangan yo‘nalishlarning birinchisi, umuman, milliy korxonalar raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan, jumladan, korxonalarda ishchi o‘rinlarini saqlash va yaratish bo‘lib, mazkur maqsadlar uchun soliq to‘lovchilar hisobidan tushuvchi mablag‘lar sarflanadi.

Ikkinchi yo‘nalish ta’minotchilar va individual iste’molchilar o‘rtasida bevosita ikki tomonlama kelishuvlar asosida o‘zlashtirilishi yoki sotilishi mumkin bo‘lmagan ne’matlar bozoriga xizmat ko‘rsatadi. Mazkur kelishuvlar uchinchi shaxslarga kelishuvda hisobga olinmaydigan tashqi ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, chunki davlat ta’minotchi va iste’molchilar o‘rtasida ular nomidan ish ko‘rib, mahsulotlar va xizmatlar sotib olib, tadqiqotlar va ishlanmalarga buyurtma berish orqali vositachi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Uchinchi yo‘nalish ikkinchi yo‘nalish bilan ma’lum darajada o‘zaro bog‘liq hisoblanadi, bunda davlat tashqi ijtimoiy samaralarga ega bo‘lish maqsadida innovatsiyalarni moliyalashtiradi.

Innovatsion faoliyatni an’anaviy ishlab chiqarish faoliyatidan ajratuvchi tamoyillar tavsifi mavjudligini hisobga olish zarur:

1. Innovatsion tavsifga ega bo‘lgan va faqat kelgusida qoplanishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha xarajatlarga ehtiyojning mavjudligi. Shuni ta’kidlash lozimki, har bir alohida olingan innovatsiyalarda bu sarflar individual tavsifga ega bo‘ladi – ular hajmi, qaytarish tezligi ko‘pgina obyektiv va subyektiv holatlarga bog‘liq bo‘ladi.

2. Innovatsiyaga sarflar va uni joriy etishdan olinadigan samara vaqt bo‘yicha mos kelmaydi. Jumladan, qandaydir yangi mahsulotni seriyali ishlab chiqarish butun davri davomida amalga oshirilgan sarflar uni sotish boshlanishi bilan qoplanmay, ma’lum muddat o‘tishini talab qiladi. Innovatsiyalarning qoplanish hisob-kitobida vaqt omili diskontlash usulini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Bu, xo‘jalik subyektining joriy va istiqboldagi manfaatlari birligini buzuvchi xususiyat bo‘lib, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish istagiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Rejalashtirilgan natijalarga erishishda noaniq unsurlar, xavfning mavjudligi. Jahon tajribasidan ma’lumki, mehnat va vositalar sarflari izlanish tavsifiga ega bo‘ladi va amalga oshiriladigan sarflarni qoplab, foyda keltiradigan mahsulotlar ko‘rinishiga ega bo‘lmaydi.

3. Ilg‘or innovatsiyalarning kichik foizlar tashkil etishi, bunda

ilg‘or innovatsiyalar nafaqat o‘zi uchun, shuningdek, omadsiz g‘oyalar uchun sarflarni qoplaydi.

4. An’anaviy ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlar moliyaviy ko‘rsatkichlari yomonlashuvining oldini olish uchun alohida byudjet zarurati.

5. An’anaviy faoliyatdan farq qiluvchi innovatsion faoliyatni baholash mezonlarining qo‘llanilishi. Masalan, “foydaning yillik o‘sishi” mezonini har doim qo‘llab bo‘lmaydi, chunki innovatsion mahsulot yaqin uch-to‘rt yilda hech qanday foyda bermasdan, uzoq muddatli istiqbolda foyda keskin ko‘tarilib ketishi mumkin.

6. Barcha eskirgan vositalardan tizimli ravishda voz kechish, bu esa o‘z navbatida resurslarni yangi ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun bo‘shatish imkonini beradi.

Innovatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun zarur sharoitlar quyidagilar hisoblanadi:

– zarur jarayon sifatida qaraladigan yangiliklarni izlash va o‘zlashtirishni rag‘batlantiruvchi ma’qul sharoitni yaratish. Innovatsion bo‘g‘inlarda faoliyat yuritadigan ishlovchilarni rag‘batlantirish innovatsion jarayon iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilmog‘i lozim;

– innovatsion faoliyatning nufuzli yo‘nalishlarini strategik reja asosida aniqlash lozim, bunda innovatsiyalarni tashkil etishda yetakchi rolni yuqori boshqaruv rahbariyati o‘ynaydi;

– butun innovatsion faoliyatni bozor ehtiyojlariga yo‘naltirish;

– innovatsion tuzilmalarni rivojlantirishni hisobga olgan holda korxonaning boshqaruv tizimini qayta tashkil etish.

Davlat innovatsion siyosatining tadbirlari raqobatni rag‘batlantirish, jamiyatni xabardor qilish, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlash hamda standartlash kabilarni qamrab olishi zarur.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bevosita va bilvosita usullarda amalga oshiriladi.

Davlat innovatsion faoliyatning tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, me’yoriy-huquqiy kabi barcha tartibga solish usullaridan keng foydalanishi lozim. Davlat tomonidan innovatsion faoliyatni tartibga solishning tashkiliy omillari quyidagilardan iborat:

– Respublika miqyosidagi va hududiy innovatsion dasturlarga kiritilgan innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

– innovatsion infrastruktura taraqqiyotiga ko‘maklashish;

– innovatsion faoliyatda kadrlar masalasini qo‘llab-quvvatlash;

– innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

– innovatsion faoliyatni informatsion qo‘llab-quvvatlash, jumladan, innovatsion sohada davlat siyosatining jihatlari to‘g‘risidagi axborotlar, tugallangan ilmiy-texnik tadqiqot to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, bajariladigan va tugallangan innovatsion loyihalar va dasturlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar olish borasida erkinlikni ta’minlash.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning moliyaviy omillariga quyidagilar kiradi:

– innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni ta’minlovchi byudjet siyosatini yuritish;

– davlat mablag‘larini innovatsion sohaga yo‘naltirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish;

– ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim, ammo xususiy investorlar uchun manfaatli bo‘lmagan innovatsion dasturlar va loyihalarni amalga oshirish uchun davlat investitsiyalarini ajratish;

– innovatsion sohada ijobiy investitsion muhitni shakllantirish;

– innovatsion faoliyatda qatnashuvchi milliy va xorijiy investorlarga dotatsiyalar, imtiyozli kredit va kafolatlar berish;

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning me’yoriy-huquqiy omillari quyidagilardan iboratdir:

– innovatsion faoliyat subyektlarining o‘zaro aloqalarini tartibga soluvchi

huquqiy asoslarni yaratish;

– innovatsion faoliyat subyektlarining manfaatlari va huquqlari himoyasini kafolatlash, jumladan, innovatsion faoliyat taraqqiyoti uchun zarur hisoblanuvchi intellektual mulk himoyasini ta’minlash.

Innovatsion faoliyat subyektlari, shuningdek, ular bilan innovatsion jarayonning boshqa ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni me’yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solish shartnomalar asosida amalga oshiriladi, jumladan:

– ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarni bajarish borasidagi shartnomalar;

– loyiha va qidiruv ishlarini bajarish shartnomalari;

– qurilish, pudrat ishlari bo‘yicha shartnomalar;

– innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar;

– innovatsion xatarlarni sug‘urtalash bo‘yicha shartnomalar;

– investorlar bilan shartnomalar.

Innovatsion faoliyatni tartibga solish quyidagilarga tayanilgan holda amalga oshiriladi:

– innovatsion prognozlar;

– innovatsion strategiyalar;

– innovatsion dasturlar;

– innovatsion loyihalar.

O‘zbekiston davlat byudjeti mablag‘laridan foydalanish ilmiy-texnik siyosatning asosiy moliyaviy vositalaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat taraqqiyoti nafaqat alohida korxona darajasida, shuningdek, integratsiyalashgan tashkilotlar va hatto mamlakat miqyosida samarali moliyalashtirish tizimini talab qiladi. Faqatgina shundagina mablag‘larni jamg‘arish va ularni sarflash uchun zarur sharoitlar yaratilishi va ularni aniq yo‘nalishlarga qaratish imkoniyati tug‘ilishi mumkin.

11.4. Innovatsion salohiyatning iqtisodiy mazmuni va tarkibiy qismlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi innovatsion faoliyatning muhim jihati ishlab chiqaruvchining imkoniyatlariga emas, balki, iste'molchining talablariga qarab ish yuritilishidir. Ushbu faoliyatning asosini "tadqiqot–ishlab chiqarish–iste'mol" sikli tashkil qiladi. Umumiy holda jamiyat manfaatlariga yo‘naltirilgan bozorni ishlab chiqaruvchi va iste'molchining muayyan o‘zaro iqtisodiy munosabatlariga asoslanadigan ijtimoiy mahsulotni sotish sohasi deb baholash mumkin. Uning maqsadi jamiyat ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishdan iboratdir.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida innovatsion salohiyat iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbasi sifatida qaraladi va milliy boylikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda innovatsion salohiyatni shakllantirish, qo‘llash, uning mexanizmlarini joriy qilish va undan samarali foydalanish muammolari hozirgacha o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shunday ekan, innovatsion salohiyatdan samarasiz foydalanish raqobatbardosh, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining rivojlanish jarayonini sekinlashtiradi va mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur'atlarini pasaytiradi.

Innovatsion salohiyat resursli hamda natijali komponentlarni o‘zida mujassam qiladi. Resursligi innovatsion salohiyat shakllantirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z ichiga moliyaviy, moddiy va xodimlar bilan bog‘liq tarkibiy qismlarni oladi. Moliyaviy tarkibiy qism ilmiy sohaga kiritilgan moliyaviy qo‘yilmalarning hajmi bilan tasniflanadi. Moddiy tarkibiy qism esa, ilmiy sohadagi asosiy va aylanma kapital holatiga qarab belgilanadi. Xodimlar bilan bog‘liqlik mehnat resurslarining soni va sifati, ilmiy faoliyat bilan bandligi hamda mehnat unumdorligi bilan belgilanadi.

Natijali komponent innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, innovatsiyalarning soni hamda milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridagi innovatsion faollik va yuqori iqtisodiy samaradorlik darajasiga qarab aniqlanadi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimining innovatsion salohiyati hududlar, tarmoqlar, sohalar, korxonalar va insonlarning innovatsion salohiyatlari jamlanmasini o‘zida mujassamlashtiradi.



11.1-rasm. Milliy innovatsion salohiyat tashkil etuvchilari[67]

Mamlakatning innovatsion salohiyati bir tomondan, innovatsion faoliyatni tashkil etish uchun muhim bo‘lgan mamlakatdagi mavjud yalpi resurslarni, ikkinchi tomondan – takror ishlab chiqarish jarayonida innovatsion faoliyatni tashkil etish, barcha innovatsion imkoniyatlarni turli xo‘jalik subyektlari faoliyatida iqtisodiy munosabatlar tizimini shakllanishidan iborat bo‘ladi.

Hududning innovatsion salohiyati tarmoq va korxona innovatsion salohiyatlarining birlashish yo‘li bilan hosil bo‘ladi. Hududning innovatsion salohiyati uning yalpi innovatsion imkoniyatlari, takror ishlab chiqarish jarayonida innovatsion faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi va hududning yalpi innovatsion resurslari bilan ifodalanadi.

Tarmoqning innovatsion salohiyati deganda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish va tarmoqlar innovatsion imkoniyatining shakllanishi bo‘yicha turli xo‘jalik faoliyatidagi subyektlarning takror ishlab chiqarish jarayonidagi innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi iqtisodiy munosabatlar tizimi tushuniladi.

[67] Abduvoxidov, A., and S. Kamilova. "Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini tadqiq etishdagi yondashuvlar." *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil* 1.4 (2023): 12-21.

Innovatsion salohiyat korxonalar darajasida iqtisodiy munosabatlar tizimini turli xo‘jalik faoliyatidagi subyektlar takror ishlab chiqarish jarayonida innovatsion faoliyatni amalga oshirishi uchun korxonaning innovatsion imkoniyati shakllanishi ifodalaydi. Ushbu imkoniyat korxonaning innovatsion resurslari jamlanmasi bilan ta’minlanadi.

Cheklangan resurslar sharoitida mavjud salohiyatdan samarali foydalanish va yangi tovar hamda xizmatlar ishlab chiqarishga yo‘naltirish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Innovatsion salohiyatni turli darajalarda tahlil qilish mumkin: makro darajada (mamlakat miqyosida), mezo darajada (tarmoq yoki soha miqyosida) va mikro darajada (korxonalar miqyosida).

Makro darajada innovatsion salohiyat mamlakatdagi innovatsion faoliyat uchun zarur bo‘lgan barcha moddiy va nomoddiy ne’matlarni yig‘indisi bo‘lib quyidagi unsurlardan iborat:

– ilmiy-texnikaviy salohiyat;

– investitsion salohiyat;

– resurs salohiyati;

– intellektual salohiyat;

– iste’molchilik salohiyati;

– infratuzilma salohiyati

Iqtisodiyotda innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish uchun ilmiy-texnikaviy, investitsion, ya’ni, innovatsion faoliyatga yo‘naltiriladigan moliyaviy imkoniyatlarni; intellektual va iste’molchilik salohiyatni, resurs salohiyatini, ya’ni, texnologiyalar, uskunalar, asosiy fondlar, mehnat resurslari, axborot resurslarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish va rivojlantirish zarur. Bu yerda intellektual salohiyat deyilganda, innovatsiyalarni joriy etishga yetarli bo‘lgan insonlarning aqliy qobiliyatlari tushuniladi. Iste’molchilik salohiyati yangi va takomillashtirilgan mahsulotlarga nafaqat ehtiyoj, balki pul bilan qoplangan talabning mavjudligini anglatadi. Infratuzilma salohiyati esa, innovatsion jarayon uzluksizligini ta’minlaydi va o‘z ichiga ishlab chiqarish, ijtimoiy, innovatsion infratuzilma obyektlarini qamrab oladi.

Innovatsion salohiyatni makro darajada tahlil qiladigan bo‘lsak, milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati ish samaradorligini yanada sifatli, innovatsion asosda amalga oshiradigan milliy iqtisodiy tizimning jami obyektiv sharoitlari (imkoniyatlari)ni to‘laligicha o‘zida aks ettiradi.

Uning tarkibiy qismlari quyidagilar .

1. Iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo‘naltiradigan ilmiy-texnik salohiyat.

2. Milliy iqtisodiyotda innovatsion rivojlanishning resurs salohiyati:

– zamonaviy ishlab chiqarish mashinalari va uskunalari;

– mavjud materiallar va xomashyo;

– innovatsion rivojlanishni ta’minlaydigan axborot resurslari;

– innovatsiyada bevosita novatsiyani qamrab oluvchi inson resurslari;

3. Iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish imkoniyati sifatida qaraladigan investitsion salohiyat.

4. Innovatsion jarayonning ehtiyojlarini qondirish imkoniga ega bo‘lgan industrial, ijtimoiy va innovatsion infratuzilmani ifodalovchi infratuzilmaviy salohiyat.

5. Inson resurslarining tashabbuskorlik, innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish, innovatsion jarayonni amalga oshirish va innovatsiyalarni to‘g‘ri qabul qilish qobiliyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi intellektual salohiyat.

6. Iqtisodiy tizimning iste’molchi salohiyati iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirish darajasi va imkoniyatlarini yaratish imkoniyati, samarali talabning mavjudligi sifatida namoyon bo‘ladi.

7. Tadbirkorlik salohiyati innovatsion jarayonda ishtirok etuvchilar tomonidan innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etuvchisi sifatida qaraladi.

Tarmoq darajasidagi innovatsion salohiyat ular faoliyatining davomiyligidan va rivojlangan texnologiyalar ta’siridan kelib chiqqan holda tarmoqlarning mustaqil ravishda rivojlanish imkoniyatlarini belgilab beradi. O‘z navbatida, tarmoqlarning ilmiy-texnik salohiyati, ustuvor tarmoqlarda amaliyotga tatbiq etish uchun innovatsion resurslarni ishlab chiqish bilan tavsiflanadi.

Tarmoq darajasida resurs salohiyati korxonalar va sanoatning innovatsion rivojlanish talablariga mos keladigan imkoniyat sifatida quyidagi tarkibiy qismlar orqali amalga oshiriladi:

– sanoatning umumiy aktivlari (ishlab chiqarish mashinalari, uskunalar);
– mavjud xomashyo va materiallar (aylanma mablag‘lar);
– axborot resurslari;
– sanoat korxonalaridagi jami bo‘sh turgan moliyaviy resurslari;
– innovatsion jarayonni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan ishchi kuchi resurslari.

Tarmoqlardagi ishchi kuchi resurslarining tashabbuskorligi, tadbirkorlik layoqati, yangiliklarni amaliyotga joriy etishi, innovatsion jarayonlarni amalga oshirish va uni yaxshi qabul qila olish imkoniyatlari intellektual salohiyat hisoblanadi.

Tarmoqning iste’mol salohiyati ularning mahsuloti egallagan bozor segmentini saqlab qolish va uning hajmini oshirish imkoniyati hamda iste’molchining ushbu mahsulotlardan yuqori darajada naflilikka erishishi sifatida qaraladi.

Hozirgi kunda ilmiy-texnikaviy sohaning, ya’ni, fan, ta’lim, texnika taraqqiyoti, texnologiya bozorining rivojlanishi iqtisodiy o‘sishning barqaror davom etishi uchun asos yaratib, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda muhim omillardan biri sanaladi. Innovatsion salohiyat jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida imkoniyatlarni kengaytiradi, kapital va tabiiy resurslarni tejaydi. Boshqa sharoitlar o‘zgarmagan holatda fan texnika taraqqiyoti hamda ishchi kuchi innovatsion faolligi qanchalik yuqori bo‘lsa, jamiyatda ham shuncha katta innovatsion salohiyat vujudga keladi.

“Innovatsion salohiyat” tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi. Iqtisodiy salohiyatning ajralmas qismi sifatida innovatsion salohiyat ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasidagi murakkab mexanizm bilan belgilanadi. Bundan kelib chiqqan holda innovatsion salohiyat: bir tomondan, innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan turli xil resurslar

to‘plami; ikkinchidan, turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy munosabatlar tizimini takomillashtirish jarayonida innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun umumiy innovatsion salohiyatni shakllantirishga qaratilgan majmua hisoblanadi.

Innovatsion salohiyat – har qanday tizimda jamiyat rivojlanishi uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy resurslarning miqdori hisoblanadi. Ushbu iqtisodiy resurslar uchta asosiy sektor o‘rtasida taqsimlanadi: ilmiy-texnik, ta’lim, investitsion. Ushbu taqsimot natijasida ilmiy-texnik salohiyat, ta’lim salohiyati va investitsion salohiyat shakllantiriladi. Ushbu segmentlarning jamlanmasi makroiqtisodiy darajada innovatsion salohiyatini tashkil etadi.

Innovatsion salohiyatning tuzilishini uchta tarkibiy qism (resurs, ichki va natijali) bir-birining o‘rnini egallashi, to‘ldirishi va birlashishi bilan ifodalanadi hamda ularni qo‘llash jarayonida yagona tarkibiy qism sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq, innovatsion salohiyatning taklif etilayotgan tuzilmasi to‘liq emas, chunki u innovatsion faoliyatni tashkil etishning zamonaviy shakllarini va innovatsion faoliyatni boshqarishning cheklangan darajadaligi, ilm-fan materiallari yoki intellektual mahsulot, shuningdek, ilmiy muassasalar, loyiha tashkilotlari va innovatsion korxonalar tarmoqlarini (innovatsion salohiyatning tashkiliy komponent) o‘z ichiga olmaydi.

Innovatsion salohiyatning asosi – xodimlar, tashkiliy, moddiy va texnik axborot, boshqaruv va moliyaviy komponentlar, shuningdek, ilmiy-texnik komponentlari hisoblanadi.

Ingliz olimlari P. Drukker va S. Frimanlar [68] sanoat va ilmiy-texnik tashkilotlarning innovatsion salohiyati to‘rt qismdan iborat deb hisoblaydilar:

1. Xususiy ishlanmalar va ixtirolarning ilmiy-texnik jarayonning uzluksizligini ta’minlash uchun tayyorlab qo‘yilgan zaxirasi;

[68] Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. Practice and Principles. – London: Heinemann, 1984.; Freeman C. Technology and Economic Performance: Lessons from Japan. – London: Pinter Publishers, 1987.

2. Korxona va tashkilotlarning o‘z infratuzilmasini ta’minlovchi innovatsion imkoniyatlar.

3. Innovatsion salohiyatni sanoat korxonalarida jamlangan salohiyatning boshqa qismlari bilan hamkorligini aks ettiruvchi va innovatsion sikl natijali bo‘lishini ta’minlashga ta’sir etadigan tashqi va ichki omillar.

4. Innovatsion madaniyat darajasi, korxona va tashkilot xodimlarining yangiliklarni qabul qilish darajasi, uning innovatsiyalarni yangiliklar sifatida kiritilishiga tayyorligi va imkoniyatlari.

B. Landvall, R. Nelson[69]lar esa, innovatsion salohiyatning unsurlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi:

1. Innovatsiyaga mo‘ljallangan qismlar;

2. Malakali kadrlar tarkibi;

3. Moliyaviy resurslar (boyliklar);

4. Moddiy-texnik ta’minlanish;

5. Intellektual (aqliy) mulk;

6. Innovatsion faoliyat natijalarini yuksaltirishning qo‘shimcha manbalari.

B. Santo[70] innovatsion salohiyatni shakllantirish va kengaytirish omillariga quyidagilarni kiritadi:

1. Insonning tasavvur kuchi va ijodiy imkoniyatlari (qobiliyatlari);

2. Tadqiqotlar va ishlanmalarning foydaliligi;

3. G‘oyalar, ixtirolar, ishlab chiqarish va savdo sirlarini himoya qilish;

4. Ilk mablag‘ (kapital)larning miqdori;

5. Zarur vositalarni sotib olish imkoniyatlari;

6. Ishchi kuchining soni va tarkibi;

7. Raqobat;

8. Iqtisodiy sharoitlar va hukumat me’yoriy-huquqiy tizimining boshqarilishi va rivojlanish tendensiyalarini oldindan aytib berish imkoniyatlari.

[69] Lundvall B. (ed.). National Innovation Systems: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. London: Pinter Publishers, 1992.; Nelson R. (ed.). National Innovation Systems. A Comparative Analysis. – New York/Oxford: Oxford University Press, 1993.

[70] Санто Б. Инновация и глобальный интеллектуализм. –М.: Инновации. 2006. №9. с.32

Yuqorida innovatsion salohiyat tarkibiy tuzilishiga oid yondashuvlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, fikrimizcha, mualliflar innovatsion salohiyat tuzilishi yoritishda bir qator unsurlarni e'tibordan chetda qoldirgan. Chunki, ular ishlab chiqarishni tashkil qilishning zamonaviy shakllari, jarayonlarni innovatsion faoliyat bilan boshqarishning eng oxirgi, ilmga boy, moddiy yoki aqliy mahsulotlarni (innovatsion salohiyat tuzilishini boshqaradigan), shuningdek, ilmiy muassasalar, loyiha-konstruksiyalash tashkilotlari va innovatsion korxonalar tarmog'ini (innovatsion salohiyatni tuzilishini tashkil etadigan) e'tibordan chetda qoldirishgan.

Innovatsion salohiyat asosini, malakali kadrlar, professional tashkiliy tuzilma, moddiy-texnik baza, kuchli axborot manbalari, zamonaviy boshqaruv usullari, moliyaviy barqarorlik va ilmiy-texnik tuzilmalar tashkil qiladi.

Innovatsion salohiyatning mohiyati uning quyidagi vazifalarida namoyon bo'ladi:

1. Ilmiy vazifa. Bunda innovatsion salohiyat fanning rivojlanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi qonuniyat va tamoyillari yaratilishiga hamda yangi sohalarga yo'l ochilishiga ko'maklashadi, shuningdek, g'oyalar generatori sifatida harakat qiladi.

2. Texnik vazifa. Bunda innovatsion salohiyat yangilangan, mukammallashgan mahsulot yaratish vositalarini ishlab chiqarish va o'zlashtirishga imkon beradi.

3. Ijtimoiy vazifa. Bunda innovatsion salohiyat mehnat sharoitlarini yaxshilash, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat sohalaridagi mavjud muammolarni hal etishga yo'naltiriladi.

Birlashgan millatlar tashkilotining UNCTAD (Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi – BMT Bosh Assambleyasining organi) organi innovatsion salohiyatning uchta tarkibiy qismlarini alohida ajratib bergan:

a) innovatsiyalarga bo'lgan sarmoyalar, ya'ni, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish uchun qo'llanilgan chora-tadbirlar va investitsiyalar;

b) davlat tomonidan amalga oshirilgan innovatsion faoliyat va fundamental tadqiqotlar natijalari;

v) xususiy sektor tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-texnologik faoliyatning amaliy natijalari.

Rivojlanish salohiyati mamlakatning imitatsion texnologik rivojlanish imkoniyatini belgilaydi. Uning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib, xalqaro savdo uchun milliy tizimning ochiqligi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, litsenziyalash va ishchi kuchi salohiyati hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu unsurlar nafaqat innovatsion rivojlanish, balki, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi uchun ham ahamiyatlidir.

Bundan tashqari, innovatsion salohiyatni oshirishda makroiqtisodiy barqarorlik, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish tizimi va iqtisodiyotdagi raqobat muhiti ham muhim rol o‘ynaydi. Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish innovatsiyalarni rag‘batlantiradi va ularning ijodiy sa’y-harakatlari, energetikasi va moliyaviy kapitalini investitsiyalash uchun yetarli darajada mukofotlanganligini ta’minlaydi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mamlakatimizning ilmiy-texnik va innovatsion salohiyatini barqaror saqlash hamda rivojlantirish zarur. Buning uchun quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim bo‘ladi:

– milliy iqtisodiyotning turli sohalarida to‘plangan ilmiy-texnik salohiyatni restrukturizatsiyalashtirish;

– amaldagi qonunchilikka innovatsion sohadagi faollikni yanada jadallashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratib beradigan yangi o‘zgartirishlar kiritish;

– ilm-fanni rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratish uchun qarovsiz qolgan, maqsadga muvofiq ravishda ishlatilmayotgan mulk hisobidan alohida jamg‘arma yaratish;

– qiymati yuqori bo‘lgan asbob-uskunalardan foydalanib, ilm-fan yutuqlaridan keng ko‘lamda foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaruvchi subyektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun lizing mexanizmlarini jadal rivojlantirish;

– innovatsion faoliyat ko‘lamlarini kengaytirish hamda respublikada kapital bozorini shakllantirib, uni rivojlantirish uchun bank kreditlarini jalb etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

– respublika miqyosida yaratiladigan innovatsion loyihalarni ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlarni muvofiqlashtirib, boshqarib turadigan maxsus innovatsion markazlarni yaratish;

– respublikaning eng bilimli, tajribali, professional ilmiy-texnik xodimlari, olimlari va mutaxassislaridan tarkib topadigan innovatsion loyihalarni ishlab chiqib, ularni ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni rejalashtiradigan, keyinchalik, ushbu faoliyatni boshqarib turadigan institutni yaratish maqsadga muvofiqdir.

11.5. Xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning o‘rnini mustahkamlash yo‘llari

Xalqaro reyting va indekslar mamlakatning jahon hamjamiyatidagi o‘rni va mavqeini belgilab berishga xizmat qiladi. Jahondagi har bir mamlakat xalqaro reyting va indekslarda yuqori o‘rin egallashga, mamlakatda olib borilayotgan turli jabhalardagi islohotlarni jadallashtirishga harakat qiladi. Bir so‘z bilan aytganda xalqaro reyting va indekslar mamlakatda olib borilayotgan islohotlarga xolis baho berishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijasi jahondagi yetakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan e’tirof etilayotganini alohida ta’kidlash lozim. Masalan, dunyodagi nufuzli “Fitch Ratings” va “Standart & Poo‘rs” reyting agentliklari birinchi marta mamlakatimizning xalqaro suveren kredit reytingini belgiladi. Ana shu reyting baholari “Barqaror” prognoziga ega bo‘lib, bu yaqin 12-18 oy davomida ushbu ko‘rsatkichning pasayish ehtimoli kamligini bildiradi. O‘zbekiston erishayotgan bunday reyting baholari ko‘pgina rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan yuqori ekanini qayd etish lozim. Ushbu reyting agentliklari O‘zbekistonda valyuta, savdo va narx siyosati erkinlashgani, davlat boshqaruvi-dagi institutsional o‘zgarishlar, mamlakat oltin-valyuta va byudjet zaxirasi yetarli ekani, davlat qarzining kamligi singari omillarga alohida e’tibor qaratmoqda.

Jahon banki “Biznes yuritish” xalqaro reytingi doirasida oxirgi bir yil ichida biznes yuritishda engilliklarni nazarda tutuvchi eng ko‘p islohotlarni amalga oshirgan 20 ta davlatni e’tirof etdi. Bular ichida O‘zbekistonda 5ta yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilgan qadamlar alohida tan olindi. Jahon banki O‘zbekistonni oxirgi davrda minoritar investorlarni himoya qilishni mustahkamlagan, soliqlar to‘lash tizimini soddalashtirgan, shartnomalar ijrosini amalga oshirishni kuchaytirgan, shuningdek tashqi savdo yo‘nalishida sezilarli yangiliklar kiritgan davlat sifatida e’tirof etadi. Jahon banki mediatsiya institutini rivojlantirishga qaratilgan qadamlarni ham e’tirof etib, bu borada yagona huquqiy baza shakllanganini va mediatsiyadan foydalanishni rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilganini ta’kidlagan. Bojxona sohasida esa xavf-xatarni tahlil qilish asosida tekshiruvlarni amalga oshirish tartiblari kiritilganini ham ma’qullagan.

Index of Economic Freedom (Iqtisodiy erkinlik indeksi) - mamlakatlarda iqtisodiy erkinlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan bir qator ko‘rsatkichlardan tashkil topgan reyting hisoblanadi. Amerikaning The Heritage Foundation ilmiy-tadqiqot markazi va The Wall Street Journal gazetasi tomonidan reyting ko‘rsatkichlari e’lon qilib boriladi.

Index of Economic Freedom (Iqtisodiy erkinlik indeksi) – 10 ta nazorat ko‘rsatkichlarining o‘rtacha arifmetik qiymatini aniqlash orqali hisoblab topiladi: 1. Mulk huquqi; 2. Korrupsiyadan holilik; 3. Fiskal erkinlik; 4. Hukumat aralashuvi; 5. Tadbirkorlik erkinligi; 6. Mehnat erkinligi; 7. Monetar erkinlik; 8. Savdo erkinligi; 9. Investitsiyalar erkinligi; 10. Moliyaviy erkinlik.

Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha 0 dan 100 gacha bo‘lgan ballar qo‘yib boriladi va umumiy natija jamlanadi. O‘z-o‘zidan ayonki mutloq erkin iqtisodiyotda bu indeks 100 ga teng bo‘lgani holda, erkinlik darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda bu indeks qiymati 0 ga yaqinlashib boradi.

Index of Economic Freedom (Iqtisodiy erkinlik indeksi)ning yakuniy hisobotida reytingga kiritilgan barcha davlatlar to‘plagan reyting ballariga ko‘ra shartli ravishda beshta guruhga ajratiladi:

1. 80 baldan 100 balgacha to‘plagan mamlakatlar-erkin iqtisodiyotga ega bo‘lgan davlatlar;
2. 70 baldan 80 balgacha jamg‘argan mamlakatlar- iqtisodiyoti nisbatan erkin bo‘lgan davlatlar;
3. 60 baldan 70 balgacha to‘plagan mamlakatlar-iqtisodiy erkinligi mo‘’tadil bo‘lgan davlatlar;
4. 50 baldan 60 balgacha to‘plagan mamlakatlar- nisbatan iqtisodiy erkinligi past bo‘lgan davlatlar;
5. 50 baldan past to‘plagan mamlakatlar- mutloq iqtisodiy erkin bo‘lmagan davlatlar.

O‘zbekiston mazkur reytingda dunyo mamlakatlari orasida 2025 yilda 58 bal bilan 100 – o‘rinda qayd etilgan.

The Global competitiveness index (Global raqobatbardoshlik indeksi)- Butunjahon Iqtisodiy Forumi (World Economic Forum) versiyasi bo‘yicha mamlakatlarning iqtisodiy raqobatbardoshlik darajasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish va shu asosda ularning reytingini aniqlashni ko‘zda tutadi.

Butun jahon iqtisodiy forumi milliy raqobatbardoshlikni o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda mamlakat va mavjud institutlarning barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash olish layoqati sifatida tushuntiradi. Tadqiqot mualliflari milliy raqobatbardoshlikning yuqori ko‘rsatkichlariga ega mamlakatlar o‘z fuqarolarining yuksak turmush darajasini ta’min eta oladilar, deb ta’kilaydilar. Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va raqobatni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida mavjud to‘siqlarni bartaraf qilish, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda mamlakatlar Global raqobatbardoshlik indeksidan foydalanishlari tavsiya qilinadi.

Global raqobatbardoshlik indeksi 113 ta ko‘rsatkichdan tashkil topgan bo‘lib, iqtisodiy rivojlanishning turli darajalarida bo‘lgan mamlakatlarning raqobatbardoshlik darajasini tavsiflaydi. Jami ma’lumotlarning uchdan ikki qismi korxona rahbarlari bilan o‘tkazilgan so‘rovlar asosida shakllantirilsa, ma’lumotlarning uchdan bir qismi esa statistik ma’lumotlar va xalqaro tashkilotlar

tomonidan o‘tkaziluvchi tadqiqotlar natijalari asosida shakllantiriladi. Barcha ko‘rsatkichlar milliy raqobatbardoshlik darajasini belgilab beruvchi 12 ta nazorat ko‘rsatkichlari guruhiga birlashtiriladi:

1. Institutlar sifati;
2. Infratuzilma;
3. Makroiqtisodiy barqarorlik;
4. Sog‘liqni saqlash va boshlang‘ich ta’lim;
5. Oliy ta’lim va kasbiy tayyorgarlik;
6. Tovar va xizmatlar bozori samaradorligi;
7. Mehnat bozori samaradorligi;
8. Moliya bozorining rivojlanganlik darajasi;
9. Texnologik taraqqiyot darajasi;
10. Ichki bozor ko‘lami;
11. Kompaniyalarning raqobatbardoshligi;
12. Innovatsion salohiyat.

World Economic Forum: The Global Competitiveness Report 2018 da Markaziy Osiyo davlatlari orasida birgina O‘zbekiston mazkur reytingga kiritilmagan. Bugungi kunda Jahon iqtisodiy forumiga O‘zbekiston nomidan reytingga kirish uchun xat jo‘natilgan.

The Rule of law index (Huquq ustuvorligi indeksi)-dunyo mamlakatlarida huquqiy mezonlarga tayanilgan holda barpo etilgan huquqiy muhitning qay darajada inson huquqlari va erkinliklarining kafolat-lanishiga xizmat qilishini ko‘rsatib beradi. Mazkur indeks The World Justice Project, nodavlat tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan uslubiyot bo‘yicha hisoblanadi va bunda statistik ma’lumotlar va global miqyosda ekspertlik so‘rovlari natijalariga tayaniladi. The Rule of law index 2010 yilda ishlab chiqilgan va u mamlakatlarning huquq ustuvorligini ta’minlash borasida erishgan natijalarini baholash imkonini beradi.

The Rule of law index (Huquq ustuvorligi indeksi) 47 ta ko‘rsatkichdan tashkil topgan bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli darajalarida bo‘lgan

mamlakatlarda xalqaro huquq normalariga rioya qilinishini ko‘rsatib beradi. Barcha ko‘rsatkichlar 8 ta nazorat ko‘rsatkichlari guruhiga birlashtirilgan:

1. Hokimiyat institutlari vakolatining cheklanganligi;
2. Korrupsiyaning mavjud emasligi;
3. Jamoat tartibi va xavfsizlik;
4. Asosiy huquqlarning himoya qilinishi;
5. Hokimiyat institutlarining shaffofligi;
6. Qonunlarga rioya qilish;
7. Fuqarolik sudlovi;
8. Jinoyatlarni odil sudlov qilish.

O‘zbekiston mazkur reytingda 2025 yilda 81-o‘rinda qayd etilgan.

Korrupsiyani qabul qilish indeksi (The Corruption Perceptions Index) - bu davlat sektorida korrupsiyaning tarqalganlik ko‘rsatkichini o‘rganish bo‘yicha global miqyosda amalga oshiriluvchi tadqiqot va shu asosda tuzilgan mamlakatlar reytingi hamdir.

Transparency International xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan taklif etilgan uslubiyot asosida statistik ma’lumotlar va global ko‘lamda o‘tkazilgan so‘rovlarga tayanilib mazkur indeks hisoblanadi va mamlakatning global reytingdagi o‘rni aniqlanadi. Mazkur indeks qiymati 0 va 100 oralig‘ida joylashgan bo‘lib, indeks qanchalik 0 ga yaqinlashsa, bu mamlakatda korrupsiyaning haddan tashqari kuchayganligini ko‘rsatadi. Indeksning 100ga yaqinlashib borishi mamlakatda korrupsiya darajasi kamayib borayotganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston ushbu indeksda 2025 yilda 180 davlat va hududlar orasida 121-o‘rinni egalladi.

Inson taraqqiyoti indeksi (Human Development Index)- bu dunyo mamlakatlarida inson taraqqiyotini aks ettiruvchi ko‘p qirrali ko‘rsatkich hisoblanadi. Mazkur indeks har yili BMTning Taraqqiyot dasturi ekspertlari va mustaqil xalqaro ekspertlar ko‘magida hisoblab chiqiladi. Tadqiqotlar natijasi har yili BMTning Taraqqiyot dasturi tomonidan turli maxsus ma’ruzalar ko‘rinishida chop etib boriladi. Insonning baxtli va uzoq umr kechirishi, tabiat va jamiyat

yaratgan moddiy, nomoddiy va ijtimoiy ne’matlardan bahramand bo‘lib yashashi Inson taraqqiyoti kontseptsiyasining asosini tashkil etadi.

Inson taraqqiyoti indeksi- bu u yoki mamlakat aholisining insoniy taraqqiy etish darajasini ko‘rsatadi, shuning uchun ham ko‘pchilik holatlarda uni “turmush sifati” yoki “turmush darajasi” kabi ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda qo‘llashga harakat qiladilar. ITI mamlakat aholisining sog‘liq darajasi, ta’lim olish imkoniyatlari va amaldagi daromadlari nuqtai nazaridan mazkur mamlakat erishgan natijalarni o‘lchash imkonini beradi va bunda quyidagi uchta indeksdan foydalaniladi:

1. Kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi indeksi;
2. Savodxonlik darajasi indeksi;
3. Yalpi milliy daromad indeksi.

Inson taraqqiyoti indeksi (ITI) human development index (HDI) ni hisoblash natijalariga ko‘ra- ITI o‘ta yuqori bo‘lgan, ITI yuqori, ITI o‘rtacha va ITI past bo‘lgan mamlakatlar farqlanadi. 2025 yilda O‘zbekiston ITI bo‘yicha 193 ta mamlakat orasida 107-o‘rinda qayd qilingan.

The Democracy index (Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi) - dunyo mamlakatlarida demokratik islohotlarning amalga oshirilishi va bu borada erishilgan natijalarni aks ettiruvchi reyting ko‘rsatkichi hisoblanadi. Mazkur indeks Buyuk Britaniyaning The Economist Intelligence Unit. xalqaro tadqiqot markazining uslubiyoti bo‘yicha hisob-kitob qilinadi.

Jahon mamlakatlarining demokratiyasi indeksi 60 ta asosiy ko‘rsatkichlardan tashkil topgan bo‘lib, mazkur ko‘rsatkichlar beshta asosiy guruhga birlashtirilgan. Bu ko‘rsatkichlar mamlakat ichidagi demokratik jarayonlarni, xususan: Saylovlar jarayoni va plyuralizm; Hukumat faoliyati; Siyosiy jarayonlarda fuqarolarning ishtiroki; Siyosiy madaniyat; Fuqarolarning huquq va erkinliklarini baholashga xizmat qiladi.

2024 yilda O‘zbekiston mazkur indeks reytingida 167 ta dunyo mamlakatlari orasida 148-o‘rinni egallagan.

Worldwide Press Freedom Index / Butunjahon matbuot erkinligi indeksi – dunyo mamlakatlarida matbuot erkinligining holati borasidagi vaziyat va uni aks ettiruvchi o‘ziga xos reyting hisoblanadi. Matbuot erkinligi va jurnalistlarning haq-huquqlarini himoya qiluvchi Chegara bilmas reportyorlar xalqaro nodavlat tashkiloti (Reporters Without Borders) mazkur reytingni yuritadi. Mazkur xalqaro nodavlat tashkiloti so‘z erkinligi va o‘zini namoyon qilish borasida muammolarga duch keluvchi jurnalistlar, yozuvchilar va shunga o‘xshash shaxslarning huquqlarini himoya qilish va bu borada huquqbuzarliklarni qayd qiluvchi So‘z erkinligining ta’minlanganlik holati bo‘yicha axborotlar almashishning Xalqaro tarmog‘i (Freedom of Expression Exchange Network, IFEX) ning a’zosi hisoblanadi.

Erkin matbuot indeksi barcha turdagi ommaviy axborot vositalari va tashkilotlari jurnalistlarining erkinlik darajasini baholaydi. Bunda u yoki bu mamlakat hukumatining ommaviy axborot vositalari va nashrlariga bo‘lgan munosabati, ularning matbuot erkinligini ta’minlashga bo‘lgan xatti-harakatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu indeks dastlab 2002 yilda 139 ta mamlakatni qamrab olgan holda tuzilgan va dunyo hamjamiyatiga taqdim etilgan. Tadqiqotlar ekspert baholashlariga asoslangan bo‘lib, tashkilot mutaxassislari 43 ta asosiy ko‘rsatkichlar asosida u yoki bu mamlakatda matbuot erkinligining ta’minlanganlik holatiga baho beradilar. Indeks davlatlarni to‘plagan ballariga qarab reyting ro‘yxatiga kiritadi. Bunda 0 ball-eng yaxshi ko‘rsatkich sifatida baholansa va u mamlakatda matbuot erkinligi mutloq ta’min etilganligini ko‘rsatsa, reyting ballarining 0 dan ortib borishi mazkur mamlakatda matbuot erkinligi buzilayotganligidan dalolat beradi. Tashkilot ekspertlari mazkur indeks har bir mamlakatdagi matbuot va so‘z erkinligini to‘liq va aniq aks ettiradi, deb hisoblaydilar. Worldwide press freedom index / butunjahon matbuot erkinligi indeksi reytingida O‘zbekiston 2024 yil 180 mamlakat o‘rtasida 53,2 ball to‘plagan holda 148 o‘rinda qayd etildi.

Logistika samaradorligi indeksi (Logistics performance index)ning maqsadi logistika tizimining qulayligini aniqlash yo‘li bilan mamlakatlarga savdo logistikasi samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi muammolarni aniqlash va ularni hal

etish imkoniyatlarini izlab topishda ko‘maklashishdan iborat. Mahalliy va xalqaro ekspeditorlik kompaniyalari operatorlari o‘rtasida so‘rovga o‘tkazishga asoslangan holda, logistika samaradorligi indeksi dunyoning 155 ta mamlakati logistika tizimlarining qulayligini baholaydi. Indeksni aniqlashda ham miqdor va ham sifat ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Mazkur indeks mamlakatlar logistika tizimlari o‘rtasida o‘zaro yaqinlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi. Mazkur indeks logistika xizmatlari zanjirining barcha bo‘g‘inlari bo‘yicha mamlakat logistika tizimiga ham milliy va ham xalqaro darajada baho beradi.

Logistika samaradorligi indeksi- bu oltita asosiy tashkil etuvchilarni o‘z ichiga olgan yaxlit ko‘rsatkich logistika sektori faoliyati samaradorligining jamlanma ko‘rsatkichidir. Bu ko‘rsatkichlar sirasiga quyidagilar kiradi:

1.bojxona organlari ishining samaradorligi;

2.infratuzilma sifati;

3.xalqaro yuk tashishlarni tashkil etishning osonligi;

4.logistika xizmatlarining sifati va kompitentligi;

5.yuklarni kuzatib borish imkoniyati;

6.yetkazib berish muddatlariga rioya etilishi.

O‘zbekiston logistika samaradorligi indeksida 2025 yilda 107 - o‘rinda qayd etilgan.

The UN Global E-Government Development Index (Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ikki yilda bir marta mamlakat fuqarolarining davlat xizmatlaridan qay tariqa samarali foydalana olish imkoniyatiga ega ekanliklarini aniqlash maqsadida tuzib chiqiladi. Bunda asosiy urg‘u davlat xizmatlarini taqdim etish va ulardan foydalanishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasiga beriladi. Mazkur indeksni hisoblashda davlat idoralari tomonidan AKTdan keng foydalanilishiga asosiy e’tibor qaratilgani holda quyidagi uchta tashkil etuvchi indeksni hisoblashning asosini tashkil etadi:

1.Internet xizmatlari bilan qamrab olish va ularning sifati;

2.AKT-infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi;

3.Inson kapitali.

O‘zbekiston 2025 yilda mazkur reytingda 195 ta mamlakat orasida 63 – o‘rinda qayd etilgan.

Statistik salohiyat- bu mamlakatning o‘z aholisi va iqtisodiyoti to‘g‘risida yuqori sifatli ma’lumotlarni jamlay olish, tahlil qila olish va tarqata olish salohiyatini ifoda etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni monitoring qilish, davlat resurslari va vakolatlarini taqsimlash, xalqaro hamja-miyatni mamlakatda amalga oshirilayotgan dasturlar va siyosat to‘g‘risida xabardor qilish kabi aniq ma’lumotlarga asoslangan holda, boshqaruv jarayonlarining har bir bosqichida qarorlar qabul qilishda statistik ko‘rsatkichlarning sifati alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon bankining statistik salohiyat ko‘rsatkichi mamlakat statistika tizimi salohiyatini baholovchi jamlanma ko‘rsatkich hisoblanadi. U uslubiyot, ma’lumotlar manbai, ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etilishi va ularning davriyligi kabi sohalarni baholashning diagnostik tuzilmasiga asoslanadi. Mamlakatlar mazkur sohalarga mansub bo‘lgan 25 ta mezon bo‘yicha tegishli ma’lumotlar asosida baholanadilar. Baholash 0 va 100 oralig‘ida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston 2024 yilda mazkur reytingda 201 ta mamlakat orasida 92 – o‘rinda qayd etilgan.

United Nations Industrial Development Organization (UNIDO) tomonidan hisoblanuvchi Sanoat raqobatbardoshligi indeksi (Competitive Industrial Performance Index (CIP) dunyo mamlakatlarining raqobatbardoshlik darajasini belgilab beruvchi jamlanma indekslar orasida eng yoshi hisoblanadi. Uning paydo bo‘lganiga qariyb 10 yil bo‘lganiga qaramasdan, undan mamlakatlar sanoat raqobatbardoshligini baholashda World Economic Forum (WEF) va International Institute for Management Development (IMD) tomonidan ishlab chiqilgan indekslar qatorida foydalanilib kelinmoqda. CIP mamlakatlarning raqobatlasha oladigan darajada qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qila olish layoqatlarini ko‘rsatib beradi. UNDP mutaxassislarining fikricha raqobatbardoshlik ko‘p qirrali tushuncha va jarayon bo‘lganligi sababli u iqtisodiy o‘sishga nisbatan iqtisodiyotda bo‘layotgan

jarayonlarni to‘la-to‘kis tavsiflab beradi. Raqobatbardoshlik o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotning ma’lum bir rivojlanish sur’atlarini ta’min eta olish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Shu sababli ham sanoat raqobatbardoshligi indeksi asosiy e’tiborni qayta ishlovchi sanoat tarmog‘iga qaratadi.

O‘zbekiston 2024 yilda mazkur reytingda 153 ta mamlakat orasida 87 – o‘rinda qayd etilgan.

Investitsiyalarning tartibga solinishini cheklanganligi indeksi, dastlab 2003 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan hisoblab chiqilgan bo‘lib, u milliy iqtisodiyotning soha va tarmoqlariga investitsiya kiritayotgan xorijiy investorlar uchun milliy qonunchilikda u yoki bu ko‘rinishdagi cheklovlar mavjud yoki mavjud emasligini baholash imkonini beradi.

Baholash 4 ta guruh bo‘yicha amalga oshiriladi:

1.Tarmoq korxonalarida ulushli ishtirok etishga cheklovlar;

2.Tekshirish va ruxsat berishlarning zarurati;

3.Asosiy personal (rahbar va zaruriy mutaxassislar)ni yollashga cheklovlar;

4.Xorijiy korxonalar uchun boshqa cheklovlar (er, kapital, daromad va foydani taqsimlash va shu kabilar).

Cheklovlar darajasi va ularning ko‘lamidan kelib chiqqan holda baholashlar amalga oshiriladi. Tarmoqlar bo‘yicha baholashlar o‘tkazilib bo‘lingandan so‘ng, mamlakat iqtisodiyoti bo‘yicha o‘rtacha ball chiqariladi.

O‘zbekiston 2024 yilda mazkur reytingda 84 ta mamlakat orasida 43 –o‘rinda qayd etilgan.

Innovatsiyalar global indeksi (The Global Innovation Index)- innovatsiyalarning rivojlanganlik darajasi ko‘rsatkichi bo‘yicha mamlakatlarni tadqiq qilish va tadqiqot natijalari asosida mamlakatlar reytingini tuzishni ko‘zda tutadi. Mazkur indeks 2007 yildan buyon INSEAD xalqaro biznes maktabi, Kornell universiteti (Cornell University) va Butun jahon intellektual mulk tashkiloti (World Intellectual Property Organization, WIPO) tomonidan tavsiya etilgan uslubiyot asosida hisoblab kelinmoqda va u bugungi kunda mamlakatlarning innovatsion taraqqiyot darajasini to‘laligicha baholash imkonini beradi. Innovatsiyalar global

indeksi (The Global Innovation Index) 82 ta o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlardan tashkil topgan bo‘lib, iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida bo‘lgan mamlakatlarning innovatsion taraqqiyotni ta’minlash borasida erishgan natijalarini baholash imkonini beradi. Tadqiqot mualliflari mamlakatda qanchalik innovatsion taraqqiyotga intilish kuchli bo‘lsa, mamlakat shunchalik iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanadi, deb hisoblaydilar.

O‘zbekiston 2025 yilda mazkur reytingda 193 ta mamlakat orasida 79 – o‘rinda qayd etilgan.

Governance Matters (Davlat boshqaruvining sifati) -bu davlat boshqaruvining samaradorligi va sifati borasida mamlakatlar ko‘rsatkichini o‘zida jamlagan tadqiqot va mazkur tadqiqot natijalari asosida tuzilgan reyting hisoblanadi. Davlat boshqaruvi sifati indikatori Jahon banki (The World Bank) uslubiyoti asosida turli manbalardan olinadigan yuzlab ma’lumotlarni tahlil qilish asosida mazkur indikator hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi sifati (Worldwide Governance Indicators)ni tadqiq qilishda davlat boshqaruvining turli jihatlarini o‘zida aks ettiruvchi oltita turli xil indekslardan foydalaniladi:

1. Aholi fikrini inobatga olish va davlat idoralarining hisobdorligi (Voice and Accountability) indeksi turli siyosiy jarayonlar, fuqarolarning erkinliklari va siyosiy huquqlarining turli jihatlarini o‘lchaydi.

2. Siyosiy barqarorlik va tazyiqlarning yo‘qligi (Political Stability and Absence of Violence) indeksi davlat boshqaruvi institutlarining va siyosiy tuzumning barqarorligi, davlat hokimiyatini konstitututsiyada ko‘zda tutilmagan yo‘llar bilan ag‘darishga va mamlakatdagi siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga bo‘lgan intilishlarning ehtimollik darajasini o‘lchaydi.

3. Hukumat faoliyatining samaradorligi (Government Effectiveness) indeksi davlat xizmatlarining sifati, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ichki siyosatga aholining ishonchi, davlat apparatining samarali faoliyat ko‘rsatishi, davlat xizmatchilarining kompiten-tsiyalari, ularning turli siyosiy tazyiqlardan holi ekanliklarini baholaydi.

4. Qonunchilik sifati (Regulatory Quality) - xususiy sektorning jadal rivojlanishiga imkon beruvchi qonun hujjatlarini ishlab chiqish borasida hukumatning qay darajada layoqatli ekanligini baholash imkonini beradi.

5. Qonun ustuvorligi (Rule of Law) indeksi turli subyektlarning o‘rnatilgan qonunchilik normalariga nisbatan ishonch bildirishi va shuningdek ularning mazkur me’yorlarga rioya qilishlarini, jinoyatchilik darajasini, jamiyatning jinoyatchilikka bo‘lgan munosabatini, huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatining samaradorligini baholaydi.

6. Korrupsiyani jilovlash (Control of Corruption) indeksi hukumat idoralari va keng jamoatchilikning korrupsiyaga bo‘lgan munosabatlari, jamiyatda korrupsiyaga qarshi olib borilayotgan tadbirlarning samaradorligini o‘lchashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston 2024 yilda mazkur reytingda 211 ta mamlakat orasida 133 – o‘rinda qayd etilgan.

Byudjet ochiqligi indeksi (Open budget index) 1990 yilda asos solingan bugungi kunda shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan nufuzli xalqaro nodavlat tashkiloti (International Budget Partnership)tomonidan e’lon qilib boriladi. Bu boradagi tadqiqotlar doimiylik tavsifiga ega bo‘lib, har ikki yilda bir marta e’lon qilib boriladi. Byudjet ochiqligi indeksini tuzishda uchta asosiy omil: byudjetga tegishli ma’lumotlardan keng jamoatchilikning xabardorligi; byudjet jarayonlarida keng jamoatchilikning ishtiroki va byudjet jarayonlarini nazorat qilishda rasmiy nazorat idoralari, shu jumladan qonunchilik institutlari va davlat taftish va nazorat idoralari faoliyatining samaradorligiga alohida e’tibor qaratiladi. Byudjet ochiqligiga doir ma’lumotlarni jamlashda 145 ta savolni o‘z ichiga olgan anketa so‘rovnomasidan foydalaniladi.

O‘zbekistonning xalqaro indeks va reytinglardagi bugungi kundagi o‘rnini tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, qayerda aql va ilm talab qilinsa, o‘sha joyda mamlakatimizning o‘rni juda past darajada, yurtimizga ato etilgan bebaho resurslar bo‘yicha esa mamlakatimiz dunyo reytinglarida yuqori pog‘onalarni egallaydi. Shu

bois, barcha ishlarimizni aql va ilmga tayanib amalga oshirsak, mamlakatimizning dunyo reytinglaridagi o‘rnini yaxshilashga erishishimizga shubha yo‘q.

Qisqacha xulosalar

1. Jahon tajribasi barcha sohalarda sifatli o‘sishni ta’minlovchi yangiliklarni uzluksiz tarzda amaliyotga joriy etish jamiyat va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanganligini ko‘rsatmoqda. Bugun rivojlanishning innovatsion modellari va “aqlli” texnologiyalar amalga oshirilayotgan mamlakatlar eng muvaffaqiyatli va barqaror hisoblanadi. Bunday mamlakatlarning barqaror taraqqiyoti, ularning jahon bozorlarida raqobatbardoshligi tabiiy resurslarni eksport qilish va jismoniy mehnatdan foydalanishga emas, balki innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarga asoslanadi.

2. Bugungi kunda O‘zbekistan iqtisodiy holati uchun mos keladigan “innovatsion muhit” iborasi bo‘lg‘usi innovatsiyalar uchun korxonalar jozibadorligini tavsiflaydi. Innovatsion muhitni baholashda odatda bir qator parametr yoki belgilar qo‘llaniladi. Mazkur parametrlar davlatning innovatsiyalarni joriy etish salohiyati va ularni amalga oshirish tavakkalini tavsiflovchi belgilardir. Ularning eng asosiylari quyidagilardir: siyosiy barqarorlik; makroiqtisodiy holat; innovatsion faoliyat huquqiy asoslari; soliq tizimi sifati va soliqqa tortish darajasi; bank tizimi va boshqa moliyaviy institutlar holati va ishonchliligi; infrastrukturaning rivojlanish darajasi; hamkorlar tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilishi; davlat boshqaruv tizimi.

3. Innovatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun zarur sharoitlar quyidagilar hisoblanadi:

-zarur jarayon sifatida qaraladigan yangiliklarni izlash va o‘zlashtirishni rag‘batlantiruvchi ma’qul sharoitni yaratish. Innovatsion bo‘g‘inlarda faoliyat yuritadigan ishlovchilarni rag‘batlantirish innovatsion jarayon iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilmog‘i lozim;

-innovatsion faoliyatning nufuzli yo‘nalishlarini strategik reja asosida aniqlash lozim, bunda innovatsiyalarni tashkil etishda yetakchi rolni yuqori boshqaruv rahbariyati o‘ynaydi;

-butun innovatsion faoliyatni bozor ehtiyojlariga yo‘naltirish;
-innovatsion tarkibni rivojlantirishni hisobga olgan holda korxonani boshqaruv tizimini qayta tashkil etish.

Nazorat savollari

1. Davlat innovatsion siyosatining mohiyati va uni amalga oshirishdan ko‘zlangan asosiy vazifalarni tushuntirib bering?
2. Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish borasida to‘siq bo‘layotgan asosiy muammolar nimalardan iborat?
3. Innovatsion muhit tushunchasini sharhlab bering?
4. Milliy innovatsion tizim nima?
5. Milliy iqtisodiyot darajasida innovatsion faoliyat samaradorligini belgilab beruvchi asosiy ko‘rsatkichlarni sanab bering?
6. Mamlakatimizda innovatsion faoliyatning rivojlanganlik darajasi qanday? Uni yanada rivojlantirish uchun nima ishlar qilish lozim, deb o‘ylaysiz?

Jamiyatda boylarga qaraganda, pul haqida eng ko‘p o‘ylovchi sinf-bu kambag‘allardir. Zero, ularda puldan boshqa o‘ylaydigan narsaning o‘zi yo‘q. Kambag‘allikning muammosi ham, aynan shundadir...

Ingliz yozuvchisi va shoiri Oskar Uayld.

XII BOB. MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-DEMOGRAFIK JIHATLARI

12.1. Demografik sohadagi tahdidlar. Demografik jarayonlarni baholash usullari va demografik xavfsizlik ko‘rsatkichlari tizimi

12.2. Ijtimoiy sohadagi tahdidlarni tizimlashtirish va baholash

12.3. Qashshoqlik chegarasi va darajasi, aholi daromadlarining tabaqalanishini o‘rganish usullari

Tayanch tushuncha va iboralar: demografiya, ijtimoiy-demografik xavfsizlik, demografik xavfsizlik ko‘rsatkichlari, aholining tabiiy o‘sishi, ishchi kuchi migratsiyasi, qashshoqlik, kambag‘allik, ochlik darajasi, daromadlarning tabaqalanishi.

Qisqacha sharh

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash nafaqat moliyaviy va ishlab chiqarish salohiyatiga, balki ijtimoiy-demografik omillarga ham bevosita bog‘liq. Aholi soni, uning tarkibi, ishchi kuchining malakasi, bandlik darajasi va ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlikni belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardir. Shu nuqtai nazardan, demografik jarayonlarni baholash va ularni kuzatish tizimi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasini shakllantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Demografik xavfsizlik ko‘rsatkichlari aholi o‘sish sur’ati, migratsiya oqimlari, tug‘ilish va o‘lim darajasi, ishchi kuchi tarkibi kabi parametrlarni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatning mehnat resurslari salohiyatini, ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan talabni va ijtimoiy barqarorlikni oldindan baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, demografik jarayonlardagi muammolar - masalan, yoshlar va ishchi kuchining yetishmasligi, aholi qariyishi yoki migratsiya oqimlarining nomutanosibligi - iqtisodiy xavfsizlik uchun tahdid sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy sohadagi tahdidlar esa qashshoqlik darajasi, daromadlarning tengsiz taqsimlanishi, bandlikning pastligi va ijtimoiy himoya tizimlarining yetarli emasligi bilan bog‘liq. Ushbu omillarni tizimli ravishda baholash va monitoring qilish orqali davlat ijtimoiy siyosatni shakllantiradi, aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash choralarini belgilaydi.

Shuningdek, qashshoqlik chegarasi va darajasini aniqlash, aholi daromadlarini tabaqalashtirishni o‘rganish usullari ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni baholashning muhim qismi hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlar asosida davlat siyosati kam ta’minlangan qatlamlarga yordam berish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga yo‘naltiriladi.

Jahondagi demografik o‘zgarishlar

2026-yildan 2050-yilgacha jahondagi aholi soni 7,7 milliarddan 9,7 milliardgacha o‘sishi kutilmoqda. Aslida, yil oxirigacha, hatto tug‘ilish darajasi pasayib borayotganiga qaramay, aholi soni rekord darajaga yetib, 11 milliardga yaqinlashadi. Shu davrda tobora ko‘proq odamlar shaharlarni yashash joyi sifatida tanlaydi, va besh yoshgacha bo‘lgan bolalar soni 65 yosh va undan katta odamlardan kam bo‘lishi kutilmoqda.

Aholi o‘sishining yarmi 2050-yilgacha faqat to‘qqizta mamlakatga to‘g‘ri keladi: Hindiston, Nigeriya, Pokiston, Kongo Demokratik Respublikasi, Efiopiya, Tanzaniya, Indoneziya, Misr va AQSh (aholi soni bo‘yicha kamayish tartibida). Shuningdek, Sahrodan janubiy Afrikadagi aholi soni deyarli ikki barobar oshadi, Yevropa esa aholisi kamayishi mumkin.

Ba’zi hududlarda 15–24 yoshdagi yoshlar aholi tarkibining katta va tez o‘sayotgan qismi hisoblanadi. Sahrodan janubiy Afrikada ishchi yoshdagi aholi (25–64 yosh) boshqa yosh guruhlariga nisbatan tez o‘sadi. Shuningdek, Osiyo va Lotin Amerikasi hamda Karib havzasida yoshlar soni oshishi kuzatiladi.

Ishchi yoshdagi aholining o‘sishi “demografik dividend”ni yaratadi va iqtisodiy o‘sishga imkon beradi. Shu bilan birga, yoshlar sonining ko‘payishi davlat moliyaviy tizimiga bosim keltirishi, ularni qo‘llab-quvvatlash va xizmat ko‘rsatishda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Hozirgi kunda 65 yosh va undan katta odamlar eng tez o‘sayotgan guruhdir. 2018-yilda dunyoda birinchi marta besh yoshgacha bo‘lgan bolalardan keksa aholi ko‘paydi, va 2050-yilda ular 15–24 yoshdagi yoshlar sonidan ham ko‘p bo‘ladi. Yevropa va Sharqiy Osiyo kabi hududlarda keksa aholiga xizmat ko‘rsatish muammosi allaqachon mavjud. Kutilayotgan umr davomiyligi oshgani sayin, keksa odamlar jamiyat va iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini moslashtirish zarur.

Xalqaro migratsiya insonlarga yangi imkoniyatlar yaratadi. 2019-yilda dunyoda 272 million xalqaro migrant yashagan, bu global aholi sonining 3,5 foizini tashkil etadi (2000-yilda 2,8 foiz edi). Ko‘pchilik migrantlar Osiyo davlatlarida yashaydi, lekin oxirgi yillarda eng tez o‘sish Afrikada kuzatilmoqda.

Migratsiya sabablari: ish qidirish, ta’lim olish, oilaviy sabablar, shuningdek zo‘ravonlik, ta’qib va iqlim o‘zgarishlari tufayli majburiy ko‘chish. 2018-yilda majburiy ko‘chirilgan shaxslar soni 70 milliondan oshdi, ularning 26 millioni qochqinlar. Qochqinlarning 80 foizi o‘z mamlakatlariga qo‘shni davlatlarda yashaydi.

Xalqaro migratsiya bilan bog‘liq muammolarni hal qilish maqsadida 2018-yilda xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya bo‘yicha Global shartnoma qabul qilindi. Bu huquqiy majburiyatga ega bo‘lmagan, lekin strategik reja sifatida xizmat qiluvchi hujjatdir.

2009-yilgacha qishloq joylarda aholi ko‘p edi. Hozirgi kunda dunyo aholisi taxminan 55 foizi shaharlarda yashaydi, 2050-yilgacha esa bu ko‘rsatkich 70 foizga yetadi. Shahar aholisining o‘sishi asosan Osiyo va Afrikaga to‘g‘ri keladi, xususan Xitoy, Hindiston va Nigeriyada, chunki u yerda tug‘ilish darajasi yuqori.

Urbanizatsiya boshqaruvni talab qiladi. Shaharlar dunyo yer maydonining 2 foizini egallasa ham, 80 foiz global yalpi ichki mahsulot (GDP) va 70 foiz karbonat angidrid chiqindilarini tashkil qiladi. Shaharlarning tez o‘sishi turar joy, infratuzilma, transport va xavfsizlik muammolarini keltirib chiqaradi. Taxminan 1 milliard odam shahar kambag‘allari bo‘lib, asosan norasmiy shaharlik joylarda yashaydi.

Hisob-kitoblarga koʻra, kelgusi uch oʻn yillikda Oʻzbekiston aholisi dinamik oʻsadi va 2030 yilda 41 million kishidan oshadi, 2040 yilda 46 million, 2050 yilda esa 50 million kishiga yetadi. Umuman olganda, 2022-2050 yillarda mamlakat aholisi 41 foizga oshadi. Prognoz qilinayotgan davr davomida aholi tabiiy oʻsishi asosiy tarkibiy komponent boʻlib qoladi, bu yuqori tugʻilish darajasi va nisbatan past oʻlim koʻrsatkichlari bilan tavsiflanadi.

Ichki va tashqi migratsiya hajmlari ortadi. Shu bilan birga, 2030 yilgacha salbiy migratsiya balansining oʻsishi kutiladi, 2030-2050 yillarda esa u past darajada (40 ming kishi) barqarorlashadi. Migratsiya jarayonlarida ketayotganlar (emigrantlar) soni kelayotganlar (immigrantlar) sonidan ustun boʻlishi prognoz qilinmoqda. Aholining hududiy harakatlarida yosh ishchi yoshdagi shaxslarning yuqori mobilizatsiyasi kuzatiladi.

Oʻzgarishlar nafaqat aholi sonida, balki uning yosh tarkibida ham kuzatiladi. Shu tariqa, 2022-2050 yillarda 15 yoshgacha boʻlgan aholi soni 0,9 millionga oshadi. Shu bilan birga, 2022-2035 yillarda ushbu yosh guruhining soni 13,6 millionga yetadi, keyingi davrda esa 12,3 millionga kamayadi, umumiy aholidagi ulushi 31,7 foizdan 24,2 foizgacha pasayadi.

Ishchi yoshdagi aholi prognoz davri davomida oʻsishda davom etadi va 2050 yilda 28,3 million kishiga yetadi, ya’ni 7,8 milliondan ortiq oshadi. Shu bilan birga, 2025-2050 yillarda uning ulushi yuqori darajada saqlanib qoladi (56 foiz) va deyarli kamaymaydi. Bu esa mamlakatimizda ishchi resurslar bilan bogʻliq nisbatan qulay vaziyat mavjudligini koʻrsatadi, bu esa oʻz navbatida ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va oxir-oqibat aholining farovonligini oshirish uchun mustahkam va uzoq muddatli asos yaratadi.

Ishchi yoshdan katta aholi prognoz davrida eng tez oʻsadigan guruhga aylanadi, uning soni dastlabki 4,1 milliondan 2050 yilda 10,1 million kishiga, ya’ni 2,5 martadan ortiq oshadi, umumiy aholidagi ulushi esa 11,3 foizdan 20 foizgacha yetadi. Shu bilan birga, aholining oʻrtacha yoshi oshishi kutilmoqda.

Manba: https://www.un.org/ru/un75/shifting-demographics

12.1. Demografik sohadagi tahdidlar. Demografik jarayonlarni baholash usullari va demografik xavfsizlik ko‘rsatkichlari tizimi

Ijtimoiy-demografik xavfsizlikni tadqiq qilishi hududlarni rivojlantirishning mumkin bo‘lgan istiqbollarini belgilab beruvchi asosiy masalalardan biridir. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda hududlarning ijtimoiy-demografik xavfsizligini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar mavjud. Ushbu kategoriyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u inson faoliyatining barcha sohalariga faol ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-demografik xavfsizlik deyilganda shunday holat va uning o‘zgarishi tendentsiyalari tushuniladiki, bunda hududda (davlat, mintaqa) aholining ko‘payishi va munosib yashash sharoitlari va shaxsiy rivojlanish jarayonlarining barqarorligi ta’minlanadi[71].

Ijtimoiy va demografik xavfsizlik quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- aholining tabiiy ko‘payishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni doimiy ravishda tartibga solish (yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan minimal darajadan past emas), bu esa o‘z navbatida yaqin o‘n yillikda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish imkonini beradi;



- millat sog‘lig‘ini yuqori darajada saqlash va qo‘llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratish, xavfli kasalliklar tarqalishining oldini olish borasida sanitariya-epidemiologiya me’yorlariga qat’iy rioya qilish;

- zamonaviy dunyo standartlariga javob beradigan, munosib turmush darajasi va turmush darajasini saqlab qolish uchun sharoit yaratish, bu o‘z navbatida

[71] Татаркин А.И. Социально-демографическая безопасность регионов России: текущее состояние и проблемы диагностики/ А.И.Татаркин, А.А.Куклин, А.В.Черепанова// Экономика региона.2008.С.154-162.

aholining populyatsiyasining saqlanib qolishi va barqaror iqtisodiy o‘sishga yordam beradi;

- shaxsning xavfsizligiga va uning to‘liq rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan zarur bo‘lgan sifat ko‘rsatkichlariga javob beradigan ijtimoiy muhit (jinoyatchilikka qarshi kurashish, hayot faoliyati xavfsizlik va boshqalar);

- aholining hududlardan migratsiyasini cheklab qo‘yadigan va ruxsat etilgan chegaralar doirasida migratsiya oqimini saqlab turadigan sharoitlar yaratish[72].

Demografik xavfsizlik haqida gap ketganda, ijtimoiy, iqtisodiy, milliy, innovatsion, sarmoyaviy, epidemiologik va ekologik, moliyaviy va soliq xavfsizligi va boshqa shu kabi kategoriyalarning inson kapitali sifati bilan o‘zaro bog‘liqligi nazarda tutiladi. Demak, demografik xavfsizlik – bu inson hayotining barcha segmentlari va sohalarini qamrab oladigan kategoriyadir[73], deb ta’riflashimiz mumkin.

Ko‘pincha ijtimoiy va demografik xavfsizlik kategoriyalari alohida qarab chiqiladi. Tadqiqotlarda “demografik xavfsizlik” kategoriyasi har xil nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi.

Demografik xavfsizlik darajasini demografik muvozanat va aholining maqbul soni nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish mumkin.

Aholining maqbul soni deyilganda “kutilayotgan va imkoniyat darajasida bo‘lgan aholining eng maqbul bo‘lgan soni” tushuniladi. Aholining maqbul soni nazariyasi demografik bosim va aholining turmush kechirish uchun zarur bo‘lgan vositalar bilan ta’minlanganlik darajasi muammolarini yoritib beradi. A. Sovining fikriga ko‘ra, aholining maqbul sonini aniqlash uchun odamlar intilishi mumkin bo‘lgan: farovonlik; bandlik; kuch; sog‘liq, madaniyat, bilim; aholi soni kabi maqsadlarni hisobga olish lozim. Demografik xavfsizlikning maqsadi – demografik tahdidlarning oldini olish va zararsizlantirish uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

---

[72] Куклин А.А. Социально-демографическая безопасность регионов России: подходы к диагностике ситуации /А.А.Куклин // Известия УрГЭУ.2008.№3(22). С.85-93.

[73] Карманов М.В. Демографическая безопасность: теория, методология, оценка/М.В.Карманов, О.Кучмаева, О.Л. Петрякова //Экономика, статистика и информатика.2015.№4.С.123-128

Demografik tahdidlar-demografik sohaning faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan va demografik rivojlanishning milliy va (yoki) mintaqaviy maqsadlariga zid keladigan, davlatning yaxlitligi, mustaqilligi va suverenitetiga dahl qiluvchi hodisalar, tendensiyalar va harakatlar majmuini ifoda etadi[74].

Depopulyatsiya, aholining qarishi, tartibga solinmagan migratsiya jarayonlari, aholi salomatligi holati, aholi soni, oila institutining tanazzulga uchrashi, aholining etno-demografik tarkibi kabilarni demografik tahdidlar sirasiga kiritishimiz mumkin[75].

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari va jamiyat hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan oqibatlarga quyidagilar kiradi:

- shakllangan salbiy tabiiy o‘sish (aholining depopulyatsiyasi) natijasida uzoq muddatli istiqbolda hudud aholisining qisqarishi;

- aholining oddiy ko‘payishini ta’minlay olmaydigan tug‘ilishning past darajasi, shuningdek ko‘p sonli abortlar nafaqat tug‘ilishning hozirgi darajasini pasaytirib yuboradi, balki kelajakda reproduktiv salomatlikning yomonlashishiga olib keladi;

- umr ko‘rish davomiyligining qisqaligi (ayniqsa erkaklarda);

- populyatsiyaning mexanik va tabiiy harakati natijasida yosh va jins tarkibidagi salbiy o‘zgarishlar; mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagi aholi ulushining muttasil o‘sib borishi sharoitida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni va ulushining kamayishi;

- kasallanishning ko‘payishi, reproduktiv va ruhiy salomatlikning yomonlashishi, alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar tufayli inson resurslari sifatining yomonlashishi;

---

[74] Гордиенко.О.И. Исследование проблемы обеспечения демографической безопасности Витебской области/О.И.Гордиенко//Вестник Полоцкого государственного университета. Серия D 2011.№14. С.9-18.

[75] Гордиенко.О.И. Исследование проблемы обеспечения демографической безопасности Витебской области/О.И.Гордиенко//Вестник Полоцкого государственного университета. Серия D 2011.№14. С.9-18., Соболева С.В. Демографическая безопасность России: региональные измерители, оценка результатов/С.В.Соболева, Н.Е.Смирнова, О.В.Чудаева//Мир новой экономики.2016.№4.С.142-153.

- nikoh va oilaviy munosabatlarning o‘zgarishi, oilaviy qadriyatlarning o‘zgarishi natijasida kelib chiquvchi ajralishlarning yuqori darajasi, to‘liq bo‘lmagan oilalar, nikohsiz tug‘ilishlar, farzandsiz va kam farzandli oilalarning ko‘payishi, ijtimoiy etimlik va boshqalar;

- davlat tashkil etuvchi (subekt tashkil etuvchi) etnik guruhning soni va ulushining qisqarishi;

- aholining strategik muhim hududlardan ko‘chib ketishi natijasida aholi zichligining hududlar bo‘yicha sezilarli ravishda tabaqalanishi[76];

- shahar va qishloq aholisining turmush darajasida sezilarli farqlar mavjudligi oqibatida qishloq aholisi sonining kamayishi.

Hududlarning demografik xavfsizligini baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu kategoriyani baholashning aniq bir mezoni mavjud bo‘lmaganligi bois, tadqiqotchilar tomonidan tanlangan ko‘rsatkichlar ro‘yxati faqat demografik jarayonlarni tavsiflovchi omillarni o‘rganish bilan cheklanishi mumkin yoki aholining hayotining boshqa jihatlari yoki demografik xulq-atvorga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflovchi ro‘yxat kengaytirilgan holda taqdim etilishi mumkin.

Demografik xavfsizlikni hozirgi demografik jarayonlarni o‘rganish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishda:

1) demografik xavfsizlikning ayrim jihatlari;

2) demografik xavfsizlikning individual ko‘rsatkichlari darajasining o‘zgarish yo‘nalishi va darajasi;

3) demografik xavfsizlikning individual ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi oqibatlari (demografik yo‘qotishlar) kabilarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan keng foydalanishimiz mumkin.

Tanlangan ko‘rsatkichlarning kritik yoki chegaraviy qiymatlarini aniqlash tadqiqotning navbatdagi bosqichi hisoblanadi. Chegaraviy kritik qiymat deyilganda

[76] Соболева С.В. Демографическая безопасность России: региональные измерители, оценка результатов/С.В.Соболева, Н.Е.Смирнова, О.В.Чудаева//Мир новой экономики.2016.№4.С.142-153.

shunday qiymatni tushunish lozimki, unga ko‘ra indikatorning bunday miqdoriy qiymatida iqtisodiyotning faoliyati va jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan salbiy jarayonlarning kelib chiqish xavfi keskin oshadi[77].

12.1-jadval

Demografik xavfsizlik ko‘rsatkichlari mezonlari[78]

Ko‘rsatkichlar	**Chegaraviy-kritik qiymat**
Depopulyatsiya darajasi,%	0
Aholining qarilik koeffitsiyenti,%	15
Reproduktiv yoshdagi aholining jinsiy tarkibining nomutanosiblik darajasi,%	0
Oilalik nisbati,%	51
Titulli millat vakillarining ulushi,%	0
Tug‘ilishning jamlanma koeffitsiyenti,%	22
Reproduktiv yoshdagi abortlarning intensivligi,%	Iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar darajasi
Aholi o‘limining umumiy koeffitsiyenti,%	
Bolalar o‘limi koeffitsiyenti,%	
Tug‘ilgandan buyon kutiluvchi o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi (ayollar va erkaklar uchun alohida), yil	
Aholining migratsion o‘sish koeffitsiyenti,%	0
Norasmiy migratsiya darajasi,%	0
Aholi ko‘payishining netto-koeffitsiyenti, kishi	1

Ushbu qiymatlarni baholash ekspert xulosalari asosida yoki matematik tadqiqot usullaridan foydalangan holda hisob-kitoblar asosida amalga oshiriladi. Bu tahlil qilingan ko‘rsatkichlarga sifatli baho berish, rivojlanishning amaldagi darajasi belgilangan mezonlarga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi.

12.2-jadval

S. Yu. Glazev va S. E. Lokosovlarning baholashlariga ko‘ra, demografik xavfsizlik sohasida mamlakatda inson salohiyatining takror ishlab chiqarilishini tavsiflovchi baholashlar[79]

Ko‘rsatkichlar	**Chegaraviy-kritik qiymat**
Tug‘ilish darajasi (1000 kishiga), %	22
O‘lim darajasi (1000 kishiga), %	12,5
Tabiiy o‘sish (1000 kishiga)	12,5
Migratsiyaning o‘sishi (1000 kishiga), %	1,1
Migrantlar ulushi (aholi soniga nisbatan %)	3,9
Aholining o‘rtacha umr ko‘rishi, yillar	75

[77] Глазьев С.Ю. Оценка предельно критических значений показателей состояния российского общества и их использование в управлении социально-экономическим развитием/С.Ю.Глазьев, С.Е.Локосов //Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. 2012.№4(22). С.22-41.

[78] Методология анализа демографической безопасности и миграция населения/Н.Д. Эпштейн,Е.А. Егорова, М.В.Карманов и др.М.: Финансы и статистика,2013. С.44.

[79] Глазьев С.Ю. Оценка предельно критических значений показателей состояния российского общества и их использование в управлении социально-экономическим развитием/С.Ю.Глазьев, С.Е.Локосов //Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. 2012.№4(22). С.22-41.

Tadqiqotlarda ko‘pincha pastki yoki yuqori chegara qiymatlari topiladi (12.1-jadval). Demografik xavfsizlikni tadqiq qilishda ikkita yondashuvdan foydalaniladi:

1) tanlangan ko‘rsatkichlarning dinamikasini tahlil qilish, shuningdek ularni tanlangan standartlar bilan taqqoslash;

2) mutaxassislar tomonidan tanlangan ko‘rsatkichlar tizimi asosida hisoblangan koeffitsiyentlar tizimidan foydalangan holda demografik xavfsizlikning integral indeksini hisoblash.

Ko‘p qirrali statistik tadqiqot usullarini qo‘llash orqali integral indeksni hisoblashimiz mumkin. Uning afzalligi shundaki, integral indeksga ta’sir ko‘rsatuvchi tanlab olingan ko‘rsatkichlarning ta’sirini tavsiflovchi ulushli koeffitsiyentlar hisob-kitoblar orqali aniqlanadi, bu esa ko‘rsatkichlarning indeksga ta’sir qilish darajasini baholashda mutaxassis tomonidan xatoga yo‘l qo‘yish ehtimolini kamaytiradi.

12.2. Ijtimoiy sohadagi tahdidlarni tizimlashtirish va baholash

O‘rganish obyekti sifatida ijtimoiy xavfsizlik ko‘p qirrali ilmiy kategoriya bo‘lib, uni o‘rganish davomida turli-tuman keng qamrovli qarama-qarshi fikrlar vujudga kelgan. Ijtimoiy xavfsizlik masalalari sotsiolog-lar, psixologlar, o‘qituvchilar, iqtisodchilar va yuristlar tomonidan keng o‘rganilib kelinmoqda.

Insonlar, ularning hayotiy qiziqishlari va ehtiyojlari, jamoalar va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ijtimoiylashuv tizimlari (ta’lim, tarbiya, madaniyat, kundalik hayot) va insonning hayotiy faoliyatini ta’minlash tizimlari (sog‘liqni saqlash, savdo, ta’minot) ijtimoiy xavfsizlikning obyekti sanaladi.

Xanin F. G. ijtimoiy ta’minotni baholash uchun quyidagi asosiy mezonlarni ko‘rsatib o‘tadi:

1) shaxsning huquq va erkinliklari;

2) xususiy mulk institutining dahlsizligi;

3) ijtimoiy jarayonlarning barcha ishtirokchilari uchun qonunlarning universalligi va ustuvorligi;

4) millatning madaniy o‘ziga xosligi;

5) shaxsning bitta ijtimoiy ta’minot tizimidan boshqa ijtimoiy ta’minot tizimiga mustaqil o‘tish imkoniyati[80].

Senchagov V.K. iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni uchta katta blok asosida tizimlashtiradi:

1) aholining pul daromadlari darajasi bilan bog‘liq tahdidlar;

2) ishsizlik darajasining yuqoriligida namoyon bo‘luvchi aholini ish bilan ta’minlash borasidagi tahdidlar;

3) uy-joy va kommunal xizmatlar, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalarida yuzaga keluvchi tahdidlar.

O‘z navbatida, biz ijtimoiy sohadagi iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni ularning paydo bo‘lishi ehtimolini yanada samarali baholashga imkon beradigan beshta asosiy bloklarga ajratishni taklif etamiz:

1) aholining pul daromadlari darajasi bilan bog‘liq tahdidlar;

2) demografik vaziyat bilan bog‘liq tahdidlar;

3) bandlik sohasidagi tahdidlar, ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan hollarda;

4) ijtimoiy nafaqalar miqdori va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari bilan bog‘liq tahdidlar;

5) sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat va kommunal sohada yuzaga keladigan jarayonlar tufayli kelib chiqadigan tahdidlar.

Ijtimoiy sohada iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning birinchi bloki aholining real pul daromadlari (ish haqi va boshqa to‘lovlar) darajasining pasayishi bilan bog‘liq bo‘lgan tahdidlarni o‘z ichiga oladi. Aholining pul daromadlari dinamikasi ko‘rsatkichini yashash tannarxi bilan taqqoslash, ushbu mablag‘larning zarur ehtiyojlarni qondirish uchun mosligini aniqlashga imkon beradi. Bu ijtimoiy sohadagi hozirgi kunga xos dolzarb tahdidlardan biri- jamiyatning kam sonli boylar va kam ta’minlangan fuqarolar doirasining kengayishi xavfini o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy sohada iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning ikkinchi bloki mamlakatdagi demografik tahdidlarni o‘z ichiga oladi. Tabiiy kamayish tufayli

[80] Ханин Ф.Г. Социальная безопасность или основной приоритет национального развития России /Ф.Г.Ханин //Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер.6.2005. Вып.2. С.129-134.

doimiy aholi sonining kamayishi (tug‘ilishning kamayi-shi va o‘limning ko‘payishi), migratsiya, qarish, umr ko‘rishning pasayishi kabilar mazkur blokda asosiy tahdidlar sifatida ko‘riladi. Iqtisodiy faol aholi sonining kamayishi va ularning reproduktiv salomatligining yomonlashishi yana bir jiddiy salbiy jihat hisoblanadi. Bu yerda muhim baholovchi ko‘rsatkichlardan biri bu 1 nafar ayolga tug‘ilish sonining nisbati bo‘lib, bu populyatsiyaning o‘sishi ehtimolini baholashga imkon beradi.

Ijtimoiy sohaning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarning uchinchi bloki – bandlik sohasidagi muammolardir. Bunga munosib maosh va ishsiz-lik darajasi yuqori bo‘lgan bir paytda ish o‘rinlarining yetishasligi bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat bozoridagi vaziyatga bog‘liq tahdidlar kiradi, ya’ni. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tavsiyasiga ko‘ra, ishga joylashmagan va hozirda faol ish izlashda bo‘lgan iqtisodiy faol aholi ishsiz sifatida e’tirof etiladi. Ishsizlikning ko‘payishi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. XMT uslubiyoti bo‘yicha hisoblanuvchi ishsizlik ko‘rsatkichi mehnat bozoridagi vaziyatni obyektiv baholash mezoni hisoblanadi.

Tahdidlarning to‘rtinchi bloki – aholini turli xil ijtimoiy imtiyozlar va qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash choralarini kafolatlaydigan davlat tuzilmalarini moliya-lashtirish bilan bog‘liq tahdidlardir. Davlat byudjetining davlat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy majburiyatlarini bajarish uchun nazarda tutilgan moddalarini bajarmaslik yoki to‘liq bajarmaslik bilan bog‘liq tahdidlar ham bu borada muhim sanaladi. Shuningdek, Rossiyada majburiy ijtimoiy sug‘urta tizimining moliyaviy barqarorligi, ya’ni ijtimoiy byudjetdan tashqari jamg‘armalar byudjetlarining bajarili-shida ham nomutanosibliklar mavjud.

Beshinchi blok – sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat va uy-joy kommunal xo‘jaligidagi salbiy jarayonlar natijasida kelib chiqadigan tahdidlardir. Bunday tahdidlar ko‘pchilik aholi uchun yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlardan, sifatli ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining yo‘qligi, uy-joy qurilishining kamayishi, uy-joy kommunal xo‘jaligi bino va inshootlarining eskirishi, uy-joy

kommunal xizmatlariga to‘lovlarning oshishi bilan izohlanadi. Shunday qilib, bunday vaziyatlarda aholining aksariyati hayotiy xizmatlardan to‘la-to‘kis foydalana olmaydilar. Baholash uchun biz har bir kishiga to‘g‘ri keluvchi uy-joy maydoni ko‘rsatkichidan foydalanamiz[81].

Kam sonli boylar va ko‘p sonli kam ta’minlangan aholi qatlamining shakllanishi, kambag‘allik chegarasidan quyida yashovchi aholi ulushining ko‘payishi va ishsizlikning muttasil o‘sib borishi ijtimoiy sohada mamlakatning milliy xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy xavflar hisoblanadi. Mazkur muammolar va shuningdek, jamiyatning demografik va ijtimoiy tarkibidagi deformatsiyalar, oilalar inqirozi, fuqarolarning ma’naviy, axloqiy va ijodiy salohiyatining pasayishi, ijtimoiy va siyosiy mojarolar ijtimoiy barqarorlikka katta xavf tug‘diradi[82].

Xalqaro tajribaga muvofiq, jamiyatda barqarorlikni ta’minlashning muhim mezonlaridan biri – bu jamiyatda ta’sir doirasi katta bo‘lgan o‘rta sinfni yaratishdir. Agar jamiyatda barcha mulkdorlarning 85 foizi o‘rta sinf vakillariga to‘g‘ri kelsa, boylar va kambag‘allar birgalikda 15 foizni tashkil qilsagina, ushbu shartni bajarish mumkin bo‘ladi[83]. Yuqori va kam haq to‘lanadigan ishchilar o‘rtasidagi daromad nisbati ham muhim rol o‘ynaydi. Bu nisbat odatda 1:10 dan oshib ketmasligi shart. Ushbu nisbatlarning har qanday o‘zgarishi jamiyatda ijtimoiy keskinlikning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin[84].

Jamiyatni modernizatsiyalash - bu jamiyat hayotining turli jihatlariga ta’sir qiluvchi ko‘p qirrali hodisa hisoblanadi. Agar modernizatsiya mehnat unumdorligini oshirish, insonlar hayotini osonlashtiruvchi yangi texnologiyalarni joriy etish nuqtai nazaridan qaralsa, mashinasozlik, samolyotsozlik, robototexnika sohalarida yangi texnologiyalarni joriy etish, axborot texnologiyalari doirasini kengaytirish kabilarni

[81] Борзых Л.А. Инструментарий обеспечения экономической безопасности в социальной сфере России: монография//Л.А.Борзых,Е.Ю.Меркулова.Тамбов: Изд-во Першина Р.В.,2017.200 с.

[82] Хаджалова Х.М. Социально-экономическая безопасность и угрозы социальной стабильности в регионе/Х.М.Хаджалова // Национальные интересы: приоритеты и безопасность.2010.№2(59).С.58.

[83] Хаджалова Х.М. Социально-экономическая безопасность и угрозы социальной стабильности в регионе/Х.М.Хаджалова // Национальные интересы: приоритеты и безопасность.2010.№2(59).С.58.

[84] Хаджалова Х.М. Социально-экономическая безопасность и угрозы социальной стабильности в регионе/Х.М.Хаджалова // Национальные интересы: приоритеты и безопасность.2010.№2(59).С.62.

o‘zida aks ettiradi. Ular bugungi kun insonining hayotini yaxshilash, qulayroq qilish uchun xizmat qilishi lozim. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida ba’zi bir kasblar keraksiz bo‘lib borsa, ba’zi bir yangi kasblar paydo bo‘la boshlaydi. Texnik modernizatsiyalash davlat va jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiga katta ta’sir qiladi. Texnik modernizatsiyalash jamiyatda tarkib topgan urf-odatlar, axloqiy me’yorlar va uning madaniyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Bugungi kunda texnik modernizatsiyalash ijtimoiy modernizatsiyalashning o‘ziga xos katalizatoriga aylanib ulgurdi. Agar texnik modernizatsiyalash konstruktiv tavsifga ega bo‘lsa, uning oqibatida yuzaga chiquvchi ijtimoiy modernizatsiyalashni baholash har doim ham o‘rinli bo‘lavermaydi. M. V. Reshetova o‘z tadqiqotlarida ijtimoiy modernizatsiya-lashning salbiy jihatlarini qayd etib o‘tadi. Texnokratik jamiyatdan axborotlashgan jamityaga o‘tish davrida ma’lum bir xavflar paydo bo‘ladi, chunki insonlarning tor guruhi ijtimoiy ongni shakllantirishni nazorat qila boshlaydilar va ular tezda axborotlashgan jamiyatning kibor azolariga aylanadilar.

12.3-jadval

Ijtimoiy soha iqtisodiy xavfsizligi indikatorlari[85]

Ko‘rsatkichlar	**Chegaraviy qiymat**
Pensiya va mehnatga qobiliyatli yoshdagi insonlarning nisbati	0,4 dan ko‘p emas
Sog‘liqni saqlash, ta’lim va madaniy tadbirlar uchun xarajatlar, YaIMga nisbatan %	15 dan kam emas
Jami aholi tarkibida yashash minimumidan kam daromadga ega bo‘lganlar ulushi,%	6 dan ko‘p emas
O‘rtacha pensiyaning o‘rtacha ish haqiga nisbati,%	40 dan kam emas
Fondlar koeffitsiyenti (10 % yuqori daromadli aholi daromadlarining 10 % past daromad oluvchi aholi daromadlariga nisbati), marta	7 dan ko‘p emas
O‘rtacha aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi aholi pul daromadlarining yashash minimumiga nisbati, marta	3,5dan kam emas
XMT uslubiyotiga ko‘ra ishsizlik darajasi,%	4 dan ko‘p emas
Bir kishiga to‘g‘ri keluvchi yashash maydoni, m^2	25 dan kam emas.

Aksariyat insonlar axborot texnologiyalaridan uning o‘ziga jihatlarga ega ekanligi bois, to‘liq foydalana olmaydilar, bu esa insonlarning tor guruhi va ko‘p sonli jamiyat a’zolari o‘rtasida ma’lum bir ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Vujudga kelgan qarama-qarshiliklar xavfsizlikning asosiy shartsiz reflekslarini va hayotga xavf soluvchi xatti-harakat shakllarini: tajovuz, jinoyatchilik, alkogolizm,

[85] Сенчагов В.К. Использование индексного метода для оценки уровня экономической безопасности/ В.К.Сенчагов, С.Н.Митяков //Вестник Академии экономической безопасности МВД России.2011.№5.С.41-50

giyohvandlik, o‘z joniga qasd qilish va boshqalarni cheklash orqali namoyon bo‘ladi. Bunday hodisalarning oldini olish uchun jamiyat albatta katta xarajatlarni amalga oshirishi talab etiladi.

Eng muhim ijtimoiy muammolar qatoriga aholining turmush darajasi va sifatini oshirish, qashshoqlikka barham berish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, bandlik, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizligini ta’min-lash, nogironlar va kam ta’minlangan fuqarolar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solish kabilar kiradi.

V.K.Senchagov, S.N.Mityakovlarning ilmiy- tadqiqotlarida hududlarning ijtimoiy xavfsizligini tavsiflovchi bir qator chegaraviy ko‘rsatkichlar va ularning qiymatlari keltirilgan (12.3-jadval). Jadvalda keltirilgan ro‘yxatni S.Yu.Glazev va S. E. Lokosov tomonidan tavsiya etilgan ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirishimiz mumkin (12.4-jadval).

12.4-jadval

Aholining ijtimoiy xavfsizligini tavsiflovchi chegaraviy qiymatli ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar	**Chegaraviy qiymat**
Djini koeffitsiyenti	0,3 dan ko‘p emas
Jinoyatchilik darajasi (har 100000 ming kishiga to‘g‘ri keluvchi ro‘yxatga olingan jinoyatlar soni)	1000 dan ko‘p emas
Tibbiyot tavsiyasiga ko‘ra bir sutkada iste’mol qilinishi lozim bo‘lgan kilokaloriya	3000 dan kam emas
Spirtli ichimlik iste’mol qilish (aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi alkgogol mahsuloti, litr)	8 dan ko‘p emas
Giyohvand moddalar iste’mol qiluvchi insonlar ulushi, %	3,5dan ko‘p emas
O‘z joniga qasd qilish (har 100000 aholiga)	20 dan ko‘p emas
Ruhiy buzilishlarning tarqalishi (har 1000 kishiga)	360 dan ko‘p emas

Ijtimoiy xavfsizlik borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning eng muhim savollaridan biri bu- aholining hayot darajasi va sifatini o‘rganishdir. Bugungi kunda mutaxassislar “turmush darajasi” tushunchasini moddiy boylik, farovonlik, baxtni tuyish va jamiyat a’zolarining yashash sharoitlaridan qoniqish darajasi bilan bog‘lashadi.

Ko‘pincha “turmush darajasi” kategoriyasi aholining moddiy turmush farovonligi, tovarlar va xizmatlarni iste’mol qilish darajasi, odamlarning asosiy

hayotiy ehtiyojlarini qondirish darajasini tavsiflovchi shart-sharoitlar va ko‘rsatkichlar sifatida tavsiflanadi.

Odatda aholi turmush darajasini farovonlik, me’yoriy hayot darajasi, qashshoqlik va kambag‘allik sifatida tasniflash qabul qilingan. Boylik deyilganda insonning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan imtiyozlardan foydalanish qobiliyati tushuniladi. Normal daraja ilmiy asoslangan me’yorlarga muvofiq oqilona iste’mol qilishni o‘z ichiga oladi, bu esa o‘z navbatida insonni jismoniy va intellektual salohiyati tiklanishini ta’minlaydi. Kambag‘allik sharoitida odam mehnat qilish layoqatiga ega bo‘lish va uni saqlab qolish uchun ishchi kuchni takror ishlab chiqarish chegarasi darajasida tovarlarni iste’mol qiladi. Qashshoqlik insonning hayotiy faoliyatini davom ettirishni ta’min etuvchi biologik mezonlarga muvofiq iste’mol qilinishi mumkin bo‘lgan minimal miqdordagi tovarlar va xizmatlarni iste’mol qilish imkoniyatini anglatadi[86].

Aholining turmush darajasi: jami aholi; ijtimoiy guruhlar va har xil daromadli uy xo‘jaliklari nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Turmush darajasini baholash murakkab va ziddiyatli jarayon sanaladi. Uning shakllanishiga bir tomondan jamiyat ehtiyojlari va uning tarkibi ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchi bir tomondan esa ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari chegarasi ta’sir ko‘rsatadi.

Cheklovlar mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan yaxlit omillar ta’siri ostida yuzaga keladi. Xususan, bularga ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasining samaradorligi, ilmiy-texnik taraqqiyotning holati, aholining madaniy va ma’rifiy darajasi, milliy xususiyatlar va boshqalar kiradi.

Mamlakatda aholi turmush darajasi va sifatini baholashda foydalaniluvchi ma’lumotlar manbalari bo‘yicha aholining turmush darajasini baholashg borasidagi yondashuvlarni quyidagi katta guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) keng qamrovli statistik ko‘rsatkichlar asosida turmush darajasini baholash;

2) uy xo‘jaliklari byudjetlarini tanlanma statistik o‘rganish;

3) aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida turmush darajasini baholash;

[86] Статистика:учебник/под ред. С.А.Орехова.М.: Эксмо,2010. 448 с. (С.229)

4) aholi o‘rtasida sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish orqali aholi turmush darajasini baholash.

1992 yilda Rossiya Iqtisodiyot vazirligi qoshidagi Iqtisodiy vaziyat va prognozlash markazi turmush darajasini baholash uchun ko‘rsatkichlarning yaxlit tizimini ishlab chiqdi, ularning har biri inson hayotining har qanday tomoni haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Ko‘rsatkichlar tizimi 39 ta ko‘rsatkichdan iborat bo‘lgan ettita bo‘limni o‘z ichiga oladi:

1. Umumiy ko‘rsatkichlar, masalan: turmush darajasi, yashash qiymati indeksi, jon boshiga to‘g‘ri keluvchi yalpi milliy mahsulot;

2. Aholi daromadlari, ular aholining real jami daromadlari, aholining real daromadlari, aholining jami, shaxsiy va pul daromadlari va boshqalar bilan tavsiflanadi;

3. Aholining iste’moli va xarajatlari, shu jumladan, aholining moddiy tovarlar va xizmatlar iste’mol qilishining umumiy hajmi, aholining pul xarajatlari, aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilishi va boshqalar.

4. Aholining pul mablag‘lari.

5. To‘plangan mol-mulk va uy-joy, unga yig‘ilgan uy (shaxsiy) mol-mulkning qiymati, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar va aholining mulki mavjudligi va xususiyatlari, aholining uy-joy sharoitlari kiradi.

6. Aholining:

- aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi daromadning qiymati;

- aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi yalpi daromadning turli darajasiga ega bo‘lgan aholi guruhlarining asosiy oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlaridan foydalanish darajasi;

- daromadlarning kontsentratsiyalashuv darajasi, aholi turli qatlamlarining amaldagi va normativ qiymati dinamikasi bo‘yicha ijtimoiy tabaqalanishi

7. Aholining kam ta’minlangan qatlamlarini tavsiflash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi: yashash minimumi, eng kam ish haqi, minimal iste’mol byudjeti, minimal pensiyaning xarid qobiliyati, kam ta’minlanganlik

darajasi, daromad taqchilligi, qashshoqlik zonasi, qashshoqlikning ijtimoiy chizgisi[87].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra, turmush darajasini tavsiflash uchun ko‘rsatkichlarning 12 ta yiriklashtirilgan guruhidan foydalaniladi.

Turmush darajasi – bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanadi, shuning uchun bozor iqtisodiyotining taraqqiy etish sharoitida mazkur kategoriyani o‘rganish iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy rivojlanishning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Aholining moddiy ahvoli, shuningdek, tahlil etilayotgan davrda jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bo‘yicha aholi turmush darajasi va sifatini har tomonlama baholashimiz mumkin[88].

Aholi turmush darajasi va sifatini baholash maqsadida ko‘rsatkichlarning chegaraviy qiymatidan foydalaniladi (12.5-jadval).

12.5-jadval

Aholi turmush darajasi va sifati ko‘rsatkichlarining chegaraviy qiymatlari

Ko‘rsatkichlar	Chegaraviy qiymat	Izoh
Tug‘ilgandan kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi (kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish)	75 yosh	Kam emas
Psixotrop moddalarni iste’mol qilish bilan bog‘liq holda aholi o‘rtasida ruhiy zo‘riqish va og‘ishlarning tarqalganligi	10000 kishiga 500 kishi	Ko‘p emas
Aholi o‘rtasida psixologik patalogiyalarning tarqalganligi	10000 kishiga 500 kishi	Ko‘p emas
Mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi o‘rtasida o‘lim koeffitsiyenti	Mehnatga qobiliyatli 1000 kishiga 3,0 kishi	Ko‘p emas
Aholi o‘rtasida bolalar o‘limi koeffitsiyenti	1000 tug‘ilgan chaqaloqqa 5,0 kishi	Ko‘p emas
Tashqi sabablar hisobiga aholining o‘limi	10000 kishiga 50 kishi	Ko‘p emas
Uy-joyga ega bo‘la olish	3,0 yil	Ko‘p emas
Uy-joy fondining yaxshilanganlik darajasi	90%	Kam emas

Turmush darajasini baholashda umumiy axborot xususiyatiga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlar aholi turmush darajasi va sifatini xalqaro miqyosda taqqoslash uchun ishlatiladi. Hozirda aholining hayot darajasi va sifatini baholash usullarining butun bir to‘plami ishlab chiqilgan bo‘lib,

[87] Интегральная оценка уровня жизни сельского и городского населения .М.: Гриф и КО,2009.88 с.

[88] Кулькова И.А. Проблемы оценки качества жизни муниципиального образования/И.А.Кулькова, А.Ю. Рогозина// Интернет-журнал «Науковедение» 2015.Т.7,№4. URL:http://naukovedenie.ru

ular orasida inson salohiyati indeksi; dunyo mamlakatlarining farovonlik indeksi; aholining baxt darajasi; butun dunyo baxt indeksi kabilar muhim o‘rin tutadi.

12.3. Qashshoqlik chegarasi va darajasi, aholi daromadlarining tabaqalanishini o‘rganish usullari

1992 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining qaroriga ko‘ra, har yili 17 oktyabr Xalqaro qashshoqlikka qarshi kurashish kuni sifatida nishonlanadi. BMTning rezolyutsiyasida barcha davlatlarni ushbu kunda kambag‘allik va qashshoqlikni bartaraf qilish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish borasida chaqiriq mavjud. 2000 yilning sentyabr oyida BMTga a’zo bo‘lgan 189 ta a’zo mamlakatlar delegatsiyalari ishtirokida o‘tkazilgan Ming yillik Sammitida qabul qilingan Ming yillik deklaratsiyasida kambag‘allik va qashshoqlikka kurashish asosiy vazifalardan biri sifatida e’tirof etilgan.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotelning “Kambag‘allik- har qanday jinoyat va ziddiyatlarning asosiy manbai”dir-degan so‘zlari jamiyat taraqqiyotining har qaysi bosqichida o‘z tasdig‘ini topib kelganligi, bu hayotiy haqiqatdir. Shu sababli ham, davlatchilik shakllangan zamonlardan buyon, kambag‘allik va qashshoqlikka qarshi kurashib kelinadi.

Qadimgi Misrda Imxotep davridayoq (bu eramizdan avvalgi III ming yillik borib taqaladi) kambag‘allikka qarshi kurashib kelingan. Bunda asosiy e’tibor ijtimoiy liftlarni yaratish va rivojlantirishga e’tibor qaratilgan, xususan boylar ham kambag‘allar ham birdek o‘qishlari mumkin bo‘lgan “Hayot maktablari”-deb ataluvchi, davlat maktablari tarmog‘i yaratilgan va ta’lim xarajatlarini davlat to‘laligicha qoplab bergan.

Qadimgi Yunonistonda kambag‘allikka bugungi kundagi qarashlardan farqli o‘laroq, boshqacha yondashilar edi. Agar fuqaro biror falokatga (shikastlanish, yong‘in, ocharchilik) uchragan bo‘lsa, butun jamoa unga oziq-ovqat bilan, soliqlar to‘lashdan ozod qilish orqali ko‘mak ko‘rsatganlar. Agar askarlar jarohat tufayli xizmatni davom ettira olmasalar, ular nafaqa olishgan. Qadimgi Rimda imperatorlar qashshoqlik bilan, asosan, o‘z mablag‘lari bilan kurashganlar. Xazinadan erkin fuqarolar uchun non va pul to‘lovlarini amalga oshirishning o‘ziga xos tizimi

yaratilgan edi. Qadimgi Rimda nogironlikni sug‘urtalash amaliyoti birinchi marotaba sinovdan o‘tkazilgan. Davlat va harbiylar nogironlarga va jabrlanganlarning oilalariga tovon puli to‘laydigan jamg‘arma tashkil etishgan. Rim imperiyasida fuqaro o‘z qobiliyati va imkoniyati darajasida mehnat qilishi va daromad topishi lozim, deb hisoblangan va shuning uchun ham doim tilanchilik ma’qullanmagan va ta’qib qilingan.

Sobiq Sovet Ittifoqida 1930-yillarga qadar fohishalar, tilanchilar va daydi-tilanchilarning mavjud bo‘lishiga, eski tuzumning sarqiti sifatida munosabatda bo‘lingan. Sobiq Ittifoqda ham kambag‘allik mavjud bo‘lsada, siyosiy, mafkuraviy va axloqiy jihatdan bu haqda lom-mim deyilmas edi. Chunki sotsializm g‘alaba qilgan bunday mamlakatda kambag‘allik mutlaqo bo‘lishi mumkin emas edi. 1950-yillarning o‘rtalaridan boshlab sobiq Ittifoqda qashshoqlikka qarshi turli ijtimoiy chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi, 1960 yilda Jinoyat Kodeksiga himoya choralarini ishlab chiqmoqda. 1960 yilda jinoyat kodeksiga 209-modda kiritilib, unga ko‘ra daydilik va tilanchilik uchun jinoiy javobgarlikka tortish belgilab qo‘yildi. Bunday chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida tilanchi va kambag‘allar sonini sezilarli darajada qisqartirishga erishildi. Ammo 1991 yilga kelib, Jinoyat kodeksining 209-moddasi bekor qilinishi bilan, qashshoqlar, tilanchi va daydilar haqida yana gapirila boshlandi.

Dunyoning aksariyat mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi va uning xususiyatlaridan qat’i nazar, o‘z iqtisodiyotlarining barqaror o‘sishiga erishishni ustuvor vazifa sifatida ilgari suradilar. Yaxshi qo‘shnichilik aloqalarini yo‘lga qo‘yish, xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatlarning keng ishtirokini ta’minlash va raqobat ustunliklaridan foydalanish tamoyillaridan amalda foydalanish orqaligina, bunday keng ko‘lamli vazifani samarali hal etish mumkin bo‘ladi. Milliy xo‘jaliklar rivojlanishining ijobiy dinamikasi sharoitida aholi daromadlari oshadi, o‘rta sinf shakllanadi, jamiyatda tenglik va hamjihatlik muhiti qaror topadi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti turli moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy inqirozlarning kuchayishi, mamlakatlar o‘rtasida turli savdo urushlarining avj olishi natijasida dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning

cheklanishi kabi jarayonlar bilan tavsiflanadi. Buning natijasida esa, dunyoning ko‘pgina milliy iqtisodiyotlarda YaIM o‘sishining sekinlashuvi, real daromadlarning pasayishi, ijtimoiy tabaqalanishning chuqurlashuvi va qashshoqlikning ortishi kuzatilmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, kambag‘allik -muayyan maqbul turmush darajasini ta’min eta olmaslikdir. Bir so‘z bilan aytganda, bu muayyan bir shaxs yoki oilaning zaruriy ehtiyojlari darajasining ularni qondirish imkoniyatlaridan oshib ketishidir.

Mutloq, nisbiy va subyektiv kamabag‘allik tushunchalari farqlanadi.

Insonning oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy bo‘lgan birlamchi fiziologik ehtiyojlarini to‘liq yoki qisman qondira olmaslik holati mutloq kambag‘allik tushunchasini ifoda etadi. Kambag‘allik darajasining miqdoriy hisob-kitoblari to‘g‘risida dastlab ingliz olimlari Charlz But va Sib Rauntrilar fikr yuritishgan va ular tomonidan “kambag‘allik ostonasi” tushunchasi ilmiy muomalaga kiritilgan. Kambag‘allik chegarasi insonning faqat eng muhim bo‘lgan birlamchi oziq-ovqat, kiyim-kechaklarni sotib olish va istiqomat qilish uchun yetarli bo‘lgan daromadlarning minimal miqdorini ifoda etadi. Jamiyat rivojlanishi bilan hayot uchun zarur buyum va xizmatlar majmui kengaya borsada, lekin yuqorida tilga olib o‘tilgan usul o‘z mohiyatini yo‘qotganicha yo‘q. Biror bir shaxs yoki oilani kambag‘allar toifasiga kiritish ularning nimaga egalik qilishlariga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Mazkur usuldan foydalangan holda mutloq kambag‘allik darajasini o‘lchashimiz mumkin.

Nisbiy kambag‘allik deyilganda biror bir shaxs yoki oilaning jamiyatda qabul qilingan muayyan turmush darajasini ta’min eta olmaslik holati tushuniladi. Nisbiy kambag‘allik insonning boshqa odamlarga nisbatan qanchalik darajada kambag‘al ekanligini ko‘rsatadi. Ko‘pchilik holatlarda insonlar hayotiy zarur ne’matlar bilan ta’minlangan bo‘lsalarda, jamiyatda tarkib topgan turmush andozasi darajasida kun kechira olmaydilar. Hayot sifati va sharoitlariga e’tibor berish shaxsning (yoki oilaning) ijtimoiy mavqei va uning turmush darajasi o‘rtasidagi tafovutni aniqlash imkonini beradi.

So‘nggi yillarda kambag‘allikni aniqlashda respondentlarning o‘zlarini – o‘zlari baholashlariga asoslangan subyektiv usuldan keng foydalanimoqda. Bunda respondentlardan “siz o‘zingizni kambag‘al deb hisoblaysizmi yoki yo‘q”-degan savolga javob berish so‘raladi. Bunday yondashuvning avfzalligi shundaki, u ijtimoiy muammo sifatida kambag‘allikni baholashga va uni hal etish borasida zaruriy chora-tadbirlar ko‘rilishiga imkoniyat beradi. Shu bilan bir qatorda, uning o‘ziga xos kamchilik tomoni ham mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, ko‘pchilik respondentlar o‘zlarini kambag‘al sifatida e’tirof etishdan uyaladilar.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qashshoq hududlarga nisbatan “rivojlanish darajasi bir muncha past mamlakatlar” tushunchasidan foydalanadi. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2019 yilda “rivojlanish darajasi bir muncha past mamlakatlar” ro‘yxatidan 47 ta, shu jumladan Moldova, Ukraina, Tojikiston, O‘zbekiston, Afg‘oniston kabi mamlakatlar o‘rin olgan. Kambag‘al davlat maqomini olish maxsus komissiya xulosalariga asoslangan bo‘lib, u uchta mezonga muvofiq baholanadi: iqtisodiy zaiflik indeksi; aholi daromadlari darajasi (so‘nggi 3 yil davomida aholi jon boshiga YaIM); va hayotning haqiqiy sifatini baholash. Rivojlanish darajasi bir muncha past mamlakatlarni baholash favqulodda murakkab vazifa hisoblanadi.

Kambag‘allik borasida yanada aniqroq ta’rif Jahon Banki tomonidan berilgan bo‘lib, unga ko‘ra kamabag‘allik chegarasi 2015-yildan boshlab, kuniga1,25 dollardan 1,95 dollargacha ko‘tarilgan. Kuniga 3,20 dollarga kun kechirish o‘rtacha daromadga ega bo‘lgan mamlakatlardagi kambag‘allik chegarasini aks ettirsa, kuniga 5,50 dollarga kun kechirish o‘rtachadan yuqori daromadga ega bo‘lgan mamlakatlarda kambag‘allik chegarasini aniqlashda asosiy mezon hisoblanadi. Bu haqda, Jahon bankining har ikki yilda bir marotaba e’lon qilinuvchi ma’ruzasida so‘z yuritiladi.

Jahon bankining bergan ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi milliy daromad hajmi bo‘yicha o‘rtachadan past daromadli mamlakatlar qatoriga kiradi (aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi milliy daromad mamlakatimizda 2024 yilda 3093 dollarni tashkil etgan). Bugungi kunda

kambag‘allikning favqulodda ko‘rinishi bo‘lgan qashshoqlik dunyodagi eng katta va aytish mumkinki, og‘riqli muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Qashshoqlik-bu insonning kuniga 1,95 dollarga yoki undan ham kamroq mablag‘ hisobiga kun kechirishini anglatadi.

Shu bilan bir qatorda, qashshoqlik-bu insonning kambag‘allik chegarasidan ham past darajada daromadga ega bo‘lishini va insonning shunchaki hayotda mavjud bo‘lishini aks ettiradi. Kambag‘allik chegarasi kuniga 1,95 dollar etib belgilangan bo‘lsada, har bir mamlakat o‘zining rivojlanish darajasi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, kambag‘allik chegarasini belgilaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida agar insonning daromadlari o‘zi istiqomat qilayotgan mamlakatdagi o‘rtacha ish haqining 60 foizdan kamroq qismini tashkil etsa, u kambag‘al insonlar sirasiga kiritiladi. Dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida kambag‘allik chegarasi deyilganda, yashash minimumidan past darajadagi daromad chegarasi tushuniladi.

O‘zbekistonda shu paytgacha yashash minimumi haqida so‘z yuritilmagan. Ayni vaqtda esa, dunyoning aksariyat mamlakatlarida yashash minimumi tushunchasidan amaliyotda keng foydalanib kelinadi. Mamlakatimizda “kambag‘allik” va “qashshoqlik” tushunchalarining o‘rniga “kam ta’minlanganlar” tushunchasidan foydalanib kelindi. Yashash minimumi miqdorini hisob-kitob qilish, aholini ijtimoiy himoyalash borasida davlat zimmasiga yuklatilgan vazifalar ko‘lamining kengayishiga olib keladi.

Yashash minimumi-inson salomatligini saqlash va uning hayotiy faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarning eng kam to‘plamlarini, shuningdek majburiy to‘lovlar va yig‘imlarni o‘z ichiga olgan iste’mol savatchasini qiymat bahosini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, yashash minimumi insonning eng zaruriy ehtiyojlarini qondira olmaydigan yoki kambag‘allik qashshoqlikbilan almashinuvchi chegarani aks ettiradi.

Sodda qilib aytganda, iste’mol savatchasi – muayyan vaqt davomida inson hayoti va uning salomatligini saqlash uchun zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning eng kam to‘plami. Hamma ovqatlanishi, kiyinishi, kommunal va

boshqa xizmatlar haqini to‘lashi, zarur dori-darmonlarni xarid qilishi lozim va h.k. Bularning bari mahsulotlar savatchasini butlash uchun asos hisoblanadi. Uning ma’lumotlaridan, o‘z navbatida, tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorni (*iste’mol savatchasining qiymat bahosini***)** belgilash uchun foydalaniladi.

Iste’mol savatchasi quyidagilarning miqdorlarini belgilash uchun hisob-kitobga asos bo‘lmog‘i lozim: eng kam ish haqi va pensiyalar; bazaviy ijtimoiy to‘lovlar: ishsizlik, bolani parvarishlash, boquvchisini yo‘qotganlik nafaqalari, stipendiyalar va boshqalar.

Iste’mol savatchasiga kiruvchi tovarlar va xizmatlar to‘plami har bir mamlakatda turlicha. Uning tarkibi davlat darajasida belgilanadi va ko‘plab omillar: tabiiy-iqlim sharoitlari, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarish xususiyatlari, tovarlar va xizmatlarning haqiqatda iste’mol qilinishi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Odatda, iste’mol savatchasi 3 qismdan iborat bo‘ladi: *1* – oziq-ovqat mahsulotlari; 2 – nooziq-ovqat tovarlari: kiyim-kechak, poyabzal, birinchi navbatda zarur bo‘lgan buyumlar, dori-darmonlar, madaniy-maishiy va xo‘jalik uchun mo‘ljallangan tovarlar va h.k.; *3* – xizmatlar**:** kommunal, transport, madaniy-ma’rifiy va h.k.

Odatda iste’mol savatchasi aholining 3 ta asosiy ijtimoiy-demografik guruhi: mehnatga layoqatli aholi, pensionerlar va bolalar uchun ishlab chiqiladi. Ya’ni aholining turli qatlamlari tirikchiligi uchun zarur eng kam miqdorni belgilashda muayyan davrda iste’mol savatchasidagi barcha ne’matlarni iste’mol qilish normalarini aniqlash zarur. Masalan, oddiy fuqaro normal hayot kechirishi uchun har kuni iste’mol qilishi kerak bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari to‘plami va miqdorini hisoblash. Yoki barcha kommunal xarajatlarni qoplashi uchun oyiga qancha summa zarurligini.

Bunda odatda iste’mol savatchasi tarkibiga kishi ularsiz bamaylixotir, sog‘lom yashashi mumkin bo‘lgan tovarlar: tamaki mahsulotlari, alkogolli ichimliklar, tansiq mahsulotlar, zeb-ziynat buyumlari kiritilmaydi.

Xizmatlar ham inson uchun muhimlik darajasi va hayotiy zarurligiga qarab farqlanishi mumkin. Biroq oziq-ovqat tovarlari yuzasidan bir qarorga kelish masalasi ozmi-ko‘pmi tushunarli bo‘lsa, xizmatlarning zarur to‘plamini belgilashda savollar yuzaga kelishi mumkin. Aholi tirikchiligi uchun zarur eng kam miqdorni belgilashda qanday xizmatlar to‘lovi hisob-kitobga kiritilishi kerak? To‘g‘ri, birinchi navbatda, bular kommunal va transport xarajatlaridir.

Ayni vaqtda, inson o‘z hayotiy faoliyatida boshqa, dolzarbligi jihatidan muhim servis turlaridan ham faol foydalanadi: uyali aloqa va internetdan foydalanadi, tibbiy yordam, turli mutaxassislar maslahatlarini oladi.

Madaniy-ma’rifiy tadbirlar: teatr, muzeylarga borish xarajatlari ham alohida e’tiborga loyiq. Zero kishi nafaqat jismoniy ehtiyojlarini qondirishi, balki aqliy va ma’naviy-axloqiy jihatdan yetarli darajada rivojlanishi lozim.

Yashash minimumi juda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Undan eng kam ish haqi, pensiya va nafaqalarni belgilash, davlat va mahalliy byudjetlarni hisob-kitob qilish hamda ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda keng foydalaniladi.

O‘zbekiston 2021-2023 yillarda Markaziy Osiyoda global ochlik indeksi borasida 21,0 ball to‘plab, eng yaxshi natijani ko‘rsatgan.

Global ochlik indeksi (GHI) har yili Concern Worldwide va Welthungerhilfe xalqaro nodavlat tashkilotlari tomonidan e’lon qilinadi. Baholashlar turli manbalardan olingan ma’lumotlarga tayangan holda, uch bosqichli jarayondan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Global ochlik indeksini hisoblashda har bir mamlakat uchun to‘rtta ko‘rsatkichdan foydalaniladi:

To‘yib ovqatlanmaslik: aholining to‘yib ovqatlanmaydigan ulushi (ya’ni oziq-ovqat kaloriyasining pastligi holatida).

Bolalarning to‘yib ovqatlanmasligi: to‘yib ovqatlanmaydigan besh yoshgacha bo‘lgan bolalar nisbati (ya’ni, to‘yib ovqatlanmaslik natijasida ular bo‘yining tana vazniga mos kelmasligi).

Bolalar o‘sishidagi kechikishlar: o‘sishdan kechikayotgan besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning nisbati (ya’ni, bolalarning yoshiga nisbatan o‘sishdan kech qolayotganligi, ularning surunkali ravishda to‘yib ovqatlanmas-liklarini ko‘rsatadi).

Bolalar o‘limi: yetarlicha ovqatlanmaslik va nosog‘lom muhit kabi omillarning natijasi sifatida besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning o‘lim darajasi.

Tadqiqotlar davomida global ko‘lamda so‘nggi o‘n yillikda kuzatilgan eng yuqori ko‘rsatkichga tayanilgan holda, 100 ballik shkala bo‘yicha to‘rttala ko‘rsatkichning har biri baholanadi. Agar mamlakat 0 va 10 ball oralig‘ida ball to‘plagan bo‘lsa, bu mamlakatda “ochlikning past darajasi” kuzatiladi. To‘plangan ballar 10 va 19,9 ball atrofida bo‘lsa bu “o‘rtacha ochlik”, 20 balldan 34,9 ballgacha bo‘lsa – “ochlikning yuqori”, 35 balldan 49,9 ballgacha bo‘lsa “ochlikning kritik” darajasini ko‘rsatadi. To‘plangan ballar 50 va undan yuqori bo‘lsa, bu mamlakatda ochlik darajasi “halokatli” ko‘lamda ekanligidan dalolat beradi.



Manba: Jahon banki, Poverty and Inequality Platform (World Development Indicators, SI.POV.DDAY), 2025. So'nggi mavjud yil ma'lumotlari (2017–2024).

12.1-rasm. Dunyoda kuniga 1,95 dollar va undan kamroq mablag‘ hisobiga kun kechiruvchi aholining ulushi[89]

[89] https://data.unicef.org/indicator-profiles/PV_POP_ALL-PVT/

12.1-rasmda kuniga 1,95 dollar va undan kamroq mablag‘ hisobiga kun kechiruvchi aholining ulushi borasida Jahon bankining ma’lumotlari keltirilgan.

Kambag‘allikni statistik o‘rganish borasida zamonaviy uslubiyotning mavjud emasligi, mazkur muammoni to‘laligicha his qilish va bu borada tegishli chora-tadbirlar ko‘rish imkonini bermaydi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi 1992-yildayoq, minimal iste’mol savatchasi asosida kambag‘allik darajasini rasman hisoblash amaliyotini joriy qildi. 2000 yildan boshlab, mamlakatda yashash minimumi miqdorini yagona uslubiyot orqali hisoblash amaliyoti rasman qonun hujjatlari orqali mustahkamlab qo‘yildi, iste’mol savatchasini har chorakda qayta ko‘rib chiqish tizimi joriy etildi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda Rossiyada 20,9 mln kishi (mamlakat aholisining14,3 %i) qashshoqlik chegarasida kun kechirib kelmoqda.

Kambag‘allik ko‘rsatkichi vaziyatni to‘liq yoritib bera olmaydi. U jamiyat a’zolarining daromadga egalik qilish nuqtayi nazaridan tabaqalanish darajasini aks ettirmaydi. Mazkur holatda, Djini koeffitsiyentidan keng foydalanish tavsiya etiladi. Djini koeffitsiyenti 1912 yilda italyan statisti Korrado Djini tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u ko‘pincha “aholi daromadlari kontsentratsiyasi indeksi” yoki “adolatlilik indeksi” ham deb yuritiladi va turli aholi qatlamlari o‘rtasida daromadlarning notekis taqsimlanishini ko‘rsatadi. Koeffitsiyent 0 (yoki 0%) bilan 1 (yoki100%) oralig‘ida tebranib turadi, bunda 0 mutloq tenglikni, 1 esa mutloq tengsizlikni ifoda etadi. Agar daromadlar insonlar o‘rtasida bir xil taqsimlansa, Lorents egri chizig‘i to‘g‘ri burchakni 45 gradus ostida kesib o‘tuvchi bissektrisaga o‘xshab ketadi. Bu chizma mutloq tenglik chizig‘i ham deb yuritiladi, ammo bunday holat faqatgina, nazariy jihatdangina mavjud bo‘lishi mumkin xolos. Hayotda ba’zi bir insonlar boyroq, ba’zi birlari mutloq tenglik chizig‘i hayotda uchramaydi: ba’zi odamlar boyroq, boshqalari esa kambag‘al, shuning uchun ham ularning daromadlari ularning jamiyatda egallagan mavqelariga mutanosib emas.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 22-25 moddalarida: “Har bir inson jamiyat a’zosi sifatida milliy kuch-harakatlar hamda xalqaro hamkorlik vositasida va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, resurslariga muvofiq ijtimoiy

ta’minotga va o‘zining qadr-qimmatini saqlash, shaxsining erkin rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquqini amalga oshirishga, o‘zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga ega bo‘lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo‘lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlarga ko‘ra tirikchilik uchun mablag‘ bo‘lmay qolgan boshqa hollarda ta’minlanish huquqiga ega”-deyilgan. Shundan kelib chiqqan holda, kambag‘allikka qarshi kurashish har qanday huquqiy-demokratik davlatning muhim vazifalaridan biridir, deyishga to‘la asosimiz bor.

Ammo shuni qayd etish lozimki, kambag‘allikni kamaytirish uchun turli manbalardan katta miqdordagi moliyaviy mablag‘larni ajratishning o‘zi kamlik qiladi. Kamabag‘allik favqulodda ko‘p qirrali bo‘lgani holda, uni keltirib chiqaruvchi sabablar ham turlichadir. Kambag‘allikni shunchaki ajratilayotgan nafaqalarni ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash, tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan kredit mablag‘larining miqdorini ko‘paytirish orqali kamaytirib bo‘lmasligini o‘tgan yillar tajribasi yaqqol ko‘rsatib turibdi. Xususan, mamlakatimizda so‘nggi 2,5 yil ichida tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kredit mablag‘lari so‘nggi 30 yil ichida ajratilgan mablag‘lardan anchagina ko‘p bo‘lsada, bu o‘zining yetarlicha ijobiy ta’sirini bermadi. Kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha Yevropa tarmog‘i (EAPN) insonning kambag‘allik holatiga tushib qolish xavfini kuchaytiruvchi bir qator omillarni ajratib ko‘rsatadi, xususan bunday omillar sirasiga quyidagilar kiritiladi: ishsizlik, savodxonlik darajasining pastligi, nogironlik, inson salomatligining yomonligi, u yoki bu kam sonli etnik guruhga mansublik, uzoq yoki qashshoq hududlarda istiqomat qilish va shu kabilar. Bizning fikrimizcha, bu o‘rinda eng katta e’tibor berilish lozim bo‘lgan jihat- bu insonlarning iqtisodiy tafakkur darajasidir. Insonlarda o‘z hayotlarini yaxshiroq qilish va rivojlantirish istagi bo‘lishi kerak. Ular o‘zlarini himoyalangan his qilishlari va mol-mulklarining yo‘q qilinishi, hukumatga yaqin amaldorlar yoki ishbilar-monlar tomonidan olib qo‘yilishidan

qo‘rqmasliklari kerak. Ular ovozining saylov kampaniyasi boshlanganida emas, balki har doim hokimiyat tomonidan eshitilishini ta’minlaydigan muassasalarga ega bo‘lishi lozim. Insonlarga munosib ish joylari bilan ta’minlanish, uy-joyga ega bo‘lish, tibbiy va boshqa shu kabi ijtimoiy xizmatlardan bemalol foydalan olish imkoniyatlari taqdim etilishi zarur.

Kambag‘allikka qarshi kurashishda dunyo mamlakatlari tajribasini o‘rganish va ulardan amaliyotda keng foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurashish dasturlarini ishlab chiqishda Xitoy tajribasidan foydalanish ijobiy samara beradi. Xitoy bugungi kunda kambag‘allikni tugatish borasida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoyda bugungi kunga kelib 850 million kishi qashshoqlik chegarasidan chiqarildi. Xitoyda kambag‘allik darajasi 1981 yilda 88 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilda bu ko‘rsatkich 0,7 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlardagi kambag‘allik darajasi bilan to‘la mos tushadi, xususan kambag‘allik darajasi AQShda (1%), Shvetsiyada (0,61%), Germaniyada (0,19%), Italiyada (1,5%)ni tashkil etadi.

Xitoyda kambag‘allikka qarshi kurashish chora-tadbirlari quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Ko‘rsatilayotgan ijtimoiy himoya chora-tadbirlarining aniq manzilga yo‘naltirilganligi;

2. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, mahalliy bozorlarni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash borasida ilmiy-tadqiqot ishlarining har jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi;

3. Kambag‘allikka qarshi kurashishda har bir hududning o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqib yondashish;

4. Xitoyda amalga oshiriluvchi ijtimoiy siyosat aholi turli qatlamlarining manfaatlarini qamrab olishga qaratilgan. Xususan, keksa yoshdagi aholi uchun tegishli ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish maqsad qilib olingan bo‘lsa, mehnatga layoqatli va ayniqsa yoshlarning mehnat salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish Xitoyda kambag‘allikka qarshi kurashish siyosatining asosini tashkil etadi,

bunda asosiy e’tibor yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatishga qaratiladi, ya’ni “Insonlarga qarmoq berib, ularga baliq tutishni o‘rgatish kerak”-degan Konfutsiy ta’limotiga qat’iy amal qilinadi;

5. Qishloq hududlarida kambag‘allikni kamaytirish maqsadida qishloq hududlariga sanoat ishlab chiqarishini olib kirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish;

6. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish maqsadida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish amaliyotidan keng foydalanish;

7. Ijtimoiy dasturlarga yo‘naltirilgan har qanday mablag‘ning sarflanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish.

Jahon bankining qashshoqlikni kamaytirish bo‘yicha har ikki yilda e’lon qilinuvchi hisobotiga ko‘ra, dunyo aholisining deyarli 46 foizi (3.4 milliard kishi) kuniga 5,5 dollardan kamroq mablag‘ga kun kechiradi. 1.9 milliarddan ortiq kishi esa (dunyo aholisining 26,2 foizi) kuniga3,2 dollardan kamroq mablag‘ hisobiga kun kechiradi. Kuniga 1,95 dollarga kun kechiruvchi eng qashshoq aholining ulushi dunyo bo‘yicha 10 foizgacha qisqargan bo‘lsada, hanuz dunyoda kambag‘allikni kamaytirish muammosi o‘z ahamiyatini yo‘qotganicha yo‘q. Oxfam xalqaro tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha yig‘ilayotgan soliq tushumlarining har bir dollariga to‘g‘ri keluvchi boylar to‘laydigan oliq atigi 4 tsentni tashkil etar ekan. Agar dunyo bo‘yicha eng boy insonlarning atigi 1 foizi to‘lanayotgan soliqlar miqdorini atigi 0,5 foizga oshirsalar, dunyo mamlakatlari bo‘yicha bugungi kunda oddiy maktab ta’limidan bebahra qolayotgan 262 million bola uchun maktabga qatnash imkoniyati yaratilar ekan.

Kambag‘allik to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz, kambag‘allikva qashshoqlikni tavsiflashda “kambag‘allik tuzog‘i” deb ataluvchi mexanizm mavjud ekanligini aytib o‘tishimiz lozim. Bir qator “kambag‘allik tuzoqlari” mavjudki, inson ulardan istalgan birining domiga tushib qolishi hech gap emas. Quyida ulardan ba’zi birlarini keltirib o‘tamiz:

1. **Qashshoq mamlakatda tug‘ilish va istiqomat qilish.** Iqtisodiy rivojlanishning past darajasi o‘z navbatida ta’lim sifatining yomonlashishiga, ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatining talab darajasida bo‘lmasligini keltirib chiqaradi. Bunday vaziyat ish haqi darajasining pastligi va ishsizlikning yuqori ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Bunday holatda tuzoqdan chiqib ketishning yagona yo‘li – bu mehnat migratsiyasi hisoblanadi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan 9,3 foizni tashkil etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ishsiz va ishga joylashish umidida bo‘lganlar soni 1,3 million kishini tashkil etadi. Bandlik va mehnat munosabatlar vazirligidan olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlar o‘rtasida ishsizlik darajasining yuqoriligi katta tashvish uyg‘otadi, jumladan 20-30 yoshgacha bo‘lganlar orasidagi 15,1 foizni, 15-25 yosh oralig‘ida bo‘lganlar o‘rtasidagi ishsizlik 16,8 foizni tashkil qilgani holda, ayollarning 12,7 foizi ish o‘rniga ega emas. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda mamlakatimiz fuqarolarining 4,5 million nafaridan oshiqrog‘i xorijda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishadi. Mehnat migrantlari mamlakatimizga har yili 5 milliard dollardan ko‘proq pul mablag‘lari jo‘natishadi, bu esa mamlakat YaIMining 10 foizdan ortig‘i demakdir. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, agar mehnat migrantlari tomonidan pul o‘tkazmalarining keskin qisqarishi mamlakatimizda kamabag‘allik darajasining ikki barobarga ortishiga olib kelar ekan.

2. **Qishloq hududlarida tug‘ilish va istiqomat qilish.** Sir emaski, shahar fuqarolar uchun sifatli turmush darajasini ta’min etadi. Qishloq aholisiga nisbatan shaharliklar ta’lim, madaniyat, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish, yuqori ish haqiga ega bo‘lish borasida bir qator avfzallikalarga egalar. Qishloq aholisining past daromadlari taraqqiyotning qator yutuqlaridan foydalanishga imkon bermaydi. O‘zbekistonda YaIMning 75 foizi, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 85 foizdan oshiqrog‘i shaharlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimiz bo‘yicha ko‘rsatilayotgan axborot-kommunikatsiya xizmatlarining

99,1 foizi, moliyaviy xizmatlarning 98,3 foizi, ta’lim xizmatlarining 80,8 foizi va tibbiy xizmatlarning 71,9 foizi shaharlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

3. **Erta yoshda farzand ko‘rish va ko‘p bolali oilalar.** Yosh ayollar bola ko‘rganidan so‘ng, ishga joylasha olmaganliklari bois, ko‘pchilik hollarda kambag‘allik tuzog‘iga tushib qoladilar. Agar kerakli darajada ta’lim olmagan bo‘lsa, vaziyat yanada murakkablashadi. Yetarlicha ta’lim darajasi va amaliy ish ko‘nikmalariga ega bo‘lmaslik oqibatida ayollar munosib ish joyi va ish haqiga ega bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘ladilar. BMTning Bolalar fondi (YuNISEF)ning ta’kidlashicha bolali oilalarning faqatgina 17 foizi bola parvarishi bo‘yicha nafaqa oladilar, ammo nafaqa pullari kambag‘allik darajasini pasaytirishga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmaydi. 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida kambag‘allik darajasi katta yoshdagilarga nisbatan 1,5 barobarga yuqoriroqdir.

4. **Kambag‘al oilada dunyoga kelish va yaxshi ta’lim olmaslik.** BMTning Bolalar fondi (YuNISEF) ekspertlarining ta’kidlashicha kam ta’minlangan oilalar o‘z farzandlarining yetarlicha kasbiy va oliy ta’lim olishlariga imkoniyatlar yaratish borasida jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarga duch keladilar. Kam ta’minlangan oilalar farzand-larining hozirda bunday imkoniyatlardan mahrum bo‘lishi ularning kelgusida moliyaviy imkoniyatlarining cheklanishiga olib keladi.

5. Uzoq muddat davomida past haq to‘lanuvchi ishda ishlab kelish. Agar inson uzoq muddat davomida bitta faoliyat turi bilan shug‘ullansa, u asta-sekinlik bilan malaka va ko‘nikmalarini yo‘qotib boradi. Uzoq muddat mobaynida inson bitta joyda ishlar ekan unda o‘z hayotida biror bir ijobiy o‘zgarishlar yasashga intilish ishtiyoqi asta-sekinlik bilan so‘nib boradi.

Rossiya Federatsiyasi Iqtisodiyot oliy maktabi aholi daromadlari va turmush darajasi tahli Markazining tadqiqotlariga ko‘ra, kambag‘allari toifasiga kiruvchi insonlarning xulq-atvori ma’lum yillar oralig‘ida quyidagicha tartibda o‘zgarar ekan. Dastlabki yilda insonlar o‘z jamg‘armalari, qarindosh-urug‘ va tanish-bilishlardan qarz olish hisobiga hozirgi paytdagi iste’mol va turmush sifati darajasini saqlab qolishga intiladilar. Ular barcha kuch va imkoniyatlarini ishga solib yangi yoki qo‘shimcha ish topishga harakat qiladilar.

Navbatdagi bosqich ikki yil davom etadi. Insonlar mazkur bosqichda iste'mol tarkibini o‘zgartira boshlaydilar. Arzon tovarlarni ko‘plab sotib ola boshlaydilar, qimmat xorijiy sayyohlik safarlarini ichki arzon turistik marshrutlarga almashtiradilar. ammo oziq-ovqat tovarlari iste'moli avvalgi darajada qoladi. Uch yildan so‘ng agar munosib ish joyi topilmasa, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ymagan bo‘lsa, insonlar boshqa va hattoki jinoiy daromad topish yo‘llarini izlay boshlaydilar. Ular o‘z iste'mollarini keskin pasaytiradilar.

Yettinchi yilga kelib, inson kambag‘allikka ko‘nikadi va uni unumdor mehnat sohasiga qaytarish endi juda qiyin kechadi. U ishga chiqish yoki vaqtinchalik daromad keltiruvchi faoliyat turlari bilan shug‘ullanishdan ko‘ra, nafaqaga kun kechirishni, qarindoshlarning yordamiga ko‘z tikishni avfzal biladi.

Kambag‘allik haqida so‘z yuritganda, u bitta inson uchun tegishli bo‘lgan muammo emasligini anglab etishimiz lozim. Kambag‘allik jamiyat va iqtisodiyotda bir qator salbiy jarayonlarni yuzaga keltiradi. Kambag‘allik bir qator obyektiv va subyektiv sabablar tufayli tug‘ilishning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Kambag‘allar yetarlicha ta'lim olish imkoniyatiga ega bo‘lmaganliklari bois, malaka va kasbiy ko‘nikmalari past xodimlar safini to‘ldiradilar. Jamiyat uchun zarur bo‘lgan kasb egalari, xususan o‘qituvchi va shifokorlar yuqori daromadga ega bo‘lish maqsadida o‘z ish joylarini tashlab boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ladilar. Kambag‘allik jinoyatchilikning o‘sishiga olib keladi, chunki tirikchilik qilish uchun insonlar daromad topishning noqonuniy yo‘llaridan ham foydalanishga majbur bo‘ladilar. Kambag‘allik jamiyatda daromadlarning keskin tabaqalanishiga va ijtimoiy ziddiyatlarning chuqur ildiz otishiga sabab bo‘ladi.

Amerikalik iqtisodchi Djeffri Saks o‘zining "Kambag‘allikning intihosi"-deb nomlanuvchi kitobida jamiyatning kambag‘allik changalidan qutulishga imkon beruvchi kapitalning 6 ta turini ajratib ko‘rsatadi, ular sirasiga quyidagilarni kiritadi: inson kapitali, ishbilarmonlik kapitali, infratuzilma, tabiiy kapital, ijtimoiy o‘rnatilgan kapital va bilimlar kapitali.

Saks davlat, eng avvalo, o‘zining barcha kuch va imkoniyatlarini inson kapitaliga investitsiyalar (sog‘liq, ta'lim, oziq-ovqat), infratuzilma (yo‘llar,

kommunal xizmat ko‘rsatish, ichimlik suvi, atrof muhit muhofazasi va sanitariya), tabiiy kapital (bioxilma-xillik va ekotizimlarni saqlab qolish), ijtimoiy o‘rnatilgan kapital (samarali davlat boshqaruvi, sudlov tizimi, huquqni muhofaza qilish idoralari va boshq.) va bilimlar kapitali (jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi turli soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini qo‘llab-quvvatlash)ga yo‘naltirishi lozim, deb hisoblaydi.

Kambag‘allikni qisqartirish uchun davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar miqdorini ko‘paytirishimiz, tadbirkorlarga turli imtiyoz va engilliklar taqdim qilgan holda, ularni keng ko‘lamli xayriya ishlariga jalb qilishimiz mumkin. Ammo bunday tadbirlarni amalga oshirish bilangina jamiyatda kambag‘allik muammosini bartaraf qilishning deyarli imkoni yo‘q. Bunday tadbirlar aholining yashab qolishiga, shunchaki kun kechirishiga zamin yaratsada, lekin kambag‘allik changalidan qutulib chiqishga imkon bermaydi. Buning uchun eng avvalo, mamlakat hukumati tomonidan amalga oshiriluvchi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni tubdan qayta ko‘rib chiqish talab etiladi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda kambag‘allikka qarshi kurashishga doir chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish talab etiladi:

- Jamiyatda kambag‘allikka sabab bo‘luvchi korrupsiya, sifatsiz infratuzilma, ko‘rsatilayotgan turli xil ijtimoiy xizmatlar sifatining pastligi, atrof-muhit va ishlab chiqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ekologik omillar va shu kabilarni chuqur tahlil qilish asosida kambag‘allikka qarshi kurashish borasida ilmiy asoslangan dastur va rejalar ishlab chiqish;

- Yashash minimumi va uni hisob-kitob qilish mexanizmini zudlik bilan qonuniy asosda mustahkamlab qo‘yish;

- Kichik va o‘rta shaharlarni rivojlantirish hisobiga qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish masalalarini hal etish;

- Yoshlarni arzon uy-joylar bilan ta’minlashda ipotekali kreditlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ajratilayotgan ipoteka kreditlarining foiz stavkalarini hududlar kesimida qayta ko‘rib chiqish;

- Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, fuqarolarning ayniqsa yoshlar o‘rtasida tibbiy madaniyatni shakllantirish;

- O‘zbekistonda aholi o‘rtasida “namoyishkorona iste’mol” darajasi haddan tashqari yuqori hisoblanadi. Bu eng avvalo, yillab yig‘ilgan mablag‘lar evaziga serhasham to‘ylar qilish, qimmatbaho mashinalar sotib olish, chiroyli telefon va avtomobil raqamlariga juda katta mablag‘lar sarflash kabilarda ko‘rinadi. Bularning barchasi mamlakatimiz aholisining iqtisodiy xulq-atvori “kambag‘allik falsafasi” ustiga qurilganligini ko‘rsatadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, aholi keng qatlamlarining iqtisodiy fikrlashini o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- Yoshlarning kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinish darajasini oshirish va bunda asosiy e’tiborni mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda, yoshlarni zamonaviy va istiqbolli kasb-hunar va mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitishga qaratish;

- Iqtisodiyot tarmoq va sohalari, ayniqsa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini izchil yo‘lga qo‘yish;

- Inson kapitali sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish;

- Bilimlar iqtisodiyotini shakllantirishga alohida urg‘u berish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

Jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy hayotida raqamli texnologiyalarning tobora izchil joriy etib borilishiga erishish va shu kabilar.

Qisqacha xulosalar

1. Demografik xavfsizlik haqida gap ketganda, ijtimoiy, iqtisodiy, milliy, innovatsion, sarmoyaviy, epidemiologik va ekologik, moliyaviy va soliq xavfsizligi va boshqa shu kabi kategoriyalarning inson kapitali sifati bilan o‘zaro bog‘liqligi nazarda tutiladi. Demak, demografik xavfsizlik – bu inson hayotining barcha segmentlari va sohalarini qamrab oladigan kategoriyadir, deb ta’riflashimiz mumkin.

2. Bugungi kunda kambag‘allikning favqulodda ko‘rinishi bo‘lgan qashshoqlik dunyodagi eng katta va aytish mumkinki, og‘riqli muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Qashshoqlik-bu insonning kuniga 1,95 dollarga yoki undan ham kamroq mablag‘ hisobiga kun kechirishini anglatadi. Shu bilan bir qatorda, qashshoqlik-bu insonning kambag‘allik chegarasidan ham past darajada daromadga ega bo‘lishini va insonning shunchaki hayotda mavjud bo‘lishini aks ettiradi. Kambag‘allik chegarasi kuniga 1,95 dollar etib belgilangan bo‘lsada, har bir mamlakat o‘zining rivojlanish darajasi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, kambag‘allik chegarasini belgilaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida agar insonning daromadlari o‘zi istiqomat qilayotgan mamlakatdagi o‘rtacha ish haqining 60 foizdan kamroq qismini tashkil etsa, u kambag‘al insonlar sirasiga kiritiladi. Dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida kambag‘allik chegarasi deyilganda, yashash minimumidan past darajadagi daromad chegarasi tushuniladi.

Nazorat uchun savollar

1. Demografik sohada iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tahdidlarini tasniflab bering
2. Demografik xavfsizlik indikatorlari tizimini ishlab chiqing.
3. Ijtimoiy sohadagi iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni baholang.
4. Aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilashga to‘sqinlik qiluvchi asosiy muammolarni sanab o‘ting.
5. Aholi turmush darajasi va sifatini tavsiflovchi asosiy integral ko‘rsatkichlar qaysilar.
6. Aholi daromadlarining tabaqalanishi, kambag‘allik va qashshoqlik chegaralari to‘g‘risida tushuncha bering.
7. Ijtimoiy-demografik sohada iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etish borasida qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb, o‘ylaysiz.

“IQTISODIY XAVFSIZLIK” FANIDAN TEST SAVOLLARI

1. Quyidagi ta’riflardan qaysi biri “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini to‘laroq tavsiflab beradi?

A) iqtisodiy xavfsizlik – bu iqtisodiyotning ijtimoiy ehtiyojlarni samarali qondirishga qodirligidir;

B) iqtisodiy xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat va davlatning mavjudligi va ularning talab-ehtiyojlarining qondirilishidir;

D) iqtisodiy xavfsizlik – bu milliy iqtisodiyot mustaqilligining, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va takomillashib borishga qodirligini ta’minlovchi shart-sharoit va omillar yig‘indisidir;

E) iqtisodiy xavfsizlik – bu turli beqarorlikni, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta’siridan himoya qiluvchi ichki imkoniyatlar yig‘indisidir.

2. Iqtisodiy xavfsizlikning umumiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

A) turmush darajasi va sifati, inflyatsiya sur’ati, iqtisodiy o‘sish, byudjet defitsiti, davlat qarzi;

B) mulk tarkibi, soliq tizimi, “xufyona iqtisodiyot” faoliyati, inflyatsiya;

D) inflyatsiya, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv darajasi, turmush darajasi va sifati, iqtisodiy o‘sish;

E) A va B javoblar.

3. _____ anglangan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning namoyon bo‘lish shaklidir.

A) iqtisodiy manfaat;

B) davlat manfaati;

D) jamiyat manfaati;

E) shaxsiy manfaat.

4. Iqtisodiy tahdidlar qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?

A) global ekologik tahdidlar;

B) geosiyosiy va tashqi iqtisodiy tahdidlar;

D) mamlakat ichidagi tahdidlar;

E) ichki va tashqi tahdidlar.

5. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash kontseptsiyasi _____ asoslangan holda ishlab chiqiladi.

A) iqtisodiy holatni obyektiv baholashga;

B) iqtisodiy holatni obyektiv baholashga hamda iqtisodiy holatning rivojlanish tamoyili va tendensiyalarini bashorat qilishga;

D) iqtisodiy holatning rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilishga;

E) iqtisodiy holatni obyektiv baholashga hamda iqtisodiy holatning rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilishga.

6. Iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan quyidagi sohalardan qaysi biri eng muhim tarmoqlar qatoriga kiradi?

A) yoqilg‘i-energetika, oziq-ovqat sanoati, transport va aloqa;

B) yoqilg‘i-energetika, harbiy soha, ilmiy texnika salohiyati;

D) transport va aloqa, ilmiy texnika salohiyati, harbiy soha;

E) oziq-ovqat sanoati, yoqilg‘i-energetika, ilmiy texnika salohiyati.

7. Shaxs xavfsizligi deganda _____ tushuniladi.

A) insonning ehtiyojlari, manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan himoyalanganligi;

B) insonning iqtisodiy faoliyatiga bo‘ladigan salbiy ta’sirlardan himoyalanganligi;

D) inson hayotiga, salomatligiga, mol-mulki va kapitaliga bo‘lgan tahdidlardan himoyalanganligi;

E) to‘g‘ri javob yo‘q.

8. Bozor munosabatlari sharoitida insonning imkoniyatlari qaysi omil yoki omillar bilan belgilanadi?

A) shaxsiy mol-mulki, boyligining miqdori;

B) shaxs boshqaradigan kapital miqdori;

D) shaxsga ma’muriy, ixtiyoriy yoki majburiy ravishda bo‘ysunuvchi yoki unga qaram jismoniy shaxslar soni;

E) barcha javoblar to‘g‘ri.

9. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi – ma’muriyat va personal tomonidan amalga oshirilgan _____ chora-tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarning ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatidir.

A) huquqiy, ijtimoiy, injener – texnik;

B) tashkiliy – iqtisodiy, injener – texnik;

D) huquqiy, tashkiliy – iqtisodiy, injener – texnik;

E) huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy – iqtisodiy, injener – texnik.

10.Quyida keltirilgan omillardan qaysi biri korxonaning tijorat sirlari va axborotlarini himoyalash choralariga kirmaydi?

A) axborotni patentlashtirish;

B) bozor kon’yunkturasini bilish;

D) muallif huquqini olish;

E) tijorat axborotini hisobga olish.

11. Mamlakat xavfsizligini ta’minlashni boshqarish tizimi o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

A) ichki va tashqi bozorlarni himoyalash, kommunikatsiya va o‘zaro aloqa tizimi;

B) axborotlar, tashkiliy tuzilmalar, ichki va tashqi bozorlarni himoyalash;

D) tashkiliy tuzilmalar, kommunikatsiya va o‘zaro aloqa tizimi, axborotlar;

E) har tomonlama tayyorlangan kadrlar, tashkiliy tuzilmalar.

12. Xufyona iqtisodiyotga qarshi qanday chora- tadbirlar qo‘llanilishi mumkin?

I. Korxonalar xo‘jalik moliyaviy faoliyati to‘g‘risida haqqoniy ma’lumotlarni to‘plash;

II. Jismoniy shaxslarning daromad olishi va xarajatlari to‘g‘risida haqqoniy ma’lumotlarni to‘plash;

III. Tahlil qilish asosida iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni keng qamrovli nazorat qilish tizimini shakllantirish;

A) I, II;

B) II, III;

D) I, II, III;

E) I, III.

13.Soliq yukining og‘irligi qanday natijalarga olib keladi?

A) iqtisodiy xavfsizlikning ta’minlanishiga;

B) soliq obyektlarining kamayishiga;

D) byudjet daromadlarining oshishiga;

E) turli huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga.

14. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi sabablarini nima bilan izohlash mumkin?

A) aholining kambag‘al va boyligida;

B) ikki tabaqa o‘rtasidagi haddan tashqari katta farqning yuzaga kelishi;

D) amaldorlarning islohotlarning mohiyatini tushunib yetmasligida;

E) norasmiy yashirin ishsizlik darajasining o‘sib borishida.

15.O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lib kirishi qanday ijobiy oqibatlarga olib keladi?

I. JSTning boshqa a’zolari bilan savdo qilishda mumkin qadar qulay rejimga ega mamlakat maqomini olishi;

II. Eksport, import xorijiy va mahalliy sarmoyalar salmog‘ining ortishi natijasida davlatning fiskal daromadlari oshadi;

III. Iqtisodiyotning ayrim strategik tarmoqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hukumat imkoniyatlarining kamayishi;

IV. Ichki bozor narxlari, monopoliya tariflari, texnik normalari va standartlar, intellektual mulkdan foydalanish qoidalari kabi amaliyotda mavjud bo‘lgan tartibga solish usullarini o‘zgarmagan holda saqlab qolish imkoniyati kamayadi;

V. Xorijiy sarmoyadorlarning ishonchi mustahkamlanadi, respublika iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarning oqimi ortadi.

A) I, II, V;

B) I, II, III;

D) II, III, IV, V;

E) I, II, III, IV, V.

16.Iqtisodiy xavfsizlik inshootlari – bu _____.

A) mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqaruvchilari va sotuvchilari;

B) koordinatsiyalashgan iqtisodiy munosabatlar;

D) xavfsizlik siyosatining asosiy mazmuni va strategik maqsadini tashkil etuvchi, real mavjud bo‘lgan hodisa, jarayon va munosabatlar;

E) banklar, birjalar, jamg‘armalar va sug‘urta kompaniyalari.

17.O‘zbekistonning harbiy doktrinasi Oliy majlisning nechanchi sessiyasida ko‘rib chiqildi?

A) 1995 yil 14-Sessiyasida;

B) 1996 yil 14-Sessiyasida;

D) 1995 yil 11-Sessiyasida;

E) 1996 yil 11-Sessiyasida.

18.O‘zbekiston Respublikasi “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonuni Oliy majlisning nechanchi sessiyasida yangi tahrirda qabul qilindi?

A)11 may 2001 yil 2-chaqiriq 7- sessiyasida;

B)12 may 2001 yil 3-chaqiriq 7- sessiyasida;

D)15 may 2000 yil 2-chaqiriq 8- sessiyasida;

E)11 may 2001 yil 2-chaqiriq 8- sessiyasida.

19. _____Qurolli Kuchlarning oliy boshqaruvini amalga oshiradi va Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi.

A) O‘zbekiston Respublikasi IIV Vaziri;

B) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vaziri;

D) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vaziri;

E) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

20. O‘zbekistonda qaysi organlar mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta’minlaydi?

A) Ichki Ishlar Vazirligi;

B) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari;

D) O‘zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Kuchlari;

E) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli va Milliy Xavfsizlik Kuchlari.

21. Quyidagilardan qaysi biri tashqi xavf tarkibiga kiradi?

A) iqtisodiyotga, ayniqsa ba’zi rhududlarda, yuqori demografik bosim;

B) totalitar tuzumdan qolgan iqtisodiyotdagi chuqur qayta ishlash, soha va hududiy disproportsiyalar;

D) O‘zbekistonni jahon iqtisodiy tizimiga va Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiyasiga to‘sqinlik qilish;

E) bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi.

22.Iqtisodiy xavfsizlik mezonlari deganda nimani tushunasiz?

A) iqtisodiyotning raqobatbardoshligini baholash;

B) iqtisodiy xavfsizlikning mohiyatini ifodalovchi, muhim jarayonlar nuqtai nazaridan iqtisodiy holatni baholash;

D) ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish va hal etish imkoniyatlarini baholash;

E) resurs salohiyati va uni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash.

23. Iqtisodiy xavfsizlik obyekti darajasi bo‘yicha quyidagilarga ajratiladi:

A) makroiqtisodiy daraja, mezo daraja, mikro daraja, oila va shaxs darajasi;

B) makroiqtisodiy daraja, mezo daraja, mikro daraja;

D) mezo daraja, mikro daraja, oila va shaxs darajasi;

E) makroiqtisodiy daraja, mikro daraja.

24. Aholining hayot darajasi va sifati ko‘rsatkichlari ichida eng muhimlaridan biri – bu:

A) mehnatga haq to‘lash darajasi va ish bilan ta’minlash ko‘rsatkichi;

B) mehnatga haq to‘lash darajasi va aholining pul daromadlari ko‘rsatkichi;

D) mehnatga haq to‘lash darajasi ko‘rsatkichi;

E) ish bilan ta’minlash ko‘rsatkichi.

25. Barqarorlik – bu_____dir.

A) jamiyatning favqulodda holatlarda o‘z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati;

B) jamiyatning favqulodda holatlarda ham o‘z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati, holatni tiklash imkoniyati;

D) jamiyatning iqtisodiy beqaror holatlarida o‘z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati, holatni tiklash imkoniyati;

E) jamiyatning ijtimoiy beqaror holatlarida o‘z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati, holatni tiklash imkoniyati.

26. Quyidagi omillardan qaysi biri ichki xavf tarkibiga kiradi?

A) tashqi transport, axborot va ilmiy-texnika kommunikatsiyalar tizimining rivojlanmaganligi;

B) O‘zbekiston Respublikasini xomashyo bazasi va past sifatli, raqobatbardosh bo‘lmagan mahsulot o‘tkazish bozori sifatida saqlab qolish;

D) O‘zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga va Markaziy Osiyo hududida iqtisodiy integratsiyasiga to‘sqinlik qilish;

E) iqtisodiy sohada jinoyatning tarqalishi, xo‘jalik subyektlarini huquqiy himoya qilish mexanizmining mukammal emasligi.

27. Qaysi organlar iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda faol ishtirok etadi?

A) qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat;

B) qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati;

D) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati;

E) ijro etuvchi va sud hokimiyati.

28.Milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish shakl va vositalarni tanlash davlatning siyosati strategiyasi va _____ asosida amalga oshiriladi.

A) iqtisodiy xavfsizlik kontseptsiyasi;

B) iqtisodiy xavfsizlik dasturi;

D) konstitutsion qonun;

E) hukumat qarorlari.

29. Iqtisodiy xavfsizlik omillari tizimi deganda nimani tushunasiz?

A) iqtisodiy xavfsizlik omillari tizimi bu iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy, texnik, informatsion shart-sharoitlardir;

B) iqtisodiy xavfsizlik omillari tizimi bu davlatning iqtisodiy, ijtimoiy shart-sharoitlaridir;

D) iqtisodiy xavfsizlik omillari tizimi bu ichki va tashqi xavflarning oldini olish uchun ko‘rilgan chora tadbirlardir;

E) iqtisodiy xavfsizlik omillari tizimi bu siyosiy, ekologik, ilmiy, texnik, informatsion shart-sharoitlardir.

30.Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy omillar qatoriga kiradi?

A) milliy va madaniy masalalarni hal qilish;

B) aholining huquqiy va siyosiy madaniyati;

D) energetika resurslari va mahsulotlari;

E) ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma.

31.Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy demografik omillar qatoriga kiradi?

A) yoqilg‘i energetika resurslari va mahsulotlari;

B) aholi yoshi, jinsiy bo‘linishi, bilim darajasi;

D) ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma;

E) milliy va madaniy masalalarni hal qilish.

32. Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi siyosiy omillar qatoriga kiradi?

A) axborotni qayta ishlash tizimi;

B) davlatning ravnaqi, siyosiy harakatlar va partiyalar;

D) aholining milliy tarkibi;

E) yoqilg‘i energetika resurslari va mahsulotlari.

33.Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi etnografik va iqtisodiy omillar qatoriga kiradi?

A) davlatning ravnaqi, siyosiy harakatlar va partiyalar;

B) tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichi;

D) aholining milliy tarkibi;

E) axborotni qayta ishlash tizimi.

34.Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi informatsion va informatsion-psixologik omillar qatoriga kiradi?

A) tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichi;

B) axborotni qayta ishlash tizimi;

D) ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma;

E) yoqilg‘i energetika resurslari va mahsulotlari.

35. Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy va tabiiy sharoitlar ta’sirini sintezlovchi omillar qatoriga kiradi?

A) tabiiy resurslarni ishlab chiqarish va ulardan oqilona foydalanish;

B) ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma.

D) o‘rmon, suv, yer, biologik resurslar.

E) sog‘liqni saqlash tizimi rivojlanishi darajasi.

36. Iqtisodiy inqirozdan chiqish maqsadida 1934 yilda qaysi mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik bo‘yicha maxsus Federal Qo‘mita tashkil etilgan?

A) Frantsiya;

B) Shvetsiya;

D) AQSh;

E) Rossiya.

37.Qaysi mamlakatning iqtisodiy modeli boshqa modellarga nisbatan insonparvarroq?

A) Frantsiya modeli;

B) AQSh modeli;

D) Yapon modeli;

E) Shvetsiya modeli.

38.Kim geosiyosiy xavfsizlik subyekti bo‘lib hisoblanadi?

A) davlat;

B) jahon hamjamiyati;

D) xalq;

E) hukumat.

40.AQShda iqtisodiy xavfsizlik bo‘yicha Federal Qo‘mita qachon tashkil topgan?

A)19 iyun 1924 yil;

B) 29 iyul 1934 yil;

D) 29 iyun 1934 yil;

E) 19 iyul 1934 yil.

41.“Qachonki Frantsiya birinchilar qatorida turar ekan, shundagina u haqiqiy Frantsiya bo‘ladi” iborasi qaysi davlat arbobiga tegishli?

A) Mitteran;

B) Sharl de Gol;

D) Jak Shirak;

E) Napoleon Bonapart.

42.O‘zbekiston Respublikasining “Xavfli sanoat obyektlarining ishlab chiqarish xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

A) 25 avgust 2006 yil;

B) 3 oktyabr 2006 yil;

D) 3 oktyabr 2005 yil;

E) 25 avgust 2005 yil.

43.Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ijtimoiy mehnat samaradorligining barqaror o‘sishi qanday bo‘lishi kerak?

A) 5 %dan oshmasligi kerak;

B) 7%dan kam bo‘lmasligi kerak;

D) 5 %dan kam bo‘lmasligi kerak;

E) 11 %dan kam bo‘lmasligi kerak.

44.Shvetsiya iqtisodiy modeli qanday maqsadga yo‘naltirilgan?

A) daromadlarni nazorat qilish;

B) ijtimoiy maqsadlarga erishish;

D) kapitaldan foydalanish;

E) antimonopol qonunlar.

45.Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun ilmiy tadqiqot ishlariga ajratiladigan xarajatlar YaIMga nisbatan necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak?

A) 2 %;

B) 2.5 %;

D) 1.5 %;

E) 4 %.

46.Xavfsizlik tushunchasi birinchi bor qachondan boshlab qo‘llanila boshlandi?

A)1980 yildan;

B)1288 yildan;

D)1880 yildan;

E)1190 yildan.

47.YeVRAzES tashkilotini tashkil qilish bo‘yicha shartnoma qachon va qayerda imzolangan?

A)17 iyun 2002 yil, Ostonada;

B)10 noyabr 2000 yil, Toshkentda;

D) 10 oktyabr 2000 yil, Ostonada;

E) 21 dekabr 1999 yil, Moskvada.

48. 100 ming kishilik aholiga to‘g‘ri keladigan jinoyatlar soni qancha bo‘lsa xavfsizlik chegarasi buziladi?

A) 4000;

B) 5000;

D) 4500;

E) 3000.

49.MDH mamlakatlarida iqtisodiy xavfsizlik g‘oyalari va u bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy xavfsizlik tushunchalari to‘g‘risidagi kitob birinchi marta qachon chop etilgan?

A)1989;

B)1988;

D)1987;

E)1986.

50.2024 yilda YaIMning o‘sish sur’atlari necha foizni tashkil etdi?

A)107.4%;

B)105.6%;

D)108.1%;

E)106.5%.

51. Aholi turmush darajasi qaysi mamlakatda eng yuqori?;

A) AQSh;

B) Yaponiya;

D) Xitoy;

E) Kanada.

52. AQShdagi Buyuk Depressiya qaysi yillarda sodir bo‘lgan?;

A)1911-1913 yillarda;

B)1925-1928 yillarda;

D)1929-1933 yillarda;

E)1941-1945 yillarda.

53. Iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish samaradorligi bo‘lishi uchun qaysi omil mavjud bo‘lishi kerak?

A) maqsadga yo‘naltirilgan omil;

B) boshqaruvchanlik omili;

D) samaradorlik omili;

E) maqsadga yo‘naltirilgan boshqaruvchanlik va samaradorlik omillari.

54.Mamlakatni iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy omillarni belgilang

A) moddiy va tashkiliy tabiatdagi omillar;

B) moddiy, ma’naviy, iqtisodiy omillar;

D) iqtisodiy va ijtimoiy omillar;

E) talab va taklif omillar.

55.Aholining turmush darajasi qaysi mamlakatda eng yuqori kursatkichni tashkil etadi?

A)AQSh;

B)Kanada;

D)Yaponiya;

E)Xitoy.

56. 1990 yillarda ro‘yxatga olingan patentlarning soni bo‘yicha dunyoda yetakchi bo‘lgan davlatni aniqlang?

A)AQSh;

B)Yaponiya;

D)Germaniya;

E)Buyuk Britaniya.

57. Eng ko‘p energiya sarf qiladigan davlat?

A)AQSh;

B)Xitoy;

D)Kanada;

E)Yaponiya.

58. Fan – texnika siyosatining muhim yo‘nalishi bu – ...;

A) intellektual mulk huquqini himoya qilish;

B) milliy xavfsizlikni himoya qilish;

D) yangi texnologiya yaratish;

E) loyihalarni ishlab chiqish.

59. 2000 yilda dunyo bo‘yicha kishi boshiga o‘rtacha energiya iste’moli necha tonna bo‘lgan?

A) 5.74 tonna;

B) 8.32 tonna;

D) 1.62 tonna;

E) 6.82 tonna.

60.Yaqin orada yana ish olishga umid qilayotgan odam:

A) bandlar rypyhira kiradi;

B) ishsizlar guruhiga kiradi;

D) ishchi kuchi tarkibiga kirmaydi;

E) to‘liq bo‘lmagan band hisoblanadi.

61.Agar iqtisodiyot muvozanat holatida turgan bo‘lsa, ta’kidlash mumkinki:

A) iste’mol xarajatlari investitsiyalarga teng bo‘lishi lozim**;**

B) davlat byudjeti balanslashgan;

D) iste’mol xarajatlarini har qanday oshirish inflyatsion uzilishga olib keladi;

E) barcha keltirilgan javoblar noto‘g‘ri.

62.Davlat xarajatlarining o‘sishi real YaIMni ko‘payishiga olib keladi, qachonki:

A) davlat xarajatlari va pul taklifi bir vaqtda o‘ssa;

B) davlat xarajatlarining ortishi nodavlat sektorining shunga teng miqdordagi xarajatlari kamayishiga olib kelmasa;

D) bu xarajatlari davlat xizmatchilari ish haqi oshirilishiga emas, balki tovarlar va xizmatlar sotib olishga sarflansa;

E) bu xarajatlari davlat obligatsiyalari chiqarilishi hisobiga moliyalashtirilsa.

63.Quyida sanab o‘tilganlarning qaysisi potensial YaIM o‘sishining omili hisoblanadi?

A) ishchi kuchi sonining o‘sishi;

B) iqtisodiyotda kapital zaxiralarining ko‘payishi;

D) iqtisodiyotda mehnat unumdorligining o‘sishi;

E) keltirilgan barcha javoblar to‘g‘ri.

64.To‘liq bandlikka erishgan iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlari ta’minlanishi uchun:

A) jamg‘arish va investitsiya me’yorlari kichik bo‘lishi lozim;

B) jamg‘arish me’yori katta va investitsiya me’yori kichik bo‘lishi lozim;

D) jamg‘arish va investitsiya me’yorlari katta bo‘lishi lozim;

E) jamg‘arish me’yori kichik, investitsiya me’yori esa katta bo‘lishi lozim.

65. Tarixan ishchi kuchining qishloq xo‘jaligidan sanoatga ko‘chib o‘tishi:

A) inflyatsiya holatlarini yuzaga keltiradi;

B) o‘rtacha mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi;

D) aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM hajmining pasayishiga olib keladi;

E) o‘rtacha mehnat unumdorligining o‘sishiga olib keladi.

66. Eksport bojlarining kiritilishi quyidagilarning qaysi biriga olib kelmaydi?

A)ishlab chiqaruvchilar daromadlarining kamayishiga;

B) mamlakat iste’molchilarining baholarning pasayishi hamda ushbu tovarni iste’mol qilish qisqarishi natijasida yo‘qotishlariga;

D) ushbu tovarning ichki baholarini pasayishiga;

E) (boshqa shart-sharoitlar o‘zgarmagan holatda) davlat daromadlarining o‘sishiga.

67.Import tariflarining kiritilishi olib kelishi mumkin:

A) davlat byudjetiga tushumlarning va iste’mol hajmining ortishiga;

B) ichki resurslardan oqilona (ratsional) foydalanishga;

D) importiga tarif kiritilgan tovarni mamlakatda ishlab chiqarish hajmi o‘sishiga, bu tovar importining va ichki iste’molining qisqarishiga;

E) mamlakatda importiga tarif kiritilgan tovarni ishlab chiqarish qisqarishiga va uning import bilan alishtirilishiga.

68.Quyida sanab o‘tilganlarning qaysisi potensial YaIM o‘sishining omili hisoblanadi?

A) ishchi kuchi sonining o‘sishi;

B) iqtisodiyotda kapital zaxiralarining ko‘payishi;

D) iqtisodiyotda mehnat unumdorligining o‘sishi;

E) keltirilgan barcha javoblar to‘g‘ri;

69. Markaziy Bank pul taklifini kamaytirishga qaror qilsa, u holda:

A) depozitlarni majburiy zaxiralash normasini pasaytiradi;

B) ochiq bozorda obligatsiyalarni sotadi;

D) qayta moliyalash stavkasini ko‘taradi;

E) pul-kredit siyosatini yumshatadi.

70.Davlat xarajatlarining o‘sishi real YaIMni ko‘payishiga olib keladi, qachonki:

A) davlat xarajatlari va pul taklifi bir vaqtda o‘ssa;

B) davlat xarajatlarining ortishi nodavlat sektorining shunga teng miqdordagi xarajatlari kamayishiga olib kelmasa;

D) bu xarajatlari davlat xizmatchilari ish haqi oshirilishiga emas, balki tovarlar va xizmatlar sotib olishga sarflansa;

E) bu xarajatlari davlat obligatsiyalari chiqarilishi hisobiga moliyalashtirilsa.

71.Quyidagilarning qaysi biri yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiradi?

A) uy bekasining xizmatlari;

B) qo‘shnidan sotib olingan eski mashina bahosi;

D) brokerdan sotib olingan yangi aksiya qiymati;

E) kondagi yangi kitoblarning narxi.

72. Tariflar qisqarsa, unda...;

A) eksport sohasida ishlaydiganlar uchun ish joyini yo‘qotish xavfi kuchayadi;

B) import mahsulotlarining narxi oshadi;

D) yashash darajasi mamlakatda pasayadi;

E) import muhofazasiga doir sohalarda ishlaydigan ishchilarning bir qismi ishsiz qolishi mumkin.

73. Xalqaro mehnat taqsimoti dastlab qaysi omillar ta’sirida shakllangan ?

A) tabiiy omillar;

B) demografik omillar;

D) geosiyosiy omillar;,

E) ijtimoiy siyosiy omillar;

74. Jahon xo‘jaligi uchun mulkchilikning qaysi turi xos?

A) xususiy;

B) aralash;

D) davlat mulki;

E) aktsionerlik mulki.

75. Hozirgi davrda xalqaro mehnat taqsimoti qaysi omillar ta’sirida shakllanadi ?

A) demografik omil;

B) fan-texnik taraqqiyoti;

D) ijtimoiy -siyosiy omil;

E) geosiyosiy omil.

76. Tashqi iqtisodiy hamkorlikning zamonaviy shakllari:

A) tashqi savdo;

B) qo‘shma korxonalar, xalqaro birlashmalar;

D) xizmatlar eksporti va importi;

E) tashqi savdo, qo‘shma korxonalar, xalqaro birlashmalar, xizmatlar eksporti va importi.

77. Dunyodagi energiya resurslarini asosiy qismini qaysi mamlakatlar iste’mol qiladi:

A) rivojlangan mamlakatlar;

B) rivojlanayotgan mamlakatlar;

D) past daromadli mamlakatlar;

E) barcha mamlakatlar.

78. Qaysi javobda iqtisodiyot binosining tarkibiy qavati to‘g‘ri keltirilgan?

A) mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, uy xo‘jaligi, global iqtisodiyot;

B) uy xo‘jaligi mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, global iqtisodiyot;

D) mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, global iqtisodiyot, uy xo‘jaligi;

E) mikroiqtisodiyot, global iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, uy xo‘jaligi.

79. AQShning tashqi siyosati uchta nahang ustida turishi kerak, degan ibora qaysi davlat arbobiga tegishli?

A) J.Bush;

B) U.Kristofer;

C) M.Olbrayt;

D) R.Reygan.

80. Ishsizlik darajasining necha foizi iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi?

A) 2-3%;

B) 10-11%;

D) 6-7%;

E) 5-6%.

81. Qaysi mamlakatlar NAFTA a’zosi bo‘lib hisoblanadi?

A) Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya;

B) Kanada, Meksika, Avstraliya;

D) AQSh,Kanada, Meksika;

E) Kanada, Germaniya, Angliya.

82. O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish Jamg‘armasi Prezidentning qaysi Farmoni asosida tashkil etildi?

A) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish Jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni asosida;

B) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 11 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish Jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni asosida;

D) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish Jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni asosida;

E) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish Jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni asosida.

84. Jahon Savdo tashkiloti qaysi yili tashkil etilgan?

A) 1990 y.;

B) 1995 y.;

D) 2000 y.;

E) 1993 y.

85.Mamlakatdan tovarlar olib chiqish(eksport) va olib kirish (import)dan iborat bo‘lgan aloqalar nima deb ataladi?

A) erkin savdo zonasi;

B) valyuta bozori;

D) tashqi savdo;

E) integratsiya.

86.Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga qachon asos solingan?

A) 1948 yil 16 aprel;

B) 1946 yil 21 aprel;

D) 1945 yil 5 may;

E)1951 yil 27 iyun.

87. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun qayta ishlash sanoatining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak?

A) 50%dan;

B) 70%dan;

D) 60%dan;

E) 30%dan.

88. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun mashinasozlikning mashina ishlab chiqarishdagi ulushi necha foizdan kam bo‘lmasligi kerak?

A) 20 %dan;

B) 25 %dan;

D) 40 %dan;

E) 15 %dan.

89. Inflyatsiya darajasi necha foizdan oshmaganda mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid bo‘lmaydi?

A) 10 %;

B) 20%;

D) 30%;

E) 15%.

90. Yashash minimumi bo‘yicha mamlakat mintaqalarining differensiatsiyasi necha martadan oshganda xavfsizlik chegarasi buziladi?

A) 2 martadan;

B) 3 martadan;

D) 1,5 martadan;

E) 5 martadan.

91. Mamlakat rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari ?

A) aholi jon boshiga o‘rtacha daromad;

B) aholi jon boshiga YaIM hajmi;

D) mamlakat YaMD hajmi;

E) sof mahsulot.

92. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida sanoatning qaysi tarmoqlari ustunlik qiladi?

A) energetika;

B) gaz sanoati;

D) neft;

E) tog‘-kon sanoati.

93. Qaysi ko‘rsatkich umr ko‘rish uzunligi bo‘yicha xavfsizlik chegarasini bildiradi?

A) 60 yil;

B) 50 yil;

D) 70 yil;

E) 75 yil.

94.Integratsiya subyektlari:

A) davlat;

B) jismoniy shaxslar;

D) yuridik shaxslar;

E) barcha javoblar to‘g‘ri.

95. Xavfsizlik chegarasi saqlanishi uchun ichki ist’molda import ulushi necha foizni tashkil qilishi kerak?

A) 20% dan oshmasligi kerak;

B) 40%;

D) 30% dan oshmasligi kerak;

E) 10%.

96. Yashirin iqtisodiyot-bu?

A) soliqlarni ko‘payishi yoki taqchillikning ortishi;

B) daromadlarni yashirin ko‘rinishi yoki soliqlarni to‘lamaslik;

D) jamg‘arilgan mablag‘lar yoki investitsiya;

E) korxonalar ixtiyoridagi daromad yoki mulklari.

97. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik chegarasi saqlanishi uchun byudjet tanqisligi necha foizdan oshmasligi kerak?

A) 7%dan;

B) 3%dan;

D) 4%dan;

E) 5%dan.

98. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmida mahsulotlarning yangi turlarining ulushi necha foizdan kam bo‘lmaganda xavfsizlik chegarasi buzilmaydi?

A) 3 %dan;

B) 10 %dan;

D) 6 %dan;

E) 5 %dan.

99. Milliy valyutaning pariteti va kursi o‘rtasida yuzaga kelgan farqni bartaraf etishda qo‘llaniladigan vositani ko‘rsating.

A) devalvatsiya;

B) denominatsiya;

D) stagflyatsiya;

E) nulifikatsiya.

100. Valyuta interventsiyasi nima maqsadda o‘tkaziladi?

A) milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash maqsadida;

B) milliy valyuta kursining keskin tebranishiga barham berish maqsadida;

D) milliy valyutaning pariteti va kursi o‘rtasida yuzaga kelgan farqni bartaraf etishda;

E) xorijiy valyutalar taklifini barqarorlashtirish maqsadida.

101. O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi (yangi tahrir) qonuni qachon qabul qilingan?

A) 1993 yil 7 may;

B) 2003 yil 11 dekabr;

D) 2003 yil 8 oktyabr;

E) 2019 yil 22 oktyabr.

102. Markaziy bankning hisob stavkasi:

A) Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga trattalarni qayta hisobga olish yo‘li bilan berilgan kreditning foiz stavkasi;

B) Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga qimmatli qog‘ozlarni garovga olish yo‘li bilan berilgan kreditlarning foiz stavkasi;

D) Markaziy bankning overnayt kreditlarining foiz stavkasi;

D) Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga xorijiy valyutani garovga olish yo‘li bilan berilgan kreditlarning foiz stavkasi.

103. O‘zbekistonda milliy valyutani xorijiy valyutalarga erkin konvertatsiya qilishni to‘liq ta’minlash qachondan boshlab joriy qilindi?

A) 2003 yil 8 oktyabr;

B) 2003 yil 11 dekabr;

D) 2017 yil 1 yanvar;

D) 2017 yil 5 sentyabr.

104. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YeTTB) qachon va nima maqsadda tashkil etilgan?

A) 1982 yilda Londonda tashkil qilingan bo‘lib – Markaziy va Sharqiy Yevropaning sobiq sotsialistik tuzumda bo‘lgan mamlakatlarini bozor iqtisodiyotiga o‘tishiga yordam berishdan iborat;

B) 1990 yilda Londonda tashkil qilingan bo‘lib – Markaziy va Sharqiy Yevropaning sobiq sotsialistik tuzumda bo‘lgan mamlakatlarini bozor iqtisodiyotiga o‘tishiga yordam berishdan iborat;

D) 1992 yilda Parijda tashkil qilingan bo‘lib – Markaziy Yevropaning sobiq sotsialistik tuzumda bo‘lgan mamlakatlarida ishlab chiqarishni rivojlantirishga kreditlar ajratishdan iborat;

E) 1995 yilda Italiyada tashkil qilingan bo‘lib – Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirishga yordam berishdan iborat.

105. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot bankining funksiyalari?

A) Yevropa mamlakatlari valyuta tizimining barqarorligini ta’minlash;

B) Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti barqarorligini ta’minlash;

D) rivojlanayotgan mamlakatlar valyuta tizimi barqarorligini ta’minlash;

E) o‘tish davri mamlakatlari iqtisodiyoti barqarorligini ta’minlashga ko‘maklashish.

106. Strategiya - bu

A) yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturidir;

B) iqtisodiy rivojlanish dasturi;

D) informatsion texnologiyalarga asoslangan dastur;

E) oldindan rejalashtirilgan istiqbolli chora-tadbirlar dasturi.

107. Har bir inson o‘zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga ega bo‘lishi, jumladan, turar-joyiga ega bo‘lish huquqiga egadir. Ushbu modda qaysi qonun hujjatida aks etgan?

A) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;

B) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

D) Mehnat kodeksi;

E) BMT rezolyutsiyalari.

108. “Islohot – islohot uchun emas, inson manfaatlari uchun” tamoyili asosida qanday davlat siyosati amalga oshiriladi?

A) fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilish;

B) jamiyatning himoyaga muhtoj qatlamlarini, etim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash;

D) imkoniyati cheklangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash;

E) barcha javoblar to‘g‘ri.

109. “World Happiness Index” (“Dunyoning eng baxtli mamlakatlari”) yangi reytingida O‘zbekiston nechanchi pog‘onani egallagan?

A) 158 ta mamlakat orasida 44-pog‘onani;

B) 158 ta mamlakat orasida 43-pog‘onani;

D) 158 ta mamlakat orasida 46-pog‘onani;

E) 158 ta mamlakat orasida 47-pog‘onani.

110. Mintaqaviy mojaro – ...

A) ikki mamlakat o‘rtasidagi echilmagan muammolar;

B) bu ikki va undan ortiq chegaradosh davlatlar o‘rtasidagi siyosiy qarama-qarshilik;

D) alohida olingan davlat ichidagi mojaro;

E) bir necha mamlakatlar o‘rtasidagi va darajasidagi tarixiy, siyosiy, etnik muammolar.

111. Geosiyosat nima?

A) jamiyatdagi barcha kuch va harakatlar;

B) mamlakatning istiqbolli intilishlari;

D) davlatning imkoniyatlarini hisobga olib yuritilayotgan faoliyat;

E) mamlakat yoki mintaqaning geografik joylashuvi.

112. Xalq xokimiyatidagi siyosiy tuzum shakli.

A) demokratiya;

B) anarxiya;

D) monarxiya;

E) oligarxiya.

113. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy g‘oyasi...

A) insonni va uning hayotini erkinlik bilan ta’minlash bozor munosabatlariga keng yo‘l ochib, savdo munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashdir;

B) insonni, uning hayotini, erkinligi, sha’n-shavkati va qadr-qimmatini hammadan yuqori qo‘yadigan umuminsoniy tamoyillarga tarafdorlikdir;

D) inson huquqlarini himoya qiluvchi huquq organlarining jamiyatdagi ahamiyatini yanada oshirish va umuminsoniy tamoyillarga tarafdorlikdir;

E) o‘tish tajribalaridan foydalanib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni isloh qilish va unga tub o‘zgarishlar kiritishdir.

114. Millatlararo totuvlik – bu ...

A) iqtisodiy hodisa;

B) siyosiy voqelik;

D) ma’naviy- axloqiy hodisa;

E) falsafiy qoida.

115. Mamlakat uchun asosiy tahdid, bu ...

A) xalqaro terrorizm tahdidi;

B) diniy ekstremizm tahdidi;

D) korrupsiya tahdidi;

E) ichki tahdid.

116. O‘zbekiston tashqi siyosatida qanday amaliy tamoyillariga asoslanadi?

A) boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, kuch ishlatmaslik yoki tahdid qilmaslik;

B) teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, tenglar orasida teng bo‘lish, mafkuraviy qarashlardan qat’iy nazar ochiq-oydinlik, barcha davlatlar bilan keng tashqi aloqani o‘rnatish, ichki milliy qonunlardan xalqaro huquq normalarining

ustuvorligini tan olish, o‘zaro manfaatdorlik, umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi;

D) chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, davlatlarning suvereniteti, tengligi;

E) faqat A va D javoblar to‘g‘ri.

117. Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikka eng katta xavf-xatar – bu ...

A) Afg‘onistonda o‘ttiz yildan ziyod davom etayotgan urushdir;

B) ekologik muammolar;

D) buyuk davlatchilik shovinizm va agressiv millatchilik;

E) etnik va millatlararo ziddiyatlar, terrorizm.

118. Transchegaraviy suv obyektlaridan foydalanish bo‘yicha xalqaro Konventsiyalarni ko‘rsating.

A) Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi Konventsiya, Xelsinki, 1992 yil 17 mart, Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovisiz foydalanish huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiya, Nyu-York, 1997 yil 21 may;

B) Atrof – muhitni muhofazasi bo‘yicha xalqaro konferentsiya. Rio – de – Jeneyro 1992 yil. Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi Konventsiya, Xelsinki, 1992 yil 17 martda;

D) Ekologik axborotlarni yetkazish va undan jamoatchilikni qaror qabul qilish jarayonida ishtiroki to‘g‘risida Konventsiya;

D) Transchegaradosh havo atmosferasini ifloslanish to‘g‘risidagi Konventsiya. Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovisiz foydalanish huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiya, Nyu-York, 1997 yil 21 mart

119. Suv resurslaridan samarali foydalanishni qanday tushunasiz?

A) tabiat muhofazasi to‘g‘risidagi barcha qonun va qoidalarga to‘la rioya qilgan holda ulardan jamiyatga faqat hozirgi kunda emas, balki tasavvur qilish mumkin bo‘lgan uzoq kelajakda ham eng yuqori samara olishni ta’minlovchi foydalanishni tushunaman;

B) suv resurslaridan navbatma navbat tartibda foydalanishni tushunaman

D) suv resurslaridan limit asosida foydalanishni tushunaman;

E) suv resurslaridan dastlab eng katta iqtisodiy samara beruvchi ekinlarni keyin qolgan ekinlarni sug‘orish uchun foydalanish tartibini tushunaman.

120. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-chi sessiyasida qilgan ma’ruzasida:

A) Afg‘on fojiasiga insonparvarlik nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lishga chaqiradi;

B) iqtisodiy, madaniy aloqada bo‘lishga chaqiradi;

D) Tolibonlarni rasmiy hukumat bilan o‘zaro kelishuvga chaqiradi;

D) jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkam o‘rnatishga chaqiradi.

121.“O‘zbekiston xalqini, millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”. Ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida o‘z aksini topgan.

A) 7-moddasida;

B) 8-moddasida;

D) 17-moddasida;

E) 28-moddasida.

122. O‘rta muddatli byudjetlashtirish nima?

A) odatda uch yil muddatga rejalashtiriladigan byudjet jarayoni;

B) byudjetning amal qilish rejasini bir necha yilga (asosan 3-5 yil) mo‘ljallangan davlat xarajatlarini amalga oshirish uchun mavjud resurslarni hisoblash, o‘zidan oldingi moliya yilidagi byudjetning vorisi bo‘lgan holda kelgusi moliya yillariga zamin yaratuvchi byudjet amaliyoti;

D) davlatning muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan moliyaviy hujjati

E) byudjetning amal qilish rejasini bir necha yilga (asosan 3-5 yil) mo‘ljallangan davlat xarajatlarini amalga oshirish uchun mavjud resurslarni hisoblash, amaldagi va yangi strategik loyihalarning qiymatini hisob-kitob qilish, shuningdek xarajatlarga oid majburiyatlarni ko‘zlangan natijalar bilan qonuniy

bog‘lashga yo‘naltirilgan o‘zidan oldingi moliya yilidagi byudjetning vorisi bo‘lgan holda kelgusi moliya yillariga zamin yaratuvchi byudjet amaliyoti.

123. 2024 yilda mamlakatimizda YaIMning o‘sish sur’atlari necha foizni tashkil etdi?

A) 7,3%;

B) 5,2%;

D) 6,5%

E) 7,0 %;

124. 2024 yil yakunlariga ko‘ra mamlakatimizda inflyatsiya sur’atlari necha foizni tashkil qildi?

A) 9,8 %;

B) 16,7 %;

D) 15,5 %;

E) 16,8 %.

125. Raqamli iqtisodiyot nima?

A) Ishlab chiqarish, davlat va boshqaruv jarayonlariga raqamlig‘axborot texnologiyalarini doimiy joriy etib borish asosida shakllangan iqtisodiy faoliyat;

B) Raqamli texnologiyalarga asoslangan va raqamli makonda amalga oshiriluvchi iqtisodiy faoliyat;

D) A va B javoblar to‘g‘ri;

E) internet texnologiyalaridan keng foydalaniluvchi internet banking xizmatlari.

126. Raqamli iqtisodiyot mahsulotlari keltirilgan qatorni toping?

A) elektron pochta, bulutli xizmatlar, elektron imzo;

B) internet banking, internet orqali chakana savdo, internet-reklama, kriptovalyutalar;

D) kriptovalyutalar;

E) internet-o‘yinlar, elektron to‘lovlar.

127. 2024- yilning yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Innovatsiyalarning global indeksi reytingida dunyoning 126 ta mamlakati orasida nechanchi o‘rinni egalladi?

A) 82-o‘rinni;

B) 152-o‘rinni;

D) 98-o‘rinni;

E) O‘zbekiston bunday reytingga kiritilmagan.

128. 2024- yilning yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Iqtisodiy erkinlik indeksi reytingida dunyoning 180 ta mamlakati orasida ___ o‘rinni egalladi?

A) 76;

B) 152;

D) 98;

E) 103.

129. Markaziy Osiyo mamlakatlari integratsiyasining xususiyatlari nimada?

A) yagona iqtisodiy makon yaratish;

B) energetika obyektlarini birlashtirish;

D) yetakchi tarmoqlarning mushtarakligi;

E) mustaqil davlatlarni birlashtirish g‘oyalari.

130. O‘zbekiston jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilganida nimalarga amal qiladi?

A) bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka;

B) davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslikka;

D) o‘z mahsulotlarini ko‘proq eksport qilishga;

E) integratsiyani chuqurlashtirishga.

FANGA DOIR AMALIY TOPSHIRIQ VA VAZIYATLAR

Amaliy vaziyat №1

Oltin zaxiralari bo‘yicha global reyting: xaridorlar va sotuvchilar

2020-yildan buyon jahon bozorida oltin narxlari 230 foizdan ortiq oshdi. Narxlar ko‘tarilishi fonida dunyo markaziy banklari zamonaviy tarixdagi eng yirik oltin xaridlari to‘lqinlaridan birini boshladi. Bugungi kunda oltin ko‘plab davlatlar uchun shunchaki himoyaviy aktiv emas, balki geosiyosiy keskinlik, valyuta bozorlaridagi noaniqlik va xalqaro rezervlarni diversifikatsiya qilish sharoitida strategik zaxira vositasiga aylandi.

Ayniqsa, AQSH dollariga qaramlikni kamaytirish, tashqi moliyaviy xavflarni pasaytirish va milliy moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida markaziy banklar rezervlar tarkibini qayta ko‘rib chiqmoqda. Bu jarayonda oltin siyosiy jihatdan nisbatan neytral va uzoq muddatli qiymat saqlovchi aktiv sifatida yanada muhim o‘rin egallamoqda.



Manba: https://kun.uz/kr/news/2026/02/13/oltin-zaxiralari-boyicha-global-reyting-xaridorlar-va-sotuvchilar

World Gold Council ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi besh yil ichida eng yirik 15 ta xaridor mamlakat rasmiy oltin zaxiralarini qariyb 2000 tonnaga oshirgan. Bu rezerv siyosati strategik darajada qayta shakllantirilayotganini ko‘rsatadi.

Eng katta o‘sishni Xitoy namoyon etdi - mamlakat 350 tonnadan ortiq oltin sotib oldi. Bu qadam Pekinning rezervlarni diversifikatsiya qilish, AQSH dollariga

bog‘liqlikni kamaytirish va g‘arb moliyaviy tizimiga nisbatan zaiflikni pasaytirishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyasiga mos keladi.

Ikkinchi o‘rinni Polsha egalladi - u 300 tonnadan ortiq oltin zaxiralarini jamladi. Bu mamlakatning moliyaviy barqarorlikni kuchaytirish va tashqi shoklarga chidamlilikni oshirishga qaratilgan siyosati bilan uyg‘unlashadi.

Shuningdek, Turkiya va Hindiston ham eng faol xaridorlar qatoriga kirdi. Ushbu mamlakatlarda inflyatsiya bosimining yuqoriligi va milliy valyutalarning o‘zgaruvchanligi oltinni rasmiy rezervlarda xedj qilish vositasi sifatida jozibador qilmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlar orasida ham sezilarli o‘sish qayd etildi. Braziliya 100 tonnadan ortiq oltin sotib oldi, Ozarboyjon esa Davlat neft jamg‘armasi orqali o‘z zaxiralarini kengaytirdi.

Bundan tashqari, Yaponiya, Tailand, Vengriya, Singapur va Rossiya ham oltin zaxiralarini oshirdi. Bu iqtisodiy noaniqlik davrlarida oltinning barqarorlashtiruvchi aktiv sifatidagi roli mustahkamlanayotganini anglatadi.

Barcha mamlakatlar bir xil strategiyani tanlamadi. Ayrim davlatlar ichki iqtisodiy bosimlar yoki likvidlik ehtiyojlari sababli oltin zaxiralarini qisqartirdi.

Eng katta qisqarish Filippin hissasiga to‘g‘ri keldi - 65 tonnadan ortiq. Qozog‘iston va Shri-Lankada ham sezilarli pasayish kuzatildi.

Yevropada esa Germaniya va Finlandiya o‘rtacha miqyosda qisqarish qayd etdi. Shveytsariyada esa o‘zgarishlar minimal bo‘lib, bu mamlakatning an’anaviy ehtiyotkor va muvozanatli rezerv siyosatini aks ettiradi.

O‘zbekiston xalqaro zaxiralar tarkibida oltinning ulushi juda yuqori - taxminan 83 foiz.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari barqaror ijobiy dinamikani namoyish etdi. O‘tgan yil davomida xalqaro zaxiralar hajmi 23 milliard dollardan ortiq oshib, qariyb 55,1 milliard dollarga yetdi.

2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Markaziy bank tomonidan boshqariladigan aktivlar umumiy qiymati 66,3 milliard dollarni tashkil etdi - bu respublika moliya tizimi uchun rekord ko‘rsatkichdir.

O‘sishning asosiy omili - xalqaro bozorda oltin narxining keskin ko‘tarilishi bo‘ldi. Narxlar oshishi fonida oltin zaxiralari qiymati 4,2 milliard dollarga oshib, 55,1 milliard dollarlik tarixiy eng yuqori darajaga yetdi. Qimmatbaho metalning jismoniy hajmi 12,6 million troya unsiyasini tashkil etdi. Valyuta zaxiralari esa 10,6 milliard dollarga yetdi, yil boshidan buyon o‘sish 2,05 milliard dollarga teng bo‘ldi.

Umuman olganda, global tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, oltin xalqaro rezervlar tizimida yana bir bor asosiy tayanch aktiv sifatida mustahkam o‘rin egallamoqda. Biroq davlatlar uning ulushi va boshqaruv strategiyasi bo‘yicha turlicha yondashuvni tanlamoqda. Kimdir zaxiralarni faol diversifikatsiya qilayotgan bo‘lsa, boshqalar likvidlik va makroiqtisodiy muvozanatni ustuvor deb bilmoqda.

Oltinning strategik ahamiyati esa jahon moliya tizimidagi noaniqliklar saqlanib qolayotgan sharoitda yanada ortib bormoqda.

Savol va topshiriqlar

1. 2020-yildan keyin oltin narxlarining keskin oshishiga qanday omillar sabab bo‘ldi?
2. Markaziy banklar nima sababdan oltinni strategik aktiv sifatida ko‘ra boshladi?
3. Rezervlarni diversifikatsiya qilish tushunchasini izohlang.
4. Oltinning “siyosiy jihatdan neytral aktiv” sifatidagi ahamiyatini tushuntiring.
5. O‘zbekiston xalqaro zaxiralari tarkibida oltinning yuqori ulushi nimani anglatadi?
6. Xitoyning oltin xarid qilish strategiyasini geoiqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qiling.
7. Polsha va Turkiya tajribasini solishtiring: ularning oltin siyosatida qanday umumiy va farqli jihatlar mavjud?

8. Oltin zaxiralarini qisqartirgan davlatlar (masalan, Filippin) qarorining iqtisodiy sabablarini izohlang.

9. Rivojlanayotgan mamlakatlarda oltin zaxiralarini oshirish qanday makroiqtisodiy natijalarga olib kelishi mumkin?

10. Oltin narxining o‘sishi O‘zbekiston zaxiralariga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatdi?

11. Agar oltin narxi yana 10 foizga oshsa, O‘zbekiston oltin zaxiralari qiymatida qanday o‘zgarish kuzatilishi mumkin? (Berilgan ma’lumotlar asosida taxminiy hisob-kitob qiling.)

12. O‘zbekiston umumiy rezervlarida oltinning 83 foizlik ulushi mavjud bo‘lsa, valyuta zaxiralari ulushi necha foizni tashkil etadi?

13. 2000 tonna qo‘shimcha oltin global miqyosda rezervlar tarkibiga qo‘shilgan bo‘lsa, bu jahon moliya tizimi uchun qanday signal beradi?

14. “Oltin - XXI asrda ham asosiy strategik rezerv aktividir.” Ushbu fikrni dalillar bilan asoslang yoki inkor eting.

15. AQSH dollariga bog‘liqlikni kamaytirishda oltin qanchalik samarali vosita bo‘lishi mumkin?

16. O‘zbekiston oltin ulushini kamaytirib, valyuta yoki boshqa aktivlarni ko‘paytirishi kerakmi? Fikringizni asoslang.

17. Global noaniqlik sharoitida qaysi strategiya maqbul: oltin zaxirasini oshirishmi yoki likvid valyuta aktivlarini ko‘paytirishmi?

18. “Markaziy bank rezerv siyosatida oltinning o‘rni” mavzusida 500 so‘zli tahliliy esse yozing.

19. O‘zbekiston Markaziy banki maslahatchisi sifatida 2026–2030-yillar uchun rezerv strategiyasi bo‘yicha takliflar ishlab chiqing.

20. World Gold Council ma’lumotlari asosida global oltin tendensiyalari haqida qisqa taqdimot rejasi tuzing.

Amaliy vaziyat №2

O‘zbekiston korrupsiyani qabul qilish indeksida 3 pog‘ona pasayib, 124-o‘rinni egalladi

Transparency International 2025-yil uchun **Korrupsiyani qabul qilish indeksi (Corruption Perceptions Index - CPI)** natijalarini e’lon qildi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston 182 ta davlat orasida 124-o‘rinni egalladi. Bu o‘tgan yilgi ko‘rsatkichga nisbatan 3 pog‘ona past natija hisoblanadi (2024-yilda - 121-o‘rin).

100 ballik tizim bo‘yicha (0 - korrupsiya darajasi o‘ta yuqori, 100 - juda past) O‘zbekiston 31 ball to‘pladi. O‘tgan yili bu ko‘rsatkich 32 ball edi. Shu natija bilan mamlakat Turkiya, Niger, Mo‘g‘uliston, Jibuti va Belarus bilan bir qatorda qayd etildi.



Manba: https://www.gazeta.uz/uz/2026/02/11/transparency-international/

Indeks natijalariga ko‘ra, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi o‘rtacha 34 ball to‘plagan. 19 davlatdan 6 tasida ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yomonlashgan bo‘lsa, 7 tasida yaxshilanish qayd etilgan.

Transparency International’ning mintaqaviy sharhida qayd etilishicha, 2025-yilgi CPI natijalari mintaqada institutlar zaifligi va demokratik ortga qaytish jarayonlari korrupsiyani kuchaytirayotganini hamda fuqarolik makoni qisqarayotganini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyoda fuqarolik jamiyati va korrupsiyaga qarshi faoliyatga bosim saqlanib qolmoqda. Qirg‘iziston (26 ball) va Qozog‘iston (38 ball)da nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati cheklanayotgani qayd etilgan. Qozog‘istonda antikorrupsiya xizmatining vakolatlari xavfsizlik idoralariga o‘tkazilgani ham xavotir uyg‘otmoqda.

O‘zbekiston bo‘yicha sharhda mamlakatda muayyan islohotlar amalga oshirilayotgani ta’kidlanadi. Biroq korrupsiyani fosh etgan jurnalist va blogerlarga nisbatan bosim samaradorlikni pasaytirayotgan omil sifatida ko‘rsatilgan.

Mintaqada eng past natijalarni Turkmaniston (17 ball), Tojikiston (19 ball) va Rossiya (22 ball) qayd etgan. Bu holat zaif demokratik institutlar, past shaffoflik darajasi hamda OAV va NNTlarga bosim bilan izohlanadi.

Gruziya (50 ball)da ham demokratik ortga qaytish, OAV va NNTlarga cheklovlar korrupsiya xavfini kuchaytirayotgani qayd etilgan.

Shu bilan birga, Ukraina (36 ball) va Moldova (42 ball) misolida faol fuqarolik jamiyati va islohotlar ijobiy siljishlarga olib kelishi mumkinligi ta’kidlangan.

Reytingda ketma-ket sakkizinchi yil Daniya yetakchilik qilmoqda - 89 ball bilan eng yuqori natija qayd etildi. Keyingi o‘rinlarni Finlandiya (88 ball) va Singapur (84 ball) egallagan.

Indeksni esa Venesuela (10 ball), Somali (9 ball) va Janubiy Sudan (9 ball) yakunlagan.

2024-yilda O‘zbekistonda korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar soni va davlat manfaatlariga yetkazilgan zarar hajmi oshgani qayd etildi. Xususan:

- 4649 ta korrupsiya bilan bog‘liq jinoyat aniqlangan;
- 7354 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan;
- sudlanganlar soni 2023-yilga nisbatan 12,5 foizga oshgan (2023-yilda - 6535 nafar);
- jinoyatlar soni 12,6 foizga ko‘paygan (2023-yilda - 4128 ta);
- korrupsiya oqibatida yetkazilgan zarar ikki baravar oshib, 2,8 trillion so‘mni tashkil etgan.

Hududlar kesimida sudlanganlar va yetkazilgan zarar miqdori bo‘yicha Andijon viloyati yetakchilik qilgan. Eng ko‘p sudlanganlar ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga to‘g‘ri kelgan.

2025-yilgi CPI natijalari O‘zbekiston uchun barqaror, ammo sust dinamikani ko‘rsatmoqda: ball bir pog‘ona kamaygan va reytingda pasayish qayd etilgan. Mintaqaviy kontekstda esa institutlar mustahkamligi, shaffoflik, OAV va fuqarolik jamiyatining erkin faoliyati korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Transparency International tomonidan e’lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksi (CPI) qanday metodologiyaga asoslanadi?
2. CPI indeksida 0 va 100 ball nimani anglatadi?
3. O‘zbekistonning 2025-yilgi reyting natijalari qanday o‘zgarishni ko‘rsatdi?
4. Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasining o‘rtacha ko‘rsatkichi nimani anglatadi?
5. Demokratik institutlar va korrupsiya darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiring.
6. O‘zbekistonning CPI bo‘yicha 3 pog‘ona pasayishini qanday omillar bilan izohlash mumkin?
7. O‘zbekiston ko‘rsatkichini Qozog‘iston va Qirg‘iziston bilan taqqoslang.
8. Daniya va Singapurning yuqori natijalari ortida qanday boshqaruv omillari turishi mumkin?
9. Turkmaniston va Rossiyaning past ko‘rsatkichlarini institutsional nuqtai nazardan tahlil qiling.
10. Fuqarolik jamiyati va OAV erkinligi korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
11. 2023 va 2024-yillardagi korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar sonini foiz hisobida tahlil qiling (o‘sish sur’atini aniqlang).

12. Sudlanganlar sonining 12,5 foizga oshishi qanday ijtimoiy-iqtisodiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi?

13. 2,8 trillion so‘m zarar miqdorini davlat byudjeti yoki YaIM bilan bog‘liq holda tahlil qilish uchun qanday qo‘shimcha ma’lumotlar zarur?

14. “Korrupsiyaga qarshi kurashda reytinglar real vaziyatni to‘liq aks ettirmaydi.” Ushbu fikrni asoslang yoki rad eting.

15. CPI natijalari investitsion jozibadorlikka qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?

16. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish uchun qaysi institutsional choralar ustuvor bo‘lishi kerak?

17. Jurnalist va blogerlar faoliyati korrupsiyani kamaytirishda qanday rol o‘ynaydi?

18. O‘zbekiston uchun 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi strategiya loyihasini ishlab chiqing (asosiy yo‘nalishlar va kutilayotgan natijalar bilan).

19. Korrupsiya ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan ikki davlat va past bo‘lgan ikki davlat misolida taqqoslovchi jadval tuzing.

20. Ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida korrupsiyani kamaytirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqing.

21. “Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyatining roli” mavzusida 600 so‘zli esse yozing.

22. O‘zbekiston CPI indeksida 50 ballga yetishi uchun zarur bo‘lgan 10 ta aniq islohot taklifini ishlab chiqing.

Amaliy vaziyat **№**3

2050 yilgacha dunyodagi eng aholi zich shaharlar: demografik va urbanizatsiya tendensiyalari

XXI asrning ikkinchi choragiga kelib jahonda urbanizatsiya jarayonlari jadallashmoqda. BMT demografik prognozlariga asoslangan ma’lumotlarga ko‘ra, 2050 yilga borib dunyo aholisining asosiy qismi shaharlarda istiqomat qiladi.

Ayniqsa, megapolislarga - aholisi 10 million nafardan ortiq bo‘lgan shaharlar soni va ulushi ortib bormoqda.

2050 yil prognozlariga ko‘ra, aholi soni bo‘yicha yetakchilikni Osiyo shaharlar saqlab qoladi.

Jumladan, Dehli 2050 yilga kelib dunyodagi eng aholi zich shaharga aylanishi kutilyapti. Bu holat Hindistondagi yuqori demografik o‘sish sur’ati va ichki migratsiya jarayonlari bilan izohlanadi.

Tokyo uzoq yillar davomida eng yirik megapolis sifatida yetakchilik qilgan bo‘lsa-da, 2050 yilga kelib aholi o‘sish sur’ati sekinlashishi mumkin.

Shanghai va Beijing kabi shaharlar ham yuqori o‘rinlarni egallashda davom etadi, ammo Xitoyda demografik o‘sishning pasayishi shahar aholi dinamikasiga ta’sir qilishi mumkin.

Ma’lumotlar Afrika qit’asida urbanizatsiya jarayonlari eng tez sur’atlarda kechayotganini ko‘rsatadi. Lagos va Kinshasa 2050 yilga kelib dunyodagi eng yirik shaharlar qatoriga kirishi prognoz qilinmoqda.

Bu o‘sishning asosiy omillari:

- yuqori tug‘ilish darajasi;
- yosh aholi ulushining kattaligi;
- qishloqdan shaharga migratsiya;
- iqtisodiy markazlashuv jarayonlari.

Afrika shaharlarining o‘sishi global iqtisodiy va ijtimoiy tizimga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda.

New York City va San Paulo kabi shaharlar yirik megapolis sifatida saqlanib qoladi. Biroq ularda aholi o‘sish sur’ati Osiyo va Afrikaga nisbatan pastroq bo‘ladi.

Yevropa shaharlarida, jumladan London va Paris, barqaror demografik o‘sish namoyon etadi. Yevropa mintaqasida aholining qarishi va tug‘ilish darajasining pastligi shaharlar o‘sishini cheklovchi omillardan hisoblanadi.

2050 yilgacha megapolislari soni va aholisi ortishi quyidagi muammolar va vazifalarni dolzarblashtiradi:

- infratuzilmani modernizatsiya qilish;

- transport tizimlarini takomillashtirish;
- uy-joy ta’minoti muammosini hal etish;
- ekologik barqarorlikni ta’minlash;
- ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish.

Shu bilan birga, urbanizatsiya iqtisodiy faollikning oshishi, innovatsiyalar markazlarining shakllanishi va mehnat bozorining kengayishiga ham xizmat qiladi.

2050 yilga qadar demografik prognozlar Osiyo va Afrika shaharlarining global aholi o‘sishining asosiy drayverlariga aylanishini ko‘rsatadi. Yevropa va Amerika shaharlar esa barqaror, ammo nisbatan sekin o‘sish tendensiyasini saqlab qoladi.

Global urbanizatsiya jarayonlari iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma siyosati va ijtimoiy barqarorlik masalalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, davlatlardan strategik rejalashtirishni talab etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Urbanizatsiya tushunchasining mazmunini izohlang.
2. Megapolis deganda nima tushuniladi?
3. 2050 yilgacha aholi o‘sishining asosiy geografik markazlari qaysi mintaqalarda joylashgan?
4. Afrika shaharlarida aholi o‘sishining asosiy omillari nimalardan iborat?
5. Yevropa shaharlarida demografik o‘sish nega sekinlashmoqda?
6. Dehli va Tokyo aholi dinamikasini taqqoslab tahlil qiling.
7. Lagos misolida Afrika urbanizatsiyasining iqtisodiy oqibatlarini baholang.
8. Yevropa va Osiyo shaharlarining o‘sish sur’ati o‘rtasidagi farqni tushuntiring.
9. Urbanizatsiya jarayonlari ekologik barqarorlikka qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?
10. 2050 yildagi eng yirik 10 ta shaharni jadval shaklida tuzing (mintaqa va taxminiy aholi soni bilan).

11. Urbanizatsiyaning ijobiy va salbiy jihatlarini solishtiruvchi jadval tuzing.

12. “2050 yil shahri” konsepsiyasi asosida infratuzilma rivojlanish modeli ishlab chiqing.

13. “Kelajak iqtisodiy markazlari Afrikada shakllanadi” degan fikrni asoslang.

14. Megapolislari iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtiradimi yoki ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradimi?

Amaliy vaziyat №4

O‘zbekiston iqtisodiyoti raqamlarda

2025 yilda O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 7,7% ga o‘sib, 1 849,7 trillion so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich oldingi 6% lik prognozdan (1 630 trln. so‘m) ancha yuqori bo‘ldi. AQSh dollari bilan hisoblaganda, 2025 yilda iqtisodiyot hajmi 147,08 milliard dollarga yetdi. 2024 yilda esa YaIM 115 milliard dollar bo‘lgan. Aholi jon boshiga YaIM dastlabki hisobda 48,4 mln so‘m (3 846 dollar)ni tashkil etdi.

Yalpi ichki mahsulot o‘sishiga eng katta hissani xizmat ko‘rsatish sohasi qo‘shdi. Bu sektor 8,5% ga o‘sib, iqtisodiyotning umumiy o‘sishiga 3,9 foiz band hissa qo‘shdi. Xizmat ko‘rsatish sohasida eng yuqori o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlari (+12%) hamda transport, saqlash, axborot va aloqa (+14,5%) bo‘yicha qayd etildi.

Sanoat sektori ham iqtisodiyotning o‘sishida muhim rol o‘ynadi. U 6,8% ga o‘sib, YaIMga 1,7 foiz band hissa qo‘shdi. Ishlab chiqarish sanoati 7,7% ga o‘sdi, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish qariyb ikki baravarga ko‘paydi, elektr jihozlari ishlab chiqarish esa 20,4% ga o‘sdi. Shu bilan birga, neft va gaz qazib olish (-3,8%) va kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (-7,5%) kamaydi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 4,4% ga o‘sdi. O‘sish asosan paxta (+25,4%), poliz ekinlari (+16,2%), don (+13%) va tuxum (+7%) ishlab chiqarish orqali taminlandi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining qariyb 62,3% dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yyetishtirildi.

Qurilish sohasi 14% ga o‘sdi va YaIMda 1 foiz band hissa qo‘shdi. Shuningdek, mahsulotlarga soliqlar 7,4% ga o‘sib, YaIMning 0,3 f.p. o‘sishini ta’minladi. Asosiy kapitalga investitsiyalar 591,1 trln. so‘mni tashkil etdi, 10,5% ga o‘sdi. O‘sish asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hissasi orqali taminlandi, ularning ulushi 40,5% ni tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasi 11,2% ga o‘sib, 482,4 trln. so‘mni tashkil etdi, sotuvlarning qariyb 74% si kichik biznes hissasiga to‘g‘ri keldi. Bozor xizmatlari hajmi 14,7% ga o‘sib, 1 050,3 trln. so‘mni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard dollarga yetdi, 20,7% ga o‘sdi. Eksport 24% ga o‘sib, 33,8 milliard dollarga, import 18,5% ga o‘sib, 47,4 milliard dollarga yetdi.

2026 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, respublikada 474,9 mingta korxona va tashkilot faoliyat ko‘rsatadi, shundan 403,8 mingtasi kichik korxona va mikrofirmalardir. Xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalar soni 22,1% ga o‘sib, 18 164 taga yetdi.

Iste’mol sektoridagi inflyatsiya 2025 yilda 7,3% ni tashkil etdi va oldingi prognoz (7–8%) doirasida bo‘ldi.

Savol va topshiriqlar

1. **YaIM o‘sishi va xavfsizlik**. 2025 yilda O‘zbekistonning YaIMi 7,7% ga o‘sdi. Ushbu o‘sish iqtisodiy xavfsizlikni qanday ta’minlaydi? Shu matnga asoslanib javob bering va xizmat ko‘rsatish sohasi o‘sishining iqtisodiy barqarorlikdagi rolini tushuntiring.

2. **Sanoat sektoridagi o‘sish va xavf omillari**. Sanoat sektori 6,8% ga o‘sdi, ishlab chiqarish sanoati 7,7% ga o‘sdi. Shu ma’lumot asosida quyidagi savollarga javob bering:

- ✓ Qaysi sanoat tarmoqlari pasaydi va bu iqtisodiy xavfsizlikka qanday ta’sir qilishi mumkin?
- ✓ Elektr jihozlari va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning oshishi xavfsizlikni qanday mustahkamlaydi?

3. **Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi**. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 4,4% ga o‘sdi. Paxta, poliz ekinlari, don va tuxum ishlab chiqarish oshdi. Shu asosda:

- ✓ Oziq-ovqat xavfsizligi nuqtai nazaridan bu o‘sishning ahamiyatini tushuntiring.
- ✓ Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining hissasi qanday xavfsizlik omili hisoblanadi?

4. **Investitsiyalar va iqtisodiy barqarorlik**. Asosiy kapitalga investitsiyalar 591,1 trln. so‘mga yetdi, xorijiy investitsiyalarning ulushi 40,5% ni tashkil etdi. Shu ma’lumot asosida:

- ✓ To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy xavfsizlikka qanday ta’sir qiladi?
- ✓ Investitsiyalar hajmining oshishi mamlakatni tashqi iqtisodiy shoklardan qanday himoya qiladi?

5. **Tashqi savdo va valyuta xavfsizligi**. Tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard dollarga yetdi, eksport 33,8 mlrd dollar, import 47,4 mlrd dollar. Shu ma’lumotlarga asoslanib:

- ✓ Savdo balansidagi tafovut (import > eksport) iqtisodiy xavfsizlikka qanday tahdid solishi mumkin?
- ✓ Valyuta kursining barqarorligi iqtisodiy xavfsizlikda qanday rol o‘ynaydi?

6. **Kichik biznes va iqtisodiy barqarorlik**. 2026 yil boshida respublikada 474,9 mingta korxona faoliyat ko‘rsatadi, shundan 403,8 mingtasi kichik biznes va mikrofirmalardir. Shu ma’lumotni hisobga olib:

- ✓ Kichik biznesning iqtisodiy xavfsizlikdagi ahamiyatini tushuntiring.
- ✓ Xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalar sonining oshishi xavfsizlikni qanday mustahkamlaydi?

7. **Inflyatsiya va ijtimoiy xavfsizlik**. 2025 yil oxirida iste’mol sektoridagi inflyatsiya 7,3% ni tashkil etdi. Shu ma’lumot asosida:

✓ Inflyatsiyaning yuqori yoki past bo‘lishi iqtisodiy xavfsizlikni qanday ta’sir qilishi mumkin?

✓ Barqaror inflyatsiya darajasi ijtimoiy xavfsizlikni qanday mustahkamlaydi?

Amaliy vaziyat №5

Milliy valyuta barqarorligi va tashqi qarzning iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri

Topshiriqning maqsadi

Talabalar quyidagilarni o‘rganishi kerak:

- Valyuta siyosati va iqtisodiy xavfsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish;
- Tashqi qarz va makroiqtisodiy barqarorlikni tahlil qilish;
- Risklarni aniqlash va boshqarish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;
- Dedollarizatsiya jarayonining iqtisodiy xavfsizlikdagi rolini baholash.

Vaziyat tavsifi

2025-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki milliy valyuta – O‘zbekiston so‘mi mustahkamlangani natijasida tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari o‘rtacha 6–7% ga kamayganini ma’lum qildi.

Yil davomida:

- So‘mning dollarga nisbatan nominal mustahkamlanishi 6,93% ni tashkil etdi;
- Aholi va biznesning so‘mdagi depozitlari 44% ga oshib, 240 trln. so‘mga yetdi;
- Kreditlar portfelida valyuta ulushi 41% dan 38% ga kamaydi;
- Omonatlarda valyuta ulushi 26% dan 22% ga tushdi;
- Tashqi qarzga xizmat ko‘rsatishda davlat byudjeti 1,3 trln. so‘m, korxonalar esa 3,6 trln. so‘m iqtisod qildi.

Mazkur holat mamlakat iqtisodiy xavfsizligi nuqtayi nazaridan muhim omil hisoblanadi.

5.1. Quyidagi savollarga javob bering:

1. Milliy valyuta mustahkamlanishi iqtisodiy xavfsizlikning qaysi yo‘nalishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi?

2. Tashqi qarz yukining kamayishi davlat moliyaviy barqarorligiga qanday ta’sir qiladi?

3. Dedollarizatsiya jarayoni iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlovchi omil sifatida qanday baholanadi?

Natijada “Valyuta barqarorligi – iqtisodiy xavfsizlik omili” mavzusida xulosa tayyorlang.

5.2. Quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Omil	Ijobiy ta’sir	Potensial xavf	Xavfni kamaytirish choralari
So‘mning mustahkamlanishi			
Dedollarizatsiya			
Tashqi qarzga xizmat xarajatlarining kamayishi			

5.3. Agar tashqi qarz hajmi 40 mlrd dollar deb olinsa va o‘rtacha xizmat ko‘rsatish xarajatlari 7% ga kamaygan bo‘lsa:

1. Valyuta kursi o‘zgarishi natijasida qancha miqdorda iqtisod yuzaga kelishi mumkinligini hisoblang.

2. Ushbu iqtisodiy samarani byudjet barqarorligi va investitsiya siyosatiga ta’siri nuqtayi nazaridan baholang.

5.4. Iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida:

- Tashqi qarzni boshqarish bo‘yicha 5 ta strategik taklif ishlab chiqing;
- Valyuta xavfini kamaytirish mexanizmlarini taklif eting;
- Korporativ sektor uchun valyuta risklarini boshqarish modeli ishlab chiqing.

5.5. Agar 2026-yilda global moliyaviy bozorlarda beqarorlik yuzaga kelib, dollar kursi keskin oshsa:

- Qanday iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari yuzaga keladi?
- Davlat va Markaziy bank qanday choralar ko‘rishi kerak?

- Korxonalar qanday risk-menejment siyosatini yuritishi lozim?

Amaliy topshiriq №1

Rahbar xodimga uning mehnatiga haqni “konvertda” (norasmiy tarzda) to‘lashni taklif qildi. Vaziyatni sabab va oqibatlarini ko‘rsatgan holda baholang. Xodimning harakat taktikasi bo‘yicha takliflar bering.

Amaliy topshiriq №2

Uchta korxona mavjud bo‘lib, ularning ishlab chiqarish quvvatlari o‘zaro 2:5:3 nisbatda. Ijara haqi, soliqlar va boshqa to‘lovlar birinchi va ikkinchi korxonalarda foydaning 1/3 qismini, uchinchi korxonada esa 25 foizini tashkil etadi. Qaysi korxona bankrotlik xavfiga ko‘proq duch keladi?

Amaliy topshiriq №3

Xorijiy investitsiyalar asosan tez o‘zini oqlaydigan loyihalarga - oziq-ovqat sanoati, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasiga yo‘naltirilmoqda. Sanoat ishlab chiqarishida esa ularning ulushi nisbatan kam. Bu holat nima sababdan yuz berayotganini izohlang. Mazkur omil korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Amaliy topshiriq №4

Sanoat ishlab chiqarish sohasida faoliyat yurituvchi korxona xodimi uchun tijorat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar bilan ishlash bo‘yicha eslatma (qo‘llanma) tayyorlang.

Amaliy topshiriq №5

Korxonada iqtisodiy xavfsizlik dasturini ishlab chiqish uchun tahdidlar, risklar va zararlar haqida imkon qadar to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish zarur. Tahdid va risk tushunchalariga ta’rif bering. Tahdid va risklarni baholashning asosiy usullarini tavsiflang. Zararni baholash metodikasini keltiring.

Amaliy topshiriq №6

Xavfsizlik xodimlari tomonidan ishchi bolg‘a asboblarini o‘g‘irlash holatlari qayd etildi. Sex rahbariyati o‘g‘irlik holatlarini tasdiqlamaydi. Vaziyat yuzaga kelishining sabablarini aniqlang. Vaziyatni diagnostika qilish uchun baholovchi

ko‘rsatkichlarni shakllantiring. Vaziyatning takrorlanishini oldini olish uchun tadbirlarni ishlab chiqing.

Amaliy topshiriq №7

Tashkilot davlat siri va tijorat siri hisoblangan ma’lumotlar bilan ishlaydi. Davlat va tijorat sirlarining solishtirma tavsifini bering. Davlat va tijorat sirlarini himoya qilish bo‘yicha tadbirlarni taklif qiling.

Amaliy topshiriq №8

1983 yilda AQShning janubi-g‘arbiy qismida suv toshqini sodir bo‘ldi. Sababi ob-havo haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotlar kiritilgan kompyuter bo‘lib, u Kolorado daryosidagi qumurlarni yopuvchi eshiklarga noto‘g‘ri signal berdi. Gumon qilingan shaxslar doirasini aniqlang. Sizning fikringizcha, kompyuter xatosi uchun kim javobgar bo‘lishi kerak?

Amaliy topshiriq №9

Sanoat ishlab chiqarish sohasida faoliyat yurituvchi korxona uchun davlat sirlarini himoya qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish uchun zarur hujjatlar paketini tayyorlang.

Amaliy topshiriq №10

Amaliy vaziyat tavsifi: “Sadiqlikni shakllantirish”

Toshkent shahridagi “Bosfor” kompaniyasi, PVX oynalar va eshiklar ishlab chiqaruvchi, xodimlari raqobatchilarga parallel ravishda ishlay boshladi - buyurtmalarning bir qismini ularga o‘tkazmoqda. Ichki tekshiruv natijasida “Bosfor”da motivatsiya tizimi yetarlicha samarali emasligi aniqlangan, ammo vaziyatni to‘liq tuzatish hozircha imkonsiz.

“Bosfor” kompaniyasi so‘nggi 9 yil davomida plastik oynalar va eshiklar ishlab chiqarib, Toshkent va atrofidagi bozorning yetakchi to‘rtlik kompaniyalaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda qurilish va ta’mirlash materiallariga talab sezilarli oshdi - yangi uy-joylar, ko‘p qavatli binolar, turar joy majmualari qurilmoqda. Shu sababli kompaniya savdosi yildan-yilga 30% ga o‘smoqda. Boshqa raqobatchilar ham faoliyatini kuchaytirdi - masalan, ikki yil avval Toshkentda “Okna Plus”

kompaniyasi paydo bo‘lib, o‘z yig‘ish ishlab chiqarishini yo‘lga qo‘ydi va “Bosfor” uchun jiddiy raqobatchiga aylandi.

Kompaniya muvaffaqiyatini saqlab qolish uchun jamoani birlashtirish zarur. Biroq aynan shu sohada muammolar yuzaga keldi. Kompaniya nemis profillariga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqaradi. Materiallar Germaniyadan va Chirchiqdagi zavoddan olib kelinadi, yig‘ish esa Toshkentdagi zavodda amalga oshiriladi. Tayyor mahsulotlar dilerlar va o‘zining chakana bo‘limi orqali sotiladi. Savdo va o‘rnatish bo‘limlari ishlashidan shikoyatlar yo‘q, ammo o‘lchovchilar bilan bog‘liq muammolar mavjud.

Savdo bo‘limi rahbari Madina Muxtorova uzoq vaqtdan beri ba’zi o‘lchovchilar buyurtmalarni raqobatchilarga “otib yuborayotgani”dan shubhalanib keladi. Joriy yilda xavfsizlik xizmati ishga tushishi bilan bu shubhalar tasdiqlandi. O‘lchovchilar potensial mijozlarga borib, raqobatchi kompaniyaning xizmatlarini “tezroq va arzonroq” deb tavsiya qilishgan. Avgust oyida kamida o‘nlab buyurtmalar raqobatchilarga o‘tgan. Kompaniya aniq necha buyurtma yo‘qotgani haqida ma’lumotga ega emas.

Oldingi yillarda o‘lchovchilar bilan muloqotdan so‘ng “Bosfor” bilan ishlashni to‘xtatgan mijozlar faqat 3-4% ni tashkil etgan bo‘lsa, so‘nggi yarim yilda bu ko‘rsatkich 10% ga yetdi. Dastlab, buzilgan xodimlarni darhol ishdan bo‘shatish taklif qilindi. Ammo rahbariyat sabablarni tushunishga va xatolarini tuzatish imkoniyatini berishga qaror qildi.

O‘lchovchilar ish hajmi ko‘p, ammo maosh kam ekanligini bildirdi. Ularning vazifasi texnik ishlarni bajarish (o‘lchov, hisob-kitob, batafsil hisobot tayyorlash) bilan cheklanmay, mijozga kompaniyaning afzalliklarini tushuntirish, loyihaning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirishdan iborat. Agar mijoz rozilik bildirsa, savdo menejeri shartnoma tuzadi va ulush oladi. O‘lchovchilarga oyiga 12-15 million so‘m maosh to‘lanadi, o‘rtacha oyiga kamida 150 o‘lchov bajarish majburiyati bor.

Yuqori mavsumda (maydan noyabrgacha) xodimlarga mukofot va sovg‘alar beriladi - yangi pardalar, oyna o‘rnatishda yordam, avtomobil ta’miri uchun yordam kabi. Ammo ba’zilar uchun mijozni raqobatchiga o‘tkazish ko‘proq foyda keltiradi.

Shuningdek, ba’zi dilerlar ham o‘lchovchilar bilan til biriktirib, buyurtmalarni raqobatchilarga berib kelmoqda.

Rahbariyat dilerlarga bosim o‘tkazishni istamaydi, chunki ular boshqa ishlab chiqaruvchilarga o‘tib ketishlari mumkin. O‘zining chakana savdo tarmog‘ini kengaytirishga mablag‘ yetmaydi.

Kompaniya xodimlarini rag‘batlantirishga e’tibor qaratishga qaror qildi - xodimda buyurtmani o‘g‘irlashga qiziqish bo‘lmasa, tashqi muammolar o‘z-o‘zidan hal bo‘ladi. Xavfsizlik xizmatini tashkil etish esa qimmat va samarali mexanizmi noaniq ekanligi sababli rad etildi.

Birinchi qadam sifatida ish natijalarini subyektiv baholashdan voz kechish va aniq standartlar joriy etish rejalashtirildi. Masofalar (40-100 km), kunlik buyurtma soni va murakkablik darajasi asosiy mezon sifatida olindi. Ammo standartlar ishlab chiqilmagani sababli faqat taxminiy tavsiflar qoldi, muammo hal bo‘lmadi.

Keyingi qadam sifatida har bir mijozga chiqish uchun 15 ming so‘mdan qo‘shimcha haq to‘lash boshlandi, shartnoma tuzilgan taqdirda bu summa ikki barobar oshiriladi. O‘rtacha oylik daromad taxminan 2 million so‘mni tashkil etadi.

“Bosfor” rahbariyatining fikricha, o‘lchovchilar o‘zlari baholash mezonlarini ishlab chiqishi kerak edi, ammo bu tashabbus natijasiz tugadi. Xodimlar oylikni 1000 dollargacha oshirishni so‘rashdi, ammo ish hajmini aniq ko‘rsatishmadi. Shu payt yana buyurtmalar raqobatchilarga o‘tib ketdi. Avgust oxirida ikki xodim ishdan bo‘shatildi - bu qolganlarga ogohlantirish bo‘ldi, ammo yangi mutaxassis topish va o‘rgatish qiyinligidan tashvish bor.

“Bosfor” boshqa kompaniyalar tajribasidan foydalandi - yirik kompaniyalarda o‘lchovchi mijozga noutbukda loyiha narxini hisoblab berib, shartnoma tuzadi va savdo menejeri bilan birga 1-3% komissiya oladi. Kuniga 2-3 marta chiqish amalga oshiriladi. Ammo “Bosfor” bunday xarajatga hozircha tayyor emas.

Savdolar oshishda davom etmoqda, ammo kompaniya imiji zarar ko‘rmoqda - mijozlar o‘z vakilining raqobatchilarni tavsiya qilishidan norozilik bildiradi.

Savollar:

1. Xodimlar tashqi ish bilan shug‘ullanishdan qanday saqlanishlari mumkin? Kompaniya motivatsiya tizimida yechim izlamoqda. Alternativ variant - nazorat va jazolash choralarini kuchaytirish. Xavfsizlik xizmatini tashkil etish, ichki tergov va qattiq intizomiy choralar - birinchi qadamlar.

2. “Bosfor” qanday yo‘l tutishi kerak?

Amaliy topshiriq №11

Sanoat ishlab chiqarish sohasida faoliyat yurituvchi korxonada iqtisodiy xavfsizlik xizmati tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqing. Iqtisodiy xavfsizlik xizmati boshlig‘iga qo‘yiladigan asosiy talablarni, uning lavozim yo‘riqnomasi, huquq va majburiyatlarini shakllantiring.

Amaliy topshiriq №12

Sanoat ishlab chiqarish sohasida korxona bilan ishbilarmonlik aloqalarini o‘rnatishga intilayotgan uchinchi tomon tashkilotlarining ishonchliligini tekshirish sxemasini ishlab chiqing.

Amaliy topshiriq №13

Tashkilot davlat sirini tashkil etuvchi hamda tijorat siri hisoblangan axborot bilan ishlaydi. Davlat siri va tijorat sirining solishtirma tavsifini bering. Davlat siri hamda tijorat sirini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni taklif eting.

Amaliy topshiriq №14

Mulkdor tomonidan tayinlangan moliyaviy menejer firma moliyasini mulkdor nuqta’i nazaridan samarasiz boshqarmoqda. Menejer faoliyatini baholovchi ko‘rsatkichlarni tavsiflang. Vaziyatni nazoratga olish imkonini beruvchi chora-tadbirlarni shakllantiring. Ularning samaradorligini baholang.

Amaliy topshiriq №15

Quyidagi ikki omilli model yordamida bankrotlik ehtimolini baholang:

Z = -0,3877 + JLK (-1,0736) + QMK × 0,0579

bu yerda: **JLK** - joriy likvidlik koeffitsiyenti (aylanma aktivlar / qisqa muddatli majburiyatlar); **QMK** - qarz mablag‘lari koeffitsiyenti (qarz kapitali / o‘z kapitali); **0,3877** - doimiy kattalik; **1,0736 va 0,0579** - mos ravishda koeffitsiyentlarning og‘irlik qiymatlari.

Bankrotlik ehtimoli shkalasi:

- agar **Z = 0** bo‘lsa, bankrotlik ehtimoli 50% ga teng;
- agar **Z < 0** bo‘lsa, bankrotlik ehtimoli 50% dan kam bo‘ladi va Z kamaygani sari pasayib boradi;
- agar **Z > 0** bo‘lsa, bankrotlik ehtimoli 50% dan yuqori bo‘ladi va Z oshgani sari ortib boradi.

Ikki omilli bankrotlik modelini hisoblash uchun zarur boshlang‘ich ma’lumotlar “KUB” MChJ bo‘yicha 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

“KUB” MChJ bo‘yicha koeffitsiyentlarni hisoblash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar

Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Hisobot yilining oxiriga (ming so‘m)
Aylanma aktivlar	290	3696
shu jumladan: kelgusi davr xarajatlari	216	–
Qisqa muddatli majburiyatlar	690	1215
shu jumladan: kelgusi davr daromadlari	640	–
– kelgusi xarajatlar zaxiralari	650	–

Amaliy topshiriq №16

2-jadval ma’lumotlari asosida tashkilot likvidligini tahlil qiling, 3-jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlarni hisoblang va xulosa chiqaring.

2-jadval

Boshlang‘ich ma’lumotlar

Balans moddalarining nomi	Davr boshida	Davr oxirida	O‘sish sur’ati, %
1. Uzoq muddatli aktivlar	15000	25600	
Aylanma aktivlar			
2. Zaxiralar	47000	73000	
3. Debitorlik qarzi	5850	7200	
4. Pul mablag‘lari	23250	24300	
5. Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar	520	840	
Qisqa muddatli majburiyatlar:			

3-jadval

Tashkilot likvidlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Davr boshida	Davr oxirida	O‘sish sur’ati, %
1. Tezkor likvidlik koeffitsiyenti (4+5)/(6+7) Me’yor: 0,25–0,30			

2. Oraliq (tezlashtirilgan) likvidlik koeffitsiyenti (3+4+5)/(6+7) Me'yor: 0,3–1,0			
3. Joriy likvidlik koeffitsiyenti (2+3+4+5)/(6+7) Me'yor: 1–2			
4. O'z aylanma mablag'lari (O'zAK) (2+3+4+5) – (6+7)			
5. Joriy aktivlarning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti O'zAKk/(2+3+4+5) Me'yor: 0,1–0,5			

Amaliy topshiriq №17

Ko'plab sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi muammosi, avvalo, oqilona investitsion va innovatsion siyosat yuritish bilan bog'liq. Innovatsion siyosatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi korxonaning raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir qiladi.

Sizning fikringizcha, eng so'nggi ilmiy ishlanmalar va texnologiyalar sohasidagi ortda qolishni bartaraf etish uchun nimalar qilish zarur?

Amaliy topshiriq №18

Ishchi-stanokchilar zavodga ishga kiradi, ishlab chiqarish bo'yicha o'qituvdan o'tadi, malaka razryadini oladi va bir yil ichida korxonani tark etadi.

Vaziyatni baholang, sabablarini va mumkin bo'lgan zararni aniqlang. Ishchilarni korxonada ushlab qolishni ta'minlaydigan chora-tadbirlarni ishlab chiqing.

Amaliy topshiriq №19

Maxfiy axborot bilan ishlashga ruxsat etilgan xodim ishdan bo'shash to'g'risida ariza berdi. Vaziyatni va firma uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararni baholang. Zararni neytrallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni shakllantiring.

Amaliy topshiriq №20

Firma rahbariyati maxfiy axborotni o'z ichiga olgan hujjatlar ro'yxatini tasdiqladi. Bunday hujjatlarning xavfsiz aylanishini ta'minlaydigan tashkiliy chora-tadbirlarni taklif qiling.

Amaliy topshiriq №21

Korxonada axborot texnologiyalari keng qo‘llaniladi. Axborot xavfsizligini ta’minlash maqsadida kadrlar xizmatiga tashkiliy chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish topshirildi.

Konsepsiyani shakllantiring. Asosiy vazifalarni aniqlang. Birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni belgilang.

Amaliy topshiriq №22

Xodim korxona kadrlar bo‘limi xodimlari tomonidan uning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish huquqi buzilgani (shaxsiy ma’lumotlar sizib chiqqani qayd etilgan) yuzasidan sudga murojaat qildi.

Vaziyatni baholang, aybdorlarni va sabablarni aniqlang. Bunday holatlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqing.

Amaliy topshiriq №23

Korxonada dasturiy xatolik sababli yirik avariya sodir bo‘ldi. Sizning fikringizcha, kim aybdor va uning aybi darajasi qanday?

Amaliy topshiriq №24

Nima sababdan kompyuter jinoyatini fosh etish ko‘pincha tasodif bilan bog‘liq bo‘ladi? Masalan, bir safar bir nechta neft kompaniyalariga xizmat ko‘rsatuvchi hisoblash markazi xodimi mijozlardan birida yozuv indikatori yonishidan oldin uzoq vaqt o‘qish indikatori yonib turishini payqagan. O‘tkazilgan tekshiruv natijasida bu shaxs sanoat josusligi bilan shug‘ullanib, kompaniya ma’lumotlarini raqobatchilarga sotgani aniqlangan.

Amaliy topshiriq №25

Sanoat ishlab chiqarish sohasida faoliyat yurituvchi korxona xodimi uchun davlat siri va tijorat sirini tashkil etuvchi axborot bilan ishlash bo‘yicha eslatma (yo‘riqnoma) tayyorlang.

Amaliy topshiriq №26

Esse yozish uchun muammoli yo‘nalish:

Hozirgi vaqtda korxonaning eng muhim resurslaridan biri axborot hisoblanadi. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishi axborotga bo‘lgan ehtiyojni

oshirmoqda. Zamonaviy dunyoda axborotning roli, avvalo, quyidagi omillar bilan belgilanadi: bozorlarning globallashuvi, mijozlar ehtiyojlariga yo‘naltirilganlikning kuchayishi, texnik taraqqiyotning rivojlanishi, tashqi muhitning o‘zgaruvchanligi va murakkablashuvi, tashqi muhit omillarining o‘zaro bog‘liqligi kuchayishi, korxona boshqaruv tizimining murakkablashuvi, mahsulot hayotiy siklining qisqarishi.

Siz korxonaning axborot tizimini qanday shakllantirgan bo‘lardingiz (maqsad, tamoyillar, bosqichlar, texnik va dasturiy ta’minot, qo‘llash samaradorligi ko‘rsatkichlari)?

Amaliy topshiriq №27

4-jadvalni to‘ldiring, unda axborotni ruxsatsiz qo‘lga kiritishning asosiy usullari va vositalari hamda axborotni himoya qilish usullari ko‘rsatilgan.

4-jadval

Axborotni ruxsatsiz qo‘lga kiritishning asosiy usullari va axborotni himoya qilish usullari

№	Inson harakati (tipik vaziyat)	Axborot sizib chiqish kanallari	Axborotni olish usullari va vositalari	Axborotni himoya qilish usullari va vositalari
1	Xonada yoki ko‘chada suhbat			
2	Mobil telefon orqali suhbat			
3	Statsionar telefon orqali suhbat			
4	Qog‘oz hujjat			
5	Pochta jo‘natmasi			
6	Elektron pochta orqali yuborish			
7	Flesh-xotira orqali hujjat uzatish			
8	Ishlab chiqarish jarayoni			

1-masala. Mamlakatda quyidagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar mavjud: YaIM - 800 trln.. so‘m; Davlat qarzi - 480 trln.. so‘m; Eksport - 200 mlrd. AQSh dollari; Import - 260 mlrd. AQSh dollari; Oltin-valyuta zaxiralari - 35 mlrd. AQSh dollari; M2 pul massasi - 900 trln. so‘m; Inflyatsiya darajasi - 14%.

Topshiriq:

1. Davlat qarzining YaIMga nisbatini aniqlang.
2. Tashqi savdo balansini hisoblang.
3. Importni qoplash koeffitsiyentini (zaxiralar / import) hisoblang.

4. M2 / YaIM nisbatini toping.
5. Ko‘rsatkichlar asosida iqtisodiy xavfsizlik holatini baholang.

2- masala. “Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini kompleks baholash”

Quyidagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar berilgan: YaIM - 1 200 trln. so‘m; Davlat tashqi qarzi - 540 trln. so‘m; Eksport - 320 mlrd. AQSh dollari; Import - 400 mlrd. AQSh dollari; Oltin-valyuta zaxiralari - 120 mlrd. AQSh dollari; M2 pul massasi - 1 500 trln. so‘m; Inflyatsiya - 16%; Ishsizlik - 11%; Sanoat ishlab chiqarish o‘sishi - 2%.

Topshiriq:

1. Qarz yuki koeffitsiyentini hisoblang.
2. Savdo balansi va uning YaIMga nisbatini aniqlang.
3. Valyuta zaxiralarining importni necha oy qoplashini hisoblang.
4. Monetizatsiya darajasini (M2 / YaIM) toping.
5. Har bir ko‘rsatkichni iqtisodiy xavfsizlik mezonlari bilan solishtiring:

Ko‘rsatkich	**Xavfsiz chegara**
Qarz / YaIM	≤ 60%
Inflyatsiya	≤ 10%
Ishsizlik	≤ 8%
Savdo balansi defitsiti	≤ 5% YaIM
Import qoplash	≥ 3 oy
Monetizatsiya	50–100%

6. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi bo‘yicha umumiy xulosa chiqaring.

GLOSSARIY

Axborot xuruji - jamiyat a’zolarining ruhiyatiga, xulq -atvoriga ta’sir ko‘rsatish.

Axborot mahsuloti - O‘zbekiston Respublikasi hududida aylanish uchun mo‘ljallangan ommaviy axborot vositalari mahsuloti, bosma mahsulot, har qanday turdagi tashuvchilardagi audiovizual mahsulot, dasturiy ta’minotdan foydalangan holda tarqatiladigan, telekommunikatsiya tarmoqlariga, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtiriladigan axborot, kompyuter o‘yinlari, shuningdek, tomoshabop tadbirlar vositasida tarqatiladigan axborot.

Axborot mahsulotining aylanishi - axborot mahsulotini taqdim etish va (yoki) tarqatish, shu jumladan uni sotish (shu jumladan obuna bo‘yicha tarqatish), ijara, prokatga berish, axborot-kutubxona muassasalari fondlaridan tarqatish, berish, ommaviy namoyish qilish, ommaviy ijro etish (shu jumladan, efir yoki kabel uzatuvi, tomoshabop tadbirlar vositasida), telekommunikatsiya tarmoqlariga, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtirish.

Axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi - axborot mahsulotini uning mavzusini, janrini, mazmunini va badiiy bezagini, ma’lum yosh toifasidagi bolalar tomonidan undagi axborotni qabul qilish xususiyatlarini, uning tarkibidagi axborotning bolalar sog‘lig‘iga zarar yetkazish ehtimolini inobatga olgan holda, bolalarning yosh toifalari bo‘yicha taqsimlash.

Axborot mahsulotining yoshga oid toifasi belgisi - axborot mahsulotining yoshga oid toifasining grafik va (yoki) matnli belgisi.

Aholi bandligi - mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy mehnatda qatnashish darajasi, qonunchilikka zid bo‘lmagan tarzda fuqaroning shaxsiy va ijtimoiy talablarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyati.

Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosati - davlat tomonidan fuqarolarning mehnatga, to‘liq, samarali va erkin tanlangan bandlikka bo‘lgan huquqlarini ta’minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyat.

Aholining umumiy daromadi - pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi hususiyatga ega bo‘lgan, yillik

yoki undan kam vaqt oralig‘idagi davrda uy xo‘jaligi yoki uning alohida a’zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi.

Barqarorlik - tinchlik-osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat’iy, uzil-kesil mustahkam o‘rnatilgan muhim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy sharti hisoblanadi.

Bitim - fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlar. Bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko‘p taraflama (shartnomalar) bo‘lishi mumkin. Bitim tuzish uchun qonun hujjatlariga yoki taraflarning kelishuviga muvofiq bir tarafning xohishi zarur va yetarli bo‘lsa, bunday bitim bir taraflama bitim hisoblanadi. Shartnoma tuzish uchun ikki taraf (ikki taraflama bitim) yoki uch yoxud undan ko‘p taraf (ko‘p taraflama bitim) kelishib xohish bildirgan bo‘lishi kerak.

Valyuta birjasi - xorijiy valyutalar oldi-sotdi qilinadigan birja bozori.

Valyuta zaxirasi - biror-bir mamlakatning xorijiy valyutalardagi mablag‘lari.

Valyuta interventsiyasi - Markaziy bank tomonidan milliy valyutaning favqulodda yuzaga keladigan keskin tebranishlariga barham berish maqsadida xorijiy valyutani sotib olinishi yoki sotilishi. Odatda, bitta xorijiy valyuta interventsiya vositasi hisoblanadi. O‘zbekistonda AQSh dollari valyuta interventsiyasi vositasi hisoblanadi.

Valyuta kursi - bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosidir.

Valyuta siyosati - valyuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish tadbirlarining yig‘indisi.

Globallashuv - iqtisodiy taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrial bosqichiga o‘tish davrining mahsuli bo‘lib, jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichini ifodalovchi jarayon.

Geosiyosiy muvozanat - ma’lum bir hududdagi mavjud siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish.

Giperinflyatsiya - tovarlar bahosi va pul massasining yuqori sur’atlarda oshib ketishi. Giperinflyatsiyada baholarning oylik o‘sish sur’ati 50 foizni va undan yuqori bo‘ladi.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor - jahon mamlakatlari o‘rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo‘jalik tarzida amal qilishga asoslangan munosabatlar.

Davlat qarzi - davlatning to‘lanmagan zayomlar va ularning berilmagan foizlarini aks ettirgan barcha qarzlarining umumiy summasi. Davlat qarzi ikki xil bo‘ladi: ichki va tashqi qarz.

Davlat suvereniteti - davlatning boshqa davlatdan, uning ichki va tashqi ishlari hamda tashqi munosabatlarida to‘la mustaqilligi. Suverenitet davlat hokimiyatining muhim belgisi sanaladi.

Devalvatsiya - milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qadrsizlanishi.

Demarkatsiya (fran. Chegaralarni o‘rnatish) – u yoki bu mulohazaning ilmiy yoki noilmiyligini aniqlash mezoni.

Demokratiya - konstitutsiyaviy tuzumning xalq hokimiyatchiligi va siyosiy plyuralizm, fuqarolarning erkinligi va tengligi, inson huquqlarining daxlsizligi kabilarini e’tirof etishga asoslangan davlatning siyosiy rejimi.

Denominatsiya - yangi pul birligini ma’lum nisbatda eski pul birligiga almashtirilishi. O‘zbekistonda milliy valyuta 1994 yilning 1 iyulidan boshlab muomalaga kiritilganda yangi valyuta so‘m eski valyuta-so‘m – kuponga 1ga 1000 nisbatda almashtirilgan edi.

Denonsatsiya (fr. Denouncer – bekor qilmoq) - xalqaro shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi. Denonsatsiya shartnomaning o‘ziga muvofiq yoki xalqaro huquqning boshqa normalariga ko‘ra amalga oshiriladi. Denonsatsiya shartnomaning buzilishi hisoblanmaydi, balki shartnomaning huquqiy bekor qilinishi hisoblanadi.

Deflyatsiya - tovarlar va xizmatlar bahosining pasayishi.

Diversifikatsiya - ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar

faoliyati sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish.

Diniy bag‘rikenglik - turli din vakillari e’tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat’iy nazar, ularning yonma-yon va o‘zaro tinch totuv yashashi hamda har bir diniy ta’limotga hurmat bilan qarash.

Diniy ekstremizm - jamiyat uchun an’anaviy bo‘lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid bo‘lgan g‘oyalarni aldov va zo‘rlik bilan targ‘ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyot; diniy tashkilotlardagi o‘ta mutaassib guruhlarning ashaddiy reaktsion, dinni niqob qilib olgan, uning qonun-qoidalariga mafkuraviy tus berib, undan o‘zlarining strategik geosiyosiy maqsadlariga erishish yo‘lida foydalanishga qaratilgan diniy-siyosiy hodisa.

Davlat-xususiy sheriklik - davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi.

Diskont siyosati - mamlakat to‘lov balansi va valyuta kursiga ta’sir etish maqsadida Markaziy bankning diskont stavkasini o‘zgartirish siyosati.

-

ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish. Diversifikatsiya o‘zgarishlar bilan bevosita uyg‘unlashgan.

-

ya strategiyasi korxonalarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng yetakchi zamonaviy tendensiyalaridan biri hisoblanib, u orqali korxonalarning bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo‘lgan mahsulotlar liniyalarini ishga tushirish, qo‘shma korxonalar tuzish, boshqa

Favqulodda vaziyat - odamlar qurbon bo‘lishiga, ularning sog‘lig‘i yoki atrof-muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat.

Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YeTTB) bosh bo‘limi Londonda joylashgan bo‘lib,1990 yil 29 maydagi kelishuvga asosan Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarini bozor iqtisodiyotiga o‘tish bo‘yicha islohotlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan xalqaro moliyaviy tashkilot.

Yoshlarga oid davlat siyosati - davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizmi.

Yoshlar (yosh fuqarolar) - o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar.

Yosh oila - er-xotinning ikkisi ham o‘ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o‘ttiz yoshdan oshmagan yolg‘iz otadan yoki yolg‘iz onadan iborat bo‘lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan beva erkak (beva ayol).

Yosh mutaxassis - oliy yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasini bitirgan, ta’lim muassasasini bitirganidan so‘ng olgan ixtisosligi bo‘yicha uch yil ichida ishga kirgan va ma’lumoti to‘g‘risidagi hujjatda ko‘rsatilgan ixtisosligi bo‘yicha ishlayotganiga uch yilda ko‘p bo‘lmagan o‘ttiz yoshdan oshmagan xodim.

Yoshlar tadbirkorligi - yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta’sischilari yosh fuqarolar bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati.

Yoshlar va bandlik - ijtimoiy etuklikka erishish davrini boshdan kechirayotgan o‘n besh yoshdan o‘ttiz yoshgacha bo‘lgan ijtimoiy demografik guruhlarning ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilganlik muammosi.

Jahon banki guruhi - Birlashgan millatlar tashkilotining ixtisoslashgan moliya instituti hisoblanib, asosiy maqsadi ishlab chiqarish kapital qo‘yilmalari uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro uzoq muddatli investitsiyalar oqimini rag‘batlantirishdan iborat.

Harbiy mojaro - davlatlar o‘rtasidagi yoki davlatning ichki qarama-qarshiliklarini harbiy kuch qo‘llagan holda hal etish shakli bo‘lib, bu qurolli kurash olib borishning barcha turlarini, shu jumladan urushlar va qurolli mojarolarni qamrab oladi.

Harbiy tajovuz - O‘zbekiston Respublikasining suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va davlat mustaqilligiga qarshi harbiy kuchni qo‘llash.

Harbiy xavfsizlik - milliy manfaatlarning harbiy sohada davlat xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlardan himoyalanganlik holati.

Iqtisodiy xavfsizlik - iqtisodiy kategoriya bo‘lib, iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarning himoyalangandagi holatini ifodalaydi.

Iqtisodiy sohadagi terrorizm - terrorchilarning iqtisodiy manfaatga erishish maqsadida raqiblariga, aholining turli qatlamlari va guruhlariga, davlatlar va ularning boshliqlariga ta’sir o‘tkazishi.

Ijtimoiy terrorizm - jinoyatchilik miqyoslarining kengayishi, kriminal vaziyatning keskinlashuvi, umumiy ijtimoiy beqarorlikning vujudga kelishi.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezoni - iqtisodiy xavfsizlikning mohiyatini ifodalovchi muhim jarayonlar nuqtai nazaridan iqtisodiy holatni baholash.

Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko‘rsatkichlari - iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarning miqdor jihatdan ifodalanishi.

Ijtimoiy investitsiyalarga inson salohiyatini, ko‘nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek nomoddiy ne’matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

Investitsiyalar - iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar;

Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik (MIGA)- investor va kreditorlarga siyosiy risklarlarni sug‘urtasi va rivojlanayotgan mamlakatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishda yordam berish maqsadida kreditlar sifatini oshirish xizmatlarini ko‘rsatadi.

Investitsion bahslarni tartibga solishning xalqaro markazi (ICSID)- investitsion bahslarni arbitrajda ko‘rib chiqilishi va tartibga solishning xalqaro mexanizmlarini ta’minlaydi.

Investitsion muhit - muayyan mamlakatga (yoki hududga) investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlar mavjudligining ijobiy yoki salbiy tomonlarini anglatadi.

Investitsiya faoliyati - investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisi - investorning buyurtmalarni bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta’minlovchi investitsiya faoliyati subyekti.

Investor - o‘z mablag‘larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag‘larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;

Innovatsiya investitsiyalariga yangi yoki takomillashtirilgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), ishlab chiqarish jarayonini, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda yangi marketing uslubini yoki tashkiliy uslubni ishlab chiqish va o‘zlashtirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

Ichki tahdidlar - mamlakat ichida vujudga keladigan tahdidlar.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash taktikasi - tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash borasida aniq bir chora -tadbirlarni qo‘llash.

Iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi - uzoq muddatli istiqbolda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash borasidagi maqsad va vazifalar yig‘indisi.

Inflyatsiya - tovarlar va xizmatlar bahosining oshishi natijasida muomalada ortiqcha pul massasini paydo bo‘lishi va shuning asosida pulning qadrsizlanishi.

Islom - so‘zi arabcha bo‘lib, ”xudoga o‘zini topshirish”, “itoat”, “bo‘ysunish” ma’nosini anglatadi.

Islom taraqqiyot banki (ITB) 1973 yilda tashkil etilib, asosiy maqsadi a’zo-mamlakatlar va musulmon uyushmalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yordam berishdan iborat.

Iqtisodiy samara - qo‘yilgan kapitalning investitsiyalash natijasida olingan natijasi bo‘lsa, iqtisodiy samaradorlik esa olingan iqtisodiy samara eki investitsiya natijasida olingan foyda bilan investitsiya miqdori o‘rtasidagi munosabatni bildiradi

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash - ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma’naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi jarayon.
- iqtisodiyotning bevosita moddiy ne’matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq sohasi bo‘lib, u o‘z ichiga sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport,

Iqtisodiy o‘sish - real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning o‘sishi.

Korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi - ma’muriyat va personal tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy- iqtisodiy va injener – texnik chora – tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarning ichki va tashqi xavf – xatarlardan himoyalanganlik holati.

Kapital investitsiyalarga asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiyalashga, rekonstruktsiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

“Korrupsiya” - lotincha (corruptio) so‘zidan olingan bo‘lib, buzilish degan ma’noni anglatadi. korrupsiya – xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisa va xufyona iqtisodiyotning ko‘rinishidir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish - korrupsiyaga oid holatlarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek korrupsion jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini

va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida chora-tadbirlar amalga oshirish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi - korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish komissiyasi.

Kiberjinoyatchilik - axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi.

Kibermakon - axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhit;

Kibertahdid - kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soluvchi shart-sharoitlar va omillar majmui.

Kiberxavfsizlik - kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati.

Kiberxavfsizlik hodisasi - kibermakonda axborot tizimlarining ishlashida uzilishlarga va (yoki) ulardagi axborotning ochiqligi, yaxlitligi hamda undan erkin foydalanilishining buzilishiga olib kelgan hodisa.

Kiberxavfsizlik obyekti - axborotning kiberhimoya qilinishini hamda milliy axborot tizimlari va resurslarining kiberxavfsizligini ta’minlashga doir faoliyatda foydalaniladigan axborot tizimlari majmui, shu jumladan muhim axborot infratuzilmasi obyektlari.

Kiberxavfsizlik subyekti - milliy axborot resurslariga ega bo‘lish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish hamda ulardan foydalanish bo‘yicha elektron axborot xizmatlari ko‘rsatish, axborotni himoya qilish hamda kiberxavfsizlik bilan bog‘liq muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan yuridik shaxs va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan muhim axborot infratuzilmasi subyektlari.

Kiberhimoya - kiberxavfsizlik hodisalarining oldini olishga, kiberhujumlarni aniqlashga va ulardan himoya qilishga, kiberhujumlarning oqibatlarini bartaraf etishga, telekommunikatsiya tarmoqlari, axborot tizimlari hamda resurslari

